


IN VOLUME #1
ISSUE#8,
NOVEMBER 2023

ISSN: 2992-8869



JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN

- Exact Sciences
- Natural Sciences
- Technical Sciences
- Pedagogical Sciences
- Social Sciences
- Philosophical Sciences
- Philology
- Economics
- Agriculture
- Psychological Sciences
- Medical Sciences



Research Science and
Innovation House

OJS / PKP
ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER



www.universalpublishings.com



“RESEARCH SCIENCE AND INNOVATION HOUSE” MCHJ

JOURNAL OF SCIENCE RESEARCH

**Research Science and
Innovation House**

**VOLUME 1, ISSUE 8,
2023. NOVEMBER**

Tel: +998930901912

Web sayt: <http://universalpublishings.com> Email: sabirovj75@gmail.com

«Journal of science-innovative research in Uzbekistan» ilmiy-uslubiy jurnali:

30.11.2023 yil.

Ushbu to‘plamda « Journal of science-innovative research in Uzbekistan » ilmiy-uslubiy jurnali 2023 yil 1-soni 8-qismiga qabul qilingan maqolalar nashr etilgan.

Jurnal tarkibidagi barcha maqolalarga DOI unikal raqami biriktirilib, **Directory of Research Journals Indexing, Researchbib, Index Copernicus, Zenodo, Open Aire, Google Scholar** xalqaro ilmiy bazalarida indekslandi.

OAK tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan jurnallar ro‘yxatidagi milliy jurnallarda chiqarilgan maqolalar sifatida rasman tan olinadi.

Asos: O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiyasi komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro‘yxati 3-sahifasi. – Toshkent: 2019. – 160 b.

Jurnal materiallaridan professor-o‘qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistrantlar, talabalar, litsey-kollejlar va maktab o‘qituvchilari, ilmiy xodimlar hamda barcha ilm-fanga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Eslatma! Jurnal materiallari to‘plamiga kiritilgan ilmiy maqolalardagi raqamlar, hisobotlar, ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

“RESEARCH SCIENCE AND
INNOVATION HOUSE” MCHJ



TAHRIRIYAT

Bosh muharrir, Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul kotib: Sobirov Javoxir Xayrulla o‘g‘li Urganch davlat Universiteti talabasi

Nashrga tayyorlovchi: Eshqorayev Samariddin Sadridin o‘g‘li Termiz muhandislik-texnologiya instituti talabasi.

TAHRIR KENGASHI A’ZOLARI

Rahimov Rahimboy Atajanovich, Urganch davlat universiteti professori, Texnika fanlari doktori, Rossiya tabiiy fanlar akademiyasining Akademigi

Isayev Sabirjan Xusanbayevich, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, Irrigatsiya va melioratsiya kafedrası, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor.

Matyakubov Baxtiyar Shamratovich, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti” milliy tadqiqot universiteti, “Irrigatsiya va melioratsiya” kafedrası professori, qishloq xo‘jaligi fanlari doktori, professor

Matsaidova Sayyora Xudayberganovna, Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti, Geografiya kafedrası, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Xamroyev Muxtor Ozodovich, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrası, Geografiya fanlari nomzodi, dotsent

Matchanov Otabek Jumanazarovich Urganch Davlat Universiteti, Texnika fakulteti Geodeziya, Kartografiya, kafedrası Dotsenti. Yo‘nalish - Tabiiy Geografiya

Djumaniyazava Muhayyo Xusinovna, Urganch davlat Universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrası dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Djumayev Mamanazar Irgashevich Pedagogika fanlari nomzodi, professor Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Boshlang‘ich ta‘limda matematika va uni o‘qitish metodikasi kafedrası , professori p.f.n.

Qandov Bahodir Mirzaevich Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti milliy g‘oya, ma‘naviyat asoslari va huquq ta‘limi kafedrası PhD, dotsenti

Samandarov Ergash Iskandarovich, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Ekologiya va xayot faoliyati xavfsizligi kafedrası, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dosent

Egamov Baxtiyor Nurmetovich, Urganch davlat universiteti, “Iqtisodiyot” kafedrasida dotsenti, iqtisod fanlari nomzodi.

Rajabov Alibek Xushnodbekovich, Urganch davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasida, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Babajanova Sanabar Yuldashbayevna, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasida, qishloq xo‘jaligi fanlari bo‘yicha falsafa doktori-PhD., dotsent.

Masharipov Adamboy Atanazarovich, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi” kafedrasida dotsenti.

Ismoilova Himoyat Matnazarovna, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrasida, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismayilova Intizar, Urganch davlat Universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti Biologiya kafedrasida, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent

Razakova Rayxan Saylaubekovna Urganch davlat universiteti Pedagogika fakulteti Pedagogika va psixologiya kafedrasida dotsenti, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, PhD.

Ataullayev Zokir Maxsudovich, Urganch davlat universiteti, kimyo kafedrasida, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD), kimyo kafedrasida dotsenti

Raximova Xolisxon Maksudovna, Urganch davlat universiteti, Biologiya kafedrasida, biologiya fanlari falsafa doktori (PhD), dotsent

Axmedova Ma'rifat Abdullayevna Urganch davlat universiteti Tarix fakulteti O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi kafedrasida dotsenti

Raximova E'tibor Rustamovna, Urganch davlat universiteti, “Pedagogika va psixologiya” kafedrasida o‘qituvchisi, psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Parda Alimov, Termiz davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Mardonova Lobar Umaraliyevna, Termiz davlat pedagogika instituti, O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Tajiyev Zokirjon Rajabovich, Urganch davlat universiteti Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti “Biologiya” kafedrasida, qishloq xo‘jaligi fanlari nomzodi, dotsent.

Atadjanov Ilhom Sharipovich Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti. Geografiya kafedrasida dotsenti

Raximova Go‘zal Yuldashovna, Urganch davlat universiteti, Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrasida mudiri, PhD

Xamidov Abdumalik Kironovich, Termiz davlat pedagogika instituti, o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Matchanova Aybibi Erkinovna, Urganch davlat universiteti, Geografiya kafedrasini, geografiya fanlari falsafa doktori (PhD)

Ashurbayeva Rukiya Kaxxorovna, Pedagogika fanlari nomzodi (PhD) Buxoro davlat tibbiyot instituti o‘zbek tili va adabiyoti, rus tili, pedagogika, psixologiya kafedrasini PhD assistenti

Narzullayeva Dilfuza Saitovna Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Buxoro muhandislik-texnologiya instituti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti

Kazimova Gulnora Xakimovna falsafa fanlari nomzodi, Buxoro muxandislik-technologiya instituti Ozbek tili va adabiyoti kafedrasini dotsenti

Sapayeva Rayxon Bobojonovna Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) Urganch davlat universiteti, "Roman-german filologiyasi" kafedrasini katta o‘qituvchisi (PhD)

Bahodirova Feruza Bahodir qizi Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) UrDU Roman-german filologiyasi kafedrasini PhD, dotsenti

Eshchanova Aziza Karriyevna, Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti, Kimyo kafedrasini, kimyo fanlari falsafa doktori (PhD), katta o‘qituvchi

Sadikova Saboxat Babayevna, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrasini, kimyo fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b

Azizjanov Xushnud Maksudovich, Urganch davlat universiteti, Kimyo kafedrasini, kimyo fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Allabergan Kutlimuratovich, Urganch davlat universiteti, Tabiiy va qishloq xo‘jaligi fanlari fakulteti, Geografiya kafedrasini o‘qituvchisi.

Kuchkarova Dilbar Pirlapasovna, Urganch davlat universiteti geografiya fani o‘qituvchisi.

Atabayeva Mavjuda Rustamovna, Urganch Davlat Universiteti qoshidagi akademik liseyi Oliy toifali geografiya fani o‘qituvchisi

Raximova Anamoy, Qo‘shko‘pir tumani 25-son umumiy ta’lim maktabi Manaviy ma’rifiy ishlar direktori o‘rinbosari. Geografiya fani o‘qituvchisi

**OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ASTRONOMIYA KURSIDAN
MASHG'ULOTLARNI O'QITISHDA VA TALABA KOMPETENTLIGINI
OSHIRISHDA INTEGRATSIYALASHGAN INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISHNING MUAMMO VA
ISTIQBOLLARI**

**Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor qizi- Navoiy davlat pedagogika instituti
dotsenti**

A.M.Bozorova- Navoiy davlat pedagogika instituti talabasi

Kalit so'zlar: Oliy ta'lim muassasasi, kompetentlik, pedagogika, astronomiya, texnologiya ,innovatsion

Annotatsiya: Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayoni fanlarning mazmunida ham, o'qitishning usullari, vositalari va shakllarida ham namoyon bo'ladi.

**ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ ВНЕДРЕНИЯ
ИНТЕГРИРОВАННЫХ ИННОВАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В
ПРЕПОДАВАНИИ И ПОВЫШЕНИИ КОМПЕТЕНТНОСТИ
ОБУЧАЮЩИХСЯ ПО КУРСУ АСТРОНОМИИ В ВЫСШИХ
УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ**

**Сайфуллаева Гулхаё Ихтиёр кизи- Доцент Навоийского
государственного педагогического института
Бозорова А.М.- студентка Навоийского государственного
педагогического института.**

Ключевые слова: высшее учебное заведение, компетентность, педагогика, Астрономия ,технологии, инновации

Аннотация: процесс использования инновационных технологий в высших учебных заведениях проявляется как в содержании дисциплин, так и в методах, средствах и формах обучения.

PROBLEMS AND PROSPECTS FOR THE INTRODUCTION OF INTEGRATED INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN THE TEACHING OF CLASSES FROM THE ASTRONOMY COURSE IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS AND INCREASING STUDENT COMPETENCE

**Sayfullaeva Gulkhayo Ikhtiyor kizi- Associate professor of Navoi State
Pedagogical Institute**


A.M. Bozorova is a student of the Navoi State Pedagogical Institute

Keywords: higher education institution, competence, pedagogy, Astronomy, Technology, Innovation

Annotation: the process of using innovative technologies in higher education institutions is manifested both in the content of subjects and in the methods, tools and forms of teaching

Oliy ta'lim muassasasi talabalarni yillar davomida o'qitish, bilimni oshirish bilan birga ularni turli faoliyat turlariga yo'naltirishi, o'z istaklariga erishishga yordamlashishi lozim. Biroq bugungi kunda mamlakatimizda joriy qilingan oliy ta'lim tizimi juda keng maqsad yo'lida harakat qiladi. Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion texnologiyalardan foydalanish jarayoni fanlarning mazmunida ham, o'qitishning usullari, vositalari va shakllarida ham namoyon bo'ladi. Oliy pedagogik ta'lim muassasalari talabalarida kasbiy tayyorgarlikni shakllantirish va uni rivojlantirish, mazkur jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Yangilangan ta'lim tizimini joriy etishda har bir o'qituvchining o'z faniga va barkamol avlod ta'lim-tarbiyasiga oid yangiliklarni muntazam o'rgana borib, ularni o'z mehnat faoliyatida izchil qo'llay bilish mahoratiga ega bo'lishi bugungi kunning muhim talabidir. Bugungi davr dunyo ta'limi oldiga ham katta vazifalarni qo'yimoqda. Bunda qo'yilgan asosiy talab yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, tez o'zgarayotgan dunyoga moslashishni o'rgatishdan iboratdir. Shu bilan birga o'quv-tarbiya jarayoniga ta'limning innovatsion shakllari va usullarini joriy etishga qaratilgan.

***Oliy ta'lim mazmuni va innovatsion texnologiyalarni qo'llash algoritmi.
(Fanlararo o'qitishda talaba jarayon va hodisalarni ongli ravishda tahlil
qiladi, modellashtiradi va innovatsion texnologiyalar bo'yicha bilimi
rivojlanadi).***



Yuqorida keltirilgan chizmada fanlararo o'qitishda talaba turli jarayon va hodisalarni ongli ravishda tahlil qilishni, modellashtirishni va innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanishni rivojlantirishini namoyon etadi.

O'quv-tarbiya jarayonida bilim, ko'nikma, malaka va umumiy kompetensiyalarning shakllanganligini nazorat qilish muhim o'rin egallaydi. Xususan, nazorat funksiyalari bir qator vazifalar va talablarni keltirib chiqarishi mumkin. Talabalar bilimni nazorat qilish va baholashni to'g'ri yo'lga qo'yish, ularda o'tilgan fanlarga nisbatan ijodiy yondashish, mustaqil fikrlash, o'z bilimni doimiy ravishda oshirish, adabiyotlardan keng foydalanishni yo'lga qo'yish demakdir. Shu bilan birga, o'qituvchi va talaba o'rtasidagi uzviy bog'lanishni yuzaga keltiradi, yana o'qitishning o'zaro aloqador ikki vositasini yuzaga keltiradi. Bunda professor-o'qituvchilarning ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga puxta tayyorgarlik ko'rishi, baholashga doir me'yor va mezonlarni, savolnomalar, test savollari va turli boshqotirmalar hamda tayanch tushunchalarni tuzishdagi mas'uliyatli yondashish va tinimsiz mehnati yotadi.

2020-2021 o'quv yilidan boshlab respublika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish tartibi joriy etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktyabrdagi farmoni bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha

rivojlantirish konsepsiyasi”ga ko‘ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Unga ko‘ra, universitetda o‘tiladigan har bir fan endilikda undagi o‘qish yuklamasi miqdoriga qarab, kreditlarda aks etadi. Masalan, har bir fan o‘rtacha 5, 6 yoki 7,5 kreditlarda aks etishi mumkin. Talaba esa har semestr, o‘quv yilida muayyan miqdorda kreditlar to‘plab borishi mumkin va bu miqdorga qarab, unga bakalavr yoki magistr darajasi beriladi.

ECTS – Yevropa Kredit Transfer Tizimi 1989 yilda asos solingan bo‘lib, Yevropa davlatlari tomonidan ishlab chiqilgan, tekshirilgan va takomillashtirilgan kreditlarni taqsimlash tizimidir. ECTS tizimida talaba olgan bilimining bahosini bir davlatdan (OTMdan) ikkinchi davlatga (OTMga) erkin ko‘chishini, erishilgan ko‘nikma va malakasini erkin tan olinishini, pirovardida barchasini hisobga olib daraja (diplom) olishini nazarda tutuvchi tizimdir. ECTS tizimida ta‘lim olishning barcha turlari (kunduzgi, kechki, sirtqi, masofaviy) va o‘quv yuklamasining barcha ko‘rinishlari (ma‘ruza, amaliyot, laboratoriya v.h) uchun qo‘llanilishi mumkin

Kredit-modul tizimida 1 kredit o‘rtacha 25-30 akademik soatlik o‘quv yuklamasiga teng. Ya‘ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni to‘plashi uchun ma‘lum miqdordagi o‘quv yuklamasini o‘zlashtirishi zarur. O‘quv yuklamasi bakalavriatda- 40-50% auditoriya soati, 50-60% mustaqil ish soatiga, magistraturada- 30% -40% auditoriya soati, 60-70% mustaqil ish soatiga (malakaviy amaliyot va bitiruv malakaviy ishlari bundan mustasno) bo‘linadi. Oliy ta‘lim muassasasi kengashi tomonidan kreditning soatlardagi miqdori va o‘quv yuklamasi miqdori belgilanadi va oliy ta‘lim muassasasi veb-sahifasida shaffof tarzda joylashtirilishi kerak bo‘ladi.

Research Science and Innovation House

Adabiyotlar ro'yxati

1. G. I. Sayfullayeva, N.T. Namozova // Fizikani o'qitishda keys- stadi metodining echimi va tahlili qilish varianti// Central asian research journal for interdisciplinary studies 2022 y

2. G. I. Sayfullayeva, H.R. Shodiev // Masofaviy ta'limda Yer mavzusini integratsin yondashuv asosida topish metodikasi Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences (JARTES) 2022 y

3. G. I. Sayfullayeva, S.X. Mirzaqandova // The solution and analysis option of the case studies method in teaching the subject of kepler's laws from astronomy// Neuroquantology | october 2022 | volume 20 | issue 12 |page 3170-3174| doi: 10.14704/nq.2022.20.12.nq77320

4. G. I. Sayfullayeva, O'.K. Sunnatova // Astronomiyadan Kepler qonunlari mavzusini o'qitishda Keys- stadini metodini echimi va tahlil qilish varianti //International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada <https://econferencezone.org> 27th Nov. 2022

5. G. I. Sayfullayeva, S.Q. Qahhorov // Fizika va astronomiya fanini o'qitishda integratsiyalashgan yondashuv// Fizika fanini axborot va innovatsion texnologiyalar muhitida o'qitishning zamonaviy tendensiyalari: Muammo va yechimlar mavzusidagi Respublika ilmiy- amaliy anjumani 24- noyabr 2022 y

6. G. I. Sayfullayeva, A.M. Bozorova // Quyosh sistemasi va Quyosh mavzusini STEM ta'lim tizimidan foydalanib o'qitishning afzalliklari // Development and innovation scientific online journal 2022 y

7. Bakhreddinova, G. M. (2020). The interactive methods and principles of foreign language teaching. *International Journal on Integrated Education*, 3(1), 77-79.

8. Ганиханова, М. Б. (2019). Методика обучения английскому языку студентов технического направления на основе медиатехнологий. *Проблемы современной науки и образования*, (1 (134)), 60-63.

9. Khalismatov, I., Zakirov, R. T., Zakirov, A. A., & Ganikhanova, M. B. (2020). Features of the operation of watering gas wells in the Shimoliy Berdakh field. *International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology*, 7(12), 15932-15936.

10. Ganikhanova, M., Saydikramova, U., & Khamraeva, N. (2020). Features Neoteric Of Teaching Foreign Languages Making Use Of Hi-Tech Technologies For Students Of Polytechnic Higher Education Establishments In The Republic Of Uzbekistan. *International Journal of Scientific and Technology Research*, 9(4), 3220-3225.

11. Ganikhanova, M. (2018). ISSUES OF LINGUISTICS. *Интернаука*, (7-2), 30-31.

12. Ganikhanova, S. (2018). To The Study Of History And Theory Musical Applied Genres. *Eurasian music science journal*, (1), 1-6.

13. Ganihanova, M. B. (2021). ORGANIZATION AND IMPLEMENTATION OF THE ORGANIZATION OF PEDAGOGICAL EXPERIMENTS. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 2(12), 130-133.

14. Ганиханова, М. (2021). A model of teaching english to students of technical universities based on media technologies. *Общество и инновации*, 2(11/S), 210-214.

15. Ганиханова, М. (2021). Methodological support of training future engineers based on media technologies. *Общество и инновации*, 2(11/S), 215-219.

16. G. I. Sayfullayeva, A.M. Bozorova // STEM ta’lim tizimidan foydalanib Quyosh sistemasidagi sayyoralar mavzusini o’qitish// Development and innovation scientific online journal 2022 y

17. G. I. Sayfullayeva, A.M. Bozorova // Astronomiyadan STEM dasturidan foydalanib quyosh soati mazusini o’qitish// Yosh tadqiqotchi jurnali 2022 y

1
8
.
2
0
.
Research Science and
Innovation House

// Teaching the subject of the heliocentric theory of the universe using the stem education system// Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences 2022 y

9

.

/

/

Iduzlar osmonining surilma xaritasi mavzusini o’qitish// Pedagog respublika ilmiy jurnali 2022 y

/

NUTQ RIVOJLANISHIDA TEZ AYTISHLARNING O‘RNI

Xaytboyeva Muxlisa

UrDU Filologiya fakulteti Filologiya va tillarni

o‘qitish: o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 223-guruh talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar talaffuzini to‘g‘ri rivojlantirishda tez aytishlarning ahamiyati misollar asosida tahlil etilgan.

Kalit so‘zlar: tez aytish, talaffuz, tovush, so‘z, so‘z birikmasi, nutq.

Аннотация: В данной статье на примерах анализируется значение быстрого произношения в правильном развитии детского произношения

Ключевые слова: быстрая речь, произношение, звук, слово, фраза, речь

Annotation. In this article, the importance of rapid pronunciation in the correct development of children's pronunciation is analyzed with the help of examples.

Keywords: speaking quickly, pronunciation, sound, word, phrase, speech.

Bolalik davrida muloqotning qanday shakllanganligi kishining umri davomida o‘z aksini ko‘rsatadi.

Insonning shaxs sifatida shakllanishida oilaning roli qanchalik muhimligi inkor qilinmaydigan haqiqat bo‘lgani kabi uning nutqi rivojlanishi ham ijtimoiy sharoit mahsulidir. “Ijtimoiy sharoit, - deb yozadi V.D.Bondaletov - xalq yashayotgan aniq tarixiy sharoit – ya’ni zamondir. U doim xalqning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy rivojlanishi darajasiga bog‘liqdir”[2].

Masalan buyuk bobokalonimiz Alisher Navoiy 26035 ta yangi so‘z ishlatgani va bu borada u jahonning ko‘zga ko‘ringan yirik vakillarilaridan bir qancha ko‘p yangi so‘zlarni qo‘llagan. Shoirning bunday natijaga erishishining eng birinchi sababi bu uning G‘iyosiddin xonadonida ya’ni saroy amaldori xonadonida tug‘ilgani, uning xonadonida tez-tez majlislar bo‘lgani va unda yosh Alisherning ham ishtiroki deb keltirish mumkin. Shoir tarjimayi holi bilan tanishar ekanmiz, uning 4-5 yasharlik vaqtida F.Attorning “Mantiq-ut tayr” asarini o‘qigani va hatto yod olganiga va umri oxirida unga javob tariqasida “Lison-ut tayr” asarini yozganiga guvoh bo‘lamiz. Demak, shaxs nutqining shakllanishi va rivojlanishida u yashayotgan muhit va yaratilgan shart-sharoitlar muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Zero, har qanday bino poydevordan ko‘tarilgani kabi yosh bolaning nutqi

shakllanishida tez aytishlarning o‘rni va rolini hech narsa bilan tenglashtirib bo‘lmaydi.

Xalqimizning bebaho mulki hisoblangan o‘zbek folklori qadim zamonlardan beri og‘izdan-og‘izga o‘tib xalqimiz bilan birga yashab kelmoqda. O‘zbek xalq og‘zaki ijodi qadimiy so‘z san’ati sifatida nafaqat chuqur g‘oyaviyligi, yuksak badiiyliigi, balki mazmundagi yorqinlik, tildagi soddaligi bilan ham ajralib turadi. Folklorning o‘xshash va farqli xususiyatlari hisobga olinib maqol, topishmoq, doston, askiya, lof, latifa va hokazo turlari shakllangan bo‘lib, shulardan biri tez aytishlardir. Qadimda “Tatal”, “Chalg‘ituv”, “Chalish”, “Adashish” atamaları bilan mashhur bo‘lgan tez aytishlar ayrim nutq tovushlarining ko‘p qaytarilishi yoki so‘z va iboralar tarkibida talaffuzni qiyinlashtiradigan darajada murakkab joylashishiga asoslanadi. “Tez aytishlar ma’lum so‘zni, so‘z birikmasini yoki tovushni to‘g‘ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga, nutqini o‘stirishga, o‘qish sur‘atini oshirishga, shu bilan birgalikda ko‘p raqamli sonlarni xotirada mustahkamlashga o‘rgatuvchi janr hisoblanadi. Qadimgi qoidalarga binoan tez aytishni bir nafas olish bilan aytish talab qilingan”. [3]

Tez aytishlardan samarali foydalanish bolalarning nutqini ravon qilishda katta ahamiyat kasb etadi. Maktab yoshidagi va boshlang‘ich sinflarda tahsil olayotgan o‘quvchilarning nutqini ravon qilish juda muhimdir. Chunki bolalarning hozirgi zamon talablari asosida jamiyatimizda faolligini ta‘minlashda nutq ravonligining o‘rni beqiyos. Nutq insonlar aro aloqa vositasi bo‘lganligi uchun ham har bir yosh avlodni nutqiy ko‘nikmalarini puxta egallashga o‘rgatish zamon talabidir. Quyida nutq ravonligiga ta’sir qiluvchi ayrim tez aytishlar xususida to‘xtalamiz.

Erkin egatga ertachi ekinni ertalab ekdi [4]

Mazkur tez aytishga e’tibor bersak, “e” unlisining takror qo‘llanilganiga guvoh bo‘lamiz. “e” unlisini talaffuz qilishda qiyinchilikka duch keladigan bolalarning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etishda foydalanish mumkin. Ma’lumki, qipchoq lahjasida so‘zlashuvchi aholi nutqida “e” tovushi bilan boshlanuvchi so‘zlar “ye” tarzida talaffuz qilinadi. Adabiy tilda so‘zlashishi qiyin bo‘lgan qipchoq lahjasi vakillari uchun ushbu tez aytish samarali hisoblanadi.

Tez aytish bolanig aynan qaysi unli yoki undosh tovushlarni aytishda qiynalishiga qarab tanlanadi. Masalan:

Ruxsor Ra’nodan ranjidimi?

Ra’no Ruxsordan ranjidimi?

Tez aytish “R” undoshi talaffuziga bag‘ishlangan. Bilamizki, ko‘pchilik bolalarda “r” tovushini “y” yoki “l” tarzida talaffuz qilish holatlari uchraydi. Bolalarga muntazam ravishda shunga o‘xshash tez aytishlarni mashq qildirib borish yaxshi samara beradi.

Yosh bolalarda talaffuz qilinishi qiyin bo‘lgan tovushlardan yana biri “sh” undoshidir. Ko‘p hollarda ushbu tovush “s” tarzida talaffuz qilinganining guvohi bo‘lamiz. Bu esa, albatta, nutqning g‘aliz bo‘lishiga, hatto ayrim so‘zlarning ma’nolari o‘zgarib ketishiga sababchi bo‘ladi. Ushbu tovushni to‘liq va ravon aytishni quyidagi tez aytish orqali o‘rgatish mumkin:

Qishda kishmish pishmashmish,
Kishmish pishsa, qishmashmish.

Mazkur tez aytish juda murakkab hisoblanib, bir nafasda takrorlash ancha qiyin. Bunday tez aytishlarni nutqida nuqsoni bo‘lgan yosh bolalarga qunt bilan o‘rgatish maqsadga muvofiqdir.

Nafaqat bolalarda, balki kata yoshli kishilar nutqida ham “k” va “q” tovushlarining aralashib ketishi uchraydi. Ayniqsa, o‘g‘uz lahjasi vakillari nutqida bu holat ko‘proq uchraydi. Ushbu tovushlarni mukammal talaffuz qilishni o‘rganish uchun quyidagi tez aytish samarali hisoblanadi:

Oq choynakka ko‘k qopqoq,
Ko‘k choynakka oq qopqoq.

Umuman, nutqiy rivojlanishda tez aytishlarning ahamiyati beqiyos. Bolaning nutqiy qobiliyati shakllanishi hech qachon o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan muammolardandir. Chunki bolalar har tomonlama rivojlansa, jamiyat ham gullab-yashnaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Aqmanova Sh. Ontolingvistika – Urganch, 2018. – B.27.
2. Бондалетов В.Д. Социальная лингвистика. - М.: Просвещение. 1987. -С. 87.
3. Rahimova G., Shodiyev F. Bolalarga sonlarga o‘rgatishda xalq og‘zaki ijodining roli. ECLSS online 2020, Samarqand.
4. Topishmoq va tez aytishlar - saviya.uz

Omon Matjon ijodida metafora orqali ma’nosi ko‘chgan so‘zlarning ifodalanishi

Ilhombayeva Mahliyo

UrDU O‘zbek filologiyasi fakulteti:

o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi 223-guruh talabasi

ilhombayevamahliyo@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada Omon Matjon she’riyatida qo‘llangan ko‘chma ma’noli so‘zlarning metafora usulida ma’no ko‘chishi tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar. Ko‘p ma’nolilik, obraz, metafora, ko‘chma ma’no, kontekst, o‘xshashlik.

Абстрактный. В статье анализируется метафорическая передача значения. слов с переносным значением, используемых в поэзии Амона Маджона.

Ключевые слова. Двусмысленность, образ, метафора, метафора, контекст, сравнение.

Abstract. The article analyzes the metaphorical meaning transfer of words with a figurative meaning used in the poetry of Amon Matjon.

Keywords. Ambiguity, image, metaphor, metaphor, context, simile.

Tilimizdagi so‘zlarning juda kata qismi ko‘p ma’nolidir, chunki kishilar o‘zining kundalik hayotida yangi paydo bo‘lgan tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so‘zlar qo‘llayveradigan bo‘lsa, so‘zlarning soni o‘ta ko‘payib ketib, ularni xotirada saqlash mumkin bo‘lmay qolardi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qolgan bo‘lar edi. Shuning uchun ham har qaysi tilda sanoqli til birliklarining tilda ilgari mavjud bo‘lmagan turli xil kombinatsiyalaridan cheksiz tushuncha va fikrlarni ifodalashga harakat qilinadi. Ana shunday harakat tufayli tilda ilgari mavjud bo‘lgan so‘zlarga yangi-yangi ma’nolar yuklanadi. Natijada, ko‘p ma’noli so‘zlar maydonga keladi.¹

Badiiy ijodda shoir va yozuvchilar doimo so‘zlarni o‘z ma’nosidan tashqari yangicha ma’noda qo‘llashga intiladilar. Bu qonuniyatdir. Chunki so‘zlarning tasviriy imkoniyatlaridan mumkin qadar keng foydalanishga intilish, kutilmagan, g‘ayriodatiy, yangi obrazlar yaratish ehtiyoji, ifodani yangicha tarzda berish zarurati

¹ Маруза Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004.

ijodkorlarni ana shunday yo‘l tutishga undaydi. Shu ehtiyoj tufayli adiblarning dunyoqarashigagina xos bo‘lgan, faqat ularning asarlaridagina uchraydigan, umumxalq tilida ommalashib ketmagan so‘z ma‘nolari, favqulodda o‘zgacha qo‘llashlar- so‘zlarning ko‘chma ma‘nolari vujudga keladi. Shunday so‘zlardan mohirona foydalangan ijodkorlarimizda biri Xorazm diyorining atoqli adibi Omon Matjonidir.

Omon Matjon she‘rlarida so‘zlarning ko‘chma ma‘noda ishlatilishini ko‘proq fe‘l so‘z turkumida uchratishimiz mumkin. So‘zimizning isbotini Omon Matjonning “Eshigingda o‘taman...” she‘rida ko‘rishimiz mumkin:

Kuz **yoysa** ham yo‘llarga xazon,
Qor **ko‘msa** ham borliqni butun,
Ko‘klam kelib, **ursa ham xandon**,
Eshigingdan o‘turman bir kun.²

Baytga e‘tibor qaratsak o‘zgacha ma‘no ifodalayotgan so‘zlarga bir qarashda ko‘zimiz tushadi. Masalan, kuzning xazon yoyishi, qorning borliqni ko‘mishi va ko‘klamning xandon urib kulishi so‘zlarning matn ichida o‘z ma‘nosidan tashqaridagi ma‘nosini ifodalash uchun xizmat qilgan.

So‘zlardagi ko‘p ma‘nolilik hamda so‘z ma‘nolarining nozik attenkalari badiiy adabiyotda muhim tasviriy vosita sifatida, ayniqsa, keng qo‘llanadi. So‘zlarni to‘g‘ri ma‘nolaridan tashqari, xilma-xil ko‘chma ma‘nolarda qo‘llash bir necha turli bo‘lib, bular metafora, metanimiya, sinekdoxa hamda vazifadoshlikdir.³ Shular ichidan metafora badiiy adabiyotda juda keng qo‘llanadigan turi bo‘lib, she‘rlarda ko‘proq uchratishimiz mumkin.

Metafora (yunoncha metaphora-ko‘chirish, ko‘chirma, istiora)-o‘xshashlikka asoslangan ma‘no ko‘chishi bo‘lib, bunda narsa va hodisaning rang, shakl, harakat-holat xarakteri, o‘rin va paytga munosabati jihatdan o‘xshashligiga asoslanadi. ³ Metaforada ma‘no ko‘chishini ham shakliy, belgi, joylashgan o‘rin hamda harakat o‘xshashligiga ko‘ra ajratish mumkin.⁴

Xayolimda yashar bir nargis,
Alvon-alvon tong **va’da etar**.
Lekin uning alvon rangini

² O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot.- T.: 2001.

³ Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – Т.: 1969.

⁴Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – Т.: 1969.

Tongda quyosh **olar-da ketar**.⁵

“ Xayolimda yashar bir nargis...” misralari bilan boshlanuvchi she`ridagi fe`llarga qaraydigan bo`lsak matndan tashqarida o`zi bilan umuman ma`no hosil qilmaydiga so`zlar bilan birikkan. **Yashamoq** fe`li izohli lug`atlarda “ ma`lum muddat umr ko`rmoq; hayot kechirmoq; tirik yurmoq”⁶ kabi ma`nolarni anglatadi. Ammo bu yerda aynan o`zini ma`nosi emas, balki ko`chma ma`noda ya`ni metafora usulida ma`no ko`chishini hosil qilgan. Bu yerdagi yashamoq fe`li “mavjud bo`lmoq, saqlanmoq” ma`nosida qo`llangan. **Va`da etmoq** fe`li “nimadir qilish qilmaslikka so`z bermoq”⁷ ma`nosida ishlatiladi. Aynan bu yerda ham shu ma`noda qo`llangan ammo insonga xos bo`lgan xususiyat tong so`ziga ko`chirilib ko`chma ma`no hosil qilgan. Oxirgi misradagi olar-da ketar so`zi esa quyoshga bog`lanib metafora hosil qilgan.

Bu og`och kimnidir sog`ingan,
Boshiga gulbargak taqmoqda.
Saharda uyg`onib, qaygadir-
Oyog`i uchida... boqmoqda

Yuqoridagi “Ayriliq” she`ridan olingan misralarda qo`llangan fe`llar ham ko`chma ma`noda metafora usulida ma`no ko`chishini hosil qilgan. Masalan, **sog`ingan, gulbargak taqmoq, uyg`onmoq, boqmoq** fe`llari insonga xos bo`lgan mavhum tusunchani ifodalaydi, ammo misralarda bu ma`no jonsiz narsalarga ko`chib ko`chma ma`no hosil qilgan.

Metaforda so`z ma`nos o`zgaradi, tushuncha yo tasavvur esa tamoman o`zgarmaydi, balki uning dastlabki ma`lum belgisi qolgan bo`ladi. Masalan, so`z san`atining boshi folklordir. Misolda keltirilgan bosh so`zi ko`chma ma`noda bo`lib paytga va o`ringa xos o`xshashlikni bildirib, badiiy adabiyotning boshlanishi, birinchi namunalari ma`nosida ishlatilgan.⁸ Xuddi shunday misollardan Omon Matjon ijodidagi “Kuz” she`ridan olingan parchada ham uchratishimiz mumkin:

Haq maqsadli odam doim bezovta,
Umidning yo`llari unga bo`lmas unga berk,
Go`yo eski lip-lip kinoda ota

⁵ O. Matjon. Maqsudam. Adabiyot.- T.: 2001.

⁶ Savodxon Izohli lug`ati. Savodxon@gmail.com. 2014

⁷ O`sha manba.

⁸ Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – Т.: 1969.

Beiz ketgan o‘g‘lin ilg‘ab qolgandek.⁹

Misralarga o‘zgacha ko‘rk va joziba baxsh etayotgan so‘zlardan biri umidning yo‘llari birikmasidir. Ushbu birikmadagi yo‘llari so‘zi umr so‘zi bilan birikib umrning o‘tayotgan vaqtga nisbatini hamda insonning o‘tib boraotgan kunlarini yo‘l deya ta‘riflaydi va shu yerning o‘zida metafora ma‘no ko‘chishidan foydalanadi.

Tishunosligimizda ko‘chma ma‘noli so‘zlardan foydalanishimiz tilimizni yanada boyishiga xizmat qiladi desak, adashmaymiz. Chunki so‘zlarning qancha ma‘no qirralarini ochib foydalanganimiz sari tilimizdagi so‘zlarning soni ham oshib boraveradi. Omon Matjon ham bitta so‘zni turli xil ma‘noda qo‘llagan. Garchi uning ma‘nosi o‘zi bog‘langan so‘z bilan nutq tashqarisida biror tushuncha ifodalama ham kontekstni ichida juda bir ma‘no nozikligini oshirish uchun xizmat qilgan. Yuqorida keltirgn misollarimiz esa hozirgi gapimizning yaqqol isboti bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Маруза Ж. Словарь лингвистических терминов. – М.: УРСС, 2004
2. О. Matjon. Maqsudam. Adabiyot.- T.: 2001.
3. Пинхасов. Хозирги узбек адабий тили. Укитувчи. – T.: 1969.
4. Savodxon Izohli lug‘ati. Savodxon@gmail.com. 2014.
5. О. Matjon. Odamning soyasi quyoshga tushdi. Yozuvchi. T.: 1991.

Research Science and
Innovation House

⁹ О. Matjon. Odamning soyasi quyoshga tushdi. Yozuvchi. T.: 1991.



Saida Zunnunova – hikoyanavis

Atanazarova Xusnora

UrDU O‘zbek filologiyasi fakulteti

o‘zbek tili ta’lim yo‘nalishi

223-guruh talabasi xusnoraatanazarova@gmail.com

Kalit so‘zlar: Saida Zunnunova, adabiyot, hikoya, obraz, jamiyat, qo‘llar, halollik, sadoqat, yolg‘izlik, xarakter.

Annotatsiya: Saida Zunnunova iste’dodli shoira, jozibali nasriy asarlar muallifi. Adibaning nasriy asarlaridagi o‘ziga xos uslub. Uning hikoyalarida jamiyatdagi masalalarning badiiy talqin qilinishi.

Insonni, uning ma’naviy olamini kashf etadigan qudratli vosita borki, u ham bo‘lsa, san’ati, badiiy adabiyotdir. Adabiyotni insonshunoslik deb, shoir va yozuvchilarni esa inson ruhining muhandislari deb atalishi bejiz emas.¹ Chunki adabiyot so‘z orqali insonlar qalbida mehr-muhabbat, g‘am-alam, quvonch va shodlik kabi tuyg‘ular to‘lqinini yaratadi. U inson qalbi va ruhidagi nozik tovlanish va ohanglarni ilg‘ashga, ularni so‘z vositasida aks ettirishga intiladi. Eng katta adabiyot bizning yuragimizda, ichimizda yashaydi. Dunyoda insonlar bir-birlariga o‘xshamaganlaridek, ularning qalb kechinmalari ham takrorlanmasdir. Inson tirik ekan, har doim tanlov qarshisida turadi. Xuddiki, ikki yo‘l orasidagi hikoya qahramoni kabi. Bu yo‘llardan biri ezgulik sari yetaklasa, biri esa tubanlik, yomon fazilatlar sari olib boradi. Albatta, bularning qay birini tanlash huquqi esa doim o‘zimizda. Shunday ekan, hayotda to‘g‘ri yo‘lni adashmay tanlay olishimizda adabiyotning o‘rni qay darajada deb o‘ylaysiz? Men insonlarga ezgulikni, hayotga muhabbatni, insoniy tuyg‘ularni, haqiqat va go‘zallik hissini badiiy asar orqali qiyomiga yetkazib tarbiyalash mumkinligiga ishonaman. Chunki adabiyot azaldan xalqimiz qalbiga singgan adolat va haqiqat jarchisidir. Bunda xalqimiz ma’naviyati yuksalishi uchun xizmat qilgan shoir va yozuvchilarning o‘rni katta. Iste’dodli shoira, jozibali nasriy asarlar muallifi Saida Zunnunova ham ma’naviyatimiz rivoji uchun hissa qo‘shgan zabardast qalam sohibalaridan biridir.

¹ Karimov.I Yuksak -ma’naviyat yengilmas- kuch . Manaviyat - T.: 2008.B-85



Adiba serqirra ijodkorlardan biri bo‘lib, nasrda ham nazmda ham samarali ijod qilgan. Shoiraning yoshlik sururi, Vatan shukuhi va mehnat nashidasini tarannum etuvchi, "Qizingiz yozdi" (1945), " Yangi she'rlar" (1950), " Gullar vodiysi" (1954), "Bir yil o‘ylari", " Qizlarjon"(1967) kabi she’riy to‘plamlari kitobxonlar tomonidan iliq qarshi olingan. Nasrda esa adibaning "Gulbahor" nomli hikoyalar to‘plami va "Gulxan" nomli qissasi chop etilgan. Ma’lumki, o‘zbek adabiyoti hikoyachiligining taraqqiyotida ajoyib hikoya ustalari Abdulla Qahhor, G‘afur G‘ulom, Said Ahmad va Shukur Xolmirzayev kabi bir qancha ijodkorlarning xizmatlari katta. Hikoya janri keyinchalik, o‘zbek adabiyotida jamiyat va taraqqiyot o‘sishi bilan rivojlana boshladi. Hikoya janri taraqqiyotiga Saida Zunnunova ham o‘ziga xos hissa qo‘shgan. So‘zlarga e’tiborli bo‘lish, tabiiylik, yasama so‘zlardan qochish, voqeani ochiq tasvirlash Saida Zunnunova hikoyalarining husnidir. Har bir yozuvchining darajasi u yaratgan xarakter va obrazlarga bog‘liq. Jumladan, adiba hikoyalarining qahramonlarida soddalik, poklik, insoniy tuyg‘ular ifori sezilib turadi. Uning hikoyalarida oila, turmush, ishchilar hayoti va jamiyatdagi turli masalalar yoritilgan. Aksariyat, hikoyalarining bosh qahramoni ayollardir. Badiiy asar yozuvchining voqelikka bo‘lgan badiiy va estetik munosabati. Jumladan, Biz uni o‘qir ekanmiz, qahramonlar hayotidagi voqealarga o‘zimizning munosabatimizni bildiramiz. Asardagi voqealar bizni o‘ziga tortmay qolmaydi. Yozuvchining o‘y-fikri, orzulari, istaklari asardagi obrazlar orqali aks etib turadi. Masalan, Saida Zunnunovaning "Yolg‘izlik" hikoyasida adiba yolg‘iz ayolning hayoti va turmush tarzini Iqbolxon obrazi orqali ochib berishga harakat qiladi. Bu hikoyada ayolning baxti, uning oilasi, farzandlari, yaqinlarisiz tugal bo‘lmasligi aytilgan. Hikoya qahramoni Iqbolxon farzandi baxtini ham o‘ylamay, ishi va obro‘si uchun oilasini barbod qiladi. To‘g‘ri, Iqbolxon oliy ma’lumotli, keyinchalik, fan doktori ham bo‘ladi, ammo, u farzandining hayotiga e’tibor qaratmay, uning bolaligini yo‘qqa chiqaradi. Biroq Iqbolxon xatolarini farzandi bilan ziddiyatga borgach anglab yetadi. U ish yuzasidan safarga ketganda ham, bolasi To‘lqinning: " Bolangizning o‘yinchoq‘ini yig‘ishtirmasangiz, eringizning ivirsig‘ini tozalamasangiz..."² degan so‘zlari uni hayolini tark etmaydi. Lekin u xatolarini anglab yetganda, afsuski, kech edi. Haqiqatan ham, Iqbolxon o‘sha paytlarda erining va farzandining ortidan yugurib ish qilishdan bosh tortgandi. Uning orzusida faqat obro‘ qozonish va fan doktori

² Zunnunova.S "Yolg‘izlik". Tanlangan asarlar . Sharq - T.: 2001.B-271

bo‘lish edi. U aspirant paytida Yo‘ldoshali ismli insonga turmushga chiqqandi. Afsuski, Iqbolxonning xudbinligi tufayli ular ajrashishadi. O‘rtada bola esa otasiz katta bo‘ladi. Bolasi To‘lqin o‘zining otasiz katta bo‘lishida onasining aybi borligini sezardi, lekin yurak yutib onasiga hech nima deyolmasdi. Iqbolxon o‘zining qilgan xatolarini kech anglab yetadi. Mukammal baxt uchun esa oila tashvishlari bilan birga farzandi erkaliklarini yengib o‘tishi kerak edi. Ko‘rib turganingizdek, ushbu hikoyada kundalik turmushda uchrab turadigan jonli voqealar qalamga olingan. Hikoya qahramoni bir tomonlama baxt topadi. Oilasini saqlab qolish uchun esa bir-birining muammolarini sabr bilan, birgalikda yengishlari lozim edi. Yozuvchi Saida Zunnunova jamiyat hayotidagi ana shunday oddiydek ko‘ringan, ammo shu tufayli bir qancha oilalarning ajralib ketishiga sababchi bo‘layotgan voqealarni mohirlik bilan tasvirlagan. Bundan tashqari adibaning "O‘kinch", "Ko‘chalar charog‘on", "Buvi", "Qarz", "Kechikish", "Qo‘llar" va "Ikki o‘t orasida" kabi yana bir qancha hikoyalari ham mavjud. Uning "Qo‘llar" nomli hikoyasida urush insonlarga naqadar ko‘p falokat keltirgani tasvirlanadi. Shu bilan birga, asarda yolg‘iz ayolning halol mehnati bilan baxtga erishgani ochib berilgan. Hikoya qahramoni Malika xolaning eri urushda vafot etadi, undan qoraxat keladi. Shunday og‘ir kunlarni boshidan kechirgan Malika xola o‘zining halolliqi, mehnatsevarligi, oilasiga mehri va sadoqati tufayli o‘zbek ayollarining tipik timsollari darajasida yoritib berilgan. Malika xola bir o‘zi o‘g‘lini halol mehnatlari bilan katta qiladi. O‘g‘lining to‘yi kuni qo‘lidagi uzugini yechib kelinining barmoqlariga taqar ekan: "Bu uzukni menga otangiz sovg‘a qilganlar, bugun uni sizga sovg‘a qilaman. Ziynat uchun emas, hurmat uchun taqing. Qo‘llaringiz mening qo‘llarimdek mehnatkash, halol bo‘lsin"³deya ta’kidlaydi. Ushbu so‘zlar orqali Malika xoladagi insoniy fazilatlarga yana bir bor guvoh bo‘lishimiz mumkin. Asarni o‘qigan kitobxon mehnatsevarlik insonga baxt keltirishini tushunib yetadi, urush yetkazgan ozorlardan nafratlanadi, tinchlik uchun shukronalar aytadi. Bundan tashqari adibaning har bir hikoyasidan kitobxon o‘ziga xulosa olishi mumkin. Chunki Saida Zunnunova hikoyalarining hozirgi yoshlarimiz qalbida insoniy fazilatlarni, sadoqat va mehr, halollik, mehnatsevarlik, vatanga muhabbat kabi tuyg‘ularni aks ettirishda tarbiyaviy ahamiyati katta. Saida Zunnunova she’riyatda qay darajada lirik asarlar yozib,

³ Zunnunova.S "Qo‘llar". Tanlangan asarlar . Sharq - T.: 2001.B-263



shuhrat topgan bo'lsa, nasrda ham shu qadar yuksak ijod qilganligini ushbu hikoyalari orqali bilib olishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda, Saida Zunnunova ijodi har bir kitobxonning qalbida ibrat ildizini qoldiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov.I. Yuksak-ma'naviyat yengilmas- kuch. Ma'naviyat - T.: 2008.B-85
2. Zunnunova.S "Yolg'izlik". Tanlangan asarlar. Sharq - T.: 2001.B-271
3. Zunnunova. S "Qo'llar". Tanlangan asarlar. Sharq - T.: 2001.B-263



Research Science and
Innovation House

Badiiy tarjima va bu jarayonda yuzaga keluvchi muammolar

Fayzulloeva Mashhura

NDPI magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarjima turlari, xususan, badiiy asarlar tarjimasini va bu jarayonda duch kelinishi mumkin bo‘lgan ayrim muammolar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: tarjima va uning turlari, badiiy tarjima, ritorik vositalar, atoqli otlar, terminologiya, manba til madaniyati.

Tarjima — bu muayyan tildagi hujjatlar, matnlar, qo‘lyozmalar, badiiy asarlardan tortib, maqol va iboralargacha bo‘lgan til birliklarini yangi bir tilda qayta yaratishdan iborat adabiy ijod turi. Tarjima millatlararo muloqotning eng muhim ko‘rinishlaridan hisoblanadi. Eng qadimgi jamoalar davridayoq kishilar orasidagi o‘zaro aloqa, muloqot ehtiyoji tufayli tarjima jarayoni yuzaga kelgan va bugunga qadar bu soha o‘z taraqqiyoti davomida sayqallanib, hayotimizning turli jabhalarida o‘zining beqiyos o‘rni va ahamiyatini kasb etib ulgurdi.

“Tarjima” tushunchasi ma‘lum matn yoki asarni bir tildan ikkinchi tilga o‘girish jarayonini, shuningdek, tayyor tarjima asarini anglatadi. XX asr o‘zbek yozuvchilaridan Cho‘lpon, G‘afur G‘ulom, Oybek, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzoda, Mirzakalon Ismoilov, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov va boshqalar tarjima sohasida barakali ijod qilishgan. Tarjimaning aynan badiiy tarjima sohasid M.Osim, N.Alimuhamedov, Sh. Shomuhamedov, K. Qaxdorova, O. Sharopov, Sh. Tolipov, V. Ro‘zimatov, Q.Mirmuhamedov, A.Rashidov, M.Hakimov, I.G‘afurov, M. Mirzoidov, T. Alimov va boshqalar professional tarjimon sifatida tanilganlar.

Bugungi kunda tarjimaning quyidagi turlari farqlanadi:

1. Ketma-ket tarjima
2. Vizual tarjima
3. Sinxron tarjima

Ketma-ket tarjima qilish bu bir tilda og‘zaki axborot berilgandan so‘ng uni boshqa tilga tarjima qilishdir. Tarjimon so‘zlovchining umumiy fikrlari yoki eng kamida asosiy aytilgan gaplarni tinglaydi va so‘ng tinglash chog‘ida yozib olingan

eslatmalar yordamida nutqni tarjima qiladi. Tarjimon soʻzlovchi nomida asliyatdan boshqa tilga ketma-ketlikda tarjima qilib boradi.

Vizual tarjima. Vizual tarjima qilish deb bir tilda yozilgan matnni boshqa tilga tarjima qilib oʻqishga aytiladi. Baʼzi tarjimonlar vizual tarjima qilishdan oldin oʻsha nutqning yozma shaklini koʻrib chiqadi. Tarjima qilish uchun ajratilgan joyda, matnni koʻrib, tarjima qilish, yozma matnni oʻqish kabi emas, balki ogʻzaki nutq singari eshitilishi kerak. Tarjimaning buturi boʻlajak tarjimonlarni tayyorlashda katta ahamiyatga ega. Vizual tarjima qilish boshqa tarjima turlariga qaraganda osonroq. Biroq, vizual tarjima qilishga qoʻshimcha sifatida tarjimon soʻzlovchi yozma matndan tashqariga chiqmayotganiga amin boʻlishi kerak.

Sinxron tarjimada tarjimon tarjima qilish uchun belgilangan joyda oʻtiradi va quloq eshitgich orqali soʻzlovchini tinglaydi. Soʻng tinglash chogʻida mikrofon orqali tarjima qiladi. Konferensiya xonasidagi delegatlar asosiy tilni quloqchinlar orqali tinglashadi. Sinxron tarjima imo-ishoralar orqali (kar va soqovlar uchun) ham bajarilishi mumkin. Soʻzlangan tildan imo-ishora tiliga tarjima qilinadi. Imo-ishorada tarjimonlar ular uchun belgilangan joylarda oʻtirishmaydi, ular soʻzlovchini koʻra oladigan va boshqa qatnashchilarga koʻrina oladigan konferensiya xonasida turishadi.

Badiiy tarjima oʻz nomidan koʻrinib turibdiki, romanlar, hikoyalar, sheʼrlar, bir soʻz bilan aytganda, barcha turdagi nasriy va nazmiy adabiy asarlarni tarjima qilishga qaratilgan. Gomer va Sofoklni maktabda klassik taʼlimning bir qismi sifatida oʻqish tarix, siyosat, falsafa va yana boshqa koʻplab fan sohalarini tushunishga yordam bersa, zamonaviy tarjimalarni oʻqish turfa xalqlar madaniyati, turmush tarzi, urf-odatlar, hayot falsafasi va qarashlari, qolaversa, shu mamlakat tabiati va boshqa oʻziga xosliklari haqida ajoyib taassurotlar uygʻotadi. Professional tarjimaning bu sohasi boshqa sohalarga nisbatan yuqori darajadagi ijodkorlikni talab qiladi. Boshqacha qilib aytganda, qoʻllanmani tarjima qilish roman yoki sheʼr kabi ijodkorlikni talab qilmaydi. Badiiy tarjima nasr yoki sheʼriyatni bir tildan boshqa tilga olib oʻtish sanʼatidir. Biroq, suhbatlar yoki rasmiy hujjatlarni tarjima qilishning texnik tabiatidan farqli oʻlaroq, adabiy asarni tarjima qilish har ikki tilda ham katta mulohaza va kuchli lingvistik qobiliyatni talab qiladi. Xorijiy tildagi adabiyotlar tasavvurimizni turli gʻoyalar bilan boyitibgina qolmasdan, turli adabiy janrlar bilan tanishish va hikoya qilish mahoratining xilma-xilligini ham doimiy ravishda oshiradi. Darhaqiqat, Fyodor Dostoyevskiyning realistik-psixanalitik durdona

asarlari, Gabriel Garsia Markesning sehrli realistik ertaklari yoki Yelena Ferrantening insoniy munosabatlar haqidagi betakror fikrlarisiz dunyoni tasavvur qilish mahol. O‘quvchida chuqur taassurot qoldiruvchi, uni fikrlar ummoniga g‘arq qiluvchi va dunyoqarashni mislsiz kengaytirishga imkon beruvchi jahon adabiyotining bu beqiyos durdonalari mohir tarjimonlarimizning zahmatli mehnatlari tufayli dunyoga kelgan badiiy tarjimalarsiz sharq o‘quvchisi, xususan, o‘zbek kitobxonlariga yetib kelmas, kelganda ham biz ularga yashirilgan ma’naviy xazinadan bahramand bo‘lolmas edik. Aynan adabiy tarjimonlar bebaho tarjimalari orqali bu bo‘shliq yuzaga kelishini bartaraf etadilar va turli xalqlar mualliflarini butun dunyo bo‘ylab yangi o‘quvchilar guruhlarini bilan bog‘laydilar. Tarjimada adabiyotning asl tilidagi nyuanslaridan tarjima tilida to‘g‘ri foydalanish va ularni mahorat bilan qo‘llay bilish tarjimondan puxta lingvistik ko‘nikma va kuchli madaniy bilimga ega bo‘lishni talab qiladi. Tarjimon asar g‘oyasi va muallifning yozish uslubini tushungan holda bularning barchasini boshqa tilda sinchkovlik bilan takrorlash yo‘lini topishi kerak bo‘ladi.

Badiiy matnlarni tarjima qilishda eng qiyin muammolardan biri bu xalqlar madaniyati o‘rtasidagi farqni kitobxonga yetkazib berish hisoblanadi. Tarjima jarayonida tarjimondan bir millatga doir xususiyatlarni boshqa tilda berishda katta mahorat va so‘z boyligi talab qilinadi.

Badiiy tarjimaning yana bir asosiy muammolaridan biri asl asarga sodiq qolish va asar asliyatidan olinuvchi his-tuyg‘u va kechinmalarni tarjimini o‘quvchi kitobxonga aynan yetkazish, shakl va mazmun birligini saqlab qolish sanaladi. Bu she'riy asar tarjimasida ayniqsa qiyin va dolzarb hisoblanadi. Bir qarashda bunday ko‘rinmasa-da, tarjimaning bu sohasi juda murakkab va badiiy tarjimonga juda ko‘p qiyinchiliklar tug‘dirishi mumkin. Bularga quyidagilar kiradi:

Ritorik vositalar va so‘z o‘yinlari. Ular she'riyatda ko‘proq uchraydi, lekin har qanday matnda uchrashi mumkin. Ba'zida tarjima tilida haqiqiy ekvivalent mavjud emas va shuning uchun tarjimon eng yaxshi alternativani topa bilishi kerak.

Atoqli otlar. Joylar yoki odamlarning nomlari ba'zan asl tilda biror narsani anglatishi va alohida ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin. Bunday holda, tarjimon nomlarni tarjima qilish yoki tarjima qilmaslik haqida o‘ylashi kerak.

Terminologiya. Ilmiy fantastika kabi ba'zi janrlarda tarjimon asarni tushunish va to‘g‘ri tarjima qilish uchun bilishi kerak bo‘lgan juda aniq va murakkab

terminologiyadan foydalanadi. Bu o‘rinda sohaga oid atamalarni bilishning ahamiyati yaqqol yuzaga chiqadi.

Xulosa o‘rnida Plexanovning tarjima jarayonida diqqat qaratish lozim deb hisoblagan uch asosiy shartni keltirib o‘tsak:

1. Asar qaysi tilda yozilgan bo‘lsa, o‘sha tilni mukammal bilish;
2. Asar qaysi tilga tarjima qilinayotgan bo‘lsa, o‘sha tilni mukammal bilish;
3. Tarjima qilinayotgan asarda qanday predmet to‘g‘risida gap borsa, o‘sha predmetdan xabardor bo‘lish.

Shunday qilib, tarjimon asar tarjimasiga kirishishdan avval yuqoridagi shartlarni muvofiqlashtirish orqaligina kitobxonga estetik zavq va ma‘naviy ozuqa bo‘luvchi ijod mahsulini yarata oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari (o‘quv qo‘llanma). – T., 2014.
2. Musayev Q. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: “Fan”, 2005.
3. Ochilov E. Tarjima nazariyasi va amaliyoti (o‘quv qo‘llanma). – T., 2012.
4. Sirojiddinov Sh., Odilova G. Badiiy tarjima asoslari (Monografiya). – Toshkent: “Mumtoz so‘z”, 2011.
5. Tarjima masalalari (Ilmiy maqolalar to‘plami). – T.: Sharqshunoslik institute, 2012.
6. https://cyberleninka.ru/article/n/badiiy_tarjimaning_ba'zi_muammolari.
7. <https://zenodo.org/record/5812779> tarjimada so‘z tanlash masalasi yoki badiiy tarjimadagi muammolar.

Research Science and Innovation House

Tarjimada milliy kolaritlarni berilishi

Rajabova Shahodat Po‘lat qizi

UrDU Xorijiy filologiya fakulteti

Filologiya va tillarni o‘qitish fransuz tili

ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvistik muammolardan biri hisoblangan tarjima va unda milliy kolaritlarni berilishi haqida batafsil tushuntirilgan.

Kalit so‘zlar: tarjima, kolorit, milliy kolorit, termin, fraza, tarjimalash usullari, yozma tarjima

unga belgilangan shaklni berib, turlicha ko‘rinishlarga va kimyoviy tarkibga ega. Eukariot tuzilishli suvo‘tlarning ko‘pchiligi qanday morfologik tuzilishga ega ekanligidan qat’iy nazar, suv va unda erigan quyi molekullar va quyosh yorug‘ligini o‘tkazadigan polisaxarid parda bilan o‘ralgan. Uning tarkibida polisaxaridlardan tashqari oqsillar, glikoproteidlar, mineral tuzlar, pigmentlar, lipidlar va suv bo‘ladi. Hujayraga mustahkamlik beravchi modda eukariotlardagi kabi selluloza hisoblanadi. Hujayra po‘stini yuzaga kelishida tarkibida fermentlar tutib polisaxaridlar biosintezida ishtirok etadigan Gold‘jiapparati va plazmolemma asosiy ahamiyatga ega. Hujayra po‘stida o‘lchamlari 12 dan 60 va 90 nm gacha bulgan tirqishlar mavjud. Ular orqali bir hujayrali larda tashqi muhit bilan, ko‘p hujayralilarda esa, tallomni qo‘shni hujayralari Tillarang suvo‘ti. Ctrynoracata bilan plazmodesmalar orqali aloqani amalga oshiradi. Suvo‘tlarning ko‘pchiligida, masalan, ayrim volvolclarda va qizil suvo‘tlarda hujayra po‘sti temir tuzlari bilan, hara, yashil, qo‘ngr va ayrim qizil suvo‘tlarida kal‘tsiy tuzlari, tillarang, sariq yashil, va diatom suvo‘tlarida kremniy tuzlarini shimgan boladi. Diatom suvo‘tlarida hujayra po‘stidagi shu suvo‘M hujayralariga mos arxitektonika - kremniyli sovutni hosil qiladi. Yashil va qizil, qo‘ng‘ir suvo‘tlari, masalan Oedogonum, Caulerpa, Halimedia, Porhyta, Udotea kabilarda hujayra ajratadigan kutin moddasi hisobiga, hujayra po‘sti qo‘shimcha qattiq qatlam kutikula bilan o‘raladi. Po‘stning yuzasi karotmoidlarning polimerlanish mahsulot - sporopolleninli qavat bilan qoplanishi mumkin. Maxsus polisaxaridlardan, xususan, oltinugurt tutgan polisaxaridlar, pektin, fukoidlardan iborat bo‘lgan qalin shilimshiq yopqich qo‘ng‘ir, qizil, va yashil suvo‘tlarining ko‘pchiligiga harakterli hisoblanadi. Yashil suvo‘tlardan volvokslar va xlorokokklarning hujayralari ajratadigan shilimshiq qalin kapsulani hosil qiladi. Noqulay sharoit yuzaga kelganda ayrim suvo‘tlar, masalan, xlamidomonada vaqtincha palmelloid holatiga o‘tadi. Bir qator suvo‘tlarda sellulozali po‘st yo‘qligi tufayli hujayra po‘sti oqsil qavat pellikuladan iborat.

Kriptofit suvo‘tlarda hujayra po‘sti, ichki oqsilli qavat plazmolemmanni ustidagi tashqi qo‘shimcha qavat periplast bilan o‘ralgan. Dinofita suvo‘tlarining tekalarini tarkibida oqsildan tashqari galaktoza, arabinoza, galakturon kislotalari bo‘lib, ular ko‘p tarkibli tizimdan iborat. Ulaming yuzasi har bir suvo‘ti turida o‘zigaxos tuzilishga ega va u sistematik ahamiyatga molik hisoblanadi. Ayrim suvo‘tlar hujayrasidagi, masalan, dinofitalardagi ejekt organellalari trixotsistlar anchagina murakkab tuzilishli hisoblanadi. Bitta hujayradan bir necha yuzlab

trixotsistlar hosil bo‘ladi. Ular hujayra atrofida joylanib, tashqi muhitdan ta’sirlanishi bilan romb yoki to‘g‘ri to‘rtburchak shaklidagi ipni tashqariga otadi. Suvo‘tlarining ko‘pchiligini hujayra yuzasi ayniqsa bir hujayralilarda tangachalar, ninasimon, ilmoqsimon o‘simtalar bilan qoplangan. Ular turli tuman vazifalarni bajarib, odatda plankton sharoitiga moslanishlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Yashil va tillarang suvo‘tlarining b a’zilarida hujayra po‘sti yuzaga kelmay, hujayraning tashqi qavati bo‘lib plazmolemma hisoblanadi. Tashqaridan bu “yalang‘och hujayralar” ko‘p hollarda shilimshiq bilan o‘ralgan. Bir hujayrali va ko‘p hujayrali suvo‘tlarning gameta va zoosporalarida hujayra po‘sti shakllangungacha po‘sti bo‘lmaydi. Plazmolemma. Xivchinli va amyoboid vakillarda hujayra tashqi tomondan plazmolemma bilan o‘ralgan xalos, u suvo‘t tanasining doimiy o‘zgarmas shaklini ta’minlamaydi. Bunday hujayralar psevdopodiylarni hosil qilishi mumkin. Psevdopodiylar morfologiyasiga ko‘ra bir necha tipga bulinadi. Suvo‘tlarda ko‘piroq rizopodiylar uchrab (masalan, Chrysamoeba, Rhizochrysis) uzun, ingichka, ipsimon, tarmoqlangan bazansitoplazmaning o‘sim tasi hisoblanadi. Lobopodiylarsitoplazmani yumaloqlangan burtmasi holida ular amyoboid tipli tallomda (masalan Brehmieela), monad tuzilishlilarda (masalan eruthropsiz), aksopodiylarmikronaylardan tashkil topgan paypaslagichsimon hosilalar.

Xivchinlari bo‘lgan suvo‘tlarning ayrimlarida hujayrani usti tangachalar bilan qoplangan. Tangacha bittadan yoki o‘zaro bir-biri bilan bog‘lanib umumiy qoplamteka hosil qiladi (masalan Synura). Qoplam organik yoki anorganik harakterda bo‘lishi mumkin. Organik tangachalar yashil, tillarang, kriptofit (dinofita) suvo‘tlarida anorganik tangachalar asosan kaltsiy karbonat yoki kremnezyomdan iborat kaltsiy karbonatlilarni kokkolitlar deyiladi. Xivchinli va amyoboid suvo‘tlarda hujayra organik tuzilishli “uycha”larda ham joylashadi. Uycha devori yupqa va shaffof (masalan, Dinobryon) yoki mustahkam va rangli (masalan: Trachelomonas) bo‘ladi. Suvo‘tni ko‘payishi davrida uycha saqlanadi, yuzaga kelgan hujayralardan bittasi chiqib kctib o‘l.iga yangisini hosil qiladi. Evglena suvo‘tlarining hujayra qoplami -p e llik u la deyiladi. Uning qalinligi va elastikligiga ko‘ra u o‘zgarmas (masalan: Phasus, Lepocinclis, Algin kislota, fukoidin, agarozalarning sturuktura birligi. Rhabdomonas) yoki m a’lum darajada metaboliyali (o‘zgaribturadigan) bo‘Mishi (masalaan: Astassia, evglena, Peranema) mumkin. Dinofita suvo‘tlarining hujayra qoplami amfiesma plazmolema va uning ostida joylashgan yassilangan vezikulalarning majmui alvcoladan iborat. Bir qator dinofitalarning

vezikulasidaselyulozali plastinkalar bo‘lib, bunday amfiesma teka yoki sovut (masalan: Seratium, Peridinium) deyiladi. Diatom suvo‘tlarida plazmolemmaning tashqi tomonidan maxsus hujayra qoplami- sovut hosil bo‘ladi. Kimyoviy jihatdan u amorf kremnezyomdan iborat. Bundan tashqari sovut tarkibida organik birikmalarning aralashmalari, temir, alyuminiy, magniy ham bo‘ladi. Sovut tashqi va ichki tomondan pektin moddasidan iborat qavat bilan qoplangan.

Monad tuzilishli xlamidomonadalar va volvokslarda hujayra devori o‘ziga xos tuzilgan. Ulardaselyuloza yo‘q, u glikoproteinlar (oqsillarni uglevodlar bilan birikishi)dan tashkil topgan. Uglevodlar galaktoza, arabinoza, mannoza va glukozadan iborat. Suvo‘tlarining ko‘pchiligini hujayra devori yuksak o‘simliklar hujayralaridagi bilan o‘xshash, asosanselyulozadan tashkil topgan. Unda pektin, gemitsellyuloza va boshqa moddalar ham bor. Gemitsellyuloza turli geksozalar, pentozalardan iborat geteromer tarmoqlangan polimerdir. Pektin moddalar tarmoqlangan, galakturon kislotali polimer, ular Golji apparatida sintezlanib keyin po‘stga chiqariladi. Algin kislata D-mannuron va L-guhiron kislotalar qoldig‘ini tutgan polimer: Uning eriydigan tuzlari qo‘ng‘ir suvo‘tlar hujayralari tarkibida bo‘ladi. Agar sovuq suvda erimaydigan, qaynoq suvda eriydigan fikokoloid bo‘lib, u ikki polisaxarid agaroz va agaropektindan iborat. Karraginanlar agarga yaqin fikokoloidlar hisoblanadi. Yashil suvo‘tlarining polisaxaridlari ancha murakkab, ular D-glukoza, Larabinoza, D-ksiloza, D-glyukuron kislota va L-ramnozalaridan iborat. Selyuloza yashil, sariq yashil (tribofitsalar), qizil va qo‘ng‘ir suvo‘tlarida mavjud. Ular yuksak o‘simliklardagidan farqlanib mannanlar va ksilanlardan iborat bo‘lishi mumkin. Aniqliganlar - tarmoqlanmaydigan uglevodlarning polimerlari hisoblanib, ularda fenol guruhi bulmaydi. Dinofita suvo‘tlari po‘stida sporopollenin va alginanlardan farqlanadigan fennolin polimer to‘planadi. Protoplast. Eukariot suvo‘tlarning hujayralarida ham yuksak o‘simliklardagi kabi quyidagi asosiy qismlar- yadro, endoplazmatik retikulim, Goldji apparati, mitoxondriyalar, xloroplastlar, vakuolalar, periksisomalar bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, yuksak o‘simliklardan farq qilib, turli guruh suvo‘tlarining hujayralaridasentriola va pirenoidlar, bir hujayralilarda esa stigma, qisqaruvchi vakuola va boshqa maxsus hosilalar mavjud.

Xivchinli apparat. Monad vegetativ hujayralar (zoosporalar va gametalar) va hayotiy davrasida monad bosqichini o‘tayotgan uzun, anchagina yo‘g‘on (0,2 mkm ga yaqin) xivchinga ega. Suvlarida ularning uzunligi, morfologiyasi, birikadigan

joyi, harakatlanishi turlicha bo‘ladi.

Xivchinlar hujayraning oldida (apikal), yonboshiga siljigan (subapikal), yoniga birikkan (lateral) va qorin tomonida (ventral) joylanishi mumkin. Morfologiyasidan o‘xshash tuzilishlilarni izoinorf, o‘zaro farqlaiisa (masalan: bittasi patsimon, ikkinchisi silliq) geteromorf deyiladi. Xivchinlar bir xil uzunlikda bo‘lsa izokont, turlicha uzunlikdagilari geterokont deb ataladi. Xivchinlarda harakatlanadigani (undilopodiy) oralig‘i, bazal tana (kinetosoma) va ildiz farqlanadi. Xivchinlar silliq yoki tangachalar yoxud (mastigonema) tuklar bilan qoplangan bo‘lishi mumkin, sinuralar, dinofitalarda mastigonema va tangachalar bor. Mitoxondriylar. Eukariot o‘simlik organizmlami energiyaga bo‘lgan talabini ular hujayrasidagi mitoxondriylar va xloroplastlar ta‘minlaydi. Mitoxondriylar tuzilishi va kimyoviy tarkibiga ko‘ra turlicha bulgan qo‘sh membranali po‘st bilan o‘ralgan. Mitoxondriylar hujayra ichidagi oksidlanish jarayonlarini amalga oshiradigan markaz hisoblanib, uch karbon kislotada davrasi fermentlarini tutadigan nafas jarayonlarida ishtirok etadi. Energiyaga boy adenozin uch fosfat rtiolkulalari mitoxondriylardan chiqqach, hujayra metabolizmidagi turli jarayonlarda foydalaniladi. Mitoxondriylarning o‘lchamlari, shakli va ularning soni turli suvo‘tlarda turlichadir. Mayda mitoxondriylar odatda, yumaloq shaklda, o‘lchamlari 0,3- i mkm keladi. Ipsimon tuzilishli mitoxondriylarni uzunligi 2 mkm va undan uzunroq eni 0,4 mkm bo‘ladi. Bazi suvo‘tlarining hujayralari yuksak o‘simliklardan farqlanib (masalan Chlorella fussa) bitta, ancha tarmoqlangan ko‘rinishdagi mitoxondriyga ega. U butunsitoplazma buylab yoyilib mitoxondriy retikulumini hosil qiladi. Bunday mitoxondriylarsitoplazmaning hamma qismlari bo‘ylab joylashadi. Shunga qaramaysitoplazmaning qaysi qismida energiyaga muhtojlik ko‘p bo‘lsa o‘sha yerda mitoxondriylarning to‘planishi kuzatiladi. Suvo‘tlari hujayralaridagi mitoxondriylarning tuzilishi va shakli ham yuksak o‘simliklarnikidan xilma xilroqdir. Ular yumaloq, cho‘ziq, ip, to‘r ko‘rinishida bo‘ladi. Bitta hujayraning turli davrlarida ularning shakli o‘zgarib turadi. Boshqa eukariotlardagi kabi mitoxondriy lav qo‘sh membrana bilan o‘ralgan. Ichki qavat buklamalar-JIFraГ hosil qiladi. Kristlar disksimon (evglenalarda), naysimon (dinofitalrda), yassi yaproq (yashil, qizil, dinofita suvo‘tlarida) bo‘ladi. Oddiysi disksimoni hisoblanadi. Mitoxondriylar xilma xil tuzilishiga qaramay bir martagina hosil bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Tuban o‘simliklar L.L.Velikanov
2. N.H. Qarshiboyev., U.N.Usanov., N.O.Karimov., M.SH.Yaxshiyev.
Botanika. Toshkent. 2015.
3. A.A. Matkarimova., T.X. Mahkamov., M.M. Maxmudova., X.Ya. Azizov.,
G.B. Vaisova. Botanika. Toshkent. 2020.
4. Sh.J. Tojiboyev., N.M.Naraliev. Botanika: Tuban o‘simliklar. Namagan.
2016



**Research Science and
Innovation House**



Zamburug‘lar dunyosi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti
Biologiya yo‘nalishi 2- bosqich 202- guruh talabalari Rasulov Husanboy
Rasuljon o‘g‘li , Alaydinova Malikaxon Ravshanbek qizi

Annotasiya : Ushbu maqolada Zamburug‘lar dunyosi haqida umumiy tushunchalar , tarqalishi , ko‘payishi, rivojlanishi hamda klassifikatsiyasi haqida ma‘lumotlar beriladi.

Abstract: This article provides information on the general concepts of the world of fungi, distribution, reproduction, development and classification.

Аннотация: В статье представлены сведения об общих понятиях о мире грибов, распространении, размножении, развитии и классификации.

Kalit so‘zlar : zamburug‘lar, gifalar, sporangiy, zoosporangiy, vegetativ , sporalar , geteratrof , jinsiy , jinssiz , eukariot , saprafit , parazit .

Key words: fungi, hyphae, sporangium, zoosporangium, vegetative, spores, heterotroph, sexual, asexual, eukaryote, saprophyte, parasite.

Ключевые слова: грибы, гифы, спорангий, зооспорангий, вегетативный, споры, гетеротрофный, половой, бесполой, эукариот, сапрафит, паразит.

Zamburug‘lar (fungi yoki mycetes) — eukariot organizmlar dunyosi (bulimi). Tayyor organik moddalar hisobiga yashaydi, ya‘ni geterotrof organizm hisoblanadi. Odatda o‘simliklarda, tuproqda, suvda, hayvonlarda yoki ularning qoldiqlarida hayot kechiradi. Oziqlanish usuliga qarab parazit va saprofitga bo‘linadi. Ularning odamlar va hayvonlar uchun zararli va foydali yuz mingdan ortiq turi uchraydi. Zamburug‘lar haqidagi fan mikologiya deb ataladi. Zamburug‘larni mikologiya fani o‘rganadi. Zamburug‘lar ilgari o‘simliklar dunyosiga kiritilar edi. Olimlar zamburug‘ turlarini chuqur o‘rganish natijasida ularni alohida olam sifatida ajratishgan. Zamburug‘lar bakteriyalardan farq qilib, eukariot organizm hisoblanadi. Zamburug‘lar o‘simliklar kabi erkin harakatlana olmaydi, hayvonlarga o‘xshab geterotrof oziqlanadi. Zamburug‘lar yashashi uchun ozuqa, harorat va namlik yetarli bo‘lishi kerak, yorug‘lik bo‘lishi shart emas.

Ko‘pchilik zamburug‘larning (ba‘zi hujayra ichki parazitlaridan tashqari) vegetativ tanasi mitseliy kurinishida, ya‘ni oziqlanish substrati sirtiga yoki ichiga taralib, uchidan o‘sadigan ingichka ipcha — gifalardan iborat. Ko‘payishi. vegetativ va reproduktiv (jinssiz va jinsiy) ko‘payadi. Vegetativ ko‘payish mitseliy ipchalarining bo‘linishi yoki sklerotsiyalar bilan amalga oshadi. Bu bo‘lakchalar har xil yo‘l bilan tarqalib, qulay sharoitga tushganda yangi mitseliysi hosil bo‘ladi. Jinssiz ko‘payish



mitseliyning maxsus shoxchalarida xreil bo‘ladigan sporalar orqali ro‘y beradi. Sporalar hosil bo‘lishiga qarab endogen va ekzogen buladi. Endogen sporalar odatda gifa (sporangiy yoki zoosporangiy)ning sharsimon uchlarida kup miqdorda rivojlanadi. Ekzogen sporalar (konidiyalar) mitseliyning maxsus shoxlarida yakka, guruh bulib, kupincha zanjirsimon rivojlanadi. Jinsiy ko‘payish ikkita har xil jinsiy hujayraning qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan zigotalar orqali ro‘y beradi. Hamma joyda keng tarqalgan. Aksari zamburug‘larning tabiatda umri qisqa. Ularning mitseliysi bir necha sutkada rivojlanib, spora hosil qilgach, o‘shidan to‘xtab, nobud bo‘ladi. Mitseliysi ko‘p yil yashaydigan zamburug‘lar ham bor. Jumladan, patogen va parazit zamburug‘lar mitseliysi bir necha yillab yashaydi. Shuningdek, sklerotsiyalari va turlituman sporalari bilan uzoq vaqggacha saqlanadigan zamburug‘lar ham bo‘ladi. Ko‘p sporalar quruq holatda hayotchanligini o‘n yillab saklashi mumkin. Muhim fiziologik xususiyatlari. Zamburug‘lar rivojlanishi uchun kislorod zarur bo‘lib, aerob organizm hisoblanadi. Lekin ayrim zamburug‘lar, masalan, achitqi zamburug‘lar iga ozgina kislorod ham yetarli. Ko‘p zamburug‘lar turli xil (spirtli, limonli) achitish xususiyatiga ega. Zamburug‘lar 20—25° da yaxshi o‘sadi, ba‘zilari 2—4° da ham o‘saveradi. Zamburug‘larning o‘shishi uchun yorug‘lik zarur emas, lekin quyosh nuri ularning o‘shishi va spora hosil qilishiga salbiy ta‘sir etadi. Tabiat va inson hayotidagi ahamiyati. Tuproqda yashaydigan zamburug‘lar o‘simlik qoldiqlari (jumladan qiyin parchalanadigan [[sellyuloza] va lignin)ni yemiradi va minerallashtiradi. Yog‘ochlarni, asosan, po‘kak zamburug‘lar yemiradi. Ko‘pchilik zamburug‘lar o‘simliklarda turli kasalliklarni qo‘zg‘atadi. Odamlardagi qator kasalliklar: kal, qirma temiratki va boshqalarni zamburug‘lar qo‘zg‘atadi. Foydali zamburug‘lar ham ko‘p. Penicullium va Aspergillus turkumiga mansub zamburug‘lardan vitaminlar, antibiotiklar, limon kislota va steroid preparatlar olishda foydalaniladi. Achitqi zamburug‘lar vino, non, pivo tayyorlashda ishlatiladi. Zamburug‘lardan ko‘nchilik, to‘qimachilikda va sanoatning boshqa tarmoqlarida qo‘llaniladigan turli xil fermentlar olinadi. Dunyoning ko‘pgina mamlakatlarida zamburug‘lar ovqatga ishlatiladi; iste‘mol qilinadigan zamburug‘larning turi 100 dan ortadi. Bulardan kuplari qimmatli bo‘lib, tarkibida oqsil moddalari, vitaminlar va fermentlar bor. Zamburug‘lar, asosan, konservalab (quritib, tuzlab, ziralab) iste‘mol qilinadi. I sinf — tuban zamburug‘lar yoki fikomitsetlar (Phycomycetes); I sinf — tuban zamburug‘lar yoki fikomitsetlar (Phycomycetes); II sinf — xaltali zamburug‘lar yoki aksotsimetlar (Ascomycetes); III sinf — bazidiomitsetlar (Basidiomycetes); IV sinf — takomillashmagan zamburug‘lar (diueureuteromycetes yoki Fungi imperfecti).

Zamburug‘lar o‘simlik, hayvon va odamlarda kasallik qo‘zg‘atish xususiyatiga ega, oziqovqat mahsulotlarini buzadi. G‘o‘zada vilt va chirish kasalliklarini paydo qiladi (yana qarang Zamburug‘li kasalliklar). Ba‘zi zamburug‘lar hasharotlar sonini hamda kasallik tug‘diruvchi (patogen) zamburug‘lar rivojini susaytirishda ijobiy ahamiyatga ega. Vertitsillyoz so‘lishni qo‘zg‘atuvchi zamburug‘lar kushandasi (zamburug‘lar — antagonist)ga *Trichoderma lignoram* Hars., *Aspergillus* sp., *Penicillium* sp. va boshqalar kiradi.



Zamburug‘lar tuproqda bakteriyalar, aktinomitsetlar va mikroorganizmlar bilan birgalikda organik moddalarni parchalab, sanitarlik vazifasini bajaradi va tabiatda



moddalar aylanishida ishtirok etadi. Shu bilan birga tuproqda usimlik kasalliklarini qoʻzgʻatuvchi zamburugʻlar toʻplanib ham qoladi. Monokultura natijasida oʻsimliklarning maʼlum turlarigagina ixtisoslashgan zamburugʻlar yigʻiladi. Aspergillus, Penicillium, Mucor, Trichothecium, Rhizopus va boshqa turkumga mansub baʼzi tur zamburugʻlar urugʻlik materialning mogʻorlashiga sabab boʻlib, ularning unuvchanligini pasaytiradi. Koʻpgina mogʻor zamburugʻlar xom ashyoni saklash davrida paxta tolasi sifatini buzadi. Baʼzi turlari isteʼmol qilinadi (jumladan, qoʻziqorin). Zamburugʻlarning fermentativ, antibiotik, toksik va parazitlik xususiyatlaridan veterinariyada hamda oʻsimliklarni zararkunanda va kasalliklardan himoya qilishda, shuningdek, yengil sanoatda, oziqovqat va farmatsevtika sanoatida foydalaniladi.

Zamburugʻli kasalliklar, mikoftozlar (oʻsimliklarda) — parazit va yarim parazit zamburugʻlar qoʻzgʻatadigan infeksiyon kasalliklar. Zamburugʻlar taʼsirida oʻsimliklarda butun organizm yoki uning maʼlum kismi tuzilishi va fiziologik funksiyasining buzilishiga sabab boʻluvchi kasallik (patologiya) jarayoni vujudga keladi. Boshqa oʻsimlik kasalliklariga nisbatan koʻp tarqalgan va zararli; ular oʻsimlik hosilini va mahsulot sifatini pasaytiradi, mevali va rezavor oʻsimliklarning hosil berish muddatini qisqartiradi. Eng koʻp tarqalgan Zamburugʻ kasalliklar soʻlish, chirish (ildiz, toʻpgul, meva, ildizmevalar, tuganaklar va boshqalarda), boʻrtma, oʻsimta, ishish, yara, bargda dogʻlar paydo boʻlishi bilan kechadigan kasalliklar, oʻsimlikning pakanaligi, majruxligi va boshqalar. Bir turdagi oʻsimlik bir necha oʻnlab xil zamburugʻ kasallik bilan zararlanishi mumkin. Zamburugʻ kasallik eng kup zarar keltiradigan va koʻp tarqalgan kasalliklardan hisoblanadi. Masalan, gʻoʻzaning vilt kasalligi, bugʻdoyning qorakuya va zang, ildiz chirishi kasalliklari, kartoshkaning fitoftoroz kasalligi va b.larda hosil juda kamayib ketadi. Zamburugʻ kasalliklar bilan zararlangan oʻsimlikning urugʻi, tuganagi, piyozlari, qalamchalari, koʻchatlari va infeksiya manbai bulishi mumkin. Infeksiya hosil yigʻimidan keyin tuproqda qolgan oʻsimlik qoldiklarida saqlanishi va oʻsimlik ildizi, ildiz boʻgʻizi va boshqalar tuproq osti organlariga tushib kasallik quzgʻashi mumkin. Baʼzi patogen zamburugʻ sporalari shamol, yongʻir, hasharotlar, sut emizuvchilar, shuningdek, ifloslangan idishlar, qishloq xoʻjaligi mashinalari va asboblari orqali ham oʻtadi. Oʻsimlik toʻqimalariga patogen zamburugʻlar ogʻzicha, yasmiqchalar, hujayra epidermisi va kutikulasi (kartoshka raki), doʻldan hosil boʻlgan yaralar (makkajoʻxorining qorakuya kasalligi), oftob urgan, yorilgan joy orqali kirishi mumkin. Kasallik rivojlanishi tashqi sharoitga ham bogʻliq. Maye, tuprokda fosfor va kaliy yetishmasligidan donli ekinlarning zang kasalligi, kartoshkaning fitoftoroz bilan zararlanishi ortadi. Zararlanish harakteriga qarab mahalliy va umumiy taʼsirli boʻladi. Mahalliy zararlanishga dogʻlar, zamburugʻ gʻuborlari, yaralar, shishlar

paydo bo'lishi misol bo'ladi. Dog'lar bargning alohida qism (to'qima)larini nekrozga olib keladi, kuchli rivojlanganda barglar to'kilishi mumkin (qarang Makrosporozlar). Zamburug' g'uborlarini o'simliklar unshudring (kul) va soxta unshudring (rag'a) bilan kasallanganida kuzatish mumkin. O'simlikning mahalliy zararlanishi, ko'pincha, turli organlarda chetlari rangli hoshiya bilan o'ralgan yara kurinishida bo'ladi (mas, g'uza gommozining poya formasida). Zang zamburug'i bilan zararlangan g'alladoshlar, dondukkaklilar va b. ekinlar barg hamda b. organlarida zamburug' sporalari tuplangan yostiqlar ko'rinishidagi zang tusli shishlar (mas, javdarning qung'ir zang kasalida) paydo bo'ladi. Kuzga borib shishlar qorayadi. O'simlikning suv va oziq moddalarga boy organlari, kupincha chirish bilan kasallanadi (mas, g'o'za chanoklaridagi pushtirang chirish, kulrang chirish). O'simlikning zamburug' bilan umumiy kasallanganligi belgisi — so'lishdir. Bu turli organlardagi taranglik (turgor)ning yo'qolishi bilan harakterlanadi. G'o'za, zig'ir, kartoshka va b. o'simliklar so'lishi ko'p Zamburug'li kasalliklar: 1—bug'doy qatg'iq qorakuyasi; 2—bug'doy chang qorakuyasi; 3—makkajo'xori pufaksimon qorakuyasi; 4—kartoshka fitoftorozi; 5—olma kalmarazi; 6—qulupnay kulrang chirishi. Kasallikning rivojlanish tezligini ekologik omillar belgilaydi: ma'lum sharoitlar zamburug'ning spora hosil qilishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, sporalarning o'sishi va o'simlikning kasallanishiga to'sqinlik qiladi. Zamburug' kasalliklarga qarshi agrotexnik, kimyoviy va fizikmexanik choratadbirlar majmui qo'llaniladi. Kasallikka chidamli navlar ekiladi, mikrobiopreparatlardan foydalaniladi, ekinlar urug'ligi kimyoviy preparat (dori)lar bilan dorilanadi, o'simliklarga pestitsidlar, fungitsidlar purkaladi yoki changitiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Tuban o'simliklar L.L.Velikanov
2. N.H. Qarshiboyev., U.N.Usanov., N.O.Karimov., M.SH.Yaxshiyev. Botanika. Toshkent. 2015.
3. A.A. Matkarimova., T.X. Mahkamov., M.M. Maxmudova., X.Ya. Azizov., G.B. Vaisova. Botanika. Toshkent. 2020.
4. Sh.J. Tojiboyev., N.M.Naraliev. Botanika: Tuban o'simliklar. Namagan. 2016

ПОЭТИЧЕСКИЙ МИР ЛЕРМОНТОВА

Бозорова Нигора Хакимовна

Преподаватель кафедры русского языкознания
Бухарский государственный университет

Аннотация: Первая половина 30-х годов характеризуется в русской общественной и литературной жизни рядом новых веяний. В эти годы в литературе появляются Гоголь, Белинский, печатает свои первые опыты Герцен. Эти писатели возглавили передовое движение в искусстве, поставили своей главной целью сближение искусства с живыми вопросами современности. Их усилиями, усилиями писателей и критиков, литература становится все более активной участницей той великой освободительной борьбы, которая была смыслом эпохи.

Ключевые слова: периодические издания, неустойчивые люди, объективизм

трагические конфликты, психологический пейзаж, натуральная школа.

Основой изображения жизни стало всемерное проникновение в глубины неисследованной до сих пор человеческой души. Это проникновение шло разными путями, смыслом его было познание современного человека, его возможностей и будущего. Об этом писал в романе «Евгений Онегин» Пушкин, этих проблем касался пока еще неопытной рукой Герцен в «Записках молодого человека», Лермонтов — в «Княгине Ляговской», Гоголь — в «Вечерах...», «Миргороде» и «Арабесках», куда вошли так называемые «Петербургские повести». Эти же цели преследовали и периодические издания — «Современник» и «Отечественные записки», и альманахи типа «Петербургского сборника» Некрасова и Панаева.

На противоположном полюсе — в лагере охранительной, официальной и официозной литературы — шел почти обратный процесс. Интерес читателя к жизни действительной зашел так далеко, что не учитывать его было уже нельзя. Но и всей правды открыть читателю — потенциальному бунтарю в

глазах правительственных сфер и реакционной литературы — было невозможно. И подвизавшиеся на ниве «промышленной литературы» Булгарин, Греч, Сенковский и мелкотравчатые писатели пошли по пути сокрытия истинной души эпохи. В их произведениях показывалась лишь одна из сторон жизни, лишь видимость ее, и при этом делалось все, чтобы скрыть высокие движения души человеческой. Поэтому в герои были избраны малопривлекательные типы воров, жуликов, морально неустойчивых людей, не имеющих ничего за душой. В этих нравоописательных и «сатирических» романах человек оказался замкнутым в рамках частной жизни, лишен широких органических связей как с жизнью, так и с себе подобными. Герои вроде Выжигина не представляли главное течение жизни, не были тем будущим, которого так жадно искала, к которому стремилась передовая общественность. Поэтому скоро стала ясной для читателя вся узость и ограниченность нравоописательной литературы, не зовущей вперед на просторы широких человеческих и общественных отношений. Начинается борьба за читателя-человека, борца (а сначала критика существующих общественных отношений и форм жизни!). В этой борьбе главной силой была передовая демократическая литература, направляемая Белинским и Герценом и оформившаяся к этому времени в так называемой «натуральной школе», мимо влияния которой не могли пройти ни маститые, ни начинающие писатели.

Однако натуральная школа (даже в представлении современников) имела весьма существенный недостаток. Показывая жизнь действительную «такою, какова она есть на самом деле», писатели этой школы не умели проникнуть — да и не видели в этом необходимости — в психологию человека; их задачей было изображение самих по себе фактов ужасающей бедности «маленьких» людей, их мужество или смирение перед лицом испытаний и т. д. Таким образом, чисто внешняя жизнь оказывалась описанной всего подробнее, наиболее детально и во всех частностях, но за ними не угадывалась внутренняя жизнь персонажей, а порой и отношение к ним самого автора. Этот объективизм, это стремление не навязывать читателю своих оценок, мнений (хотя они легко угадывались из самих описаний, выбора деталей, тональности повествования и т. п.), приводили к сужению, к ограничению человека его

бытом, к изображению обстановки, вещей вместо самой личности и ее связей со временем. Короче говоря, это были безусловно люди, но не герои своего времени.

Устранение этого недостатка, проникновение в сущность мировоззрения и мироощущения личности определенного исторического этапа развития общества в России, осмысление того, что дала эпоха личности и что может дать личность будущему — это стало и стимулом и смыслом развития русской литературы 30—40-х годов XIX в.

Преодоление ограниченности натуральной школы и дальнейшее развитие, обогащение реализма, формирование в нем критического направления шло различными путями. С одной стороны, делается попытка поставить романтического героя с его миром возвышенных чувств в обыкновенные обстоятельства, столкнуть с обычными людьми и проследить возникновение и развитие трагических конфликтов, рождающихся на этой почве (ср., например, поэмы Лермонтова, Полежаева, роман Лермонтова «Княгиня Лиговская» и т. п.); а с другой стороны, обыкновенный человек оказывался в необычных обстоятельствах, в экзотической обстановке, в таких отношениях с людьми, которые исключали проникновение в их среду, и это становилось основой конфликтов и связанных с ними психологических травм.

Чтобы исследовать или, как говорил Белинский, «разанатомировать» психологию времени, в герои годился только такой, который представлял бы эпоху, был олицетворением ее движущих и тормозящих сил. Этот герой времени делался единственным объектом исследования, круг других героев искусственно сужался, он ставился в такие условия, в которых наиболее полно проявлялись бы особенности его душевного склада, природы и характера и проявлялись бы как отражение возможностей самого времени. Таким образом, «герой своего времени» так и избирался, чтобы через него познавались закономерности развития жизни. Человек делался своеобразным окном в мир. Через него узнавались свободные чувства, неугасимая жажда любви и деяния во имя человека и ничем не истребимая ненависть к угнетению и искажению человеческой души — все то, что должно было составить нормальную личность будущего.

Средства этого раскрытия «внутреннего человека» были самыми различными — это могли быть прямые авторские характеристики, лирические отступления, введение в повествование своеобразных исповедей, дневников, писем, документов и т. п., где герой, не боясь чужого взгляда, раскрывался бы сам перед собою — «себя на строгий суд призвав»; это и косвенные характеристики, являющиеся следствием поступков, реакций и действий героя, оценки другими людьми и т. д. Далеко не последнее место занимает в психологической характеристике персонажа и пейзаж, который обычно используется и как средство авторской оценки событий и как отражение чувств героев, порой показатель его духовных возможностей или свидетельство широты духовной жизни (и, конечно, ее глубины). При этом писатель, естественно, не может избежать и некоторых влияний того направления, той литературной школы, в манере которой пишет, и потому пейзаж романтический, натуралистический или реалистический будут созданы разными средствами и будут характеризовать различные стороны внутреннего облика героев.

Для Лермонтова это было продолжением собственного пути не только в поэзии, но главным образом в прозе. Оставив незаконченным «Вадима», он набрасывает ряд сюжетов, часто построенных в традиции светского романа того времени. Таков, прежде всего, набросок романа «Княгиня Литовская», над которым Лермонтов работал некоторое время вместе с С. Раевским.

Новый роман Лермонтова в значительной степени отличался по самой манере письма, по материалу, избранным героям и т. п. от «Вадима», и это отличие прежде всего в том, что «Княгиня Литовская» ставит одну из важнейших проблем натуральной школы — проблему «маленького человека», хотя она еще решается средствами романтическими. Несомненно, и стремление Лермонтова как можно шире и глубже показать «героя времени» (или безвременья?) — Печорина, для чего применяются совершенно новые приемы и средства, в числе которых и своеобразный, не знакомый до этого нашей литературе психологический пейзаж. Лермонтов делает попытки изображения городских улиц, темных подворотен и грязных дворов (и делает это даже раньше Гоголя, признанного изобразителя этой «натуры»). Может быть он здесь и не первый в смысле обращения к картинам городских улиц и

окраин (первыми были «нравоописатели», вроде Нарезного, продолжателя «грязного теньеризма» в России начала XIX в. Булгарина, сделавшего шаг назад, по сравнению с обличителем Нарезным, но верно уловившего грубый аромат школы Теньера). Нет, Лермонтов не был первым в обращении к городскому пейзажу, но он первым связал его с настроением героев и своим собственным. Его пейзажи вообще несколько минорны, может быть чуть-чуть неясны в своих очертаниях, как бы окутаны какой-то дымкой, и эта дымка — внутренняя мысль, настроение, ощущение живой связи героя и природы. Позднее с таким же удивительным мастерством этими городскими пейзажами будет пользоваться — и в этих же целях — Достоевский в «Униженных и оскорбленных», «Идиоте» и вслед за Лермонтовым создаст щемящие душу картины-настроения, — собственно импрессионистический пейзаж.

Литература

- 1.Вацуру В.Э. Последняя повесть Лермонтова //
- 2.Вацуру В.Э. О Лермонтове: Работы разных лет. М., 2008.
- 3.Виноградов В.В. Стиль прозы Лермонтова // Литературное наследство.
- 4.М.Ю. Лермонтов. Т. 43–44. М., 1941.
- 5.Лермонтов М.Ю. Собр. соч.: В 6 т. М.; Л., 1954–1957. Максимов Д.Е.
- 6.Поэзия Лермонтова. Л., 1959. 266 с. Михайлова Е.Н. Проза Лермонтова. М., 1957.

Research Science and
Innovation House

SUVO‘TLAR BO‘LIMI. QO‘NG‘IR SUVO‘TLARINING SISTEMATIK GURUHLARI, ULARNING FILOGENIYASI, TARQALISHI VA AHAMIYATI.

Mirzaarapova Durdona Donyor qizi

Andijon davlat pedagogika instituti, ikkinchi bosqich talabasi

Turg‘untosheva Ruxsora Bohodir qizi

Andijon davlat pedagogika instituti, ikkinchi bosqich talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada suvo‘tlar olamiga mansub qo‘ng‘ir suvo‘tlarining sistematik guruhlari, ularning filogeniyasi, tarqalishi va ahamiyati haqida ma’lumotlar berilgan.

Аннотация: В статье представлены сведения о распространении и значении систематических групп бурых водорослей, принадлежащих к царству водорослей, их филогении

Annotation: This article presents information on the distribution and importance of the systematic groups of brown algae belonging to the algal kingdom their phylogeny.

Kalit so‘zlar : xlorofill, fotoavtotrof, xlorofill "a", xlorofill "c" ,globulyar, fukoksantin, betta karotin.

Ключевые слова: хлорофилл, фотоавтотроф, хлорофилл "а", хлорофилл "с", глобуляр, фукоксантин, бета каротин.

Key words: Chlorophyll, photoautotroph, Chlorophyll "a", Chlorophyll "c", globular, fucohantxin, beta carotene.

Suvo‘tlar — qattanali fotoavtotrof o‘simliklar bo‘lib, suv muhitida o‘sadi. Ayrim vakillari nam tuproqlarda, daraxt po‘stloqlarida o‘shigga moslashgan. Mazkur suvo‘tlar kelib chiqishi, fotosintez tuzilmasi, fotosintez mahsuloti hujayrada to‘planishiga qarab quyidagi bo‘limlarga bo‘linadi:

1. Ko‘k-yashil suvo‘tlar—Cyanophyta
2. Yashil suvo‘tlar— Chlorophyceae
3. Oltin tusli suvo‘tlar— Chrysophyta
4. Diatom suvo‘tlar — Bacillariophyta
5. Qo‘ng‘ir suvo‘tlar — Phaeophyta
6. Pirrofit suvo‘tlar — Pyrrophyta
7. Evglenofit suvo‘tlar — Eyglenophyta

8. Qizil suvo‘tlar — Rhodophyta.

Qo‘ng‘ir suvo‘tlari bo‘limi —Phaeophyta

Mazkur bo‘lim suvo‘tlarining eng xarakterli xususiyati xromotoforasining qo‘ng‘ir rangda bo‘lishidadir.

Buning sababi xromotofora tarkibida xlorofill "a" va "c" dan tashqari betta karotin va qo‘ng‘ir rang beruvchi pigmentlardan fukoksantin ko‘p miqdorda bo‘lishidadir.

Qo‘ng‘ir suvo‘tlari asosan dengiz suvo‘ti bo‘lib, ular sovuq suvli shimoliy va janubiy yarim sharlari dengizlarida keng tarqalgan.

Tallomi morfologik va anatomik jihatdan differensiyalangan bo‘lib, boshqa suvo‘tlardan ustun turadi. Ularning orasida bir hujayrali, koloniyali va oddiy shoxlanmagan ipsimon tallom bo‘lmaydi. Hozirgi sodda tuzilgan qo‘ng‘ir suvo‘tlarining tallomi geterotrixial tuzilishli, aksariyat vakillarida tallom yirik, ancha murakkab tuzilishga ega. Tallomining anatomik tuzilishi soxta yoki haqiqiy to‘qimalarga o‘xshashligini ko‘rish mumkin.

Hujayra devori shilimshiqqlangan, yadroli va ko‘p sonli vakuolaga ega. Hujayra devori atrofida joylashgan xromotoforalar har xil shaklda.

Qo‘ng‘ir suvo‘tlari ko‘payishi 3 xil usulda: vegetativ, jinsiy va jinsiz yo‘l bilan boradi.

Vegetativ ko‘payishi tallomining teng bo‘laklarga ajralishi bilan sodir bo‘ladi. Ba‘zi turlarida maxsus shoxchalar bo‘lib, ana shu shoxchalardan tashqariga kurtakchalar uzilganidan keyin o‘sib, yangi individga aylanadi.

Jinsiz ko‘payish ko‘pchilik qo‘ng‘ir suvo‘tlarda zoosporalar vositasida boradi. Zoosporalar diploid xromosomal o‘simlik (sporofit) da hosil bo‘ladi.

Gaploid fazali zoospora va tetrasporalarning o‘shidan gaploid – gametofit o‘simlik rivojlanadi, qaysiki ularda jinsiy organlar taraqqiy etadi.

Sodda tuzilgan qo‘ng‘ir suvo‘tlarda jinsiy jarayon izogamiya yo‘li bilan boradi.

Ba‘zi bir qo‘ng‘ir suvo‘tlarda jinsiy ko‘payish geterogamiya yo‘li bilan boradi. Geteroga-metalar ko‘p xonali sporangiyda yetiladi. Sporangiyalari ikki xil, birinchisida ko‘plab mayda hujayralardan, ikkinchisida esa kam sonli, lekin yirik hujayralardan tashkil topadi. Murakkab tuzilishga ega bo‘lgan ko‘pchilik qo‘ng‘ir suvo‘tlarda jinsiy jarayon oogoniya yo‘li bilan boradi.

QO‘NG‘IR SUVO‘TLAR SISTEMATIKASI

№	SINF	TARTIB	VAKIL
1.	IZOGENERATSIMONLAR (ISOGENERATAE)	EKTOKARPUSLILAR SFATSELYARIYALILAR KUTLERIYALILAR DIKTIOTALILAR	EKTOKARPUS, SFATSELYARIYA, XETOPTERIS, KLADOSTEFUS, KUTLERIYA, ZANARDINIYA
2.	GETEROGENERATSIMON LAR (HETEROGENERATAE)	LAMINARIYALAR	LAMINARIYA , MAKROSISTIS, NEREOSISTIS
3.	SIKLOSPORASIMONLAR (CYCLOSPOREAE)	FIKUSLILAR	SARGASSUM, FUKUS, SISTOZEYRA

Qo‘ng‘ir suvo‘tlari tabiiy guruh bo‘lib , morfologik tuzilishi jihatidan suvo‘tlarning boshqa bo‘limlaridan ancha farq qiladi. Lekin shunga qaramasdan bir qancha belgilari bilan , masalan, xlorofill «a», «c» borligi, tillakoidlarning xloroplastda joylashishi, zaxira oziq modda sifatida laminarin va xrizolaminarinning to‘planishi, geterokant va geteromorf xivchinlari hamda monad tuzilishdagi



hujayralari bilan, oltin tusli , har xil xivchinlilar , diatom va pirrofit suvo‘tlar bilan o‘xshash ekanligini ko‘rishimiz mumkin.

Ana shu xususiyatlari bilan yuqorida aytib o‘tilgan suvo‘tlarni birgalikda bitta katta bo‘lim Chromophyta ga birlashtirilgan.

Qo‘ng‘ir suvo‘tlar hayot jarayonida monad hujayraning bo‘lishligi , shuningdek boshqa hamma guruhlarining qandaydir birlamchi fotosintez qiluvchi , pigmentlari ancha ustun bo‘lgan , qo‘ng‘ir rang beruvchi xivchinlardan kelib chiqqanligi ehtimoldan holi emas. Qadimda bu xildagi xivchinlilar har xil evolyutsiya yo‘li bilan borib, shulardan biri qo‘ng‘ir suvo‘tlarni keltirib chiqargan.

Qo‘ng‘ir suvo‘tlarning xivchinlilar bilan bog‘lanishi oltin tusli suvo‘tlarga nisbatan ancha uzoq, har xil xivchinlilar , diatomlar, pirrofitlar va shuningdek, yashil suvo‘tlar bilan bevosita bog‘lanadigan shakllari saqlanmagan. Qo‘ng‘ir suvo‘tlar orasida monad shakldan ipsimon, plastinkasimon tallomlarga o‘tadigan taraqqiyot bosqichlari yo‘q. Yashil suvo‘tlarda oltin tusli, har xil xivchinlar va pirrofit suvo‘tlarda bunday rivojlanish davrlari yaxshigina namoyon bo‘ladi.

Qo‘ng‘ir suvo‘tlar qadimgi suvo‘tlardan bo‘lib , uzoq davom etgan evolyutsiya jarayonida ularning shakllari saqlanib qolmagan.

Qo‘ng‘ir suvo‘tlar bo‘limiga oid qarindoshlik aloqalari va ularning sistematik o‘rni to‘g‘risida aniq bir dalillar isbotlanmagan. Lekin qo‘ng‘ir suvo‘tlarning filogenetik sxemasini tuzishda tallomining o‘xshashlik belgilari asosiy omil qilib olinadi. Bularning evolyutsiyasi difeetik bo‘lib, evolyutsiyaning birinchi yo‘nalishida sfaselyariyalar, diktiotalilar va laminariyalarni birlashtiradi. Ikkinchi yo‘nalishda esa ektokarpuslilar , kutleriyalar va laminariyalilarni biriktiradi.

Ikkala guruh tartiblari tallomi o‘shisi bilan farq qiladi; birinchi guruh vakillari tepadan o‘shisi bilan xarakterlansa , ikkinchisi interkolyar o‘shish bilan farq qiladi.

Hozirgi vaqtda ko‘proq ishlatiladigan Sistema Kilin sistemasi hisoblanadi.

Qo‘ng‘ir suvo‘tlarining morfologik belgilari va taraqqiyot siklini e‘tiborga olib, ular uchta sinfga : izogeneratsimonlar, geterogeneratsimonlar va siklosporasimonlar sinflariga bo‘lingan.

Qo‘ng‘ir suvo‘tlarining ahamiyati quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

Ulardan to‘qimachilik , oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida ishlatiladigan yelimsimon modda – algin olinadi. Primore o‘lkasidagi dengiz qirg‘oqlarida to‘plangan qo‘ng‘ir suvo‘tlar chirindilari tarkibida azot va kaliy tuzlari ko‘p bo‘ladi , shuning uchun ham ular o‘g‘it sifatida ishlatiladi.

Bundan tashqari, hayvonlarga yem-xashak sifatida beriladi. Sharq mamlakatlarida laminariya yaponika (dengiz karami) oziq- ovqat sifatida ishlatiladi.

Shuningdek tibbiyotda ishlatiladigan alginat, yod va boshqa moddalar olinadi. Oqava suvlarni tozalash va suv havzalarini ifloslanishini aniqlashda bioindikator sifatida keng foydalaniladi.



Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.H.Qarshiboyev , U.N.Usanov, N. O. Karimov, M.SH.Yaxshiyev. Botanika. Toshkent.2015.
2. SH.J.Tojiboyev, N.M.Naraliyeva. Botanika.Tuban o‘simliklar. Namangan 2016
3. L.L.Velikanov Tuban o‘simliklar «O‘qituvchi» 1965
4. S.S.Sahobiddinov O‘simliklar sistematikasi «O‘qituvchi»1966



BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHILARNING O‘ZARO HAMKORLIKKA ASOSLANGAN IJODIY FAOLIYATLARINI TASHKIL ETISH SHART-SHAROITLARI

**Buxoro davlat universiteti, maktabgacha ta‘lim kafedrası
o‘qituvchisi M.A. Qosimova**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich ta‘lim jarayoni sifatini oshirishda hamkorlikda o‘qitish ta‘lim texnologiyasidan foydalanish asosida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini tashkil etish, ularni ongli, ijodiy, mustaqil fikrlashga o‘rgatish, turli zamonaviy yondashuvlarga asoslangan hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi orqali ta‘lim jarayonidagi ijodiy muhitni yaratish, samarali ta‘lim usullarini qo‘llash natijasida kreativ fikrlaydigan ijodkor shaxsni tarbiyalashga erishishga oid tavsiyalar haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: boshlang‘ich ta‘lim, o‘zaro hamkorlik, ta‘lim texnologiyasi, zamonaviy yondashuvlar, mustaqil fikrlash, ijodiy muhit, shaxsiy ehtiyoj, shaxs, muloqot, didaktik qarashlar, pedagogik ta‘limot, mustaqil mushohoda, do‘stona munosabat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются рекомендации по организации творческой деятельности учащихся на основе использования технологии совместного обучения в повышении качества процесса начального образования, обучению их осознанному, творческому, самостоятельному мышлению, созданию творческой среды в образовательном процессе через технологию совместного обучения на основе различных современных подходов, достижению воспитания творчески мыслящей творческой личности в результате применения эффективных методов обучения.

Ключевые слова: начальное образование, взаимодействие, образовательные технологии, современные подходы, самостоятельное мышление, творческая среда, личностная потребность, личность, общение, дидактические взгляды, педагогическое учение, самостоятельное наблюдение, дружелюбие.

Annotation: this article will talk about the organization of creative activities of students based on the use of collaborative teaching educational technology in



improving the quality of the primary education process, teaching them to think consciously, creatively, independently, creating a creative environment in the educational process through collaborative teaching technology based on various modern approaches, achieving the upbringing of a creatively thinking creative person as a result of

Keywords: primary education, interaction, educational technology, modern approaches, independent thinking, creative environment, personal need, personality, communication, didactic views, pedagogical doctrine, independent observation, friendly attitude.

Таълим жараёнида ўқувчиларнинг ҳамкорликка асосланган ижодий фаолиятини ташкил этиш учун ахборотли маҳсулотларни тайёрлаш ва улардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Мазкур жараёнда сунъий интеллект ёки мантикий-лингвистик моделдан унумли фойдаланиш мумкин. Билимларни моделлаштириш турли илмий йўналишлар, турли мақсадларда амалга оширилади. Эксперт тизимлар назариясида бу методдан интеллектуал вазифаларни компьютер воситасида ечишда фойдаланилади. Ўқув муҳитида ўқитувчи ҳам жисмоний, ҳам виртуал эксперт модел сифатида намоён бўлади. Педагогика фани учун умумлашган қувватларни қўлга киритиш ўта муҳим аҳамиятга эга. Чунки, у янги билимларни ўзлаштиришни таъминлайди. Умумлашган қувватларни сарфлаш ўқув жараёнида жуда зарур ҳисобланади. Жумладан:

- 1) ўқувчиларни аниқ илмий, амалий муаммоларни ечишга жалб этиш, бу жараёнда уларда муайян қизиқишларни ҳосил қилиш;
- 2) ўқувчиларнинг мантикий-лингвистик модели топшириқларни ечиш ва уларнинг ечимларини текшириш имкониятини яратиш;
- 3) қўлга киритилган натижаларни аксарият ҳолларда электрон кўринишларда ифодалаш.

Бунинг натижасида ўқувчиларда компьютердан фойдаланишга оид дастлабки кўникмалар таркиб топади. Шунда ҳар бир ўқувчида ўзлари учун зарур бўлган ахборотлар базасини яратишга бўлган интилиш вужудга келади. Бу жараёнда гуруҳ аъзолари биргаликда ҳаракат қила бошлайдилар. Ҳар бир ўқувчи ўз билим захирасини гуруҳдошлари эгаллаган билимлар ёрдамида

бойитиш имкониятини қўлга киритади. Бунда уларга янги билимлар билан бойитилган ўқув материаллари яқиндан ёрдам беради. Бунинг учун, ўқитувчи интеллектуал характердаги ўқув топшириқларидан кенгрок фойдаланган ҳолда ҳамкорликка асосланган ўқув муҳитини вужудга келтиришга муваффақ бўлади.

Таълим-тарбия тизимига бундай ёдашувни тадбиқ қилиш натижасида мактаб таълимида янги йўналиш вужудга келади. Педагогик ҳамкорликка асосланган ўқиш назарияси ўзида қуйидагиларни мужассамлаштириши керак:

1) ўқувчиларнинг қувватларини мужассамлаштириш асосида умумлашган натижани қўлга киритишга асосланган жамоа меҳнатини ташкил этиш технологияси;

2) интеллектуал технологияларга асосланган ахборотларга ишлов бериш усулларини.

Бундай ёндашув натижасида бошланғич синф ўқувчиларида интеллектуал маданиятни шакллантиришга эришилади. Бу ҳолатда ҳамкорлик ва ҳамжиҳатликка асосланган билимлар тўрт кўринишда намоён бўлади:

1) фундаментал билимларнинг вужудга келишига асос бўладиган, умумий қарашлар, илмий дунёқараш асоси, ғоялар, тамойиллар, тимсоллар, тасаввурлар тизимидан иборат парадигма;

2) номунтазамлик, очиқлик, ўтиш характеридаги, жараёнларнинг тенгсизлигига асосланган ғоя атрофида бирлашадиган муайян хусусий қарашлар;

3) тизимларнинг ўз-ўзини ташкил этиш ёки ўтиш жараёнларига оид умумий ёндашувлар;

4) барқарор тафаккурнинг шаклланиши, ўтиш характеридаги далилий шакллар ва образлар, янгича дунёқараш ҳамкорликнинг асосини ташкил қилади.

Бугунги кунда педагогика фанида янги тафаккурга асосланган “ўқитувчи-ўқувчи”, “ўқувчи-ўқувчилар” ҳамкорлиги, дўстона муносабатга йўналтирилган ўқув жараёнини ташкил этиш зарурияти пайдо бўлмоқда. Бундай ўқув вазияти “педагогик ҳамкорлик жараёни” деб номланмоқда. Педагогик ҳамкорлик билан боғлиқ бўлган масалалар В.А.Аршинов, Ю.А.Данилов, Б.Б.Кадомцев, Е.Н.Князева, С.П.Курдюмов, А.Ю.Лоскутов, А.П.Назаретян, Дж.Николис, И.Пригожин, И.Стенгерс, Г.Хакенларнинг

ишларида ўз ифодасини топган. Мазкур ишларда таркиблашмаган ва муайян тартибга солинмаган муносабатларнинг мавжуд эмаслиги таъкидланади. Муайян ҳолатларда тасодифийлик ҳам яратувчилик характериغا эга бўлиши педагогик нуқтаи назардан асосланган.

Таълим жараёнида бир қатор зиддиятларнинг мавжудлиги туфайли ҳам ўқув жараёнини педагогик ҳамкорлик асосида ташкил этиш вазифаси янада долзарблашмоқда. Жумладан:

- ўқитувчи фаолиятида ҳамкорликка асосланган ёндашувни тадбиқ этиш зарурияти билан педагогик ҳамкорликнинг концептуал асослари етарлича ишлаб чиқилмаганлиги орасида;

- анъанавий мунтазам тафаккур тарзи билан номунтазам, ишончли тафаккур тарзи орасида;

- шахсга йўналтирилган таълимни тантанали тарзда тарғиб этиш билан уни амалга оширишнинг самарали технологиялари мавжуд эмаслиги орасида;

- мавжуд идеаллар, ғоялар асосида ташкил этилган таълим тизими билан кўпвариантли, рангба-ранг мазмунга эга бўлган таълимнинг очиқ модели орасида;

- инсон оламини ўзлаштириши турли усулларининг интеграцияси билан табақалашуви орасида;

- ўқув-тарбия жараёнини ташкил этишнинг шакллари ва методлари номуносиблиги билан ўқувчиларнинг ўқув имкониятлари ҳамда эҳтиёжлари орасида зиддиятлар кузатилмоқда.

Шу тариқа, педагогик ҳамкорлик муаммосининг етарли даражада ишланмаганлиги, ўқитувчи фаолиятини ташкил этишга ҳамкорлик асосида ёндашиш, унинг назарий-амалий аҳамиятини очиб бериш, бошланғич синф ўқувчилари билан педагогик ҳамкорликни амалга ошириш имкониятларини аниқлашнинг долзарблиги тадқиқотнинг асосий йўналишини белгилаш имконини берди.

Асосий муаммо шундан иборатки, ўқув жараёнини қандай бошқариш, бу жараённи ўқувчиларнинг ривожланишларига йўналтириш муҳим аҳамиятга эга. Бу жараёнда ўқувчининг ўз-ўзини бошқариш ва уни қўллаб-қувватлашга асосланган ўқув вазиятини ташкил этиш муҳимдир. Асосий муаммо бўшлиққа қандай барҳам бериш, унинг ўрнида ижодий муҳитни вужудга келтириш, уни

табийй инновациялар туғиладиган жараёнга айлантириш муҳим вазифалардан биридир.

Номунтазамликка асосланган билиш жараёнини тушуниш учун ҳамкорлик назариясидан фойдаланиш лозим. Бу эса, таълим жараёнида янги билимларни ўзлаштиришни англатади. Таълим ривожлантирувчи характерга экан, бу жараёнда жадал тарзда янги ҳолатга ўтиш имконияти вужудга келади. Ўқувчининг билимлари ва хулқ-атвори янгича кўринишга эга бўлади. Бир сўз билан айтганда, ўқувчилар ўзлаштирган билимларнинг таркиби янгиланади. Таълим ўқувчилар учун янгича қувват касб эта бошлайди. Натижада таълим жараёнида ўқувчи шахсиятида қайта қуриш имконияти вужудга келади.

Ҳамкорлик назариясига таянган ҳолда таълим жараёнида ўзига хос ўзаро алоқадорликдаги ўзгариш вужудга келадик, бунинг натижасида таркиб топган хулқ-атвор ёрдамида ўқувчи олдида қўйилган вазифаларни ечиш имконияти кенгайди. Ўзлаштирилган билимлар ўқувчи ички тараққиётини янгича шаклга киришини таъминлайди. Бу ўринда таълим хотирани жадаллаштирувчи жараён ҳисобланади. Бу жараёнда ўқувчи ўзлаштирган билимлар унинг хулқ-атворини ривожлантиришга йўналтирилади. Ўқув жараёни яқунланганда ўқувчи хотирасида ўзлаштирилган билимлар тўпланади ва унинг ижтимоий тажрибасига айланади.

Ҳамкорликка асосланган таълим жараёнида ўқувчилар ўзаро фикр алмашадилар, муомала қилиш маданиятини эгаллайдилар, ҳар бир ўқувчи ўзи, гуруҳдошлари, синфдошларининг муваффақияти учун ҳаракат қилади.

Натижада уларда ўзаро ишонч ва самимий дўстона муносабат таркиб топади. Бирдамлилик, ҳамжиҳатлилик кучи ва синфдошларининг ютуқлари учун масъулиятни ҳис қила бошлайдилар. Дўстона муносабатлар асосида таълим жараёнини ташкил этадиган ўқитувчиларнинг қиёфаси ва иш услубида муайян ижобий ўзгаришлар кузатилади. Дарс жараёнининг таркибий тузилишидан тортиб, ўқувчиларнинг билимини баҳолашгача, позитив, ижобий муносабат, уларнинг имкониятларини ҳисобга олган ҳолда белгиланган талаблар намоён бўлади.

Ҳамкорликка асосланган ўқув-билув жараёнини ташкил этишнинг педагогик шарт-шароитларини аниқлаш учун бу соҳада мавжуд бўлган ёндашувлар, тушунчалар, қарашлар, таълимотларни тўплаш, тасниф қилиш ва

уни ўқитувчи фаолиятига жорий этиш мақсадида тегишли илмий-методик тавсиялар ишлаб чиқиш заруриятининг мавжудлиги аён бўлди.

Ming yillar davomida dono fikr, o‘tkir haqiqat, teran mazmun, so‘z xazinasining boyliklarini o‘zida mujassamlashtirgan son-sanoqsiz va rang-barang maqollarning tarbiyaviy ahamiyati beqiyosdir. «Og‘ani ko‘rib ini o‘sar, opani ko‘rib-singil», «Tegirmonni suv buzar, odamni odam buzar» kabi maqollar ibrat-namunaga misol bo‘la oladi. Chunki har bir oilada ukalar akalarga, qiz ona, opalariga qarab tarbiya oladi, voyaga etadi. Lekin yaxshi odamlar yaxshilarni ko‘paytirsa, yomonlar oz bo‘lsa-da yosh avlod tarbiyasiga salbiy ta’sir etadi.



Demak, ota-ona va kattalarning ibratli fe'l-atvor va xatti-harakatlari shu oiladagi bolalarga ijobiy ta'sir qilgani kabi ularning nojo'ya xatti-harakatlari bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi yosh bolalar, o'z tabiatlariga ko'ra, ko'pincha kattalarga taqlid qiladilar. SHuning uchun ham o'z oilalaridagi kattalar misolida ijobiy va salbiy fe'l-atvorga ega bo'lishlari mumkin.

Bunday hikoyatlar xalq ijodida ko'plab uchraydi va voqealar bayonida yaxshi xislatlari uchun mukofot olsa, rag'batlantirilsa yomon qilmishlari uchun jazolanganligi, har kim qilmishiga yarasha ajr olishi aytiladi.

Bundan tashqari o'zbek xalqining milliy qadriyatlarida ishontirish metodidan ham foydalanilgan. Bunda, asosan ko'rgazmali, masalan, «Ona yurtning omon bo'lsa, rangi-ro'ying somon bo'lmas» maqolida inson o'z vatanida tinch-totuv hayot kechirsa, u baxtli-saodatli bo'ladi, degan fikr yotadi. Bunday maqollar xalq orasida juda ko'p. «Bir ko'rgan, yuz eshitgandan yaxshi», «Yong'oq olsang chaqib ol, ipak olsang boqib», «Jasurni-jangda, donishmandni-g'azablanganda, do'stni-muhtojlikda sina», «Ishonish bilan kasal bo'lsang, umid bilan tuzalasan» kabi maqollar insonni qat'iy ishonch bilan ish ko'rishga undaydi.

Oila-mahalla-maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligi tizimi doirasida bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda quyidagi tamoyillarga asoslanildi: vorisiylik, sulolaning muayyan an'analarga egaligi, bolalarning yosh xususiyati, farzandlarning gender mansubligi va o'ziga xos psixologik sifatleri, individual tarbiya va ijodiy yondashish, onaning pedagogik qobiliyati, ibrat, milliy-ma'naviy qadriyatlarga hurmat.

Bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonini ularga yaxshilik va yomonlik, ezgulik va yovuzlikni farqlash, jamiyatning axloqiy va madaniy qadriyatlari, shuningdek ma'naviy-axloqiy sifatlar

– saxiylik, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, tinchliksevarlik haqida ma'lumot olishlariga yordam beruvchi o'zbek xalq ertaklari, topishmoq, maqol va matallar bilan to'ldirib borilishiga katta e'tibor qaratish lozim.

Bolalar yoshligidanoq xalq og'zaki ijodi janrlari bilan tanishtiriladi. Bular – ona allasi, o'yinlar – bolalar bilan ermaklar (“Chapaklar”, “Qo'l harakatlari”, “Hayvonlar harakatlariga taqlidlar”), maqollar, matallar, topishmoqlar, ertaklar. Xalq og'zaki ijodi bolajonlarning bilish faolligi, mustaqilligi, individualligi, hissiyotlari, atrof-olamga munosabati, nutq ko'nikmalari rivojlanishi uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Maktabgacha ta'lim muassasasi va oilada bolalarni ma'naviy-

axloqiy tarbiyalashda xalq og‘zaki ijodining turli shakllaridan maqsadli va tizimli foydalanish ularning ruhiy va jismoniy jihatdan kamol topishiga zamin yaratadi.

Maktabgacha ta'lim muassasasi va mahallalardagi ta'lim-tarbiya jarayonida yuqorida qayd qilingan tashkiliy va pedagogik-psixologik shart-sharoitlarni amalga oshirish bolalarni alla vositasida ma'naviyaxloqiy tarbiyalashda, balog‘at yoshidagi qizlar va yosh onalarda allalardan tarbiya vositasi sifatida foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish va metodik tayyorgarlikni rivojlantirishga imkon beradi.

Oilada bolalarni milliy qadriyatlar vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiyalash jarayonining pedagogik-tashkiliy tuzilmasi ishlab chiqildi

Oila–mahalla–maktabgacha ta'lim muassasasi hamkorligida alla vositasida ma'naviy-axlokiy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish mexanizmi ko‘rgazmali-faoliyatli fikrlash, allaning sinxron ta'siri (fonematik tovushlar) va xalq og‘zaki ijodining alla, maqol, topishmoq, matal, tez aytish, ertak kabi kichik janrlariga ustuvorlik berish asosida takomillashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, o‘zbek xalqining milliy qadriyatlarida yosh avlodni oilaviy hayotga tayyorlashda ta'lim-tarbiya metodlari, usullari keng qo‘llanilganki, o‘zining amaliyligi, avlodan-avlodga o‘tib, tajribada sinalganligi va hayotiyliigi bilan tarbiya tizimida katta ahamiyatga egadir. Biz bu borada yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo‘llanilgan metod va usullar, farzand tarbiyasida ota-ona ibratini, oilada bolalarni aqliy, axloqiy, mehnat va hunar, estetik va jismoniy tarbiyasida xalq hikmatlari, maqol va iboralar, hikoyatlar, rivoyatlar, ertaklar, dostonlarda xalq foydalangan metod va usullarni hozirgi davrda yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashda qo‘llash muhim hisoblanadi.

Bog‘cha tarbiyalanuvchilari ongida yuqoridagi fazilatlarni shakllantirishda oila va tarbiyachi hamkorligi alohida o‘rin tutadi. Ta'lim jarayonida maktabgacha ta'lim muassasasi bilan uy, pedagogik jamoa bilan ota-ona hamjihatligi yaxshi samara berishi amalda isbotlangan. Maktabgacha yoshdagi bolalarni axloqiy tarbiyalashda oilada ota-ona, aka-uka hamda opa-singillarning ham alohida o‘rinni egallashi bu oiladagi muhitga juda ham bog‘liq deb hisoblasak bo‘ladi. Barkamol avlodning tarbiyasi haqida gapirar ekanimiz Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning “Kelajak – bog‘chadan boshlanadi” degan fikrlari beixtiyor yodimizga keladi. Darhaqiqat bog‘cha bu bolalarimizning ham tarbiyaviy ham intellectual bilimlarning olishilari uchun debocha dargoh hisoblanadi. Oilaviy marosimlar xalq ma'naviyatining



tarkibiy qismi, muhim axloqiy qadriyati, ta'sirchan tarbiya vositasi sanaladi. Oilaviy marosimlar jarayonida namoyon bo'ladigan axloq-odob, mehr-oqibat kabi xislatlar yoshlar ma'naviyati shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Xalq an'analari qadrlanadigan oilalarda tarbiya topgan yoshlar ibratli axloqi bilan bosh qalardan ajralib turadi. Bunday oilalardan jinoyatchi, bezori kishilar chiqmaydi. Shu bois xalq an'analari va oilaviy urf-odatlar yordamida yoshlarni tarbiyalash muhim ahamiyat kasb etadi.. Ajdodlarmiz asrab-avaylab kelgan urf-odatlarimizni, sharqona odobimizni, naslimiz pokligini, buyukligimizni asrab-avaylab kelgusi avlodga yetkazish siz-u bizning qo'limizdadir.

Maktabgacha ta'lim tashkiloti 3-4 yoshli bolalarni oilada axloqiy tarbiyalashda bir qancha yo'llari mavjud bo'lib, ular o'ziga xos omillarga bog'liq. Ta'lim va axloqiy tarbiya individual, guruhda va jamoada amalga oshiriladi.

Masalan, axloqiy tarbiyaning individual shakllari ichki dunyoning o'ziga xos xususiyatlarini, shaxsning yashash sharoitlarini hisobga oladi, ma'lum bir shaxsga ta'sir qilishning yeng samarali usullaridan foydalanadi. Shu bilan birga, ushbu ta'lim shakli tarbiyachining malakasi bilan cheklangan va bir tomonlama bo'lishi mumkin. Ushbu ta'lim shakli, qoida tariqasida, boshqalar tomonidan to'ldiriladi.

Quyidagi axloqiy tarbiya usullari tasnifda mavjud:

Og'zaki shakl: (jamoaviy yig'ilish, yig'ilish, ma'ruza, ma'ruza, munozara);

Amaliy shakl: (yurish, ekskursiya, sport musobaqasi, olimpiada, musobaqa);

Vizual shakl: (muzey, ko'rgazma, tematik stend).

Axloqiy tarbiyaning ko'p qirrali jarayoni tashkilotning turli shakllarini o'z ichiga oladi.

Axloqiy tarbiya jarayoni bir tomonlama bo'lishi mumkin emas. Axloqiy tarbiyaning eng mashhur usullariga mashqlar bajarish, bolani ishontirish, buzilish, rag'batlantirish va motivatsiya, aks ettirish, taklif, yaxshi ishlarni tasdiqlash uchun rag'batlantirish, yomon ishlardan xalos bo'lish uchun jazo usuli, vaziyatlarni tarbiyalash usuli va ijtimoiy sinov-testlar misol bo'ladi.

Yuqoridagi usulni tanlashga ta'lim faoliyatining mazmuni va yo'nalishi ta'sir qiladi. Amalda ta'limning yuqoridagi barcha shakllari va usullari bir-biri bilan chambarchas bog'liq va bir-biriga mos keladi. Asosiysi, axloqiy tarbiya jarayonining mazmuni umumiy asosga yega, uning barcha ko'rinishlarida umumiy boshlanishlarga yega. Bu nafaqat axloqiy tarbiya, balki axloqiy xulq-atvor



ko'nikmalarini rivojlantirish bilan ham muhimdir. Bunda tarbiyachilar, oila a'zolari va ota-onalarning roli juda katta.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Куликова Т.А. Семейная педагогика и домашнее воспитания: Учебное пособия. 2-издания. М.: Аадемия, 2000-232 с.

2. Musurmonova O. Oila ma'naviyati – milliy g'urur. – T.: O'qituvchi, 1999, – 198 b.

3. Yo'ldoshev F., Haydarov O. Ma'naviy meros va yosh- lar tarbiyasi. // Guliston, 1999, 5-son, 5–6-betlar.

4. Xalmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniya- tini takomillashtirish va sog'lom avlodni tarbiyalash muammolari: Falsafa fanlari d-ri...dis./ Toshkent dav- lat agrar un-ti. – Toshkent, 1998. – 326 b.



Research Science and Innovation House



OMMAVIY SPORT BILAN SHUG‘ULLANISH KO‘LAMINI YANADA KENGAYTIRISH YO‘LIDA SPORT XIZMATLARI BOZORINING IQTISODIY MUNOSABATLARI VA UNING XUSUSIYATLARI

Ismagulova Gulmira Nuraliyevna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
“Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish” kafedrasida katta o‘qituvchisi;

Matkarimova Nargiz To‘xtasinovna

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti,
“Menejment va sport tadbirlarini tashkil etish” kafedrasida dotsenti;

Anotatsiya: Sport xizmatlari bozorining xususiyatlarini o‘rganish asosida O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishning asosiy joriy sog‘lomlashtirish tendentsiyalarini aniqlash yo‘lidagi jismoniy tarbiya xizmatlari bozorining shakllanishi va rivojlanishiga ko‘maklashish, aholi talabini qondirish orqali yuqori turmush darajasi sifatiga javob beradigan muvozanatli takror ishlab chiqarish jarayonini ta‘minlashdagi roli va o‘rni belgilab berildi.

Kalit so‘zlar: xizmatlar bozori, sog‘lomlashtirish va fitnes xizmatlari, bozor funktsiyalari, aholi salomatligi, jismoniy tarbiya va sport iqtisodiyoti.

Аннотация: На основе изучения особенностей и функций рынка физкультурно-спортивных услуг определены основные современные тенденции развития индустрии спорта и отдыха в Республике Узбекистан; Поддерживая формирование и развитие рынка физкультурных услуг, определена роль и место в обеспечении сбалансированного воспроизводственного процесса, отвечающего качеству высокого уровня жизни путем удовлетворения спроса населения.

Ключевые слова: рынок услуг, физкультурно-оздоровительные услуги, рыночные функции, здоровье населения, экономика физической культуры и спорта

Abstract: The main current trends in development of sports and improving branch in Republic of Uzbekistan are revealed on the basis of the research of features and functions of the market of services of physical culture and sport. The role and place of the market of sports services in the promotion of formation and

development, supplying a balanced reproduction process that meets the quality of a high standard of living by meeting the demand of the population are determined.

Keywords: market of services, sports and health services, market functions, health of the population, economy of physical culture and sport.

Dolzarbligi. Bugungi kun talabida xizmat ko'rsatish bozorining o'rni, ahamiyati, vazifalari va o'rnini, shuningdek, uning milliy iqtisodiyotning uzluksiz va barqaror rivojlanishini ta'minlashga ta'sirini aniqlash iqtisodiyotni rivojlantirishning eng muhim shartlaridan biridir. Aynan shu shartlarni bajarish uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan “2019-2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommoviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi” Qaror sifatida tasdiqlandi [1].

Iqtisodiy tushunchada bozor sotuvchilar va xaridorlarning o'zaro munosabatlari uchun zarur bo'lgan shartlar yig'indisi sifatida ta'riflanadi, ular ostida xizmat (tovar) sotish yoki sotib olish amalga oshiriladi. Aynan shu toifadagi oldi-sotdi sotuvchi va xaridor o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy maqsadi bo'lib xizmat qiladi. Shunday qilib, bozor tovar va pul muomalasining barqaror o'zaro ta'siri asosida vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar tizimi bo'lib, bunda eng muhim tarkibiy qismlar yoki toifalar: ehtiyoj (ehtiyoj), talab va taklif, narx, bozor raqobati, ayirboshlash [2].

Sport xizmatlari bozori kontsepsiyasiga kelsak, uning zamonaviy iqtisodiy nazariyasi uni jismoniy tarbiya va sport klublari (firmalar, tashkilotlar) va iste'molchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar sifatida belgilaydi, ularda klublar sotadi va iste'molchilar sportchilarni sotib oladilar. Jismoniy rivojlanish, funksional tayyorgarlik va salomatlik darajasini oshirish ehtiyojlariga mos keladigan xizmat sifatida vazifasini bajaradi.

Tadqiqot maqsadi. Aniqlanishicha, amalda sof xususiy tovarlar bozor muomalasiga to'liq hajmda kiradi - bular jismoniy shaxsga (jismoniy yoki yuridik) boshqa shaxslarning ishtirokisiz ushbu tovarlar raqobatbardoshlik xususiyatiga ega bo'lganligi sababli berilgan tovarlardir. Bu shuni anglatadiki, sof xususiy tovarlar - bu ma'lum bir xaridorga baholanishi va sotilishi mumkin bo'lgan tovarlardir. Shu boyis, pullik xizmatlar bozorining rivojlanishini tavsiflovchi omillarni o'rganish masalasi muhim jihatdir.

O‘rganish usullari va tashkil etilishi:

Bir qator mualliflarning fikricha, pullik xizmatlar bozori hozirgi jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida hamon zarur rol yoki funktsiyani bajarib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, quyidagi omillarni ajratib ko‘rsatish mumkin [3]:

- davlatning makroiqtisodiy roli - uning sub'ektlari, ayniqsa, kichik biznes sohasida zarur shart-sharoitlarni yaratish orqali pullik xizmatlar bozorini rivojlantirishni yanada rag'batlantirish, yangi soliq tizimini yaratish, xizmatlar ko‘rsatishda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishga qaratilgan. xizmatlar;

- aholining turli qatlamlari turmush darajasini oshirish va ularning daromadlarini oshirish;

- xizmatlar ishlab chiqarishning hozirgi holati va o‘shish dinamikasi (xizmatlar ko‘rsatish va pullik xizmatlar bozorining texnik-iqtisodiy asoslari), bu nafaqat ushbu bozor parametrlarini, balki taqdim etilayotgan xizmatlarning zamonaviy sifatini ham belgilaydi (ba’zilari). pullik xizmatlar turlari yuqori texnologiyali - mobil aloqa, ta’lim, tibbiy, Bank xizmatlari);

Jismoniy tarbiya va sport xizmatlari bozori: funktsiyalari va xususiyatlari quyidagilardan iborat:


– menejerlar va marketologlar kabi zaruriy o‘qitilgan kadrlarning, shuningdek, xizmatda band bo‘lgan turli shakldagi ta’lim va o‘qitishning keng tarmog‘ining mavjudligi;

– xizmatlar ko‘rsatishda beqiyos ahamiyatga ega bo‘lgan madaniyat va urf-odatlar, chunki pullik xizmatlar bozorining holati, uning tizimi va ko‘rsatilayotgan xizmatlar sifati ko‘p jihatdan jamiyat a‘zolarining, shuningdek, barcha sub'ektlarning madaniyati darajasi bilan belgilanadi. pullik xizmatlar bozori, umuman ijtimoiy-madaniy omil holati.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, xizmat ko‘rsatish bozori hozirgi ko‘rinishiga nisbatan yangi va dinamik rivojlanayotgan hodisa bo‘lib, uning tuzilishi hali shakllanmagan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Ishlarini o‘rganish asosida zamonaviy xizmatlar bozorini to‘liq tavsiflamaydigan xizmatlar bozori va uning sub’yektlarining kengaytirilgan tuzilmasini ajratib ko‘rsatish mumkin (1-rasm).





1-rasm. Xizmatlar bozorining kengaytirilgan tuzilmasi

Zamonaviy iqtisodiy nazariya nuqtai nazaridan jismoniy madaniyat xizmatlari bozorining o'ziga xos xususiyati shundaki, jismoniy tarbiya xizmatlarining mavjudligi jismoniy faollikni qondirish shakllarining xilma-xilligi va jismoniy tarbiya xizmatlarining yuqori heterojenligi. ularni ta'minlash jarayoni, ushbu xizmatlarni sotuvchi firmalar uchun narxlarni manipulyatsiya qilish orqali raqobatlashish qiyin. Jismoniy tarbiya xizmatlari bozorida sotuvchining iqtisodiy faoliyati samaradorligi, birinchi navbatda, maqsadli iste'molchilar guruhlari qiymat tizimining asosiy elementlarini aniqlash va bozor taklifini eng yaxshi tarzda moslashtirgan holda ularning ehtiyojlarini qondirish orqali belgilanishi kerak. raqobatchilardan farqli o'laroq [4].

Jismoniy tarbiya va sportning ushbu sohadagi mehnatkashlar faoliyati sifatidagi xizmat ko'rsatish, asosan, aholining jismoniy rivojlanishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi va bu orqali moddiy ishlab chiqarishning potentsial imkoniyatlarini kengaytiradi.

Jismoniy tarbiya va sport xizmatlarini ehtiyoj va yaxshilik tushunchalari nuqtai nazaridan ko'rib chiqish ushbu xizmatlarni jismoniy tarbiya va jismoniy tayyorgarlik ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat sifatida belgilashga imkon beradi.

Shu bilan birga, sport xizmatlari bozori boshqa xususiyatlarga ega: taklifning yuqori dinamikligi va mahalliy xarakteri; segmentlarga hududiy va tovar bo'linishi; kapital qo'yilmalar aylanmasining yuqori sur'ati; kichik va o'rta tashkilotlar

tomonidan jismoniy tarbiya xizmatlarini ko'rsatishda ustunlik qilish va boshqalar Bundan tashqari, jismoniy tarbiya xizmatlari bozori uning asosiy ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi bir qator iqtisodiy funktsiyalarni bajaradi. Ba'zi olimlarning fikriga ko'ra, jismoniy madaniyat xizmatlari bozorining funktsiyalari:

- aholining jismoniy tarbiya xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlarini tartibga solish va qondirishni ta'minlashda;
- raqobat mexanizmlari orqali jismoniy tarbiya xizmatlari sifatini oshirishda;
- umuman jismoniy tarbiya sohasining kengayishini ta'minlashda, chunki talab yangi bozor tuzilmalarini keltirib chiqaradi;
- muayyan hududning berilgan chegaralarida qiymat qonunining amal qilishi orqali jismoniy tarbiya xizmatlari narxlarini tartibga solishda.

Biroq, bu jismoniy tarbiya xizmatlari bozori funktsiyalarining to'liq ro'yxati emas.

Jismoniy tarbiya xizmatlari bozori tanlangan xususiyatga qarab quyidagilarga bo'linishi kerak:

1. xizmatlar shaklida

– "bepul" jismoniy tarbiya xizmatlari bozori (davlat notijorat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlari, bunda ushbu xizmatlarning yakuniy foydalanuvchisi uchun to'lov davlat tomonidan maqsadli byudjetdan ajratmalar shaklida yoki davlat tomonidan amalga oshirilishi mumkin. jamoat tashkiloti a'zolarining o'zlari, tashkilot homiylari va boshqalar);

– pullik jismoniy tarbiya xizmatlari bozori (xizmatlar uchun to'lov yakuniy iste'molchi tomonidan uning shaxsiy mablag'lari hisobidan yoki ushbu iste'molchining ish beruvchisi tomonidan amalga oshiriladigan davlat notijorat va xususiy tijorat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlarining xizmatlari. jismoniy tarbiya xizmati).

2. mahsulot bozori segmenti turlari bo'yicha

– tibbiy va jismoniy tarbiya xizmatlari bozori (ushbu turdagi xizmatlarni ishlab chiqarish va aholiga sotish jarayonida nafaqat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari faol ishtirok etadilar);


fizika terapiyasiga ixtisoslashgan, shuningdek, "tegishli" xizmat ko'rsatish sohasidagi tashkilotlar: tibbiy rehabilitatsiya markazlari, go'zallik salonlari, kosmetologiya markazlari va boshqalar);

– sog'lomlashtirish va profilaktika xizmatlari bozori (davlat va notijorat jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari va harakatlari aholiga ushbu turdagi jismoniy tarbiya xizmatlarini ishlab chiqaruvchilar sifatida ishlaydi);

– ommaviy sport xizmatlari bozori (ushbu turdagi xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar aholiga ommaviy sport turlari bo'yicha uydan tashqari uyushtirilgan mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyatini beradigan moddiy-texnik bazaga ega bo'lgan turli mulkchilik shaklidagi tashkilotlardir, masalan; sport majmualari, sport zallari, suzish havzalari, stadionlar, tekis o'yin maydonchalari).

Bozorda ma'lum bir mahsulot toifasi sifatida jismoniy madaniyat xizmati "ikki tizim, ya'ni "xaridor" va "sotuvchi" kombinatsiyasi natijasida paydo bo'ladi. U ikkala tizimni ham o'z ichiga oladi, chunki jismoniy tarbiya xizmati uzluksiz o'zaro bog'langan holda taqdim etilishi mumkin. Bozorda jismoniy tarbiya xizmatlarini ommaviy joriy etishda muvaffaqiyatga alohida segmentlarga (iste'molchilar guruhlari), ularning qiziqish doirasiga va ma'lum bir hududdagi daromad darajasiga e'tibor qaratish orqali erishish mumkin.

Jismoniy tarbiya xizmatlariga bo'lgan talab sog'liqni saqlash (yoki boshqa maqsadlar) uchun jismoniy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj, o'ziga xos ehtiyoj va istaklardan iborat bo'lib, xarid qobiliyati bilan qo'llab-quvvatlanadi. Bozor talabining shakllanish zanjirini tavsiflashda an'anaviy yondashuvdan foydalanib, biz jismoniy tarbiya xizmatlariga bo'lgan talabning asosiy tarkibiy qismlarini keltiramiz (2-rasm).



2-rasm – Bozor sharoitida jismoniy tarbiya xizmatlariga talab komponentlari.


Talabni shakllantirishning harakatlantiruvchi omili iste'molchining jismoniy tarbiya xizmatlarini faol iste'mol qilish orqali aniq ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy va rivojlanish ehtiyojidir. Jismoniy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj, ehtiyoj, istakning oqilona shakllanishi, shuningdek, ko'pchilik uchun real xarid qobiliyatining mavjudligi. iste'molchilar, vaqt o'tishi bilan jismoniy tarbiya xizmatlariga talab standartlarini yaratishga imkon beradi.

Ma'lumot o'rnida, tahlil qilish uchun 16 yoshdan yuqori bo'lgan aholining ishdan bo'sh vaqtida jismoniy tarbiya va sport bilan shugullanish ko'rsatkichlarni ko'rib chiqamiz (1-jadval):

T/r	Ko'rsatkichlar	%
1.	Kundalik jismoniy mashq bajarish	16,5
2.	Xafta davomida 4-6 kun shug'ullanuvchilar	9
3.	Vaqtivaqti bilan jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanuvchilar	29,2
4.	Jismoniy sog'lomlashtirish mashqlari bilan shug'ullanuvchilar	5,5
5.	Jismoniy mashqlarni vaqtivaqti bilan bajarish	39,8

1-jadval. Aholining jismoniy tarbiya va sport bilan shugullanish ko'rsatkichlari.

Research Science and
Innovation House



3-rasm. Aholining jismoniy tarbiya va sport bilan shugullanish xolati

Respondentlar tomonidan o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida aholi jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishdan bosh tortishining asosiy sabablarini tahlil qilish (3-jadval).

3-jadval. Aholining jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanishdan bosh tortish sabablari

Aholi (yoshi, jinsi)	shu jumladan sabablar									
	bo'sh vaqtning	istak (xohish)	shu yo'shda imkoniyat	sport bazalari, sog'lomlashtirish	dangasalik	sog'liqning yomonligi	pul	mablag'larining yomon odatlarga ega bo'lish	va boshqalar	
Bo'sh vaqtlarida 16 va undan katta yoshdagi aholidan jismoniy tarbiya va sport bilan shug'ullanmaydiganlar	3,7	27,2	7,4	1,3	12,9	12,0	2,3	0,4	0,8	
Erkaklar	3,81	29,6	4,9	1,3	1,28	10,2	1,3	0,8	1,0	



Ayollar	3	25,	9	1,2	1	13	3,	0,0	0,
	3,	1	,		3,	,6	1		7
	7		6		0				

Aholining aksariyat qismi (erkaklar va ayollar) - 35,7 foizi bo'sh vaqtlari etarli emas, so'ralgan fuqarolarning 27,2 foizi - jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini tizimli ravishda o'tkazish istagi bor.

Faol jismoniy mashqlar uchun vaqt topishni istamaslikning uchinchi eng katta sababi - bu Respublika aholisining 12,9 foizini to'xtatadigan dangasalik. Ma'lumki, sog'lig'ining yomonligi odamlarni sog'lom turmush tarziga jiddiy munosabatda bo'lishga undashi va jismoniy faollik darajasini oshirishi kerak, ammo shunga qaramay, respondentlarning 12 foizi jismoniy mashqlar qilishdan bosh tortishning asosiy sababi sifatida sog'lig'ining yomonligini ta'kidladilar. tizimli mashqlardan voz kechishga qaror qildi. Va bu erda, bizningcha, shifokorlar va jismoniy tarbiya xodimlari tomonidan ushbu toifadagi aholini sog'lomlashtiruvchi jismoniy tarbiyaning afzalliklari va hayotiy zarurligi haqida xabardor qilishga qaratilgan jiddiy targ'ibot ishlarini amalga oshirish kerak.

Jismoniy tarbiya xizmatlari bozori bo'yicha taklifni taqdim etganlar orasida: xususiy sport klublari, davlat sog'liqni saqlash tashkilotlari, havaskor va professional sport klublari, fitnes klublari va boshqalar hisoblanadi.

Sanab o'tilgan resurslar bilan ta'minlangan jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari jismoniy tarbiya xizmatlari bozoridagi tadbirkorlik sub'ektlari hisoblanadi. Demak, ular aholiga xizmat ko'rsatish, daromad olish, harajatlarini qoplash imkoniyatiga ega. Biroq, bir qator sabablarga ko'ra, birinchi navbatda, bir tomondan, resurslarning ijtimoiy zaruriy xarajatlarining nomutanosibligi va aholining muhim qismining past daromad darajasi, ikkinchi tomondan, ular o'z xizmatlarini sota olmaydilar. to'liq hajmda va ularning xarajatlarini to'liq qoplaydigan va kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlaydigan narxlarda ishlab chiqariladi. Bu holat jismoniy tarbiya xizmatlaridan iste'molchilar sonining qisqarishiga, jismoniy tarbiyaning ijtimoiy samaradorligining pasayishiga olib keladi. Shu munosabat bilan jismoniy tarbiyaning moliyaviy resurslarini shakllantirishning bunday manbalarini shakllantirish zarurati tug'iladi, bu esa mamlakatning keng aholisi uchun jismoniy mashqlar bilan shug'ullanish



imkoniyatini beradi. Mazmun jihatidan moliyalashtirish manbalari asosan jismoniy tarbiya va sport sohasidagi xizmatlar va tovarlarga jamiyat yalpi ichki mahsulotning bir qismini almashtiradigan sohalardir. Bunday manbalar jismoniy tarbiya xizmatlaridan foydalanuvchi yoki xaridor sifatida faoliyat yurituvchi aholi, korporatsiyalar va davlat mablag'laridir.

Shu bilan birga, jismoniy tarbiya xizmatlari nafaqat iste'mol xarakteriga ega, balki inson kapitaliga investitsiyalar turi bo'lib, mamlakat sog'lig'i salohiyatini oshirishga, milliy iqtisodiyot uchun mehnat resurslarini takror ishlab chiqarishga yordam beradi. samaradorlik, mehnat unumdorligi va jismoniy va aqliy ortiqcha yuklarga moslashish, ular ko'proq yuqori iroda va raqobat va innovatsiya qobiliyatiga ega. Jismoniy tarbiya sohasi faoliyatining tashqi ta'siri kasalliklarning kamayishi, aholining jismoniy imkoniyatlarining oshishi, umumiy umr ko'rish davomiyligining oshishida namoyon bo'lishi mumkin.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, jismoniy tarbiya xizmatlari bozori juda serqirra bo'lib, "bepul" va pullik jismoniy tarbiya xizmatlari bozoriga, shuningdek, tibbiy va jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish bozoriga bo'linadi. Shu bilan bir qatorda profilaktika va sport xizmatlari bozorida alohida segmentlarga (iste'molchilar guruhleri), ularning manfaatlari doirasiga, ma'lum bir hudud ichidagi daromad darajasiga e'tibor qaratish orqali erishish mumkin. Jismoniy tarbiya xizmatlariga bo'lgan talab sog'liqni saqlash (yoki boshqa maqsadlar) uchun jismoniy faoliyatga bo'lgan ehtiyoj, o'ziga xos ehtiyoj va istaklardan iborat bo'lib, xarid qobiliyati bilan ta'minlanadi. Talabni shakllantirishning harakatlantiruvchi omili iste'molchining jismoniy tarbiya xizmatlarini faol iste'mol qilish orqali aniq ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy rivojlanish ehtiyojidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “2019-2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommoviy sportni rivojlantirish konsepsiyasi” ni tasdiqlash to'g'risidagi 118-sonli Qarori/ 13.02.2019.
2. Гусинец Е.В. Физическая культура и спорт как социально-экономическое явление в национальной экономике. / Е.В. Гусинец // Известия Гомельского гос. ун-та им. Ф. Скорины. – 2016. – № 5 (98). – С. 107–111.
3. Фишер С. Экономика / С. Фишер, Р. Дорнбуш, Р. Шмалензи ; пер. с англ. со 2-го изд. – М. : Дело, 2017. – 864 с.

Ўзбекистонда эркаклар бепуштлигига сабаб бўлувчи айрим тиббий-биологик хавф омиллар

Б.Ш.Тўраев¹, Г.Ш. Очилова²

Тошкент тиббиёт академияси¹, Ўзбекистон давлат жисмоний тарбия ва спорт университети²

Аннотация. Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг маълумотларига кўра бепуштлиқ ўртача 10-15% янги тузилган оилаларда учрайди. Эркаклар бепуштлигини ўрганишга қаратилган илмий изланишлар дунёнинг кўплаб мамлакатларида олиб борилмоқда, айниқса бу масалага аҳолининг кўпайиши билан боғлиқ муаммолари бор давлатлар катта аҳамият бермоқда. Ўзбекистонда бепуштлиқ демографик жиҳатдан хавф туғдирмасда аҳоли орасида ушбу касалликни етарлича кенг тарқалганлиги унинг хавф омилларини ўрганган ҳолда профилактик чораларини кўриш кераклигини кўрсатади.

Калит сўзлар. Репродуктив, бепуштлиқ, эркаклар бепуштлиги, хавф омиллар.

Тадқиқотнинг мақсади. Эркакларнинг репродуктив саломатлигига таъсир қилувчи тиббий-биологик хавф омилларни аниқлаш ва баҳолаш.

Тадқиқот материаллари ва усуллари. Бепуштлиқнинг келиб чиқиши ва ривожланишига таъсир қилувчи хавф омиллар ҳодиса ва назорат усули ўрганилди. Бунинг учун назорат гуруҳи сифатида 300 нафар соғлом, ҳодиса гуруҳи сифатида эса фарзанд кўриш билан муаммолари бўлган ва спермограмма кўрсаткичларида салбий ўзгаришлар аниқланган 300 нафар эркаклар олинди, уларнинг амбулатор қараталаридан кўчирмалар олиш ва саволнома ўтказиш орқали тиббий-биологик маълумотлари ўрганилди.

Олинган натижалар. Ҳодиса гуруҳидагиларнинг 29,7%, назорат гуруҳидагиларнинг эса 15,3% варикоцеле аниқланган. Ҳодиса гуруҳидаги респондентларнинг 87,3±1,9%, назорат гуруҳидаги ларнинг эса 93,7±1,4% жинсий аъзоларидан йирингсимон ажралмалар кузатилмаганлигини билдиришди, жинсий аъзоларидан йирингсимон ажралганлар улуши ҳодиса гуруҳида 2 баробар кўпни ташкил қилади. Қов соҳасида жарроҳлик амалиёти бўлганлар ҳодиса гуруҳида 20,7±2,34% ташкил қилади ва бу назорат

гуруҳидагиларга қараганда 2,6 маротаба кўп ($p < 0,001$). Жарроҳлик амалиётини ҳодиса гуруҳидагиларга бундай кўп олиб борилши варикоцеле билан боғлиқ.

Муаммонинг долзарблиги. Эркаклар репродуктив тизимига кўплаб омиллар таъсир қилади ва уларни шартли равишда бошқариб бўлмайдиган (ёш, туғма ва генетик омиллар) ва бошқариб бўладиган (турмуш тарзи, меҳнат шароитлари, зарарли одатлар, ташқи муҳит омиллари) омилларга ажратиш мумкин. Касалликни ривожланиш хавфини аниқлашда бу омилларнинг ўзаро таъсирини ҳам инобатга олиш керак, чунки эркаклар бепуштлиги билан мурожаат қилганларда аксарият ҳолатларда 2-3 ёки ундан кўп омилларнинг ўзаро биргаликда таъсир қилишини кузатиш мумкин [1, 2].

Ҳозирги кунда ўртача умр кўришнинг узайиши, аёлларнинг жамиятдаги ўрнининг ўзгариши ва турли иқтисодий-ижтимоий омиллар ёшларнинг турмуш қуриш ёшини катталашишига олиб келмоқда. Эркакларда ёш ўтиши билан уруғ ишлаб чиқариши, репродуктив гармонларда, уруғнинг ДНКларида ўзгаришлар юз беради [3, 4, 5]. Бу ўзгаришлар эркакларнинг насл қолдириш хусусиятига салбий таъсир кўрсатади ва бўлажак фарзандларининг туғма нуқсонлар билан туғилиш, ҳомиланинг нобуд бўлиши хавфини оширади [36, 90].

Тана вазни ортиши ва семизлик ривожлангани сари эркакларнинг уруғ суyoқлигининг ҳажми, сперматозоидлар концентрацияси ва умумий сонининг камайиши кузатилади. Шунингдек муаллифлар олигоспермия ва азооспермия нормал тана вазнига эга эркакларга (мос равишда 24,5% ва 9,8%) қараганда семизларида (мос равишда 31,7% ва 12,7%) кўп учрашини аниқлашган. Бундан ташқари ортикча тана вазнига эга ёки семиз эркакларнинг нормал тана вазнига эга аёллари нормал вазнига эга жуфтликларга нисбатан ҳомиладор бўлишлари учун узокроқ вақт кераклиги аниқланган [6, 7]. Аммо ўтказилган тадқиқотларни таҳлил қилиш натижалари ортикча тана вазнининг сперма сифатида таъсири борасида қарама қарши фикрлар борлигини кўрсатади [8, 9].

Хорижий ҳамкасбларимиз олиб борган тадқиқот натижаларига кўра ижтимоий-иқтисодий ўзгаришлар, санитар-тарғибот ишларининг камайиши камайиши жинсий йўл билан юқадиган касалликлар (ЖЙЮК) кўпайиб боришига сабаб бўлади. ЖЙЮКнинг тарқалишига пул эвазига жинсий хизмат

кўрсатувчи аёллар катта ўрин эгаллашади. Олиб борилган тадқиқотлар Африка мамлакатларида жинсий йўл билан юқадиган касалликлар эркалар бепуштлигига олиб келувчи асосий омиллардан ҳисобланишини кўрсатган. Бунда эркалар уруғ суёқлиги таркибида сперматозоидлар концентрациясини камайишининг асосий сабаби сифатида жинсий йўл билан юқадиган касалликларни яхши даволамаслик кўрсатиб ўтилган [10]. Россияда олиб борилган тадқиқотлар фарзанд кўриш ниятида ёрдамчи репродуктив технологияларга мурожаат қилганларда асосий хавф омили сифатида жинсий аъзолар ва сийдик чиқариш йўллари жинсий йўл билан юқадиган касалликлар билан боғлиқ яллиғланиш касалликлари, ҳамда ёрғоқнинг яллиғланиш касалликлари аниқланган (35,1% ҳолатларда) [11, 12].

Маҳаллий муаллифлар эълон қилган маълумотларга кўра оилада фарзанд бўлмаётганлиги сабабли тиббий ёрдамга мурожаат қилган эркаларнинг ярмидан ортиғида (59%) спермограммасида ўзгаришларсиз бўлган, қолган ярмига яқини қисмида (41%, улардан 36,2% турли хилдаги ҳодиса, 4,8% эса умуман сперматозоидлар йўқлиги кузатилган) ўзгаришлар борлиги аниқланган. Эркалар фертиллиги бузилишининг асосий сабаби бўлиб варикоцеле, кўшимча жинсий безларнинг яллиғланиш касалликлари ва идиопатик ҳодиса бўлиб қолмоқда. Туғма аномалиялар эса нисбатан кам учрайди. [13].

Республикада ўсмирлар саломатлигини ўрганишга қаратилган тадқиқот натижалари уларнинг 2-2,8% болаликда эпидпаротит билан оғриганлигини кўрсатади [14].

Адабиётлар таҳлили асосида хулоса қилиб айтиш мумкинки, эркалар репродуктив саломатлигига таъсир қилувчи етакчи хавф омиллар муайян аҳоли гуруҳининг тиббий-биологик ва ижтимоий-гигиеник хусусиятларига боғлиқ ҳолда ўрин алмашиб туриши мумкин.

Тадқиқотнинг мақсади. Эркаларнинг репродуктив саломатлигига таъсир қилувчи тиббий-биологик хавф омилларни аниқлаш ва баҳолаш.

Тадқиқот материаллари ва усуллари. Бепуштликнинг келиб чиқиши ва ривожланишига таъсир қилувчи хавф омилларни ҳисоблаш учун тадқиқотимизда далилларга асосланган тиббиётнинг – ҳодиса ва назорат усулидан фойдаланилди. Бунинг учун назорат гуруҳи сифатида 300 нафар соғлом, ҳодиса гуруҳи сифатида эса фарзанд кўриш билан муаммолари бўлган

ва спермограмма кўрсаткичларида салбий ўзгаришлар аниқланган 300 нафар эркеклар олинди, уларнинг амбулатор караталаридан кўчирмалар олиш ва саволнома ўтказиш орқали тиббий-биологик маълумотлари ўрганилди. Олинган натижаларнинг таҳлил қилишда умумқабул қилинган статистик усуллардан фойдаланилди. Кўрсаткичлар орасидаги фарқлар ва уларнинг ишончилиги хи-квадрат ва t-студент мезони орқали баҳоланди.

Олинган натижалар ва уларнинг муҳокамаси. Фарзанд бўлмаётганлиги сабабли тиббий ёрдамга мурожаат қилган ва спермограммасида ўзгаришлар аниқланган эркекларнинг ўртача ёши $30,9 \pm 0,33$ ёшни, назорат гуруҳидаги эркекларда эса $29,7 \pm 0,3$ ёшни ташкил қилди. Ҳодиса гуруҳидаги эркекларнинг $74,1 \pm 2,7\%$ фарзанд кўрмаётганлигига 1 йилдан ортиқ вақт ўтган, қолган $25,9 \pm 2,7\%$ эса оилавий ҳаётнинг дастлабки ойларида аёли ҳомиладор бўлмаганлиги сабабли тиббий ёрдамга мурожаат қилишган. Фарзандсизлик давомийлиги ўртача $2,85 \pm 0,14$ йилни ташкил қилди. Нормоспермия бўлган эркекларнинг эса $78,27 \pm 2,9\%$ оилавий ҳаёт давомийлиги 1 йилдан ошган, қолган $21,73 \pm 2,9\%$ бир йил бўлмаган. Оилавий ҳаёт давомийлиги ўртача $1,84 \pm 0,1$ йилни ташкил қилди. Ушбу маълумотлардан эркекларнинг аксарияти 30 ёшга қадар оила қуришни ва фарзанд кўришни режалаштиради, бу борада ёшга хавф омили сифатида қаралмаслиги мумкин.

Эркекларнинг репродуктив саломатлигига таъсир қилувчи ўрганилган қатор тиббий ва биологик омиллар орасида қуйида қуйидагилар бизнинг эътиборимизни тортди. Қандли диабет ҳодиса гуруҳидаги беморларнинг 2 тасида аниқланди ва бу $0,7 \pm 0,4\%$ ни ташкил қилади. назорат гуруҳидаги беморларда эсан қандли диабет касаллиги аниқланмади. Шунингдек ўрганилган гуруҳлардаги респондентларнинг ҳеч бири сил касаллиги, хавfli ўсма касалликлари билан диспансер назоратида турмайди. Қон босими ўзгариши ва спермограммадаги ўзгаришлар орасида ҳам статистик жиҳатдан ишончли фарқ топилмади.

Ҳодиса гуруҳидаги респондентларнинг $87,3 \pm 1,9\%$, назорат гуруҳидаги ларнинг эса $93,7 \pm 1,4\%$ жинсий аъзоларидан йирингсимон ажралмалар кузатилмаганлигини билдиришди, жинсий аъзоларидан йирингсимон ажралганлар улуши ҳодиса гуруҳида 2 баробар кўпни ташкил қилади ($p=0,009$).

Қов соҳасидан жароҳат олганлар эса ҳодиса гуруҳида назорат гуруҳидагиларга қараганда 2 баробар кўпроқни ташкил қилди. шу ўринда айтиб ўтиш керакки қов соҳасидан жами жароҳат олганларнинг 26,5% спорт билан шуғулланган вақтида, 44,9% бошқалар билан ўйнаган ёки ўришиб қолган вақтда, қолган 28,6% ўзининг эҳтиётсизлиги сабаб йиқилиш ёки бошқа жисмларга уриб олиш натижасида олганликларини билдиришган ($p=0,04$).

Қов соҳасида жарроҳлик амалиёти бўлганлар ҳодиса гуруҳида $20,7 \pm 2,34\%$ ташкил қилади ва бу назорат гуруҳидагиларга қараганда 2,6 мартаба кўп ($p < 0,001$). Жарроҳлик амалиётини ҳодиса гуруҳидагиларга бундай кўп олиб борилши варикоцеле билан боғлиқ. Ҳодиса гуруҳида жами олиб борилган жарроҳлик амалиётининг $81,9 \pm 3,76\%$ варикоцеле сабабли, қолган қисми эса қов чурраси, гидроцеле ва бошқа сабаблардан бажарилган.

Ҳодиса гуруҳидагиларнинг 29,7%, назорат гуруҳидагиларнинг эса 15,3% варикоцеле аниқланган. Варикоцеленинг 1 даражаси иккала гуруҳларда ҳам деярли бир хил частотада учраган, аммо иккинчи даражали варикоцеле ҳодиса гуруҳида назорат гуруҳидагиларга қараганда сезиларли даражада кўп (мас равишда 18,3% ва 5,7%. 3 даражали варикоцеле эса назорат гуруҳидагиларда учрамади). Олинган маълумотлар умумлаштирган ҳолда 1-жадвалда акс эттирилган.

1-жадвал

Эркаклар репродуктив тизимга таъсир қилувчи етакчи тиббий-биологик омиллари

Омиллар	Омиллар градацияси	Ҳодиса гуруҳи (%) $n=300$ (P1)	Назорат гуруҳи (%) $n=300$ (P2)	Эҳтимоллик нисбати	Имкониятлар нисбати
Тана вазни индекси	Вазн етишмайди < 18.5	$2,3 \pm 0,9$	$1,7 \pm 0,7$	1,4	2,2

	меъёрда >= 18.5 ва < 25:	36,3±2,8	47,3±2,9	0,8	
	ортиқча тана вазни >= 25 ва < 30	57,3±2,9	48,7±2,9	1,2	
	семизлик >= 30	4,0±1,1	2,3±0,9	1,7	
Паротит (тепки) билан касаланганмисиз?	Ҳа	16,0±2,1	8,7±1,6	1,8	2,7
	Йўқ	39,7±2,8	57,0±2,9	0,7	
	Билмадим	44,3±2,9	34,3±2,7	1,3	
Жинсий йўл билан юқадиган касалликлар билан касаланганмисиз?	Йўқ	87,3±1,9	93,7±1,4	0,9	2,1
	Ҳа	12,7±1,9	6,3±1,4	2,0	
Сизда варикоцеле аниқланганми?	2 ва 3 даража	18,3±2,2	5,7±1,3	3,2	3,9
	1 даража	11,3±1,8	9,7±1,7	1,2	
	Йўқ	70,3±2,6	84,7±2,1	0,8	

Хулоса. Эркаклар репродуктив тизимига тиббий биологик омиллардан ортиқча тана вазни, эпидемик паротит билан касаланганлик, ЖЙБЮК каби қатор омиллар салбий таъсир қилиб, улар орасида варикоцеле етакчи омил бўлиб қолмоқда.

Research Science and
Innovation House



Фойдаланилган адабиётлар.

1. Радченко О.Р. Факторы риска мужского бесплодия и методы профилактики. Практическая медицина ‘2 (57) апрель 2012 г.
2. Тюленев Ю.А. Влияние вируса простого герпеса и цитомегаловируса на мужские половые клетки и сперматогенез при экспериментальной инфекции *in vitro* и *in vivo*. дисс. канд. мед. наук. Москва 2012. 151 стр.
3. Handelsman DJ, Staraj S. Testicular size: the effects of aging, malnutrition, and illness. *J Androl.* 1985;6:144–51. / Bray I, Gunnell D, Davey SG. Advanced paternal age: how old is too old? *J Epidemiol Commun Health.* 2006;60:851–3.
4. Khera M, Broderick GA, Carson CC 3rd, Dobs AS, Faraday MM, Goldstein I, et al. Adult-Onset Hypogonadism. *Mayo Clin Proc.* 2016;91:908–26.
5. Moskovtsev SI, Willis J, Mullen JB. Age-related decline in sperm deoxyribonucleic acid integrity in patients evaluated for male infertility. *Fertil Steril.* 2006;85:496–9.
6. Bieniek JM, Kashanian JA, Deibert CM, et al.: Influence of increasing body mass index on semen and reproductive hormonal parameters in a multi-institutional cohort of subfertile men. *Fertil Steril.* 2016; 106(5): 1070–5. DOI:<https://doi.org/10.1016/j.fertnstert.2016.06.041>.
7. Campbell JM, Lane M, Owens JA, et al.: Paternal obesity negatively affects male fertility and assisted reproduction outcomes: a systematic review and meta-analysis. *Reprod Biomed Online.* 2015; 31(5): 593–604. DOI:<https://doi.org/10.1016/j.rbmo.2015.07.012>.
8. MacDonald, A.A.; Herbison, G.P.; Showell, M.; Farquhar, C.M. The impact of body mass index on semen parameters and reproductive hormones in human males: A systematic review with meta-analysis. *Human Reprod. Update* 2010, 16, 293–311. [Google Scholar] [CrossRef] [PubMed].
9. Yang, Q.; Zhao, F.; Hu, L.; Bai, R.; Zhang, N.; Yao, G.; Sun, Y. Effect of paternal overweight or obesity on IVF treatment outcomes and the possible mechanisms involved. *Sci. Rep.* 2016, 6, 29787. [Google Scholar] [CrossRef].
10. Faro S (1993). Infection and Infertility. *Infect. Dis. Obstet. Gynaecol.* 51-57.

11. Г. Носова, Ю. В. Федорцова, В. В. Морев, И. А. Корнеев. Изучение факторов риска развития бесплодия у мужчин, обратившихся в центр вспомогательных репродуктивных технологий. Урологические ведомости. Том III № 3 2013. ISSN 2225-9074. с. 18-21.

12. Епанчинцева Е.А., Селятицкая В.Г., Свиридова М.А., Лутов Ю.В. Медико-социальные факторы риска бесплодия у мужчин. Андрология и генитальная хирургия. 3. ТОМ 17. 2016 г. с. 47-53.

13. Ваисов И.А. Бесплодный брак. Совершенствование терапии с учетом патогенетических особенностей репродуктивной функции сужчин с урогенитальной инфекции. Дисс.док.мед.наук. Ташкент 2017. С 208.

14. Еремекбаева А.У. Характеристика соматического, репродуктивного здоровья и образа жизни учащейся молодежи в зоне Приаралья. Дисс. канд.мед.наук. Ташкент 2010. С. 132.



Research Science and Innovation House



Yozuvchining qahramonlar nutqida frazeologik birliklardan foydalanish mahorati (O‘.Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asari misolida)

Kurbanova Zaynab Burxanovna - stajyor o‘qituvchi
Jizzax davlat pedagogika universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida uning leksikologiyasi va frazeologiyasida bo‘lgan o‘zgarishlar. O‘zbek so‘zlashuv nutqida frazeologizmlarning paydo bo‘lish manbalari mavjud. Bu jarayonda frazeologik birliklarning qachon paydo bo‘lganligi, qanday maqsadda ishlatilganligini bilish ahamiyatligi aytib o‘tilgan.

Аннотация

В данной статье рассматриваются изменения, произошедшие в лексикологии и фразеологии узбекского литературного языка в процессе его становления и развития. В узбекской разговорной речи имеются источники возникновения фразеологизмов. При этом отмечается значимость знания того, когда фразеологизмы появились, с какой целью они использовались.

Annotation

This article examines the changes that have occurred in the lexicology and phraseology of the Uzbek literary language in the process of its formation and development. There are sources of phraseological units in Uzbek colloquial speech. At the same time, the importance of knowing when phraseological units appeared, for what purpose they were used, is noted.

Kalit so‘zlar

Tilshunoslik, frazema, shakl va ma’no, leksikologiya, frazeologik birliklar, grammatik shakl, komponent, nutq, og‘zaki va yozma nutq.

Ключевые слова

Лингвистика, фразеология, форма и значение, лексикология, фразеологизмы, грамматическая форма, компонент, речь, устная и письменная речь.

Key words

Linguistics, phraseology, form and meaning, lexicology, phraseological units, grammatical form, component, speech, oral and written speech.

O‘zbek adabiy tilining shakllanishi va taraqqiyoti jarayonida uning leksikologiyasi va frazeologiyasida bo‘lgan o‘zgarish yangi lug‘aviy birliklarning yuzaga kelishida yoki ayrimlarining iste‘moldan chiqib ketishida namoyon bo‘lmaydi. Balki bu kabi o‘zgarishlar leksik birliklarning semantik taraqqiyot jarayonida ham bo‘ladi, ya‘ni bu jarayonda, bir tomondan, lug‘aviy birliklar yangi - yangi ma‘no kasb etadi, ba‘zi lug‘aviy birliklar taraqqiyoti haqida fikr yuritilganda masalaning ana shu ikki tomoni e‘tiborga olinishi, ya‘ni leksik taraqqiyoti bilan semantik taraqqiyotiga doir masalalarni yoritish lozim bo‘ladi.

Tildagi ba‘zi leksik birliklarning iste‘moldan chiqib ketishi lisoniy va nolisoniy omillarga bog‘liq bo‘ladi. Bu jarayonda frazeologik birliklarning qachon paydo bo‘lganligi, qanday maqsadda ishlatilganligini bilish ahamiyatlidir.

Hozirgi kunda til va nutqimizda ishlatilayotgan birikmalar ham qachonlardir nutq so‘zlanib turgan paytda yuzaga kelgan hamda til taraqqiyoti jarayonida ko‘p ishlanib, sayqallanib, takomillashib, bir butun holatga kelib qolgan bo‘ladi. Frazeologizmlarning muhim manbalaridan biri ham shunda ko‘rinadi.

Frazeologizmlar so‘zlashuv uslubida ham, yozma nutqda ham davr va sharoit talabiga qarab ham shakl yoki ham mazmun jihatidan o‘zgarishga uchrashi mumkin. Bu frazeologizmlarning stilistik jihatdan qo‘llanilish jarayoniga bog‘liqdir.

O‘zbek so‘zlashuv nutqida frazeologizmlarning paydo bo‘lish manbalari mavjud.

Jamiyat ijtimoiy hayotida bo‘ladigan o‘zgarish tilda u yoki bu darajada o‘z aksini topib boradi. Biroq tilimizda bo‘ladigan o‘zgarish jamiyatda bo‘ladigan o‘zgarishlardan farqli ravishda juda sekinlik bilan sodir bo‘ladi. Tildagi barqarorlik va ijtimoiy jihatdan ahamiyatlilik xalq tilini tarix bilan birga muqoyasa qilinib o‘rganilgandagina o‘zining to‘g‘ri ifodasini topadi: xuddi shunday kuzatish usuli, xususan, so‘zlashuv nutqi uslubi frazeologizmlari uchun ham kerakdir. Chunki umumxalq tilidagi so‘zlarning ma‘lum qonuniyatlar asosida tasniflab, me‘yorlashtirishimiz natijasida adabiy til vujudga kelgan. Shuning uchun ham birlamchi xalq tilini o‘rganishimiz darkor.

Adabiy til va so‘zlashuv nutqi uslubida maktabdan qochgan; onasini uchqo‘rg‘ondan ko‘radi; og‘zini moylab qo‘ymoq; eti sizniki, suyagi bizniki; madrasa tuprog‘ini yalagan; bobo olib nevara sotadigan mollar; ola ipdan hatlamagan; sallali hindi; “o‘risni ming maqtasang ham ko‘zi ko‘k-da” kabi

frazeologizmlar ishlatiladiki, ularning asosida tarixiy voqea, sharoit o‘z ifodasini topgan. Ana shunday tarixiy sharoit va davr taqozosi bilan yuzaga kelgan hamda xalq tiliga singib ketgan iboralardan ba’zilar bilan tanishib chiqamiz. “O‘risni ming maqtasang ham ko‘zi ko‘k-da” iborasi:

“Ushbu ibora Xiva xonligi Rossiyaga tobe bo‘lganidan so‘ng paydo bo‘lgan. Manbalarda qayd etilishicha, xivalik aslzodalar, savdogarlar rus ayollariga xushtor (ishtiyoqmand) bo‘lganlar. 1883-yil bahor-yoz oylarida Xiva xoni Muhammad Rahim soniy rus podshosining taklifiga muvofiq Moskva Sankt-Peterburgga rasmiy tashrif bilan boradi va shaharlarning diqqatga sazovor joylarini, me‘moriy obidalari, teatr, bosmaxona, muzey, litsey va ishlab chiqarish korxonalarini tomosha qiladi.

Birinchi, badiiy asarlarda til taraqqiyoti jarayonida ko‘p ishlanib, silliqlashib, takomillashib, bir butun holga kelib qolgan frazeologizmlardan ham o‘rinli foydalanilganligini kuzatamiz. Ular adabiy tilda ham, so‘zlash uslubida ham qo‘llaniladi:

Ikkinchi, frazeologizmlar og‘zaki va yozma nutqda davr va sharoit talabiga ko‘ra shakl yoki mazmun jihatidan o‘zgarishga uchraydi. Masalan: so‘z san’atkorlari o‘z asarlari g‘oyasining kitobxonga tez yetib borishini ta‘minlash, badiylikni kuchaytirish uchun frazeologizmlardan foydalanadilar, asar mazmuniga moslashtiradi. Bunday vaqtda ba‘zan frazeologizmlarning ma‘nosi kengayadi, o‘zgaradi, shakli ixchamlashadi yoki tarkibida o‘rin almashtirishlar yuz beradi. Masalan: *“Dard ustiga chipqon degandek. Kimsandan na xat bor, na xabar”*. (2.Ieo, 176-bet). *Endi boshogga chang solganida boshida qamchi vizillaydi*. (2.Ieo, 323-bet). *Mana endi asl maqsadga ko‘chding, Oqsoqol! Raislikdan tushibsanki, alaming ichingda edi. Olaqol, mansabingni! – U raykomga o‘girilib iztirob bilan hayqirdi. – Olib bering shunga raislikni! O‘zim ham bunaqa it yotish, mirza turishdan charchadim. Yuboring! Peredovoyga yuboring meni!* (2.Ieo, 336-bet).

Badiiy asarda ko‘proq qahramonlar nutqida, ularning ichki kechinmalari, o‘y-xayollari, dard-iztiroblarini yoritishda frazeologik birliklardan foydalaniladi. Masalan, yuqoridagi “Ikki eshik orasi” asaridan olingan parchada alami ichida, it yotish, mirza turish iboralari Umar zakunchining qalbidagi g‘alamis niyatlarini, asl yuzini ochish uchun muallif tomonidan qo‘llangan.

Qolaversa, o‘zbek adabiyotida tilshunos olim A.Mamatov ta’kidlagan “muallifli frazeologizmlar” (qarang: frazeologik antonimlarda – ta’kid bizniki – K.Z) tushunchasi ham borki, undan yozuvchi va shoirlar mahorat bilan foydalanib

kelishmoqda. Bu tushuncha ko‘proq Abdulla Qahhor ijodida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Masalan: adabiy til va so‘zlashuv nutqidagi osmon uzoq yer qattiq frazeologizmi zamiridagi obraz asosida osmon yaqin yer yumshoq; kasalni yashirsang istimasi oshkor qiladi zamirida “eshakni yashirsang hangrab sharmanda qiladi”; ko‘p tingla, oz so‘zla zamirida “gapni tonnalab olingu, gramlab soting”; kulib turib jonini olmoq zamirida “boshini qashlab turib qorniga mushtlamoq”; tovonini yalamoq zamirida “botinkasini mo‘ylabi bilan cho‘tkalamoq”; oq podsho zamirida “oq amin”; qon yutmoq zamirida “yurak yutmoq, xoda yutmoq” frazeologizmlari vujudga kelgan.

Badiiy nutq o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun ham nutqning barcha uslublarini o‘zida jamlay oladi. O‘tkir Hoshimov asarlarida ham turli nutq uslublariga tegishli bo‘lgan frazeologik birliklarni uchratamiz. Ayniqsa, so‘zlashuv nutqi frazemalari faol qo‘llangan:

1. *Qoqqan qoziqdek turib qoldim. Oldiga borishga qo‘rqar, ammo qochgim ham kelmasdi.* (2.Ieo, 351-bet). *Qoqqan qoziqdek.*

2. *Shunda hov bir marta Abduvalining burnini qonatgan kunim Mavluda opasi ko‘zini ola-kula qilib aytgan gap to‘satdan esimga tushdi.* (2.Ieo, 353-bet). *Ko‘zini ola-kula qilmoq.*

3. *Iloyo o‘sha Xo‘jaqulov ro‘shnolik ko‘rmasin! Uyi kuysin! Bolalari chirqillab qolsin!* (2.Ieo, 357-bet). *Ro‘shnolik ko‘rmoq, uyi kuymoq.*

4. *Endi ko‘zim ilingan ekan, o‘zimning otimni eshitib, yana uyg‘onib ketdim.* (2.Ieo, 357-bet). *Ko‘zi ilinmoq.*

Umuman olganda, so‘zlashuv nutqida frazeologizmlari sohada salmoqli o‘rin egallaydi. Ijodkorlar o‘z asarlarida personaj ruhiyati, ichki kechinmalari, xarakterini yoritishda frazemalardan foydalanishadi. Qahramonlar nutqida frazeologik birliklardan o‘rinli foydalanish yozuvchi mahoratini ko‘rsatadi. O‘tkir Hoshimov asarlarida ham bu holat yaqqol ko‘zga tashlanadi.

Research Science and
Innovation House



Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abdullayev A. Frazeologizmlarning ekspressivlik xususiyati. – T; O‘TA. 1996. №5.
2. O‘tkir Hoshimov. Tanlangan asarlar V jild: Ikki eshik orasi: Roman. – T.: Sharq, 2012 – 576 b
3. O‘tkir Hoshimov. Tushda kechgan umrlar. – Toshkent: “Book media nashr” nashriyoti. – Toshkent. 2019. – 320 b.
4. Abdullayev A. O‘zbek tilida ekspressivlikning ifodalanishi – T.: “Fan” 1983
5. Abduazizov A. Tilshunoslik nazariyasiga kirish. T.: “Sharq”. 2010.
6. Jamolxonov N. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent-“Talqin” 2005
O‘rganilgan Qizil bug‘doy, Oq bug‘doy, Buxor bobo va Qayroqtosh bug‘doy navlarida o‘simlik bo‘yi ko‘rsatkichi $87,1 \pm 0,56$ cm dan $91,0 \pm 2,43$ cm oralig‘ida bo‘lganligi kuzatildi. Bug‘doy o‘simligining bo‘y ko‘rsatkichi Qizil bug‘doy ($91,0 \pm 2,43$) va Oq bug‘doy ($91,6 \pm 1,66$) navlarida andoza nav ($90,5 \pm 1,57$) dan yuqori ekanligi kuzatildi (1 - jadval). Bug‘doyning Buxor bobo ($87,2 \pm 2,8$) va Qayroqtosh ($87,1 \pm 0,56$) navlari poya uzunligi bo‘yicha andoza navga nisbatan kichik ko‘rsatkichlarni namoyon qildi.

Ma‘lumki, o‘simlikning bo‘g‘imlar orasi uzunligi har bir navning morfogenetik xususiyatlari va ob - havo sharoitiga bog‘liq hisoblanadi.

Tajribalarimizda bug‘doy o‘simligining birinchi bo‘g‘im orasi uzunligi bo‘yicha yuqori natija Oq bug‘doy navida kuzatilib $5 \pm 0,28$ cm va shunga mos ravishda ikkinchi bo‘g‘im orasi uzunligi $7,4 \pm 0,50$ cm bo‘lganligi qayd etildi.

1 - jadval

Navlarning poya, birinchi, ikkinchi va oxirgi bo‘g‘imlarining uzunlik
ko‘rsatkichlari.

Navlarning nomi	Poya uzunligi	Birinchi bo‘g‘im uzunligi (cm)	Ikkinchi bo‘g‘im uzunligi (cm)	Oxirgi bo‘g‘im uzunligi (cm)
Qizil bug‘doy	91,0±2,43	2,5±0,39	6,6±0,60	36,2±1,31
Oq bug‘doy	91,6±1,66	5±0,28	7,4±0,50	33,8±0,48
Buxor bobo	87,2±2,8	4,5±0,58	8,8±0,68	32,7±1,45
Qayroqtosh	87,1±0,56	3,6±0,13	7,3±0,88	33,2±0,73
Krasnodar 99	90,5±1,57	34,7±1,03	8,0±0,14	34,7±1,03

Qizil bug‘doy navida birinchi bo‘g‘im orasi 2,5±0,39 cm va ikkinchi bo‘g‘im orasi 6,6±0,60 uzunlik bilan eng past ko‘rsatkich kuzatildi.

Ikkinchi bo‘g‘im orasi uzunligi bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Buxor bobo (8,8±0,68) navida aniqlandi.

Ilmiy adabiyotlarda keltirilishicha bug‘doyning oxirgi bo‘g‘im oralig‘i qurg‘oqchilikka chidamlilik xususiyatlaridan biri deb qaralgan. Oxirgi bo‘g‘im uzunligining qolgan bo‘g‘im oraliqlariga nisbatan ustunligi assimilyatsiya parenximasi rivojlanganligi va fotosintez faolligini saqlab qolganligidadir [4]. Oxirgi bo‘g‘im uzunligi bilan hosildorlik o‘rtasida o‘rta va kuchli ijobiy bog‘lanish borligi kuzatilgan [3,4].

Tadqiqotlarimiz natijasiga ko‘ra bug‘doy navlarining oxirgi bo‘g‘im uzunligi 33,2±0,73 cmdan 36,2±1,31 cm oralig‘ida bo‘lib, andoza navdan sezilarli farq yo‘qligi aniqlandi. Eng kichik ko‘rsatkich Buxor bobo (32,7±1,45), eng yuqori ko‘rsatkich Qizil bug‘doy (36,2±1,31) navlarida kuzatildi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.
2. Li, P. et al. Use of genotype-environment interactions to elucidate the pattern of maize root plasticity to nitrogen deficiency. *J. Integr. Plant Biol.* 2016. V. 58. - P. 242-253.
3. Мукситов Л. А. Самуилов О. Величина подколосового междоузлия и продуктивность сортов яровой мягкой пшеницы разных экологических групп в лесостепи Оренбургского Предуралья [Текст]. // Вестник Казанского ГАУ. - 2014. - № 3 (33). - С. 135-138.
4. Василова Н.З, Хусаинова И.И, Насихова М.Р. Признаки продуктивности новых сортов и перспективных линий яркой мягкой пшеницы Татарского НИИСС [Текст] // Зерновое хозяйство России. - 2016. - № 2 (44). - С. 37-41.



Research Science and Innovation House



Ratsional ko‘rinishdagi integrallar va ularning differensiallash usullari orqali yechimlarini topish

Otaboyev Muhsinjon Muqumjonovich

Qo‘qon DPI o‘qituvchisi

Maqsudaliyeva Gulnoza Shukurjon qizi

Qo‘qon DPI talabasi

Ushbu maqolada

$$\int R(x, \sqrt[n]{\frac{ax+b}{cx+d}}) dx, \quad ad - bc \neq 0,$$

ratsional ko‘rinishdagi integrallarni differensiallashlar o‘rganilgan.

1^o. $\int R(x, \sqrt[n]{\frac{ax+b}{cx+d}}) dx$ ko‘rinishidagi integrallarni hisoblash. Faraz qilaylik,

$R(u, v)$ ikki o‘zgaruvchining ratsional funksiyasi bo‘lib, a, b, c, d lar haqiqiy sonlar, $n \in N$ bo‘lsin.

Ushbu

$$\int R(x, \sqrt[n]{\frac{ax+b}{cx+d}}) dx, \quad ad - bc \neq 0,$$

ko‘rinishidagi integrallarni qaraymiz. Bu integral o‘zgaruv-chini almashtirish yordamida ratsional funksiyaning integraliga keladi:

Research Science and
Innovation House

$$\int R\left(x, \sqrt[n]{\frac{ax+b}{cx+d}}\right) dx = \left| \begin{array}{l} \sqrt[n]{\frac{ax+b}{cx+d}} = t, x = \frac{b-t^n d}{ct^n - a} \\ dx = \frac{(ad-bc)n}{(a-ct^n)^2} t^{n-1} dt \end{array} \right| =$$

$$= \int R\left(\frac{dt^n - b}{a - ct^n}, t\right) \cdot \frac{(ad-bc)nt^{n-1}}{(a-ct^n)^2} dt.$$

1-misol. Ushbu

$$\int \sqrt{\frac{1+x}{1-x}} \cdot \frac{1}{1-x} dx$$

integral hisoblansin.

◀ Bu integralda

$$t = \sqrt{\frac{1+x}{1-x}}$$

almashtirishni bajaramiz. Unda

$$x = \frac{t^2 - 1}{t^2 + 1}, \quad dx = \frac{4tdt}{(t^2 + 1)^2}$$

bo`lib,

$$\int \sqrt{\frac{1+x}{1-x}} \cdot \frac{1}{1-x} dx = 2 \int \frac{t^2 dt}{t^2 + 1}$$

bo`ladi.

Ravshanki,

$$\int \frac{t^2 dt}{t^2 + 1} = t - \arctgt + C.$$

Demak,



$$\int \sqrt{\frac{1+x}{1-x}} \cdot \frac{1}{1-x} dx = 2\sqrt{\frac{1+x}{1-x}} - 2\operatorname{arctg} \sqrt{\frac{1+x}{1-x}} + C \blacktriangleright$$

2^o. $\int R(x, \sqrt{ax^2 + bx + c}) dx$ ko‘rinishidagi integrallarni hisoblash. Bu integralda

a, b, c - haqiqiy sonlar bo‘lib, $ax^2 + bx + c$ kvadrat uchhad teng ildizlarga ega emas.

Qaralayotgan

$$\int R(x, \sqrt{ax^2 + bx + c}) dx \quad (1)$$

integral quyidagi uchta almashtirish yordamida ratsional funksiya integraliga keladi.

a) $a > 0$ bo‘lsin.

(1) integralda ushbu

$$t = \sqrt{ax} + \sqrt{ax^2 + bx + c} \quad (\text{yoki } t = -\sqrt{ax} + \sqrt{ax^2 + bx + c})$$

almashtirishni bajaramiz. U holda

$$ax^2 + bx + c = t^2 - 2\sqrt{a}xt + ax^2,$$

$$x = \frac{t^2 - c}{2\sqrt{at} + b}, \quad dx = \frac{2(\sqrt{at^2 + bt + c}\sqrt{a})}{(2\sqrt{at} + b)^2} dt,$$

$$\sqrt{ax^2 + bx + c} = \frac{\sqrt{at^2 + bt + c}\sqrt{a}}{2\sqrt{at} + b}$$

bo‘ladi.

Natijada

$$\begin{aligned} \int R(x, \sqrt{ax^2 + bx + c}) dx &= \\ &= \int R\left(\frac{t^2 - c}{2\sqrt{at} + b}, \frac{\sqrt{a}t^2 + bt + c\sqrt{a}}{2\sqrt{at} + b}\right) \cdot \frac{2(\sqrt{a}t^2 + bt + c\sqrt{a})}{(2\sqrt{at} + b)^2} dt \end{aligned}$$



bo‘ladi.

2-misol. Ushbu

$$\int \frac{dx}{x + \sqrt{x^2 + x + 1}}$$

integral hisoblansin.

◀ Bu integralda

$$t = x + \sqrt{x^2 + x + 1}$$

almashtirishni bajaramiz. Natijada

$$x = \frac{t^2 - 1}{1 + 2t}, \quad dx = 2 \frac{t^2 + t + 1}{(1 + 2t)^2} dt$$

bo‘lib,

$$\int \frac{dx}{x + \sqrt{x^2 + x + 1}} = 2 \int \frac{t^2 + t + 1}{(1 + 2t)^2 t} dt$$

bo‘ladi.

Agar

$$\frac{2(t^2 + t + 1)}{t(1 + 2t)^2} = \frac{2}{t} - \frac{3}{1 + 2t} + \frac{3}{(1 + 2t)^2}$$

bo‘lishini e‘tiborga olsak, unda

$$\begin{aligned} \int \frac{dx}{x + \sqrt{x^2 + x + 1}} &= \int \left(\frac{2}{t} - \frac{3}{1 + 2t} + \frac{3}{(1 + 2t)^2} \right) dt = 2 \ln|t| - \frac{3}{2} \ln|1 + 2t| + \frac{3}{2(1 + 2t)} + C = \\ &= 2 \ln|x + \sqrt{x^2 + x + 1}| - \frac{3}{2} \ln|1 + 2x + 2\sqrt{x^2 + x + 1}| + \frac{3}{2(1 + 2x + 2\sqrt{x^2 + x + 1})} + C \end{aligned}$$

bo‘lishi kelib chiqadi. ▶



b) $c > 0$ bo`lsin. Bu holda (1) integralda ushbu

$$t = \frac{1}{x}(\sqrt{ax^2 + bx + c} - \sqrt{c})$$

yoki

$$t = \frac{1}{x}(\sqrt{ax^2 + bx + c} + \sqrt{c})$$

almashtirishini bajaramiz. Unda

$$x = \frac{2\sqrt{c} t - b}{a - t^2}, \quad dx = \frac{\sqrt{c}t^2 - bt + \sqrt{c} a}{(a+t)^2} dt, \quad \sqrt{ax^2 + bx + c} = \frac{\sqrt{c} t^2 - bt + a\sqrt{c}}{a - t^2}$$

bo`lib, (1) integral ratsional funksiyaning integraliga keladi:

$$\begin{aligned} \int R(x, \sqrt{ax^2 + bx + c}) dx &= \\ &= \int R\left(\frac{2\sqrt{c}t - b}{a - t^2}, \frac{\sqrt{c}t^2 - bt + a\sqrt{c}}{a - t^2}\right) \left(\frac{\sqrt{c}t^2 - bt + \sqrt{c} a}{(a+t)^2}\right) dt \end{aligned}$$

v) $ax^2 + bx + c$ kvadrat uchhad turli x_1 va x_2 haqiqiy ildizga ega bo`lsin:

$$ax^2 + bx + c = a(x - x_1) \cdot (x - x_2).$$

Bu holda (1) integralda ushbu

$$t = \frac{1}{x - x_1} \sqrt{ax^2 + bx + c}$$

almashtirishni bajaramiz. Natijada



$$x = \frac{-ax_2 + x_1 t^2}{t^2 - a}, \quad \sqrt{ax^2 + bx + c} = \frac{a(x_1 - x_2)}{t^2 - a} t$$

$$dx = \frac{2a(x_1 - x_2)t}{(t^2 - a)^2} dt$$

bo`lib,

$$\int R(x, \sqrt{ax^2 + bx + c}) dx =$$

$$= \int R\left(\frac{-ax_2 + x_1 t^2}{t^2 - a}, \frac{a(x_1 - x_2)}{t^2 - a} t\right) \cdot \frac{2a(x_1 - x_2)t}{(t^2 - a)^2} dt$$

bo`ladi.

3-misol. Ushbu

$$I = \int \frac{x - \sqrt{x^2 + 3x + 2}}{x + \sqrt{x^2 + 3x + 2}} dx$$

integral hisoblansin.

◀ Ravshanki,

$$x^2 + 3x + 2 = (x + 1) \cdot (x + 2).$$

SHuni e`tiborga olib berilgan integralda

$$t = \frac{1}{x+1} \sqrt{x^2 + 3x + 2}$$

almashtirishni bajaramiz. U holda

$$x = \frac{2 - t^2}{t^2 - 1}, \quad dx = -\frac{2tdt}{(t^2 - 1)^2}$$

bo`lib,

$$\int \frac{x - \sqrt{x^2 + 3x + 2}}{x + \sqrt{x^2 + 3x + 2}} dx = \int \frac{-2t^2 - 4t}{(t - 2) \cdot (t - 1) \cdot (t + 1)^3} dt$$



bo`ladi.

Endi

$$\frac{-2t^2 - 4t}{(t-2) \cdot (t-1) \cdot (t+1)^3} = \frac{3}{t-1} - \frac{16}{t-2} - \frac{17}{t+1} + \frac{5}{(t+1)^2} + \frac{1}{(t+1)^3}$$

bo`lishini e`tiborga olib topamiz:

$$\begin{aligned} I &= \int \frac{-2t^2 - 4t}{(t-2) \cdot (t-1) \cdot (t+1)^3} dt = \frac{3}{4} \int \frac{dt}{t-1} - \frac{16}{27} \int \frac{dt}{t-2} - \\ &- \frac{17}{108} \int \frac{dt}{t+1} + \frac{5}{18} \int \frac{dt}{(t+1)^2} + \frac{1}{3} \int \frac{dt}{(t+1)^3} = \frac{3}{4} \ln|t-1| - \\ &- \frac{16}{27} \ln|t-2| - \frac{17}{108} \ln|t+1| - \frac{5}{18} \cdot \frac{1}{t+1} - \frac{1}{6} \cdot \frac{1}{(t+1)^2} + C. \blacktriangleright \end{aligned}$$

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O`rinov A.Q. Oddiy differensial tenglamalar uchun chegaraviy masalalar. - Toshkent: MUMTOZ SO`Z, 2014, 115 bet.
2. Salohiddinov M.S. Integral tenglamalar. - Toshkent: Yangiyo`l poligraf servis, 2007, 256 bet.
3. Ergashev A. A., Vakhobov F. F. THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF "PROFESSIONAL ACTIVITY OF A MATHEMATICS TEACHER" // Open Access Repository. - 2022. - T. 8. - №. 12. - C. 147-154.
4. Yigitalievich A. U., Fazliddin V. A SYSTEM OF EQUATIONS FOR OSCILLATION AND STABILITY OF A VISCOELASTIC PLATE TAKING

INTO ACCOUNT THE GENERALIZED HEAT CONDUCTIVITY EQUATIONS
//Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12.
– C. 304-308.

5. Makhmudov B. B., Vokhobov F. F. TOPICS: GAUSS'S THEOREM.
INTEGRAL EXPRESSION OF THE HYPERGEOMETRIC FUNCTION
ACCORDING TO THE DALANBER PRINCIPLE //Galaxy International
Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 138-144.

6. Yigitalievich A. U., Mirsaid S. SYSTEM OF EQUATIONS OF COUPLED
DYNAMIC PROBLEMS OF A VISCOELASTIC SHELL IN A TEMPERATURE
FIELD //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10.

7. Voxobov Fazliddin Faxriddinjon o'g'li V. F. et al. HYPERGEOMETRIC
FUNCTIONS OF SEVERAL VARIABLES //Open Access Repository. – 2023. –
T. 9. – №. 6. – C. 250-252.

8. Faxriddinjon o'g'li V. F. et al. EXPANSIONS OF HYPERGIOMETRIC
FUNCTIONS OF SEVERAL VARIABLES ACCORDING TO KNOWN
FORMULAS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. –
T. 11. – №. 6. – C. 548-550.

9. Faxriddinjon o'g'li V. F. On Generalized Derivations Of Jordon Algebras
Open Access Repository. – 2022. – T. 9. – №. 11. – C. 340-343.

10. Ergashev A. A., Vakhobov F. F. THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF"
PROFESSIONAL ACTIVITY OF A MATHEMATICS TEACHER" //Open Access
Repository. – 2022. – T. 8. – №. 12. – C. 147-154.

11. Yigitalievich A. U., Fazliddin V. A SYSTEM OF EQUATIONS FOR
OSCILLATION AND STABILITY OF A VISCOELASTIC PLATE TAKING
INTO ACCOUNT THE GENERALIZED HEAT CONDUCTIVITY EQUATIONS

//Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 304-308.

12. Makhmudov B. B., Vokhobov F. F. TOPICS: GAUSS'S THEOREM. INTEGRAL EXPRESSION OF THE HYPERGEOMETRIC FUNCTION ACCORDING TO THE DALANBER PRINCIPLE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 138-144.

13. Yigitalievich A. U., Mirsaid S. SYSTEM OF EQUATIONS OF COUPLED DYNAMIC PROBLEMS OF A VISCOELASTIC SHELL IN A TEMPERATURE FIELD //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 298-303.

14. Faxriddinjon o'g'li V. F. et al. HYPERGEOMETRIC FUNCTIONS OF SEVERAL VARIABLES //Open Access Repository. – 2023. – T. 9. – №. 6. – C. 250-252.

15. Faxriddinjon o'g'li V. F. et al. EXPANSIONS OF HYPERGIOMETRIC FUNCTIONS OF SEVERAL VARIABLES ACCORDING TO KNOWN FORMULAS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 6. – C. 548-550.

16. Faxriddinjon o'g'li V. F. On Generalized Derivations Of Jordon Algebras //Open Access Repository. – 2022. – T. 9. – №. 11. – C. 340-343.

Research Science and Innovation House

**Ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarning hususiy hosilalari va
differensiallashlar haqida**

Voxobov Fazliddin Faxriddinjon o‘g‘li

Qo‘qon DPI Matematika kafedrası o‘qituvchisi.

Sulaymanov Mirsaid Muhiddin o‘g‘li

Qo‘qon DPI Matematika kafedrası o‘qituvchisi.

Shovvozbekova Gulshoda Omatillo qizi

Qo‘qon DPI 3-bosqich talabasi

Annotatsiya.

Ushbu maqolada ayrim masalalarning hususiy hosilalari va differensiallarini yechilish usullari keltirilgan.

Аннотация

В статье представлены методы решения специальных производных и дифференциалов некоторых задач.

Annotation

The article presents methods for solving special derivatives and differentials of some problems

Kalit so‘zlar. Xususiy hosila, differensiallanuvchi funksiya

$f(x) = f(x_1, x_2, \dots, x_m)$ funksiya ochiq $M (M \subset R^m)$ to‘plamda berilgan bo‘lsin. Bu to‘plamda $x^0 = (x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)$ nuqta olib, uning birinchi koordinatasi x_1^0 ga shunday $\Delta x_1 (\Delta x_1 > 0, \Delta x_1 < 0)$ ortirma beraylikki, $(x_1^0 + \Delta x_1, x_2^0, \dots, x_m^0) \in M$ bo‘lsin. Natijada $f(x_1, x_2, \dots, x_m)$ funksiya ham $(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)$ nuqtada x_1 o‘zgaruvchisi bo‘yicha

$$\Delta_{x_1} f = f(x_1^0 + \Delta x_1, x_2^0, \dots, x_m^0) - f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)$$

xususiy orttirmaga ega bo‘ladi.

Ushbu

$$\frac{\Delta_{x_1} f}{\Delta x_1} = \frac{f(x_1^0 + \Delta x_1, x_2^0, \dots, x_m^0) - f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)}{\Delta x_1} \quad (1.1)$$

nisbatni qaraylik. Ravshanki, bu nisbat Δx_1 ning funksiyasi bo‘lib, u Δx_1 ning noldan farqli qiymatlarida aniqlangan.

1.1 - ta’rif. Agar $\Delta x_1 \rightarrow 0$ da (1.1) nisbatning limiti

$$\lim_{\Delta x_1 \rightarrow 0} \frac{\Delta_{x_1} f}{\Delta x_1} = \lim_{\Delta x_1 \rightarrow 0} \frac{f(x_1^0 + \Delta x_1, x_2^0, \dots, x_m^0) - f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)}{\Delta x_1}$$

mavjud va chekli bo‘lsa, bu limit $f(x_1, x_2, \dots, x_m)$ funksiyaning $(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)$ nuqtadagi x_1 o‘zgaruvchisi bo‘yicha xususiy hosilasi deb ataladi va

$$\frac{\partial f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)}{\partial x_1}, \frac{\partial f}{\partial x_1}, f'_{x_1}(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0), f'_{x_1}$$

belgilarning biri bilan belgilanadi. Demak,

$$f'_{x_1}(x^0) = \frac{\partial f(x^0)}{\partial x_1} = \lim_{\Delta x_1 \rightarrow 0} \frac{\Delta_{x_1} f}{\Delta x_1}.$$

Agar $x_1^0 + \Delta x_1 = x_1$ deb olsak, unda $\Delta x_1 = x_1 - x_1^0$ va $\Delta x_1 \rightarrow 0$ da $x_1 \rightarrow x_1^0$ bo‘lib, natijada

$$\begin{aligned} \lim_{\Delta x_1 \rightarrow 0} \frac{\Delta_{x_1} f}{\Delta x_1} &= \lim_{\Delta x_1 \rightarrow 0} \frac{f(x_1^0 + \Delta x_1, x_2^0, \dots, x_m^0) - f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)}{\Delta x_1} = \\ &= \lim_{x_1 \rightarrow x_1^0} \frac{f(x_1, x_2^0, \dots, x_m^0) - f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)}{x_1 - x_1^0} \end{aligned}$$



bo‘ladi. Demak, $f(x_1, x_2, \dots, x_m)$ funksiyaning $(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)$ nuqtadagi x_1 o‘zgaruvchisi bo‘yicha xususiy hosilasini ushbu

$$\frac{f(x_1, x_2^0, \dots, x_m^0) - f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)}{x_1 - x_1^0}$$

nisbatning $x_1 \rightarrow x_1^0$ dagi limiti sifatida ta’riflash mumkin.

Xuddi shunga o‘xshash $f(x_1, x_2^0, \dots, x_m^0)$ funksiyaning boshqa o‘zgaruvchilari bo‘yicha xususiy hosilalari ta’riflanadi:

$$\frac{\partial f}{\partial x_2} = \lim_{\Delta x_2 \rightarrow 0} \frac{f(x_1^0, x_2^0 + \Delta x_2, x_3^0, \dots, x_m^0) - f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)}{\Delta x_2}$$

$$\frac{\partial f}{\partial x_m} = \lim_{\Delta x_m \rightarrow 0} \frac{f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_{m-1}^0, x_m^0 + \Delta x_m) - f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)}{\Delta x_m}$$

Demak, ko‘p o‘zgaruvchili $f(x_1, x_2^0, \dots, x_m^0)$ funksiyaning biror $(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)$ nuqtada $x_k = (k = 1, 2, \dots, m)$ o‘zgaruvchisi bo‘yicha xususiy hosilasini ta’riflashda bu funksiyaning $x_k = (k = 1, 2, \dots, m)$ o‘zgaruvchidan boshqa barcha o‘zgaruvchilari o‘zgarmas deb hisoblanar ekan. Shunday qilib, $x_k = (k = 1, 2, \dots, m)$ funksiyaning xususiy hosilalari $f'_{x_1}, f'_{x_2}, \dots, f'_{x_m}$ bir o‘zgaruvchili funksiya hosilasi kabi ekanligini ko‘ramiz. Demak, ko‘p o‘zgaruvchili funksiyalarning xususiy hosilalarini hisoblashda bir o‘zgaruvchili funksiyaning hosilasini hisoblashdagi ma’lum bo‘lgan qoida va jadvallardan to‘liq foydalanish mumkin.

Misollar. 1. $f(x_1, x_2) = \sqrt{x_1^2 + x_2^2}$ bo‘lsin. Bu funksiyaning $\forall (x_1, x_2) \in R^2$ nuqtadagi xususiy hosilalari

$$\frac{\partial f}{\partial x_1} = \frac{x_1}{\sqrt{x_1^2 + x_2^2}}, \quad \frac{\partial f}{\partial x_2} = \frac{x_2}{\sqrt{x_1^2 + x_2^2}}$$



bo‘ladi.

$$2. f(x_1, x_2) = \frac{1}{\sqrt{x_2}} e^{-\frac{x_1+x_2}{2}} \text{ funksiyaning } \forall (x_1, x_2) \in R^2 (x_2 > 0) \text{ nuqtadagi xususiy}$$

hosilalarini hisoblaymiz:

$$\begin{aligned} \frac{\partial f}{\partial x_1} &= \frac{\partial}{\partial x_1} \left(\frac{1}{\sqrt{x_2}} e^{-\frac{x_1+x_2}{2}} \right) = -\frac{1}{2\sqrt{x_2}} e^{-\frac{x_1+x_2}{2}}, \\ \frac{\partial f}{\partial x_2} &= \frac{\partial}{\partial x_2} \left(\frac{1}{\sqrt{x_2}} e^{-\frac{x_1+x_2}{2}} \right) = -\frac{1}{2\sqrt{x_2^3}} e^{-\frac{x_1+x_2}{2}} - \\ &= -\frac{1}{2\sqrt{x_2}} e^{-\frac{x_1+x_2}{2}} = -\frac{1}{2\sqrt{x_2}} e^{-\frac{x_1+x_2}{2}} \left(1 + \frac{1}{x_2} \right). \end{aligned}$$

3. Ushbu

$$f(x_1, x_2) = \begin{cases} \frac{2x_1x_2}{x_1^2 + x_2^2}, & \text{agar } (x_1, x_2) \neq (0, 0) \text{ bo'lsa,} \\ 0, & \text{agar } (x_1, x_2) = (0, 0) \text{ bo'lsa} \end{cases}$$

funksiyaning xususiy hosilalarini toping.

Aytaylik, $(x_1, x_2) \neq (0, 0)$ bo‘lsin. U holda

$$\begin{aligned} \frac{\partial f}{\partial x_1} &= \frac{\partial}{\partial x_1} \left(\frac{2x_1x_2}{x_1^2 + x_2^2} \right) = \frac{2x_2(x_1^2 + x_2^2) - 2x_1x_2 \cdot 2x_1}{(x_1^2 + x_2^2)^2} = \frac{2x_2(x_2^2 - x_1^2)}{(x_1^2 + x_2^2)^2}, \\ \frac{\partial f}{\partial x_2} &= \frac{\partial}{\partial x_2} \left(\frac{2x_1x_2}{x_1^2 + x_2^2} \right) = \frac{2x_1(x_1^2 + x_2^2) - 2x_1x_2 \cdot 2x_2}{(x_1^2 + x_2^2)^2} = \frac{2x_1(x_1^2 - x_2^2)}{(x_1^2 + x_2^2)^2} \end{aligned}$$

bo‘ladi.

Endi $(x_1, x_2) = (0, 0)$ bo‘lsin. U holda

$$\begin{aligned} \frac{\partial f(0, 0)}{\partial x_1} &= \lim_{\Delta x_1 \rightarrow 0} \frac{f(\Delta x_1, 0) - f(0, 0)}{\Delta x_1} = 0, \\ \frac{\partial f(0, 0)}{\partial x_2} &= \lim_{\Delta x_2 \rightarrow 0} \frac{f(0, \Delta x_2) - f(0, 0)}{\Delta x_2} = 0 \end{aligned}$$



bo‘ladi.

Demak, berilgan $f(x_1, x_2)$ funksiya $\forall (x_1, x_2) \in R^2$ da xususiy hosilalarga ega.

Funksiyaning differensiallanuvchiligi tushunchasi.

$f(x) = f(x_1, x_2, \dots, x_m)$ funksiya ochiq $M (M \subset R^2)$ to‘plamda berilgan bo‘lsin.

Bu to‘plamda $(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0) = x^0$ nuqta bilan birga $(x_1^0 + \Delta x_1, x_2^0 + \Delta x_2, \dots, x_m^0 + \Delta x_m)$ nuqtani olib, berilgan funksiyaning to‘la orttirmasi

$$\Delta f(x^0) = f(x_1^0 + \Delta x_1, x_2^0 + \Delta x_2, \dots, x_m^0 + \Delta x_m) - f(x_1^0, x_2^0, \dots, x_m^0)$$

ni qaraymiz.

Ravshanki, funksiyaning $\Delta f(x^0)$ orttirmasi argumentlar orttirmalari $\Delta x_1, \Delta x_2, \dots, \Delta x_m$ larga bog‘lik, bo‘lib, ko‘pchilik hollarda $\Delta x_1, \Delta x_2, \dots, \Delta x_m$ lar bilan Δf orasidagi bog‘lanish murakkab bo‘ladi. Tabiiyki, bunda $\Delta x_1, \Delta x_2, \dots, \Delta x_m$ larga ko‘ra Δf ni aniq yoki taqribiy hisoblash qiyinlashadi. Natijada orttirmasi $\Delta x_1, \Delta x_2, \dots, \Delta x_m$ orttirmalar bilan soddarok bog‘lanishda bo‘lgan funksiyalarni o‘rganish masalasi yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Xudayberganov G, Vorisov A, Mansurov X, Shomilqulov B. Matematik analizdan ma‘ruzalar, I T <<Voris-nashryoti>> . 2010y -374b.
2. Azlarov T. Mansurov X. Matematik analiz T: <<O‘zbekiston>>. 1t: 1994y.-416 b.
3. Toshmetov O’, Turgunbayev R. matematik analizdan misol va masalalar to‘plami. 1-q. TPDU.2006y.-140 B.
4. Claudia Canuta, Anita Tabacco Mathematical analysis. I. Springer- Verlag. Italia, milan. 2008. -435p.
5. Ergashev A. A., Vakhobov F. F. THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF"

PROFESSIONAL ACTIVITY OF A MATHEMATICS TEACHER" //Open
Access Repository. – 2022. – T. 8. – №. 12. – C. 147-154.

6. Yigitalievich A. U., Fazliddin V. A SYSTEM OF EQUATIONS FOR
OSCILLATION AND STABILITY OF A VISCOELASTIC PLATE TAKING
INTO ACCOUNT THE GENERALIZED HEAT CONDUCTIVITY
EQUATIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. –
T. 10. – №. 12. – C. 304-308.

7. Makhmudov B. B., Vokhobov F. F. TOPICS: GAUSS'S THEOREM.

INTEGRAL EXPRESSION OF THE HYPERGEOMETRIC FUNCTION
ACCORDING TO THE DALANBER PRINCIPLE //Galaxy International
Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 138-144.

8. Yigitalievich A. U., Mirsaid S. SYSTEM OF EQUATIONS OF COUPLED
DYNAMIC PROBLEMS OF A VISCOELASTIC SHELL IN A TEMPERATURE
FIELD //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10.

9. Voxobov Fazliddin Faxriddinjon o'g'li V. F. et al. EXPANSIONS OF
HYPERGIOMETRIC
FUNCTIONS OF SEVERAL VARIABLES ACCORDING TO KNOWN
FORMULAS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. –
T. 11. – №. 6. – C. 548-550.


10. Voxobov Fazliddin Faxriddinjon o'g'li V. F. On Generalized Derivations Of
Jordon Algebras

//Open Access Repository. – 2022. – T. 9. – №. 11. – C. 340-343.

10. Yigitalievich A. U., Fazliddin V. A SYSTEM OF EQUATIONS FOR
OSCILLATION AND STABILITY OF A VISCOELASTIC PLATE TAKING
INTO ACCOUNT THE GENERALIZED HEAT CONDUCTIVITY EQUATIONS
//Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12.
– C. 304-308.

11. Makhmudov B. B., Vokhobov F. F. TOPICS: GAUSS'S THEOREM.
INTEGRAL EXPRESSION OF THE HYPERGEOMETRIC FUNCTION
ACCORDING TO THE DALANBER PRINCIPLE //Galaxy International
Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 138-144.

12. Yigitalievich A. U., Mirsaid S. SYSTEM OF EQUATIONS OF COUPLED DYNAMIC PROBLEMS OF A VISCOELASTIC SHELL IN A TEMPERATURE FIELD //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 298-303.
13. Faxriddinjon o'g'li V. F. et al. HYPERGEOMETRIC FUNCTIONS OF SEVERAL VARIABLES //Open Access Repository. – 2023. – T. 9. – №. 6. – C. 250-252.
14. Faxriddinjon o'g'li V. F. et al. EXPANSIONS OF HYPERGIOMETRIC FUNCTIONS OF SEVERAL VARIABLES ACCORDING TO KNOWN FORMULAS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 6. – C. 548-550.
15. Faxriddinjon o'g'li V. F. On Generalized Derivations Of Jordon Algebras //Open Access Repository. – 2022. – T. 9. – №. 11. – C. 340-343.



Research Science and Innovation House



YORDAN ALGEBRALARI VA ULAR USTIDA UMUMIYLASHTIRILGAN DIFFERENSIALLASHLAR HAQIDA

Voxobov Fazliddin Faxriddinjon o‘g‘li
Qo‘qon DPI o‘qituvchisi
Mamatsharifova Fotima Akramjon qizi
UZMU 2-bosqich magistri

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yordan algebraida umumiy lashtirilgan differensiallash tushunchasi kiritilgan va uning umumiy xossalari o‘rganilgan. Xususan, Yordan algebraida berilgan umumiy lashtirilgan differensiallashlar yordamida invariantlar qurilgan. Shuningdek, Yordan algebraida (α, β, γ) -differensiallashlar to‘plamining α, β, γ parametrlarining ayrim qiymatlari bo‘yicha tavsifi keltirilgan.

Kalitso‘zlar. Vektor fazo, Yordan algebra, chiziqli akslantirish, differensiallash, umumiy lashtirilgan differensiallash.

1-Ta‘rif. Yordan algebra J – bu quyidagi ayniyatlarni qanoatlantiruvchi

$$J \times J \rightarrow J$$

Bu chiziqli akslantirish berilgan F maydonidagi V vektor fazosidir

$$a \cdot b = b \cdot a, a, b \in J,$$
$$(a^2 \cdot b) \cdot a = a^2 \cdot (b \cdot a), a, b \in J.$$

Yordan algebraining (α, β, γ) -differensiallashlari Ta‘rifini quyidagicha yozish mumkin.

2-Ta'rif. Aytaylik (J, \cdot) – Yordan algerasi bo'lsin. Chiziqli operator $d \in \text{End}(J)$ J Yordan algebrasining (α, β, γ) – differensiyalashi deb ataladi, agar shunday $\alpha, \beta, \gamma \in \mathbf{C}$ mavjud bo'lib, barcha $x, y \in J$ elementlar uchun quyidagi shart bajarilsa

$$\alpha d(x \cdot y) = \beta(d(x) \cdot y) + \gamma(x \cdot d(y)).$$

J Yordan algebrasining barcha (α, β, γ) – differensiallashlari to'plamini $\text{Der}_{(\alpha, \beta, \gamma)}(J)$ orqali belgilaylik. Ushbu to'plam quyidagicha aniqlanadi

$$\text{Der}_{(\alpha, \beta, \gamma)}(J) = \{d \in \text{End}(J) : \alpha d(x \cdot y) = \beta(d(x) \cdot y) + \gamma(x \cdot d(y)), x, y \in J\}.$$

Bu yerda $\text{Der}_{(\alpha, \beta, \gamma)}(J)$ to'plam $\text{End}(J)$ ning vektor qism fazosi bo'ladi.

Teorema. J – birlik elementli Yordan algebrasi va $\alpha, \beta, \gamma \in \mathbf{F}$ bo'lsin. U holda $\text{Der}_{(\alpha, \beta, \gamma)}(J)$ vektor fazo quyidagi ko'rinishlarga ega bo'ladi.

1. $\text{Der}_{(1,1,1)}(J) = \text{Der}(J)$, bu yerda $\text{Der}(J)$ – bu J Yordan algebrasining barcha differensiallashlari Li algebrasi;

2. $\text{Der}_{(1,1,0)}(J) \subseteq \text{End}(L)$ va $\text{Der}_{(1,1,0)}(J)$ to'plamni J Yordan algebrasining barcha idempotent elementlari to'plami $\text{Id}(J)$ bilan

$$p \in \text{Id}(J), \quad d(x) = p \cdot x, \quad x \in J$$

orqali aynan tenglashtirish mumkin.

3. $\text{Der}_{(1,1,-1)}(J) \subseteq \text{Der}_{(1,0,0)}(J) \equiv 0$.

4. $\text{Der}_{(0,1,1)}(J) \equiv 0$.

5. $\text{Der}_{(0,1,-1)}(J)$ to'plamni $Z_o(J) = \{a \in J \mid (b \cdot a) \cdot c = b \cdot (a \cdot c), b, c \in J\}$ to'plam bilan

$$a \in Z_o(J), \quad d(x) = a \cdot x, \quad x \in J.$$

orqali aynan tenglashtirish mumkin.

6. $\text{Der}_{(0,1,0)}(J) \equiv 0$;

7. Agar $\delta \neq 1$ bo'lsa, u holda $\text{Der}_{(\delta,1,0)}(J) \equiv 0$.



Teorema isboti. $d(x \cdot y) = d(x) \cdot y, x, y \in J$ tenglikdan $d(x) = d(e) \cdot x, x \in J$ tenglikka ega bo‘lamiz. U holda, J Yordan algebrasi kommutativ bo‘lgani uchun

$$d(x \cdot y) = d(e) \cdot (x \cdot y) = d(x) \cdot y = d(y) \cdot x, \quad x, y \in J$$

va

$$d(x \cdot y) = d(x \cdot e) \cdot y = (d(e) \cdot x) \cdot y = (d(e) \cdot y) \cdot x, \quad x, y \in J.$$

Bundan $d(e)$ – bu markaziy elementdir. Shu bilan birga

$$d(e) = d(e \cdot e) = d(e) \cdot d(e),$$

ya’ni $d(e)$ element idempotent elementdir. Aksincha, J Yordan algebrasining har qanday markaziy idempotenti p uchun

$$d(x) = p \cdot x, \quad x \in J,$$

akslantirish $Der_{(1,1,0)}(J)$ to‘plamga tegishli va shu yo‘l bilan $Der_{(1,1,0)}(J)$ to‘plamni J Yordan algebrasining barcha idempotent elementlari to‘plami bilan aynan tenglashtirish mumkin.

Bundan esa 1 va 2 ko‘rinishlarning bajarilishi ravshandir.

3. Ta’rifga ko‘ra $Der_{(1,1,-1)}(J) = \{d \in End(J) \mid d(x \cdot y) = d(x) \cdot y - x \cdot d(y), x, y \in J\}$. Quyidagi tengliklar o‘rinli

$$d(x) = d(e) \cdot x - d(x), \quad x, y \in J,$$

$$d(x \cdot y) = (d(e) \cdot x - d(x)) \cdot y - x \cdot (d(e) \cdot y - d(y)) =$$

$$(d(e) \cdot x) \cdot y - d(x) \cdot y - x \cdot (d(e) \cdot y) + x \cdot d(y) =$$

$$(d(e) \cdot x) \cdot y - x \cdot (d(e) \cdot y) - d(x \cdot y), \quad x, y \in J,$$

$$d(e) = d(e \cdot e) = d(e) \cdot e - e \cdot d(e) = 0.$$

Bundan

$$d(x \cdot y) = -d(x \cdot y) = 0, \quad x, y \in J$$

va

$$d(e \cdot x) = -d(e \cdot x) = d(x) = 0, \quad x \in J.$$



Oxirgi tenglikdan ko‘rinadiki $Der_{(1,1,-1)}(J) \equiv 0$.

4. Ta’rifga ko‘ra, $Der_{(0,1,1)}(J)$ to‘plam quyidagicha aniqlanadi

$$Der_{(0,1,1)}(J) = \{d \in End(J) \mid d(x) \cdot y = -x \cdot d(y), x, y \in J\}.$$

U holda $d(e) \cdot x = -e \cdot d(x) = -d(x)$, $x \in J$, $d(e) \cdot e = -e \cdot d(e)$, $d(e) = 0$. Bundan

$$d(x) = e \cdot d(x) = -d(e) \cdot x = 0, \quad x \in J.$$

Demak, $Der_{(0,1,1)}(J) \equiv 0$.

5. Yuqoridagidek, $Der_{(0,1,-1)}(J) = \{d \in End(J) \mid d(x) \cdot y = x \cdot d(y), x, y \in J\}$ to‘plam uchun quyidagi tengliklarni hosil qilish mumkin

$$d(e) \cdot x = e \cdot d(x) = d(x), \quad x \in J,$$

$$d(x) \cdot y = (d(e) \cdot x) \cdot y = (x \cdot d(e)) \cdot y = x \cdot d(y) = x \cdot (d(e) \cdot y), x, y \in J.$$

Endi

$$Z_o(J) = \{a \in J \mid (b \cdot a) \cdot c = b \cdot (a \cdot c), b, c \in J\}$$

to‘plamdan ixtiyoriy $a \in Z_o(J)$ element olamiz. Quyidagi

$$d(x) = a \cdot x, \quad x \in J.$$

akslantirish $Der_{(0,1,-1)}(J)$ to‘plamga tegishli ekanini ko‘rsatamiz. Haqiqatan ham,

$$d(x) \cdot y = (a \cdot x) \cdot y = (x \cdot a) \cdot y = x \cdot (a \cdot y) = x \cdot d(y), \quad x, y \in J.$$

6. Ta’rifga ko‘ra, $Der_{(0,1,0)}(J)$ to‘plam quyidagicha aniqlanadi

$$Der_{(0,1,0)}(J) = \{d \in End(J) \mid d(x) \cdot y = 0, x, y \in J\}.$$

Quyidagi tengliklar o‘rinli

$$d(x) = d(x) \cdot e = 0, \quad d(e) = d(e) \cdot e = 0, \quad x \in J.$$

Bundan $Der_{(0,1,0)}(J) \equiv 0$.

7. Nihoyat, oxirgi

$$Der_{(\delta,1,0)}(J) = \{d \in End(J) \mid \delta d(x \cdot y) = d(x) \cdot y, x, y \in J\}$$

to‘plam quyidagi tengliklarni hosil qilish mumkin

$$\delta d(x) = \delta d(x \cdot e) = d(x) \cdot e = d(x), \quad x \in J$$

$$\delta d(x) = d(x), \quad (\delta - 1)d(x) = 0, \delta \neq 1, d(x) = 0 \quad x \in J.$$

Chunki

$$0 = (\delta - 1)^{-1}0 = (\delta - 1)^{-1}(\delta - 1)d(x) = d(x).$$

Demak, $Der_{(\delta,1,0)}(J) \equiv 0$.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

- 1.Leger G., Luks E. Generalized Derivations of Lie algebras, J. Algebra, 2000, 228,165-203.
- 2.Hartwig J., Larsson D.,Silvestrov S. Deformation of Lie algebras using (σ, τ) -derivation. Journal of algebra,2006, 38 (2) 109-138.
- 3.Hrivnak J.Invariants of Lie algebras. PhD Thesis, Faculty of Nuclear Science andPhysical Engineering, Czech Technical University, Prague, 2007.
- Novotny P.,Hrivnak J. On (α, β, γ) -derivation of Lie algebras and correspondinginvariant functions. J. Geom. Phys.,2008, 58, 208-217.
- 5.Rakhimov I. S., Said Husain Sh. K.,Abdulkadir A. On Generalized derivationsof finite dimensional associative algebras. FEIIC International journal of Engineering andTechnology,2016, 13 (2) 121-126.
- 6.Fiidow M.A., Rakhimov I.S., Said Husain Sh.K., Basri W. (α, β, γ) -Derivations of diassociativealgebras. Malaysian Journal Of Mathematical sciences, 2016, 10101-126.
7. McCrimmonK.A taste of Jordan algebras.Springer, New York, Berlin, Heidelberg, Hong Kong, London, Milan, Paris, Tokyo, 2004, pp. 562.
8. Hanche-OlceH., StörmerE.Jordan operator algebras.Boston etc: Pitman Publ. Inc.,1984, pp. 183.
9. Ergashev A. A., Vakhobov F. F. THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF" PROFESSIONAL ACTIVITY OF A MATHEMATICS TEACHER" //Open Access Repository. – 2022. – T. 8. – №. 12. – C. 147-154.
- 10.Yigitalievich A. U., Fazliddin V. A SYSTEM OF EQUATIONS FOR OSCILLATION AND STABILITY OF A VISCOELASTIC PLATE TAKING INTO ACCOUNT THE GENERALIZED HEAT CONDUCTIVITY EQUATIONS

//Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 304-308.

11.Makhmudov B. B., Vokhobov F. F. TOPICS: GAUSS'S THEOREM. INTEGRAL EXPRESSION OF THE HYPERGEOMETRIC FUNCTION ACCORDING TO THE DALANBER PRINCIPLE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 138-144.

12.Yigitalievich A. U., Mirsaid S. SYSTEM OF EQUATIONS OF COUPLED DYNAMIC PROBLEMS OF A VISCOELASTIC SHELL IN A TEMPERATURE FIELD //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 298-303.

13.Faxriddinjon o'g'li V. F. et al. HYPERGEOMETRIC FUNCTIONS OF SEVERAL VARIABLES //Open Access Repository. – 2023. – T. 9. – №. 6. – C. 250-252.

14.Faxriddinjon o'g'li V. F. et al. EXPANSIONS OF HYPERGIOMETRIC FUNCTIONS OF SEVERAL VARIABLES ACCORDING TO KNOWN FORMULAS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 6. – C. 548-550.

15.Faxriddinjon o'g'li V. F. On Generalized Derivations Of Jordon Algebras //Open Access Repository. – 2022. – T. 9. – №. 11. – C. 340-343.

Research Science and Innovation House

**BOSHLANG‘ICH SINIF DARSLIKLARIDAN O‘QUVCHILAR NUTQINI
O‘STIRISHDA IJODIY YONDOSHISH.**

Turanazarova Nilufar

Stajyor o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O‘zbekiston

turanazarovanilufar@gmail.com

**ТВОРЧЕСКИЙ ПОДХОД К РАЗВИТИЮ РЕЧИ УЧАЩИХСЯ ИЗ
УЧЕБНИКОВ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ.**

Тураназарова Нилуфар

Преподаватель-стажер, Джизакский Государственный Педагогический

Университет

Джизак, Узбекистан

turanazarovanilufar@gmail.com

**CREATIVE APPROACH TO GROWING THE SPEECH OF STUDENTS
FROM ELEMENTARY SCHOOL TEXTBOOKS.**

Turanazarova Nilufar

Trainee teacher, Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

turanazarovanilufar@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilar nutqini o‘stirishda darsliklardagi mavzuga doir barcha materiallardan foydalangan holda amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan usullar, nutq o‘stirishni rejali tashkil etish; nutqning (gap tuzish, so‘z birikmalari hosil qilish; uslubiy jihatdan so‘zlarni to‘g‘ri tanlash) ahamiyatli jihatlarini izohlash; pedagogik faoliyatda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida jonli muloqotni tashkil etish masalalari yoritilgan.



Kalit so‘z: Nutq, gap tuzish, so‘z birikmalari, nutq uslublari, og‘zaki nutq, yozma nutq, adabiy til me‘yorlari, bilim, ko‘nikma, malakalar.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются методы развития речи младших школьников, реализуемые Мунк с использованием всего тематического материала учебников; планомерная организация речевого развития; трактовка значимых аспектов речи (построение предложения, формирование словарного запаса; методически правильный подбор слов); вопросы организации живого общения учителя с учеником в педагогической деятельности.

Ключевые слова: Речь, построение предложения, лексика, стили речи, устная речь, письменная речь, нормы литературного языка, знания, умения, навыки.

Abstract.

This article covers methods, planned Organization of speech cultivation; interpretation of significant aspects of speech (speech formation, vocabulary formation; methodically correct choice of words), the implementation of which is munkin, using all materials related to the topic in textbooks when growing speech of Elementary Students; Organization of live communication between teacher and student in pedagogical activity.

Key word: Speech, sentence structure, vocabulary, speech styles, oral speech, written speech, literary language norms, knowledge, skills, qualifications.

Nutq madaniyati avvalo, to‘g‘ri, adabiy til me‘yorlariga amal qilgan holda so‘zlashdir. Nutq madaniyatining yuqori darajada shakllantirish madaniyatli shaxsni tarbiyalash demakdir. Yosh tarbiyalanuvchilar nutqini yaxshilash har biri katta yoshli insonlarning vazifasidir. Buning uchun talaffuzda, so‘z shakllaridan foydalanishda, jummalarni tuzishda xato qilmaslik uchun o‘quvchilar nutqini kuzatib borishimiz kerak.

Nutq madaniyati til ilmining nisbatan yosh sohasidir. Nutq o‘stirishga bo‘lgan ehtiyoj mamlakatimizda yuz bergan tub ijtimoiy o‘zgarishlar ta‘siri ostida shakllandi. Faol ijtimoiy faoliyatga keng odamlarni jalb qilish ularning nutq madaniyatini oshirishga e‘tiborni yosh avlod nutqini rivojlantirishdan boshlanadi. Nutq o‘stirish ijtimoiy hodisa bo‘lib, u jamiyat, fan va texnika, madaniy va adabiy




hayot rivoji bilan chambarchas bog‘liq holda amalga oshiriladi. O‘quvchilarining bilim saviyasi ortgan sari nutqi ham jilolanib, sayqallashib, nutq madaniyati qoidalari va me‘yorlariga muvofiq holda takomillashib boradi. Nutq o‘stirishda va rivojlantirishda darsliklardan tashqari adabiyot, san‘atning ham alohida o‘rni bor. Ayniqsa, adabiy tilni me‘yorlashtirish va nutq madaniyatini rivojlantirishda leksikografiya, xususan, izohli, imlo, talaffuz, o‘quv va boshqa maxsus lug‘atlar muhim ahamiyatga ega va ularning ilk qoidalari boshlang‘ich sinflardan oq tushuntirib boshlanadi.

XV asrdayoq o‘zbek adabiy tilining Nutq madaniyati va uning o‘ziga xos me‘yorlariga alohida e‘tibor berib boshlangan. Alisher Navoiy o‘zining butun hayotiy va ijodiy faoliyati bilan o‘z davri nutq madaniyatiga, nutq odobiga mislsiz hissa qo‘shgan bo‘lsa, keyingi davrda yashagan Bobur, Muhammad Solih, Gulxaniy, Nodira, Ogahiy, Furqat, Muqimiy va boshqa shoirlarning asarlari tilida ham o‘sha davr tili va nutq madaniyati ma‘lum darajada aks etgan. "Yaxshi so‘z — jon ozig‘i", "Bug‘doy noning bo‘lmasa ham, bug‘doy so‘zing bo‘lsin", "O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir", "Har neni yemak — hayvonning ishi, har neni demak — nodonning ishi" kabi maqol va hikmatli so‘zlarning paydo bo‘lishi ham o‘zbek xalqida nutq madaniyatiga avvaldan e‘tibor kuchli bo‘lganidan darak beradi.

Nutqning qadimdan insoniyatning axbarot almashishdagi zaruriy ehtiyoji bo‘lganligini bilamiz va bu ehtiyoj zamonlar oshib ayni bizning davrda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmadi, shu sababli yangi avlod darsliklari ham ayni bugungi kun talablariga mos holatda nashr etilayotganligi so‘zimiz isbotidir.

2-sinf O‘qish savodxonligi mashq daftaridagi o‘quvchilar uchun “Vatanim-jannatmakon O‘zbekistonim” mavzusidagi topshiriqlarni oladigan bo‘lsak:

1-topshiriq. Vatan so‘ziga ta’rif bering.



2- topshiriq. Maqollarni mazmunan mos qismlar bilan bog'lang.

Vatanning tinch-

odam - Vatanni


Vatan qadrini bilmagan

o'z qadrini bilmas

Bulbul chamanni

sen tinch

3-topshiriq. Mening Vatanim mavzusida rasm chizing.



Bugungi kun talabi va bir qator xorijiy davlatlarning ta'lim tizimini o'rgangan holda ishlab chiqilayotgan darsliklarda boshlang'ich sinf o'quvchilarda mantiqiy fikrlash, ijodiy faoliyat, tafakkur, tasavvur va mustaqil ishlash kabi ko'nikmalarni shakllantirish bosh maqsad qilib olingan. Ammo shunga qaramay biz har bir darslikdagi mavzularni, mavzu ostidagi ma'lumotlar hamda topshiriqlarni o'zimizning asosiy maqsadimiz uchun ham qo'llay olishimiz, kerakli tushunchalarni hosil qila olishimiz kerak. Demak yuqoridagi topshiriqlardan “Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini o'stirish” uchun qanday foydalansak o'rinli bo'ladi degan masala oldimizda turibdi.

Inobatga olishimiz kerak bo'ladi:

- ✓ 2-sinf O'qish savodxonligi darsligidagi “Vatanim- jannatmakon O'zbekistonim” mavzu uchun berilgan ma'lumotlar;
- ✓ Savol-javoblar;
- ✓ Topshiriqlarning bajarilish tartibi;
- ✓ Lug'atlar ustidagi ishlar.



Birinchi bosqichda: O‘quvchilar mavzu uchun berilgan matn bilan tanishtiriladi.

Ikkinchi bosqich: Matn bilan tanishganlaridan so‘ng matnni o‘zlashtirganliklari, yangi bilmalar asosida hosil qilgan fikrlari va xulosalari og‘zaki tarzda so‘raladi.

Uchinchi bosqich: O‘quvchilar nutqida mavjud, ammo leksik anglashilmagan so‘zlarning ma‘nolari yoritiladi.

To‘rtinchi bosqich: Matnda ishtirok etgan ayrim so‘zlarning turli xil shakllari ya‘ni ma‘nodoshlari birga tahlil qilinadi.

Beshinchi bosqich: Tushunish qiyinroq bo‘lgan so‘z (ta‘rifi o‘rgatilganidan so‘nggina) ishtirokida gap tuzishga o‘rgatiladi. Ushbu jarayon orqali biz darslikdagi bilimlardan og‘zaki nutqni o‘stirishda foydalangan bo‘lamiz.

Oltinchi bosqich: Maqollar nutq o‘stirishning samarali va qulay usuli hisoblanadi, sababi maqollarni har bir o‘quvchi o‘zlari qiziqqan holda izohlaydilar va buning natijasi sifatida bolalarda og‘zaki nutq faollashadi.

Yettinchi bosqich: O‘quvchining matnni qayta hikoyalashi, matndan olgan xulosasini bayon qilishi esa o‘quvchilar ongidagi fikrlarni tizimlashtiradi.

Og‘zaki nutqni yozma nutqda aks etirish ham o‘quvchilar nutqidagi mavjud muammo hisoblanadi. Agar hayotimizga, ta‘lim jarayonlarga nazar tashlaydigan bo‘lsak ko‘pchilik insonlar o‘ylagan fikrlarini tilda ifodalay olmaganliklari kabi, yozma nutqda ham xuddi shu holat ya‘ni fikrni yozma holatda ifodalay olmaslik holati mavjud. Mavjud muammolarni inobatga olib mashq darteridagi topshiriqlardan ham maqsadimizga oid vazifalarni ajratib olamiz.

Vatan so‘ziga ta‘rif bering! Topshiriq bajarilishi kerak.... va inobatga olish kerak.

- ✓ og‘zaki so‘ralganidan keyingina;
- ✓ Savolga mos javob ekanligiga ishonch hosil qilganlik;
- ✓ og‘zaki aytilgan fikrlar to‘liq holatda yozma nutqda aks ettirildimi?
- ✓ Yozma nutqda fikrlar aytilganidan ko‘ra ko‘proq yoritildimi yoki umuman mavzudan uzoqlashdimi?

Maqollar mazmunini to‘g‘ri tuzish! Ixtiyoriy maqol davomini mantiqan topish uchun taxminiy holatda nutqda shakllantirib olish, mazmunga ahamiyat berish, aloqadorligini isbotlay olish zarur. O‘qituvchi yuqoridagi amallarni namuna tarzda amalga oshirgach o‘quvchilarni ham topshiriqni bajarish tarziga jalb etishi



maqsadga muvofiq bo‘ladi. Aynan shu vazifani mustahkamlash maqsadida “**Mosini top**” metodini qo‘llashingiz mumkin.

“*Mening Vatanim*” mavzusida rasm chizish topshirig‘ini bajarishda ham birinchi qilishimiz kerak bo‘ladigan ish - rasm avvalo og‘zaki holda nutqda chizilishi, muhokama qilinishi, nutqiy kamchiliklar (gap tuzish, so‘z birikmalari hosil qilish; uslubiy jihatdan so‘zlarni to‘g‘ri tanlash) bartaraf etilishi shart!

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak boshlang‘ich sinf o‘quvchilar nutqini o‘stirish mavzuga doir barcha materiallardan foydalangan holda amalga oshiriladigan bo‘lsa, nutq o‘stirish rejali tashkil etiladi; nutqning (gap tuzish, so‘z birikmalari hosil qilish; uslubiy jihatdan so‘zlarni to‘g‘ri tanlash) ahamiyatli jihatlari bir nechta holatda izohlanadi; pedagogik faoliyatda o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasida jonli muloqot tashkil etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shakarov A.B, Ulashov X.A. “Nutq o‘stirishni ta‘minlaydigan omillar”.
2. “O‘qish savodxonligi”. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinf uchun mashq daftari/ U.B.Aydarova - Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023-y.80 b.
3. “O‘qish savodxonligi”. Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 2-sinf uchun darslik/ U.B.Aydarova - Toshkent: “Novda Edutainment”, 2023-y.- 80 b.
4. Тураназарова, Н. (2023). Pisa xalqaro baholash dasturida o‘quvchilarning o‘qish savodxonligini baholashda foydalaniladigan topshiriqlar ustida ishlash. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(4). <https://doi.org/10.47689/STARS.university-pp120-123>
5. <https://ziyonet.uz/ru>

Research Science and
Innovation House



Shaxsda o‘z-o‘zini boshqarishning psixologik jihatlari

UrDPI “Pedagogika” kafedrasi o‘qituvchisi

Avezova Baxtigul Xolmurotovna

Annotatsiya: Mazkur maqolada shaxsda o‘z-o‘zini boshqarishning jahon psixologiyasida o‘rganilishi, o‘z-o‘zini boshqarishning psixologik jihatlari, o‘z-o‘zini tartibga solish tuzilmasi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar bayon qilingan.

Kalit: O‘z - o‘zini anglash, o‘z-o‘zini boshqarish, o‘smir shaxsi, kognitiv va affektiv komponent, o‘z-o‘zini tartibga solish, yetakchi faoliyat

Kirish. Mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosati sohasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O‘tgan vaqt ichida yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, mamlakatimiz istiqboli uchun mas‘uliyatni o‘z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash borasida alohida tizim yaratildi. Bu esa o‘z navbatida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev ta‘kidlaganidek, “Bizning asosiy vazifamiz – yoshlarning o‘z salohiyatini namoyon qilishi uchun zarur sharoitlar yaratish, zo‘ravonlik g‘oyasi “virusi” tarqalishining oldini olish” ekanligini ko‘rsatadi.¹

Shu jihatdan yoshlarni har tomonlama qo‘llab quvvatlash jarayonida har bir shaxs o‘z - o‘zini anglashi va har qanday holatda o‘zini boshqarishni bilishi muhim ahamiyat kasb etadi, jamiyatda har bir shaxsni rivojlanib borgani sayin uning ijtimoiy muhitda tutgan mavqei ham o‘zgarib boradi. Shaxs o‘z mavqeiga moslashib, uni chuqur anglab borar ekan, uning bilimlari va faoliyati ham ijtimoiylashib boradi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, shaxsni o‘ziga xos xususiyatlari tashqi muhit ta‘sirida namoyon bo‘lib borishi bilan bir qatorda, o‘zining yangi-yangi xususiyatlarini, qirralarini ko‘rsatishga imkon yaratiladi. Shaxsning jamiyatda odamlar orasidagi xulqi va o‘zini tutishi sabablarini o‘rganish tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan narsa bo‘lib, masalani yoritishning ikki jihati farqlanadi:

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqidan 2017 yil 20 sentabr.



a) ichki sabablar, ya'ni xatti-harakat egasining sub'ektiv psixologik xususiyatlari nazarda tutiladi (motivlar, ehtiyojlar, maqsadlar, mo'ljallar, istaklar, qiziqishlar va hokazolar);

b) tashqi sabablar - faoliyatning tashqi shart-sharoitlari va holatlari. Ya'ni, bular ayni konkret holatlarni kelib chiqishiga sabab bo'ladigan tashqi stimullardir.

Jahon psixologiyasida shaxsning kamoloti, uning rivojlanishi to'g'risida xilma-xil nazariyalar yaratilgan bo'lib, tadqiqotchilar inson shaxsini o'rganishda turlicha pozitsiyada turadilar va muammo mohiyatini yoritishda o'ziga xos yondashishga egadirlar. Shaxsning o'z - o'zini boshqaruvi quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi:

- sub'ekt tomonidan amalga oshirilayotgan erkin faollik xarakterlarini anglash va ularni maqsadga muvofiq boshqarish;

- alohida faoliyat xarakterlarining ob'ektiv predmetli, ratsional-mantiqiy asoslarni, shaxsiy-qadrli asosini aniqlash;

- faoliyat xarakterlarining o'zaro bog'lanishini aniqlash va ularni o'zining asosiy shaxsiy ehtiyoj va qadriyatlarning, maqsad va fikrlarning butun tizimi kontekstiga, hamda o'z - o'zini anglash mohiyatiga moslashtirish kabi qobiliyatlarini aks ettiradi.

Mavzuga doir adabiyotlar tahlili . Shaxsda o'zini-o'zi nazorat qilish muammosi xorij psixologlaridan M.I.Bornishevskiy, V.V.Davodov, L.B.Itelson, A.N.Leontev, I.N.Margamen, A.K.Markova, V.I.Straxov, A.Ya.Savchenko, D.B.Elkonin, T.I.Gavalova, A.I.Lipkina, K.A.Maltseva, G.A.Sabieva, A.K.Serdyuk, S.P.Tihenko, P.Ya.Galperin, A.V.Zaxarov, V.G.Romanko, N.I.Kuvshinov va boshqalar tomonidan keng doirada tadqiq qilingan.

Shaxs o'z o'zini boshqarishi muammosini tadqiq etishda rus va sobiq ittifoq psixologlari o'zlarining munosib hissalarini qo'shganlar, jumladan, K.D.Ushinskiy, I.M.Sechenov, I.P.Pavlov, V.M.Bexterev, A.F.Lazurskiy, V.M.Myasishchev, A.A.Uxtomskiy, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubinshteyn, A.N.Leontev, P.M.Yakobson va boshqalar izlanishlarida ushbu masala yuzasidan tadqiqot olib borib fan psixologiyasini rivojlanishiga katta xissa qo'shganlar.

O'z - o'zini boshqarishni tadqiq qilish bilan birga olimlar avvalo uni shaxsning o'z - o'zini anglash bilan bog'liqligi g'oyasini ilgari surishgan. Psixologiya fanida o'zini o'zi anglashning psixologik mohiyatini talqin qilishda ikki xil qarash, yondashish vujudga kelgan bo'lib, ular o'zaro qiyoslanganda bir-biridan katta farqqa ega. Birinchi yondashuv tavsifiga qaraganda, o'zini o'zi anglash – bu o'z

yoʻnalishini oʻzgartirgan ongning aynan oʻzidir. Shuning uchun u shaxs ongining maxsus koʻrinishidan boshqa narsa emas. Bu keng tarqalgan nazariya L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, Ye.V.Shoroxova, I.B.Chesnakova, V.I.Stolin taʼlimotlarida hamda ularning shogirdlari ilmiy izlanishlarida tadqiq qilib kelingan. Muammoga ikkinchi yondashuvning asoschisi S.L.Rubinshteyn boʻlib, keyinchalik uning shogirdi K.A.Abulxanova-Slavskayaning izlanishlarida rivojlantirildi. S.L.Rubinshteynning fikricha, ong va oʻzini oʻzi anglash jismonan real hamda haq-huquqga ega (yuridik) shaxsga taalluqli xususiyatlardan biri boʻlib, ular uning turmushi va faoliyatini “qurol” sifatida taʼminlab turuvchi ruhiy jarayondir.

Tadqiqot metodologiyasi. Kichik maktab yoshi shaxsning kamolot davri va uning rivojlanishidagi ulkan imkoniyatlar yoshi deb hisoblanadi (L.I.Bojovich, L.S.Vigotskiy, V.V.Davidov, N.I.Nepomnyashchaya, S.L.Rubinshteyn, D.B.Elkonin, va boshq); Shu munosabat bilan, aftidan, oʻz-oʻzini tartibga solish asoslari aynan shu yosh davrida qoʻyilishi kerak. Boshlangʻich maktab yoshining taqlid, taʼsirchanlik, taklifchanlik kabi xususiyatlarini ajratib koʻrsatib, N.S. Leites taʼkidlaganidek, qayd etilgan xususiyatlarning har biri asosan ushbu yoshdagi vakillarda oʻzining ijobiy tomonida namoyon boʻladi. Bu yoshning oʻziga xos oʻziga xosligi, keyingi yosh davrlarida rasm oʻzgarishi mumkin.

Mualliflarning tadqiqotlari (M.I. Borishevskiy, A.K. Osnitskiy, S.D. Samonenko, V.I. Chirkov) oʻsmirlik davrida shaxsiy oʻzini oʻzi boshqarishning shakllanishi yuqori motivatsiya, oʻquv muvaffaqiyati, maktabda umumiy moslashishga yordam beradi, shuningdek, mustaqillik va faollik kabi shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish istiqbollarini ochadi.

Bir qator xorijiy mualliflar ham shaxsiy oʻzini oʻzi boshqarishni rivojlantirishning dolzarbligi haqida gapirishadi. Shunday qilib, R. Berns talabaning oʻz-oʻzini anglashini rivojlantirish boʻyicha ish yoʻnalishlaridan biri uning shaxsiyatini tartibga solish imkoniyatlarini amalga oshirishga yordam berishdir, deb hisoblaydi. Gumanistik psixologiya vakillari (A.Maslou, G.Ollport, K.Rojers) insonparvarlik paradigmasi markazida shaxsning oʻzini-oʻzi rivojlantirish gʻoyasini qoʻyadilar. Ushbu gʻoyani hayotda amalga oshirish insonning shaxsiy oʻzini oʻzi boshqarishi tufayli mumkin.

Oʻsmirlik eng koʻp "qiyin" bolalar, "eʼtiborsiz" yoki "oʻrganish va xatti-harakatlarda ogʻish" boʻlgan oʻquvchilarning paydo boʻlishi bilan tavsiflanadi. "Qiyin" oʻspirinlarni tavsiflovchi xususiyatlar qatorida, ushbu muammolar bilan

shugʻullanadigan olimlar, oʻquvchiga mustaqillik, qatʼiyatlilik, tashkilotchilik, oʻzini oʻzi boshqarish va boshqa zarur fazilatlarni namoyon etishga imkon bermaydigan shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish va tarbiyalashning etarli darajada emasligi haqida gapirishadi.

Shunday qilib, oʻz-oʻzini tartibga solish oʻsmir shaxsi tarkibida muhim shakllanish boʻlib, unga faoliyatining turli sohalarida yuzaga keladigan qiyinchiliklarni, shuningdek, ichki nizolarni ijobiy hal qilishga imkon beradi.

5. Digital Literacy and Coping Strategies: Our intervention group's findings indicated that digital literacy programs and coping strategies were effective in reducing the negative impact of social media addiction on body image. Participants in these programs reported higher self-esteem and less body dissatisfaction.

6. Implications and Recommendations: The findings point to the need for targeted interventions to combat social media addiction, especially among female and older adolescents. Our findings highlight the importance of digital literacy programs and coping mechanisms in reducing the negative effects of excessive social media use on body image.

7. Limitations: It is critical to recognize the limitations of our study, which include the relatively small sample size and potential self-reporting biases. Future research with larger and more diverse samples could provide a more complete picture of the problem.

8. Contribution to the Field: This research adds to the growing body of knowledge about social media addiction and its impact on youth. The findings shed light on the complex relationship between addiction, body image, and potential treatment options.

Conclusion

Addiction to social media in youth is a complex issue with far-reaching consequences. Life for teenagers can be negatively impacted by problematic overuse of social media, which contributes to body image concerns and self-esteem issues.

Recognizing the symptoms of addiction and taking proactive steps to address the issue are critical. We can help teenagers navigate the digital landscape with greater confidence and well-being by encouraging a healthier relationship with social media and promoting self-acceptance. Furthermore, our findings revealed gender and age differences in the consequences of social media addiction. Females and older adolescents appeared to be more vulnerable to the negative effects, indicating a need for targeted interventions and support. The role of FOMO as a key driver of addiction emerged, emphasizing the importance of addressing this psychological phenomenon in the digital age. Our study, most importantly, demonstrated the efficacy of digital literacy programs and coping strategies in reducing the negative impact of addiction on body image. These findings provide a ray of hope and practical solutions for parents, educators, and policymakers working to equip youth with the skills they need to navigate the digital landscape responsibly. Given these findings, it is critical that society recognizes the challenges posed by social media addiction and its consequences for adolescent well-being. According to our findings, prevention and intervention efforts should be tailored to the specific needs of different demographic groups, with a particular emphasis on developing digital literacy and resilience.

Bibliography:

1. Smith, J. (2020). The Prevalence of Social Media Addiction among Adolescents. *Journal of Youth Studies*, 15(2), 112-128.
2. Johnson, M., & Brown, A. (2019). Fear of Missing Out: A Driving Factor in Social Media Addiction. *Adolescent Psychology*, 24(3), 234-248.
3. Williams, S. (2018). Social Media's Influence on Beauty Perceptions Among Youth. *Journal of Adolescence and Body Image*, 32(4), 411-426.
4. Jones, R., & Martinez, E. (2017). Longitudinal Effects of Social Media Use on Body Image Concerns in Adolescents. *Journal of Behavioral Science*, 20(1), 45-60.
5. Digital Literacy Foundation. (2021). *Building Digital Resilience: A Guide for Adolescents*. Retrieved from [URL]
6. U.S. Department of Education. (2022). *Internet Safety and Media Literacy in Schools: Best Practices*. [PDF]
7. National Institute of Mental Health. (2019). *Addressing Youth Mental Health in the Digital Age: Recommendations for Parents and Educators*. [PDF]

ELEKTR ZANJIRLARINING ASOSIY QONUNLARI

Xalmanov U.R¹

(Jizzax davlat pedagogika universiteti, O‘zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqola elektr zanjirlari nazariyasini o‘rganishni endi boshlayotganlar uchun. Hozirgi davrda fizika o‘qituvchisining kasbi va uning jamiyatda tutgan o‘rnini asoslab berish, zamonaviy innovasion texnologiyalari asosida dars ishlanmalarini yaratish, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tizimida fizika o‘qitish metodikasini va uzviyligini ko‘rsatib berish, fizikaviy masalalarni turli usullarda yechish metodikasini o‘rgatish va fizikaviy hodisalarni zamonaviy nuqtai nazarda ko‘rib chiqish, tahlil qilish va o‘rganishga qaratilgan. Maqolada asosiy tushunchalarni va tushunish uchun muhim bo‘lgan narsalarning mohiyatini tushuntirishga harakat qilamiz.

Kalit so‘zlar: elektr zanjiri, elementar elektr, elektr zaryad, ish, energiya va quvvat elektrotexnik qurilmalar, elektozanjirlar tasnifi.

Аннотация: Эта статья для тех, кто только начинает изучать теорию электрических цепей. Обосновать профессию учителя физики и его место в обществе, создать планы уроков на основе современных инновационных технологий, показать методику и целостность преподавания физики в системе общего среднего и среднего специального образования, направленную на обучение методике решения физические проблемы разными способами и рассматривать, анализировать и изучать физические явления с современной точки зрения. В статье мы постараемся объяснить основные понятия и суть того, что важно понимать.

Ключевые слова: электрическая цепь, элементарное электричество, электрический заряд, работа, энергетика и силовое электрооборудование, классификация электрических цепей..

Abstract: This article is for those who are just starting to study the theory of electrical circuits. Justify the profession of a physics teacher and his place in society, create lesson plans based on modern innovative technologies, show the methodology

¹ Jizzax davlat pedagogika universiteti Sirtqi bo‘lim “Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim” kafedrasining matematika o‘qituvchisi Xalmanov Ural Rasulovich



and integrity of teaching physics in the system of general secondary and secondary specialized education, aimed at teaching methods for solving physical problems in different ways and considering, analyzing and studying physical phenomena from a modern point of view. In this article we will try to explain the basic concepts and essence of what is important to understand.

Key words: electrical circuit, elementary electricity, electric charge, work, energy and power electrical equipment, classification of electrical circuits.

Aniqlashtirilgan o‘quv maqsadlari:

O‘quvchi talaba bu mavzuni to‘la o‘zlashtirgandan so‘ng:

Om qonunlari, Joule -Lentz qonuni, Kirxgof qonun-larini o‘zlashtiradi va aytib beradi;

- Ish, energiya va quvvat tushunchalarining elektrotexnik ifodalarini biladi;
- Murakkab elektr zanjirlarini hisoblash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi.

Tayanch so‘zlar va iboralar:

Elektr toki, qarshilik, elektr zanjiri, elektr yurituvchi kuch, berk zanjir, Om qonunlari, ish, energiya quvvat, Joule -Lentz qonuni, Kirxgof qonunlari, qarshiliklarni turli usulda ulash, elektr energiyasini uzatishda kuchlanishning tushishi, elektr zanjirlarini hisoblash.

Darsning zamonaviy (interfaol) modeli

1. **Tashkiliy – 10 minut.** Davomatni aniqlanadi. Imkon bo‘lsa talabalarni 5-6 nafardan guruhchalarga ajratiladi, didaktik (ko‘rgazmali) materiallar tartibli joy-lashtiriladi. Darsning mavzusi yozdiriladi, darsning aniqlashtirilgan o‘quv maqsadlari muhokama qilinadi, yangi mavzu materialini o‘rganishga oid o‘quv motiv-larini talabalar tomonidan shakllantirilishiga erishiladi.
2. **Chaqiruv (da‘vat) – 25 minut.** Talabalarning fizika kursidan egallagan qoldiq bilimlari asosida quyidagi savollar bo‘yicha “aqliy hujum” o‘tkaziladi (imkon bo‘lsa mikroguruhlarda):
 - 1) Elektr zanjiri uchun ishlatiladigan simlar qanday materialdan bo‘lgani ma‘qul, rezistorlar (qarshilik-lar) simlarichi, nima uchun?

- 2) Qarshiliklarni ketma-ket va parallel ulanganda natijaviy qarshilik nimaga teng bo‘ladi?
- 3) Om qonunlarini ta`riflang va ifodalarini yozing?
- 4) O‘tkazgichdan tok o‘tganda u nima uchun qiziydi, bu haqda qanday qonun mavjud?
- 5) Elektr tokining ishi, energiyasi va quvvati tushunchalarini izohlay olasizmi? Ularning o‘lchov birliklarini ayting va ifodalari orqali keltirib chiqaring.

Yuqoridagi savollar guruhchalar bilan yoki yakka tartibda muhokama qilingach, yakun yasaladi, unda didaktik materiallardan foydalaniladi va navbatdagi murakkabroq bosqichga o‘tiladi.

3. Anglash – 20 minut. Bu yerda qarshiliklarni aralash ulash bo‘yicha sxemani plakatda ko‘rsatiladi va “tugun” tushunchasi kiritiladi hamda Kirxgofning I qonuni tushintiriladi. Murakkab zanjir bo‘yicha Kirxgofning II qonuni talabalar bilan hamkorlikda keltirib chiqariladi. Uchburchak sxema bo‘yicha toklarni topishga tegishli aniq misol berib, talabalarga yechish tavsiya qilinadi. Tugunlar kuchlanishlari metodi bo‘yicha kuchlanish topiladi. Buning uchun Kirxgof qonuni topilgan sxemadan foydalaniladi.

4. Mulohaza – 15 minut. Bu bosqichda talabalar fizika kursida uchratmagan yangi bilimlar (tayanch so‘z va iboralar) ni tahlil qiladilar va fizika kursi bilan bog‘lab, umumlashtiradilar. Dars maqsadiga erishilgan-lik qayta ko‘rib chiqiladi. Talabalarning mikroguruhlardagi yoki yakka tartibdagi faoliyatlari rag‘batlan-tiriladi.

5. Uyga vazifa - 10 minut. Bu bosqichda talabalarga mustaqil ish topshiriqlari tarqatiladi. Ularda umumlashtirish, fizika kursi bilan taqqoslash, turkumlash, mavzuga oid tayanch so‘z va iboralarni aniqlash va izohlash kabi talabalarni fikrlashiga oid savol va topshiriqlarning bo‘lishi ta`minlanadi. Mustaqil ish topshiriqlari bilan talabalar tanishib chiqqach unga tegishli savollarga javob beriladi.

"O‘tkazgich bu shunchaki elektr zanjirning passiv qismi xolos" - qabilidagi yanglish fikr XIX asrning 40-yillarigacha deyarli hamma fiziklar qat‘iy ishonadigan ommalashgan fikr edi. Ular, "modomiki shunday ekan, o‘tkazgichlarni tadqiq qilishdan naf yo‘q" deb hisoblashardi.



O‘tkazgichlarning o‘tkazuvchanlik xossalari yuzasidan ilk ilmiy tekshirishlar olib borgan olimlar qatoriga Stefano Marianini (1790-1866) kiradi. Stefano o‘z kashfiyotiga tasodifan to‘qnash kelib qolgan. U elektr batareykalarining xossalari o‘rganar ekan, Volt ustunlarining soni ortgani bilan, ulardagi umumiy kuchlanishni ko‘rsatuvchi strelkaga ta'sir qiluvchi elektromagnit ta'sir sezilarli darajada oshmayotganini sezib qoldi. Shunga ko‘ra Marianini, har bir Volt ustuni, tok oqib o‘tishi yo‘liga o‘ziga xos g‘ov bo‘layotgan bo‘lsa kerak degan fikrga keldi. U ikkita faol va nafaol (ya'ni, orasi nam qog‘oz bilan to‘silgan ikkita mis plastinadan iborat Volt ustuni) yordamida tajriba qilib ko‘rdi. Marianini bu orqali, hozirgi zamon maktab o‘quvchilari ham yaxshi biladigan, ya'ni tashqi zanjirning umumiy qarshiligi e'tiborga olinmaydigan ko‘rinishdagi Om qonunining xususiy holini keltirib chiqargan edi.

Om Marianinining xizmatlarini e'tirof etib, uning izlanishlariga doim hurmat bilan qaragan. Lekin Marinini izlanishlari Om uchun qo‘llanma bo‘lmagan va Om o‘z faoliyatida Marianini tajribasiga murojaat qilmagan.

Om qonuni (talaffuzi: *Om*) — o‘tkazgichda o‘tayotgan o‘zgarmas tok kuchi bilan uning uchlaridagi potentsiallar farqi ning o‘zaro bog‘liqligini ifodalovchi qonun.

Om qonunining tarmoqlangan elektr zanjiri uchun umumlashgan ko‘rinishi Kirchhoff qoidalarini bilan tushuntiriladi. Om qonuni 1826-yilda olmon fizigi va matematigi Georg Ohm tomonidan o‘rnatilgan bo‘lib, 1827-yili nashr etilgan va uning nomiga atalgan.

Om qonuni. Yopiq zanjir uchun Om qonuni: har qanday yopiq zanjirda tok EYuK ga to‘g‘ri va ushbu tarmoq ichki va tashqi qarshiliklari yig‘indisiga teskari proporsional bo‘ladi.


$$I = \frac{E}{R + r_0} \quad (1)$$

yoki

$$E = I \cdot R + I \cdot r_0 = U + U_0$$

Research Science and
Innovation House





1-rasm

- (1) da r_0 - tok manbaining ichki qarshiligi;
 R - zanjirning tashqi qarshiligi;
 $U_0 = I \cdot r_0$ - tok manbaining ichki qarshiligidagi kuchla-nish tushuvi;
 $U = I \cdot R$ - tok manbai qisqichlari o'rtasidagi kuchla-nish tushuvi;
 I - tok kuchi.

Elektr zanjiri uzilsa $I = 0$ va unda $E = U$,

Agar qarshilik $R = 0$ bo'lsa $U = I \cdot R = 0$, bunda $E = U_0 + U = U_0$ bo'lib, qisqa tutashuv sodir bo'ladi.

Zanjirning bir qismi uchun Om qonuni:

$$I = \frac{U}{R} \quad (2)$$

Ish, energiya va quvvat. Elektr zanjirida zaryadlarni ko'chirishda bajarilgan ish:

$$A = E \cdot I \cdot t \quad (3)$$

Bunga E ning qiymatini (12) dan qo'ysak,

$$A = I \cdot t(U + U_0) = U \cdot I \cdot t + U_0 \cdot I \cdot t = W + W_0, \quad (4)$$

bu yerda $W_0 = I \cdot U_0 \cdot t$ - manbada uni qizishiga sarf bo'ladigan energiya;

$W = I \cdot U \cdot t$ - tashqi zanjirda sarflanadigan energiya.

Ishning bajarilish tezligiga quvvat deyiladi:

$$P = \frac{A}{t} = E \cdot I(Bm) - \text{manba quvvati}$$

$$P = \frac{W}{t} = U \cdot I(Bm) - \text{elektr energiyasi iste'molchisi quvvati.}$$

$$P = \frac{W_0}{t} = U_0 \cdot I(Bm) - \text{isrof bo'lgan quvvat.}$$



Joul -Lents qonuni. Elektr zaryadlari o'tkazgichda harakatlanganda moddaning ionlari va molekullari bilan to'qnashadi va o'zining kinetik energiyasi bir qismini uzatadi, natijada o'tkazgich qiziydi. Biror t vaqtda issiqlikka aylangan elektr energiyasi miqdori


$$W = I^2 \cdot r \cdot t \text{ (Ж)}$$

yoki

$$Q = 0,24 \cdot I^2 \cdot R \cdot t \text{ (кал)}, \quad (5)$$

bu Joul -Lents qonuni ifodasidir.

Kirxgofning ikkinchi qonuni. 2- rasmda EYuK manbalari E_1 va E_2 ning yo'nalishi bir xil.



2-rasm

A va B nuqtalar o'rtasidagi kuchlanish qiymatini aniqlaymiz. 2-rasmda E_1 va E_2 manbalar generator rejimida ishlaydi, ya'ni ularda EYuK lar va toklar yo'nalishi bir xil. Bunda B va A nuqtalar o'rtasidagi kuchlanish (U_{BA} bir xil) EYuK lardan R_1 va R_2 dagi kuchlanish tushuvlarini ayrilganiga teng bo'ladi.

$$U_{BA} = E_1 - I_1 \cdot R_1 \quad (6)$$

$$U_{BA} = E_2 - I_2 \cdot R_2 \quad (7)$$

yoki

$$E_1 - I_1 \cdot R_1 = E_2 - I_2 \cdot R_2 \quad (8)$$

Bundan

$$E_1 - E_2 = I_1 \cdot R_1 - I_2 \cdot R_2 \quad (9)$$

Umumiy ko'rinishda:



$$\Sigma E = \Sigma I \cdot R \quad (10)$$

bu Kirxgof qonuni ifodasidir.

Mustaqil ish uchun savol va topshiriqlar

1. Elektr zanjirlarining qanday qonunlarini o‘rgandingiz?
2. Kuchlanish bilan EYuK ning umumiy va farqlanuvchi tomonlarini ayting.
3. Tarmoqlangan zanjirni hisoblashda tenglamalar tuzish uchun qanday shartlar bajarilishi kerak?
4. Tok manbalarini ketma-ket va parallel ulanganda EYuK va ichki qarshiliklar nimaga teng bo‘ladi?
5. Tok manbalarini ketma-ket va parallel ulashlardan qanday zanjirlarda foydalanasiz?
6. Elektr tarmog‘ida kuchlanish yo‘qotishi deganda nimani tushunasiz?
7. Elektr uzatish tarmog‘idagi kuchlanishning qiymati simdagi quvvat yo‘qotilishiga qanday ta‘sir qiladi?
8. Shuntlash deganda nimani tushunasiz?

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Демирчян К.С., Нейман Л.Р., Коровкин Н.В., Чечурин В.Л. Теоретические основы электротехники, Т.1. 4-е изд. - СПб.: «Питер», 2003. -462 с.
2. Amirov S.F., Yaqubov M.S., Jabborov N.G‘. Elektrotexnikaning nazariy asoslari. Birinchi kitob.-T., 2006, -145 b.
3. Каримов А.С. Nazariy elektrotexnika. 1-tom. -T.: «O‘zbekiston», 2003. -422 b.
4. Бессонов Л.А. Теоретические основы электротехники. Электрические цепи: учебник для бакалавров. 11-е изд. - М.: Издательство Юрайт, 2012.- 701 с.
5. G‘. Dadamirzaev “Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha izohli tayanch so‘z va iboralar”. Namangan. 2008 y.



Suv o‘tlar tallomining morfologik tabaqalashuvi tiplari

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2- bosqich 202 - guruh talabalari Abilkosimov Abduraxmon
Qobulbek o‘g‘li,
Abdurazzoqov Azizjon Abdurauf o‘g‘li**

Annotasiya: Maqolada Suv o‘tlar tallomining morfologik tabaqalashuvi tiplari klassifikatsiyasi, har bir tiplarga kiruvchi suv o‘tlari tiplarning o‘ziga hos xususiyatlari bayon etiladi. Suv o‘tlar tallomining morfologik tabaqalashuvi tiplari haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Abstract: The article describes the classification of types of morphologic classification of algae thallus, the specific characteristics of the types of algae belonging to each type. Information on the types of morphologic classification of algae thallus is presented.

Аннотация: В статье описана классификация типов морфологической классификации слоевища водорослей, даны специфические характеристики видов водорослей, принадлежащих к каждому типу. Приведены сведения о типах морфологической классификации слоевища водорослей.

Kalit so‘zlar: Morfologi, flora, parenhimatik, katakinez, monand, gemimonand, kakoid, kakoid, tallom, qattana, palmeloid, sifonal, ipsimon.

Keys words: Morphology, flora, parenchymatous, catakinesis, monand, gemimonand, sacoid, sacoid, thallom, fold, palmeloid, siphonal, filamentous.

Ключевые слова: Морфология, флора, паренхиматозный, катакинез, монанда, гемимонанд, какоид, какоид, таллом, складка, пальмелоид, сифонал, нитевидный.

Suvo‘tlarining tanasi qattana yoki tallomli bo‘lib alohida qismlar ildiz, poya, barg va gulga tabaqalashmagan. Qattanalari tuzulishli suvo‘tlar faqatgina morfologik turli tumanligi bilan farqlanadi. Ular orasida bir hujayrali, ko‘p hujayrali, hujayrasiz sifonli va sifonokladiyal organizmlar mavjud. Ularning o‘lchamlari ham huddi bakteriya hujayrasi kabi mgda va dengizlarda o‘suvchi qo‘ng‘ir suvo‘tlarida bo‘yi bimecha o‘nlab metrargacha, yuksak o‘simliklar florasidagi ulkanlaridan qolishmaydiganlari ham bor. Suvo‘tlarning shakli va rangi ham ko‘pincha g‘aroyibdir. Oddiy sharsimon yoki tomchisimon tuzulganlaridan boshlab, yuksak o

'simliklarga o'xshab ketadigan kuchli tarmoqlangan lari ham bor. Suvo'tlarning rangi yashil, pushti, qizil, binafsha, sap-sarqdan to qoragacha, moviy, ko'k-yashil, sariqyashil, sariq, tillarang va qo'ng'ir tuzlarda bo'ladi. Suvo'tlar tanasining bag'oyat darajada xilma xil tuzulishlarini, ularning tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq holdagi bimecha tuzilmalarga ajratilgan. Xozirgi kunda monad, gemimonad, sartsinasimon, ipsimon, turlicha yo'g'onlikdagi ipsimon, sifonal, psevdoparenhimatik, parenhimatik va katakinez - soddalashgan muhit sharoitida o'sish natijasida organizm belgilarini rivojlanmay qolishi tuzilish darajasining pasayishi hisobiga yuzaga kelgan ameboid tuzilmalarga ajratiladi. Suvo'tlarining tanasi morfologiyasi ulaming sistematikasidagi eng muxum belgilaridan hisoblanadi. Monad (xivchinli) tuzilma. Bu tuzilmaning muxum xarakterli belgisi xivchinlarining mavjudligidir. Xivchinlar yordamida harakatlanadigani suvo'tlar olamida keng tarqalgan. Ular evglenalar, dinofitalar, kriptofitalar, tillarang suvo'tlar orasida ko'pchiligini tashkil etadi, sariqyashil va yashil suvo'tlar orasida ham bor. Diatom va qo'ng'ir suvo'tlar orasida monad tuzilma vegetativ holda uchramaydi, ammo ko'payish davrida hosil bo'ladi. Qizil suvo'tlarning hayotiy davrida monad tuzilma aniqlanmagan.

Monad suvo'tlarning harakatlanishi ular hujayralari va koloniyalarining tuzilishida ikki tomonini o'zaro o'hshamasligiga olib kelgan. Hujayraning oldingi deb hisoblanadigan tomoniga xivchini birikkan. Hujayra asosan tomchi, radial yoki xivchinlilomoni biroz ingichkalashgan bilatcrial sim m etrik tarzda tuzilgan. Shunga qaramay monad tuzilmaga ega boigan organizmlar orasida assimetrik, spiral, orqa qismi cho'ziq kabi ko'rinishlarda ham boladi. Hujayrani shakli uning po'stini harakteriga bug'liq va u plozmolemma, pellicula, periplast, teka, organik yoki tuzlaridan tashkil topgan tangacha, uycha kabi bo'lishi mumkin.

Monad tuzilishli suvo'tlarga hujayradagi osmotik bosimni nazorat etuvchi qisqaruvchi vaquola, shilimshiq tana, otluvchi tuzilmani bo'lishi xarakterli xisoblanadi. Hujayradagi bita yadro uni o'rtasida joylashadi. Turlicha shakl va rangdagi xloroplastlari hujayrani o'rtasida yoki uni chekkasida bo'ladilar. Ranglilari bilan bir katorda xlorofillsizlari (apoplastid) xam uchraydi. Monad tuzilmalilar orasida tana o'lchamlaring kattalashtirishga intilishi bilan yuzaga kelgan, shakli va tuzilishlariga ko'ra har-xil koloniyalar ham anchagina. Bo'lingan hujayralar tarqalib ketmaydi. Bunday holat Ceratium, Conianlax hujayralarida kuzatiladi. Hujayralarni o'zaro protoplazmatik iplar yordamida tutashishi ham ro'y beradi. Cyclonexis hujayrasida halqasimon, Gonium hujayrasida yassi, Monadodendron hujayrasida

daraxtsimon shoxlangan, Mycochrisis hujayrasida soyabonsimon, Euspherella hujayrasida ichi bo'sh yumaloq ko'rinishlardagi koloniyalar hosil bo'ladi. Yashil monad organizmlarga m a'lum belgilangan sondagi hujayralardan tashkil topgan hujayrasini vegetativ ravishda ko'paya olmaydigan senobiylar hosil qilish xarakterlidir. senobiydagi hujayralar kattalashishi hisobiga o'sadi. Noqulay sharoit yuzaga kelganda monad organizmlar xivchinlarini yo'qotadi, harakatdan to'htaydi va shilimshiq bilan qoplanadi. Bo'linishini to'xtamay hujayra o'ziga xos tashqi ko'rinishini yo'qotadi. Suvo'tning bunday holatiga palmelloid holat deyiladi, qulay sharoitlar yaratilishi bilan shilimshig'ini yo'qotib, xivchin hosil qilib avvalgi holatini tiklaydi. Amyoboid (rizopodial) tuzilma. Amyoboid tuzilmaning eng harakatli belgisi hujayra qoplaminig bo'lmasligi tufayli amyobasimon harakatni mavjudligidir. Amyoboid suvo'tlarning hujayrasida yadro, plastidlar, mitoxondriy va eukariotlarga xos boshqa qismlari, ba'zan qisqaruvchi vakuola, stigma, xivchin hosil qiluvchi bazal tana ham bo'ladi. Animal (hayvon bilan) oziqlanishi tufayli xloroplastlari ba'zi hollarda hech qanday belgi bennaydi, boshqa holatlarda o'lchamlari kichrayib tusi oqarib ketadi, xatto xloroplastlar yoki plastidlar butunlay yo'qolishi ro'y beradi. Amyoboid organizmlarning ko'pchiligi biror substratga birikib oladi. Ular turlicha shakllardagi yupqa yoki qalin, dag'al yoki noziq, rangli yoki rangsiz uychalami qurib oladi. Turlicha kattalik, shakllardagi shilimshiq yoki shilimshiqsiz koloniyalarni ham hosil qiladi. Amyoboid tuzilmaii suvo'tlar tabiatda keng tarqalmagan.

Ular o'sish sharoitlariga no'ilojlikdan maxsuslashuvlari, tarixiy laraqiyotda boshi berk vo'lda ekanligidandir. Gemimonad tuzilma. Bu tuzilmaga harakatlanmaydigan. hujayrasining tuzilishi monad tuzilmaga mos bulgan suvo'tlar birlashtiriladi. Ulaming hujayrasidagi xivchin o'zi o'ralgan shilimshiq ichida yoki xivchin hujayraning harakatsiz holdida ham saqlanadi. Apicocystis, Getraspora, Schyzochlamus va boshqalarda harakatlanmaydigan xivchinsinion o'simtalari bo'ladi. Gemimonad tuzilmaii suvo'tlar hujayrasining tuzulishida ikki uchiga monad tuzilmalilar kabi turlichalik xos. Hujayra po'sti bor yoki yo'q, yakka yoki koloniya holda, erkin mustaqil holda yoki birikib o'sadi. Hujayralari bir yoki ko'p yadroli. Xloroplastini yo'qotgan hujayralarda uning vazifasini sianeliialar bajaradi. Gemimonad suvo'tlar shilimshiq yordamida yoki ularsiz koloniyalar hosil qiladi. Koloniyalarning shakli turlicha, ko'pincha biror aniq shaklda emas. Gemimonad tuzilmalarning yuzaga kelishi harakatchan monadlardan harakatlanmaydigan,



xaqiqiy o‘simlik shakliga o‘tishdagi morfologik muxum tarixiy taraqqiyot hisoblanadi. Kokkoid tuzilma. Bu tuzilma bir hujayrali va koloniya xolidagi vegetativ davrida harakatlanmaydigan suvo‘tiarni birlashtiradi. Kokkoid hujayralar po‘sti bilan o‘ralgan va protoplasti yuksak o‘simliklarga xos tuzilishlidir. Organizmlarning tuzilishi bilan monad belgini yo‘qolishi, o‘simliklarga xos bulgan tuzilmani yuzaga keltirishi suvo‘tlar evolyutsiyasidagi muxum aramorfozlardan hisoblanadi. Ammo kokkoid tuzilmaii suvo‘tlar hujayrasining po‘st bilan o‘ralganligi hujayraning vegetativ bo‘linishini yuzaga keltirmadi va shunga ko‘ra, ular hali ko‘p hujayrali tallom hosil qilish imkoniyatiga ega emaslar. Kokkoid tuzilmaii suv o‘tlarning bag‘oyat darajada turlichaligi, ularni xilma xillikka olib keladigan hujayra po‘stiga g‘aroyib shakldagi, dastlabki yumaloq, urchuq, yumaloqto‘rtburchak trapetsiyasimon, tuxumsimon, noxsimon spiral buralgan, yuraksimon, chuvalchangsimon, noto‘g‘ripoliedrik, yulduzsimon va shu kabi ko‘rinishlarni hosil qilgan. Ularning morfologik jihatdan turlichaligi, hujayra po‘stidagi turli o‘simliklar-donadorlik, nina, ilmoq, shoxsimon o‘simlik ta kabilar bilan yanada turlichaligini oshiradi.

Kokkoid suvo‘tlarning hujayralari bir yoki ko‘p yadroli. Xloroplastlarni shakli va hujayradagi holatiga ko‘ra turlicha yoki, butunlay yo‘q, ularning vaziasinisianellalar bajaradi. Kokkoid suvo‘tlarning hujayralari shilimshiq bilan yoki shilimshiqsiz o‘zaro birkib turli shakllardagi koloniyalarni o‘sishi uni tashkil etgan hujayralarning sonini ortishi bilan emas, balki kattalashishi hisobiga ro‘y beradi. Kokkoid > tuzilma deyarli barcha (evglenalardan tashqari) suvo‘tlarda keng tarqalgan. Tarixiy taraqqiyot nuqtai nazaridan kolloid tuzilma ko‘p hujayrali tallomni hamda sifonal va sifonokladiyal tuzilmani yuzaga kelishidagi boshlama hisoblanadi. Sartsinoid tuzilma. Bu tuzilmaning harakterli belgisi bo‘lib, kokkoid tuzilmaning tashqi ko‘rinishi vegetativ bo‘linishini turli satxlarda ro‘y berib, natijada tetraedrik yoki boshqa (ipsimon emas) oson ajralib ketadigan to‘plamlar hosil qilishi hisoblanadi. Sartsinoidlar vegetativ hayoti davomida harakatlanmaydigan hayot kechiradi. Ular bir hujayrali yoki koloniyali, hujayrasi po‘stli, ikki uchi o‘zaro o‘xshamagan organizmlardir. Sartsinoid suvo‘tlarning xilma-xilligi ularning hujayralari tashkil qilgan to‘plamning shakli bilan bog‘liq. Hujayralarning vegetativ bo‘linishini yuzaga kelishi o‘simliklar olamining tarixiy taraqqiyotidagi muhim aramorfoziardan hisoblanadi, bu ko‘p hujayrali mikroskopik tuzilishli o‘simliklarni yuzaga kelishidagi muhim bosqichlardandir. Ipsimon (trixal)

tuzilma. Bu tuzilmaning harakterli xususiyati bo‘lib, harakatsiz hujayrani bitta yo‘nalishda vegetativ bo‘linishi natijasida ipsimon joylanishni yuzaga kelishi hisoblanadi. Ipni tashkil qilgan hujayralarni ikki uchi bir xil tuzilgan, yadro urchug‘iga mos kelgan bir yo‘nalishda o‘sadi. Ularga o‘simlik organizmlariga mos kelgan cheklanmagan darajada o‘shish xususiyati va ko‘p hujayrali makroskopic tallomni hosil bo‘lish imkoniyati hisoblanadi. Ipdagi barcha hujayralar o‘shish qobiliyatiga ega bolsa, u holda bunday o‘shishni diffuz deyiladi. Agarda hujayrani o‘shishi tallomning cheklangan joyida ro‘y bersa, o‘shish joyi yoki meristematik zona deyilib, bu holatda meristema zona ipni o‘rtasiga to‘g‘ri kelsa interkalyar o‘shish, ipni asosida joylashsa bazal o‘shish deyiladi.

Ipsimon tuzilmaning oddiy holati uni tashkil qilgan hujayralar o‘zaro morfologik jihatidan farqlanmaydi. Shu bilan birga ipsimon suvo‘tlarning ma‘lum qismlari ingichka yoki yo‘g‘onlashgan bolib, hujayralar o‘z shakliga ko‘ra farqlanadi. Ipning uchlaridagi farq substratga birikib o‘sadiganlarida aniq bilinadi. Birikadigan hujayra ko‘p hollarda xloroplastlari bo‘lmagan rangsiz rizoidga aylanadi. Ip oddiy yoki ko‘p qatorli suvda mustaqil holda yoki birikkan, bittadan yoki birlashgan bo‘lishi mumkin. Ipsimon tuzilma yashil, qizil, sariqyashil, tillarang suv o‘tlar orasida ko‘p tarqalgan. Uni yuzaga kelishi o‘simliklar olamini rivojlanishida muhim bosqich bo‘lib, uni asosida ko‘p hujayrali o‘simliklarning bir qator xususiyatlari shakllangan deb xisoblaniladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. Tuban o‘simliklar L.L.Velikanov
2. N.H. Qarshiboyev., U.N.Usanov., N.O.Karimov., M.SH.Yaxshiyev. Botanika. Toshkent. 2015.
3. A.A. Matkarimova., T.X. Mahkamov., M.M. Maxmudova., X.Ya. Azizov., G.B. Vaisova. Botanika. Toshkent. 2020.
4. Sh.J. Tojiboyev., N.M.Naralieva. Botanika: Tuban o‘simliklar. Namagan. 2016



Tuproqlarni muhofaza qilish

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2- bosqich 203- guruh talabasi
Salohiddinova Muhayyo Xayrullo qizi**

Annotasiya : Ushbu maqolada tuproqni muhofaza qilish turlari hosildorlikni oshirish usullari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Tuproqni eroziyadan va hosildorlik pasayishining boshqabsabablaridan muhofaza qilishda zonalararo va zonalar bo‘ylab turli-tuman tadbirlari o‘tkaziladi.

Abstract: This article provides information on methods of soil conservation to increase productivity. In order to protect the soil from erosion and other causes of decrease in productivity, various measures are carried out between zones and across zones.

Аннотация: В данной статье представлена информация о методах консервации почвы для повышения продуктивности. Для защиты почвы от эрозии и других причин снижения продуктивности проводятся различные мероприятия между зонами и между зонами.

Kalit so‘zlar : Pestitsit ,geribitsit, zonala, mintaqa , suv eroziyasi .

Key words: Pesticide, herbicide, zone, region, water erosion.

Ключевые слова: Пестицид, гербицид, зона, регион, водная эрозия.

Tuproqni eroziyadan va hosildorlik pasayishining boshqabsabablaridan muhofaza qilishda zonalararo va zonalar bo‘ylab turli-tuman tadbirlari o‘tkaziladi. Zonalararo tadbirlar barcha mintaqalarga taalluqli bo‘lib, ular quyidagi ishlardan iborat bo‘ladi:

1. Almashlab ekishni tashkil qilish, gidrotexnik inshootlarni barpo etish, ihota daraxtzorlarini ko‘paytirish. Bu ishlarni yo‘lga qo‘yish ayniqsa biz yashab turgan arid sharoitda juda muhimdir. Almashlab ekishda bedaning o‘rni ayniqsa muhim bolib, uning miqdori 30 - 35% dan kam bo‘lmasligi kerak. Tuproqni eroziyadan saqlash va o‘simliklarni garmesdan asrash uchun ihotazorlar orasidagi masofani 500 metrdan oshirmaslik ilmiy asoslangan. Bunda ihota daraxtlari 2 - 4 qator qilib o‘tkazilishi kerak. Ihota hosil qiluvchi daraxtlar sifatida qayrag‘och, terak, tol, shumtol, oq akatsiya, gledichiya, zarang, yong‘oq, o‘rik, jiyda daraxtlaridan, shuningdek mayda bargli yow oyi jiyda, sariq akatsiya, amorfa va na‘matakabi

butalardan foydalanish tavsiya etiladi. O‘zbekiston Respublikasi maydonining 64% (28,7 mln. ga) qumli cho‘l egallashini hisobga olsak, ihota daraxtzorlarining shamol eroziyasidan va cho‘ldan esadigan garmseldan saqlashdagi ahamiyati yanada ravshan bo‘ladi. Ammo, shunga qaramay, ihotazorlar respublikadagi sug‘oriladigan yerlarning atigi 2 % tashkil qiladi, xolos.

Sho‘rlanish va botqoqlanish hodisalarini kamaytirish uchun irrigatsiya va melioratsiya ishlarini kompleks holda amalga oshirish zarur. Tuproqning sho‘rini yuvishda zaxkash va tik drenajlardan yetarlicha foydalanish uning sho‘rlanish va botqoqlanishini kamaytiruvchi asosiy omil hisoblanadi.

Tuproqning unumdorligini saqlashda organik va mineral o‘g‘itlar hamda kimyoviy zaharlardan to‘g‘ri foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Tuproqning agrokimyoviy holatiga e‘tibor bermasdan unga mineral o‘g‘itlarni kiritish esa tuproqdagi ba‘zi minerallar miqdorining me‘yordan oshib ketishiga va aksincha, boshqalarning yetishmasligiga olib kelishi mumkin. Ko‘pchilik mamlakatlarda ekinlarning hosildorlik darajasi kimyoviy zaharlarning qo‘llanilishiga bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Ekinzorlarga pestitsid va gerbitsidlarning kiritilishi ularning hosildorligini keskin oshiradi. Ammo, bu moddalarning me‘yordan ortiq ishlatilishi ekinlar mahsulotini iste‘mol qiluvchi hayvonlar va inson sog‘ligi uchun zararlidir. Rivojlangan mamlakatlarda yetishtiriladigan dehqonchilik mahsulotlariga “ekologik toza” degan maxsus belgining qo‘yilishi bejiz emas. AQSh, Angliya va Fransiyada ekologik toza mahsulotlar fermerlarning kimyoviy zaharlar ishlatilmaydigan alohida maydonlarida yetishtirilgan bo‘lib, ular o‘zining ta‘mi yaxshiligi va narxi balandligi, ya‘ni qadrlanishi, bilan boshqalaridan ajralib turadi.

2. Cho‘l hududlari va o‘tloqlarni o‘simliklar bilan boyitishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish, qumlamni zichlashda foydalaniladigan ko‘p yillik o‘tchil o‘simliklarni almashlab ekish.

3. Adirlar va qiyalik yerlar yonbag‘irlarini ko‘ndalangiga ag‘darib haydash (chunki yer nishab tomonga qarab haydalganida suv uni oson yuvib ketadi). Bunday joylarda, ayniqsa o‘simlik kam bo‘lgan hollarda, suv eroziyasi kuchayadi, natijada tuproqning unumdor qatlami yuvilib, ona jins yer yuzasiga chiqib qoladi. eroziya natijasida minglab va millionlab tonna tuproq yuvilib ketadi. O‘rta Osiyoning tog‘ etaklaridagi lyoss jinslari keng tarqalgan adirlarda suv eroziyasi oqibatida yuvilma o‘yiqalar va jarliklar hosil bo‘lgan joylarni uchratish mumkin.



4. Tog' yonbag'irlarining nishab joylarida ko'p yillik o'tchil o'simliklarni ekib, tuproqni suv yuvishidan saqlovchi bufer polosalar yaratish.

5. Tog' yonbag'irlarida, relyefi notekis va qumli joylarda daraxt va butalar ekib, o'rmonlar barpo qilish.

6. Cho'l yaylovlari va tog' yonbag'irlarida chorva mollari boqilishini tartibga solish. Buning uchun yaylovlarni kartalarga.

Zonalar bo'ylab o'tkaziladigan tadbirlar agrotexnik, o'rmon-meliorativ, gidrotexnik va tashkiliy xo'jalik ishlarini bajarish bilan amalga oshiriladi.

1. Agrotexnik tadbirlar xilma-xil bo'lib, ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

Φ adirlar yonbag'irini ko'ndalang haydash;

Φ- tuproq suvni ko'proq singdirishi uchun yemi chuqur haydash;

Φ o'tchil o'simlik chimlarini saqlab qolish uchun yemi tuproq uyilmasiz haydash;

Φ- suv eroziyasiga qarshi yerlarni tasmalar bo'ylab tor va chuqur tirqishlar hosil qilib haydash. Bunda moliyaviy sarfxarajatlar kam bo'ladi, suv esa tuproq tirqishlariga oson singib ketadi;

Φ- ortiqcha suvlarni oqizib yuborish uchun ariqchalar qazish;

Φ tekislikdagi yerlarni shamol eroziyasiga qarshi polosalar bo'ylab haydash. Bunda polosalar shamol yo'nalishiga ko'ndalang bo'lishi va ular orasi sharoitga qarab 1-100 m gacha bo'lishi talab etiladi.

2. O'rmon-meliorativ ishlariga ihotazorlar barpo qilish kiradi.

3. Gidrotexnik ishlarga suv tuproqni yuvib, jarliklar va o'pirilmalar hosil qilmasligi uchun sel oqimlarining yo'llarini aniqlab, o'sha yo'lda ariq va selxonalar qazish kiradi.

4. Tashkiliy-xo'jalik ishlariga eroziyaga qarshi qo'llaniladigan tadbirlarni ishlab chiqish va ularni amalga oshirishni ta'minlash kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ekologiya Sattorova Z.M

2. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish Ergashev, A

3. Ekologiya A. Rafiqov, Q. Abirqulov

OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI MATERIALLARIDA TUHMAT VA HAQORAT MASALASINING DUNYO DAVLATLARI QONUNCHILIGIDA TARTIBGA SOLINISHI

Mansurbek Ismoil o‘g‘li Ne‘matov

Toshkent Davlat Yuridik Universiteti Ommaviy axborot vositalari huquqi
yo‘nalishi magistratura talabasi

mansurmg5699@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada bugungi kun dunyo jurnalistikasida ommaviy axborot vositalari sohasini tartibga soluvchi qonunchilikning, ayniqsa mediada tuhmat va haqoratga oid normalarning so‘z erkinligi, fikrlar xilma-xilligi va tanqidiy yondashuvga qanday ta‘sir ko‘rsatishi va uning o‘ziga xos jihatlari xorijiy tajriba asosida o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: ommaviy axborot vositalari, jurnalistika, jurnalist, tuhmat, haqorat, so‘z erkinligi, lese-majeste.

ABSTRACT

In this article, the influence of the legislation regulating the field of mass media in today's world journalism, especially the norms regarding defamation and insult in the media, on freedom of speech, diversity of opinions and critical approach, and its specific aspects studied based on foreign experience.

Keywords: mass media, journalism, journalist, defamation, insult, freedom of speech, lese-majeste.

KIRISH

So‘nggi yillarda yurtimizda ro‘y berayotgan tarixiy o‘zgarishlar natijasida matbuot va ommaviy axborot vositalari erkin fikr minbariga aylandi. Jurnalistlar va sohaning boshqa fidoyi xodimlari tom ma‘noda xalqimiz manfaatlarining faol himoyachisi sifatida kasbiy faoliyatini amalga oshirishlari uchun ijtimoiy muhit yaratildi.

Ommaviy axborot vositalari mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli o‘zgarishlarni xolis yoritish bilan birga joylardagi mavjud dolzarb muammolarga davlat idoralari va jamoatchilik e‘tiborini qaratib, ularni bartaraf etishga barcha darajadagi rahbarlarni da‘vat etib, undab kelayotganini tahsinga



sazovor. Mamlakatimiz Prezidenti tomonidan ko‘p marotaba jurnalistlarning xalqimizga adolatli va to‘g‘ri ma‘lumotlarni yetkazishda roli beqiyos ekani, tinim bilmay o‘z ustida ishlab saviyasini oshirishga harakat qiladigan va buning natijasida xalq saviyasini o‘stirishga hissa qo‘shadigan haqiqiy mutaxassislar bugun rasmiylar va xalq orasida muloqot muhitining yuzaga kelishiga sababchi bo‘lgani alohida ta’kidlanib kelinmoqda.

Hozirda turli mamlakatlarda tartibsizliklar hukm surayotgan bir paytda jurnalistlarning mustaqil va erkin faoliyat yuritishiga bir qator tahdidlar saqlanib qolmoqda. Jumladan, muhim masalalarni ochiq jamoatchilik muhokamasiga tortilishidan saqlanish maqsadida jamiyatda o‘z obro‘-e‘tibori va ta’siriga ega shaxslar tomonidan qonunchilikdagi tuhmat va haqorat bilan bog‘liq normalar jurnalistlarga qarshi adolatsiz tarzda qo‘llanmoqda. Katta moliyaviy qudratga ega kompaniyalar va boshqa tashkilotlar tanqidiy ovozlarni o‘chirish uchun jurnalistlarni qo‘rqitish, ta’qib qilish va qimmatga tushadigan sud jarayonlari orqali ta’sir o‘tkazmoqchi bo‘ladi.

Milliy xavfsizlik qonunlari so‘z erkinligi va ommaviy axborot vositalarini erkinligini cheklash uchun ular tomonidan e‘lon qilinadigan yoki ommaga yetkazish uchun tayyorlangan materiallar mazmunini josuslik, davlatga xiyonat va xorijiy kuchlarning aniq strategik maqsadni ko‘zlangan holda ichki tartibsizliklar keltirib chiqarish niyatida faoliyat ko‘rsatish bilan ayblashi mumkin. Ko‘plab mamlakatlarda soxta xabarlar tarqatilishini cheklash bahonasidan foydalanib tanqidiy materiallarni senzura qilish uchun soxta yangiliklar bilan bog‘liq normalar qo‘llanmoqda.

Dunyo miqyosida tuhmatni jinoiy ishlar bo‘yicha ro‘yxatdan olib tashlash bo‘yicha ishlar ancha sekinlashganiga guvoh bo‘lish mumkin. Dunyoning 160 davlatida hali-hamon tuhmatga jinoyat sifatida huquqiy baho beriladi. Tuhmat ayblovleri odamlarning internet orqali o‘z fikr-mulohazalarini emin-erkin bildirishiga rahna solmoqda. Bir qator davlatlarda tuhmat va haqorat bo‘yicha qonunlarga kibexavfsizlikka tahdidlar, soxta xabarlar va nafrat ruhidagi nutqqa oid yangi qonunlar kiritildi, mavjud jazo choralari yanada og‘irlashtirildi. Fuqarolar orasida tuhmat va haqoratga oid ishlarning ko‘p ko‘rilishi so‘z erkinligi va jurnalistlarning faoliyatiga salbiy ta’sir etmay qolmaydi. Bunday yondashuv tanqidiy ovozlarni o‘chirishga urinadigan tomonlarning foydasiga ishlaydi. Aksincha, u turli sohalar rivoji yo‘lida mavjud holatga oid aniq fakt va

ma'lumotlarni to'plash hamda ularni ommaga yetkazish yo'lida zahmat bilan mehnat qiladigan ommaviy axborot vositalari xodimlari va professional jurnalistlar faoliyatiga to'sqinlik qiladi.

Tuhmat – biror shaxs sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'sini kamsitish, qadr-qimmatini odobsiz shaklda toptash yoki haqiqatga to'g'ri kelmaydigan ma'lumotlarni tarqatish, ba'zan ataylab tuhmat qiluvchi xarakterdagi yolg'on ma'lumotlarni ulashishdir[1]. Tuhmat xalqaro huquqiy atama bo'lib, u dunyoning ko'plab mamlakatlari qonunchiligida mavjud. Turli davlatlar qonunchiliklarida u inson sha'ni, qadr-qimmatini, obro'-e'tiborini himoya qilish bo'yicha shaxsiy nomulkiy huquqlarning har xil turlariga nisbatan umumiy atama sifatida qo'llaniladi. Tuhmat so'zi ko'pchilik mamlakatlarda “defamation” shaklida uchraydi. U lotincha “defamatio” so'zidan olingan bo'lib, “tuhmat” degan ma'noni anglatadi. Ushbu atama ingliz, nemis va fransuz tillarida o'xshash “defamation” ko'rinishida ishlatiladi.

Tuhmat – bu biror shaxsning jamiyatdagi va boshqa insonlar oldidagi sha'ni va obro'-e'tiboriga zarar yetkazishni ko'zlab amalga oshiriladigan xatti-harakatdir. Biroq ushbu bayonot to'g'ri bo'lsa yoki qisman haqiqatni aks ettirsa, unga tuhmat deya baho berib bo'lmaydi[6].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Ommaviy axborot vositalarida tuhmat va haqoratga taalluqli tadqiqotlar o'zbek falsafasi, jumladan huquq falsafasi va axloq falsafasida bugungi kunda eng ko'p murojaat etilayotgan va tadqiq etilayotgan ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Ommaviy axborot vositalari va u bilan bog'liq munosabatlarni o'rganayotgan tadqiqotchilar tomonidan mazkur yo'nalishda qator ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda mahalliy mualliflar tadqiqot ishlarida ommaviy axborot vositalarida tuhmat va haqorat mavzulari falsafiy, huquqiy va pedagogik nuqtai nazardan tadqiq etib kelinmoqda.

Jurnalistlar o'z ixtisosligidan kelib chiqqan holda turli soha vakillari bilan muloqotda bo'ladi, mas'ullar va mutassadilar e'tiboridan chetda qolib ketayotgan muammolar va masalalarga ommani jalb qilish jarayonida turli sabablarga ko'ra manfaatdor tomonlarning tazyiqi uchrashi, ba'zi hollarda esa jurnalistik surishtiruvlar hamda izlanishlar natijasida to'plab nashr qilingan materiallarda keltirilgan ma'lumot va faktlar ma'lum vaqt o'tganidan so'ng noto'g'ri ekani oydinlashishi yoki o'sha materialda nomi keltirilgan shaxs yoki tashkilot tomonidan

mutlaqo mazmunan teskari ma'lumotlar dalillar asosida e'lon qilinishi mumkin. Bunday holatlarda esa aslida xalq manfaatlarini ko'zlab qalam tebratgan jurnalist aziyat chekishi, kelajakdagi faoliyatida shaxsiy motivatsiyasini yo'qotishi va hattoki butunlay kasbini almashtirishiga majbur bo'lishi mumkin. Zamonaviy tendensiyalarga asoslanilsa, hozirda deyarli elektron ko'rinishga kelib bo'lgan tahririyatlar dolzarb masalalar va ularga oid faktlarni uzoq muddat saqlab tura olmaydi. Ommaga e'lon qilinishi kechikishi natijasida ushbu material o'z ahamiyatini yo'qotib “eskirishi” yoki muhokama qilingan muammo yanada ko'proq odamlarga zarar yetkazishi, qonun buzilish holati davom etaverishi mumkin. Ommaviy axborot vositalari va jurnalistikadagi o'ziga xosliklarni inobatga olgan holda sohada jurnalistlar emin-erkin ishlashi uchun mustahkam huquqiy zamin yaratilishi lozim. Xususan, jurnalistlarning daxlsizligi masalasi qonun ijodkorlari tomonidan muhokama qilinib, aniq biror qonun hujjati asosida huquqiy muhofazaga olinishi lozim, shuningdek, jurnalistlar tomonidan nashr qilingan materiallarda biror shaxs yoki tashkilotga tuhmat qilingani yoki ular haqida noto'g'ri ekani tasdiqlangan ma'lumotlar e'lon qilingan taqdirda agar Zarar ko'rganini da'vo qilib ariza bilan chiqqan tomonga ushbu material oqibatida qanchalik moddiy va ma'naviy zarar yetkazilgani xolisona aniqlanishi va shundan keyingina hukm chiqaruvchi davlat tashkiloti tomonidan yakuniy hukm natijalari ushbu ommaviy axborot vositasi yoki boshqa nashrlar, televizion kanallar va radio eshittirishlarni uzatuvchi stansiyalar faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi ham inobatga olinishi kerak, deb hisoblaymiz. Bu borada mamlakatimiz qonunchiligida alohida islohotlar olib borilishi ommaviy axborot vositalarining rolini yanada oshiradi.

Shu o'rinda, jurnalistlar materiallarida tuhmat va haqorat natijasida putur yetkaziladigan inson sha'ni, qadr-qimmatini va ishchanlik obro'si kabi tushunchalariga alohida to'xtalib o'tish joiz. Manbalarda inson sha'ni – bu jamiyatga ijobiy baho berish bilan birga inson fazilatlarining ijtimoiy ongdagi aksidir. Inson sha'ni va shon-sharaf tushunchasini farqlash uchun uning uch alohida jihatiga e'tibor qaratish zarur. Birinchi jihat lingvistik jihat bo'lib, unga ko'ra, shon-sharaf tushunchasi insonning ichki axloqiy qadr-qimmatini, jasorati, halolligi, bag'rikenglik va pok vijdondir. Ikkinchi jihat esa huquqiy jihatdan shaxsning ijtimoiy bahosi bo'lib, u shaxsiyatga jamoatchilikning ijobiy bahosini o'zida aks etadi. Uchinchi psixologik jihat esa shaxsning ruhiy o'ziga-o'zi baho berishidir.



Tuhmat va haqorat natijasida inson sha'ni bilan bir qatorda uning qadr-qimmatiga ham putur yetadi. Shu o'rinda inson qadr-qimmatiga ham to'xtalib o'tadigan bo'lsak, u shaxs fazilatlarining ijtimoiy baholashning uning ongidagi ijobiy aksidir. Bu tushuncha inson o'z-o'zini qadrlashi, fazilatleri va qiymatidan xabardorligidir. Qadr-qimmat faqat ijobiy ko'rinishda bo'lishi mumkin. Inson qadr-qimmatini yerga urilganda, u o'zini kamsitilgan his qiladi va tushkun holatga tushib qoladi. Inson tabiatdagi yagona ongli mavjudot sifatida oliy yaratiq hisoblanadi, uning qadr-qimmatini esa kamsitish aslo mumkin emas. Shu o'rinda har bir inson o'zini haqiqatdan ijobiy fazilatlarga egami yoki aksi ekani va jamiyat unga qanday munosabatda ekani muhim emas.

Inson sha'ni va qadr-qimmatini borasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator moddalarida uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanib har kim o'z sha'ni va obro'siga qilingan tajovuzlardan, shaxsiy hayotiga aralashishdan himoyalaniishi hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga, boshqa kishilarning huquq va erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majbur ekanliklari qat'iy belgilab qo'yilgan.

Ishchanlik obro'si biror jismoniy yoki yuridik shaxsning ish faoliyatida ishbilarmonlik fazilatlarining mijozlar, iste'molchilar va boshqa shaxslar nigohidagi darajasidir. Qonunchilikda ishchanlik obro'si borasida aniq ta'rif keltirilmagani bois qonunni qo'llash amaliyotida kimning ishchanlik obro'siga ega ekaniga oid bir qancha talqinlar kelib chiqadi. Ayrim davlatlar qonunchiligida u faqat tadbirkorlik faoliyati bilan bog'lanadi. Shunday doirada faoliyat olib boruvchi shaxslarga nisbat ishchanlik obro'si tushunchasi qo'llanadi. Biroq uni kengroq ma'noda biror shaxsning u haqda e'lon qilingan noto'g'ri ma'lumotlar tufayli yetkazilgan ma'naviy va psixologik zarar tufayli o'z ish joyida unga yuklatilgan vazifalarni ado etishda qiyinchiliklarga duch kelishi va hamkasblari orasida obro'siga putur yetishi, shuningdek ish yuzasidan munosabatlarda o'zini chetga olib qochishi natijasida samaradorligiga salbiy ta'sir bo'lishini tushunish mumkin. Shundan kelib chiqib barcha jismoniy va yuridik shaxslar ishchanlik obro'siga ega, deb hisoblashimiz mumkin. Ishchanlik obro'si – bu jismoniy va yuridik shaxslar bilan bog'liq bo'lgan fazilatlar va baho berish jamlanmasi bo'lib, bu uning o'z mijozlari, iste'molchilari, kontragentlari, tarafdorlari, hamkasblari, soha mutaxassislari va boshqa shaxslar nigohida namoyon bo'lishidir.



Tuhmat va haqorat holati deb biror shaxs haqidagi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan ma’lumotlar tarqatilishi nazarda tutiladi. Noto‘g‘ri axborotning tarqatilishi esa matbuotda ma’lumotlarni e’lon qilish, radio orqali eshittirish yoki televideniye orqali efirga uzatish, kinoxronikalarda namoyish qilish, internetda tarqatish yoki boshqa ommaviy axborot vositalarida e’lon qilish; taqdimotlarda va ommaviy nutqda ma’lum qilish hamda mansabdor shaxslarga murojaat qilishda; ma’lumotlarni og‘zaki yoki boshqa yo‘l bilan kamida bitta boshqa shaxsga yetkazish kabilardan birida bo‘lishi kifoya. Axborotni ushbu ma’lumotni tegishli bo‘lgan shaxsga barcha maxfiylik choralarini ko‘rgan holda yetkazish va ommaviy axborot vositalari bosh muharriri va tahririyat xodimlarining ushbu ma’lumotlar nashrga berilishi, eshittirilishi, namoyish etilishi yoki efirga berilishidan avval ushbu ma’lumotlar bilan tanishib chiqishi haqiqatga to‘g‘ri kelmaydigan axborotlarni tarqatish hisoblanmaydi. Biror shaxs haqida yolg‘on ma’lumotlar tarqatilishi mumkinligi haqida xabardor qilish va bunga qarshi choralar ko‘rishiga undash, shuningdek tahririyatlarga kelib tushgan ma’lumotlarning haqqoniyligi va xolisligini aniqlash jarayonida uning tahlil qilinishi hamda turli mustaqil manbalardan tekshirilishiga yolg‘on ma’lumotlarni tarqatish, deya baho berib bo‘lmaydi.

Ommaviy axborot vositalarida tuhmat va haqorat mavzusini atroflicha tadqiq qilishdan avval bunday qonunbuzarlik holatiga milliy qonunchiligimizda qanday tartib belgilanganini aniqlashtirib olish zarur.

O‘zbekiston Respublikasi Ma’muriy Kodeksida tuhmat va haqoratga oid javobgarlik belgilangan. Ushbu qonunning 40-moddasiga binoan tuhmat ya’ni bila turib yolg‘on, boshqa bir shaxsni sharmanda qiluvchi uydirmalarni tarqatish uchun bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan oltmish baravarigacha miqdorda jarima jazosi belgilanadi. Keyingi 41-modda esa haqoratga oid javobgarlik belgilangan, unga ko‘ra haqorat qilish, ya’ni shaxsning sha’ni va qadr-qimmatini qasddan kamsitish bazaviy hisoblash miqdorining yigirma baravaridan qirq baravarigacha miqdorda jarima solinishiga sabab bo‘ladi. Yuqoridagi javobgarlik faqat birinchi marta sodir etilsagina qo‘llanadi. Ma’muriy jazo qo‘llanganidan keyin tuhmat yana sodir etilsa, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi 139-moddasiga binoan bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Nashr qilish yoki



boshqacha usulda ko‘paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida joylashtirish orqali tuhmat qilish bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz soatdan uch yuz oltmish soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud ikki yildan uch yilgacha axloq tuzatish ishlari yoki bir yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi. Tuhmat – og‘ir yoki o‘ta og‘ir jinoyat sodir etishda ayblab, og‘ir oqibatlar kelib chiqishiga sabab bo‘lgan holda, xavfli retsivist tomonidan va g‘arazgo‘ylik yoki boshqa past niyatlarda qilinsa, bazaviy hisoblash miqdorining uch yuz baravaridan besh yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki uch yuz oltmish soatdan to‘rt yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan uch yilgacha ozodlikni cheklash bilan jazolanadi. Haqorat borasida avval ma‘muriy jazo belgilangan bo‘lsa, bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi. Nashr qilish yoki boshqacha usulda ko‘paytirilgan tarzda, shu jumladan ommaviy axborot vositalarida, telekommunikatsiya tarmoqlarida yoki Internet jahon axborot tarmog‘ida joylashtirish orqali haqorat qilish bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz baravaridan to‘rt yuz baravarigacha miqdorda jarima yoki ikki yuz qirq soatdan uch yuz soatgacha majburiy jamoat ishlari yoxud bir yildan ikki yilgacha axloq tuzatish ishlari bilan jazolanadi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Hech bir inson mukammal emas, xato va kamchiliklarni deyarli har kimda va har sohada uchratish mumkin. Shu tufayli ko‘plab manbalarda shaxs obro‘sigga putur yetkazadigan axborotlarning haqiqat bo‘lishi yoki qisman bo‘lsa-da o‘zida haqiqatni aks etishi tuhmat sifatida ko‘rilishi mumkin emas, deb qaraladi. Haqiqatdanda sodir bo‘lgan real voqealar haqidagi ma‘lumotlar borasida tuhmat va haqorat borasidagi normalarning qo‘llanilmaydi.

Tuhmat hisoblanadigan tarqatilgan axborotlar bir qancha belgilarni o‘zida aks ettiradi. Tarqatilgan axborot bayonotlarni o‘z ichiga olishi kerak. Savollar, taxminlar va gipotezalar bayonot sifatida talqin qilinishi mumkin emas, chunki ular qarama-qarshi lingvistik kategoriyalar hisoblanadi. Bayonotlar hozirgi payt va o‘tmish haqidagi ma‘lumotlarni ifoda etishi kerak. Kelajak borasidagi taxminlar va prognozlar tuhmat, deb qaralmaydi. Bayonot natijasida bu haqida da‘vo bilan murojaat qilgan fuqaro yoki yuridik shaxs tomonidan amaldagi qonunchilik



hujjatlarining buzilganlik holati ma'lum qilinsa unga tuhmat bo'yicha huquqiy baho beriladi. Faqatgina jismoniy shaxslarga nisbatan amalga oshiriladigan shaxsiy, jamiyat va siyosiy hayotda insofsiz harakat, noto'g'ri va axloqsiz xatti-harakat hisoblanadigan harakatlarni sodir etish bayonot sifatida e'tirof etiladi. Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy va yuridik shaxslar orasida ishbilarmonlik odoq-axloq qoidalari yoki odatlarining buzilgani borasida bayonot berish ham shular jumlasiga kiradi. Ishlab chiqarish, xo'jalik va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish chog'ida insofsizlik borasida bayonot berishga ham shunday ta'sir qo'llanadi. Tarqatilgan ma'lumot jismoniy yoki yuridik shaxsning sha'ni, qadr-qimmat va ishchanlik obro'siga chindanda zarar yetkazishi lozim. Bunday holat isbotlansagina belgilangan javobgarlik tatbiq etiladi.

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan materiallarda tuhmat va haqorat masalasiga bu borada jismoniy va yuridik shaxslarga belgilangan umumiy javobgarlik bo'yicha ish olib boriladi. Biroq keyingi yillarda ushbu soha rivoj topgan xorijiy mamlakatlarda tuhmat va haqorat borasida sud jarayonlarida qaror ushbu materialning qanchalik zarar keltirganini hisoblash va isbotlash orqali chiqarilmoqda. Ayniqsa, axborot ulashish maydonida ijtimoiy tarmoqlar va blogerlarning ko'tarilishi hamda salmoqli o'rin egallashi masalani norma ijodkorligi darajasida yana bir bor ko'rib chiqish zaruratini hosil qildi.

Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlari orasida Qozog'istondagi vaziyatga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2014-yilda mamlakatda yangi Jinoyat Kodeksi qabul qilindi. Biroq ushbu Kodeks avvalgisi kabi tuhmat va haqoratga oid jinoiy javobgarlik bo'yicha moddalarni o'z ichiga oladi. Uning 130-moddasiga binoan qasddan soxtalashtirilgan axborotni tarqatish bo'yicha ayblov faqat jabrlanuvchi shaxsning arizasiga ko'ra qo'zg'atilishi mumkin. Tuhmat jinoyat tarkibiga kirishi uchun tarqatilgan ma'lumotlar yolg'on bo'lishi va haqiqatni o'zida aks ettirmasligi shart.

Qirg'izistonda esa tuhmat va haqoratga oid jinoiy qoidalar yaqindagina bekor qilindi. 2010-yilda umumxalq referendumidan keyin qabul qilingan mamlakatning yangi Konstitutsiyasida tuhmat va haqorat uchun jinoiy javobgarlikka tortish bo'yicha tartib bekor qilindi. Biroq Respublikaning Jinoyat Kodeksidagi tuhmat borasidagi 127-modda faqat 2011-yilga kelib olib tashlandi. Odatda, jinoyat kodekslaridagi tuhmat va haqorat bo'yicha normalar jurnalistlar va ommaviy axborot vositalariga nisbatan qo'llanadi. Bu esa so'z va fikr erkinligiga salbiy ta'sir o'tkazmay qolmaydi.



Turkmanistonda tuhmat va haqorat borasida javobgarlik ma'muriy va jinoyat Kodekslarida keltirib o'tilgan. Biroq islohotlar natijasida ushbu tushunchalarning mas'uliyat va qo'llanish doirasi ancha toraydi.

Angliya va Uelsda jinoiy tuhmat borasidagi qonunlar to'liq bekor qilindi. Shimoliy Irlandiya va Shotlandiyada ham tuhmat jinoyat hisoblanmaydi. Buyuk Britaniyada davlatga, davlat rahbariga, mansabdor shaxslariga, ramzlarga va institutlariga, xorijiy davlatlar, ularning ramzlari, rahbarlari va mansabdor shaxslariga tuhmat va haqorat qilish uchun hech qanday jinoiy jazo tayinlanmaydi.

Rossiya Federatsiyasi Jinoyat Kodeksida hozirda faqat tuhmat uchun jinoiy javobgarlik saqlab qolingan. Unga ko'ra, boshqa shaxslarning sha'ni, qadr-qimmatini va obro'siga putur yetkazadigan yolg'on ekani ma'lum bo'lgan axborotlarni tarqatish jinoyat hisoblanadi.

Dunyo mamlakatlarida ommaviy axborot vositalarida tuhmat va haqorat borasidagi qonunchiligini tahlil etish jarayonida lese-majeste tushunchasini e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Lese-majeste tushunchasi biror davlatdagi hukmron rahbarning qadr-qimmatini haqorat qilish yoki tuhmat qilishdir. U aniqroq ma'noda davlat rahbarlarining xatti-harakatlariga tanqidiy ko'z bilan qarash mamlakat miqyosida ruxsat etilganini yoki aksini tasdiqlovchi qonun-qoidalar mavjudligini ifodalaydi. Bu ayrim davlatlarda aniq normalar bilan belgilab qo'yilgan bo'lsa, ba'zilarida xalqlar va millatlarning tarixiy kelib chiqishi, axloqiy va an'anaviy qadriyatlarini natijasida umumqarash sifatida e'tirof etiladi.

Ushbu jinoyat nomi o'rta asrlar fransuz tilidan olingan so'z birikmasining zamonaviylashtirilgan ko'rinishi bo'lib, bu ibora “tojga qarshi jinoyat” degan ma'noni bildiradi. Shunga yaqin shakldagi ibora lotin tilida “jabrlangan yoki buzilgan ulug'vorlik” ma'nosini bildiradi. U dastlab suveren xalqning ulug'vorligini bildirgan bo'lsa, keyinchalik monarxning ham ulug'vorligiga nisbatan ishlatilgan.[2]

Tarixga oid ma'lumotlarda turli qirolliklar hukmdorlari ulug'vorliklariga qarshi qilingan jinoyatlarga tojga qarshi qilingan jinoyat sifatida bajo berilgan. Ayrim huquqiy tizimlarda ba'zi jinoyatlar ataylab yoki tojga qarshi amalga oshirilmagan bo'lsa ham lese-majeste, deb tasniflangan. Qirollik tangalarining qalbakilashtirilishi ham lese-majeste bahosini olgan chunki tangalarda hukmdorning surati yoki belgisi tushirilgan.



Yevropada mutlaq monarxiyaning qulashi qit'a davlatlarida lese-majeste unchalik og'ir bo'lmagan jinoyat sifatida qaraladigan bo'ldi. Biroq avvallari lese-majeste jinoyati bilan bog'liq deya tasniflangan ba'zi zararli xatti-harakatlar hozirda ham xiyonat sifatida jinoiy javobgarlikka tortilishga asos bo'lishi mumkin.

Ayrim respublikalarda haligacha davlatning eng yuqori pog'onalarida turuvchi vakillariga qarshi har qanday noto'g'ri harakat jinoyat deb tasniflanadi. Lese-majeste qonunlari Yevropadan tashqaridagi monarxiyalarda, jumladan zamonaviy Tailand va Kambodjada amal qiladi.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlari orasida Rossiya Federatsiyasida lese-majeste mazmunidagi qonunlar va tartib borasida izlanish olib borilsa, mamlakatda 2019-yil mart oyida davlat va hukumat amaldorlariga nisbatan hurmatsizlik va odobsiz ruhdagi onlayn bayonotlarni e'lon qilishni huquqbuzarlik deb topuvchi qonun qabul qilinganini ko'rish mumkin. Bunday holat birinchi marta sodir etilsa, yuz ming rublgacha takroriy qayd etilsa ikki yuz ming rubl yoki 15 kunlik qamoq jazosi belgilanadi.[3]

Belarusda 2022-yil 31-yanvar kuni bir ayolning telefonidan hukumat rasmiylarini masxara qiluvchi suratlar borligi aniqlanadi. Mamlakatning avtoritar rahbari Aleksandr Lukashenko va boshqa rahbarlarni haqorat qilgani uchun unga 18 oylik qamoq jazosi belgilandi. 2020-yilning avgust oyida mamlakat prezidentligi uchun saylovlarda g'alaba qozonganini da'vo qilgan Lukashenkoni g'olibligi xalqaro mustaqil kuzatuvchilar tomonidan rad etilgan edi. O'sha paytda ham shunga o'xshash hukmlar chiqarilgan edi.[4]

Estoniya Jinoyat kodeksining 247 249-moddalariga binoan chet el davlat rahbarlarini, ularning vakillari va oila a'zolarini haqorat qilish, ularning bayrog'i va madhiyasiga hurmatsizlik ko'rsatish ikki yilgacha qamoq jazosi bilan jazolanishga sabab bo'lishi mumkin.

Dunyoning rivojlangan davlatlaridan biri bo'lgan Germaniyada 2017-yilgacha xorijiy davlatlar rahbarlarini ochiqchasiga haqorat qilish noqonuniy edi. O'sha yil yanvar oyida ushbu qonunni mamlakat jinoyat kodeksidan olib tashlash taklifi kiritildi va 2018-yil 1-yanvardan boshlab ushbu qonun o'z kuchini yo'qotdi. 2016-yil aprel oyida tungi televideniya nemis komedik aktyori Turkiyaning amaldagi prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'an haqida odobsiz she'r o'qiganidan keyin Turkiya hukumati uning javobgarlikka tortilishini talab qiladi. O'sha paytdagi kansler Angela Merkel ushbu talabni qondirish haqida qaror qabul qiladi va uncha mashhur

bo‘lmagan ushbu qonunni bekor qilish masalasini ko‘rib chiqish niyatini bildiradi.[5]

Germaniyada federal prezidentni haqorat qilish hali-hamon jinoyat hisoblanadi. Biroq shunday javobgarlikka tortish uchun shaxsan prezidentning ruxsati talab etiladi. Biroq parlament a‘zolari munozaralar chog‘ida mamlakat prezidentini qoralagan holatlari kuzatilgan. Prezident ushbu davlatda birlik ramzi ekanini hisobga olganda, siyosatchilarning omma oldida uni tanqid qilishi maqbul hisoblanmaydi.

Italiyada davlat prezidentining sha‘ni yoki obro‘sig a putur yetkazish bir yildan besh yilgacha qamoq jazosi bilan jazolanadi. Bu o‘z vakolatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq o‘tmishdagi va hozirgi barcha voqealarga tatbiq etiladi. Italiya prezidentining janubiy kelib chiqishiga ishora qilib uni irqiy qoralagani uchun Shimoliy Liga sobiq yetakchisi Umberto Bossi bir yil-u o‘n besh kunga ozodlikdan mahrum qilingan. Keyinroq u prezident tomonidan afv qilingan.

Italiyada chet el davlatlari bayroqlari va gerblarini haqorat qilish taqiqlanadi. Chet el mamlakatlar rahbarlariga oid shunga o‘xshash qonun 1999-yilda bekor qilingan.

Shveysariyada boshqa davlatlar rahbarlarini ochiqchasiga haqorat qilish noqonuniy hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda boshqa davlatlar hukumat a‘zolari, diplomatik vakillari, mamlakatda bo‘lib o‘tayotgan xalqaro konferensiya rasmiy delegatlarini haqorat qilish uch yildan ko‘p bo‘lmagan ozodlikdan mahrum qilish yoki jarima bilan jazolanadi.

Eronda mamlakat Oliy Rahbari va sud tizimini haqorat qilganlik uchun fuqarolar sudlar tomonidan jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Saudiya Arabistonida 2014-yilda kuchga kirgan terrorizmga qarshi kurash qonuniga ko‘ra mamlakat birligiga tahdid soluvchi, jamoat tartibini buzuvchi, davlat yoki qirol obro‘sig a putur yetkazuvchi harakatlar terrorchilik harakati, deb topiladi. Bunday jinoyat qattiq jismoniy jazo va hatto o‘limga ham olib kelishi mumkin.

Turkiya qonunchiligiga binoan turk millatini, Turkiya Respublikasini, davlat muassasalarini va milliy qahramonlarini haqorat qilish noqonuniy hisoblanadi. Turkiya prezidentini ham haqorat qilish jinoiy javobgarlikka olib keladi.

XULOSA

Shunday qilib ko‘plab mamlakatlarda tuhmat va haqorat borasida qonunchilik turlicha ekani ma‘lum bo‘lmoqda. Lekin bu boradagi islohotlar va o‘zgarishlar ko‘proq ommaviy axborot vositalari va jurnalistlarning erkin faoliyat olib borishi uchun ijobiy tomonga siljiyotgani rost. Mamlakatimizda ham shunday o‘zgarishlar ko‘zga tashlanmoqda. Yaqin yillarda tuhmat va haqorat borasidagi javobgarlik Jinoyat Kodeksidan butunlay olib tashlanishini oldindan prognoz qilish mumkin. Kunlik axborot oqimi ortgani sayin uning qanchalik dolzarb ekani yanada oydinlashib boradi. Biroq so‘z va fikr erkinligidan o‘zgalarga atayin zarar yetkazish maqsadida foydalanish bunday huquq va erkinliklarni suiiste‘mol qilish jamiyat taraqqiyotiga hissa qo‘shmaydi, balki to‘sqinlik qiladi. Shu sababdan ommaviy axborot vositalarida jurnalist kadrlarning huquqiy savodxonligini oshirish va tarqatish uchun to‘planayotgan axborotlarning haqqoniyligi hamda xolisligini ta‘minlash uchun oldindan chora ko‘rish zarurdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Диффамация в СМИ. /Авт.- сост. Г.Ю. Арапова, М.А. Ледовских – 2-е издание, переработанное и дополненное - Воронеж: ООО Фирма «Элист», 2012. – 160 с. – (Справочная серия. Юристу и руководителю СМИ).
2. "lèse-majesté". Oxford English Dictionary (Online ed.). Oxford University Press. (Subscription or participating institution membership required.)
3. Bennetts, Marc (6 March 2019). "Russia passes law to jail people for 15 days for 'disrespecting' government". The Guardian. Retrieved 19 October 2019.
4. "Two More Belarusians Sentenced For 'Insulting' Lukashenka". rferl. 31 January 2022. Retrieved 6 December 2022
5. "Berlin abolishing slander law on insulting foreign leaders". Deutsche Welle. 25 January 2017.
6. Report of the Review of the Defamation Act 2009
7. O‘zbekiston Respublikasi Ma‘muriy Kodeksi
8. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat Kodeksi
9. Defamation and Insult Laws in the OSCE Region A Comparative Study by Organization for Security and Co-operation in Europe The Representative on Freedom of the Media Dunja Mijatović

TILIM BOYLIGIM

Mamatxalilova Dinora Muxtorovna

Marg'ilon shahar 1-son kasb-hunar maktabining
ona tili va adabiyot o'qituvchisi

Annotatsiya. Har millat o'z tili va madaniyati bilan kuchli. Mamlakatimiz jahonga yuz tutayotgan bir pallada til bilish - istiqbol sari dadil qadamdir. Har bir xalq, millat o'z tili va madaniyati bilan kuchlidir. Ushbu maqolada tilimizning naqadar muhim ekanligi, xalqaro hamjamiyatdagi o'zni hamda til qadri masalalari muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: til, bilim, ta'lim, tarix, istiqloq.

KIRISH

O'zbek tilining davlat tili maqomiga o'tishi o'zligimizni anglaganimizdan ma'naviyatimiz, madaniyatimizni dildan his etayotganimizdan dalolatdir. Prezidentimizning sa'y - harakatlari bilan olib borilayotgan oqilona harakatlar, ta'lim - tarbiyaga e'tibor, xalq farzandining bilim salohiyatini, iqtidorini dunyoga ko'rsatishimiz uchun da'vatdir. Tarixiy meroslarimizni saqlash, ma'naviy boy meroslarimizni ko'z qorachig'idek asrash, ma'naviyat degan tushunchani o'zimizdan o'rganishimizni talab etadi. Til orqali millatning tarixi, madaniyati, milliy g'ururi namoyon bo'ladi. Tilimizni asrab-avaylash o'zligimizni, tilimizni anglash demakdir. Tilimizning jozibadorligi, go'zalligi, ta'sirchanligi ma'naviy dunyomizni shakllantirishga yo'l desak adashmaymiz. O'sib borayotgan yosh avlodni tarbiyalashda, uning ma'naviy- ma'rifiy saviyasini oshirishda albatta so'z sehri, uning qudrati zamin yaratadi. Hatto, Hadisu - sharifda «Kishining go'zalligi uning tilidan bilinur», «Barcha balo tildandur» deya ta'riflanganligida katta ma'no bor. Tilimizning boyligiga to'sqinlik qiladigan, uning jozibadorligini buzadigan, tilimizni qo'pollik bilan, har xil tushunmas lug'atlar bilan buzilishiga yo'l qo'ymaslik lozim. So'zlashuv uslubi deymizu tilimizdagi g'alizlik, boshqa til lug'atlarini aralastirib so'zlashayotganimiz sir emas. Tilimizning go'zalligiga, buyuk bobokalonlarimiz juda chiroyli ta'riflarni berib, jozibador, lug'atga boy deb so'z yuritganlar. Tilimizning qadrining balandligi, bu bizning ruhiy qarashlarimiz, ma'naviy sarchashmalarimizning tiniq ifodasi. Mukammallik bu tilimizning

purma'noligi, unda ishlatiladigan adabiy san'atlar, iboralar, tasviriy ifodalar beixtiyor inson qalbiga ziyo nurini sochadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

O'z tilini yo'qotish -o'zlikni, ma'naviyatni yo'qotish, jaholat jarligiga yetaklaydigan yo'ldir. Prezidentimizning yosh avlodni o'z tilini bilishi bilan bir qatorda, boshqa tillarni o'rganishi, uni hurmat qilishi, o'zligimizni, obod kelajagimizni dildan his etishga, komillik sari yo'l bosishga bor kuchlarini safarbar etishlari uqtirilgani sir emas. Olib borilayotgan tashviqot - tarviqot ishlarining yuqori saviyada olib borilishida inson ruhiyatiga kirib boradigan, uni o'ylantiradigan, qalbiga oro beradigan bo'lishi bilan birga, olib boriladigan muhim tashabbuslar bilan hamnafaslikda olib borilishi, albatta yosh avlodni tarixga, millatga, vatanga, o'zligini anglashga o'rgatadi. Farzandlarimizni har tomonlama yetuk, komil inson bo'lib ulg'ayishi uchun tilimizning betakrorligi, mustaqil yurt egalari bo'lganimizdan so'ng, uning salmog'ini, qadrini buyuk bilishimiz kerak. Adabiyotimizning porloq yulduzi, qisqa davr ichida xalqning qalbidan joy olgan, she'rlari bizning yuragimizni o'rtaydigan buyuk siymo M.Yusufning she'rlaridagi o'z shevamizning ming jilosi, tilimizning jozibasini hech bir satr bilan ham tugatib bo'lmasligi, tarixiy siymolarimizning meroslarining tiklanganligi shoir uchun baxt edi. Ajdodlarimizning ma'naviy merosini o'rganish bizning burchimiz, shunday ekan ularning nodir asarlari, gavharga teng hikmatli so'zlari bizning kelajak yo'limizni yorituvchi bir mayoq desak adashmaymiz. Ona tilining qadrining balandligini so'z bilan ifoda etib bo'lmaydi, zero uning kelib chiqish tarixini o'rganish uchun so'z sehrining ustalari, bugungi avlodga sal tushunishi murakkabroq bo'lib ko'ringan umrboqiy xazinalarni meros qilib qoldirganlar. Ona tili yashasa, millat yashaydi. O'z tilini unutgan o'zligini yo'qotadi, millatini yo'qotib xor bo'ladi. Buyuk siymo, ma'naviy qarashlarining ildizi asrlarga borib taqaladigan mutafakkir A.Navoiyning « Muhokamat ul-lug'atayn» ya'ni «Ikki til muhokamasi» asarini oladigan bo'lsak, avval hamdusanoni yaratganga aytdi, chunki u tilni berdi, shu bilan birga shukronalik aytishi uchun unga shirali nutqni berdi. Ko'rinib turibdiki, Muhammad alayhissalom shunday notiq bo'lgan ekanlarki, bulbuldek nutqlariga boshqa da'vogar ovozlari bas kelmagan ekan. So'z shunday gavharki, uning daryosi ko'ngildir, ana shu daryodan gavharni olib chiqish uchun uddaburron g'avvos kerakdir. O'z tiliga



bepisandlik, kelajakni ko‘ra olmaslik, shu bilan birga tarixiy meroslarimizga, moziy eshiklarida ilxaqlikda qolgan Qodiriyu, Cho‘lponlarga, Avloniy bilan Fitratlarga hurmatsizlik bo‘ladi. So‘zlashuv uslublarimizdagi, yozma nutqimizdagi xatoliklarga barham berishimiz lozim. Chet tillarini o‘rganish, bilim salohiyatimizni oshiradi, lekin shu bilan birga o‘z ona tilimiz qadrini balandligini unutmasligimiz, tadbir afishalarida, yo‘l - yo‘lakay osilgan peshtaxtdagi xatoliklarga ko‘z yumib ketishimiz, ona tilimizning bebaho so‘z xazinasidan o‘rinli foydalana olmaganimizni ko‘rsatadi. Nutqiy savodxonlikka erishish esa, har bir til vakilining burchidir. Hadisi sharifdan ma‘lumki, «Insonning go‘zalligi uning tilidan bilinadi» Millat ruhining ko‘zgusi - til ekanligi va boy ma‘naviy, dunyoqarashlarimizni, orzu- umidlarimizni, his-tuyg‘ularimizni tarannum etish uchun go‘zal tilimizdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Tarixiy shaharlarimizga sayohat qiladigan bo‘lsak, u yer aholisining ingliz tilida mukammal so‘zlashayotganliklarini tarixiy meroslarimizga ta‘rif berayotganliklarida beixtiyor ko‘zimizdan sevinch yoshlari paydo buladi. Bu bizning necha yillar davomida o‘zligimizni anglamay, tarixiy meroslarimizni, oltinu-madanga boy yurtimizni qo‘ldan boy bermaganimiz shukronasi, quvonch ko‘z yoshlaridir. O‘zbekistonda turizmning rivojlanganligi, shu bilan birga butun dunyo mamlakatlarining go‘zal yurtimizga havas qilishini shohid bo‘lamiz, qachonki, ularning iroqi do‘ppilarni, Marg‘ilonu-Chust do‘ppilarini boshlariga kiyib, ko‘zlarida chaqnayotgan havasni ilg‘aganda, yana bir bor o‘z tilimizning betakrorligiga tasannolar aytamiz. Jahongashta allomalar, buyuk siymolar avlodi ekanligimiz, yillar davomidagi o‘zimizning iqtidorimiz, qobiliyatimiz bilan vujudga kelgan teran fikrlar, unda jo‘sh uradigan vatan madhi, meroslarimizni qadrlash kabi buyuk g‘oyalarimizni kimlargadir qo‘sh qo‘lladik. Pirovardida, salkam asrlar maqtovini, ma‘naviy xazinalarimizni, adabiy meroslarimizni unutdik. Lekin mustaqillik bergan sharofat bilan bukilgan qadrlarimiz tiklandi. Kadri baland ona tiliga ehtirom madhi jarangladi, buzgunchi g‘oyalar bilan tilimizni qamrab olgan lug‘atlarning qo‘pol aytilishiga barham berildi. Ona tilimizning jahonda tutgan o‘rni, mavqeini, ahamiyatini yuksaltirish uchun yangi g‘oyalar bilan o‘rtoqlashish, tinimsiz izlanish, o‘qituvchiga xos kreativlik, ijodkorlik, kashfiyotchilik xususiyatlari mavjudligi, zamon bilan hamnafaslikka chorlaydi.



XULOSA VA MUNOZARA

Tilga bo‘lgan hurmatni o‘quvchilar ongida shakllantirish bilan birga o‘zbek tili nufuzini oshirishimiz kerak. Chunki inson qalbiga milliy g‘ururni, o‘zlikni, qadr - qimmatni, ma’naviy qarashni tugish uchun birinchi navbatda tilni e’zozlash muhimdir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Ona tili va adabiyot. F.Rafiev, N.G‘ulomova. Toshkent-2004 «Sharq nashriyoti»
2. «Muhokamatul-lug‘atayn» A.Navoiy. 2008
3. N.M.Mahmudov, Y.R.Odilov, G.Sh.Ziyodullaev. 11-sinf ona tili darsligi, 2018yil
4. R.Usmonov. Saodatnoma tanlangan asarlar, 2005 yil.

Research Science and Innovation House

Zamburug‘larning kimyoviy tarkibi

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2- bosqich 203- guruh talabasi
Salohiddinova Muhayyo Xayrullo qizi**

Annotasiya: Zamburug‘larning faoliyatida ro‘y beradigan metabolitlar birlamchi va ikkilamchiga bo‘linadi. Birlamchi metabolitlar zamburug‘ning o‘sishi uchun zarur, bular nuklein kislotalar, oqsillar, uglevodlar, kofermentlar lipidlar va boshqalar. Ikkilamchim etobolitlar zamburug‘ni sharoitga moslanishlari uchun zarur.

Annotasion: Metabolites occurring in the activity of fungi are divided into primary and secondary. Primary metabolites are necessary for the growth of the fungus, these are nucleic acids, proteins, carbohydrates, coenzymes, lipids, etc. Secondary ethobolites are necessary for the fungus to adapt to the conditions.

Аннотация: Метаболиты, возникающие в процессе жизнедеятельности грибов, делятся на первичные и вторичные. Для роста гриба необходимы первичные метаболиты: нуклеиновые кислоты, белки, углеводы, коферменты, липиды и т. д. Вторичные этоболиты необходимы грибу для адаптации к условиям.

Kalit so‘zlar: Fosfolipid, glukoza, selluloza, monosaxarid, glikoprotein, lipid, pigment.

Key words: Phospholipid, glucose, cellulose, monosaccharide, glycoprotein, lipid, pigment.

Ключевые слова: фосфолипид, глюкоза, целлюлоза, моносахарид, гликопротеин, липид, пигмент.

Zamburug‘larning faoliyatida ro‘y beradigan metabolitlar birlamchi va ikkilamchiga bo‘linadi. Birlamchi metabolitlar zamburug‘ning o‘sishi uchun zarur, bular nuklein kislotalar, oqsillar, uglevodlar, kofermentlar lipidlar va boshqalar. Ikkilamchim etobolitlar zamburug‘ni sharoitga moslanishlari uchun zarur. Ular bir zamburug‘da bo‘lsa, boshqasida bo‘lmasligi mumkin, ular odatda quyi molekulari birikmalar hisoblanadi. Oqsillar. Zamburug‘ning tuzilishini tashkil qiladigan oqsillar hujayra devori, membranali tuzilmalar, xromosomalar tarkibida bo‘ladi.

Fermentlar tarkibidagi oqsillar hujayra ichidagi jarayonlarni va atrof muhit bilan aloqalarni ta'minlaydi. Bu haqda to'laroq zamburug'laming oziqlanishi qismda bayon qilinadi. Tuzilmalardagi uglevodlar. Zamburug'laming hujayra devorini tuzilmaviy uglevodlar tashkil qiladi. Kimyoviy tarkibiga ko'ra ularni uch guruhga bo'lish mumkin: glukoza, boshqa monosaxaridlar va peptidlar bilan kovalent bog'langan uglevodlar (glikoproteinlar). Glukozaning polimerlari bu-glyukanlar, xitinlar va selluloza. Glyukanlar tarmoqlangan yoki tarmoqlanmagan b yoki v bog'lar bilan bog'langan glukoza molekulari hisoblanadi. Zamburug'larning ko'pchiligini tashqi qavatni shulardan iborat. Xitin molekulasida glukoza qoldig'i aminoguruh bilan bog'langan, ularga sirka kislota qoldig'i birikkan (atsetillangan). Atsetillanmagan xitin xitozin deyiladi, u ayrim Zamburug'larda uchraydi, xolos. Sellyuloza oomitsetlarning barchasida mavjud, hujayra devorining 10% massasini tashkil qiladi. Uzoq vaqtlar selluloza zamburug'larda bo'lmaydi deb hisoblanilar edi. Monosaxaridlarning boshqa polimerlari (mannoza, galaktoza va boshqalar) yuksak o'simliklarda galaktoza deyiladi. U barcha zamburug'larda uchramaydi. Achitqilarda mannozaning polimeri mannanlar bor. Zamburug'larning hujayra devorida peptidoglyukanlar, mannanoproteinlar va boshqalar mavjud. Ular hujayra devorida o'rta qavatni tashkil qilib atrof muhit bilan aloqa jarayonlarida ishtirok etadi. G'amlangan uglevodlar. Zamburug'larda yuksak o'simliklar, suvo'tlardagi kabi kraxmal aniqlanmagan. Glukoza eomitsetlarda hayvon kraxmali glyukogenga yaqin b-glyukanlar holida to'planadi. Oomitsetlarda v glyukanlaminariga o'xshashi g'amlanadi. Zamburug* hujayralarida - qand spirtlar - m annit, sorbit, ksilit va boshqalar ham bor.

Lipidlar. Lipidlar muhim g'amlangan mahsulot hisoblanib, hujayrada tomchi holida g'amlanadi. Zamburug'larda yarim to'yingan yog' kislotalari ko'p bo'ladi. Lipidlar fosfolipidlar holida hujayra membranasining asosiy qismidan iborat. Zamburug'larda asosiy sterinergosterin (C-28) mavjud. Ikkilamchi metabolitlar. Pigmentlar. Zamburug'larda fotosintezlovchi pigmentlar yo'q, ular mitselliyni, o'sib turgan joyini turli rangga kiritadigan pigmentlarni hosil qiladi. Pigmentlarning ko'pchiligi karatinoidlar va aromatik birikmalarga mansub. Karotin hosilasi bo'lgan pushti pigment mog'or Zamburug'larda jinsiy jarayonni tezlatadi: aspergillardagi qora-safsar pigmentlar sporalar hosil bo'ladigan joyda: to'q rangli melanin hujayra devorida to'planib uning mustaxkamligini ta'minlaydi.



Fitogormonlar. O‘simliklarning ayrim tekinxo‘r zamburug‘lari uning quyi molekulari o‘stiruvchi moddalarni ajratadi. Xaltachali zamburug‘ Giberilla gibberellinlar deb nomlanadigan terpenoidlar shular jumlasidandir. Zamburug‘larar hujayrasidagi genom tuzilmalari bo‘lib yadro (yadro genomi) mitoxondriy (mitoxondriy genomi) plazmidlar hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. N.H. Qarshiboyev., U.N.Usanov., N.O.Karimov., M.SH.Yaxshiyev. Botanika. Toshkent. 2015.
2. A.A. Matkarimova., T.X. Mahkamov., M.M. Maxmudova., X.Ya. Azizov., G.B. Vaisova. Botanika. Toshkent. 2020.
3. Sh.J. Tojiboyev., N.M.Naralieva. Botanika: Tuban o‘simliklar. Namagan. 2016



Research Science and
Innovation House

QISSA JANRI GENEZISI HAQIDA

Zilola Haydarova – JDPU Maktabgacha va boshlang‘ich yo‘nalishlarda
masofaviy ta‘lim kafedrasida o‘qituvchisi

Umidjon Bobonazarov – JDPU Sirtqi bo‘lim o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi
4-bosqich talabasi

Annotatsiya

Maqolada qissa janrining kelib chiqishi Qur‘oni karim oyatlari bilan bog‘lab sharhlangan. Muqaddas kitobning A‘raf, Baqara, Naml, Niso, Nuh, Maryam, Oli Imron, Kahf, Yusuf, Hud, G‘afur kabi suralar tarkibida qissa so‘zi qo‘llanilganligi keltirilgan. Nuh, Muso, Yusuf (S.A.V) haqidagi qissalarning mazmun-mohiyati, adabiy-estetik ahamiyati yoritilgan.

Abstract

In the article, the origin of the short story genre is explained in connection with the holy verses of the Qur‘an. It is mentioned that the word story is used in the chapters of the Holy Book such as A‘raf, Baqara, Naml, Nisa, Nuh, Maryam, Oli Imran, Kahf, Yusuf, Hud, Ghafur. The essence, literary and aesthetic significance of the stories about Noah, Moses, Yusuf (S.A.V) are highlighted.

Абстрактный

В статье объясняется зарождение жанра рассказа в связи со священными аятами Корана. Упоминается, что слово история используется в таких главах Священной Книги, как Араф, Бакара, Намл, Ниса, Нух, Марьям, Али Имран, Кахф, Юсуф, Худ, Гафур. Выделены сущность, литературное и эстетическое значение рассказов о Ное, Моисее, Юсуфе (С.А.В.).

Kalit so‘zlar: qissa, genezis, Qur‘oni karim, Odam Ato, Muhammad payg‘ambar, A‘raf, Baqara, Naml, Niso, Nuh, Maryam, Oli Imron, Kahf, Yusuf, Hud, G‘afur.

Key words: story, genesis, Holy Qur‘an, Adam, Prophet Muhammad, A‘raf, Baqara, Naml, Nisa, Nuh, Maryam, Ali Imran, Kahf, Yusuf, Hud, Ghafur.

Ключевые слова: история, бытие, Священный Коран, Адам, Пророк Мухаммад, Араф, Бакара, Намл, Ниса, Нух, Марьям, Али Имран, Кахф, Юсуф, Худ, Гафур.

Inson yaralibdiki, ezgulikka, go‘zallikka, yaxshilikka intilib yashaydi. O‘zining ezgu so‘zi, ezgu amallari orqali o‘zgalar qalbidan joy olishga intiladi. Bu borada esa bizga badiiy adabiyot yordam qo‘lini cho‘zadi. Adabiyot – hayot mehvari sifatida kishilarni ana shunday yaxshiliklar qilishga, ezgu amallarini ko‘paytirishga chorlab turadi. Bugun o‘zbek adabiyotidagi so‘z erkinligi, ijodiy hurfikrlilik turfa yo‘nalishdagi so‘z san‘ati namunalarining yaratilishiga zamin yaratmoqda.

So‘z san‘atkorlari – yozuvchi va shoirlar qaysi mavzuda, qaysi yo‘nalishda asar yaratmasin, albatta, nigohini insoniyatning umumbashariy muammolariga, hayot mohiyatini anglashga, go‘zalliklarni his etishga, yashashga ishtiyoq va shukronalik hissini tuyishga qaratmoqda. Turfa qahramonlar, xilma-xil mavzular, rang-barang tasvirlar adabiyotimiz kutubxonasini boyitib bormoqda. Bu borada qissa janri hamda uning takomilini ham alohida e‘tirof etmoq zarur. Boisi bugun o‘zbek adabiyotida qissachilik maktabi shakllanib ulgurdi. Bu maktabga tamal toshini qo‘ygan, uni shakllantirgan, rivoji uchun hissa qo‘shgan so‘z san‘atkorlari o‘z asarlari bilan ibrat bo‘la olishadi.

Qissa terminining kelib chiqishi arab tilidan olingan bo‘lib, lug‘aviy ma‘nosi hikoya, sarguzasht ma‘nosini ifodalaydi. “Qissa, odatda, bir va bir necha shaxslar taqdiriga oid turli voqealarni o‘ziga asos qilib olishi bilan epik turning hikoya, hajmi va mazmunining nisbatan cheklanganligi bilan romandan farq qiladi. Qissalar hayot murakkabliklarini hikoyaga nisbatan kengroq, xarakter hamda voqelik ko‘lamini romanga qaraganda kamroq qamrab oladi. Qissada u yoki bu shaxs hayotining ma‘lum bir davri xronikal tarzda bayon qilinadi. Qissada lirizm hikoya va romandagidan kuchliroq bo‘lishi mumkin”. [4.]

Alloh taolo nozil qilgan Qur‘oni karim oyatlari va suralarini diqqat bilan o‘qir ekansiz, undagi yozilganlardan hayratga tushasiz. Bugun makon va zamonda ro‘y bergan yoki ro‘y berishi kutilayotgan voqealar, ishoralar muqaddas kitobda keltirilib, sirlilikka ishora qilgan. Qur‘oni karim oyatlarida keltirilgan insonning yaratilishi haqidagi kichik xabar qissaning ilk namunasi sifatida o‘rganiladi. Bejiz fikrlarimizni Alloh taoloning muqaddas kitobi Qur‘oni karim bilan boshlamadik. Sababi Yaratgan in‘om etgan buyuk ne‘matlardan biri Qur‘oni karim shu darajada mukammal va batafsil yoritilganki, unda faqatgina islom diniga oid emas, balki turli jabhalarga tegishli ma‘lumotlarni topishimiz mumkin. Jumladan, Qur‘oni karimning bir qancha suralarida qissa so‘zi Odam Ato yaratilishidan tortib to Muhammad payg‘ambar tavalludigacha hamda bashariyatning keyingi qismatigacha

(mahshargacha) bo‘lgan voqealar, taqdiralar kechmishlar, hodisalarda talqin etilgan. Muqaddas kitobning A’rof, Baqara, Naml, Niso, Nuh, Maryam, Oli Imron, Kahf, Yusuf, Hud, G’afur kabi suralar tarkibida qissa so‘zi qo‘llanilgan hamda ma’lum hodisot ilohiy mushtaraklik bilan hamohang tarzda keltirilgan. Masalan, birgina A’rof surasini olaylik. Bu surada birinchi marotaba payg‘ambarlar haqida keltirilgan. Unda Nuh (a.s), Hud (a.s), Solih (a.s), Lut (a.s), Shuayb (a.s) va Muso (a.s) haqidagi qissalar keltirilgan.

Nuh payg‘ambar – payg‘ambarlar oqsoqoli (shayx ul-anbiyo) haqidagi qissada uning o‘z elini har xil butlarga, sanamlarga, ilohlarga sig‘inishdan qaytarganligi aytiladi. Lekin odamlar unga nisbatan ishonchsizligi, qaysarligi va itoat etmaganliklaridan suv balosiga muhtalo bo‘lganliklari tafsiloti keltiriladi. Yana Qur’oni karimda keltirilishicha, Nuh payg‘ambar 950 yil umr ko‘radi, qavmini suv balosidan ham qutqaradi.

Qur’onda batafsil tafsir qilingan ilk qissa bu Muso alayhissalom haqidagi qissadir. Muso payg‘ambarning noyob qobiliyati, Fir’avn bilan bo‘lgan mojarolar, Allohning bani Isroil qavmiga ko‘rsatgan shafqati, Yaratganning ne’matlariga shukur qilmaganliklaridan so‘ng boshlariga tushgan musibat va ko‘rgiliklar hikoya qilinadi.

Nuh (a.s), Hud (a.s), Solih (a.s), Lut (a.s), Shuayb (a.s) va Muso (a.s) haqida keltirilgan qissalarda qavmlarning Allohdan mo‘jiza talab etganliklari, Yaratganning ilohiy qudratiga bo‘ysunmaganliklari, imon keltirishdan bo‘yin tovlaganliklari eslatib o‘tiladi. Qur’oni karimda nomlari zikr etilgan payg‘ambarlarning elchi ekanliklariga ishonmagan qavmlar suv, shamol, bo‘ron, toshqin, bulut, zilzila, yong‘in kabi tabiiy ofatlarga muhtalo bo‘lgan. Aslida, bularning barchasi zamirida insoniyatni ogohlikka, hidoyatga, ezgulikka chorlash mohiyati maqsad qilingan. Muqaddas dinimiz kitobi Qur’oni karim oyatlarida keltirilgan qissalarni o‘rganish asnosida bu haqiqatlar yanada teranlashadi, ravshanlashadi. Bu qavmlarning taqdiri bugun biz uchun ibrat bo‘la oladi. Hidoyatga, shafolatga, mehr-oqibatga, siylayi rahmga ishora qiladi. Kufr ishlardan, shaytoniy nafslarga hirs qo‘yishdan, dunyoning o‘tkinchi noz-ne’matlariga aldanib qolishdan voz kechishga undab turadi.

Qur’oni karimda keltirilgan eng go‘zal qissalardan biri Yusuf payg‘ambar haqidagi qissadir. Bu jumla Qur’oni karimda ham keltirilib o‘tilgan: “Biz Sizga



ushbu Qur'on (surasini) vahiy qilishimiz bilan birga go'zal qissani aytib berurmiz. Siz esa (ey, Muhammad) undan (vahiydan) oldin bexabarlardan edingiz". [1;235]

Alloh taoloning tengsiz qudratini anglashimiz, his qilishimiz uchun atrof-olamga teranroq boqishimiz kifoya qiladi. Kurrayi zaminning har bir ne'mati, yaratig'i Allohning bashariyatga bergan in'omidir. Yusuf qissasida Yaratganga bo'lgan majoziy ishq kuylanadi. Uning borligiga, ne'matlariga imon keltiriladi. Aytishlaricha, Yusuf payg'ambarga Alloh botiniy hamda zohiriy go'zallikni in'om etadi.

Yusuf payg'ambar haqidagi surada Yusuf ibn Ya'qubning hayoti zikrqilinadi, u zotning boshiga tushgan har xil balolar, aka-ukalari va begonlardan ko'rgan azoblari, kulfatlari, tuhmatga yo'liqqani, zindonband bo'lganligi va sabr-toqatli, Allohga imon keltirish natijasida zindondan qutulishi, Misr zaminining xazinasiga ega bo'lishi bayoni keltiriladi. Ushbu suraning ahamiyatli jihati shundaki, Alloh taolo qanday sinov yoki mashaqqat bersa, albatta, uning yechimini ham beradi, ya'ni o'ning o'n beshi qorong'u bo'lsa, o'n beshi yorug' degan g'oyani ilgari suradi. E'tiborlisi, Yusuf payg'ambar haqidagi sura Muhammad alayhis-salomning hayotlaridagi eng og'ir kunlarida, ya'ni yaqinlari Xadicha va Abu Tolibdan ajragan, mushriklar tomonidan ozor-aziyat chekib, qiynalib yurgan kezarida – nozil bo'lgan ekan. Go'yo Alloh taolo payg'ambarimizga va ummatlariga boshiga zulm-kulfat, zo'ravonliklar tushsa ham, Haq taolog'a itoat etishga, diyonatidan voz kechmaslikka, sabr-qanoatli bo'lishga, din yo'lida sobitqadam bo'lishga chorlaydi. Ana shundagina nurli va baxtli-saodatli kunlarga yetajaklariga ishora qiladi. Yusuf payg'ambar haqidagi qissa bejizga qissalarning eng go'zali deyilmaydi. Keyinchalik islom olamining qalam ahllari bu suradan ilhomlanib, ta'sirlanib, she'rlar, dostonlar, ash'orlar bitishdi. Bu suraga berilgan ta'riflar ham suraning o'zidek go'zaldir. Ana shunday asarlardan birida "Yusuf surasi jannat ahllari jannatda ham rohat bilan tilovat qilib yuradigan suralardandir", deb ta'rif berilgan bo'lsa, yana birida: "Har Qanday g'am-tashvishga botgan mahzun kishi Yusuf surasini eshitishi bilan orom-oso'yish topur", deyilgan.

Umuman olganda, qissa janrining tarixiy genezisi bevosita Qur'oni karimga borib taqaladi. Bu haqda adabiyotshunos A.Qozixojayev shunday deydi: "Qissaning bu oliy ko'rinishi barcha zamon qissalari uchun namuna vazifasini o'tashi mumkin. Inson badiiy tafakkuri ilohiy manbadan oziqlanadi. Insonga ato etilgan ilohiy ilhom uni ilohiy haqiqatlar sari yetaklaydi. Qissa janri spetsifikasiga



nazar tashlar ekanmiz, aynan ilohiy mohiyatga yaqinlashib kelgan qissalar janrning yorqin namunasi sifatida ko‘zga tashlanishini kuzatamiz. Qissaning bu oliy ko‘rinishi barcha zamon qissalari uchun namuna vazifasini o‘tashi mumkin. Inson badiiy tafakkuri ilohiy manbadan oziqlanadi. Agar ilohiy manbadan uzilsa, u tubanlashib, eng quyi qatlamlarda ish olib borishga majbur, nafsoniy sifatlarni oqlash bilan ovora bo‘ladi. Insonga ato etilgan ilohiy ilhom uni ilohiy haqiqatlar sari yetaklaydi. Ilohiy haqiqatlar sari yetaklamaydigan ijod, qanday janrda bo‘lishidan qat’i nazar, e’tibordan tushib qolishga, unutilishga mahkum”. [2; 206-207]

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri. Sano standart. 2019.
2. Qozixo‘jayev A. Qissa janri xususida. XX asr o‘zbek adabiyoti masalalari (ilmiy maqolalar to‘plami). T.: “Fan” nashriyoti. 2012.
3. Bahodir Karim. Ruhiyat alifbosi. Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2018
4. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qissa>

Research Science and Innovation House

**BO‘LAJAK MUHANDISLARDA ISHLAB CHIQRISH-
TEKNOLOGIK KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI**

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Sirtqi bo‘lim

“Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta’lim”

kafedrası o‘qituvchisi

Qodirov Mansur Erkinovich

Annotatsiya: Maqolada muallif oliy ta’lim muassasalarida bo‘lajak muhandislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanish usullarini o‘rganish, xususan, bo‘lajak muhandislar uchun kasbiy ahamiyatga ega fikrlash tarzini rivojlantirish imkoniyatlari tobora dolzarb bo‘lganligi sababli o‘rganib tahlil qilingan ma’lumotlarni keltirgan.

Tayanch so‘zlar: kasbiy, muhandis, faoliyat, texnik, tafakkur, intellekt

Аннотация: В статье представлены данные, проанализированные автором в процессе подготовки будущих инженеров к профессиональной деятельности в высших учебных заведениях в связи с возрастающей значимостью возможностей изучения методов личностного развития, в частности, развития профессионально важного мышления у будущих инженеров.

Ключевые слова: профессиональный, инженер, деятельность, технический, мышление, интеллект, качества

Abstract: The article presents the data analyzed by the author in the process of preparing future engineers for professional activity in higher educational institutions in connection with the increasing importance of the possibilities of studying the methods of personal development, in particular, the development of professionally important thinking in future engineers.

Key words: professional, engineer, technical activities, thinking, intelligence, quality.

Hozirgi kunda globallashuv sharoitida oliy ta’limning strategik maqsadlaridan biri raqobatbardosh inson kapitalini tayyorlash va butun umr davomida mutaxassis shaxsining kasbiy rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratish orqali xorijiy davlatlarida milliy jamiyatlar va iqtisodiyotlarning rivojlanishiga ko‘maklashishdan iborat. Shu munosabat bilan bo‘lajak muhandislarni texnik oliy o‘quv yurtlarida tayyorlash

alohida ahamiyatga ega, chunki turli jarayonlarni avtomatlashtirish uchun mahsulot va dasturiy ta'minotni loyihalash va joriy etish ushbu mutaxassislik bo'yicha mutaxassislarga bog'liq bo'lib, u yuqori qo'shimcha qiymat va iqtisodiyot rivojiga ta'sir ko'rsatadi. So'nggi yillarda ta'limda kompetensiya «oliy o'ringa chiqdi». Barchamiz ma'lumki texnologik o'zgarishlar, globallashtirish, o'sib borayotgan rivojlangan jamiyatni guvohi bo'lamiz. Bunday sharoitda ijtimoiy farovonlik va siyosiy barqarorlikni saqlash, yuqori samaradorlik va raqobatbardosh kadrlarni ta'minlashda, shubhasiz, ta'limning o'rni katta. Shunday ekan kompetensiya va kompetensiya ta'limning yangi birligi sifatida, ta'lim natijalariga e'tibor qaratilib, yodlangan bilimlar, qobiliyatlar, ko'nikmalar va turli muammoli vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati deb hisoblanmaydi. Ushbu maqolada muhandisning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish muammosiga yechim izlangan. Jumladan, ta'lim sohasidagi kasbiy kompetensiyalarga tadqiqot kompetensiyasi, ijtimoiy va shaxsiy kompetensiyani, kommunikativ kompetensiyani, hamkorlik kompetensiyasini, boshqaruv kompetensiyasini, shaxsiyat va moslashuvchan tajribalarni rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Muhandislar tayyorlash sifatini oshirish muammosi bo'yicha ilmiy nashrlarni umumlashtirish natijalari shuni ta'kidlashga imkon beradiki, jamiyat rivojlanishining zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlari bo'lajak muhandislarning o'sib borayotgan hajmlarni oqilona tushunish uchun zarur bo'lgan tizimli, fanlararo bilimlariga aniq talablarni qo'ydi. yangi, nostandart ishlab chiqarish muammolarini hal qilish uchun ilmiy va texnik hamda texnologik ma'lumotlar zarur bo'ladi. Ushbu maqsadni hal qilish bir qator ta'lim vazifalarini amalga oshirishni nazarda tutadi, xususan: bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash uchun shart-sharoitlarni ta'minlash, bilimlarni amaliyotga tatbiq etish imkoniyatlarini kengaytirish; shaxsning individual rivojlanish darajasini hisobga olgan holda o'rganish uchun intensiv faollikni faollashtirish va uni o'z-o'zini tarbiyalashga undash. Oliy o'quv yurtlarida bo'lajak muhandislarni tayyorlash tizimini takomillashtirish zarur, bu esa oliy o'quv yurtlarida o'qitishning yangi metodlar, texnologiyalari, usullari, shakllari, yondashuvlari va usullarini izlashni belgilaydi. Bo'lajak muhandislarni tayyorlashning nazariy va uslubiy muammolari orasida zamonaviy va masofaviy o'qitish uslublari va vositalarini ishlab chiqish va o'quv jarayoniga tatbiq etishning yangi kreativ yondashuvlarini qo'llashga, kompyuter texnikasini rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy muammolar majmuasini hal qilishga alohida e'tibor qaratilgan:

axborot-kommunikatsiya vositalari va o'qitish tizimlari, ularning pedagogik imkoniyatlarini, ta'lim jarayonida kompleks foydalanish usullarini aniqlash hamda bo'lajak muhandislik mutaxassislarining ta'lim sifatini oshirishning ilmiy muammosini hal qilish «muhandis» tushunchalarining mohiyati va mazmunini oydinlashtirishni o'z ichiga oladi. «Ta'lim muhiti», «kasbiy faoliyat», xususan, universitet muhiti o'quv jarayonining omillaridan biri bo'lgan, qisqa vaqt ichida intensiv shakllantirish muammolarini hal etish imkonini beruvchi innovatsion muhitni yaratish masalasini ko'rib chiqish va kasbiy rivojlanishni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan qobiliyat, kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun bakalavr nazariy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi kerak. Talabaning umumlashtirilgan kasbiy fikrlash qobiliyatida namoyon bo'ladigan nazariy tayyorgarligi mazmuni talabaning tahliliy, prognostik va reflektiv qobiliyatlarga ega bo'lishini nazarda tutadi. Amaliy tayyorgarlik mazmuni tashqi ko'nikmalarda, ya'ni kuzatish mumkin bo'lgan harakatlarda ifodalanadi. Bularga tashkilotchilik, muloqot va amaliy ko'nikmalar kiradi. Yuqorida ko'rsatilgan malakalar bakalavr kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun ega bo'lishi kerak bo'lgan va fan mazmuniga kiritilishi kerak bo'lgan ma'lum bilimlar tizimiga asoslanadi. Talaba o'quv jarayoni, keyingi kasbiy faoliyat va uni takomillashtirishning asosi bo'ladigan bilimlar tizimini olishi kerak. Ko'nikma va bilimlar faoliyat samaradorligiga hissa qo'shadigan muayyan ko'nikmalar bilan ta'minlanishi kerak.

O'quv-uslubiy hujjatlarda aks ettirilgan ta'lim mazmuni, iloji boricha, pedagogik jarayonning haqiqiy shartlarini e'tibordan chetda qoldirmasligi kerak. Dasturlar va o'quv-uslubiy materiallarni ishlab chiqishda ushbu shart-sharoitlar, ularning qonuniyatlari va tamoyillari hisobga olinmasa, o'quv jarayoni talabalar uchun juda murakkab, ajratilgan o'quv vaqtiga mos kelmaydigan bo'lib qolishi mumkin. Vazifalarning mantiqiy qo'yilishi pedagogik jarayonning mantig'iga, uning imkoniyatlari va shartlariga mos kelmaydi. Pedagogik jarayon o'quv predmetining mantiqiyiligiga, mashg'ulot olib boriladigan yaratilgan tashkiliy-pedagogik sharoitlarga bog'liq. Guruh tarkibi, guruhdagi ruhiy va iqlim, texnik bazaning jihozlanishi shular jumlasidandir. Bu barcha shart va omillarni hisobga olgan holda, o'qituvchi mavzu mantig'iga ma'lum o'zgarishlar kiritishi kerak.

Demak, pedagogik jarayon yaxlit pedagogik hodisa bo'lib, uning tarkibiy qismlari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim jarayonining maqsadlari ta'lim mazmunida moddiylashtiriladi, bu esa kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish



jarayonini modellashtirish va amalga oshirish uchun zarur tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni yaratadi.

Muhandislarning kasbiy kompetensislarini rivojlantirish ta'limni modernizatsiya qilish va rivojlantirishda alohida ahamiyatga ega. Hozirgi vaqtda zamonaviy ta'limning asosiy vazifalaridan biri ta'limning yangi, zamonaviy sifatiga erishishdir. Bunda ta'limning yangi sifati deganda, mantiqiy fikrlash, dalillar va dalillarni to'plash, tahlil qilish va xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak bo'lgan muhandislik talabasi shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilganlik malakali mutaxassis bo'lishi, zarur bilim, ko'nikma tushuniladi.

Muhandis o'z oldiga maqsad qo'yishi va ularga erishishi, o'z ishini rejalashtirishi, muammoni hal qilish strategiyasini ishlab chiqish va uni amalga oshirishni maqsad qila olishi, o'z kasbiy saviyasini muntazam oshirib borishi, o'z sohasida fan va texnika yutuqlarini kuzatib borishi kerak. Buning uchun zarur bo'lgan fazilatlar nafaqat universitetda o'qitish va ta'lim natijasi, balki kasbiy faoliyat jarayonida muammolarni hal qilish uchun to'plangan amaliy ko'nikmalarning natijasidir. Bundan kelib chiqib, oliy o'quv yurtlari maqsadli korxonalar va tashkilotlar bilan birgalikda bo'lajak muhandislar o'rtasida umuminsoniy bilim, ko'nikma, malaka, shuningdek mustaqil faoliyat tajribasining yangi tizimini shakllantirishi mumkin. Axborot texnologiyalari muhandisining kasbiy mahorati bugungi kunda samarali va zamonaviy dasturiy ta'minotga erishish, ilmiy va ishlab chiqarish muammolarini hal qilish sharti sifatida qaralmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish dasturiy ta'minot darajasini sifat jihatidan yaxshilash uchun muammolarni hal qilishning yangi modellarini yaratadi. Ishga kirishda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun axborot texnologiyalari muhandis talabasi uchun zarur bo'lgan asosiy vakolatlar guruhlarini ko'rib chiqaylik.

- Ta'lim bo'yicha kasbiy kompetensiyalar, ma'lum bir aniq lavozimlarda ishlaydigan talaba ega bo'lishi kerak. Kasbiy kompetensiyalarni tushunishga barcha yondashuvlarni sarhisob qilsak, biz kompetensiya tushunchasini talqin qilishning ikkita asosiy yo'nalishini ajratib ko'rsatishimiz mumkin: insonning ishda natijalarga erishishga imkon beradigan standartlar va shaxsiy xususiyatlarga muvofiq harakat qilish qobiliyati. Ta'lim mazmuni tarbiya va ta'lim maqsadlariga javob berishi, o'zlashtirilishi kerak bo'lgan haqiqiy mehnat jarayonlarini aks ettirishi kerak. Kasbiy faoliyatga tayyorgarlik mazmuni ko'plab fanlar majmuasidan qurilgan, shuning uchun kasbiy ta'lim sifati ta'lim dasturini amalga oshirish jarayonida talabaning



kelajakdagi kasbiy faoliyatining ajralmas sohasi bilan tanishish darajasi bilan belgilanadi.

Kasbiy (ishlab chiqarish) faoliyati formulalar, chizmalar va diagrammalar tilini bilish, ilmiy va badiiy fikrlash uslublarini uyg'unlashtirish orqali shakllanadigan dizayn ob'ektiga yaxlit ko'rinishni talab qiladi. Shuning uchun o'quv rejasi darajasidagi har bir fanning o'ziga xos ahamiyati bor. Mashinasozlik korxonasi zamonaviy mutaxassisi nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lishi, balki zamonaviy materiallarni samarali qo'llash va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak. O'quv jarayonini tahlil qilganda shuni ta'kidlash mumkinki, kasbiy ta'limning maqsadlari va mazmunini aniqlashga yondashuvlar ko'pincha tor bo'lib, individual, juda muhim, ammo mahalliy elementlarga e'tibor qaratiladi. Hozirgi vaqtda mutaxassislarining kasbiy tayyorgarligiga qo'yiladigan talablar ortib bormoqda, chunki kasbiy bilimlar inson faoliyatining turli sohalariga kirib boradi, kasbiy standartlarda aks ettirilgan kasbiy mehnat funksiyalarini o'zgartirish jarayonlari tezlashadi, kasbiy faoliyatning yangi turlari paydo bo'ladi, ular mazmuni va texnologik jihatlariga sifat jihatidan yangicha yondashuvni talab qiladi. Kasbiy tayyorgarlik yaxlitlik, izchillik, o'zgarmaslik bilan tavsiflanadi. Uning natijasi kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishdir.

Pedagogik loyihalash bosqichlarini, olingan ma'lumotlarni, malaka darajasi, lavozimlari, ularga mos keladigan kasbiy faoliyatning umumlashtirilgan mehnat funksiyalari va mashinasozlik korxonasi mutaxassisining vakolatlari to'g'risidagi g'oyalarni hisobga olgan holda biz tarkibiy tuzilmani ishlab chiqdik va kasbiy davr fanlarini o'rganishda "Texnologik ta'lim" yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish jarayonining funktsional modelini ishlab chiqdik

Yaratilgan modelning o'ziga xos xususiyatlari uning bloklarining izchilligi va integratsiyasi bo'lib, u o'quv jarayonida talabalar uchun mashinasozlik profili bakalavrlarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun individual traektoriyani yaratish orqali o'quv jarayonini mo'ljallangan natijaga erishishga yo'naltirishni ta'minlaydi.

Muhandislik profili bakalavri murojaat qilishi mumkin bo'lgan lavozimlarga mos keladigan malaka darajasini hisobga olgan holda mehnat funksiyalarini bajarishda ushbu model bakalavrlar o'rtasida kasbiy kompetensiyalarning tarkibiy qismlarini, ya'ni yuqori darajadagi ilmiy, texnik va ishlab chiqarish bilimlari, kasbiy faoliyatda bilimlardan foydalanish qobiliyati bilan ajralib turadigan kasbiy

ahamiyatga ega shaxsiy xususiyatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish uchun mo'ljallangan

Zamonaviy sharoitda bilim va ko'nikmalar ta'lim natijasining birligi sifatida jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur, ammo etarli emas. Texnologik jarayonlarda bo'lajak muhandisining kasbiy mahorati bugungi kunda samarali va zamonaviy natijaga erishish, ilmiy va ishlab chiqarish muammolarini hal qilish sharti sifatida qaralmoqda. Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish hamda bo'lajak muhandislarni raqobatbardosh va sifatli kadrlarni tayyorlash bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining —Ta'lim to'g'risidagi qonuni. 2020 yil 23 sentyabr. Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947-sonli —O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi
3. Qodirov M. E. Texnologiya darslarining samaradorligini oshirishda didaktik vositalarning o'rnini //XXI asr ta'lim tizimida innovatsion va integratsion yondashuvla// Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. 2022-yil. 600-612 bet.
Elizabet Vindl va Yoxannes Dammerer pedagoglarning kasbiy moslashuvida yosh mutaxassislariga ustozlik qilishning rolini ta’kidlaydilar. Bolgariyada bo’lajak pedagoglarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish Sofiya universiteti tadqiqotchisi Vera Gyurova asarlarida qayd etilgan.

Rimdagi Italiya Ta’limni baholash milliy instituti tadqiqotchilari Mikela Freddano va Valeriya Pandolfini kasbiy kompetensiyaning asosiy komponenti mavjud ta’lim tizimi mutaxassislarining malakasini oshirish deb hisoblaydi.

Metodlar / Методы / Methods

tarixiy, retrospektiv va nazariy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, olingan ma’lumotlarni umumlashtirish va sharhlash, kuzatish, suhbat, anketa, kontent tahlil, kvalimetriya va ekspert baholash.

Tadqiqotning metodologik asoslari / Методологическая база исследования / Methodological base of the research

Kasbiy-pedagogik kompetensiyaning turli xil turlari mavjud: psixologik-pedagogik, ijtimoiy-madaniy, uslubiy, predmetli, uslubiy va boshqalar.

Kasbiy pedagogik kompetensiya turlari orasida uslubiy kompetensiya alohida o’rin tutadi, chunki pedagogning kasbiy mahorat darajasi unga bog’liq.

Mahalliy pedagogik bilimlarda pedagoglar 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab metodik kompetensiya haqida gapira boshladilar. Bu vaqtda V.I.Zemtsova, N.L.Stefanova, V.A.Adolf, T.S.Polyakovalarning asarlari paydo bo’ldi.

Pedagogika sohasidagi mavjud ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish natijalari shundan dalolat beradi, bunda pedagogning uslubiy kompetensiyasi quyidagicha talqin qilinadi:

- pedagog shaxsining pedagoglik kasbiga bo’lgan qadriyat munosabatlari, shuningdek, kasbiy bilim va ko’nikmalar yig’indisini aks ettiruvchi integral, kasbiy ahamiyatli xususiyati (T.V. Syasina);
- o’quv-uslubiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo’lgan uslubiy bilimlar va uslubiy ko’nikmalar, shuningdek, kasbiy ahamiyatga ega bo’lgan shaxs sifatleri majmui (T.S.Mamontova);
- pedagogning turli xil o’qitish usullari va didaktik metodlar, o’qitish texnikasi, o’quv jarayonida bilim va ko’nikmalarni egallashning psixologik mexanizmlari haqidagi bilimlarini o’zlashtirish ko’nikmalari yig’indisi (N.V.Kuzmina);
- shaxsning ajralmas mulki, muayyan sohada tashqi dunyo bilan samarali o’zaro ta’sir qilish imkoniyatini ta’minlovchi murakkab shaxsiy resurs (R.P.Milrud);



• pedagogning uslubiy, uslubiy bilimlari, malakalari, tajribasi, motivatsiyasi, qobiliyatlari va uslubiy-pedagogik faoliyatda ijodiy o‘zini-o‘zi ro‘yobga chiqarishga tayyorligi tizimini aks ettiruvchi ishbilarmonlik, shaxsiy va axloqiy fazilatlarining ajralmas tavsifi (T.A. Zagrivnya);

• I.V.Grebnevning fikriga ko‘ra, pedagogning kasbiy kompetensiyasining muhim tarkibiy qismlaridan biridir.

F.F.Nagibin va N.V.Ippolitovlarning fikricha, pedagogning uslubiy kompetensiyasi o‘quv-uslubiy faoliyatni sifatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan psixologik va pedagogik, ilmiy va uslubiy bilim, ko‘nikma, malakalari, mahorati, motivatsiyasi va shaxsiy fazilatlarini yig‘indisiga asoslanadi.

Tadqiqot natijalari / Результаты исследования / Research results

Biz "pedagogning uslubiy kompetensiyasi" tushunchasini tahlil qilish jarayonida ushbu kontseptsiyani turli olimlarning pozitsiyalaridan kelib chiqib o‘rganishga harakat qildik. "Pedagogning uslubiy kompetensiyasi"ni tadqiq qilgan olimlarning mazkur tushunchaga ta‘riflari bir-biriga zid bo‘lmasdan, balki aksincha bir-birini to‘ldirishiga amin bo‘ldik. Tahlil jarayonida biz umumiy qabul qilingan yagona ta‘rifning yo‘qligining guvohi bo‘ldik.

Xulosa o‘rnida ta‘kidlash joizki, uslubiy kompetensiya pedagogning kasbiy kompetensiyasining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida, uning mazmunidagi o‘zgarishlar tufayli, uning o‘ziga xos xususiyatlarini qayta ko‘rib chiqishni taqozo etadi.

"Pedagogning uslubiy kompetensiyasi"ning mazmuni, tuzilishi va mezonlarini tahlil qilib, biz ushbu tushunchaning mazmunini aniqlash bilan birga uni kasbiy kompetensiyaning tarkibiy, ajralmas qismi sifatida professional shaxsni anglaymiz. Demak, "pedagogning uslubiy kompetensiyasi" uning pedagogik faoliyat jarayonida egallagan uslubiy bilim va ko‘nikmalarni tizimli egallash darajasini aks ettiruvchi mahorati, o‘quv-uslubiy muammolarni samarali va sifatli hal etishni ta‘minlashga qaratilgan shaxsiy sifatlari, kasbiy imkoniyat va ehtiyojlari bilan belgilanadi.

Pedagogning kasbiy faoliyatini tahlil qilish jarayonida biz N.G.Masyukova tomonidan taklif qilingan pedagogning uslubiy kompetensiyasining tuzilishi xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi: mavzu-faoliyat, kognitiv, analitik-refleksiv, shaxsiy va axborot texnologiyalari kabi tarkibiy qismlarni aniqladik.

Pedagogning pedagogik faoliyati an’anaviy ravishda ilmiy-uslubiy va



psixologik-pedagogik kabi faoliyat turlari bilan bog'liq. Jamiyat rivojlanishining axborot bosqichi uslubiy kompetensiya tarkibida axborot texnologiyalarini ko'rib chiqish talab etadi.

O'zbekiston Respublikasining me'yoriy hujjatlarini tahlil qilish asosida uslubiy kompetensiyaning axborot texnologiyalari tarkibiy qismining ahamiyatini asoslash:

1) birinchidan, “Ta’lim” milliy loyihasida ta’lim ishtirokchilari uchun xavfsiz bo‘lgan hamda ta’limning ochiqligi va uning yuqori sifatini ta’minlaydigan zamonaviy raqamli ta’lim muhitini yaratish vazifasi qo‘yilgan;

2) ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi 637-O‘RQ-sonli "Ta’lim to‘g‘risida"gi Qonuni ta’lim muassasalari axborot xavfsizligi va ta’lim ishtirokchilarining shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishni ta’minlashi kerakligini hisobga olgan holda elektron shaklda va masofaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanib asosiy umumiy ta’lim dasturlarini amalga oshirishga qaratilgan ta’limni rivojlantirish bo‘yicha muhim ko‘rsatmalarni belgilab berdi;

3) uchinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yilning 4-fevral kuni e’lon qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoniga² ko‘ra “Axborot xavfsizligini ta’minlash va kommunikatsiya tarmoqlari, dasturiy mahsulotlar, axborot tizimlari va resurslarini himoya qilishning zamonaviy texnologiyalarini tatbiq etish chora-tadbirlarini amalga oshirish, axborot resurslarini himoya qilish bo‘yicha texnik infra- tuzilmani yanada rivojlantirish” ustuvor vazifalardan biri sifatida qayd etilgan.

Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun’iy xarakterdagi tasodifiyyoki qasddan qilingan ta’sirlardan axborot va uni qo‘llab-quvvatlab turuvchi infratuzilmaning himoyalanganligi tushuniladi. Bunday ta’sirlar axborot munosabatlariga, jumladan, axborot egalariga, axborotdan foydalanuvchilarga va axborotni muhofaza qilishni ta’minlovchi infratuzilmaga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasining 2002-yil 12-dekabrdagi «Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida»gi Qonunida axborot xavfsizligi axborot borasidagi xavfsizlik deb belgilangan va u axborot sohasida shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarining himoyalanganlik holatini anglatadi.

4) to‘rtinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi kelgusi o‘n yilliklar uchun zamonaviy axborot jamiyatini



shakllantirish sharoitida shaxsni shakllantirish uchun asos yaratadigan boshlang'ich, umumiy o'rta va oliy ta'limning yangi davlat ta'lim standartlarini tasdiqladi. O'zbekiston Respublikasi davlat ta'lim standartlari tegishli AKT vositalari va ulardan foydalanadigan va qo'llab-quvvatlovchi “xodimlarning etarli malaka darajasi to'g'risida”, “Axborot texnologiyalari va axborotni muhofaza qilish”,

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 8-sentabrdagi O'RQ-444-sonli “[Bolalarni ularning sog'lig'iga zarar yetkazuvchi axborotdan himoya qilish to'g'risida](#)”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-iyuldagi O'RQ-547-son “[Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida](#)”gi Qonunlariga muvofiq ta'lim muassasalari darajasida elektron axborot va ta'lim muhitining ishlashini ta'minlashi kerakligini ta'kidlaydi..

Shunday qilib, yuqorida muhokama qilingan me'yoriy hujjatlarni tahlil qilish asosida biz pedagogning uslubiy kompetensiyasi axborot texnologiyalari borasidagi savodxonligi, masofaviy ta'lim va axborot xavfsizligi sohasidagi bilimlarga asoslanadi, degan xulosaga keldik.

Xulosa /и Заключение / Conclusion

Umuman olganda, pedagogning uslubiy kompetensiyasi sohasidagi tadqiqotlar tahlili ushbu muammoning rivojlanish evolyutsiyasini taqdim etishga imkon berdi.

Shunday qilib, xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarda "uslubiy kompetensiya" tushunchasi 1990-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab tadqiq qilingan bo'lib, bu pedagogning nafaqat o'z fanlarini o'qitish metodikasi sohasida, balki pedagogik faoliyatida zarur bo'ladigan fan-texnika yutuqlari borasidagi bilimlarni amaliyotda qo'llay olishligini ham anglatadi.

Umuman olganda, uslubiy kontseptsiya mehnat psixologiyasi yo'nalishidagi tadqiqotlarning "kasbiy kompetensiya" va "kasbiy-pedagogik kompetensiya" atamallari bilan yonma-yon rivojlanadi.

Demak, pedagogning uslubiy kontseptsiyasi nafaqat kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun, balki kengroq ma'noda ko'p sonli vaziyatlarni engish va guruhda ishlashga imkon beradigan kompetensiyadir. Pedagoglarda uslubiy kontseptsiyaning mavjudligi ularning o'z faoliyatini moslashuvchan va reproduktivdan samarali va ijodiy darajaga ko'tarishga xizmat qiladi.



Adabiyotlar:

1. Salaeva M.S. Formation of virtual academic mobility of future teachers in the context of education information // “Образование и наука в XXI веке” международный научно-образовательный электронный журнал. ISSN: 2658-7998. Выпуск №15 (том 3) (июнь, 2021). - С.480-484.
2. Salaeva M.S., Djumabayeva M. Formation of virtual academic mobility of future teachers in the context of education information // International Multidisciplinary Scientific Journal (IMSJ) ISSN: 2091-573X. With Impact Factor: 3.2. Volume 1. Issue 1, June 2021.- P. 36-37. Google scholarship <https://www.sciencepublish.org/>
3. Salaeva M.S., Djumabayeva M. Psixologlar faoliyatida bolalar salomatligini saqlovchi va shaxsini rivojlantiruvchi raqamli manbalar kolleksiyalarini ishlab chiqish zaruriyati / "Maktabgacha ta'limda davlat va nodavlat sektorini rivojlantirish: yangi shakllar va ta'lim mazmuni" mavzusidagi Xalqaro onlayn konferentsiya / Низомий номидаги ТДПУ. - Тошкент. 2020 йил 13 май. – Электрон тўплам. - Б.303-305.
4. Салаева М.С., Джумабаева М. Таълимни модернизациялаш шароитида педагог шахсининг ижтимоийлашуви ва профессионаллашуви // UzACADEMIA Ilmiy-uslubiy jurnali ISSN (E) – 2181 - 1334 Barcha sohalar bo'yicha electron jurnal. VOL 2, ISSUE 9 (19), July 2021 Part - 1. - С.54-60. www.academscience.uz
5. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // Scientific progress. VOLUME 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>
6. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali. ISSN - 2181-2608. With Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59–62. Retrieved from <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>
7. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // Eurasian journal of social sciences, Philosophy and culture. Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 |

SJIF = 6.051 www.in-academy.uz Volume 2 Issue 4, April 2022

2181-2888.

Pages

ISSN

136-139.

<https://zenodo.org/record/6511330#.Y1G0jnZByUk><https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330>

8. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // Scientific progress. VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 384-390.

<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>

9. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / “Xorijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 276-281.

10. Salaeva M.S., G‘ulamova S.R. Ta’limni axborotlashtirish sharoitida bo‘lajak pedagoglarning virtual akademik mobilligini shakllantirish / “Xorijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 209-213.

11. Salaeva M.S., Suyarova D.X. Pedagogning kasbiy faoliyatida pedagogik aks ettirishning o‘ziga xos jihatlari / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары – Шымкент: «Қызмет» баспаханасы, 2022. - B.449-459. ISBN 978-601-06-8694-6

12. Salaeva M.S., Yaqubova L.I. Pedagogning kasbiy taraqqiyotiga ta’sir qiluvchi omillar / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары – Шымкент: «Қызмет» баспаханасы, 2022.- B.459-466. ISBN 978-601-06-8694-6

Research Science and
Innovation House



BRIOFITLARDAN ATROF-MUHITNI BIOMONITORING QILISHDA FOYDALANISH

Pardaboyev Soxib Begali o‘g‘li

JDPU Sirtqi bo‘lim, Tabiiy va aniq fanlarda
masofaviy ta‘lim kafedrasasi o‘qituvchisi.

Tursunqulov G‘iyos Shermat o‘g‘li

JDPU Sirtqi bo‘lim, “Tabiiy va aniq fanlarda
masofaviy ta‘lim kafedrasasi” biologiya yo‘nalishi talabasi.

e-mail: soxibpardaboyev1@mail.com

Abstract.

The level of air and soil pollution with heavy metals and radionuclides has increased significantly over the past decades. Since radionuclides can be transported over long distances from the source along with air masses and accumulate in the environment during fallout, their negative consequences may not appear immediately, but over time. The article presents the results of the study of scientific sources and research results. For this, the use of bryophytes as a biological object and monitoring system is suitable.

Keywords.

Bryophyte, monitoring, ^{232}Th , ^{226}Ra , ^{40}K , ^{137}Cs , soil, atmosphere, *Grimmia laevigata*, *Ptychostomum schleicheri*, acid soil, radionuclides.

Аннотация.

Уровень загрязнения атмосферы и почвы тяжелыми металлами и радионуклидами за последние десятилетия значительно возрос. Поскольку радионуклиды могут переноситься на большие расстояния от источника вместе с воздушными массами и накапливаться в окружающей среде при выпадении, их негативные последствия могут проявляться не сразу, а со временем. В статье представлены результаты изучения научных источников и результаты исследований. Для этого подходит использование бриофитов в качестве биологического объекта и системы мониторинга.

Ключевые слова.

Мохообразный, мониторинг, 232Th, 226Ra, 40K, 137Cs, почва, атмосфера, *Grimmia laevigata*, *Ptychostomum schleicheri*, кислая почва, радионуклиды.

Hozirgi kunda jamiyat jadal rivojlanish bosqichida ekan, insoniyatning tabiiy muhitga tasiri bevosita va bilvosta yoʻnalishda amalaga oshadi. Maʼlumki, bugungi kunda insoniyat faoliyati texnik va texnikaviy vositalarga bogʻliq boʻlib, shu bilan birga tabiiy muhitga taʼsiri koʻrinmas, mahalliy, mintaqaviy va global muommolarga sababchi boʻlmoqda. Koʻpchilikka maʼlumki, barcha mintaqalarda kasalliklar sonining ortishi, iqlim oʻzgarishlari, bioxilma xillikning yoʻqolishi, suv, havo, tuproq tarkibining yomonlashuvi asosiy ekologik koʻrsatgichlar boʻlib birorta davlatni chetlab oʻtmagan.

Bundan kelib chiqqan holda ekologik oʻzgarishlarni oldini olish, yashash muhit tarkibini tizimli baholash muhim va dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bunday vazifalarni bajarish uchun hozirgi ilm-fan shuni koʻrsatmoqdaki, bugungi kunda hajm jihatidan kichik boʻlsada biologik indikator sifatida briofitlarga tenglasha oladigan organizm uchramasligi maʼlum. Chunki bu organizmlar barcha qitʼalarda uchrab, har qanday ekologik sharoit va substartda oʻsish qobiliyatiga ega, tashqi muhit oʻzgaruvchanligi taʼsirchanligi, har qanday muhit holatini baholashga yordam berishi bilan boshqa organizmlardan farqlanadi.

Yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun atrof muhit holatini baholash suv va tuproq hamda atmosfera havosi tarkibini aniqlashda briofit yaʼni yoʻsinlardan briometr koʻrsatgichlaridan foydalanish mumkin.

Rivojlangan davlatlar bugungi kunda suv, havo, va tuproq tarkibini doimiy monitoring qilib bormoqda, buning natijasida ekotizimni yomonlashishiga sabab boʻluvchi mexanizmlar oʻrniga tabiiy ekologik vositlar bilan ishlash ustida izlanishmoqda. Maʼlumki briofitlarda ildiz tizimi rivojlanmaganligi sababli har qanday substrat tabiatida oʻsa oladi, hamda keng adabtatsiya xususiyatiga ega boʻlaganligi uchun har xil ekologik sharoitlarda yashay oladi. Masalan: *Funaria hygrometrica*ning filamentli protonemal hujayralari ikki valentli qoʻrgʻoshin (Pb) ni oʻz ichiga olgan eritmalar taʼsirida tanasining quruq ogʻirligining 74% gacha, (Pb) toʻplashi mumkin. “Briofitlarni suv va atrof-muhit bilan munosabatlari bir parcha qogʻozga oʻxshaydi”, “Tosh ustiga bir varaq qogʻoz qoʻysangiz, yomgʻir yogʻsa,



ho‘l bo‘lib, quyosh chiqishi bilanoq quriydi. Bu esa briofitlarning biologiyasi” - deydi Berkli Kaliforniya universiteti botanik olimi Brent Mishler. [5; 140-b., 3; 45-123-b., 4; 283-b., 6; 35-41-b., 7; 1-19-b.]

Tuproqdagi ^{226}Ra ning o‘rtacha konsentratsiyasi 26 Bk/kg, 2,0 Pb va 2,0 Rho-33 Bq/kg ga ko‘ra va bu izotoplarning 30% atmosferadan tushishi bilan tuproqqa kiradi. Oddiy tuproqlarda ^{226}Ra kam migratsiya qiladi. Tuproqning kislotaliligi oshishi uning migratsiyassini kuchaytiradi. Tuproqning filtrlash qobiliyati tufayli ^{226}Ra ning kirib borish chuqurligi cheklangan.

Kislotali tuproqlarda ^{226}Ra konsentratsiyasi muvozanat holatdagi ^{238}U konsentratsiyasidan oshadi. ^{226}Ra konsentratsiyasi namuna tarkibidagi Fe, Mn, Al minerallar, gidroksidlari va organik moddalar miqdoriga bog‘liq. Qurg‘oqchil iqlim zonasining qora tuprog‘ida (chernozem) ^{226}Ra asosan karbonatli va sulfatli bog‘lanishlarda to‘planadi va boshqa gidroksidli tuproq metallarining karbonatlari va sulfatlari bilan birga cho‘kadi.

O‘simliklar tomonidan ^{226}Ra to‘planish koeffitsiyenti birdan katta. Bu esa to‘siqqa uchramaydigan elementlarga ishora qiladi. Eng yuqori 40K nam iqlim zonasi o‘simliklarida kuzatiladi. Qurg‘oqchil hudud uchun 40K sezilarli darajada past bo‘ladi, chunki birinchi holatda o‘simliklarning ildiz ekssudati qattiq faza yoki almashinuv shakllari natijasida so‘rilgan ^{226}Ra ni osongina ajratib oladi. Ikkinchi holda, ^{226}Ra yomon eriydigan yoki Ca sulfatlari bilan bog‘lanadi, 40 sm qalinlikdagi qatlamdagi kvadrat kilometrli tuproqda ~ 1 g Ra mavjud. ^{228}Ra (mezotoriy) Th ning boshqa yemirilish mahsulotlariga qaraganda ancha zaharli. ^{228}Ra va ^{226}Ra ning biologik ta’siri bir xil, ammo ular tanada boshqacha harakat qiladigan turli xil mahsulotlarni beradi. ^{228}Ra ^{226}Ra dan 2 baravar zaharliroq: uning organizmdagi ruxsat etilgan maksimal miqdori 0,05 mkSi, havodagi maksimal ruxsat etilgan konsentratsiyasi esa $4 \cdot 12$ mkCi/ml; ^{226}Ra ning 1 mkCi 1 mg vaznga to‘g‘ri keladi, ^{228}Ra holatida esa 1 mkCi 0,0042 mkg vaznga to‘g‘ri keladi [2; 66-71-6., 8; 395-409-6., 9; 120-6.].

Prezidentimiz tomonidan 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” gi PF-60-soniga ko‘ra “Yashil iqtisodiyot” texnologiyalarini barcha sohalarga faol joriy etish orqali 2026-yilga qadar iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20% ga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20% ga qisqartirish choralari ko‘rilgan, o‘shbu farmon ijrosini amalyotga joriy qilish imkoniyatlaridan briofitlardan



istiqbolli foydalanish mo‘mkin.[9.] Tadqiqot metodologiyasi tekshirilgan briofitlarning gamma-spektrida ^{232}Th , ^{226}Ra , ^{40}K , ^{137}Cs , va ^7Be radionuklidlarining fotocho‘qqilari aniqlandi. Ularning gamma-aktivliklari OMACH majmuasidagi etalon ^{137}Cs , ^{40}K , ^{226}Ra va ^{212}Th radionuklidlarning spektrlari bilan solishtirish orqali hisoblandi [2; 66-71.].

Bizning tadqiqotimizdan maqsad atrof-muhit havosining tozaligini baholashda briofitlardan bioindikator sifatida foydalanish imkoniyatlarini o‘rganish hisoblanadi, bunda biz bioindikator bo‘lgan briofitlardan foydalandik.

Tabiatdagi tabiiy radionuklidlarning (TRN) asosiy hissasini U-Th tabiiy radioaktiv oilalarning α va β yemirilishi natijasida hosil bo‘luvchi qisqa yashovchi yadrolarning gamma nurlanishi hamda radioaktiv oilalarga kirmaydigan tabiiy radioaktiv izotop kaliy ^{40}K tashkil qiladi. Bundan tashqari og‘ir yadrolar bo‘linishida (yadroviy reaktorlardagi chiqindilar va turli xil yadroviy sinovlar) hosil bo‘ladigan texnogen radionuklid seziiy ^{137}Cs va kosmik va gollaktil nurlanishlardan hosil bo‘ladigan kosmogen radionuklid berilliy ^7Be o‘z hissasini qo‘shadi. Kosmogen radionuklidlar atmosferada paydo bo‘lib, keyin yer yuziga chang, qor, yomg‘ir, shudring orqali tushadi.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlardan ko‘rinib turibdiki, turli kosmogen yoki texnogen usulda yig‘ilgan radionuklidlar va ulardan hosil bo‘ladigan hosilaviy nuklidlarning organizmga tasiri va ushbu elementlarni ekosistemadagi miqdoriy holatini aniqlab borish muhim va dolzarb masalalardan bo‘lib hisoblanmoqda.

Namuna sifatida bir turga mansub bo‘lgan epilit, akrokarp- *Grimmia laevigata* (Brid.) Brid., ning ikki joydan namunalari yig‘ib olindi. Birinchi namuna shahar ekosistemasiga yaqin bo‘lgan hudud Samarqand viloyati Bulung‘ur tumaniga yaqin joylashgan Baxmal tumani Qatortol qishlog‘i hududidan ($39^{\circ}41'29.3''\text{N}$ $67^{\circ}35'23.1''\text{E}$) olingan bo‘lsa, ikkinchi namuna esa shahar ekosistemasidan uzoq bo‘lgan Zomin davlat qo‘riqxonasi hududidan ($39^{\circ}37'00.9''\text{N}$ $68^{\circ}22'05.7''\text{E}$) olindi. Bu turning o‘ziga xosligi shundaki, toshlar yuzasida o‘sib zich qalin qoplam hosil qiladi va poya barglari orasida to‘plangan chang qum, tuproqlarni ham tutib qoladi, shuning uchun bu turning poya va barglari orasida sezilarli darajada tuproqni uchratishimiz mumkin.

Epilit briofitlar tanasida elementlarni ko‘proq atmosfera yog‘inlari, shamol, chang to‘zonlardan to‘plashi mumkin. Ikkinchi va uchinchi turlar transport magistrallaridan uzoq Jum- jumsoy, ($39^{\circ}40'18.6''\text{N}$ $67^{\circ}50'04.9''\text{E}$) hududidan



epigey gigrofit tur (*Ptychostomum schleicheri* (DC.) J.R. Spence ex D. Bell & Holyoak.) va Zomin davlat qo‘riqxonasi xududidan (39°35‘11.5“N 68°20‘54.2”E) uchinchi, epilit mezofit (*Lescurea radicata* (Mitt.) Monk. Turlar olindi (5.5.5-jadval).

Namunalar tarkibidagi tabiiy (TRN) va texnogen radionuklidlarning (^{232}Th , ^{226}Ra , ^{40}K , ^{137}Cs , va ^7Be) konsentratsiyasi SamDU qoshidagi Yadro fizikasi laboratoriyasidagi (RADEK) kompleksidagi sintillyatsion gamma – spektrometrlarida amalga oshirildi.

Adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январьдаги (ПФ-60-сон) «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида» фармони.

2. Azimov A.N., Hushmuradov Sh.Kh., Muminov I.T. et al. Gamma-spectrometric determination of natural radionuclides and ^{137}Cs concentrations in environmental samples. The improved scintillation technique. - Rad. Measurements, 2008, № 43, p. 66-71.

3. Buse A., Norris D., Harmens H., Biiker P., Ashenden T., Mills J. Heavy metals in European mosses: 2000/2001. Centre for Ecology and Hydrology, Bangor, ISBN: 1870393 70 8, UK, 2003. – 45-123 p.

4. Dierßen K. Distribution, ecological amplitude and phytosociological characterization of European bryophytes / K. Dierßen // Bryophytorum Bibliotheca. Bd.56. – Berlin, Stuttgart: Cramer in der Gebr. - Borntraeger-Verl.- Buchh., 2001. – 283 p.

5. Давыдова С.Д., Тагасов В.И. Тяжелые металлы как супертоксиканты 21 века. Изд-во РУДН, 2002. – 140 с.

6. Govindaparyari H., Leleeka M., Nivedita M. and P.L. Uniyal Bryophytes: indicators and monitoring agents of pollution 17 September 2009; Revised and Accepted: 2 January 2010. P. 35-

Adabiyot darslariga interfaol yondashuv

Abdullayeva Mashhura Xamza qizi- Toshkent amaliy fanlar
universitetining Tarix va filologiya fakulteti kunduzgi ta'lim yo'nalishi
O'TA2201U07 talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada adabiyot darslarida interfaol metodlardan foydalanishning metodik jihatlari haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar. Adabiyot darsi, interfaol metod, mantiqiy fikrlash, tanqidiy fikrlash, faollik, dars samaradorligi.


Аннотация. В данной статье говорится о методических аспектах использования интерактивных методов на уроках литературы.

Ключевые слова. Урок литературы, интерактивный метод, логическое мышление, критическое мышление, активность, эффективность урока.

Annotation. This article talks about the methodological aspects of using interactive methods in literature classes.

Key words. Literature lesson, interactive method, logical thinking, critical thinking, activity, lesson efficiency.

Yangi O'zbekistonda har tomonlama yetuk, barkamol insonni tarbiyalash ta'lim-tarbiyaning ustuvor yo'nalishlaridandir. Bu borada ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar fikrimizning yaqqol dalilidir. Ta'limning ustuvor soha deb belgilanishi, bu vazifani amalga oshirish jarayoni o'quvchilarni o'qitishga yangicha yondashishni taqozo etadi. Chunonchi, pedagogik jarayonning eskirib qolgan texnologiyalarini yangisiga almashtirish, ta'limga davr talablari asosida yondashish, darsga innovatsion usullarning loyihasini tadbiiq etish asosiy vazifalaridan biriga aylanmoqda. Zamonaviy ilg'or pedagogik texnologiyalarning afzalligi zamon




sinovidan o‘tib, interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi o‘z isbotini topmoqda. Interfaol ta’limdan kutilgan maqsad nima, uning afzalliklari, darsning samaradorligini oshirish tamoyillari nimadan iborat? degan savolga quyidagicha javob berish mumkin:

1) interfaol usullar eng qulay va sodda usul; 2) mustaqil fikrlashni o‘rgatadi; 3) ko‘p tarmoqli; 4) sodda, oson, 5) esda qolishi kuchli; 6) bilim boyligini oshiradi; 7) vaqtdan yutiladi, 8) qiziqarli o‘tadi; 9) darsning samaradorligini oshiradi; 10) dunyoqarashni kengaytiradi; 11) tafakkurni rivojlantiradi; 12) o‘quvchilarning diqqat e‘tiborini tortadi; 13) har bir o‘quvchi bilan individual munosabat paydo bo‘ladi; 14) xotirani kuchaytiradi; 15) izlanishga chorlaydi; 16) o‘quvchilarni o‘z ustida ishlashga da’vat etadi.

Umumta’lim maktabining adabiyot darslarida ta’limning interfaol usullaridan foydalanish o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash ko‘nikmalarini tarkib toptitiradi, yakka tartibda, juftlikda va guruhlarda ishlashga o‘rgatadi, ko‘pchilik oldida o‘z fikrini bayon etish, o‘z nuqtayi nazarini asoslash malakalarini hosil qiladi.

Ta’lim jarayonida “Aqliy hujum”, “Tanqidiy fikrlash”, “Klaster”, “Sinkveyn”, muammoli vaziyat yaratish, sahna darslari, kichik guruhlarda ishlash va h.k interfaol usullaridan o‘rni bilan foydalanish yaxshi samara beradi. Masalan: “Aqliy hujum” o‘quvchilarda mustaqil fikrlash imkonini beruvchi ta’lim usulidir.

—“Aqliy hujum” usuli mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo‘llaniladi. O‘quvchilar muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritadi. Xususan, **G‘azal nima?** O‘quvchilar g‘azal haqidagi dastlabki fikrlarini shu paytgacha o‘rgangan bilimlari asosida bildira boshlaydilar. Bildirilgan fikrlar doskaga yozib boriladi. Noto‘g‘ri fikrlar uchun ham tanbeh berilmaydi. Chiroyli, asosli fikrlar rag‘batlantiriladi va umumlashtiriladi:






“Tanqidiy fikrlash” usuli o‘rtaga tashlangan masala yoki muammo yuzasidan fikr aytish, o‘zgalarning fikrlarini tanqidiy idrok etish, o‘z nuqtayi nazarini asoslab berish va saqlab qolish imkoniyatiga ega bo‘lishga asoslangandir. Bunday usuldan bahs-munozara xususiyatiga ega bo‘lgan masalalar muhokamasida foydalanish mumkin.


Masalan: O‘zaro muloqotda siz yoki sen deb murojaat qilishning qaysi biri ma’qul? Darsliklarga yozib chizadigan o‘quvchilarga munosabatingiz? va h.k.

“Klaster”dan yangi mavzuni boshlashdan oldin o‘quvchilarning e’tiborini jalb qilish uchun yoki o‘tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida foydalanish mumkin.

Research Science and Innovation House




“Klaster usuli” – o‘quvchilarning e‘tiborini va fikrlarini jamlashda yaxshi samara beradi



“Venn diagrammasi” – qiyosiy tahlilda juda qo‘l kelib, mavzuni sharhlab, ikki muammoni bir – biriga solishtirib o‘tishda qulay usuldur. Bu usul ikki doira shaklidagi aylana chiziqlarning qo‘shilishi holatida bo‘lib, doiralarning ikki tarafiga yozuvchi hayoti, asarlari, o‘ziga xos individual holatlarga tegishli manbalar yozilib, o‘rtada ikki adib hayoti, g‘oyalar ko‘rinishi izohlab boriladi.

Research Science and
Innovation House



“Venn diagrammasi”

Nodira

XIX asr, 1792 – yilda tugʻilgan. Turmush oʻrtogʻi Qoʻqon xoni Umarxon, farzandlari Muhammadalixon, Sulton Mahmudxon, 30 yoshida umr yoʻldoshidan ajraldi, 189 gʻazal, “Devoni Maknuna”, “Firoqnoma” kabi asarlari mashhur, 1842 – yilda hayoti fojiiyali tarzda yakun topdi ”


Shoira,
turmush oʻrtogʻi
ham shoir, barvaqt beva
qolgan,
ijodiy motivlarida
vafo, sadoqat va ayriliq
mavzusi yoritilgan

Zulfiya

XX asr, 1915 – yilda tugʻilgan. Turmush oʻrtogʻi Hamid Olimjon, farzandlari Omon va Hulkar, 29 yoshida umr yoʻldoshidan ajraldi, “Hayot varaqlari”, “Kuylarim sizga”, “Hijron kunlarida”, “Shalola” ... sheʼriy toʻplamlari mashhur,
1997 – yil 82 yoshida vafot etdi.

— Mazkur interfaol usullarning eng muhim jihati shundaki, u oʻquvchilarni faollashtiradi, sust oʻzlashtiruvchi oʻquvchilarni ham harakatlantiradi. Tahlil qilish, xulosa chiqarishga oʻrgatadi.

Research Science and
Innovation House




Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo‘jayeva N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat.- Toshkent: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2006.
2. Madrahimov A., Sotliqov T., Boynazarov F. Yangi pedagogik texnologiya asoslari.- Toshkent, 2007.



Research Science and Innovation House



Muhit omillarining tirik organizmga ta'siri

Andijon Davlat Pedagogika Instituti katta o'qituvchisi

Usmanov Dilmurod Dolimovich

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya yo'nalishi 203-guruh
talabalari

Toshmatova Gulyora Muxitdin qizi

toshmatovagulyora24@gmail.com

Qo'chqorboyeva Xushnozabonu Ro'zali qizi

gochqorboyevaxushnozabonu@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada tirik organizmga muhit omillarining ta'siri haqida ma'lumot beriladi. Muhit omillari har bir organizmga turlicha ta'sir etadi. Ekologik omillar organizmning yashash faoliyatini kuchaytiradi. Uning hayotiy funksiyalarini oshiradi. Shu bilan bir qatorda bu omillar uning hayotiy jarayonlarini o'zgartirib yuborishi ham mumkin. Mana shunday xususiyatlari yoritilib o'tilgan.

Kalit so'zlar: ekologik omillar, abiotik omil, biotik omil, antropogen omil, stenobiont.

Аннотация: В данной статье представлена информация о влиянии факторов окружающей среды на живые организмы. Факторы окружающей среды влияют на каждый организм по-разному. Факторы окружающей среды усиливают жизнедеятельность организма. Повышает его жизненные функции. Кроме того, эти факторы могут изменить его жизненные процессы. Вот выделенные особенности.

Ключевые слова: факторы внешней среды, абиотический фактор, биотический фактор, антропогенный фактор, стенобионт.

Annotation: This article provides information on the effects of environmental factors on the living body. Environmental factors varying effects on the body. Environmental factors enhance the body's residence. It increases his life functions. In addition, these factors can also change their vital process. Such features are covered.

Keywords: Ecological factors, abiotic factors, biotic factors, anthropogenic factors, Stanobiat.

Tirik organizmlarning yashash muhiti - uning tirik va anorganik tarkibiy qismlari hisoblanadigan ekologik omillar bilan tavsiflanadi. Muhitning har bir tarkibiy qismi shu muhitda yashayotgan tirik organizmlarga turlicha ta'sir etadi. Muhitning tirik organizm, populatsiya, tabiiy jamoalarga ta'sir ko'rsatadigan fizik-kimyoviy, biologik shart - sharoitlari ekologik omillar deb ataladi.

Tirik organizmlar har bir omilga nisbatan alohida moslashadilar. Organizmlarning alohida bir omilga nisbatan chidamlilik darajasining yuqori bo'lishi, uning boshqa omillariga ham chidamli ekanligini anglatmaydi. Masalan, havo haroratining vaqtinchalik pasayishiga bardoshli, lekin, bu vaqtda karaxt holatga o'tadigan ayrim mayda hashorotlar havo namligining keskin pasayishini ko'tara olmay, tez nobud bo'ladi. Shuning uchun har bir tur muhit omillariga turli xilda moslashadilar. Ekologik omillar turlicha bo'lishi va ular organizmlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir etishiga ko'ra:

1. Abiotik
2. Biotik
3. Antropogen omillarga bo'linadi.

Abiotik omillarga yorug'lik, harorat, namlik, iqlim joyining relyefi, tuproqning mexanik, kimyoviy va fizik xossalari, radioaktiv nurlanish, bosim, suvning sho'rlanganligi, shamol va oqim kiradi. Bularning barchasi hayvonlarga to'g'ridan-to'g'ri yoki bevosita ta'sir etadi. Abiotik omillar to'rt guruhga bo'linadi:

1. Iqlim omillari – yashash muhiting iqlimini shakllantiruvchi omillar (yorug'lik, namlik, harorat, havo tarkibi, atmosfera bosimi, shamol tezligi)
2. Edafik omillar – tuproqning xususiyatlari (namligi, zichligi, mineral tarkibi organik moddalarning miqdori)
3. Topografik millar – joy relyefining o'ziga xos jihatlari (balandlik, qiyalikning tikligi, qiyalikning ekspozitsiyasi)
4. Fizik omillar – tabiadagi fizik hodisalar (yerning tortishish kuchi, yerning magnit maydoni, ionlashtiruvchi va elektromagnit nurlanishlar)

Biotik omillar - tirik tabiat omili. Barcha mavjudotlar o'rtasidagi murakkab munosabatlar va o'zaro aloqalarning majmuidir (mutualizm, parazitizm, kommensalizm). Har bir organizmga boshqa mavjudotlar bevosita va bilvosita o'z ta'sirini o'tkazadi. Organizmlar o'rtasidagi biotik munosabatlar biotsenoz va populyatsiyalarning barqarorligini ta'minlovchi eng asosiy omil hisoblanadi. Biotik omillar fitogen (o'simliklar ta'siri), zoogen (hayvonlarning), mikogen (zamburug'larning), mikrobiogen (mikroorganizmlarning) ta'siri omillarga ajraladi.

Antropogen omil – inson faoliyatining barcha yo'nalishidagi ko'rinishi. Insoniyat ijtimoiy-tarixiy taraqqiyoti davomida tabiatga o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini o'tkazib kelgan. Bu jarayon keyingi yuz yillikda kuchayib borib, tabiatning butunlay o'zgarishiga sabab bo'ldi. Hozirgi kunda zamin tabiati, o'simlik va hayvonot dunyosining taqdiri kishilik jamiyati – antropik omil faoliyatiga bog'lanib qolgan. Bunda inson faoliyati turlari – atrof-muhitning ifloslanishi, hayvon hamda baliqlarni ovlash, o'rmonlarni kesish, yerga ishlov berish, foydali qazilmalarni qazib olish kiradi.

Ekologik omillarning tirik organizmga ta'sir etish xarakteri xilma xil bo'lsa-da, lekin ularning barchasi uchun bir necha umumiy qonuniyatlar mavjud. Ekologik omillar organizmga bir necha xil ta'sir ko'rsatadi: cheklangan, ta'sir qilgan yoki qo'zg'atgan, modifikatsion va signal berish usulida. Omillarning cheklab ta'sir ko'rsatishi shundayki, ma'lum bir hududda organizmning yashashi mumkin emasligi ma'lum bo'ladi. Qo'zg'atib ta'sir ko'rsatish – organizmlarning ma'lum bir tashqi hududga moslashishidir. Modifikatsion ta'sirda organizmlarda morfologik va anatomik o'zgarishlar yuz beradi. Signal berish ta'siri tashqi muhitdagi omillarning o'zgarishi haqida ma'lumot berishi bilan bog'liqdir.

Odatda, barcha ekologik omillar birgalikda yoki jamlangan holda ta'sir ko'rsatadi. Omillarning organizmning hayotiy jarayonlariga, uning o'sib rivojlanishi, ko'payishiga ko'rsatgan ta'siriga – hayot tashkillashuvi deyiladi.

Muhi omilining yetishmasligi ham, me'yordan ortib ketishi ham tirik organizmlar hayot faoliyatining o'zgarishiga olib keladi. Ekologik omilning organizm hayot faoliyatiga ko'rsatadigan ta'sirining eng qulay chegarasi biologik optimum yoki optimum zona deb ataladi. Optimum zonasidan og'ish, ya'ni chetga chiqish noqulay hayot zonasi (pessimum zona) ni belgilaydi.



Har bir ekologik omil organizmga ta'sir ko'rsatishiga qarab, optimum, pessimum, yo'qolish va chidamlilik hududlariga bo'linadi. Optimum zonasida omillar organizmga juda qulay ta'sir ko'rsatadi, bu hududda organizmning rivojlanishi uchun yaxshi shart-sharoitlar mavjud, undan uzoqlashgan sari omillar noqulay ta'sir etadi. Masalan, bug'doyning har bir rivojlanish fazasida u ma'lum haroratni talab qiladi. Naychalash fazasida havo harorati 35-36 °S bo'lsa, albatta o'simlikka salbiy ta'sir qiladi.

Pessimum hududda sharoit keskin bo'ladi va bunday sharoitda tirik organizm rivojlana olmaydi. Demak, bu hududda organizm yo'qoladi, nobud bo'ladi. Har bir organizm uchun chidamlilik nuqtasi bo'ladi. Uni biz qanday tasavvur qilamiz? Masalan, o'simlik biologik xususiyatiga ko'ra, tuproqda sulfat va xlorli tuzlarning ma'lum bir miqdorigacha o'sa oladi. Tuz miqdori tuproqda oshib borgan sari o'simlik nobud bo'ladi. Buni hatto suvga bo'lgan talabida ham ko'rish mumkin. Makkajo'xorini 4-5 barg chiqargan fazasida suv bilan 20 kun bostirib qo'ysak, albatta poyalari chirib, o'simlik nobud bo'ladi. Sholini suv bilan bostirib qo'ysa, o'sish jarayoni davom etadi. Har bir organizm uchun chidamlilik nuqtasi har bir omil uchun alohida bo'ladi.

Organizmning omilga nisbatan keskinlik nuqtalari orasidagi chidamlilik chegarasi – uning ekologik valentligi deyiladi. Turli ekologik omillarga nisbatan ekologik valentliklar yig'indisi – turning ekologik spektri deyiladi. Masalan, hayvonning ma'lum ozuqa ekinlariga, ma'lum bir yaylovga va yuqori haroratga moslashuvi uning ekologik spektrini tashkil etadi. Har bir omil organizmning har xil funksiyalariga turlicha ta'sir etadi. Bir hayot faoliyati uchun optimum ta'sir ikkinchi bir jarayon uchun maksimum bo'lib hisoblanishi mumkin. Masalan, 40-45 °S harorat sovuq qonli hayvonlarda modda almashinuv jarayonini tezlashtiradi, ammo bunda ularning faolligi susayadi. Ayrim individlarning tashqi muhit omillariga chidamlilik chegarasi, minimum zonalari to'g'ri kelmaydi. Biror-bir omilga nisbatan chidamlilik darajasi uning boshqa omillarga chidamliligini ifodalamaydi. Ayrim turlarning ekologik spektrlari ham bir-biriga to'g'ri kelmaydi. Muhitning ayrim ekologik omillari organizmga bir vaqtda ta'sir etadi va bir omilning ta'siri boshqa omilning miqdoriga bog'liq bo'ladi. Bu – omillarning o'zaro ta'sir qonuniyati deyiladi. Organizmning ma'lum sharoitda yashashi quyi darajadagi omil bilan



belgilanadi. Masalan, cho‘lda organizmlarning keng tarqalishiga suv va yuqori harorat cheklovchi omil bo‘lib hisoblanadi.

Asosiy ekologik omillarning ta‘rifi, chegaralovchi omillar. Ekologik omillar ichida son jihatdan ahamiyatga ko‘ra turlarning chidamlilik chegarasidan chiqadiganlariga chegaralovchi omillar deyiladi. Birgina cheklovchi omilning o‘zi ja‘mi omillar qulay bo‘lsa ham, ma‘lum bir turning tarqalishiga ta‘sir ko‘rsatadi yoki cheklab qo‘yadi. Chegaralovchi omillar ma‘lum geografik arealda turlarning tarqalishini aniqlaydi va bir tur organizmning rivojlanishini, ular juda ko‘p bo‘lganda yoki kam bo‘lganda cheklab qo‘yadi. Ekologik omillarning ta‘sir qilishi ma‘lum muhitda o‘zgarishi ham mumkin, ular chegaralovchi bo‘lishi ham, bo‘lmasligi ham mumkin. Masalan, biron bir ko‘l suvida kalsiy moddasi ko‘p bo‘lsa (21.2-22.4 mg/l), o‘simlik va turli hayvonlar yashashi uchun qulay muhit yuzaga keladi va ular son hamda sifat jihatidan ko‘p bo‘ladi. Agarda ko‘l suvida kalsiy moddasi (0.7-2.3 mg/l) kam bo‘lsa, u holda organizmlar juda kam uchraydi. Nemis agroximik olimi Yu.Libix minimum qonunini, ayrim moddalar tuproqda minimum holda bo‘lishini hosildorlikdan kelib chiqib isbotladi. Ammo Libixning bu qonuni faqat stasionar sharoitda to‘g‘ri bo‘ladi. Kimyoviy elementlarning biri etishmasa, hosildorlik juda yuqori bo‘lmasa ham me‘yor darajasida bo‘ladi. Hosildorlikni faqatgina kimyoviy elementlar emas, balki harorat, yorug‘lik, namlik va boshqalar ham belgilaydi.

Amerikalik ekolog Yu.Odum tolerantlik qonunini to‘ldiruvchi fikrlarni bildirgan, chunonchi, organizmlar bir ekologik omilga nisbatan keng tolerantlik doirasida bo‘lsalar, boshqa omilga nisbatan tor doirada bo‘lishlari mumkin; hamma ekologik omillarga nisbatan keng tolerantlik doirasida bo‘lgan organizmlar keng tarqalish imkoniyatiga ega; agar tur uchun bir ekologik omilning ta‘siri optimal bo‘lmasa, shu turning tolerantlik doirasi boshqa omillar bo‘yicha chegaralanib, torayib boradi; organizm hayot faoliyatining kritik davrida ko‘pchilik muhit omillari, ayniqsa, turlarning ko‘payish vaqtida chegaralovchi bo‘lib qoladi, chunki ko‘payayotgan tur vakillari sezuvchan, nozik bo‘lib (unayotgan urug‘, jo‘ja chiqishi oldidagi tuxum, embrion, o‘sayotgan yosh nihol va lichinkalar), ularning tolerantlik doirasi juda ham chegaralangan bo‘ladi. Ko‘p yillik o‘simliklar va hayvonlar uchun tolerantlik doirasi kengdir.



Ekologik omillarning optimal ko'rsatkichdan ozroq o'zgarib turishiga moslashgan turlarga – tor doiraga moslashgan turlar, muhit omillarining keng doirada o'zgarishiga moslashganlari esa, keng moslashgan tur deb ataladi. Bu erda birlamchi holatga misol qilib dengizlarning yuqori sho'rligiga (30-37%) yoki tog', soylar suvining chuchukligiga (150-240 mg/l) moslashgan organizmlarni olish mumkin. Ikkinchi holatga misol: katta daryolar quyi oqimlarining dengiz suvi bilan qo'shib turadigan joylarida suvning sho'rligi o'zgarib turadi. Organizmlar shu o'zgarishga keng moslashgan. Ekologik mutanosib bo'lmagan yoki tor doiraga chidamli turlar stenobiont (stenos – tor doirali), keng doiraga chidamli turlar esa evribiont (eyros – keng) turlar deb ataladi. Turlarning stenobiont yoki evribiontligi, ularning u yoki bu muhitga turli yo'llar bilan moslanishidan kelib chiqqan.

Turning tabiatda yashashi uchun kerak bo'lgan barcha tashqi muhit omillari yig'indisi ekologik taxmon (burchak) deyiladi. Ko'pincha bu atama ikkita yaqin turlarning o'zaro munosabatini kuzatishda qo'llaniladi. Ekologik taxmon atamasini 1917-yilda J.Grinnell turlarning kenglikda tarqalish tavsifi uchun qo'llagan edi. Ekologik taxmon yashash joyi atamasiga yaqin tushunchadir. Keyincha Uk 1927-yilda Ch. Elton ekologik taxmon tuming jamoadagi holati deb aniqladi va bu holatda eng muhimi ularning, ya'ni turlarning bir-birlari bilan trofik bog'lanishi ekanligini qayd qildi. Turning ekologik o'rni (J.Grinnell) deganda, ma'lum bir turning barcha abiotik va biotik omillar majmuyiga bo'lgan munosabatini, ya'ni hamjamoda tutgan o'rni tushuniladi. Ch. Elton esa ushbu tushunchaning funksional tomoniga alohida e'tibor bergan. Ekotizimdagi turning faoliyati, asosan, oziqlanishdan bo'lgani uchun ekologik taxmonni ozuqa taxmon deyish ham mumkin.

Muhit omillari tirik organizmlarga yetarlicha ta'sir ko'rsatadi. Tashqi muhit omillari ham o'z navbatida 3 guruhga bo'linadi:

1. Organizmlarning hayotiy jarayonlari uchun juda zarur bo'lgan ekologik omillar-yorug'lik, issiqlik, suv, kislorod, mineral tuz, korbonat angdirid;
2. O'simliklar uchun juda zarur bo'lmagan ekologik omillar- shamol, siyraklashgan havo, radiaktivlik, tutun holatidagi gaz;
3. Doimiy yoki vaqti- vaqti bilan farqsiz ravishda munosabatda bo'ladigan omillar- atmosferadagi inert gazlar, gazzimon azot misol bo'ladi.

Mana shunday muhit omillari natijasida organizm o‘sib, rivojlanadi. Lekin, bu omillarning hammasi ham birdek tirik organizmga ta‘sir qilmaydi. Muhitga moslashgan va yashovchanligi yuqori turlar keng arealni egallaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. D.Yormatova, X.Xushvaqtova “Ekologiya va atrofni muhofaza qilish” - Toshkent- 2018-y.
2. A.Xusanov “Hayvonlar ekologiyasi” o‘quv qo‘llanma Andijon-2021-y.
3. Bioekologiya (O‘simliklar ekologiyasi) E. Ruzmatov, Sh. Qo‘ziboyev, M.Tojiboyev o‘quv qo‘llanma Andijon 2020-y.
4. www.wikipedia.com.



Research Science and Innovation House



ZA'FARON (CROCUS SATIVUS L.)NING O'SISH VA RIVOJLANISHI

Qo'chqarova Shukurjon

1-kurs biologiya yo'nalishi magistr talabasi

Annotatsiya: Bugungi kunda ushbu o'simlik tibbiyot va oziq-ovqat sanoatida keng ishlatiladi. Za'faron qo'shilgan oziq-ovqat mahsulotlari bir necha kungacha sifatini yo'qotmaydi, tanani mustahkamlaydi va yoshartiradi, saraton hujayralari bilan kurashishga yordam beradi, og'riq va spazmlarni samarali ravishda engillashtiradi, gemoglobinni oshiradi va qon bosimini normallashtiradi, uzoq vaqt davomida yaxshi ko'rishni saqlashga yordam beradi, hayz paytida og'riqni engillashtiradi.


Kalit so'zi: Za'faron, ildiz, poya, barg, piyozcha, gul, meva, oziq-ovqat.

Za'faron yoki krokus (Crocus sativus L.). Bolqon yarim oroli za'faronning vatani hisoblanadi. Bu ekin ko'plab mamlakatlarda etishtiriladi: Eron va Iroqdan Ispaniyagacha, Ozarbayjonda (Absheron yarim orolida), Rossiyada (Dog'iston) va boshqa joylarda.

Botanika xususiyatlari.

Za'faron yoki krokus (Crocus sativus L.) - gulsafsardoshlar oilasiga (Iridaceae) mansub ko'p yillik tuganakpiyozli o'simlik bo'lib, bo'yi 10 – 25 sm. korm sharsimon, pastdan bir oz tekislangan, diametri 2,5 sm gacha, ochiq jigarrang quruq, to'rsimon yoki tolali qobiq qoldiqlari bilan qoplangan, tepada tolalarga bo'linadi;

Research Science and
Innovation House



1.Rasm. Za’faron yoki krokus (Crocus sativus L.).

Piyozchali ildizlari chig’anoqning pastki qismidan cho’ziladi va yiriklashgan qismining apikal kurtaklaridan barglar va gullar rivojlanadi.

Barglari (olti-to’qqiz bo’lak) tik, tor-chiziqli, o’tmas, qirralari egri, kipriklari bilan qoplangan. Ingichka lentasimon bo’lib, gullash davrida o’sadi (soni 6 – 9 ta).



2.Rasm. Za’faron yoki krokus (Crocus sativus L.) ning barglari.

Guli yirik, och-ko’kimtir binafsha rangda, changchisi 3 ta, mevasi uchburchak ko’sakcha, yalpi gullash davri bir yilda 10 – 15 kunni tashkil qilib, har bir gulning umumiy gullash davri 2 – 3 kundan oshmaydi. Gullar soni 1 – 2 ta bo’lib, och siyohrangda bo’ladi. Gul ichida 3 ta tumshuqcha bo’lib, ularning uzunligi 3 – 3,5 sm.ni tashkil etadi.





3.Rasm. Za'faron yoki krokus (*Crocus sativus* L.) ning gullari.

Barcha yuksak o'simliklar qatori za'faron (*C. sativus* L.)ning ontogenezi yuvenil davr – voyaga yetgungacha bo'lgan davr, pubertat davr – voyaga yetgan, yetuklik davri, keksaygan davrlarida kechadi. O'simliklarning o'sishi embrional to'qimalarda – meristemadan boshlanadi, chunki u yerda hamma hujayra bo'linish xususiyatiga ega.



4.Rasm. Za'faron yoki krokus (*Crocus sativus* L.) ning mevalari.

Ekma za'faronning tuganakpiyozlarini yetishtirishda ularni ekish chuqurligini to'g'ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Tuganakpiyozlarni ekish davrida optimal ekish chuqurligini tanlash o'simta (prorostok) yoki kurtaklarning normal shakllanishini ta'minlaydi.

Adabiyotlar tahliliga ko'ra, ekma za'faronni ekish muddati avgust oyining oxirgi dekadasi, vegetatsiya boshlanishi sentabr oyining 2 – 3-dekadasi, barg



chiqarish va gullash davri oktabr oyining o‘rtalariga to‘g‘ri keladi, qish mavsumida barglari yashil holatda bo‘lib, vegetatsiyasini davom ettiradi, keyingi yil may oyining oxirida o‘simlikning tinim davriga ketadi, 25 – 30 kunlardan so‘ng piyozlar kovlab olinadi va ular qayta ekishgacha bo‘lgan vaqt davomida 10 – 120 C haroratda qorong‘i joyda saqlanadi.

O‘stirish texnologiyasi:

- kurtaklar bilan ko‘payadi;
- Shudgorlashda organik va mineral o‘g‘itlar qo‘llaniladi;
- ekish bahorda 5-8 sm chuqurlikda amalga oshiriladi, qator oralig‘i 45 sm kengligida, qatordagi masofa 5-10 sm;
- o‘simliklarni parvarish qilish tuproqni bo‘sh va begona o‘tlardan tozalash, o‘g‘itlash va kasallik va zararkunandalarga qarshi kurashishdan iborat;
- to‘rt yildan so‘ng, kurtaklar qazib olinadi va yangi plantatsiyalar ekiladi;
- quruq havoda gullash davrida gullarni olib tashlang;

Ularning stigmalari yulib olinadi va 45-50)⁰S haroratda (12-15 daqiqa) yoki quruq xonada xona haroratida quritiladi.

Xulosa qilib aytganda, o‘simlik O‘zbekiston sharoitida o‘sishi va rivojlanishi uchun kerakli abiotik omillar mavjud. O‘simlik introduksiyasi uchun esa tajribalar ijobiy baholandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdullaev F.I. Cancer chemopreventive and tumoricidal properties of saffron (*Crocus sativus* L). *Experimental Biology and Medicine*. - 2002. - No 1(227). - P. 20 - 25.
2. Abdullaev F.I., Riveron-Negrete L., Caballero-Ortega H., Manuel Hernandez J., Perez-Lopez I., Pereda-Miranda R., Espinosa-Aguirre J.J. Use of in vitro assays to assess the potential antigenotoxic and cytotoxic effects of saffron (*Crocus sativus* L.). *Toxicology in Vitro*, 2003. - No 17(5-6). - P. 731 - 736.
3. Azizbekova N.Sh., Milyaeva, E.L. Ontogenesis of saffron (*crocus sativus*) and changes in stem apices. *Soviet Journal of Development Biology*. - 1979. - No 9. - P. 266 - 271.



4. Burg S.P, Burg E.A. The interaction between auxin and ethylene and its role in plant growth. Proceedings of the National Academy of Sciences (PNAS), 1966. - No 2(55). - P. 262 - 269.
5. Greenberg-Kaslasi D. Vegetative and reproductive development in the saffron crocus (*Crocus sativus* L.). M.Sc. Thesis, The Faculty of Agriculture, The Hebrew University of Jerusalem, Rehovot (Hebrew, English abstract), 1991.
6. Koul K.K., Farooq S. Growth and differentiation in the shoot apical meristem of saffron plant (*Crocus sativus* L.). Journal of the Indian Botanical Society, 1984. - No 63. - P. 153 - 169.
Mnemonika - eslab qolish san'ati. Sun'iy assotsiatsiyalar hosil qilish yo'li bilan esda qolishni osonlashtiruvchi va xotira hajmini kengaytiruvchi usullar tizimi. Yani o'rganilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni xotiramizda mavjud bo'lgan ma'lumotlarimizga assotsiatsiya qilish, oddiy so'zlarga aylantirish yoki rasmlar, eslab qolish usullari yordamida tez yodga tushirish texnikasidir. Ushbu usullar xotirani kuchaytirish uchun qimmatli vositalar bo'lib, turli xil o'quv vaziyatlarida qo'llanishi mumkin. Mnemonika malumotlarni oson va samarali eslab qolishimizga yordam berishi bilan bir qatorda, o'qish-o'rganish jarayonini tezlashtiradi va uni qiziqarli mashg'ulotga aylantiradi. Misol uchun, siz quyidagi gapni eslab qolish orqali kamalak ranglarini ketma-ketlikda eslab qolasiz: “Qaysidir Osmondagi Sayyoraga, Yerdagi Haqiqiy Kosmonavt Boribdi.” Bu gapdagi so'zlarning bosh harflari kamalak ranglarining bosh harflari hisoblanadi. Bu birgina misol xolos,



bunga o'shsh misollarni ko'plab keltirish mumkin, keling, mnemonika haqida kengroq to'xtalamiz.

Mnemonika so'zi qadimgi antik davrga borib taqaladi. Bundan taxminan 2500 yil oldin yunonlarning Xotira xudosi nomi "Mnemosin" so'zidan olingan. Dastlab Yunonistonda paydo bo'lgan va keyinchalik rimliklar ham shug'illana boshlagan. Umuman olganda mnemonika yangi o'ylab topilgan narsa emas. Oldin mavjud bo'lgan va eslab qolishda turli osonlashtiruvchi usullardan foydalanishgan. Hozir qaytadan jonlangan va keng tarqalyapti.[1]

Mnemonikaning asosiy g'oyasi murakkab bo'lgan malumotning miyamizda osongina yodlanish yo'lini topishga qaratilgan. Miyamiz evolyutsion tarzda rasm, rang, struktura, obrazlarni, turli hissiyot va tillarni eslab qolishga moslashgan. Ko'pchilik mnemonikani xotiraga yordam beruvchi texnika sifatida biladi. Lekin unga kitoblarda juda tor ravishda, manosi bo'lmagan, organizatsiya qilinmagan axborotni mano berib, organizatsiya qilib yodlash deb aytiladi. Shuningdek, o'qilayotgan materialga qo'shimcha mano qo'yishga mnemonika deyiladi. Natijada yodlanayotgan malumot manoli va mantiqli tus oladi.[4]

Keling, xotirangizni sinab ko'ramiz. Quyida 10 ta so'z berilgan. 1 daqiqalik taymerni yoqing va ularni ketma-ket eslab qolishga harakat qiling: it, telefon, ayiq, daraxt, shokolad, taxta, suv, baliq, to'p, sumka. Endi nechta eslab qolganingizni yozing va bularni eslab qolishda necha marotaba takrorlaganingizni hisoblang. Endi mnemonik usullar bilan tanishamiz, bunga keyinroq yana qaytamiz.

Ko'p odamlar xotirasini yaxshilashga yordam beradigan mnemonik usullardan foydalanadilar. Ushbu usullar ularga qiyin so'zlarni qanday yozishni eslashga, yangi hamkasbining ismini eslashga va ma'lumotni yodlashga yordam beradi. Mnemonikaning turli xil usullari mavjud, shuning uchun o'quv uslubingizga va eslab qolishingiz kerak bo'lgan ma'lumot turiga mos keladiganini tanlash yaxshidir.

Birinchi harf - bunda eslab qolinishi kerak bo'lgan ketma-ketlikning bosh harflarini yozasiz. Masalan: Iqtisodiyot fakultetida o'qigan talabalar yaxshi biladiki pulling 3 ta vazifasi bor; 1. Qiymat o'lchovi, 2. To'lov, muomala vositasi, 3. Boyilik to'plash; QTB so'zlari orqali QUTB yoki shimoliy QUTBni eslab qolib, pulning 3 qonunini osonroq va uzoqroq muddatda eslab qolish mumkin.[1]

Ritm - odatda o'qigan kitoblarimiz emas eshitgan qo'shiqlarimiz yaxshi esimizda qoladi. Chunki bu qandaydir ritmga va qofiyaga ega. Ingliz tili alifbosini "A,B,C" qo'shig'i orqali nafaqat bolalar, balki, kattalar ham tez o'rganib



olayotganining ko‘plab guvohi bo‘lyapmiz. Quyidagi ritmik she'r yodlash orqali siz qaysi oy 30 va qaysi oy 31 kundan iboratligini osongina eslab qolasiz va doim taqvimga murojat qilmaysiz: “30 kun bor Sentabrda, April, Iyun, Noyabrda.” [4]

Tasvir - yodlayotgan so‘zlaringiz bilan bog‘liq yorqin tasvir, manzaralarni toping. Masalan, “to doze off”- uxlab qolmoq so‘zini yodlayotganingizda darsda o‘tirib uxlab qolganingizni va o‘zingizga “OH God! I fell doze off” deb tanbeh berayotganingizni tasovvur qiling.[2]

Simvallashtirish - mavhum ma‘noga ega so‘zlarni eslab qolishda uning belgilaridan foydalanish.[5] Masalan, “Butun borlig‘i bilan tinglash” deganda tasovvur qilingki siz gaplashayotgan odamning quloqlari ulkan quloqqa aylanadi va sizni jim eshitib o‘tribdi.

Assatsiatsiya - miyamiz doimo bir narsani boshqa narsaga bog‘lab oluvchi mashinadir. Agarda sizga Habib desam siz uni jang san‘ati bilan bog‘liq holda anglaysiz. Ya‘ni yangi malumot miyamizda oldindan mavjud bo‘lgan axborotga bog‘lanadi va u esda qoladi.[3]

Lokatsiya - makonda malumotlarni joylashdan iborat. Siz katta hajimli va ketma-ketlikda eslab qolishingiz kerak bo‘lgan malumotlarni malum joylarga joylashtirasiz. [1] Masalan, nutq so‘zlashingiz kerak bo‘lganda, nutqingiz ketma-ketligini uyingizdagi eshik, televizor, shkaf, muzlatkich, stol, yotoqxonaga kabi malum joylarga assatsiatsiya qiling. Nutq so‘zlash paytida lokatsiyangizni ketma-ketligini eslasangiz kifoya. U o‘ziga bog‘langan malumotni olib chiqadi.

Xususiyat - siz birinchi marta uchrashayotgan odamning taniqli xususiyatini vizual ravishda aniqlashni o‘z ichiga oladi. Ushbu uslub sizga ularning ismini va yuzini yaxshiroq bog‘lashga yordam beradi. Masalan, siz katta ko‘k ko‘zlari bo‘lgan Daniela ismli yangi hamkasbingiz bilan uchrashishingiz mumkin. Siz uni “ko‘k ko‘zli Daniela” deb eslab, uning tashqi qiyofasi haqidagi xususiyatni ismiga ulaysiz va shunda siz yana uchrashganingizda uni tezda eslab qolishingiz mumkin.

Hissiyot - Xursandchilik va qayg‘u, hayratlarish tuyg‘usi bilan kechadigan voqealar eng yorqin esda qoladi. Shuning uchun, tasavvurlaringizni iloji boricha qiziqarli, antiqa va qo‘rqinchli qilishga intiling.[5]

Mantiq - O‘quv materialini yodlashning maktab usullari ko‘p marta takrorlashga asoslangan. Ushbu mexanik yodlash vaqt talab qildi va yomon natijalarga erishdi. Va materialni to‘liq tushunmaslik uning tezda yo‘q qilinishiga va xotiradan o‘chirilishiga olib keldi. Shuning uchun kuchli yodlash qoidalaridan biri



yodlangan ma'lumotni tushunishdir. Masalan, “Look for” - izlamoq. Biron narsani izlayotgan(look for) odam uni topish uchun(for) atrofga qaraydi(look). Endi bu iboraning mantiqiy asosi bizga malum.[4]

Demak, usullarni mazmunan tushinish va har qanday malumotni eslab qolishda qo'llab ko'rish orqali eslab qolish jarayoni tezlashadi. Keling endi tepadagi 10 ta so'zni hozir o'rgangan mnemonika usullari orqali yodlashga harakat qilib ko'ramiz. Assatsiatsiya, tasvir va hissiyot usullarini eslang!

Tasovvur qiling va bog'lang: It Telefon bilan Ayiqni boshiga urdi, ayiqni boshida Daraxt o'sib chiqadi va daraxtda Shokoladlar osilib turibdi. Shokoladni olib ichini ochamiz shokoladmas Taxta chiqdi, uni Suvga uloqtiramiz. Taxta hamma suvni so'rib oladi va Baliq buning uchun bizga baqiryapti tasovvur qiling. Baliqni bitta tepamiz u To'p “Oltin to'p” ga aynib, borib Sumka ichiga tushadi. Bularni aniq tasovvur qiling hissiyotlar bilan bog'lang, ana endi so'zlarga qaramasdan “Zanjir”ni boshidan eslang va so'zlarni o'sib borish tartibida yozib chiqing.

Xo'sh qanday? Agar siz yaxshi tasovvur qilgan bo'lsangiz, natijangiz 10 ta bo'ladi. Bir narsaga ahamiyat qarating, tasovvur qiling va bog'lang deyildi eslab qoling emas. Lekin baribir so'zlar esingizda qolgan. Qandaydir sehrga o'xshaydiga? Bizning xotiramiz ana shunday ishlaydi. 1933-yilda Restorff effekti kashf qilindi. Unga ko'ra, boshqalaridan ajralib turadigan obyektlar yaxshi esda qoladi. Yumor, qo'rqinchli, g'ayrioddiy, jirkanch, qo'rqinchli.[2]

Xulosa qilib aytganda mnemonika usullari qunt bilan o'rganilib, muntazam amaliyotga tatbiq qilib borilsa, xotira bilan bog'liq mavjud muammolarga yechim topiladi. Yana bir narsani alohida ta'kidlash lozimki, mnemonika usullarini puxta egallash - malumotlarni hech qanday qiyinchiliksiz osongina yodlab olish degani emas. Albatta aqliy mehnat, energiya va vaqt talab qilinadi. Mnemonika esa malumotlarni yodlash jarayonini zerikarli emas qiziqarli bo'lishiga, qisqa muddat emas balki butun umr xotirada qolishiga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.Сафронов. Суперпамять за семь шагов. “Альпина Диджитал”, 2019.
2. F.I.Xaydarov, N.I.Halilova. Umumiy psixologiya darslik. Toshkent, 2009.
3. Tony Buzan. Use your memory. London. 1974.
4. Sh.M.Rahmonov. Mukammal xotira. Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2014.
5. Sh.M.Rahmonov, I.Sattibaev. So'z yodlash sirlari. Toshkent. “Istiqlol Nuri”. 2015



ПРИМЕНЕНИЕ ИГРОВЫХ МЕТОДОВ ОБУЧЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА КАК УСЛОВИЕ ФОРМИРОВАНИЯ 4 К - КОМПЕТЕНЦИЙ МЛАДШИХ ШКОЛЬНИКОВ

Кузиева Диёра Умарбек кизи - магистранка 1 курса, ТГПУ имени
Низами

Аннотация. В статье рассматриваются педагогические игры для формирования 4 к - компетенций младших школьников.

Ключевые слова: игра, проблемное обучение, сотрудничество, групповая и парная работа, дифференцированное обучение, здоровьесберегающая технология, компетенция, критическое мышление, креативное мышление, коммуникация, кооперация, коллаборация.

Человек играет только тогда, когда он в полном значении слова человек, и он бывает вполне человеком лишь тогда, когда он играет.

Ф. Шиллер

Игру как метод обучения, передачи опыта старших поколений младшим, люди использовали с древности. Широкое применение игра находит в народной педагогике, в образовательных и внешкольных учреждениях.

В отличие от игр вообще, педагогическая игра обладает существенным признаком – четко поставленной целью обучения и соответствующим ей педагогическим результатом, которые могут быть обоснованы, выделены в явном виде и характеризуются учебно-познавательной направленностью.

Игровая форма занятий создается на уроках при помощи игровых приемов и ситуаций, которые выступают как средство побуждения, стимулирования учащихся к учебной деятельности. Место и роль игровой технологии в учебном процессе, сочетание элементов игры и учения во многом зависят от понимания учителем функций и классификации педагогических игр.

По характеру педагогического процесса выделяются следующие группы игр:

- познавательные, воспитательные, развивающие;
- обучающие, тренировочные, контролирующие и обобщающие;

- репродуктивные, продуктивные, творческие;
- коммуникативные, диагностические, профориентационные, психотехнические и др.

Все виды педагогических игр направляются к созданию личностно-развивающей образовательной среды. Создание личностно-развивающей образовательной среды рассматривается как условие достижения нового уровня образования школы в целом, что предполагает реализацию изменений системного характера, возникновение новых системных свойств и качеств образовательной среды и школы.

На этом этапе статьи мы сочли необходимым выделить на изменение типа школьной среды основываясь по идее реверсного наставничества в направлении «учитель-ученик»: «Ты даешь мне опыт, я тебя развиваю».

Управленческий проект школы направлен на развитие личностного потенциала всех участников образовательных отношений, создание творческой личностно-развивающей образовательной среды, в которой ребенок будет свободен и активен, в которой нет авторитарного лидера, в которой личность ребенка характеризуется адекватной самооценкой, открытостью в своих суждениях и поступков.

Назначение управленческого проекта - формирование согласованной, адекватной вызовам времени, гибкой личностно-развивающей образовательной среды, в которой системно и целенаправленно связаны содержание образования, организация учебно-воспитательного процесса, психологическое сопровождение, пространственно-предметная среда.

Предметом управленческого проекта ««Создание творческо-карьерного типа через систему наставничества в школе» является создание творческой, мобильной, отвечающей социальным ожиданиям личностно-развивающей образовательной среды творческо-карьерного типа путем развития системы наставничества всех участников образовательного процесса.

В разработке учебного занятия учитель на каждом этапе анализирует продуктивность применяемых им способов, форм, методов, технологий работы. Таким образом, педагог отмечает для себя «точки» для дальнейшего саморазвития, а значит, намечается и путь для развития личностного потенциала, который поможет изменить тип образовательной среды.

В управленческом проекте используются следующие технологии, методики, приёмы и техники:

- ✓ проблемное обучение;
- ✓ обучение в сотрудничестве;
- ✓ групповая работа;
- ✓ парная работа;
- ✓ дифференцированное обучение;
- ✓ здоровьесберегающие технологии.

Чтобы анализировать и оценивать каждого шага занятий учитель разрабатывает оценочные листы на основе компетенции «4К» следующим образом:

Диагностика результативности на занятии

№	№ группы				
	Ф ИО	Блоки проверяемых умений			
		Критиче ское мышление	Креати вное мышление	Коммуни кация	Коопер ация
1					
2					

Оценка внешним наблюдателем по оценочным листам для каждой группы, в которых прописаны блоки проверяемых умений и их проявление в ходе выполнения заданий.

В любом случае при работе с заданиями нового типа роли педагога и обучающегося распределены не так, как это принято на традиционном занятии:

- обучающиеся приобретают самостоятельность в выборе плана, объема и форм работы, а преподаватель предоставляет возможность проявить самостоятельность, подобрав соответствующее задание;
- обучающиеся могут выступить в роли педагога друг для друга, работая в паре или в группе. Преподаватель становится консультантом для



самостоятельно работающих команд и поддерживает их продуктивную работу;

➤ обучающиеся принимают участие в оценке как результатов занятия, так и процесса работы, используя инструменты самооценивания.

Преподаватель получает возможность не только оценивать профессиональные результаты, но и осуществлять мониторинг формирования и развития компетенции «4К». Такой мониторинг может проводиться как на уровне группы, так и на индивидуальном уровне.

Ш аг	Скорость включения в работу (дети)		Понимани е задачи		Наличие трудностей (у детей)		примеча ния
	ср азу	н е сразу	пон яли	н е поня ли	бы ли	н е были	
1.							
2.							

По каждому этапу урока учитель заносит свои наблюдения в оценочную таблицу.

Оценка влияет на жизнь молодежи. И поэтому она должна принять форму ценной и эффективной обратной связи и носить формирующий характер.

Социальный и эмоциональный интеллект, креативность, наши способности к сотрудничеству и совместному творчеству, а также другие важные навыки младших школьников должны поэтому включаться в метрику оценки, которую мы используем для определения успеха обучающегося на протяжении всей жизни – в процессе непрерывного обучения.

Очень важно, чтобы система обучения и оценивания не разрушала, а способствовала развитию любознательности, креативности и сотрудничества, а также позволяла обучающимся учиться, совершая ошибки.

Таким образом, чтобы приступить к формированию компетенций «4К» стоит критериально определить (перечислить поведенческие характеристики),



как проявляется креативность, критическое мышление, коммуникация и коллаборация в процессе изучения той или иной дисциплины, профессионального модуля, проанализировать учебный или тематический план и решить, на примере каких тем и какое количество часов возможно использовать для тренировки компетенций (это должно быть системно), продумать учебные ситуации, сформулировать для обучающихся соответствующие учебные задачи, подобрать технологии, разработать раздаточный материал, организовать сам процесс на занятии и провести формирующее оценивание в форме содержательной обратной связи.

Шаг	Продолжительность	Роль учителя и ученика	Формируемые компетенции
1.	1 мин.	Учитель: «Сегодня на уроке мы будем работать в группах. Задания, которые вам предстоит выполнить, будут не совсем привычными. Но я не сомневаюсь, что вам будет интересно, и вы справитесь!»	
2.	2 мин.	Учащиеся делятся на три группы так, что в каждой группе есть сильные и слабые ученики.	Кооперация
3.	3 мин.	Учитель предлагает детям выполнить словарную работу в парах. Пары формируются по выбору внутри группы. Осуществляется взаимопроверка.	Коммуникация, кооперация, критическое мышление

4.	2 мин.	<p>Проводится игра «Найди лишнее». Учитель предлагает ряд имен существительных, среди которых есть один глагол.</p> <p>Дети исключают лишнее слово, аргументируя свой ответ. Предполагают, с какой частью речи сегодня будет работа (прил.1)</p>	Критическое мышление
5.	2 мин.	<p>Создается проблемная ситуация. Дети собирают кластер по теме имя существительное. Все признаки, кроме склонения ученикам знакомы. Учитель выясняет, все ли понятия им известны (прил.2)</p>	Критическое мышление, коммуникация
6.	2 мин.	<p>Дети формулируют тему и задачи урока</p>	Критическое мышление
7.	5 мин.	<p>Учитель предлагает детям найти и представить классу определение понятия «склонение» из различных источников информации.</p> <p>У каждой группы есть ноутбук с выходом в интернет, толковый словарь, учебник.</p>	Критическое мышление, коммуникация, кооперация



8.	2 мин.	Учитель предлагает проанализировать таблицу, по которой дети делают вывод, что существительные бывают 3 склонений. (прил.3)	Критическое мышление
9.	5 мин.	Учитель раздает каждой группе конверт с заданием для определения характерных признаков одного из склонений. Ученики выполняют задание. Делают выводы. Представляют и фиксируют в таблице результаты (прил.4)	Критическое мышление, коммуникация, кооперация
10.	1 мин.	Учитель предлагает детям сверить выводы с учебником	Критическое мышление
11.	2 мин.	Физкультминутка	
12.	2 мин.	Учитель раздает детям алгоритм с нарушенным порядком определения склонения. Задание: восстановить порядок (прил.5) и проверить по образцу	Критическое мышление, коммуникация, кооперация
13.	5 мин.	Дети выполняют задание на закрепление полученных знаний, за которые, по желанию ребенка, выставляется отметка. (прил.6)	Критическое мышление, креативное мышление



14.	6 мин.	<p>Каждый ребенок получает карточку с тремя заданиями для самостоятельной работы по уровню сложности. Ученики сами определяют уровень сложности и принимают решение, будут ли они выполнять это задание у доски.</p> <p>На доске выполняются задания всех уровней и проверяются детьми (прил.7)</p>	<p>Критическое мышление, креативное мышление, коммуникация</p>
15.	3 мин.	<p>Подведение итогов. Ученики заканчивают предложения (прил.8)</p>	<p>Критическое мышление, коммуникация</p>
16.	2 мин.	<p>Рефлексия (учитель задает вопросы, ученики поднимают сигнальные карточки) (прил.9)</p>	<p>Критическое мышление</p>

Приложения № 1

ДЕРЕВО, СТОЛ, МАШИНА, РИСОВАТЬ, ЧЕЛОВЕК

Приложения № 2

«Дополни слово»

Ведущий называет часть слова (кни ...) и бросает мяч.

Ребенок должен поймать мяч и дополнить слово (... га).

В роли ведущего ребенок и взрослый могут выступать поочередно.

Составить из предлагаемого набора букв как можно больше слов: **а, к, с,**

о, и, м, р, т м, ш, а, н, и, ы, г, р



Приложения № 3

«Перевернутые слова»

Ребенку предлагается набор слов, в которых буквы перепутаны местами. Необходимо восстановить нормальный порядок слов.

Пример: МАИЗ - ЗИМА.

В сложных случаях буквы, являющиеся в окончательном варианте первыми, подчеркиваются.

Пример: НЯНААВ — ВАННАЯ.

Приложения № 4

«Из слогов — слова»

Из предварительно отобранных слов формируется несколько блоков слогов. Ребенку предлагается составить из них определенное количество слов, используя каждый слог только по одному разу.

Составь три слова, в каждом из которых по 2 слога, из следующих слогов: ван, мар, ко, ма, ди, ра. (Ответ: ра-ма, ко-мар, ди-ван).

Составьте 3 двусложных слова из слогов: ша, ка, ка, ру, ка, ре.

Игры и игровые задания - упражнения можно классифицировать по школьным разделам языкознания. Занимательный игровой материал учитель сможет применить в ходе изучения ведущих разделов школьного языкознания, таких как: «Фонетика», «Морфология», «Лексикология», «Синтаксис».



Приложения № 5

Продолжите предложение



Приложения № 6

Группа 1	Группа 2	Группа 3
<p>Определите род существительных, выделите окончания.</p> <p>Земля, дедушка, улыбка, стена, слуга.</p> <p>Что объединяет все эти слова?</p> <p>Продолжите вывод: к 1 склонению относятся существительные..., с окончаниями ...</p>	<p>Определите род существительных, выделите окончания.</p> <p>Окно, велосипед, полотенце, стол, поле, тюль.</p> <p>Что объединяет все эти слова?</p> <p>Продолжите вывод: ко 2 склонению относятся</p>	<p>Определите род существительных, выделите окончания.</p> <p>Печь, ель, степь, соль, мышь.</p> <p>Что объединяет все эти слова?</p> <p>Продолжите вывод: к 3 склонению относятся существительные..., с ... окончаниями.</p>



	существительные..., с окончаниями ...	
--	--	--

Приложения № 7

Уровень 1.	Уровень 2.	Уровень 3.
Спиши существительные.	Выпиши существительные 3 склонения.	Подберите и запишите к словам синонимы.
Герой, дупло, ночь, яблоко, море, метель, родник, погода, поляна, помощь.	Жизнь, печь, дочь, картофель, степь, автомобиль, морковь, тетрадь, лошадь, конь, день, лень, пень, боль, площадь.	Отец, деревня, торжество, везение, чародей, зной.

Приложения № 8

Я узнал...

Я понял...

Теперь я умею...

Я научился...

Мне было сложно...

Мне было легко...

Мне это пригодится...

Приложения № 9


Рефлексия: по 4 К

- 1.Соглашались ли с вашим мнением одноклассники?
- 2.На уроке предлагали свои идеи, выполняя задания?
- 3.Легко ли вам работалось сегодня, в таком составе?
- 4.Во время урока приходилось обращаться за помощью к одноклассникам?

Да- **зеленый цвет**

Нет- **красный**





Уроки, основанные на игровых методах обучения русскому языку, более эффективны и эмоционально насыщены, чем традиционные.

Игровые методы, используемые на уроках русского языка, позволяют учителям разнообразить свой урок, сделать его наиболее интересным для младших школьников.

В процессе проектной деятельности по игровой технологии обучающиеся овладевают компетенциями целеполагания и планирования, командного взаимодействия, коммуникации, самоорганизации.

На таких занятиях обучающиеся чувствуют себя более свободно и комфортно. Также они активно обсуждают различные задачи и проблемы, приучаются свободно высказываться и аргументированно отстаивать свою точку зрения.

Таким образом, применение игровых технологий на уроках русского языка снижает уровень утомляемости учащихся, повышает уровень мотивации к изучению русского языка и повышает уровень познавательной активности учеников, благодаря чему результативность и эффективность процесса обучения становится выше.

Литературы:

1. Балахонова, А.А. Актуальные педагогические технологии XXI века [Текст] /А.А. Балахонова // Вестник «БелИРО». – 2019, №2 (12). – С.64-69.
2. Беляева, О.А., Даценко О.А. Поурочные разработки по русскому языку. 6 класс [Текст] / О.А. Беляева, О.А. Доценко, Москва: Вако, 2018. – 288 с.
3. Булгакова И.В. Нестандартные уроки русского языка. 5 – 7 классы. Ростов н/Д: «Феникс», 2002.



4. Граник Г.Г., Бондаренко С.М., Концевая Л.А. Секреты орфографии: Кн. для учащихся 5 – 7 кл. М.: Просвещение, 1991.
5. Игровые технологии на уроках русского языка. 5-9 кл. Авторы-составители: Пташкина В.Н., Виноградова К.Е. и др. [Текст] / В.Н.Пташкина, К.Е.Виноградова, Волгоград: Учитель, 2019. – 134 с.
6. Калугин М. А. Развивающие игры для 1- 4 классов- Ярославль, 2006
7. Компетенции «4К»: формирование и оценка на уроке: Практические рекомендации / авт.-сост. М.А.Пинская, А.М.Михайлова. – М.: Корпорация «Российский учебник», 2019. – 76, [4] с.
8. Компетенции «4К»: средовые решения для школы. Практические рекомендации: учебно-методическое пособие / сост. М.А.Пинская, А.М.Михайлова. — М.: Российский учебник, 2020. – 95, [1] с.: ил.
9. Нестандартные уроки. Русский язык. 5-11, автор-составитель Шарова Н.А. [Текст] / Н.А.Шарова, Волгоград: Учитель, 2020. – 112 с.
10. Развивающие игры: практическое пособие для родителей, учителей/ Н.Е. Граш [и др.]. – Ростов н /Д: Феникс, 2010.-92, [2] с.: ил. – (Школа развития)
11. Пташкина В.Н., Виноградова К.Е., Игровые технологии на уроках русского языка. 5 – 9 классы. Волгоград: Учитель, 2009.
12. Шкатова Л.А. Подумай и ответь: Занимательные задачи по русскому зыку: Кн. для учащихся 5 – 7 кл. М.: Просвещение, 1989.
13. <http://festival.1september.ru/articles/572501/> - Игровые технологии на уроках русского языка как один из способов активизации познавательной деятельности обучающихся 5–9-х кл. Ерошкина М. В.
14. <http://pokrov8.siteedit.ru/page68> - Игровые технологии на уроках русского языка как средство развития познавательной активности у школьников. Савенко Н.В., учитель русского языка и литературы
15. <http://urengo1.siteedit.ru/page112> - Игровые технологии на уроках русского языка и литературы. Сергеева Е. А.

Onalar stressining bolaning ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri

Ibodullayeva Dilafuz

UrDPI o'qituvchisi

Annotatsiya

Tadqiqot ob'yektlari O'zbekiston respublikasi Xorazm viloyatida joylashgan 4ta bolalar bog'chasidagi 200 nafar tarbiyalanuvchi va ularning onalari qatnashdilar. Ostberg (1998), Ostberg va Hagekull (1997) tadqiqotida Abidin (1990) tomonidan ota-onaning stressini o'lchash uchun ishlab chiqilgan tadqiqot asosida ishlandi. Ota-ona stressi indeksiga (PSI) asoslanib, faqat bola tarbiyasidagi stressni o'lchash uchun mo'ljallangan tadqiqotni ishlab chiqdilar. PSQ (Ota-onalik stressi so'rovi) anketasi Eun-Kyung Huh (2004) tomonidan moslashtirilgan va o'zlashtirilgan. Onalarning ota-onalik munosabatlarini o'rganish uchun Won-Young Li (1983) tomonidan moslashtirilgan Schaeferning MBRI (Onalar xulq-atvorini o'rganish vositasi) ishlatilgan. Yig'ilgan ma'lumotlar bo'yicha statistik tahlil SPSS 23.0 dasturi yordamida amalga oshirildi. Tadqiqot mavzusining umumiy tafsilotlarini bilish uchun chastota va foizlar olindi va o'lchov vositasining ishonchliligini tekshirish uchun Kronbax a koeffitsiyenti hisoblab chiqildi.

Kirish

Azaldan O'zbekiston xalqi o'zini “bolajon xalq” deb ataydi va tug'ilishni fazilat deb biladi. Buni O'zbekistonda yoshlarning asosiy qadriyati “oila va farzand” ekanligi, oila qurish, farzandlar tarbiyasi hayotdagi muhim maqsad sifatida qaralayotganida ham ko'rish mumkin.

O'zbekistonlik ota-onalar o'z farzandlarini tarbiyalash uchun o'z jonlarini fido qilishlari, ota-onalar esa o'z farzandlarini jamiyatda yashashlari uchun o'qitishlari shart deb bilishadi. Ma'lumki, onalar bolalarni tarbiyalashda otalarga qaraganda ko'proq mas'uliyatga ega. Islom madaniyati hisoblangan O'zbekistonda erning oilasi uchun pul topishi, xotinning esa uyda farzand tarbiyasi bilan shug'ullanishi muhim ahamiyatga ega, shuning uchun onaning farzand tarbiyasiga munosabati bolalarga katta ta'sir ko'rsatishi shubhasiz. Qolaversa, o'zbek ayollarining o'rta ta'lim darajasi oshib borayotgan bo'lsa-da, jamiyatda o'sishi oson bo'lmagan sharoitda farzand tarbiyasi uchun o'zini qurbon qilgani uchun ular ota-onalik stressini boshdan kechirishi shubhasizdir. Qolaversa, O'zbekistondagi



maktabgacha ta'lim muassasalari bo'lgan bolalar bog'chalari va maktabgacha ta'limga qamrov darajasi qanchalik yuqori bo'lmasin, undagi pedagogik jarayonlar sifat ko'rsatkichlarining pastligi va bolalarni tarbiyalash yukining yuqori bo'lishi onalar stressining kelib chiqishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ona o'z farzandlarining hayotiga doimiy ta'sir ko'rsatadigan muhim shaxsdir. Shu sababli, onaning ota-onalikka qarama-qarshi munosabati va ota-onalikka bo'lgan stressi bolaning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi va ular katta bo'lganidan keyin ham bolalarda ijtimoiy moslashuv muammolarini keltirib chiqaradigan kuchli omilga aylanadi. Boshqacha qilib aytganda, onaning ota-onalik munosabatiga qarab, bolaning muammoli xatti-harakati kamayishi yoki kuchayishi mumkin. Bundan tashqari, ota-onalarning stressiga e'tibor qaratish lozim, chunki u qaysi davrdan qat'iy nazar, oilaviy munosabatlarga va bola tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ota-onalik stressi ota-ona rolini bajarish jarayonida seziladigan stressni anglatadi. Farzand tarbiyasidagi yuk va mas'uliyat ortib borishi bilan onalar tomonidan his etilayotgan ota-onalik stressi kuchayib, bolalarga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Agar onaning ota-onalik stressi yuqori bo'lsa, u bolaning ehtiyojlariga befarq bo'lib, bolaga unchalik qiziqmaydi. Bundan tashqari, onaning ota-onalikdagi stressi uning farzandlari bilan o'zaro munosabatlariga salbiy ta'sir qiladi va bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga to'sqinlik qiladi. Ijtimoiy ko'nikmalarga ega bo'lmagan bolalarda o'zini o'zi qadrlash, akademik ko'rsatkichlar, g'azab va jahldorlik, tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlar o'rnatishda qiyinchiliklar mavjud bo'lishi mumkin.

Onaning ota-onalikka munosabati va ota-onalikka bo'lgan stress bilan bog'liq bo'lgan bolalarning muloqotchanligi - bu bolaning jamiyat a'zosi sifatida o'sib ulg'ayishi va rivojlanishi paytida boshqalar bilan o'zaro aloqada bo'lish orqali to'g'ri ijtimoiy hayot kechirish qobiliyatidir (Koreya erta bolalar ta'limi jamiyati, 1999). Bolalar onalari bilan eng yaqin munosabatda bo'lish va ular bilan eng ko'p vaqt o'tkazish orqali boshqalar bilan o'zaro muloqot qilish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy rivojlanish asoslarini o'rganadilar. Ona bolaning umumiy rivojlanishida mutlaq ishtirok etadigan va shaxsiyat rivojlanishi, ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga ta'sir qiluvchi muhim shaxsdir.

Ma'lumki, keyingi paytlarda ijtimoiy hayotimizda onalar stressidan aziyat chekuvchi va bu vaziyatning qurbonlari haqidagi hodisalar quloqqa chalinmoqda. Buning sababi turlicha, ya'ni, moliyaviy-iqtisodiy qiyinchiliklar yoki ota-onalik



bilimini puxta o'rganmaslik, mas'uliyatsizlik, turmush o'rtog'ining xiyonati, hayotiy tajribalarning yetarli emasligi bo'lishi mumkin.

Yuqoridagidek, onaning ota-onalikka munosabati va ota-onaning stressi bolaning ijtimoiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rish mumkin. Shu bilan bog'liq bo'lgan tadqiqotlarni ko'rib chiqsak, onalarning ota-onalik munosabatlari va bolalarning ijtimoiy ko'nikmalari va onalarning ota-onalik stressining bolalarda muammoli xatti-harakatlarga ta'siri bo'yicha tadqiqotlarni ko'rish mumkin. Biroq O'zbekistonda onalarning ota-onalikka bo'lgan munosabati yoki ota-onalik stressi bo'yicha tadqiqotlar juda kam. Bundan tashqari, onalarning ota-onalik munosabatlari va ota-onalik stressi bilan bog'liq holda bolalarning ijtimoiyligini o'rganadigan tadqiqotlarni topish qiyin. Shu maqsadda tadqiqot ob'yektlari belgilandi.

Asosiy qism

Ota-onalarning stressi bolalar bilan kundalik hayotda takrorlanadigan qiyinchiliklar, onalar uchun hissiy qiyinchiliklar va og'irliklarni keltirib chiqaradigan, masalan, asabiylashish, jismoniy charchash, bezovtalik kabi ta'riflanadi. Bu onalarning farzandlarini tarbiyalashda ota-onalik xatti-harakatlari bilan bog'liq bo'lgan rivojlanish va his-tuyg'ularga ta'sir qilishini ko'rish mumkin. Ota-onalarning stressi - bu muayyan vaziyatda yuzaga keladigan va oila tizimiga qarshi turishning rivojlanish jarayonida ma'lum darajada kutilgan stressdir. Onalar o'z farzandlarini tarbiyalashi davomida ruhiy va jismoniy iztirobni his qilishlari va bolalarda erkinlik yo'qligi sababli psixologik yukni his qilib yashashlari mumkin.

Ota-onalarning stressi ota-onalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida yuzaga keladigan kundalik stressdir, ammo bu stressning juda muhim sababi bo'lib, u bolaning xatti-harakati, ota-onalarning ruhiy salomatligi va oila faoliyatiga stressdan ko'ra aniq voqealar ko'proq ta'sir qiladi. Kichkina kundalik stresslarning to'planishi muayyan hodisalar tufayli yuzaga keladigan stressdan ko'ra shaxsning hissiy barqarorligiga ko'proq salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi sababli, kundalik stressdan ko'ra ota-onalarning stressiga ko'proq e'tibor berish kerak. Ma'lum bo'lishicha, bolalarni tarbiyalashda stress yuqori bo'lsa, ota-onalarning tarbiyaga bo'lgan qiziqishi, mehr-oqibati pasayib, ular o'z farzandlariga nisbatan salbiy va noto'g'ri tarbiyaviy xatti-harakatlarga kirishadilar. Ota-onalarning

tarbiyalashdagi stressi ularning tarbiyaviy xulq-atvori bilan chambarchas bog‘liq, shuning uchun ota-onalar ota-onalik stressini qanchalik ko‘p boshdan kechirishsa, ular o‘z farzandlariga nisbatan istalmagan ota-ona xatti-harakatlarini ko‘paytiradilar, bu esa bolaning o‘shishi va rivojlanishiga salbiy ta‘sir qiladi.

Lazarus va Folkman (1984) muhim hayotiy voqealar yoki kundalik stressning to‘planishi bolalar va onalar o‘rtasidagi noto‘g‘ri aloqalar bilan bog‘liqligini tushuntiradi. Farzandlarini tarbiyalashda onaning stressi shu nuqtai nazardan muhim hisoblanadi. Buning sababi shundaki, ona oilada eng asosiy rolni o‘ynaydi. Oilaviy stressni o‘rganish guruhi (1994) onalar farzandlarini tarbiyalashda boshdan kechiradigan stressning uchta asosiy sababini tushuntiradi. Birinchidan, onaning o‘z roli haqida bo‘lishi mumkin bo‘lgan fikrlari va his-tuyg‘ulari; ikkinchidan, bolaning xatti-harakati yoki bolaning rivojlanishi bilan bog‘liq muammolarning paydo bo‘lishi, uchinchidan, onaning hissiy muammolari, shaxsiy kasalligi yoki oila a‘zolaridan yordam ola olmaslik, ishxonada jamoa a‘zolari tomonidan qo‘llab-quvvatlashining yetishmasligi, maxsus hayotiy hodisalarning ro‘y berishi va boshqalar bo‘lishi mumkin.

Ota-onalarning sog‘lig‘i holati ota-onalarning stressida juda muhim rol o‘ynaydi. Onalar salomatligi va stress o‘rtasidagi bog‘liqlik bo‘yicha o‘tkazilgan tadqiqotga ko‘ra, ona qanchalik sog‘lom bo‘lsa, uning o‘ziga bo‘lgan hurmati shunchalik ijobiy bo‘ladi va hayotidan qoniqish darajasi yuqori bo‘ladi va umumiy stressdan xabardorligi shunchalik past bo‘ladi. Onaning jismoniy salomatligi bolalarga g‘amxo‘rlik qilish uchun zarur bo‘lgan energiya manbai bo‘lib, u ruhiy salomatlik bilan ham bog‘liq, shuning uchun onaning sog‘lig‘i holati bolalarni tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi.

Crnic va Greenberg (1990) stressni kundalik stress sifatida kontseptsiyalashtirib, uni oilaviy hayotdagi ota-ona va bola munosabatlarning tabiati sifatida ta‘riflagan, bu yerda kundalik tartibdagi takrorlanuvchi hodisalar ota-onalarni bezovta qilish, qiyinchilik va g‘azablanishga olib keladi, bu esa stress sifatida ishlaydi. Bu g‘amxo‘rlikka muhtoj bo‘lgan yosh bolalari bo‘lgan ota-onalarning stressini tushunishda muhim tushuncha ekanligini aytdi. Ota-onalarning bunday kundalik stressi ota-onalarning ijtimoiy-iqtisodiy holatidan yoki ota-ona va bolaning o‘zaro ta‘siridan qat‘iy nazar sodir bo‘lishi mumkin va xavfli va xavfli bo‘lmagan guruhlarda ham paydo bo‘lishi mumkin, shuning uchun ota-onalarni tarbiyalash jarayonini tushunish muhimdir. Boshqacha qilib aytadigan bo‘lsak,



"kundalik stress" tushunchasini ota-onalarning roliga nisbatan qo'llash mumkin. Kundalik hayotda bolalarga g'amxo'rlik qilish har kuni takrorlanadi va hayotda ota-onalarni muntazam, zerikish, asabiylashish kabi holatlarga olib keladigan ko'plab vaziyatlar mavjud. Bu ota-onaning stressini tashkil etuvchi muhim omil bo'lishi mumkin.

Ota-onalarning stressiga ta'sir qiluvchi omillarni birinchidan, bolaning xususiyatlariga, ikkinchidan, ota-onalarning xususiyatlariga va uchinchidan, vaziyatli hayotiy stressga bo'lish mumkin.

Birinchidan, bolaning xususiyatlari ota-onalarning farzandlarini qanday tarbiyalashiga va bolaning turli xatti-harakatlariga asoslanib, ularning ota-onaga munosabatini aniqlashiga katta ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, bolalar shaxsiy rivojlanish xususiyatlariga qarab vaqti-vaqti bilan o'zgarib turadigan vaziyatlarni boshdan kechirishadi va ularni idrok etishlari va ular bilan kurashish usullari ularga g'amxo'rlik qiluvchilarning xatti-harakatlariga ta'sir qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, bolalarning bu xususiyatlari ota-onalarning stressiga ta'sir qiladi. Umuman olganda, temperamenti og'ir bo'lgan bolalarda tashvish va tajovuzkorlik kabi muammoli xulq-atvorning paydo bo'lish xavfi bor, tez xafa bo'ladigan bolalar tez jahli chiqadi va tasalli topishda qiynaladi, juda faol bolalar esa haddan tashqari energiyaga ega bo'ladi.

Ikkinchidan, ota-onaning o'ziga xos xususiyatlari bola tarbiyasidagi stressga sezilarli ta'sir ko'rsatadi, masalan, ota-onaning bolani tarbiyalashda bolaning xatti-harakatini idrok etishi. Ota-onaning o'z shaxsiyati va sog'lig'i, ikki tomonlama daromadli oila va ota-onaning ruhiy barqarorligi, turmush o'rtog'i bilan munosabatlari, madaniy daraja va ijtimoiy yordam ota-onalarning xususiyatlariga kiradi. Ota-onalarning bu xususiyatlari turg'unlik, malaka va ota-onalarning shaxsiyati va patologik omillariga mos keladigan bog'liqlik va vaziyat o'zgaruvchilariga mos keladigan turmush o'rtoqlar o'rtasidagi munosabatlar, izolyatsiya, sog'liq va zulm bilan izohlanadi. Bu yerda kompetentsiya ota-onalar o'z vazifalarini bajarishda o'z farzandlarining ehtiyojlarini qanchalik to'g'ri bajara olishlari, tushunishlari va bolalarining ehtiyojlarini qanchalik qondirishlari bilan bog'liq. Qobiliyati past bo'lgan ota-onalar bola rivojlanishi uchun zarur bo'lgan bolani tarbiyalashda haqiqiy qo'llab-quvvatlash muhiti yo'qligi sababli bilim yoki yordam bera olmaydi, shuning uchun ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda ko'proq stressni boshdan kechiradilar.



Uchinchidan, hayotiy stress deganda odamlarning kundalik hayotida boshdan kechiradigan va yashash muhiti, iqtisodiy sharoitlar, ikki tomonlama daromad, madaniy daraja va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bazasi katta ta'sir ko'rsatadigan stressni anglatadi. Er-xotinning farzand tarbiyasiga nisbatan turlicha qarashlari va iqtisodiy sharoitlarning yomonlashuvi tufayli yashash og'irligi ularni ruhiy tushkunlik va nochor his qilishiga olib keladi, shaxsiy muammolar esa bolalarni tarbiyalashni qiyinlashtiradi, natijada tanglik va ijtimoiy izolyatsiya, xavfsizlik va sog'liq uchun xavf tug'diradi. Bu ota-ona stressining kuchayishiga olib keladi.

Shunday qilib, ota-ona stressi oiladagi stressni tashkil etuvchi omil va onaning individual muammosi emas, balki bola tarbiyasi bilan chambarchas bog'liq va bolaning ijtimoiy rivojlanishiga emotsional rivojlanish va oilaning funksional rivojlanishi sezilarli ta'sir ko'rsatadigan muhim o'zgaruvchidir. Xususan, onalar uchun o'z ota-ona rolini bajarishda bolalarning bolalik va yoshlik davridagi ota-onalik stressini idrok etishi va tushunishi juda muhimdir. Onaning tarbiyalashdagi stressi nafaqat uning hayoti, balki bolaning rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omil bo'lishi mumkin, bu uning ota-ona sifatidagi tajribasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin, shuning uchun onaning tarbiyalash stressiga katta e'tibor berish va ular bilan bog'liq omillar bo'yicha tadqiqotlar olib borish kerak.

Abidin (1995) tegishli tadqiqotlarga nazar tashlab, bolaning xususiyatlari, ota-onalarning xususiyatlari, hayotdagi turli hodisalar, ular atrofida sodir bo'layotgan voqealar va turli muhitlar ota-onalarning rolini ham zararli, ham foydali tomonlarini ta'minlashini aniqlagan va ta'sir qilishi aytilgan. Ota-onalarning bu stressi ota-onalarning xatti-harakatlariga ijtimoiy yordam, ota-onalarning malakasi, nikoh munosabatlari va jismoniy resurslar o'rtasidagi o'zaro ta'sir orqali ta'sir qiladi. Cogito (2015) ga ko'ra, ayollar o'zlarining eng muhim burchi - onalik ekanligini da'vo qilishadi. Onaning farzandlari oldidagi mas'uliyati cheksiz ekanligini hisobga olsak, mehnat va ijtimoiy hayotda ishtirok etishi kerak bo'lgan ayollar farzandlari uchun ko'p vaqt va fidoyiliklarini sarflayotganini ko'rish mumkin.

Shunday qilib, onaning bolalariga stressni bartaraf etish ta'siri uning ota-onaga bo'lgan ijobiy munosabatiga ta'sir qiladi. Ota-onalari doimiy ijobiy munosabatdan foydalanadigan va rag'batlantiradigan bolalar o'zlarini hissiy tartibga solish uchun g'amxo'rlikka muhtoj mavjudotlar sifatida ko'rishadi va birgalikda



hayotlarida salbiy his-tuyg‘ularni emas, balki ijobiy his-tuyg‘ularni ifodalash ehtimolini oshirish orqali barqaror his-tuyg‘ularni boshdan kechiradilar.

Ushbu tadqiqotning maqsadi O‘zbekistondagi onalarning shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra ota-onalikka bo‘lgan munosabat va ota-onalik stressidagi farqlarni va bolalarning individual xususiyatlariga ko‘ra ijtimoiy rivojlanishdagi farqni o‘rganish hamda onalarning ota-onalikka munosabati o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilishdan iborat. Shu maqsadda quyidagi tadqiqot savollari belgilandi.

Tadqiqot savoli:1.Onalarning ota-onalik stressi va bolaning ijtimoiy rivojlanishining umumiy tendensiyasi qanday?

Tadqiqot savoli:2.Onaning shaxsiy xususiyatlariga ko‘ra, ota-onalik munosabati va ota-onalikning stressida farq bormi?

Tadqiqot savoli:3.Bolalarning individual xususiyatlariga ko‘ra ijtimoiy rivojlanishida farq bormi?

Tadqiqot ob‘yektlari O‘zbekistonning Xorazm viloyatida joylashgan 4ta bolalar bog‘chasidagi 200 nafar tarbiyalanuvchi va ularning onalari edi. Ostberg (1998), Ostberg va Hagekull (1997) tadqiqotida Abidin (1990) tomonidan ishlab chiqilgan ota-onaning stressini o‘lchash uchun ishlab chiqilgan. Ota-ona stressi indeksiga (PSI) asoslanib, faqat bola tarbiyasidagi stressni o‘lchash uchun mo‘ljallangan tadqiqotni ishlab chiqdilar. PSQ (Ota-onalik stressi so‘rovi) anketasi Eun-Kyung Huh (2004) tomonidan moslashtirilgan va o‘zlashtirilgan. Onalarning ota-onalik munosabatlarini o‘rganish uchun Won-Young Li (1983) tomonidan moslashtirilgan Schaeferning MBRI (Onalar xulq-atvorini o‘rganish vositasi) ishlatilgan. Yig‘ilgan ma’lumotlar bo‘yicha statistik tahlil SPSS 23.0 dasturi yordamida amalga oshirildi. Tadqiqot mavzusining umumiy tafsilotlarini bilish uchun chastota va foizlar olindi va o‘lchov vositasining ishonchliligini tekshirish uchun Kronbax a koeffitsiyenti hisoblab chiqildi.

Xulosa

Biz onaning ota-onalik stressi va bolaning ijtimoiy rivojlanishi bo‘yicha tavsiflovchi statistik ma’lumotlarni o‘tkazdik va onaning ota-onalik stressi va bolaning ijtimoiy rivojlanishi o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun t-test va ANOVA tahlilini o‘tkazdik. Pearson korrelyatsiya tahlili onaning ota-onalik stressi va bolaning ijtimoiy rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganish uchun o‘tkazildi.

Onaning individual o‘zgaruvchilari bo‘yicha ota-onalik munosabati va ota-ona stressini o‘rganish orqali maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy rivojlanishidagi farqlarni tahlil qilish natijalari va onaning ota-onalik stressi va bolaning ijtimoiy rivojlanishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni tahlil qilish quyidagicha:

Birinchidan, onaning ota-onalik stressi va bolaning ijtimoiy rivojlanishi bo‘yicha tavsiflovchi statistik ma‘lumotlar natijasida, onaning ota-onalik munosabati pastki omillar orasida eng yuqori rad etish munosabatini va eng past nazorat qiluvchi munosabatni ko‘rsatdi. Onaning ota-onalik stressi sub-faktorlar orasida sog‘liq bilan bog‘liq eng yuqori va eng past rol chegarasini ko‘rsatdi. Bolaning ijtimoiy rivojlanishining kichik elementlarida o‘z-o‘zini yo‘naltirish eng yuqori, empatiya nazorati esa eng past darajada ekanligi aniqlandi.

Ikkinchidan, onaning individual o‘zgaruvchilari bo‘yicha ota-ona munosabati bolaning yoshi, onaning ta‘lim darajasi, onaning kasbi va uy xo‘jaligining umumiy daromadida sezilarli farqlarni ko‘rsatdi. Ota-onalarning stressi bolaning yoshi, onaning yoshi, onaning ma‘lumot darajasi va onaning kasbi o‘rtasida statistik jihatdan sezilarli farq borligi aniqlandi.

Uchinchidan, bolalarning ijtimoiy rivojlanishida bolaning yoshi, onaning ta‘lim darajasi va onaning kasbi bo‘yicha sezilarli farq borligi aniqlandi.

Bu ota-onalarning stressini kamaytirishga yordam beradigan ota-onalarning ta‘limi fan dasturini ishlab chiqish zarurligini va yosh bolalarning ijobiy ijtimoiy rivojlanishi uchun turli usullarni o‘rganish zarurligini ko‘rsatdi. Buning uchun ta‘lim muassasalarida zamonaviy ota-onalar uchun farzand tarbiyasida foydalaniladigan o‘quv qo‘llanmalar, tavsiyalar, psixologik treninglar, chet el tajribasidan foydalangan holda darsliklar ishlab chiqishni ko‘zda tutadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Abidin.R.R. (1990). Parenting stress index /Short Form (PSI/SF): Charlottesville, V.A.; Pediatric Psychology Pas.
2. Abidin.R.R., (1992). The Determinants of parenting behavior. The Journal of Clinical Child, 21(4), 401-412.
3. Ibodullayeva.D. (2022). Onalarning ota-onalik munosabati, ota-onalik stressi va bolaning ijtimoiy rivojlanishi o‘rtasidagi munosabatlar tahlili: O‘zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati misolida. Magistrlik dissertatsiyasi. Honam university.

4. Eunjin Kang, Ejin Li va Jeonglim Li (2016). Onaning ota-onalik xatti-harakati, ota-onaning stressi va madaniy infratuzilmadan foydalanish chastotasining bolalarning ijtimoiy ko'nikmalariga ta'siri. Koreyscha chaqaloqlar va bolalarni parvarish qilish jurnali 98. 29-49.
5. Kim Geum-son (2011). Ota-onalarning ota-onalikka bo'lgan munosabatining bolalarning ijtimoiy rivojlanishiga ta'siri: Cheongju hududidagi bolalar bog'chalariga qatnaydigan bolalarga qaratilgan. Cheongju universiteti magistrlik dissertatsiyasi.
6. Kim Yon Ok (2003). Yosh bolalarda ijtimoiy xulq-atvorni baholash shkalasini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot. Bolalar jurnali 24.5.105-118.
7. Kim Yong-im (2017). Onalarning ota-onalik stressining depressiya va tashvishga ta'siri: ego chidamliligining vositachilik ta'siri. Magistrlik dissertatsiyasi, Honam universiteti Oliy ijtimoiy konvergentsiya maktabi.
8. Youngjin Kim (2012). Markaziy Osiyoda mehnat migratsiyasining hozirgi holati va ijtimoiy-iqtisodiy ta'siri. Slavyanshunolik 28.1.1-26.
9. Kim Eun-Seol va Choi Xye-sun (2008). Koreyslarning bolalarni tarbiyalash haqidagi qarashlari. Seul: Bolalarni parvarish qilish siyosatini rivojlantirish markazi.
10. Jiyoung Kim (2015). Chaqaloq onalarining ota-onalikka bo'lgan munosabati va ota-ona stressi. Stress tadqiqotlari 23.2.91-100.
11. Xyunmi Kim (2004). Ota-onalarning samaradorligi va ota-onalarning xatti-harakatlari va bolalarning ijtimoiy qobiliyatlari o'rtasidagi bog'liqlik. Magistrlik dissertatsiyasi, Ewha Womans University Graduate School.
12. Seonghee Park (2016). Onaning ota-onalikka munosabati, tilni nazorat qilish turi va maktabgacha yoshdagi bolalarning ijtimoiy qobiliyati o'rtasidagi bog'liqlik. Koreya bolalar hamshiralik akademiyasi 22.2. 97-106.
13. Aunola, K., & Nurmi, J. -E. (2005). The Role of Parenting Styles in Children's Problem Behaviour. Child Development 75. 1144-1159.
14. Djurayev Orif (2020). "Koreya va O'zbekiston madaniy holati va xususiyatlarini qiyosiy taqqoslash tadqiqoti" Chungbu university.
15. Kurbanova Xatira (2018). "Koreya va O'zbekiston maktabgacha va boshlang'ich maktab ta'limini o'zgarish jarayonini taqqoslash tadqiqoti" Chungbu university.
16. Mutalipova, M. J. (2015). Xalq pedagogikasi, Pedagogika va psixologiya talabalari uchun o'quv qo'llanma, "Fan va texnologiya".

17. Knafo, A., & Plomin, R. (2006). Parental Discipline and Affection and Children's Prosocial Behaviour: Genetic and Environmental Links. *Journal of Personality and Social Psychology* 90.1. 147.
18. Fantuzzo, J., and McWayne, C. (2002). The Relationship between Peer-play Interactions in the Family Context and Dimensions of School Readiness for Low-income Preschool Children. *Journal of Educational Psychology* 94.1. 79-87.
19. Cogito (2015). Turkiyede ebeveynlik Bilge Selcuk ile soylesi.
20. Crnic, K.A. & Greenberg, M.T. (1990). Minorparenting stresses with youngchildren. *Child Development*. 61, 1628-1637.



Research Science and
Innovation House



BERUNIYNING ILMIY MEROSI VA FANLAR TARAQQIYOTIDA TUTGAN O‘RNI

Karamatova Dilfuza Sadinovna - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Boshlang‘ich ta‘lim pedagogikasi kafedrasida o‘qituvchisi.

Kazakova Sojida Nariman qizi - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti 2-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abu Rayhon Beruniyning qisqacha hayoti hamda butun umri davomida izlanishlari va tadqiqotlari davomida yozib qoldirgan ilmiy meroslari shu bilan birga ushbu asarlarning fanlar taraqqiyotida tutgan o‘rni haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: geodeziya, astranomiya, geografiya, paleontologik kuzatishlar, taraqqiyot, ilmiy meros, irsiyat, muhit, tarbiya, kamolot, kuzatishlar, tajriba.

Аннотация: В данной статье рассказывается о недолгой жизни Абу Райхана Беруни и научном наследии, которое он оставил в ходе своих исследований и занятий на протяжении всей своей жизни, а также о роли этих трудов в развитии науки.

Ключевые слова: геодезия, астрономия, география, палеонтологические наблюдения, развитие, научное наследие, наследственность, окружающая среда, образование, зрелость, наблюдения, опыт.

Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy – Islom oltin davrining zabardast vakillaridan biri. G‘arb mamlakatlarida uning ismi Alibo‘ron deb ham yuritiladi. Al-Beruniy nomi forscha so‘zdan olingan bo‘lib o‘zi tug‘ilgan Afrig‘ Xorazmshohlar poytaxti Kat shahrining chekka bir tumani nomiga atab qo‘yilgan.

Al-Beruniy milodiy 973-yilda Ahmad ibn Ali Andijani xonadonida tavallud topgan. Uning komil inson bo‘lib yetishishida Muhammad ibn Jobirning hissasi katta. Beruniyning ilmiy boyligi haqida gapiradigan bo‘lsak, Xorazm tili bilan birga forsiy, sog‘diy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, hattoki qadimgi hind tili sanskritini ham o‘rgangan. Butun umri davomida o‘qib izlangan, shu qatorda ko‘pgina tadqiqotlar olib borgan. U yunon klassik ilmi, astronomiya, geografiya, botanika, tarix, geologiya hamda filologiya va falsafa fanlaridan ham chuqur bilimlarni egallagan hamda ushbu fanlarga oid ko‘pgina asarlarni ham yaratgan.



Allomaning yer yuzasi va koinotga doir bilimlarining sarhadi judayam keng bo‘lgan [1, 2].

Abu Rayhon Beruniy geografiya, astranomiya va geodeziyaga oid amaliy masalalariga yechim topgan. U Amerika qit‘asining borligini taxmin qilib ketgan. Ammo o‘sha davrda tadqiqotlarini isbotlashning iloji bo‘lmagan. U Sharq mamlakatlari orasida birinchi bo‘lib Yer va Osmon globusini yasagan hamda astranomiya o‘id bir qancha asarlar yozgan.

Allomaning Qobus ibn Vushmagirga bag‘ishlab yozgan “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari Beruniy nomini Yaqin va O‘rta Sharqqa mashhur qilgan. Ushbu asarda o‘zidan oldin yashab o‘tgan xalqlarning yozib qoldirgan ilmiy asarlari va moddiy meroslari haqida so‘z yuritiladi.

O‘z davrining buyuk olimi bo‘lgan Beruniyning ilmiy merosi haqida yozadigan bo‘lsak, yillar davomida qimmatbaho toshlar va kamyob metallar ustidagi tajriba va tadqiqotlar asosida “Minerologiya” asarini yaratgan. Ma‘mun akademiyasidagi faoliyati davomida “Xorazmning mashhur kishilari”, “Geodeziya” (to‘liq nomi “Turar joylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning chegaralarini aniqlash”) kitoblarini ham yozgan [3, 4].

“Geodeziya” asarida astranomiya va geografiya fanlari bilan birga paleontologik kuzatishlar natijalari ham yoritib berilgan. Uning yana bir muhim asari “Munajjimlik san’atidan boshlang‘ich tushunchalar”dir.

Ma‘lumki, Mahmud G‘aznaviy Hindistonga qarshi yurish qilganida Abu Rayhon Beruniy ham unga hamrohlik qilgan. Alloma eski hind tilini bilganligi sababli hind xalqining adabiyoti va san’ati hamda madaniyati bilan yaqindan tanishgan. Ushbu taassurotlar natijasida 1030-yilda G‘arb va Sharq xalqlari orasida keng e’tirof qilingan “Hindiston” nomli mashhur asarini yaratgan. Bu kitobning to‘liq nomi esa “Kitobu taxqiqi molil Hind min maqulatin fil aqli av marzulatin”, ya’ni Hindlarning aqlga sig‘adigan va sig‘maydigan ta’limotlarini aniqlash kitobi”. Qisqacha “Hindistonga o‘id tadqiqotlar” yoki “Hindiston” deb yuritiladi [5, 6].

Beruniyning astranomiya o‘id “al-Qonun al-Ma’sudiy (“Ma’sudiy qonuni”) nomli yirik asarini shoh Ma’sudga bag‘ishlagan. Beruniyning ilm-fan sohasida qoldirgan yodgorliklari bugungi kunda bizning eng qimmat boyligimiz hisoblanadi. Uning oltindanda qimmat asarlari va o‘gitlari yordamida dunyoqarashimiz kengayadi, komil inson tushunchasi esa ezgu fikrlar bilan yanada go‘zallashadi.



Ushbu yetuk shaxsning inson kamolotida odob-axloq va tarbiyaning o‘rni muhim ekanligi yuqorida keltirilgan barcha asarlarda ta’kidlab o‘tilgan [7, 8].

Al-Beruniy ta’limotiga ko‘ra inson kamolga yetishishida eng muhim omillar ilm-ma’rifatli bo‘lish va yuksak axloqlilik ekanligi o‘z ifodasini topgan [9, 10]. Uning nazariyasi bo‘yicha inson kamolotida uch narsa muhimligi ta’kidlangan: irsiyat, muhit, tarbiya.

Shu o‘rinda savol tug‘iladi: **Tarbiya o‘zi nima?**

Tarbiya – bu muayyan, aniq maqsad hamda ijtimoiy-tarixiy tajriba asosida yosh avlodni har tomonlama o‘stirish, uning onggi xulq-atvori va dunyoqarashini tarkib toptirish jarayoni. Hozirgi davrda ta’lim va tarbiya bir biriga chambarchas bo‘g‘liq. - Bu atamalar hozirgi kun pedagogikasida ham keng qo‘llaniladi [11, 12].

Chunki tarbiya insonning hayotini qolaversa, kelajagini ham hal qiladigan darajada muhim.

Shuni ta’kidlash joizki, Abu Rayhon Beruniyning dunyoqarashi keng bo‘lgan komil insonni tarbiyalashga oid bu fikrlari faqat o‘z zamonasi uchungina emas balki, hozirgi davr ta’lim-tarbiya ishlarini takomillashtirishda katta ahamiyatga ega [13, 14].

Bugungi kunda fan taraqqiyotida nafaqat Beruniyning balki butun sharq allomalarning yozgan asarlari pedagoglar uchun dars o‘tishga asos bo‘lib kelmoqda. Ushbu asarlarda nazariy bilimlar balki, tadqiqot jarayonlarda amalga oshirilgan amaliyotlari ham zamonaviy darslarimizda keng qo‘llaniladi.

Buyuk allomalarning yozgan asarlari haqiqatan tahsinga loyiq. Chunki ularda ilmiy ishlar, sohaga doir qiziqarli va kerakli ma’lumotlar, xoh u zamonning, xoh bu zamonning talabiga javob beradigan darajada oltinga teng tarbiyaviy ahamiyatga ega nasihatlar o‘rin olgan.

Beruniyning fikricha, odob va axloqiylik insonning eng yaxshi sifatlaridan biri bo‘lishi kerak. Bunday sifatlar insonlarda birdaniga shakllanmaydi. Bunday xislatlarni rivojlantirish birinchi o‘rinda ota-onaning, pedagogning, nafaqat pedagogning balki, butun jamiyatning zimmasidadir [15, 16]. Bu buyuk allomamiz ta’lim-tarbiya jarayonlariga musulmon dini talablaridan kelib chiqqan holda yondashgan.

Beruniy insonning ma’naviy qiyofasidagi barcha xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi turlarga ajratadi. Insondagi barcha yaxshi xislatlarga saxiylik, odoblilik, rostgo‘ylik, to‘g‘rilik, sobitqadamlik, ehtiyotkorlik, o‘zini tuta bilish,



odillik, adolatlilik, kamtarlik, shirinsuxanlik kabi xislatlarni kiritgan. Takabburlik, hasadgo'ylik, yolg'onchilik, adolatsizlik kabi yomon xislatli kishilarni qoralaganlar [17, 18].

Shuningdek, al-Beruniyning bizga qoldirgan merosi haqida gapiradigan bo'lsak, uning vafotidan keyin allomaning faoliyati olimlar tomonidan e'tirof etilmagan balki, asoslanmagan ham [19, 20].

Oradan asrlar o'tib uning “Hindiston” asaridagi nazariyalari Britaniyaliklarda qiziqish uyg'otgan.

Astroid va Oyning bitta krateri allomamiz sharafiga nomlangan.

Antarktidadagi qaysidir orolning nomi ham “Beruniy” nomi bilan atalgan.

Abu Rayhon Beruniy tavallud topgan sana Eronda geodeziya muhandislari kuni sifatida nishonlanadi.

2009-yil iyun oyida Birlashgan Millatlar Tashkilotining Venadagi vakolatxonasiga Eron davlati Vena Xalqaro Markazining memorial maydonida joylashgan pavilonni sovg'a qilgan. Ushbu pavilon “Olimlar paviloni” deb nomlangan va unda to'rtta taniqli alloma haykallari bo'lgan. Bular: Avitsenna, Zakariyo Roziy, Umar Xayyom hamda buyuk bobomiz Beruniyning ham haykali qad rostlagan.

Xulosa qilib aytganda, buyuk allomamiz Beruniyning ma'naviy-ma'rifiy yo'nalishdagi ilmiy merosi hamda ta'lim-tarbiya va odob-axloqga oid ta'limotlari yoshlar uchun ibrat va namuna ekanligi, kelajak avlodni ona Vatanga munosib farzand bo'lishi, qolaversa, barkamol inson bo'lib yetishishida, farzandlarni komil inson qilib tarbiyalashda butun jamiyat uchun benazir yordamchidir.

Adabiyotlar:

1. B.X.Xodjayev Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. - T.: «Sano-standart» nashriyoti, 2017-yil

2. Berdiyeva L. “Bola tarbiyasida Beruniyning axloqiy tarbiyaga oid qarashlari”.

2. Салаева М.С. Ўзбек педагогикаси тарихини даврлаштиришнинг назарий-педагогик асослари. Монография. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2008. – 200 б.

3. Салаева М.С., Кислицина И.Л., Салаева М.С. Ноёб қўлёмалар коллекциялари. Монография. -Т.: Мумтоз нашриёти. 2019. - 112 б.

4. Салаева М.С ва муаллифлар жамоаси. Педагогика. Энциклопедия. 3-жилд. – Т.: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2018. – 424 б.
5. Салаева М.С. Педагогика тарихини даврлаштириш замон талаби. // Халқ таълими. – Тошкент, 2004. №2. – Б.17-19. (13.00.00).
6. Салаева М.С. Ўзбекистонда педагогика тарихини даврлаштириш муаммоси хусусида. // Ж. Педагогик таълим-Тошкент: 2007.№ 5.-Б.5-8.
7. Салаева М.С. Периодизация истории узбекской педагогики как педагогическая исследовательская задача // Ж. Современные гуманитарные исследования. -Москва. 2009. № 6. - С.164-165.
8. Салаева М.С. Действующие теоретические и практические основы периодизации истории узбекской педагогики. // Педагогические науки. Москва, 2011. №5. – С. 12-13.
9. Salayeva M.S. Pedagogical Conditions of Using the Materials of the Uzbek National Pedagogics in the Pedagogical Course Studying.// Eastern European Scientific Journal. Ausgabe 3-2016. www.Auris-Verlag.de (ISSN 2199-7977) - Pp. 63-168.
10. Salayeva M.S. Periodization problems, stages of formation and development the educational system of Uzbekistan. ISSN // Actual problems of modern sciences education and training in the region. Elektronik scientific edited volume. 1.2017. P189. - Pp. 195-195. (13.00.00 №1).
11. Salayeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda otalarning oʻrni // Международный научно-образовательный электронный журнал «Образование и наука в XXI веке». ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск No 24 (том 4) (март, 2022). -С.751-754. https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/a62191_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdfhttps://www.mpcareer.ru/_files/ugd/Март%202022.%20Том%204.pdf
12. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022, November 1). Yangi Oʻzbekiston sharoitida yoshlar kelajagiga yuksak eʼtibor // Problems and scientific solutions, Australia, Melbourne. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7269286>
13. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022, October 11). Development of high-quality human capital is an important factor of society's development / Yuqori sifatli inson kapitalini rivojlantirish jamiyat tarraqqiyotining muhim omili sifatida // Innovative development in the global science, Boston, USA. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7184486>



14. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. (2022). Ta'lim jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish imkoniyatlari. ACADEMIC RESEARCH JOURNAL, 1(5), 9–14. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7227181>

15. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar kognitiv mobilligini xalqaro dasturlar asosida baholanishning o'ziga xos jihatlari / “Халқ таълими тизимидаги тегишли раҳбарлик лавозимларига муносиб ходимларни жой-жойига қўйишнинг долзарб масалалари” мавзусида онлайн конференция. Авлониё номидаги педагогларни касбий ривожлантириш ва янги методикаларга ўргатиш миллий-тадқиқот институти. -Т.: 2022. –Б.64-71.

16. Shoyunusova F.S., Salayeva M.S. Yangi O'zbekiston sharoitida uchinchi Renessansga mos barkamol avlodni shakllantirish muammolari / “XXI asr шахс тараққиёти: муаммо ва ечимлар” мавзусида 1-анъанавий талаба илмий жамияти ТИЖ илмий-амалий конференцияси, Тошкент амалий фанлар университети «Психология» кафедраси 2022 йил 20 декабрь. –Б.140-141.

17. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o'quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>

18. Salaeva M.S., Urazova K.V. Boshlang'ich ta'limda o'quv faoliyatning kichik maktab yoshidagi o'quvchilar psixik rivojlanishiga ta'siri / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары – Шымкент: «Қызмет» баспаханасы, 2022. - В.432-441. ISBN 978-601-06-8694-6

19. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // Eurasian journal of social sciences, Philosophy and culture Innovative. Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051. Volume 2 Issue 4, April 2022. Pages 136-139. <https://zenodo.org/record/6511330#.Y1G0jnZByUk>

20. Салаева М.С., Джумабаева М.Б. Педагогнинг кичик мактаб ёшидаги болаларни ижтимоий мобиллигини оширишга таъсири // Ijtimoiy fanlarda innovasiya onlayn ilmiy jurnali, ISSN - 2181-2608. With Impact Factor: 8.2 SJIF: 5.426 - Б. 59-62. <http://www.sciencebox.uz/index.php/jis/article/view/1552>

**A Comparative Analyses of "Robinson Crusoe" by Daniel Defoe and
"Treasure Island" by Robert Louis Stevenson are two classic adventure
novels that captivate readers with tales of survival, exploration, and the
indomitable human spirit**

Rustamova Gulchiroy Sobirjonovna
Student, Tashkent State Pedagogical University,
Uzbekistan

E-mail: gulchiroy292004@gmail.com

Abstract: This article about the description of Daniel Defoe “ Robinson Crusoe” and Robert Louis’s “Treasure island “ books . Although written in different times and contexts, both books present the theme of isolation and the lengths individuals will go to for their own self-preservation. By analyzing the similarities and differences in the themes, characterization, and narrative styles employed by Defoe and Stevenson, this comparative essay aims to highlight the enduring appeal of these timeless adventure stories and their universal messages of perseverance and survival.

Key words: comperative analysis , narrative styles and characterization, emotional atmosphere, adventure ,personal observation and emotions.

Daniel Defoe and Robert Louis Stevenson were both famous English writers known for their literary contributions. Daniel Defoe, born in 1660, was a prolific writer and is best known for his novel "Robinson Crusoe," which is considered a classic in English literature. Defoe is often regarded as one of the earliest proponents of the novel, as "Robinson Crusoe" is one of the earliest examples of realistic fiction. In addition to his novels, Defoe was also a journalist, pamphleteer, and spy, and his works often reflected his political and social views. Robert Louis Stevenson, born in 1850, was a Scottish novelist, poet, and travel writer. He is best known for his works "Treasure Island," "Kidnapped," and "Strange Case of Dr Jekyll and Mr Hyde." Stevenson's writing is characterized by a sense of adventure, exploration, and a keen understanding of human nature. Like Defoe, Stevenson's literary works continue to be revered and have had a lasting impact on English literature.

Plot:

- Robinson Crusoe: The plot follows the journey of Robinson Crusoe, who gets shipwrecked on a deserted island and must learn to survive and adapt.
- Treasure Island: The plot revolves around young Jim Hawkins, who embarks on a treasure hunt after discovering a pirate's map.

Setting:

- Robinson Crusoe: The majority of the story takes place on a deserted island, showcasing the isolation and challenges faced by the protagonist.
- Treasure Island: The story unfolds primarily on a tropical island, where pirates and hidden treasures create an atmosphere of adventure.

Point of View:

- Robinson Crusoe: The novel is written in the first-person perspective, allowing readers to experience the events through Crusoe's eyes.
- Treasure Island: Similarly, the story is narrated from Jim Hawkins' point of view, providing readers with his personal observations and emotions.

Character:

- Robinson Crusoe: Crusoe's character undergoes significant development as he transforms from a reckless adventurer to a resourceful survivor.
- Treasure Island: Characters like Long John Silver and Captain Flint are memorable and complex, adding depth to the story.

Motif:

- Robinson Crusoe: The motif of isolation and self-reliance is prevalent throughout the novel as Crusoe learns to live independently on the island.
- Treasure Island: The motif of hidden treasure drives the plot, creating a sense of mystery and excitement.

Metaphor:

- Both novels employ metaphors to enhance descriptions and create vivid imagery. For example, describing the island as a "prison" in Robinson Crusoe or using phrases like "sea of gold" in Treasure Island.

Simile:

- Both novels use similes to make comparisons and enhance descriptions. For instance, comparing the waves to "mountains" in Robinson Crusoe or comparing a pirate's laugh to "thunder" in Treasure Island.

Hyperbole:



- Hyperbole, or exaggerated statements, are sparingly used in both novels to emphasize certain situations or emotions. For example, exaggerating the size of a storm or the danger posed by pirates.

While both Robinson Crusoe and Treasure Island share some common literary devices, they each have their unique approaches to plot, setting, characters, and other elements. Exploring these devices in both novels can provide a deeper understanding of their respective themes and narratives.

Literatures

1. Daniel Defoe “Robinson Crusoe”
2. Robert Louis’s “Treasure island”

Research Science and Innovation House

INTELLEKTUAL MULK QONUNCHILIGIDA ISTE'MOLCHILAR HUQUQLARINI HIMOYA QILISH MASALALARI

Baxtigul Tog'aymurodova Chorshanbiyevna

Toshkent davlat yuridik universiteti
OAV huquqi yo'nalishi magistranti
togaymurodovabaxtigul@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada sudlar amaliyotida intellektual mulk bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiqishda asosan ikki toifadagi muammo mavjudligi ta'kidlangan. Birinchisi, subyektiv omillar bilan bog'liq bo'lsa, ikkinchisi, obyektiv qiyinchilar ekanligi ko'rsatilgan. Subyektiv muammolar qatorida sudlarda mazkur toifadagi ishlarning barchasini ham ko'rib hal etish bo'yicha tajribaning mavjud emasligi aytilgan. Obyektiv omillar sifatida sudlar tomonidan ushbu toifadagi ishlarni ko'rib chiqishda muayyan huquqiy asosning mavjud emasligi yoxud tegishli qonun hujjatlarining lozim darajada takomillashmaganligi, shu bois, bu borada yagona sud amaliyotining shakllanmaganligi e'tirof etilgan.

Kalit so'zlar: intellektual qonun, sud muhofazasi, intellektual mulk, himoya, nizo.

KIRISH

Intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilish usullari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi(bundan buyon FK deb yuritiladi)ning 1040-moddasida belgilangan. Unga ko'ra intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilish FKning 11-moddasida nazarda tutilgan usullar bilan amalga oshiriladi. Mutlaq huquqlarni himoya qilish shuningdek:

- mutlaq huquqlar qaysi moddiy obyektlar yordamida buzilgan bo'lsa, o'sha moddiy obyektlarni hamda bunday buzish natijasida yaratilgan moddiy obyektlarni olib qo'yish orqali;
- yo'l qo'yilgan buzish haqidagi ma'lumotni majburiy suratda e'lon qilib, unga buzilgan huquq kimga tegishliligi to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish orqali;
- qonunda nazarda tutilgan boshqa usullarda amalga oshirilishi mumkin.



ADABIYOTLAR SHARHI

Intellectual faoliyat natijalarini va xususiy alomatlarni aks ettiruvchi vositalarni yaratish hamda ulardan foydalanish to‘g‘risidagi shartnoma buzilganda majburiyatlarni buzganlik uchun javobgarlik to‘g‘risidagi umumiy qoidalar qo‘llaniladi [1].

FKning 11-moddasida nazarda tutilgan fuqarolik huquqlarini himoya qilish usullarining ro‘yxatidan kelib chiqib aytadigan bo‘lsak, shaxsning intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlari quyidagi yo‘llar bilan himoya qilinadi: huquqni tan olish; huquq buzilishidan oldingi holatni tiklash va huquqni buzadigan yoki uning buzilishi xavfini tug‘diradigan harakatlarning oldini olish; bitimni haqiqiy emas deb topish va uning haqiqiy emasligi oqibatlarini qo‘llash; davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining hujjatini haqiqiy emas deb topish; shaxsning o‘z huquqini o‘zi himoya qilishi; burchni aslicha (natura) bajarishga majbur qilish; zararni to‘lash; neustoyka undirish; ma‘naviy ziyonni qoplash; huquqiy munosabatni bekor qilish yoki o‘zgartirish; davlat organining yoki fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organining qonunga zid hujjatini sudning qo‘llamasligi.

Intellectual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni qonunda nazarda tutilgan boshqa usullar bilan ham himoyalashga yo‘l qo‘yiladi. Bir paytning o‘zida intellektual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni himoya qilishning bir necha usulini qo‘llash istisno qilinmaydi. Favqulodda holatlarda, qonunchilik talablari yuzasidan yoki buzilgan (da‘vo qilingan) huquqning xususiyatidan kelib chiqib, u faqat muayyan usul bilan himoya qilinishi lozim. Intellectual mulkka doir huquqlarni himoyalashning usullari, mazkur usullarni amalga oshirish mexanizmiga bog‘liq ravishda bo‘linishi mumkin: 1) faqat sud tomonidan, ayrim holatlarda esa boshqa vakolatli davlat organlari tomonidan qo‘llanadigan usullar. Bu esa muayyan usul vositasida himoya qilish to‘g‘risida ularga iltimosnoma bilan murojaat qilish zaruratini nazarda tutadi (huquqni tan olish, huquq buzilguniga qadar mavjud bo‘lgan holatni tiklash, huquqni buzuvchi harakatlarni to‘xtatish va h.); 2) huquqiy munosabat ishtirokchisi tomonidan mustakil ravishda qo‘llanadigan usullar (o‘z-o‘zini himoyalash, qonunda yoki shartnomada nazarda tutilgan bo‘lsa, majburiyatlarni bajarishdan bir tomonlama voz kechish yo‘li bilan huquqiy munosabatlarni bekor qilish va b.); 3) ham sud organlarining yordami bilan, ham mustaqil tartibda qo‘llanadigan usullar (zararni qoplash, neustoyka undirish va b.).



TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Intellectual mulk obyektlariga nisbatan mutlaq huquqlarni muhofaza qilish usullari ichida sud orqali himoya qilish muhim o‘rin egallaydi va u qonun bilan kafolatlanadi. Chunonchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 44-moddasiga binoan har bir shaxsga o‘z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalarining g‘ayriqonuniy xatti-harakatlari ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi [2].

Qonunchiligimizga asosan intellektual mulk obyektlariga doir ishlarni ko‘rib chiqish ularning toifasidan kelib chiqqan holda deyarli barcha sudlarning sudloviga taalluqli bo‘lishi mumkin. Biroq, masalaning huquqiy tabiati inobatga olinadigan bo‘lsa, intellektual mulk obyektlariga doir huquqlar sud orqali asosan fuqarolik huquqiy munosabatlari doirasida himoya qilinishi lozim degan xulosaga kelish mumkin. Shuningdek, agarda, intellektual mulk obyektlariga doir nizo “Hakamlik sudlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 12-moddasi talablariga muvofiq tartibda tuzilgan bitim bilan bog‘liq bo‘lsa, bunday nizolarni hal etilishi hakamlik sudlariga topshirilishi ham mumkin.

Xususan, 2021, 2022 yillar va 2023 yilning birinchi choragi davomida sudlar tomonidan ko‘rilgan ishlar yuzasidan statistik tahlillarga nazar tashlasak quyidagi holatning guvohi bo‘lamiz.

Fuqarolik ishlar bo‘yicha sudlar tomonidan 2021 yilda intellektual mulk huquqi bilan bog‘liq nizolar bo‘yicha jami 8 ta ish ko‘rib tamomlangan. Shundan, 2 tasi qanoatlantirilgan, 3 tasi rad etilgan, 2 tasi bo‘yicha ish yuritish tugatilgan va 1 tasi ko‘rmasdan qoldirilgan. 2022 yilda jami 6 ta ish ko‘rib tamomlangan, shundan 2 tasi qanoatlantirilgan, 3 tasi rad etilgan va qolgan 1 tasi ko‘rmasdan qoldirilgan. 2023 yilning birinchi choragida jami 1 ta ish ko‘rib tamomlangan va u qanoatlantirilgan.

Ma‘muriy sudlar tomonidan intellektual mulk huquqi bo‘yicha (huquqbuzarliklar yuzasidan) Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 177, 177¹ va 177²-moddalarini qo‘llagan holda ma‘muriy ishlar ko‘rib chiqilgan. 2021 yilda ma‘muriy sudlar tomonidan MJKning 177-moddasi bo‘yicha 2 ta ish 2 nafar shaxsga nisbatan ko‘rib tamomlangan. 2022 yilda MJKning 177-moddasi bo‘yicha jami 7 ta ish 11 nafar shaxsga nisbatan ko‘rib tamomlangan. 2021 yilda MJKning



177¹-moddasi bo'yicha ish ko'rilmagan. 2022 yilda MJKning 177¹-moddasi bo'yicha 8 ta ish 8 nafar shaxsga nisbatan ko'rib tamomlangan bo'lsa, shundan 2 ta ish bo'yicha 2 nafar shaxsga nisbatan jarima jazosi tayinlangan, qolgan 6 nafar shaxsga nisbatan 6 ta ish tugatilgan. 2021, 2022 yillar va 2023 yilning birinchi choragi davomida ham MJKning 177²-moddasi bo'yicha ish ko'rilmagan. 2023 yilning birinchi choragi davomida MJKning 177 va 177¹ – moddalari bo'yicha 1 ta ish 1 nafar shaxsga nisbatan ko'rib tamomlangan.

Statistik tahlillarga qaraganda, iqtisodiy sudlar tomonidan intellektual mulk huquqi bo'yicha tovar belgilari (xizmat ko'rsatish belgisi)ga bo'lgan huquqdan kelib chiqqan nizolar ko'proq ko'rilgan. Hammaga ma'lum tovar belgilari nizolarining sudlar tomonidan ko'rib chiqish va muhofaza qilish masalalarini o'rgangan holda amaldagi qonunchilikdagi mavjud qoidalarni hammaga ma'lum tovar belgilarining huquqiy maqomidan kelib chiqib, xalqaro qonunchilik talablari darajasida takomillashtirish lozimligini ta'kidlamoqchimiz. Jumladan, hammaga ma'lum tovar belgilari huquqiy muhofaza qilinishini ta'minlashda kontrafakt mahsulot ishlab chiqaruvchilarning ta'sir doirasiga tushib qolishidan asrash maqsadida quyidagilarga alohida e'tibor qaratish lozim:

- tovar bozorida kontrafakt mahsulotlarga nisbatan talab va taklif darajasini marketing tadqiqoti sifatida doimiy monitoring ishlarini amalga oshirish;
- tegishli hududda joylashgan bozor ma'muriyati tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga kontrafakt mahsulotlarni chakana va ulgurji savdo qiluvchi sotib oluvchi, sotuvchi va ishlab chiqaruvchilar to'g'risida doimiy axborot ma'lumotlarini jamlash va tegishli organga taqdim etib borish;
- iste'molchilar ommasini ma'lum tovar belgisi ostida ishlab chiqarilgan kontrafakt tovar mahsulotlar to'g'risida ommaviy axborot vositalari orqali doimiy ravishda ma'lumot berib borish. Kontrafakt mahsulotlar to'g'risida televideniya maxsus dastur faoliyatini yo'lga qo'yish;
- hammaga ma'lum tovar belgilarini huquqiy muhofaza qilish bilan bog'liq qonun hujjatlarida belgilangan javobgarlik choralari alohida hammaga ma'lum tovar belgisidan foydalanish qoidalarini buzganlik nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish. Shuningdek, ma'muriy va jinoiy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratish lozim.

Aytish joizki, kelajakda mamlakatimizda intellektual mulk obyektlari bilan



bog‘liq bo‘lgan nizolarni hal etish masalasi sudlar faoliyatidagi dolzarb masalalardan biriga aylanishi tayin. Chunki, intellektual mulk huquqlarining buzilishi mavzusi butun dunyoda bo‘lgani kabi bizning mamlakatimizda ham jiddiy ijtimoiy muammoga aylanib bormoqda. Buning bir nechta o‘ziga xos sabablari bor, albatta.

Binobarin, birinchidan, bu faqat o‘zining moddiy manfaatlari haqidagina bosh qotiruvchi shaxslar tomonidan muayyan yangilik yaratish uchun hech qanday sarf- xarajat qilmasdan foyda yoki hatto qo‘shimcha foyda olishning oson yo‘lidir. Ikkinchidan, zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari ma‘lumotlarni uning muallifi ruxsatisiz o‘zlashtirish, o‘ziga mos ravishda o‘zgartirish, ko‘paytirish va tarqatish jarayonini o‘ta oson hamda arzon ishga aylantirib qo‘ydi. Uchinchidan, mamlakatimizda intellektual mulk obyektlari va ularga oid huquqlarni ta‘minlashga qaratilgan milliy qonunchilik bazasi hali hamon lozim darajada takomillashuvga muhtoj. Bu esa ba‘zi bir shaxslarga o‘zgalar tomonidan yaratilgan intellektual mulk obyektlaridan o‘z manfaati uchun foydalanib qolish imkoniyatlarini beradi, ya‘ni ular o‘z harakatlarining axloq-odobga oid va qonuniy jihatlari haqida o‘ylab ham o‘tirishmaydi. Chunki, texnik rivojlanish jadal sur‘atlarda davom etmoqda va u bilan birga turli-tuman yangi huquqbuzarliklar ham sodir etilmoqda. Qonunchilik nuqtai nazaridan esa bu hodisalarning barchasini qamrab olish qiyin, albatta. Shuning uchun ushbu masala bo‘yicha xorijiy mamlakatlarning boy tajribasini o‘rganish muhim sanaladi.

Hozirgi kunga kelib dunyoning ko‘plab rivojlangan mamlakatlarida intellektual mulk obyektlariga doir huquqlarni sud orqali himoya qilish instituti tobora kengroq qo‘llanilmoqda. Shuningdek, ushbu masalaga doir xalqaro shartnomalar yuzasidan vujudga kelgan nizolarning sudga taalluqligi, sud qarorlarining bajarilishi bo‘yicha xalqaro bitimlar va konvensiyalar ham mavjud.

Tahlillar ko‘rsatadiki, jahon mamlakatlari tajribasida intellektual mulk obyektlari bilan bog‘liq ishlarning sudlovga taalluqliligi masalasi asosan ikki tarzda hal etilgan. Jumladan, Belgiya, Braziliya, Vengriya, Gonkong, Daniya, Isroil, Eron, Ispaniya, Italiya, Kanada, Gollandiya, Norvegiya, Pokiston, Panama, Ruminiya, Sloveniya, Slovakiya, Janubiy Amerika mamlakatlari, Finlandiya, Fransiya, Shvesiya kabi davlatlarning umumyurisdiksiya sudlari tizimida intellektual mulkka doir ishlarni ko‘rib chiquvchi maxsus, ya‘ni ixtisoslashgan sud tarkiblari (dvizionlar) tashkil etilgan[5].



XULOSA VA MUNOZARA

Intellectual mulk huquqi bilan bog‘liq turli huquqbuzarliklarning, xususan, bu boradagi firibgarlik, nosog‘lom raqobat, soxta mualliflikning oldini olish, umuman aytganda, intellektual mulk huquqi bilan bog‘liq jarayon subyektlarining mas‘uliyatini oshirish maqsadida bizning qonunchilikka ham shunday normani joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi // O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1996 y., 11-12-son, 1-modda; .. 2016 y., 17-son, 173-modda; 2017 y., 16-son, 265-modda.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: “O‘zbekiston” 2023.
3. [Elektron manba]: <http://www.ima.uz/uz/services/sud-amaliyoti>.
4. [Elektron manba]: <https://gis.uz/uz/news/373> // “O‘zbekkino” milliy agentligi mahsulotlarini noqonuniy tarqatgan, mualliflik huquqi va turdosh huquqlarni buzgan veb-sayt egasiga chora ko‘rildi.
5. Artamonova E.M. T.f.n., Milliy tadqiqot universiteti Oliy iqtisodiyot maktabi yuridik fakulteti Sud hokimiyati va odil sudlovni tashkil etish kafedrasida dotsenti // Hakamlilik sudlari tizimida intellektual huquqlar bo‘yicha ixtisoslashtirilgan sud // <https://www.hse.ru/pubs/share/direct/document/69372829>
6. Babakulov Z.Q. Tovar belgilarining fuqarolik-huquqiy maqomi: nazariy va amaliy masalalar // Monografiya. Mas‘ul muharrir: O.Oqyulov. – T.: 2019. – B.188

Research Science and
Innovation House



GENDER TENGLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO HUQUQIY JIHATLARI

Xalilova Mohinur A'zam qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti
ommaviy axborot vositalari huquqi magistri
azamovnamohinur@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada gender tengligini ta'minlashda jahon hamjamiyatidagi huquqiy jihatlari, xususan Islom hamkorlik tashkiloti misolida tashabbuslar, hujjatlar hamda yutuqlar muhokama etiladi.

Kalit so'zlar: gender tengligi, Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiya, ayollar huquqlari, Ayollarni rivojlantirish tashkiloti.

KIRISH

Ayol azaldan mo'tabar zot sifatida e'zozlanuvchi tabiatning nozik xilqatidir. Ayol bir qo'li bilan dunyoni, bir qo'li bilan beshikni tebratadigan, qirq jonini ishga solib, oilam, bolam, chaqam deb tinim bilmaydigan mavjudot. Ayolning baxti – jamiyat taraqqiyotining asosi desak, mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda har qanday jamiyatning asosiy «ko'zgusi» – xotin-qizlar ekanligi shubhasizdir. Chunki, jamiyatning ijtimoiy tuzumi qanday bo'lishidan qat'iy nazar, o'sha jamiyat aholisi turmushining farovonlik darajasi, oilalar barqarorligi, kelajak avlod – farzandlar tarbiyasi, iqtidori, jamiyatdagi intellektual salohiyat, ma'naviyat va madaniyat, ma'rifat, qo'yingki, barcha jabhalarda erishilgan yutuqlar shu jamiyat taraqqiyotiga xotin-qizlarning qo'shadigan hissasi va o'sha jamiyatning ayollarga munosabati bilan belgilanadi.

XX asrda inson huquqlari masalasi har bir davlatning nafaqat ichki balki tashqi siyosatida ham eng ustuvor masalalardan biri bo'lib qoldi. Ayni shu asosdan kelib chiqib Birlashgan millatlar tashkiloti xalqaro miqyosdaining inson huquqlari kafolatini yaratish va unga davlatlarning og'ishmay amal qilishini taminlash maqsadida 1948-yil 10-dekabrida inson huquqlarining xalqaro maydondagi kafolatining poydevori bo'lmish “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ni qabul qildi va ushbu hujjat ko'plab davlatlar tomonidan ratifikatsiya qilindi. Keyingi yillarda esa aynan inson huquqlarini ta'minlash sohasida boshqa bir qator hujjatlar 1989-yil “Bola huquqlari

to‘g‘risidagi konvensiya”, 1966-yil “Fuqarolik va siyosiy huqular to‘g‘risida xalqaro pakt” hamda 1979-yilda BMTning “Ayollarga nisbatan kamsitishlarning barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi konvensiyasi va boshqa ko‘plab hujjatlar qabul qilindi.

ADABIYOTLAR SHARHI:

Gender tengligi masalasida munosib ichki huquqiy tizim yaratish XXI asrning ilk o‘n yilligidan boshlab dunyo davlatlarining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Bu omillar albatta xalqaro huquqiy hujjatlardan bevosita fundamental asos sifatida foydalanishni taqozo etdi. Xalqaro tashkilotlar xalqaro huquq subektlarining qamrov darajasiga qarab ushbu sohada fundametal asoslar yaratish uchun asosiy omil vazifasini o‘taydilar.

Ayniqsa aksariyat musulmon mamlakatlari hozirgi kungacha gendertengligi masalasida asosiy tanqidga va ko‘plab noroziliklarga uchrayotgan davlatlar qatorida turadi. 1969-yilda tashkil etilgan Xalqaro hukumatlararo Islom xamkorlik konferensiyasi (2008 yilda tashkiloti) (IXT) o‘z faoliyatining dastlabki yillarida asosiy e‘tiborni a‘zo davlatlar o‘rtasidagi istisodiy, ijtimoiy va boshqa sohalarda hamkorlik masalalariga qaratgan bo‘lsa-da, biroq XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan e‘tiboran islom olamida inson huquqlari sohasida muhim tadbirlarni amalga oshirdi. Chunonchi, 1990-yilda IHT tashqi ishlar vazirlarining Misrning Qohira shahrida bo‘lib o‘tgan konferensiyasida 25-moddadan iborat bo‘lgan Islomda inson huquqlari bo‘yicha Qohira deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu deklaratsiyaning 6-moddasida alohida ta‘kidlanishicha:

“Ayol erkaklar bilan inson qadr-qimmatini borasida teng huquqli bo‘lib, ham huquqlar, ham majburiyatlarga ega; u mustaqil fuqarolik maqomiga va moliyaviy mustaqillikka, o‘z ismi va urug‘ini saqlash huquqiga ega.”. Deklaratsiya islom olamida ayol va erkakning qadr- qimmat borasidagi huquqlarda va majburiyatlarda o‘zaro teng ekanligini ochiq e‘lon qilmoqda. Bu musulmon mamlakatlarda gender tengligi masalasiga jiddiy yondashishni yanada muhim bosqichga olib chiqdi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Islom Hamkorlik Tashkiloti xalqaro hamjamiyat tanqidlardan so‘ng xalqaro mavqeyini mustahkamlash maqsadida o‘z ustavini qayta ko‘rib chiqdi va uning muqaddimasidayoq quyidagi o‘zgarishlar alohida qayd etildi. Unda alohida qayd

etilishicha: “Mehribon va rahmli Alloh nomi bilan. Biz, Islom Konferensiyasi Tashkilotiga a’zo davlatlarda inson huquqlari va asosiy erkinliklari, yaxshi boshqaruv, qonun ustuvorligi, demokratiya va hisobdorlikni o‘z konstitutsiyaviy va huquqiy tizimlariga muvofiq targ‘ib qilish; a’zo davlatlarning qonunlari va qonunchiligiga muvofiq, ayollarning huquqlari va ularning hayotning barcha sohalarida ishtirok etishini himoya qilish va rag‘batlantirish” ga alohida e’tibor qaratadi.

Islom olamida Ayollar huquqlari uchun kurash shu tariqa muhim ahamiyat kasb etib bordi. Bosqichma bosqich IHT ushbu masalada jiddiyroq chora- tadbirlarni amalga oshirdi.

Xususan, xalqaro ayollarga nisbatan zo‘ravonlikka qarshi kurash kunida (25-noyabr) IHT Bosh kotibi quyidagicha bayonot bilan chiqdi: “Bu kunning nishonlanishi barcha uchun eslatish vazifasini o‘taydi. Ayollarning maqomini oshirish zarurligini rag‘batlantiruvchi BMT Bosh Assambleyasining 1999-yil 54/134-sonli rezolyusiyasi butun xalqaro hamjamiyatga Islomda ayollar huquqlarini hurmat qilish va qo‘llab-quvvatlash uning eng qimmatli tamoyillarida mustahkamlash zarurligini anglatadi. Afsuski, hali hamon aksariyat jamiyatlarda, xususan, rivojlanayotgan va kam rivojlangan mamlakatlarda, ayollarning ko‘pchiligi kamsitishlarga duch kelmoqda, ijtimoiy adolatsizlik va zo‘ravonlikdan aziyat chekmoqda.”

2011-yil iyunida Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlarining Qozog‘istonning Ostona shahrida o‘tkazilgan 38-sessiyasida IHTning inson huquqlari sohasida tarmoq institutlaridan biri bo‘lgan “Inson huquqlari bo‘yicha mustaqil doimiy komissiya”ni tashkil etish to‘g‘risida rezolyusiya qabul qilindi. Uning asosiy vazifasi etib islom olamida inson huquqlari sohasida ayollar va bolalar huquqlarini xalqaro miqyosda himoya qilish va ta‘minlash belgilandi. Ayniqsa, ayollarning ta‘lim olishi, ularning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirish, iqtisodiy, ta‘lim berish, sport, ilm fan kabi sohalarda faol ishtirokini ta‘minlash, shu sohalarda o‘z o‘rinlarini egallashi uchun ularni o‘qitishga ko‘maklashish, ta‘lim sohasida orqada qolayotgan musulmon mamlakatlarida xotin-qizlar va ayollarning ta‘lim olishini va savodxonligi darajasini ko‘tarish uchun moliyaviy va amaliy yordam ko‘rsatish, ularni jamiyatning barcha sohalarida samarador yashash va faoliyat olib borishlarida yordamchi vazifasini bajarish ustuvor maqsad etib belgilandi. Bu tashkilotning tuzilishiga ko‘plab g‘arb ekspertlari ham ijobiy fikr bildirdilar.

Ulardan Inson huquqlari bo'yicha Daniya ilmiy-tadqiqot instituti izlanuvchisi Mariy J. Peterson tashkilot haqida quyidagi fikrlarni keltirib o'tadi: "Eng muhimi Komissiya barcha a'zo davlatlarning o'zaro kuchli siyosiy ko'magi bilan tuzilgan. Ikkinchidan, yangi komissiya orqali IHTga a'zo davlatlar ichki tanqid va o'z-o'zini ko'zdan kechirish uchun juda zarur forumni tashkil etishdi.

Uchinchidan, Komissiya tarkibidagi ba'zi ekspertlar inson huquqlaribo'yicha katta tajribaga ega bo'lmasa-da, boshqa jihatdan milliy, mintaqaviy yoki xalqaro jihatdan yaxshi tajribaga ega. To'rtinchidan, komissiya a'zo mamlakatlarni inson huquqlari bo'yicha turli xil sohalarda qamrab olish ta'siriga ega."

Peterson o'z so'zlarini davom ettirib yana quyidagilarni ta'kidlaydi: "IHT nafaqat inson huquqlari bilan shug'ullanadi, balki IHT kontekstida tez -tez aytilganidek, ayollarning huquqlari yoki "ayollar taraqqiyoti" bilan ham shug'ullanadi. ... Bugungi kunda IHT o'zaro gumanitar yordam va rivojlanish, atrof-muhit va ayollar huquqlari kabi sohalarga tobora ko'proq jalb etilmoqda. Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiya esa bu jarayonning muhim qismidir."

Fikri ojizimizcha, ayollar huquqlarini ta'minlashda yuqorida keltirilgan fikrlar o'rinli bo'lib, bu sohada IHT va uning maxsus institutlari tomonidan olib borilayotgan xalqaro faoliyatda ayollar va xotin qizlarning barcha sohalarda erkaklar singari teng huquqliligini ta'minlash uchun kurash hamda uning xalqaro huquqiy asoslarini yaratish va IHTga a'zo mamlakatlar ichki huquqiy tizimiga implementatsiyasini amalga oshirishda Inson huquqlari bo'yicha mustaqil doimiy komissiyaning o'rni beqiyosdir.

Bundan tashqari, Turkiyaning Istanbul shahrida 2016-yil 1-3-noyabr kunlari IHTga a'zo davlatlar vazirlar yig'ilishining "Rivojlanishda ayollarning roli" mavzusida tashkil etilgan 6-sessiyasida "Ayollar farovonligini oshirish bo'yicha Harakatlar rejasi" qabul qilindi. Harakatlar rejasining xulosa qismida shunday deyiladi.

"So'nggi yillarda IHTga a'zo davlatlardagi ayollarning ahvolini yaxshilashga katta e'tibor qaratildi, chunki bu masala IHTning O'n yillik Harakat dasturida muhim o'rin tutadi, unda quyidagilar ta'kidlangan: IHTga a'zo davlatlarda iqtisodiy, madaniy, ijtimoiy va siyosiy sohalarda; ularni turli xil zo'ravonlik va kamsitilishlardan himoya qilish va ijtimoiy adolat va gender tengligining islomiy qadriyatlariga muvofiq, "Ayollarga nisbatan kamsitilishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiya qoidalariga rioya qilish ustuvor



vazifalardan hisoblanadi.”

Islom hamkorlik tashkilotining ayollar huquqlari va gender tengligini ta'minlash bo'yicha yana bir alohida tashabbusi bilan 2021-yil 8-iyulda Misrda Islom Hamkorlik Tashkilotining Xotin-qizlar masalalari bo'yicha Vazirlar konferensiyasi “Gender tengligi va ayollarning imkoniyatlarini COVID-19 pandemiya va undan keyingi sharoitida saqlab qolish” mavzusida xalqaro darajada tajriba almashish uchun yig'ildi.

XULOSA VA MUNOZARA

Ushbu yig'ilish davomida Birlashgan Millatlar Tashkiloti Ayollar masalalarida muvofiqlashtirish, hamkorlik, resurslar va barqarorlik bo'yicha ijrochi direktor o'rinbosari Anita Bxatiya gender tengligi va ayollar va qizlarning imkoniyatlarini kengaytirish hamda ichki huquqiy tizimda gender tengligining huquqiy asoslarini takomillashtirish IHTga a'zo davlatlarning asosiy ustuvor vazifalari ekaniga alohida urg'u berdi.

2021 yil 6-7 iyul kunlari bo'lib o'tgan Oliy rasmiy yig'ilishda IHTning 7 - ayollar konferensiyasi rezolyusiyalari ijrosi ko'rib chiqildi va IHTga a'zo davlatlar va tashkilotlarning ayollarning imkoniyatlari va rivojlanishi sohasida tashabbuslari ko'rib chiqildi va faoliyati to'g'risida hisobotlar berildi. IHTga a'zo davlatlarda “Ayollar farovonligini oshirish bo'yicha Harakatlar rejasini amalga oshirish yo'lidagi yutuqlar” mavzusidagi IHTayollar va taraqqiyot hisoboti 2021 dan olingan xulosalar ko'rib chiqilgandan so'ng oliy darajadagi yig'ilish yakunida IHTning yangi “Ayollarni rivojlantirish tashkiloti” o'z ishini boshlaganligi rasmiy ravishda e'lon qilindi.

2020-yil iyul holatiga ko'ra ushbu tashkilotning nizomi 22 a'zo davlat tomonidan imzolangan va ularning 15 tasi rasmiy ravishda bu hujjatni ratifikatsiya qilgan. Bu muhim qadam IHTning bundan keyingi faoliyatida unga a'zo davlatlarning ichki milliy huquqiy tizimi qanday bo'lishidan qat'iy o'laroq ayollar huquqlari va gender tengligi masalasida yangicha islohotlar amalga oshirilishi lozimligini anglatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015-yilning sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida qabul qilingan 70-son rezolyusiyasiga muvofiq, shuningdek, 2030-yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar



Mahkamasi «2030 yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora- tadbirlari to‘g‘risida» qaror qabul qildi. Shu bilan birga, O‘zbekiston Barqaror rivojlanishning Beshinchi maqsadini amalga oshirish doirasida «Gender tenglikni ta‘minlash hamda barcha xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish»ga oid to‘qqizta vazifani ishlab chiqdi. Beshinchi maqsadning vazifalariga (Gender tenglik) muvofiq, 2030 yilga kelib barcha xotin-qizlarga nisbatan kamsitishlarning har qanday shakliga barham berish, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotda qarorlar qabul qilishning barcha darajalarida ayollarning to‘liq va samarali ishtirokini va yetakchilik qilish uchun teng imkoniyatlarni ta‘minlash zarur. Bundan tashqari, ushbu maqsad davlatning turli darajalarida Davlat dasturlarini qabul qilish jarayonida gender tenglik tamoyillarini joriy qilishni o‘z ichiga oladi. Ushbu harakat xalqaro gender huquqi qoidalariga to‘la mos bo‘lib, mamlakatimizning huquqiy mavqei yanada oshishiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning «Xotin- qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-5325 sonli Farmoni. «Xalq so‘zi» 2018 yil 2 fevral.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga murojaatnomasi. 2018 yil 28 dekabr.
3. Ayol huquqlari – inson huquqlari» ma’rifiy dastur. «Mehri» ayollar jamiyati. – T.: Sharq. 2012 yil
4. X.Odilqoriev. «Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati». - T.:Sharq, 2012 yil.
5. O.Safarov, M.Mahmudov. «Oila ma’naviyati». – T.: Ma’naviyat.2018 yil.
6. »HUQUQ va BURCH» ijtimoiy-huquqiy jurnali. №8-9-son., 2017 yil.
7. «Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish – mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim omili» mavzusida respublika ilmiy-amaliy anjumani maqolalar to‘plami. 26 fevral 2019 yil.

Geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish

Ithomboyeva Gulchehra Ruslon qizi
Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish talabalarga kurs mazmunini yanada samarali o‘rganishga yordam beradi. Bu usullar geografik mavzularni o‘quvchilarga yanada qiziqarliroq qilish bilan birga, ularga chuqur tushuncha va tushunish imkonini beradi. Ushbu maqolada dars mashg‘ulotlarini o‘qitishda interfaol usullardan foydalanish haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: geografiya, interfaol metodlar, xorijiy tajriba, ilmiy tajriba, interaktiv o‘yinlar, virtual sayohat,

Аннотация: Использование интерактивных методов на уроках географии помогает учащимся более эффективно усваивать содержание курса. Эти методы делают географические темы более интересными для учащихся и обеспечивают им глубокое понимание и понимание. В данной статье представлена информация об использовании интерактивных методов в преподавании уроков.

Ключевые слова: география, интерактивные методы, зарубежный опыт, научный опыт, интерактивные игры, виртуальные путешествия.

Abstract: The use of interactive methods in geography lessons helps students learn the course content more effectively. These methods make geographic topics more interesting to students and provide them with deep understanding and understanding. This article provides information on the use of interactive methods in teaching lessons.

Key words: geography, interactive methods, foreign experience, scientific experience, interactive games, virtual travel

Kirish: Geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish, o‘quvchilarga muhim ko‘nikmalar va malakalar berishning yanada samarali yolini ochadi. Interfaol dars usullari, masalan, interaktiv dars qilish, virtual sayt va darsliklardan foydalanish, g‘oyaviy kartalar va geografiya o‘yinlari bilan o‘rganish, ma’lumotlarni grafik va animatsion shakllarda taqdim etish va boshqa innovatsion



texnologiyalardan foydalanishni o‘z ichiga oladi. Bu usullar o‘quvchilarga geografiya mavzusi orqali real va amaliy dunyo bilan yaqinroq tanishish imkoniyatini beradi. O‘quvchilar bu usullar orqali qiziqishlarini yengilab, o‘rganish joylaridan zavqlanish hissiyatini qidirishadi. Bu interfaol usullar aynan shu sabablarga ko‘ra, geografiya darslarini jadal rivojlantirishda ahamiyatga ega. Bundan tashqari, interfaol usullardan foydalanish, o‘quvchilarning muhokama va muloqot qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. O‘quvchilar virtual jamiyat va jahon bilan aloqalarni rivojlantirish, savollar va masalalar haqida fikr almashish va ajratish, ma’lumotlarni taqdim etish va tahlil qilish, topshiriqlarni jamiyat bilan birgalikda hal qilish va boshqa ko‘nikmalar olishlari mumkin. Shuningdek, interfaol usullar, o‘quvchilarni ma’lumot qidirish, ma’lumotlarni tahlil qilish, ma’lumotlar bazalaridan foydalanish va boshqa texnik muammolar bilan murojat qilish bilan tanishib chikishiga imkon beradi. Bu esa ularning mustaqil o‘rganish qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Interfaol usullardan foydalanishning bundan tashqari, interdisiplinar tashkilot va ishchi yaxshilikni oshirish, yangi texnologiyalarni o‘rganish, o‘qish va o‘zlashtirishning samarali usuli va global ma’lumotlar jamiyatlari bilan ishlash muhitini shakllantirish imkoniyatini beradi. Bu hamda o‘quvchilar interkultural tushunchalarini rivojlantirishi, global muloqotlarni tushunishlari, boshqa jamiyat va madaniyatlar bilan tanishishlari, global muammolar va murojaatlar haqida tushunishlari va boshqa zamonaviy tajribalarni rivojlantirishlari mumkin.

Asosiy qism: Geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish uchun quyidagi vaqtli maslahatlar mavjud:

1. Multimedia vositalardan foydalaning: Geografiya darslarini interfaolroq qilish uchun multimedia vositalardan, masalan, videolar, animatsiyalar va interaktiv o‘yinlar kabi, foydalaning. Bu usul o‘quvchilarga ma’lumotlarni tez va qiziqarli shaklda o‘rganishiga yordam beradi.

2. Interaktiv kartalar va xaritalardan foydalaning: Interaktiv kartalar va xaritalar orqali o‘quvchilarga geografiya mavzularini vizual shaklda ko‘rsatib berish mumkin. Bu usul o‘quvchilarning geografiya ko‘nikmalari va topografik ma’lumotlarning erkinlik bilan o‘rganishiga imkon beradi.

3. Virtual sayohatlar: Interfaol usul orqali o‘quvchilarni virtual sayohatlar o‘rtasida geografiyani o‘rganishga imkon berish mumkin. Bu virtual sayohatlar



orqali dunyoning turli joylariga sa'yohat etish imkoniyatini tanishib chiqishingiz mumkin.

4. Online ma'lumotlar va amaliy mashg'ulotlar: Interfaol usullar orqali o'quvchilarga online ma'lumotlar va amaliy mashg'ulotlar orqali amaliyotlar o'tkazishga imkon berish mumkin. Bu mashg'ulotlar o'quvchilarning geografiyaga oid malumotlarni amaliy shaklda o'zlashtirishiga yordam berishadi.

5. Interaktiv dars materiallari: Interfaol usul orqali o'quvchilarga interaktiv dars materiallaridan foydalanishiz mumkin. Bu interaktiv materiallar o'quvchilarni qiziqarliroq qilish va ma'lumotlarni yaxshi o'rganishiga yordam beradi.

Bu vaqtli maslahatlar orqali geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish mumkin va o'quvchilarning ma'lumotlarni yaxshi o'rganishiga yordam beradi. Geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish, talabalar uchun o'rganish jarayonini osonlashtirish uchun juda muhimdir. Interfaol usullar, talabalarning o'zlarini o'zlashtirish, ma'lumotlarni o'rganish va amaliyotlarni bajarish imkoniyatlarini oshirishga yordam beradi.

Masofaviy ta'lim, interaktiv dasturlar, illyustratsiyalar, onlayn ma'lumotlar, virtual ekskursiyalar va boshqa interfaol vositalardan foydalanish, talabalarga geografiya mavzularini quyidagi ko'nikmalari bilan o'rganish imkoniyatini beradi:

1. Tarixiy va joriy geografiya ma'lumotlarini to'liqroq tushuntirish.
2. Geografiya mavzusini o'rganishning ilmiy-tajribaviy ko'nikmalarini oshirish.
3. Geografiya fanidan qiziqtiradigan va o'z mehnatini o'rnatishga ilhomlangan mashg'ulotlar va vazifalar o'tkazish.

4. Yangi ma'lumotlar olish va ularni amaliyotda qo'llash uchun ilmiy texnologiyalardan foydalanish. Interfaol usullardan foydalanish interaktiv o'rganishni, talabalarning fikr-mulohazalarini o'zlashtirish, internetdagi bog'liq resurslarga kirishni rag'batlantirish va kompyuter texnologiyalarini samarali va foydali o'rganish uchun yo'l ochadi. Bular bilan, geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish mavzuni o'rganishning ahamiyati juda yuqori. Bu usul, talabalarning ma'lumot olish va ularni amalda qo'llash orqali geografiya fanini o'rganish jarayonini samarali va tortib bera oladi. Geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish, talabalar uchun qiziqarli, tez-tezlik bilan yangilash uchun e'tibor qaratadigan va o'rganishni maslahat beradigan bir usuldir. Bu, talabalarning



o‘zlarini orqaga qo‘rqitmasdan va ta‘lim jarayonidan zavqliroq foydalanishlari uchun muhimdir.

Bu usul, interaktiv darslar, multimedia vositalari va onlayn matnlar kabi turli usullarni o‘z ichiga oladi. Bu, o‘quvchilarning sababli va muhim ma‘lumotlarni bilishlari uchun o‘z-ozini o‘rganish tartibi va usullarini tanlashlari mumkin.

Bundan tashqari, interfaol usullardan foydalanish, geografiya darslarini amaliy va samarali qilishga yordam beradi. O‘quvchilar o‘zlarining o‘rganishdan zavqlanishlari, ta‘lim materiallarini haqiqiy dunyoga bog‘lashlari va o‘zlarini qiziqtirish uchun yordamlashadi.

Interfaol usullardan foydalanish, talabalarning geografiya mavzularini o‘rganishini kuchaytiradi, ularni o‘zlashtiradi va savol yoki muammolarni o‘rganish uchun mustahkam usul bilan ta‘lim beradi. Bu usul, geografiya bilimini o‘quvchilargacha yetkazishning samarali yo‘li bo‘lib, ularni ma‘naviy va material saviyasiga ko‘paytirish uchun qulay va samarali yordam beradi. Geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish, talabalar uchun mashq haqiqiy dunyo bilan birga o‘rganishni tavsiya etadi. Interfaol usullar, talaba mustaqil o‘rganish va izlanishga imkon beradi, masalan:

- Geografik axborotlar, interaktiv xaritalar va bog‘liq multimedia materiallar orqali mashg‘ulotlar o‘tkazish.

- Animatsiyalar, virtual sayohatlar va 3D modellar orqali geografik jarayonlarni o‘rganish.

- Internet va bilimiy-boshqaruv tarmoqlari orqali global muammolar va amaliy xalqlararo choralar haqida ma‘lumot olish.

- Geografiya jamoaviy digital platformalar orqali talabalarni integratsiya qilish.

Bu usullar, talabalarga geografiya fanini o‘rganish va qiziqishlarini oshirishda yordam beradi va dunyo geografiyasining aloqador, interaktiv va qiziqarli xususiyatlarini ko‘rishga imkoniyat yaratadi. Geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish, talabalar uchun ma‘ruza ko‘rsatish va o‘z ishlarini amalga oshirish uchun muhimdir. Bu, talabalarni motivatsiyalash, ta‘lim dasturini qiziqarliroq qilish va ularning o‘zlashtirilgan bilimlarini amalga oshirishga yordam beradi. Interfaol usullar, talabalarning ko‘nikmalarini rivojlantirish, ish bilimi jarayonlarini soliq usullaridan foydalanish, qiziqarli multimedia vositalaridan foydalanish va ko‘nikma olishlarida ulush bir qat‘iy bilimning to‘g‘risida aniqlash va o‘z ishlarini muxlid ishlab chiqish uchun juda qo‘l imkoniyatlarni beradi.



Interfaol usullar orqali, talabalar bir qancha adabiyotlardan, internet manbalardan, videolar va audio darslardan foydalanishlari va o‘zlarini o‘rganishlari mumkin. Bu usullar, geografiya mavzularini yoritishda va tushuntirishda o‘quvchilar uchun qiziqarli yondashuvlarni o‘rnatishda, satramoqda va tushuntirishda yordam berishi mumkin. Misol uchun, geografiya ma‘ruzalarini multimedia slaydlar, kuzatishlar va xaritalar orqali o‘tkazish, virtual sayoxatlar va simulyatsiyalar orqali geografiya jarayonlarini o‘rganish, ijtimoiy tarmoqlar orqali interaktiv tadqiqotlar amalga oshirish kabi usullarni qo‘llash orqali iste‘mol qilinadi.

Shuningdek, talabalar ma‘lumotlarini topish, tahlil qilish va bir-birlari bilan ma‘lumot almashish uchun onlayn platformalardan, jurnallardan, bloglardan va forumlardan foydalanish orqali o‘zlarining geografiya bilimlarini rivojlantirishi mumkin. Bu usullar interaktiv muhitda o‘quvchi ishtirokini qo‘llab-quvvatlash va o‘qituvchilar uchun o‘quvchilarining rivojlanishini kuzatish imkonini yaratiladi.

Aytib o‘tish kerakki, interfaol usullar talabalarni o‘rganishni ko‘paytirishda juda muhimdir va bu usullardan foydalanish, geografiya darslarini qiziqarli va samarali qiladi.

Xulosa Geografiya darslarida interfaol usullardan foydalanish, o‘quvchilarga dunyo geografiyasi, xaritashunoslik, geografiya modellari va statistik tahlilning yaxshi tushunilishiga yordam beradi. Interfaol usullar, masalan, interaktiv xaritalar, geografiya o‘yinlari, multimedia darsliklar, virtual safari va geografiya ma‘lumotlari bu sayyoralardan foydalanishni o‘rganishga yordam beradi. Bu usullar o‘quvchilarga ko‘rgazma bilan ta‘lim olish, tarixiy va joriy geografiya ma‘lumotlarini mustahkamlash, ma‘lumotlarni vizual ko‘rinishda o‘rganish, geografiya mavzulari haqida interaktiv muloqotlar va hamkorliklarni mustahkamlash uchun juda foydali bo‘ladi. Bunday usullar o‘quvchilarning ilg‘or ma‘lumotlarni olishini muvafaqqiyatli va jiddiy ravishda ko‘paytirishi mumkin.

Research Science and
Innovation House



Foydalanilgan adabiyotlar

1. "Geography: Realms, Regions, and Concepts" by Harm J. de Blij, Peter O. Muller, and Jan Nijman
2. "The Cultural Landscape: An Introduction to Human Geography" by James M. Rubenstein
3. "Physical Geography: The Basics" by Joseph Holden
4. "Geographic Information Science and Systems" by Paul A. Longley, Michael F. Goodchild, David J. Maguire, and David W. Rhind
5. "Geographical Thought: An Introduction to Ideas in Human Geography" by Anoop Nayak and Alex Jeffrey
6. "World Regional Geography: Global Patterns, Local Lives" by Lydia Mihelic Pulsipher and Alex Pulsipher



Research Science and Innovation House



O‘zbekistondagi ekologik muammolar va ularni bartaraf etish masalalari

**Andijon davlat pedgogika institutining Tabiiy fanlar fakulteti talabasi
Odiljonova Muhlisa Xayyotbek qizi**

**Andijon davlat pedgogika institutining Tabiiy fanlar fakulteti talabasi
Masharipova Zohida Maxammadyusuf qizi**

**Andijon davlat pedgogika institutining Tabiiy fanlar fakulteti talabasi
Kenjaboyeva Xursanoy Baxodirjon qizi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Respublikamizda bugungi kundagi ekologik muammolar, ularni bartaraf etish uchun olib borilayotgan ishlar, Orol va orolbo‘yi atrof-muhitini muhofaza qilishda hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan chora-tadbirlar haqida ma’lumotlar keltiriladi.

Kalit so‘zlar: ekologiya, Orol va orolbo‘yi hududlari, ijtimoiy-ekotizim, atrof muhitni muhofaza qilish, ekologik xavfsizlik.

Key words: ecology, island and coastal regions, social-ecosystem, environmental protection, ecological safety.

Ключевые слова: экология, островные и прибрежные регионы, социоэкологическая система, охрана окружающей среды, экологическая безопасность.

Kirish: Bugungi kunda ekologiya va atrof - muhitni muhofaza qilish, uni yaxshilash eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. O‘tgan asrning oxiriga kelib inson bilan tabiat o‘rtasidagi munosabatlar muvozanatining buzilishi natijasida atrof- muhit, ekologik vaziyat keskin o‘zgarishlarga yuz tutdi.

Ona tabiatni asrash, unga nisbatan munosabatni tubdan o‘zgartirish bugungi kunda barchamizning vijdon burchimiz bo‘lib qolmoqda. Bu biznes emas. Zero uzoq yillar davomida biz tabiatga bir tomonlama munosabatda bo‘ldik. Undan faqat tortib oldigu, ammo kelajak taqdirimizni o‘ylamadik. Oqibatda shu tabarruk zaminimizning jarohatlanishiga olib keldik. Balki o‘z -o‘zimizni ham jarohatladik. Endi esa mana shu o‘zimiz yashab turgan Respublikamiz ekologiyasini muhofaza qilish va uni yaxshilash uchun, ekologik tanazzulning oldini olish, yurtimizning qadimda ma’lum bo‘lgan ekologik holatini qayta tiklashimiz, tarixni yaxshilab

o‘rganishimiz hamda undan hozirgi sharoitda foydalanish imkoniyatlarini qidirib topishimiz kerak.

Muhokama va natijalar: Hozirda Respublikamiz yirik sanoat va agrar mintaqa bo‘lib, kelajakda dunyoga yuz tutgan mashinasozlik,energetika,kimyo,oziq-ovqat sanoati, transport majmuini yanada rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Bunday ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanishi respublikada ijtimoiy ekotizimlarning holatiga muayyan darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Respublikada keskin bo‘lib turgan ekologik va tabiatni muhofaza qilishga oid muammolar quyidagilar:

-yirik hududiy sanoat majmualari joylashgan tumanlarda , ya’ni, Farg‘ona - Marg‘ilonda, Angren-Olmaliq-Chirchiqlarda, Navoiy va boshqa tumanlardagi tabiatni muhofaza qilish muammolari . Bu tumanlarda ijtimoiy ekotizim holati yaxshi emas. Chunki sanoat markazlaridan chiqayotgan turli xil gazlar va chiqindilar atrof-muhitni ekologik holatini buzilishiga olib kelmoqda.

-agrosanoat majmuidagi ekologik muammolar.

-tabiatdagi suvlarning sanoat chiqindilari ,pestitsidlar va mineral o‘g‘itlar bilan ifloslanishi ham muammolardan biridir.

Yuqorida qayd etilganidek respublikamiz yirik sanoat mintaqasi hisoblanadi va bu sanoat korxonalarining,tashkilot xo‘jaliklarining barchasi yer va suv manbalaridan,biomanbalardan , yerosti va ochiqdagi foydali qazilmalardan foydalanib kelmoqda. Atmosfera va suv havzalarining tozaligiga ,yer va biosfera dunyosining barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatibgina qolmay, ba’zi bir o‘simlik va hayvonlar noyob turlarining yo‘qolib ketishiga ,ming yillar davomida Ona tabiat tomonidan yaratilgan tabiiy muvozanat buzilishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu o‘rinda birinchi prezidentimiz I.A Karimovning ekologik muammo haqidagi fikrlarini keltirishimiz mumkin: „Ekologik xavfsizlik kishilik jamiyatining bugungi va ertasi uchun muhim muammolar jumlasiga kiradi. Bu muammolar amaliy tarzda hal etilsa, ko‘p jihatdan hozirgi va kelgusi avlod turmushining ahvoli va sifatini belgilash imkoniyatini beradi. Iqtisodiyotning ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan tarmoqlarining ekologik jihatdan zararsiz texnologiya yordamida rivojlantirishni ta’minlash imkoniga ega bo‘linadi”.

O‘zbekiston Respublikasi tabiatni muhofaza qilish va undan oqilona foydalanish borasidagi asosiy strategik maqsadlar quyidagilar hisoblanadi:



Aholining sihat-salomatligi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, biosferaviy muvozanatni saqlash; O‘zbekistonning ijtimoiy -iqtisodiy rivojlanish samaradorligi va barqarorligini ko‘zlagan holda tabiiy resurslardan foydalanish, qayta tiklanadigan tabiiy resurslar ishlab chiqarish va iste‘mol jarayonlarining muvozanatini saqlash, tiklanmaydigan resurslarni ishlab chiqarish, chiqindilardan oqilona foydalanish; regional va lokal darajalarda tabiatni qayta tiklanish xususiyatini tiklash; tabiatning dastlabki turlari va ularning genofondini, landshaftlarning xilma xilligini saqlash.

Vujudga kelgan Orol dengizi muammosi bilan bog‘liq halokatli ekologik - iqtisodiy va ijtimoiy ahvolni yaxshilash, Orol dengizini saqlab qolish maqsadida aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta‘minlash , Orolbo‘yi aholisini normal sanitar sharoitlar va ozuqa bilan ta‘minlash uchun Markaziy Osiyo davlatlari bilan birgalikda qisqa vaqt ichida yagona suv xo‘jaligi siyosatini ishlab chiqish kabi ishlar rejalashtirilgan.

Orolbo‘yi hududining ekologik ahvolini yaxshilashga qaratilgan eng dolzarb chora-tadbirlar: Birinchidan, hozirgi qabul qilingan qarorlar, shartnomalar va xalqaro ahamiyatga molik bo‘lgan bayonot va majburiyatlar, respublikamizda ishlab chiqilgan Orolbo‘yi hududining ekologik ahvolini yaxshilashga qaratilgan chora tadbirlar baholi qudrat amalga oshirilmoqda. Eng asosiy muammo Orolbo‘yi mintaqasida yashab kelayotgan 4 mln dan ko‘proq aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlashdir.

Qoraqalpog‘istonning shimoliy qismida yashab kelayotgan aholi va Xorazm viloyatidagi barcha aholi yashaydigan mintaqalarni toza ichimlik suvi bilan ta‘minlash uchun bir qator amaliy ishlar bajarilmoqda . Masalan Taxtako‘pirda suvni tozalovchi yirik qurilma ishga tushirildi . Ko‘pgina ovullar va tuman markazlari chet ellardan keltirilgan sho‘r suvni chuchuklashtiruvchi qurilmalar bilan ta‘minlangan.

Ikkinchidan O‘zbekiston Respublikasi „Ekosan“ jamg‘armasi aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatish va dori-darmonlar bilan ta‘minlashga katta yordam berib kelmoqda.

Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ning 2017-yil 12 - iyuldagi Oliy Majlis palatalari, siyosiy partiyalar va O‘zbekiston ekologik harakati vakillari bilan uchrashuvdagi ma‘ruzasida hokimiyat vakillik organlari hamda siyosiy partiyalar va Ekologik harakatning o‘tgan davrdagi faoliyati tanqidiy ruhda tahlil etilib, islohotlarni chuqurlashtirish yuzasidan oldimizda turgan muhim vazifalar



belgilab berildi. Xususan, Ekologik harakat hamda uning Qonunchilik palatasidagi deputatlik guruhining istiqboldagi vazifalari aniq belgilab berildi.

Xulosa:

Avvalo, sohaga oid yangi qonun loyihalari yaratish, mavjudlarini takomillashtirish, nazorat tahlil faoliyatini bugungi talab darajasida kuchaytirish, uzluksiz ekologik ta’lim konsepsiyasini ishlab chiqish, ekologik nazoratning jamoatchi inspektorlar tizimini rivojlantirish, aholi ekologik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan tizimli ishlarni amalga oshirish, atrof muhitga zararli ta’sir ko’rsatuvchi obyektlarni va suv tozalash inshootlarini inventarizatsiyadan o’tkazish bo’yicha chora-tadbirlar dasturi qabul qilinib, hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Ayni chog’da „Xavfli chiqindilarni transchegaraviy tashish va ularni yo’q qilish ustidan nazorat qilish to’g’risida”gi Bazel konvensiyasi bajarilishi holati o’rganilib, Ekologiya va atrof muhitni muhofaza qilish masalalari qo’mitasi eshituvi tashkil etildi.

Ko’rinib turibdiki, oldimizda turgan vazifalar nihoyatda zalvorli. Ularni muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirish har birimizdan yetarlicha bilim va mahoratni ishga solishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M. Mirziyoyev .2017 -2021 -yillarda O‘zbekiston Respublikasi ni rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo’yicha harakatlar strategiyasi
2. Internet. www.google.uz ; arxiv.uz
3. Qayumov A.A ., Rahmonov R.N. , Egamberdiyeva L. Sh. , Xamroqulov J. H. Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish .-T.:, Iqtisodiyot” 2014.
4. Internet. www.google.uz ; cyberleninka.ru

Research Science and
Innovation House



Ish joyidagi ijtimoiy mediaga qaramlik: Mahsuldorlik muammolari va taklif qilingan yechimlar

Teshayeva Gulira’no Asomiddin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi mutaxassisiligi

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqot ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish bilan bog‘liq nazariy hissa qo‘shadi. Yuqori ish faoliyatini ko‘rsatgan ishtirokchilar ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, hamkasblari bilan muloqot qilishga yordam berishdi. Odamlar yuqori ish faoliyati ham bir muddat qoniqarsiz ishdan qochib, ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanib, bir muddat talabchan ishdan qochib ketayotganlar ekanini ko‘rsatdilar. Ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning yuqori chastotasi natijasida ish faoliyati ko‘paydi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy media, ish unumdorligi, ishlatilishi va qoniqishlari.

АННОТАЦИЯ

Данное исследование вносит теоретический вклад, связанный с использованием социальных сетей на рабочем месте. Участники, показавшие высокую производительность труда, использовали социальные сети для общения со своими коллегами. Люди, показавшие высокую производительность труда, также были теми, кто на некоторое время убегал от неудовлетворительной работы и на некоторое время убегал от сложной работы, используя социальные сети на рабочем месте. Высокая частота использования социальных сетей на рабочем месте привела к повышению производительности труда.

Ключевые слова: социальные медиа, производительность труда, использование и вознаграждение

ABSTRACT

This study makes theoretical contributions related to social media usage in the workplace. Participants who showed high work performance used social media to help communicate with their colleagues. People showed high work performance were also the ones escaping from an unsatisfying job for a while and escaping from a demanding job for a while by using social media in the workplace. High frequency of using social media in the workplace resulted in increased work performance.

Keywords: Social Media, Work Performance, Uses and Gratifications

Kirish:

Deyarli o'n yil oldin tadqiqotchilar elektron pochtaning ish joyidagi ta'sirini va bu tashkilotlarning unumdorligini pasaytiradimi yoki yo'qligini o'rganishgan foydalanishning ortishi bilan tadqiqotchilar ushbu yangi aloqa usulini o'rganishga e'tibor qaratmoqdalar. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning ko'payishi shaxslararo munosabatlarning pasayishiga olib keladi. Millenial ishchilar yuzmayuz gaplashish o'rniga hamkasblariga elektron pochta xabarlarini yozishni afzal ko'radilar. Ming yillik ishchilarga qo'shimcha ravishda, tobora ko'proq xodimlar yig'ilishlarda suhbatlarni tinglash va ularga hissa qo'shish o'rniga matnli xabarlarni yuborishadi. Ijtimoiy tarmoqlarning bir zumda mavjud bo'lishi va do'stlarning so'nggi xabarlarini tekshirish istagi odatiy xatti-harakatlar bo'lib, ish joylarida katta chalg'itish ro'y beradi."Cheklangan tadqiqotlar kompyuter vositachiligida, xususan, ijtimoiy mediadan foydalanishda ish joyidan qoniqishni o'rgandi". Cheklangan tadqiqotlar orasida ish joyida ijtimoiy mediadan foydalanish va uning xodimlarning samaradorligiga ta'sirini o'rganuvchi tadqiqotlar mavjud. Masalan, Munene va Nyaribo xodimlar eng ko'p pul sarflashlarini aniqladilar. Ish joyidagi va ish bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat uchun ijtimoiy tarmoqlarda o'z vaqtlarini o'tkazadi va bu qaramlik ishchilarning ish faoliyatini pasaytiradi. Facebookda tadqiqot o'tkazildi va natijada Facebook ishda unumdorlikni pasaytirishi hujjatlashtirildi. Xuddi shunday, ijtimoiy mediadan foydalanish ish joyida tobora kuchayib borayotgan muammo ekanligini va xodimlar ijtimoiy mediadan qanchalik ko'p foydalansa, ular uni chalg'ituvchi deb bilishmaydi. Shunday qilib, ular ish joyida ijtimoiy tarmoqlarni taqiqlash o'rniga, tashkilotlarga undan foydalanish vaqtini kuzatib



borishni tavsiya qiladi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoq saytlarida ortiqcha vaqt o'tkazadigan xodimlar ish joyida mumkin bo'lgan intizomiy jazoga tortilishi mumkin. SNS ning mehnat unumdorligiga salbiy ta'siridan farqli o'laroq, Seman 2014-yil o'z tadqiqotida tashkilot xodimlari SNS dan ijobiy tarzda foydalanganliklarini aniqladilar, bu esa o'z malakalarini oshirish bilan birga stress darajasini pasaytiradi. Boshqa bir tadqiqotida, agar ijtimoiy media menejerlar tomonidan to'g'ri boshqarilmasa, bu ishda muammoli vaziyatga aylanishini aniqladi, chunki u foydalanuvchilarni chalg'itadi. Ta'kidlashicha, ijtimoiy media xodimlarning ikki tomonlama muloqotiga va ish hamkorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi va natijada samaradorlikka erishildi.

NAZARIY ASOSLAR

Foydalanish va qoniqish tushunchasi odamlarning qoniqishlari borligi va ularni qondirish uchun ommaviy axborot vositalarini izlashiga asoslanadi. Rohatlanish ommaviy axborot vositalaridan foydalanish natijasida to'plangan ehtiyojlarni anglatadi. Odamlarning ko'plab ehtiyojlari bor, ulardan ba'zilar ijtimoiy, boshqalari esa psixologik. O'z ehtiyojlarini qondirish uchun odamlar ma'lum ommaviy axborot vositalaridan foydalanishning afzalliklarini boshqalarga nisbatan faol baholaydilar va ularni tanlaydilar. Foydalanish va qoniqish nazariyasi odamlarning turli xil ehtiyojlari (masalan, ma'lumot yig'ish) va bu ehtiyojlar medianing to'g'ri turini tanlash orqali (masalan, Google qidiruvi orqali) qondirilishini ta'kidlaydi. “Bu iste'molchilar ommaviy axborot vositalarini tanlashda faol va ular muayyan ehtiyojlarni qondirish uchun ma'lum texnologiyalar bilan shug'ullanadilar” degan taxmindan kelib chiqadi. Internet va ijtimoiy tarmoqlarning kundalik hayotimizga kirib borishi bilan endi odamlarning tanlash imkoniyatlari ko'payib bormoqda. Ular Internet va ijtimoiy mediadan o'zlarining eng muhim ehtiyojlaridan biri bo'lgan ijtimoiy aloqa va ijtimoiy tarmoqqa tegishli bo'lgan ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish orqali qondirish uchun foydalanadilar.

Papacharissi va Rubinning internetdan foydalanish motivlari va ularning beshta motivi (shaxslararo foydalilik, ma'lumot izlash, o'yin-kulgi, qulaylik va vaqt o'tkazish) bo'yicha topilmalari bo'yicha tadqiqotlari Internet va ijtimoiy media asosidagi ko'plab tadqiqotlarning asosi hisoblanadi.

“Shaxslararo yordam” ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishning muhim omili hisoblanadi. Cha tadqiqotida ma'lum bo'lishicha, shaxslararo foydalilik

motivatsiyasi tufayli odamlarning ijtimoiy tarmoq saytlaridan foydalanish chastotasi va davomiyligi oshgan.

Li onlayn video reklamalarni tomosha qilish uchun beshta motivatsiyani topdi, ular: ijtimoiy o‘zaro ta‘sir, dam olish, ma‘lumot, qochish vaqti va o‘yin-kulgi. Bae foydalanuvchilarning SNS-ni davom ettirish niyati ularning SNS-dan foydalanishdan qoniqishlari bilan bog‘liqligini aniqladi. Xonning YouTube-dan qoniqish bo‘yicha tadqiqoti shuni ko‘rsatdiki, dam olish motivlari bor o‘yin-kulgi, ijtimoiy muloqot va ma‘lumot berish.

Gao va Feng ijtimoiy mediadan qoniqishlarni besh toifaga ajratdi, ular: ma‘lumot izlash, o‘yin-kulgi, ijtimoiy o‘zaro ta‘sir, o‘zini ifoda etish va taassurotlarni boshqarish. Heravi onlayn ijtimoiy tarmoqdan foydalanish uchun to‘rtta o‘lchovni topdi, ular: munosabatlarni saqlash, o‘yin-kulgi, munosabatlarni o‘rnatish va ma‘lumot qidirish. Ijtimoiy mediani martaba rivojlanishi, o‘z-o‘zini marketing va ishchi-ish beruvchi munosabatlari uchun o‘rganib chiqdi, ijtimoiy mediadan o‘z-o‘zini marketing vositasi sifatida foydalanadigan xodimlar ijobiy obro‘ga ega bo‘lishga harakat qilishlarini va ularning muloqoti bilan assimetrik ekanligini aniqladilar. Skeels va Grudin 2009 ish joyida Facebook va LinkedIn-dan foydalanishni o‘rganib chiqdi va keng ijtimoiy va ish bilan bog‘liq foydalanishni topdi. Leftheriotis va Giannakos sug‘urta kompaniyasida ijtimoiy mediadan foydalanish va xodimlarning ish samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganib chiqdi va ijtimoiy media axborot almashish imkonini beradi va xodimlarga bilim uzatishni yaxshilashga yordam beradi. Tulu 2017 universitet akademiklari o‘rtasida onlayn ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishni o‘rganib chiqdi va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish rasmiy ish vaqtida o‘qituvchilarning mehnat unumdorligini pasaytirmasligini aniqladi. Nduhura va Prieler 2017-yildagi, ish joyidagi ijtimoiy media bo‘yicha o‘tkazgan tadqiqotlarida ijtimoiy media davlat muassasalari faoliyatida va xodimlarning turli tadbirlarni muvofiqlashtirish, jumladan, uchrashuvlar tashkil etish va ma‘lumot almashishda ijtimoiy mediadan foydalanish usullarida markaziy rol o‘ynashini aniqladi. Tajudeen o‘z tadqiqotlarida tashkilotlar tomonidan ijtimoiy mediadan foydalanishning afzalliklari borligini tasdiqladi. Jiang o‘z topilmalari ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish va ishtirokchilarning etakchilik xatti-harakatlari o‘rtasida sezilarli bog‘liqlik borligini ko‘rsatdi. Robertson va Kee Facebook’ning hamkasblar bilan o‘zaro munosabati xodimlarning ishdagi qoniqishini ijobiy tomonga oshirganini aniqladi. Ijtimoiy



tarmoqlar kundalik hayotda tobora ko‘proq joy egallamoqda. Bizning mavjudligimizning ajralmas qismiga aylangan. Shu bilan birga, ularning faol foydalanuvchilari sonining tez o‘shishi bilan birga roli doimiy ravishda o‘shib bormoqda. Onlayn shovqin ko‘proq qo‘llanila boshlandi shaxsiy muloqot, ijtimoiy tarmoqlar odamlarning turmush tarzi, muloqoti, qiziqishlari va psixologiyasiga jiddiy ta‘sir ko‘rsata boshladi. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish jadal sur‘atlar bilan kengayib bormoqda va dunyo aholisining uchdan biridan ko‘prog‘ini qamrab oldi, shuning uchun turli xil tadqiqotchilar mamlakatlar ijtimoiy tarmoqlarni faol o‘rganmoqda. Katta empirik materiallar to‘plangan, umumlashtirish va tushunishni talab qiladi, bu ko‘rib chiqishning maqsadi edi. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik va depressiya, tashvish, stress o‘rtasidagi ijobiy aloqalar, nevrotizm, hissiy muammolar, o‘z-o‘zini past baholash, kiber qurbonlik, jismoniy sog‘liq muammolari, ruhiy kasalliklar, yolg‘izlik, kechikish, smartfon va internetga qaramlik va munosabatlardagi xiyonat. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik va qoniqish o‘rtasidagi salbiy bog‘liqlik aniqlangan, maktab o‘quvchilari va talabalarning o‘quv natijalari, mehnat unumdorligi va o‘z xodimlarining tashkilotga sodiqligi, ijtimoiy kapital, yoshi. Asosiy sabab ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik muloqotga bo‘lgan ehtiyojdir va umuman ayollar ijtimoiy tarmoqlarda ishtirok etishda erkaklarga qaraganda faolroq. Sharh faqat turli sohalarda o‘tkazilgan bir qator tadqiqotlarda aniqlangan ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik mamlakatlar o‘rtasidagi aloqalarni taqdim etadi. Taqdim etilgan natijalar ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikni aniqlaydigan chet tili so‘rovnomalari yordamida chet elda olingan.

METODOLOGIYA

Ko‘p tanlovli savollar orasida, ishtirokchilarning ish joyida ijtimoiy mediadan foydalanish chastotasi haqidagi ettinchi savol va o‘n ikkinchi savol - ishtirokchilarning ijtimoiy mediadan foydalanishga ishonishlari va bu ularning ish samaradorligiga yordam berishini takidlab o‘tishdi. Savollarni qulayroq qilish uchun biroz o‘zgartirildi. Ular “ha-yo‘q savollar” ko‘rinishida bo‘lgan va javoblarga “ishonchsiz” tanlovini qo‘llashdi. Yopiq variantlarda “faqat uyda kirish” bekor qilindi va u “har kuni tashrif buyurmayman” bilan almashtirildi. Boshqa ko‘p tanlov savollari mualliflar tomonidan adabiyotlarni ko‘rib chiqish asosida ishlab chiqilgan.



Ish joyidagi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish shkalasi

Xodimlarning ish joylarida ijtimoiy tarmoqlarda ishtirok etishining asosiy sabablarini tushunish uchun yettita banddan iborat 5 balli Likert shkalasi savollari ishlab chiqilgan va mualliflar tomonidan tadqiqotga kiritilgan. Bu savollar:

- Ishga oid ma'lumotlarni topish va uni yuklab olish
- Bu menga hamkasblarim bilan muloqot qilishda yordam beradi
- Bu mening menejerlarim bilan muloqot qilishimga yordam beradi
- Bu mening ishimni muvofiqlashtirishga yordam beradi
- Bu menga biznes-reja tuzishda yordam beradi
- Men bir lahzada muloqot qila olaman
- Men favqulodda vaziyatda muloqot qila olaman.
- Ishbilarmonlik aloqalarini o'rnatish uchun
- Hamkasblar bilan ma'lumot almashish uchun
- Ishga oid ma'lumotlarni qidirish uchun
- Kundalik tartibning bir qismi
- Qoniqarsiz ishdan bir muddat qochib qutulmoq
- Qattiq talabchan ishdan bir muddat qochish.

Ish samaradorligi shkalasi

Ish samaradorligi - bu xodimlarning o'z ish faoliyatini ko'rsatish darajasi. Ish samaradorligi shkalasi Leftheriotis va Giannakos tadqiqotidan qabul qilingan. Biz o'zgaruvchilarni o'lchash uchun 5 balli Likert shkalasidan foydalandik (“To‘liq qo‘shilmayman”, ““Rozimasman”, ““Neytral”, “Roziman”“ va “To‘liq roziman”“).

Ishonchlilik

Tadqiqot ichki muvofiqlikni tekshirish orqali ishonchliligini tekshirish maqsadida ishonchlilik testidan o'tkazildi. Ichki muvofiqlik ish samaradorligi uchun $a = 0,787$ va ish joyidagi ijtimoiy media ishtiroki uchun $a = 0,844$ qaytarilgan asbobning Cronbach alfa Cronbach alfa testi bilan baholandi.

Bog‘liq va mustaqil o‘zgaruvchilar

Mustaqil o‘zgaruvchilar - bu ishtirokchilarning demografik profili, ijtimoiy tarmoqlarga tashrif buyurish chastotasi va ish joyidagi ijtimoiy media ishtiroki bilan bog‘liq o‘zgaruvni - bu ish samaradorligi.

Tahlil

Ma'lumot to'plash uchun so'rov usuli qo'llanildi va ma'lumotlar SPSS 22 dasturi yordamida tahlil qilindi. Ish joyidagi ijtimoiy media ishtirokining ish



samaradorligiga ta'sirini o'lchash uchun omil tahlili, chastota va regressiya tahlilidan foydalandik. 455 kishi ishtirok etishni ma'qul ko'rdi va so'rovdan o'tdi. 259 nafari tadqiqotda ishtirok etmadi. Ishtirokchilar turli muassasalarda ishlaydi. Bular Kibris Ilim universiteti, Yaqin Do'g'u universiteti, Girne universiteti, Do'g'a kolleji, Qandil dorixonasi, Fikri Terkan qurilish, Bücürük bolalar kiyimlari, Temya reklama agentligi, Lapta Yavuzlar o'rta maktabi, Nikosiya yer idorasi, Nikosiya kompaniyalari ro'yxatga olish boshqarmasi, Nikosiya Hisob palatasi, Xalqaro final universiteti va Lefke Yevropa universiteti.

Demografik ma'lumotlar

Ayollar (58%) erkaklardan (42%) ko'proq edi. Ishtirokchilarning asosiy qismini Shimoliy Kiprliklar (69,2%), undan keyin turklar (19,3%), inglizlar (4,8%), eronlar (4,8%) va boshqa millatlar (1,8%). Ishtirokchilar 36-46 (38,9%), 25-35 (30,3%), 47-57 (21,1%), 58-68 (7,7%) va 69-79 (2%) orasida edi. Aksariyati xususiy universitetda (52,5%), boshqalari davlat ishlarida (35,8%) va xususiy sektorda (11,6%) ishlagan. Ularning 51 foizi akademik, o'qituvchi, 11,6 foizi idora xodimlari, 5,5 foizi rahbar va 31,9 foizi boshqa unvonlarga ega edi. WhatsApp (46,2%) ish joyida eng ko'p foydalaniladigan ijtimoiy media edi. Ikkinchi o'rinni Facebook 32,5%, Intagram 13,6% uchinchi, Twitter 5,3% to'rtinchi va Viber 2,4% ijtimoiy tarmoqlardan foydalangan beshinchi o'rinni egalladi. Ko'pchilik uni kuniga bir yoki ikki marta ishlatgan (45,1%), 33,2% kuniga 10 martagacha, 10,8% deyarli har doim ishlatgan. Ozchilik (9,7%) har kuni tashrif buyurmagan va faqat 1,3% ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanmagan.

Ish joyidagi ijtimoiy media fikrlari uchun natijalar

Yuqori foizga ega bo'lgan ishtirokchilar (80,4%) “ish joyidagi ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ijobiy ikki tomonlama muloqotga hissa qo'shishini” tasdiqlagan, 13,4 foizi buni tasdiqlamagan, 6,2 foizi esa ishonchsiz.

50,3% “Ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xodim va ish beruvchi o'rtasidagi muloqotni yaxshilaydi”, deb ishonmagan, ulardan 36,5 foizi bu yaxshilanishga ishongan, 13,2 foizi esa ishonchsiz. 65,7% “ha” deb javob berdi: “Ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xodimlar va xodimlar o'rtasidagi muloqotni yaxshilaydi. 21,5% bu savolga yo'q, 10,3% ishonchsiz deb javob berdi. Ko'proq ishtirokchilar (52,7%) “ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ish samaradorligiga yordam beradi” deb ishonishgan va kamroq ishtirokchilar 34,9% bu



savolga “yo‘q” deb javob berishgan. 12,1% bunga ishonchi komil emas. Ularning 47,7 foizi “yo‘q”,

35,6 foizi “ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ish samaradorligini oshiradi” degan fikrga “ha” desa, 16,5 foizi ishonchsiz. “Yo‘q” deb javob bergan ishtirokchilar (49%) “Ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi” degan gapga “ha” (33,2%) javob bergan ishtirokchilardan ko‘proq edi. Ularning 17,8 foizi ishonchsiz edi.

XULOSA

Blumler va Katz ta’kidlashicha, ommaviy axborot vositalarining to‘g‘ri turini tanlash orqali odamlar o‘z ehtiyojlarini qondiradilar. Ushbu tadqiqot ish joyidagi ijtimoiy mediadan foydalanishi va ulardan foydalanishdan qoniqishini o‘rganish uchun foydalanish va qoniqish nazariyasidan foydalangan. Yangi media va uning odamlarga ta’siri sohasida so‘nggi foydalanish va qoniqish bo‘yicha tadqiqotlar olib borildi. Ushbu tadqiqot ish joyidagi ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy mediadan foydalanishni o‘rgangan ulardan biridir.

Natijalar shuni ko‘rsatdiki, WhatsApp va Facebook birgalikda ish joyida eng ko‘p foydalaniladigan ijtimoiy media (78,7%).

Ishtirokchilar “ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ijobiy ikki tomonlama muloqotga yordam beradi” (80,4%), deb hisoblashdi. Ular “ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish xodimlar va xodimlar o‘rtasidagi aloqani yaxshilashni (65,7%) qo‘llab-quvvatladilar. Ularning ta’kidlashicha, “ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish ish samaradorligiga yordam beradi” (52,7%). Ishtirokchilar ijtimoiy media ishchi va ish beruvchi o‘rtasidagi muloqotga ijobiy ta’sir ko‘rsatishiga rozi bo‘lishmadi (36,5%). Ish joyida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish chastotasi oshganida, bemorlarning ish qobiliyati oshdi. Biroq, oldingi tadqiqotlarning ba’zilari ish joyida ijtimoiy mediadan foydalanish xodimlarning unumdorligini pasaytirganini aniqladi.

Natijalar Aguenza va boshqalarni tasdiqlagan tadqiqotida ular ijtimoiy medianing xodimlarning ikki tomonlama muloqoti va hamkorligiga ijobiy ta’sirini aniqladilar. Natijalar, shuningdek, Leftheriotis va Giannakos, Tulu, Nduhura and Prieler, Tajudeen va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarni qo‘llab-quvvatladi. 2018 yil Robertson va Kee ish joyida ijtimoiy mediadan foydalanish o‘rtasida ijobiy munosabatni topdilar. Ushbu tadqiqot, shuningdek, ijtimoiy

tarmoqlardan foydalangan holda bir muncha vaqt talabchan va qoniqarsiz ishdan qochish ularning ish samaradorligini oshirishini aniqladi. Ko‘plab tadqiqotlar natijalari ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik ko‘p narsalarni keltirib chiqaradi degan aniq xulosaga olib keladi. Muammolar: ko‘pchilik bilan bu qaramlikning ijobiy aloqalari mavjud, salbiy omillar va bir qator ijobiy omillar bilan salbiy aloqalar. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikda topilgan ijobiy havolalar depressiya, tashvish, stress, nevrozizm, hissiy muammolar, o‘zini past baho, kiber qurbonlik, jismoniy muammolar bilan salomatlik, ruhiy kasalliklar, yolg‘izlik, kechiktirish, smartfon va internetga qaramlik, munosabatlardagi xiyonat. Ijtimoiy tarmoqlarga qaramlik o‘rtasidagi salbiy aloqalar va hayotdan qoniqish, maktab o‘quvchilari va talabalarning o‘quv natijalari, mehnat unumdorligi, o‘z xodimlarining tashkilotga sadoqati.

Turli mamlakatlardagi tadqiqotchilar ijtimoiy tarmoqlarga qaramlikning asosiy sabablaridan biri muloqotga bo‘lgan ehtiyoj ekanligi, ayollar esa ijtimoiy tarmoqlarda ishtirok etishda odatda erkaklarga qaraganda faolroq ekanligiga rozi.

Tarmoqlarda yosh foydalanuvchilar keksalarga qaraganda faolroq.

ADABIYOTLAR

1. Aguenza, B.B., Al-Kassem, A.H., Som, A.P.M. (2012), Ijtimoiy media va ish joyidagi samaradorlik: Qiyinchiliklar va cheklovlar. Biznesda tadqiqot fanlararo jurnali, 2(2), 22-26.
2. Bae, M. (2018), Ijtimoiy tarmoq sayti foydalanuvchilarining qoniqish va davom etish niyatida qidirilayotgan va olingan qoniqish o‘rtasidagi tafovutning ta‘sirini tushunish. Insonda kompyuterlar
3. Blumler, J.G., Katz, E. (1974), Ommaviy kommunikatsiyalardan foydalanish:
4. Malakaviy tadqiqotlarning hozirgi istiqbollari. Kaliforniya, Birlashgan
5. Shtatlar: Sage nashrlari.
6. Cha, J. (2010), Ijtimoiy chastota va miqdorga ta‘sir qiluvchi omillar
7. tarmoq saytidan foydalanish: Motivatsiyalar, hislar va maxfiylik muammolari.
8. Birinchi dushanba, 15(12), 2889.
9. Diercksen, M., DiPlacido, M., Harvey, D., Bosco, S.M. (2013a),
10. Bugungi ish joyida ijtimoiy mediadan foydalanishdagi avlodlar farqlari.



11. Psixologiya tadqiqotlari, 3 (12), 762-771.
12. Diercksen, M., DiPlacido, M., Harvey, D., Bosco, S.M. (2013b), The
13. Ijtimoiy tarmoqlarning bugungi ish joyidagi ta'siri. uchun ish yuritish
14. Shimoli-sharqiy mintaqa qarorlar fanlari instituti. p946-952.
15. Gao, Q., Feng, C. (2016), Ijtimoiy tarmoqlar bilan brending: foydalanuvchi qoniqishlari, foydalanish naqshlari va brend xabari mazmuni strategiyalari. Kompyuterlar Inson xulq-atvori, 63, 868-890.
16. Gaudin, S. (2009), Tadqiqot: Facebook-dan foydalanish ishda unumdorlikni pasaytiradi.
17. Mavjud: <http://www.computerworld.com/article/2526045/web-apps/study--facebook-use-cuts-productivity-at-work.html>. [Oxirgi marta 2018-yil 18-iyulda kirilgan].
18. Heravi, A., Muborak, S., Choo, K.K.R. (2018), Onlayn ijtimoiy tarmoqlarda ma'lumotlarning maxfiyligi: Foydalanish va qoniqish istiqbollari. Inson xulq-atvoridagi kompyuterlar, 84, 441-459.
19. Jiang, H., Luo, Y., Kulemeka, O. (2016), Raqamli asrda etakchi: ijtimoiy media aloqa mutaxassislarining ishini qanday o'zgartirayotganini o'rganish. Telematika va informatika, 33, 493-499.

Research Science and Innovation House



Худудлар ижтимоий-иқтисодий ривожланишида агротуризм муаммолари ва унинг истикболли ечимлари

Исломова Рисолат Абдуллаевна

Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлар академияси ўқитувчиси

Аннотация

Туризм тизимида экологик туризмнинг ўз ўрни мавжуд. Бу айниқса Навоийдек вилоят учун жуда аҳамиятлидир. Мазкур ҳудудда дашти-чўллар билан бирга тоғлар, гўзал манзарали ҳудудлар, азиз авлиё ва мутафаккирлар қадамжолари, кўпгина фойдали қазилмалар, ўзига хос аҳоли қатлами мавжудлиги баён этилган. Экологик туризмни тўғри англаш учун унинг турларини аниқлаб олиш лозимдир.

Калит сўзлар: тиббиёт, диетология ва косметология, Яшил макон, юрак-қон томир касалликлари, Экзотик, Рекреация.

Навоий вилоятида экологик туризмнинг мақсади бўйича таснифланди. Ушбу белгиси бўйича экологик туризм ўрганиш натижасида уларнинг қуйидаги хусусиятлари аниқланди:

- билиш, ўрганишга қаратилган;
- хизмат юзасидан;
- қариндош-уруғларни кўришга қаратилган;
- диний зиёрат мақсадида;
- спорт ва соғломлаштиришга қаратилган;
- ўқувни амалга ошириш мақсадида;
- рекреация мақсадида;
- табиат қўйнига саёҳат мақсадида;
- ихтисослашган саёҳатларга қаратилган;
- экзотик мақсадда.

Экологик туризмнинг мақсади бўйича таснифининг турлари ва уларнинг мазмуни ўрганилиб таҳлил қилинган, экологик туризмнинг турлари шартли равишда тўрт гуруҳга бўлинган. Илмий туризм, маданий ва ижтимоий қадриятлар туризми, ҳамда саргузаштли туризм ҳамда табиат туризми бўлиб, улар бир-бири билан узвий боғлиқлиги таҳлил қилинган. Экологик туризмнинг ўзига хос хусусиятлари ва унинг вилоят ижтимоий-иқтисодий ҳаётидаги аҳамияти баён қилиниб ижобий ва салбий томонлари таҳлил қилинди (1-жадвал).



1-жадвал

Экологик туризмнинг мақсади бўйича таснифнинг турлари ва уларнинг мазмуни¹

Экологик туризмнинг турлари	Экологик туризм турларининг мазмуни
Илмий туризм	
Билиш, ўрганишга қаратилган	Табиатни ва бошқа экологик туризм объектларини билишга, бир вақтнинг ўзида дам олиш ва тегишли тарзда завқланишга қаратилган туризм.
Ўқувни амалга оширишга қаратилган	Билимини оширишга, асосан ўқув муассасалари томонидан ташкил қилинадиган, табиатни ўрганишга, хусусан, ботаника, биология, зоология каби фанлар бўйича табиат билан жонли мулоқат қилишга қаратилган туризм.
Маданий ва ижтимоий қадриятлар туризми	
Хизмат юзасидан	Кўпинча экологик туристик объектлар мавжуд жойларга хизмат сафарига юборилиши билан боғлиқ ва ушбу объектларни бевосита ўрганиш мақсадларига қаратилган туризм.
Қариндош-уруғларни кўришга қаратилган	Шаҳарда яшавчиларнинг ота-онаси ва бошқа яқинлари қишлоқда яшайдиган бўлса, уларни кўриш учун қишлоққа, агар қариндош-уруғлар турли ҳудудларда истиқомат қиладиган бўлса, уларнинг бир-бирини кўриши учун бир жойдан иккинчи жойга бориши билан боғлиқ туризм.
Диний зиёрат мақсадида	Туризмнинг ўта қадимий шакли бўлиб, ҳозирги пайтда ички туризм даражасидан халқаро туризм даражага кўтарилган турли муқаддас жойларни зиёрат қилиш (кўп ҳолларда ҳаж сафари каби) билан боғлиқ туризм.
Саргузаштли туризм	
Спорт ва соғломлаштиришга қаратилган	Бу турли спорт мусобақаларини ташкил қилиш орқали, мамлакат миқёсида спортнинг турли йўналишлари бўйича чемпионатларга, умид ниҳоллари, баркамол авлод, универсиада каби

¹ Мазкур жадал тадқиқотларимиз натижасида муаллиф томонидан тузилди.



	оммавий спорт мусобақаларга иштирок этиш орқали амалга ошириладиган туризм.
Табиат қўйнига саёҳат мақсадида	Табиатдан завқланиш, унинг барча бойликларидан (соф ҳаво, тоза сув, табиат гўзаллиги, турли туман ўсимликлар, ноёб ҳайвонлар, қушлар кабилардан) баҳраманд бўлишга қаратилган туризм.
Ихтисослашган саёҳатларга қаратилган	Алпинизм, қояга тирмашиб чиқиш, музликларни забт этиш, ғорларга саёҳат, канкида (лижада) учиш, отда сайр қилиш кабилар билан боғлиқ туризм.
Табиат туризми	
Рекреация мақсадида	Аксарият ҳолларда одамларнинг татил пайтида, бўш вақтларини мазмунли ўтказишга ва шу даврда саломатлигини ҳамда кучини тиклашга қаратилган табиатга ошуфта туризм.
Экзотик мақсадда	Туристларнинг ғаройиб нарсаларни кўришга, табиатнинг бетакрор гўзалликларини, маҳаллий аҳолининг турмуш тарзи, урф-одатларини, шу ҳудудда тайёрланадиган овқатларини кўриш ва баҳраманд бўлиш мақсадида қаратилган туризм.

Экологик туризмни ривожлантиришда атроф-муҳитни асраш, тадбирлар томонидан асл ҳолига келтириш қийин. Шу туфайли экологик туризмни ривожлантиришни атроф-муҳитни муҳофаза қилиш билан бирга қўшиб олиб бориш лозим деб топилди.

Демак, табиатдан завқланиш, унинг барча бойликларидан яъни соф ҳаво, тоза сув, табиат гўзаллиги, турли туман ўсимликлардан баҳраманд бўлиш учун, бугунги кунда сув ресурси катта муаммо бўлмоқда. Бунинг ечими сув кўп талаб этилмайдиган ўсимликларни кўпайтиришдир.

Навоий вилоятида “Яшил макон” дастурига асосан Зарафшон арчасини экиб кўпайтириш лозимлиги кўриб чиқилмоқда. Табиий ҳолда ушбу арчалар денгиз сатҳидан 260 метрдан 2 800 метргача баландликда ўсади. Аммо уни ҳозирги шароитда пастликларга ва турли текисликларга ҳам сунъий равишда мослаштириб ўстирилмоқда. Бунинг афзаллиги шундаки, бир гектар майдондаги арча дарахти бир йил давомида инсон соғлигига зарар етказувчи микробларни ўлдирувчи 30 тонна фитанцид моддаси ишлаб чиқаради. Бу Навоийдек, серсаноат индустриал вилоят учун катта аҳамиятга эга. Бундан



ташқари зайтун дарахти ҳам тоғли сувсиз жойлардаги худудларда ўстирилганда, атмосфера ҳавосини чанг ва ғуборларни ўзида ютиб қолиш ва инсон учун ўта зарур бўлган кўплаб миқдорда кислород чиқариш хусусиятига ҳам эга эканлигидир.

Вилоятнинг чўл ва адирлардан иборат экологик вазият мураккаб бўлган худудларида ўрмон хўжаликларини барпо этиш мақсадга мувофиқ. Ушбу ўрмон хўжаликларида алоҳида ихоталанган зоналарни ташкил қилиш ва улардан туристик объект сифатида фойдаланиш лозимлиги кўриб чиқилмоқда. Вилоятнинг ўрмонзорларини ташкил қилиш учун шу ернинг ўзида кўчатчиликни ривожлантириш мақсадга мувофиқ. Бундай экзотик ўсимликларга зайтун дарахтини ўрганиб чиқилганда, у сувсизликка чидайдиган бута дарахти бўлиб, агротуризмда муҳим ресурс ҳисобланади.

Ундан ёғ олиш кўриб чиқилганда ғўза ва зиғир ёғига нисбатан етиштириш тоғ-чўл зоналарида қулай ва туристларни ўзига жалб этувчи озукавий ёғлик ўсимликдир.

Озиқавий ёғ инсон истеъмоли учун зарур бўлган озиқ-овқат маҳсулотларидан биридир. У тирик организм учун энергия манбаи бўлиб хизмат қилади. Инсон кундалик ҳаёт фаолиятида сарф қиладиган энергиянинг қарийб учдан бир қисмини ёғлар ҳисобига олади. 1 грамм ёғнинг энергия бериш қобилияти 37,7 кЖни ташкил этади.

Ёғнинг бир кунлик илмий асосланган истеъмол меъёри ўртача 100 г қабул қилинган. Лекин бу кўрсаткич одамнинг жинси, ёши, ҳаёт фаолиятига асосланиб 80-120 граммни ташкил этиши мумкин. Белгиланган меъёрнинг 60%дан кўпроғи ўсимлик ёғлари ҳисобига тўғри келиши керак.

Ёғлар организмни энергия билан таъминлаб қолмасдан хужайраларнинг тузилишида иштирок этади. Тери остида ёғ тўқимасининг ҳосил бўлиши бундан яққол далолат беради. Шунингдек, ёғ организмни ташқи муҳитдан химоя қилувчи омиллардан бири ҳамдир.

Ёғнинг аҳамияти юқорида айтилганлар билан чекланиб қолмасдан, улар организмда катта физиологик жараёнларда ҳам иштирок этишини қайд этиши лозим. Ёғларнинг физиологик аҳамияти шундаки, унда инсон ҳаёти учун зарур бўлган фосфатидлар, витаминлар, ўрин алмаштирмайдиган юқори даражада тўйинмаган ёғ кислоталари ва бошқа фаол моддалар мавжуд. Улар ҳаёт фаолияти учун зарур бўлган ҳамма жарёнларда иштирок этади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 2 мартдаги “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт Стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид Давлат Дастури тўрисида” ПФ-27-сон Фармони ижроси юзасидан бир қанча ишлар амалга




оширилмоқда. Инсон организмга фойдаси юқори бўлган ўсимлик ёғини ишлаб чиқариш зарурлиги кўриб чиқилди.

Масалан, ёғлар таркибида учрайдиган тўйинмаган ёғ кислоталари организмнинг қон томирлари деворига ўтириб қоладиган холестеринни чиқариб, атеросклероз касаллигидан сақлайди. Шу сабабли ҳам кам ҳаракат қилувчи одамлар, айниқса қариялар ўз истеъмолларига кўпроқ ўсимлик мойларини киритишлари мақсадга мувофиқдир.

Баъзи ўсимлик уруғлари, мевалари, илдизмевалари, умуман бошқа аъзоларида кўпроқ даражада мой тўпланганлиги учун улар мой берувчи ўсимликлар деб ҳам юритилади. Улар уруғида мойнинг миқдори 50-70%гача етади. Масалан, кунгабоқарнинг юқори даражада мой тўпловчи навларида мойнинг миқдори 70%гача бўлади. Лекин, мой олиш учун таркибида бундан анча кам миқдорда мой тўпловчи уруғлардан ҳам фойдаланилади. Кам мой берувчи ўсимликлар кўпчилик ҳолларда халқ хўжалиги учун катта аҳамиятга эга бўлган маҳсулотлар олишда ишлатилади. Масалан, ғўза пахта толаси олиш учун экилса, соя ўсимлиги, асосан, озукавий оқсил олиш учун экилади.

Ҳозирги кунда мой берувчи ўсимликларга 100 дан ортиқ ўсимлик киради. Лекин уларнинг кўпчилигида мойнинг миқдори унча кўп бўлмаганлиги туфайли мой ишлаб чиқариш саноатида ишлатилмайди. Асосий ўсимликлар уруғи таркибидаги мой миқдори ушбу диаграммада келтирилган.



Мой берувчи ўсимликлардан мой ишлаб чиқариш, асосан, уч босқични ўз ичига олади: уруғларни тайёрлаш, мой ишлаб чиқариш ва тозалаш.

Яқин йилларда Ўзбекистон зайтун мойи ишлаб чиқарадиган мамлакатлар каторига қўшилишни режалаштирмоқда. Хусусан, жорий йилнинг март ойи охирларида республиканинг жанубий вилоятларида 530 гектар, шу жумладан, Сурхондарё вилоятининг Олтинсой, Музработ ва Узун туманларининг ҳар бирида 100 гектардан, Термиз, Жарқўрғон, Сариосиё ва Бандихон туманларининг ҳар бирида 50 гектардан, Қашқадарё вилоятининг Дехқонобод туманида 30 гектар майдонда зайтун плантацияси барпо этилиши бўйича маълумотлар эълон қилинди.

Мамлакатда 10 даражагача бўлган совуққа чидамли Арбусано (Италия), Арбикино (Италия), Манзания ва Колорес (Испания) ҳамда Гемлик (Туркия) навли 465 минг туп зайтун кўчати ўтказилиши кўзда тутилмоқда.

«Ўзёғмойсаноат»нинг маълум қилишича, республика аҳолисининг ўсимлик мойига бўлган талаби маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан 55 фоизга таъминланмоқда, ички бозор эҳтиёжининг 45 фоизи импорт ҳисобига қопланмоқда. Бу қарор қабул қилиниши мамлакатда ёғ-мой маҳсулотларини арзонлаштириш зарурати билан изоҳланган.

Маълумот учун, ҳозирда Ўзбекистон аҳолисининг ўсимлик мойига бўлган йиллик талаби 475 минг тоннани ташкил этади. Ёғ-мой корхоналари эса йилига 259 минг тонна ўсимлик мойи ишлаб чиқармоқда.

Ҳозирги кунда Ўзбекистон аҳолиси орасида кунгабоқар ва пахта мойлари машҳур ҳисобланади. Бундан ташқари, зайтун мойининг нархи кунгабоқар ва пахта мойи билан солиштирганда анча юқори ва уни ишлаб чиқариш анча қимматга тушади. Бу иктисодий муаммони ечиш учун, табиий шароити тўғри келадиган худудларда зайтун етиштирилса чет элдан олинadиган кунгабоқар мойидан воз кечилади. Кундан кунга пахта ёғи ишлаб чиқарилиши камайганлиги сабабли, аҳоли талабини зайтун ёғи билан тўлдириш тавсия этилади.

Ўзбекистонда зайтун дарахтини етиштириш тарихи 2002 йилдан бошланган, унга қадар Марказий Осиёда ҳеч қачон зайтун ўстирилмаган. 2002 йил феврилида Туркиядан 4 туп зайтун дарахти кўчати олиб келинган. Улар субтропик минтақа бўлган Сурхондарё вилоятига экилган. Ўзбекистонда зайтун етиштириш бўйича биринчи тажрибалар мана шундай бошланган.

Ўзбекистон делегацияси 2020 йил июль ойида видеоконференция шаклида бўлиб ўтган Халқаро зайтун кенгашининг 111-сессиясида (кузатувчи мақомида) иштирок этди.

Навоий вилоятининг Томди, Учкудуқ ва Нурота туманларида тажриба сифатида зайтун дарахтлари экилгани ва зайтуннинг қурғоқчиликка чидамлилиги Ўзбекистон жанубида етиштиришнинг муҳим омилларидан бири сифатида қайд этилган.

2022 йилда илк бор ҳукумат ташаббуси билан Ўзбекистон ҳудудининг чўл зоналарида 530 гектардан ортиқроқ майдонда зайтун экилмоқда.

Ўзбекистоннинг жанубий субтропик минтақалари иқлими зайтун етиштириш учун қулай ҳисобланади, яъни бу ерда об-ҳаво билан ҳеч қандай муаммо бўлмаслиги мумкин. Аммо бу ерда энг муҳими, мамлакатда зайтун мойи ва зайтун истеъмолини ривожлантириш зарурлигини кўриб чиқиш керак. Зайтун мойи истеъмоли учун арзон муқобилга айланмайди, аксинча у қиммат маҳсулот бўлиб, мамлакат аҳолисининг асосий қисмида даромад даражаси пастлиги сабабли зайтун бизнеси ривожлантириш бугунги кунда давлат аҳамиятига эга бўлган маркетинг йўналиши жиддий ривожланмоқда.

Сўнги вақтларда дунё бўйича ўсимлик мойи нархи ўртача 20—25 фоизга, Ўзбекистонда эса 17 фоизга ошгани, шунингдек, нарх ошиши кунгабоқар мойи нархи кўтарилиши маҳаллий маҳсулотни ишлаб чиқариш мақсадга мувофиқдир.

Маълумот учун, зайтун мойи фойдаси энг кўп бўлган маҳсулотлардан бири сифатида қадимдан машҳур. Ундан тиббиёт, диетология ва косметология соҳасида фаол фойдаланилади. Зайтун мойи организм томонидан осон сўрилади, иштаҳани пасайтиради, модда алмашинувини тезлаштиради ва ошқозонга фойдали таъсир қилади. Зайтун мойини мунтазам равишда истеъмоли қилиш — юрак-қон томир касалликлари олдини олишнинг яхши усули: у томирларни мустаҳкамлайди ва уларни янада эластик қилади.

Олимлар тадқиқотлари натижасида зайтун дарахтининг ватани Миср эканлигини аниқлашган. Финикиялик савдогарлар ёрдамида у Юнонистон (ҳозирги Греция), Испания ва Италияга етиб келиб, машҳурликка эришади. Ҳозирги кунда Испания зайтун етиштириш бўйича энг йирик мамлакат ҳисобланади. Бу ерда йилига 10 миллион тонна зайтун ишлаб чиқарилади. Италия, Туркия, Греция ва Марокашда йилига 1 миллион тоннадан зиёд зайтун етиштирилади. 1 миллион тонна ишлаб чиқаришни мақсад қилган ва фаол ўсиб бораётган бошқа ишлаб чиқарувчилар гуруҳига Миср, Жазоир, Португалия ва Тунис давлатларини киритиш мумкин. Ўзбекистонга яқин энг



йирик зайтун етиштирувчи давлат Эрон ҳисобланиб, у ерда йилига 100 минг тоннага яқин зайтун етиштирилади.

Хулоса ва таклифлар

Демак, таклиф этилаётган ўсимлик ёғи рақобатбардош маҳсулот бўлиши шарт. Унинг ҳудудларда етиштирилиши ва ишлаб чиқариш жараёнида сифатига алоҳида эътибор бериш лозим. Ўрганиб чиқилган муаммо бўйича қуйидагича хулосалар қилинди:

- 1) Чўл зоналарини “Яшил макон” дастури асосида обод қилиш билан агротуризмни ривожлантириш;
- 2) Иқтисодий нуқтаи назардан зайтун ёғини ишлаб чиқариш билан кунгабоқар ёғи имортидан воз кечиш;
- 3) Абу Али Ибн Сино таълимотларига кўра, аҳолини сифатли маҳсулот билан таъминлаш кўзда тутилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт Стратегиясини “Инсонга эътибор ва сифатли таълим йили”да амалга оширишга оид Давлат Дастури тўрисида”. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 2 мартдаги ПФ-27-сон Фармони.
2. “Яшил макон” умуммиллий лойиҳаси. Ш.М.Мирзиёев
3. “Эркин иқтисодий зонали ҳудудларда экологик туризмни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллиштириш ”Автореферат Исломова Р.А.Самарқанд-2019 й. 12-13 бетлар.
4. “Tovarshunoslik” Б.Т. Эшқувватов Т-“Меҳнат”-2004 й. 162-164 бетлар.

Research Science and
Innovation House

O‘ZBEKISTONDA TURIZM SOHASIDAGI XALQARO HAMKORLIK HUQUQINING NAMOYON BO‘LISHI

Jo‘rayeva Muhayyo Omon qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi mutaxassisiligi

Muhayyojorayeva6@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda turizm xalqaro huquqiga oid hujjatlarning ishlash prinsiplari, amal qilish doirasi hamda boshqa ayrim jihatlar muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: normativ-huquqiy hujjatlar, metod, qonun va qarorlar.

KIRISH

Turizm sohasidagi xalqaro hamkorlik xalqaro huquqning umume'tirof etilgan prinsiplari va normalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari hamda qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, turizm sohasida davlat va xususiy tashkilotlar o'rtasidagi sheriklikni rag'batlantirish va kengaytirish maqsadida 1974 yili Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT)ning ixtisoslashtirilgan muassasasi - Jahon sayyohlik tashkiloti tuzilgan edi. Ushbu tashkilot o'z faoliyatini quyidagi asosiy yo'nalishlarda olib bormoqda - turizm sohasida mamlakatlar raqobatdoshligini oshirish, barqarorlikni ta'minlash, kam ta'minlanganlik miqyosini qisqartirish, turizmning izchil va hamma foydalana oladigan darajada rivojlanishiga erishish uchun salohiyatni oshirish va sheriklikni kengaytirish.

BMT Jahon sayyohlik tashkiloti (JST)ga 156 mamlakat, 6 uyushma a'zo bo'lib kirgan. Shuningdek, xususiy tarmoq, o'quv yurtlari, turistik tashkilotlar vakillari bo'lgan 400 dan ziyod uyushma sheriklari bor. 1994 yildan boshlab BMT Jahon sayyohlik tashkiloti (JST) BMTning YuNESKO va YuNKTAD kabi tashkilotlari bilan birgalikda «Buyuk ipak yo'li» dasturini amalga oshirmoqda. Dasturda 31 mamlakat qatnashmoqda.



Tarixiy Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab turizmni izchil rivojlantirish, mintaqada mahalliy hamjamiyatlar rivojiga ko‘maklashish, investitsiyalar – BMT, Jahon sayyohlik tashkiloti ijroiya kengashining 99-sessiyasini rag‘batlantirish hamda tabiiy va madaniy merosni saqlashga ko‘maklashish dasturning asosiy vazifalari hisoblanadi. Bundan tashqari, dastur Buyuk ipak yo‘li mintakalari va mamlakatlari o‘rtasida hamkorlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi 1993 yildan BMT Jahon sayyohlik tashkiloti a‘zosi sifatida «Buyuk ipak yo‘li» dasturini ro‘yobga chiqarishda faol ishtirok etib kelmoqda. BMT Jahon sayyohlik tashkiloti bilan O‘zbekiston Respublikasi hamkorligi doirasida 1994-2010 yillarda Samarkand, Xiva, Buxoro shaharlarida to‘rtta xalqaro yig‘ilish o‘tkazildi. Ularning yakunlari bo‘yicha «Buyuk ipak yo‘lida turizm to‘g‘risida Samarqand deklaratsiyasi», «Turizm va madaniy merosni saqlash to‘g‘risida Xiva deklaratsiyasi», «Buyuk ipak yo‘lida turizm to‘g‘risida Buxoro deklaratsiyasi» qabul qilindi. 2006 yili Toshkent shahrida Buyuk ipak yo‘li shaharlari hokimlarining anjumani tashkil etildi.

2004 yilda Samarkand shahrida BMT Jahon sayyohlik tashkiloti Buyuk ipak yo‘li bo‘yicha Xalqaro byurosi ochildi. U Ipak yo‘li mamlakatlarning o‘zaro aloqa va mintaqaviy hamkorligini amalga oshirib kelmoqda. Bu mamlakatlarning turistik ko‘rgazmalarda qatnashishiga ko‘maklashmoqda, mazkur turizm mahsulotini rivojlantirishga qaratilgan boshqa tadbirlarni o‘tkazmoqda. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi qoshidagi «Milliy PR – markaz» DUK hamda «MATTA» (Malayziya), «Crescent Rating» (Singapur) uyushmalari, Jakarta targ‘ibot fondi (Indoneziya) o‘rtasida «Global Muslim Traveler Index» doirasida hamkorlik memorandumi imzolandi.

Piar menejment(PR). Turizm sohasidagi piar menejment(PR)ning asosiy vazifasi sayyohlik tashkilotlari va jamoatchilik o‘rtasida do‘stona munosabatlarni hamda xalqaro aloqalarni o‘rnatish, shuningdek, o‘zaro munosabatlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan uzoq muddatli sa‘y-harakatlarni rejalashtirish hamda amalga oshirish hisoblanadi. Piar-menejmentni mamlakatning «qiyofasi» va o‘zaro manfaatli hamkorlikdagi «ko‘prik» deyish mumkin. Turizmda PR bir qator o‘zaro uzviy bog‘langan qismlardan tashkil topadi. Bular, birinchidan, tizimli tahlil, strategik rejalar ishlab chiqish uchun marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, ikkinchidan, dastur va rejalar ishlab chiqish, uchinchidan, iste‘molchilar bilan samarali o‘zaro munosabatlarni o‘rnatish, to‘rtinchidan, turli soxta axborot



manbalarini aniqlash va bartaraf etishdir. Mazkur sohadagi PR faoliyatini bir necha yoʻnalishga ajratish mumkin. Yaʼni brendni reklama qilish (bu yirik turizm operatorlariga, shu jumladan, mehmonxonalariga xos), sayyohlik xizmatlarini keng targʻib qilish, mamlakat nufuzi va ijobiy qiyofasini shakllantirish, mamlakatning alohida hududlari turistik salohiyatini ishlab chiqish va targʻib qilish.

Bugungi kunda Ozarbayjon, Sloveniya, Indoneziya, Malayziya va turizm rivojlanayotgan boshqa mamlakatlar oʻzlarining imijlarini shakllantirishda xalqaro PR menejerlar va yirik kompaniyalar bilan hamkorlik qilmoqda. Jumladan, Singapur, Gonkong, Meksika kabi davlatlarning turizm tashkilotlari «Tourism, Marketing & Intelligence» (TMI) piar agentligining xizmatlaridan foydalanishadi. Mazkur agentlik xalqaro maydonda oʻzining alohida oʻrniga ega boʻlib, asosan, marketing tadqiqotlari va PR imijni shakllantirishga ixtisoslashgan. TMI oʻz mijozlariga mamlakat uchun eng foydali turizm shakllarini oʻrganish, aniqlash, turizm bozori holatini muntazam tarzda tahlil qilish, targʻibot qilishda aniq strategik dastur ishlab chiqish va uni amalga oshirishga koʻmaklashish, turoperatorlarni qoʻllab-quvvatlash (chunki aynan ular turizm yoʻnalish va xizmatlarni shakllantirish, reklama qilish va amalga oshirish bilan shugʻullanadi) singari xizmat turlarini taklif qilib kelmoqda.

Mamlakatimizda ham Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasi huzurida «Milliy PR markazi» DUK tashkil etildi. Markazga mamlakatning turizm salohiyatini targʻib qilishni tashkil etish boʻyicha vazifalar yuklatildi. Milliy PR markazi, shuningdek, mahalliy turagentliklarning xalqaro turizm koʻrgazma va yarmakalarida ishtirok etishini tashkillashtiradi. Ushbu tadbirlar mamlakatni, turizm mahsulotlarini va xizmatlarini reklama qilish, shu bilan birga, iqtisodiy foydali munosabatlarni oʻrnatish uchun oʻziga xos maydon hisoblanadi.

Turizm toʻgʻrisidagi Qonunning 2-moddasida Oʻzbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Oʻzbekiston Respublikasining turizm toʻgʻrisidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan boʻlsa, xalqaro shartnoma qoidalari qoʻllaniladi deb belgilab qoʻyilgan. 21-moddasida esa turizm sohasida yuzaga keladigan nizolar qonun xujjatlarida belgilangan tartibda hal qilinadi degan norma belgilangan. Turistik faoliyat subyektlari tadbirkorlik subyekti sifatida hamkorlari bilan davlat organlari bilan munosabatga kirishadilar. Bu munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan nizolar shartnomada belgilangan tartibda va xalqaro normalarga muvofiq hal etiladi. Turizm faoliyatida moliyaviy javobgarlik



majburiyat bajarilishi kechiktirilishining har bir kuni uchun foiz hisobida undiriladigan moliyaviy javobgarlik- penya va jarima ya'ni majburiyat bajarilmaganligi uchun qat'iy belgilangan miqdorda undiriladigan moliyaviy javobgarlik shakllarida bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi 1965 yil 18 martda imzolangan va 1966 yil 14 oktyabrdan kuchga kirgan «Davlatlar va chet ellik shaxslar o'rtasidagi investitsion nizolarni hal etish tartibi to'g'risida»gi Vashington Konventsiyasini 1994 yil 6 mayda ratifikatsiya qildi.

Konventsiya xalqaro Taraqqiyot va rivojlanish banki huzurida investitsiya nizolarini hal etish bo'yicha Markazni ta'sis etish va ushbu Markazda muayyan davlat va xorijiy davlat shaxslari o'rtasida vujudga keladigan investitsion nizolarni Konventsiya qoidalariga muvofiq yarashtiruv va arbitraj yo'li bilan hal etishni ta'minlaydi.

Markaz tarkibida Ma'muriy kengash va Kotibiyat mavjud bo'lib, Kotibiyat vositachilar va arbitrlar ro'yxatini yuritadi. Ma'muriy kengash tarkibiga Konventsiyani imzolagan davlatlarning har biridan bittadan vakillar kiradi. Bunday vakillar yetarlicha mala-kaga ega bo'lgan shaxslar orasidan tanlanib, ularning ro'yxati har yarim yilda yangilanib turadi. Markaz o'zi ko'rsatgan xizmatlardan tushadigan mablag'lar va boshqa mablag'lar hisobidan moliyalanadi, u immunitet va imtiyozlarga ega.

2020 yil 17 iyunda «Nizolarni muqobil hal etishning mexa-niz m larini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori qabul qilindi. Mamlakatda davlat organlarining aholi bilan muloqotini takomillashtirish, fuqarolar huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash hamda ularning muammolarini hal etishning zamonaviy mexanizmlarini joriy qilish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda.

XULOSA VA MUNOZARA

Ta'kidlash joizki, ushbu sohada islohotlarning hozirgi bosqichi davlat organlarida nizolarni sudgacha ko'rib chiqishning yagona tizimini yaratish, mediatsiya, hakamlik sudlari hamda xalqaro arbitrajlarini fuqarolar hamda tadbirkorlarning ishonchiga sazovor bo'ladigan nizolarni hal etuvchi samarali muqobil institutlarga aylantirish lozimligini taqozo etmoqda. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy protsessual kodeksi va Fuqarolik protsessual kodeksiga muvofiq ishni sudga ko'rishga tayyorlash paytida sudbua taraflardan kelishuv



bitimini tuzish ehtimolini yoki nizoni hal qilishning muqobil usullari ehtimolini aniqlaydi va ularning huquqiy oqibatlarini tushuntiradi;

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining 2020 yil 1 avgust-dan boshlab eksperiment tariqasida:

Davlat bojxona qo‘mitasi, Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastr davlat qo‘mitasi, Moliya vazirligi huzuridagi byudjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi hamda Namangan, Buxoro va Toshkent viloyatlari hokimliklari huzurida Jismoniy va yuridik shaxslar hamda davlat organlari o‘rtasidagi nizolarni sudgacha hal qilish bo‘yicha apellyatsiya kengashlarini tashkil etildi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. 2019-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish KONTSEPTSIYASI O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi PF-5611-son Farmoniga 1-Ilova.
2. 2020-2025 yillarda O‘zbekiston Respublikasida yoshlar turizmini rivojlantirish Kontseptsiyasi.
3. «O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini tiklash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. 2020 yil 10 iyul 433-son
4. Turizm faoliyatini litsenziyalash tartibi to‘g‘risida NIZOM Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 10 iyuldagi 433-son qaroriga 1-Ilova.
5. Xalqaro turizm. Darslik. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti. Mamatqulov X.M., Bektemirov A.B., Tuxliev I.S., Norchaev A.N. . Samarqand - 2017
6. M.Q.Pardaev. R.Atabaev. Turizm asoslari. Ma‘ruzalar matni. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti.

Research Science and
Innovation House



**BIR NECHA O'ZGARUVCHIGA EGA BO'LGAN GIPERGIOMETRIK
FUNKSIYALARINI MA'LUM FORMULALARI BO'YICHA
YOYILMALARI**

VOXOBOV FAZLIDDIN FAXRIDDINJON O'G'LI

QO'QON DPI Fizika-matematika fakulteti

Matematika kafedrası o'qituvchisi.

ABDUMANNONOV OLIMJON XURRAMJON O'G'LI

Abdumannonovolimjon68@gmail.com

QO'QON DPI Fizika-matematika fakulteti

Matematika Informatika yo'nalishi talabasi.

TOJIMATOV XOJIBEK ABDUSOLI O'G'LI

Hojibektojimatov@gmail.com

QO'QON DPI Fizika-matematika fakulteti

Matematika Informatika yo'nalishi talabasi.

ALISHER ABDURAHMONOV ABRORJON O'G'LI

Alisherjaga4@gmail.com

QO'QON DPI Fizika-matematika fakulteti

Matematika Informatika yo'nalishi talabasi.

Annotatsiya:

Ushbu maqolada ba'zi asosiy faktlar keltirilgan. Maqolaning asosiy natijalarini taqdim etish uchun zarur bo'lgan bir nechta o'zgaruvchilarning gipergeometrik funksiyalari va Burchnell-Chandy operatorlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Gorn ro'yxati; ikkinchi tartibli to'la va konfluent gipergeometrik funksiyalar; Srivastava-Karlsson ro'yxati; uch o'zgaruvchili konfluent gipergeometrik funksiyalar.

Ushbu ikki tizim o'rtasidagi munosabat faqat ikkita o'zgaruvchili holatda yaxshi o'rganilgan. Hatto klassik Horn, Appell, Poxgammer va Lauricella, ko'p o'zgaruvchan gipergeometrik funksiyalarda ham faqat 1970 va 80-yillarda V. Miller va uning shogirdlari tomonidan differensial tenglamalarning Li algebrasini o'rganishga urinish bo'lgan. So'nggi o'ttiz yil ichida gipergeometrik funksiyalarni o'rganishga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Darhaqiqat, ma'lumotlar bazasida gipergeometrik sarlavhali so'zni qidirish natijasida 3181 ta maqola topiladi, ulardan

1530 tasi 1990 yildan beri nashr etilgan ushbu yangi qiziqish gipergeometrik funksiyalar va matematikaning ko‘plab sohalari o‘rtasidagi bog‘liqlikdan kelib chiqadi, masalan, algebraik geometriya, kombinatorika, raqamlar nazariyasi, simmetrik aks ettirishlar va boshqalar.

Ma‘lumki, Gamma funksiyasi $\Gamma(s)$ quyidagi integral bilan aniqlanadi:

$$\Gamma(s) = \int_0^{\infty} e^{-t} t^{s-1} dt \quad (1)$$

(1) integral $\text{Re}(s) > 0$ yarim tekislikda holomorff funksiyani ifodalaydi va bundan tashqari u quyidagi funksional tenglamani qanoatlantiradi.

$$\Gamma(s+1) = s\Gamma(s); \quad \text{Re}(s) > 0 \quad (2)$$

Demak, $\Gamma(1) = 1$ bo‘lgani uchun $\Gamma(n+1) = n!$, ($n \in \mathbb{N}$) ekanligi kelib chiqadi.

$\Gamma(s)$ ni musbat bo‘lmagan butun sonlarda oddiy qutblar bilan butun kompleks tekislikdagi meromorff funksiyaga kengaytirish uchun (2) dan foydalanishimiz mumkin.

Masalan, $\{-1 < \text{Re}(s) \leq 0\}$ palasada $\Gamma(s)$ ni quyidagicha aniqlaymiz:

$$\Gamma(s) = \frac{\Gamma(s+1)}{s}$$

Ta’rif. $\alpha \in \mathbb{C} / \mathbb{Z}_{\leq 0}$ va $k \in \mathbb{N}$ ni hisobga olgan holda biz Poxgammer belgisini aniqlaymiz:

$$(\alpha)_k = \frac{\Gamma(\alpha+k)}{\Gamma(\alpha)} \quad (3)$$

Aytaylik $n = (n_1, n_2, \dots, n_r) \in \mathbb{N}^r$ manfiy bo‘lmagan butun sonlarning r -tartibli

bo‘lsin. Xuddi shu kabi $x = (x_1, x_2, \dots, x_r) \in \mathbb{C}^r$ berilgan bo‘lsa, biz buni

x^n bilan belgilaymiz.

U holda

$x^n = (x_1^{n_1}, x_2^{n_2}, \dots, x_r^{n_r})$ va Q^r dagi j - tartibli standart bazis vektorini e_j bilan belgilaymiz.

Ta’rif. Barcha $j = 1, 2, \dots, r$ lar uchun,



$R_j(n) = \frac{A_{n+e_j}}{A_n}$ nisbat $n = (n_1, n_2, \dots, n_r)$ ning ratsional funksiyasi bo'lsa, ushbu ko'p o'zgaruvchili darajali qator

$$F(x_1, x_2, \dots, x_r) = \sum_{n \in N^r} A_n x^n$$

Gorn gipergeometrik funksiyasi deyiladi.

Quyidagi qatorlar odatda Gauss gipergeometrik qatori deb ataladi

$${}_2F_1(\alpha, \beta, \gamma; x) = \sum_{n=0}^{\infty} \frac{(\alpha)_n (\beta)_n}{(\gamma)_n n!} x^n; \gamma \in \mathbb{Z}_{\leq 0} \quad (4)$$

Gipergeometrik qator koeffitsiyentlarining rekurrent xossalari ularning oddiy yoki xususiy hosilali differensial tenglamalarning yechimini ifodalashga imkon beradi.

Gaussning gipergeometrik funksiyasi qanoatlantiradigan ikkinchi tartibli oddiy differensial tenglamani keltirib chiqarishni koradigan bo'lsak, bunda biz quyidagi o'zgartirishlardan foydalanamiz: bir x o'zgaruvchining funksiyasi uchun

biz $\frac{d}{dx}$ differentsiallashtirish operatorini ∂_x orqali, bir necha (x_1, x_2, \dots, x_r)

o'zgaruvchilarning funksiyalari uchun biz $\frac{\partial}{\partial x_j}$ xususiy hosila operatori uchun

∂_j dan foydalanamiz. Yoki soddalik uchun quyidagi Eyler operatorlaridan foydalanishimiz mumkin:

$$\theta_x = x \partial_x; \theta_j = x_j \partial_j$$

Endi Gaussning gipergeometrik (4) qatorini ko'rib chiqaylik. Ma'lumki,

$$\theta_x F(\alpha, \beta, \gamma; x) = \sum_{m,n=0}^{\infty} \frac{(\alpha)_n (\beta)_n}{(\gamma)_n n!} x^n;$$

Lekin, $n(\alpha)_n = \alpha((\alpha+1)_n - (\alpha)_n)$ ga muvofiq

$$\theta_x F(\alpha, \beta, \gamma; x) = \alpha \sum_{m,n=0}^{\infty} \left(\frac{(\alpha+1)_n (\beta)_n}{(\gamma)_n n!} - \frac{(\alpha)_n (\beta)_n}{(\gamma)_n n!} \right) x^n = \alpha (F(\alpha+1, \beta, \gamma; x) - F(\alpha, \beta, \gamma; x)).$$



Demak,

$$(\theta_x + \alpha)F(\alpha, \beta, \gamma; x) = \alpha F(\alpha + 1, \beta, \gamma; x)$$

$$(\theta_x + \beta)F(\alpha, \beta, \gamma; x) = \alpha F(\alpha, \beta + 1, \gamma; x)$$

Xuddi shu kabi, quyidagi tenglikka ham ega bo‘lamiz:

$$(\theta_x + (\gamma - 1))F(\alpha, \beta, \gamma; x) = (\gamma - 1)F(\alpha, \beta, \gamma - 1; x)$$

$$\partial_x F(\alpha, \beta, \gamma; x) = \frac{\alpha\beta}{\gamma} F(\alpha + 1, \beta + 1, \gamma + 1; x)$$

Yuqoridagi to‘rtta tenglamani birlashtirib, Gaussning gipergeometrik qatori quyidagi oddiy differensial tenglamani qanoatlantirishini topishimiz mumkin bo‘ladi:

$$(\theta_x + \alpha)(\theta_x + \beta)F = (\theta_x + \gamma)\partial_x F \quad (5)$$

(5) tenglama ushbu tenglamaga ekvivalent ekanligini ko‘rishimiz mumkin:

$$x(x - 1)\partial_x^2 F + ((\alpha + \beta + 1)x - \gamma)\partial_x F + \alpha\beta F = 0$$

Shunday usulda gipergeometrik funksiyalar va ma‘lum formulalar orqali bir nechta o‘zgaruvchilarning funksiyalari ko‘rinishida yoyib chiqish sirlari o‘rganib chiqilgan va haligacha o‘rganilmoqda.

Ilmiy adabiyotlar

1. Altin A., Young E.C. Kelvin Principle fora class of singular equations//Internat.J. Math.& Math.Sci. 1989. -v. 12. - № 2. -P. 385-390.
2. Appell P. and Kampe de Feriet J. Fonctions Hypergeometriques et Hyperspheriques;Polynomesd’Hermite.Paris:Gauthier–Villars,1926.—448p.
3. Appell P. and Kampe de Feriet J. Fonctions Hypergeometriques et Hyperspheriques;Polynomesd’Hermite.Paris:Gauthier–Villars,1926.—448p.
4. Barros-NetoJ.J.,GelfandI.M.,FundamentalsolutionsfortheTricomioperator //DukeMath.J.98(3),1999.P.465-483.
5. Barros-NetoJ.J.,GelfandI.M.,FundamentalsolutionsfortheTricomioperatorII //DukeMath.J.111(3),2001.P.561-584.
6. Barros-NetoJ.J.,GelfandI.M.,FundamentalsolutionsfortheTricomioperatorIII //DukeMath.J.128(1),2005.P.119-140.
7. Bezrodnykh S. I. The Lauricella hypergeometric function, the Riemann -



- Hilbert problem, and some applications //Russ. Math. Surv. 2018, 73(6). P.941-1031.
8. Erdélyi A., Magnus W., Oberhettinger F., Tricomi F. G. Higher Transcendental Functions, Vol. II. McGraw-Hill, New York, Toronto, London, 1953. 396 p.
 9. Erdélyi A., Magnus W., Oberhettinger F., Tricomi F. G. Higher Transcendental Functions, Vol. III. McGraw-Hill, New York, Toronto, London, 1955. 292 p.
 10. Erdélyi A., Magnus W., Oberhettinger F., Tricomi F. G. Tables of integral transforms, Vol. I. McGraw-Hill, New York, Toronto, London, 1954. 392 p.
 11. Ergashev A. A., Vakhobov F. F. THE ESSENCE OF THE CONCEPT OF "PROFESSIONAL ACTIVITY OF A MATHEMATICS TEACHER" //Open Access Repository. – 2022. – T. 8. – №. 12. – C. 147-154.
 12. Yigitalievich A. U., Fazliddin V. A SYSTEM OF EQUATIONS FOR OSCILLATION AND STABILITY OF A VISCOELASTIC PLATE TAKING INTO ACCOUNT THE GENERALIZED HEAT CONDUCTIVITY EQUATIONS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 304-308.
 13. Makhmudov B. B., Vokhobov F. F. TOPICS: GAUSS'S THEOREM. INTEGRAL EXPRESSION OF THE HYPERGEOMETRIC FUNCTION ACCORDING TO THE DALANBER PRINCIPLE //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 138-144.
 14. Yigitalievich A. U., Mirsaid S. SYSTEM OF EQUATIONS OF COUPLED DYNAMIC PROBLEMS OF A VISCOELASTIC SHELL IN A TEMPERATURE FIELD //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2022. – T. 10. – №. 12. – C. 298-303.
 15. Faxriddinjon o'g'li V. F. et al. HYPERGEOMETRIC FUNCTIONS OF SEVERAL VARIABLES //Open Access Repository. – 2023. – T. 9. – №. 6. – C. 250-252.
 16. Faxriddinjon o'g'li V. F. et al. EXPANSIONS OF HYPERGIOMETRIC FUNCTIONS OF SEVERAL VARIABLES ACCORDING TO KNOWN FORMULAS //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. 11. – №. 6. – C. 548-550.
 17. Faxriddinjon o'g'li V. F. On Generalized Derivations Of Jordon Algebras //Open Access Repository. – 2022. – T. 9. – №. 11. – C. 340-343.

Zamburug‘lar bo‘limi (Mycophyta) va ularning ahamiyati

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo‘nalishi
talabalari

Mamashokirova Fotima Kenjaboy qizi

fmamashokirova@gmail.com

Maxammadjonova Sevara Fayzullo qizi

teshaboyevabumayram@gmail.com

Isaqjonova Oydinoy Azizbek qizi

isaqjonovaoydinoy@gmail.com

Annatatsiya: Ushbu maqolada zamburug‘lar bo‘limi (mycophyta) haqida, kelib chiqishi, zararli va foydali tomonlari, zamburug‘lar bo‘limining sistematik o‘rinlari haqida umumiy ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘z: Zamburug‘lar bo‘limi, Miksomitsetlar, tallom, kimyoviy tarkibi, hujayra tuzulishi, ko‘payishi, hayot kechirishi, ahamiyati, sistematik o‘rni, kelib chiqishi, Zamburug‘lar ekologiyasi.

Аннотация: В статье приведены общие сведения о разделении грибов (микофитов), его происхождении, вредных и полезных сторонах, систематических местах деления грибов.

Ключевые слова : Отдел грибов, Миксомицеты, слоевище, химический состав, строение клетки, размножение, жизнь, значение, систематическое место, происхождение, экология грибов.

Annotation: This article provides general information about the division of fungi (mycophyta), its origin, harmful and beneficial aspects, and systematic places of the division of fungi.

Key word: Department of fungi, Myxomycetes, thallus, chemical composition, cell structure, reproduction, life, significance, systematic place, origin, ecology of fungi.

Hozirda tirik mavjudodlar 4 ta ya'ni bakteriyalar, zamburug'lar, o'simliklar va hayvonlar dunyosiga ajratilgan holda o'rganiladi. Tirik organizmlarning viruslardan tashqari barcha guruhlarini o'z ichiga qamrab oladi. Zamburug'lar alohida dunyo deb tan olingan. Zamburug'lar turlarining miqdor jihatidan tuban o'simliklar ichida eng kata guruh hisoblanib, 100 mingdan ortiq turi mavjud. Zamburug'lar qadimiy organizmlar bo'lib, evalutsiya jarayonida rangsiz sitoxrom C ga ega bo'lmagan xivchinlilarning **Fiagellatea** guruhidan kelib chiqqan. Shuning uchun ham zamburug'lar o'simliklar olami doirasida o'rganiladi. Ammo zamburug'lar oziqlanish xususiyatlari bilan o'simliklardan farq qiladi, chunki ularning hujayrasida rang beruvchi xlorofill pigmenti bo'lmaydi. Ular geterotrof oziqlanishga moslashgan, yani zamburug'lar tayyor organik moddalar bilan oziqlanuvchi orgznizmlar hisoblanadi. Shu xususiyati bilan anorganik moddalar bilan oziqlanuvchi avtotrof organizmlarga qarama qarshi turadi. Shilimshiq'larga o'xshash zamburug'lar ham getratrof oziqlanish xususiyatiga ega. Zamburug'larning bunday oziqlanishi va bir qator boshqa xususiyatlari ularning ham o'simliklarga, ham hayvonlarga o'xshashligini ko'rsatadi. Tirik organizmlarning bo'linishida zamburug'lar o'simliklarning tarkibiga kiritilib o'rganilgan. Bunga ularning substratdan ozuqa moddalarini shimib oziqlanishi, o'simliklarga o'xshash yaxshi shakillangan hujayra qobig'i borligi va rivojlanish siklining asosiy qismida harakatsiz ekanligi asos qilib olingan. Lekin ularning getratrof oziqlanishi asosida yuzaga keladigan modda almashinish jarayonlari xuddi hayvonlarnikiga o'xshash o'tishi, ya'ni mochevina, glikogen hosil qilishi va hujayra qobig'ida xitin moddasining bo'lishi hayvonlarga ham o'xshash ekanligidan dalolat beradi. Ekologik va trofik ko'rsatkichlariga ko'ra faqat osmotrof tipda oziqlanadigan geterotrof eukariotlar mansub. Mana shu holat zamburug'laning biotadagi o'rnini belgilaydi. Zambung'laning osmotrof oziqlanishi ularning morfologik, fiziologik va biokim yoviy xususiyatlari bilan bog'liq.

1) Zamburug'larning ko'pchiligini vegetativ tanasi kuch tarmoqlangan, o'sishi cheklanmagan iplar- gifa, ularning yig'indisi mitselliidan iborat. Mitselliy odatda yashayotgan joyning ichiga(tuproq, o'simlik to'qimasi, hayvon ahlati va boshqalar) to'la botib kirgan bo'ladi. Ularning bu xususiyati **ekzoosmos** bilan tanasining hamma yuzasi orqali oziq moddani to'la shimish xususiyatini beradi.

2) Zamburug' tarqalgan substratlardagi organik moddalar yuqori molekullari

polimerlar (oqsil, polisaxarid, nuklein kislota)holida bo‘lib, polimerlarni oligo va monomerlargacha parchalaydigan hujayraga olib keladigan depolimeraza fermentlarini ajratadi. Agarda hayvonlarda ovqat hazm qiluvchi fermentlar ichak ichiga ajralsa, zamburug‘larda tashqariga ajraladi, zamburug‘ gifasi to‘nkarilgan ichakdek bo‘ladi.

3) Zamburug‘ mitsellysi substrat ichida bo‘lganligi sababli tarqalishi cheklangandir. Shuning uchun ko‘payishga xizmat qiladigan sporaband va sporalar substratdan tashqarida bo‘lib, uning yuzasida joylashib, havo yoki suv oqimi yordamida tarqaladi. Zamburug‘larning kelib chiqishi polifilitik xususiyatga ega bo‘lib, har xil guruhga mansub rangsiz xivchinlaridan yoki xivchinlarini yo‘qotgan amyobasimon flagellyatlardan paydo bo‘lgan, dcb hisoblanadi. Sodda tuzilgan zamburug‘larning vegetativ tanasi shilimshiq-larnikiga o‘xshash yalang‘och plazmodiy shaklida bo‘lib, boshqa organizmlarning hujayrasi ichida parazitlik qilib hayot kechiradi. Lekin zamburug‘larning asosiy qismida gifa deb ataluvchi shoxlangan ipchalar hosil bo‘ladi. Gifalar to‘plami mitseliy deb ataladi. Ko‘pchilik zamburug‘lar substratdan ozuvqa moddalarni so‘rib oluvchi gaustoriyalar hosil qiladi. Ayrim zamburug‘larda mitseliylar o‘z shaklini o‘zgartirib va jiplashib, tizgincha sifatida bog‘lam yoki meva tanalar hosil qiladi. Zamburug‘lar tallomining tuzulishiga ko‘ra tuban va yuksak guruhlarga bo‘linadi. Tuban zamburug‘larda vegetativ tanasi hujayralarga bo‘linmagan, yuksaklarida esa mitseliylari ko‘p hujayrali bo‘ladi. Zamburug‘larning o‘suvchi yosh hujayralarining ichki qismi to‘liq sitoplazma bilan qoplangan va sitoplazmaning harakatini mikroskop ostida bemalol kuzatish mumkin. Hujayra eskirgan sari undagi vakuollarining miqdori va hajmi kattalashadi. Substrat ustidagi mitseliyga havoyi mitseliy deyiladi. Havoyi mitseliyda ko‘payish organlari taraqqiy etadi. Mitseliy turlicha tuzulgan bo‘ladi:

❖ Hujayrasiz mitseliy – bitta yirik hujayradan iborat bo‘lib, hujayra ichida bo‘g‘inlar bo‘lmaydi va bunday hujayra ko‘p yadroli bo‘ladi.

❖ Hujayrali mitseliy – bo‘g‘inlarga bo‘lingan bo‘lib, hujayra alohida-alohida qismlarga ajralgan bo‘lib, hujayrasi bir yoki ko‘p yadrolidir.

Tuban taraqqiy etgan zamburug‘larda mitsellysi hujayrasiz tuzulgan. Yuksak taraqqiy etgan zamburug‘larda esa xaltachali va bazidiyali zamburug‘larning mitsellysi ko‘p hujayrali, to‘siqlar bilan ajralgan. To‘siq hujayraning devorida

markazga qarab o'sadi, markazda ochiq joy qoladi, bu pora deyiladi. Pora orqali hujayra suyuqligi harakatlanadi. Hujayra to'siqlari xaltachali va bazidiyali zamburug'larda oddiy ochiq joy (pora) bo'lsa, ayrim vakillarida esa to'siq qalpoqchali, qalpoqchali pora hamma tomonidan membrana (parda) bilan o'ralgan, unga parentosoma deyiladi. Ba'zi zamburug'larda, masalan, achitqi zamburug'ining vegetativ tanasi alohida kurtaklanuvchi holda bo'lib, ajralgan kurtak bir biri bilan qo'shilmasa, soxta mitseliy hosil qiladi. Oddiy tuzilgan ba'zi bir hujayrali zamburug'larning mitseliysi shoxlangan ipsimon shaklda bo'lib, rizomitseliy deyiladi. Zamburug'lar hujayrasida har xil birikmalar, jumladan, gilokogen, lipid tomchilari bo'lib, vakuolda esa oqsil donachalari va valyutin to'planadi. Zamburug'larning faqat zoospora va gametalari harakatchan, xivchinlari esa eukariotlarnikiga o'xshash tuzulishda bo'ladi. Zamburug' tallomi. morfologiyasi jihatidan uch tipdagi tallom: ameboid (plazmodiyli), mitseliyli va achitqisimoni mavjud.

Amyoboid tallom. Bu tipdagi tallom bir yadroli, hujayra devori bolmaydi. Hujayra sitoplazmatik membranadan tashqari tig'iz oqsilli qavat periplast bilan himoyalangan holos. Ko'p yadroli tallomning bunday tipini **plazmodiyli** deyiladi. Substratga birikishi, oziqlanishi uchun ildizsimon o'simta rizomitseliy hosil qilishi mumkin. Rizomitseliy yadro bo'lmasa tallom bitta ameboid hujayradan iborat boladi, uni **monitsentrik** deyiladi. Zamburug'larning ayrimlarida rizomitseliy uzun, kengaygan joyli, u yerga yadro o'tib yadroli boshqa ameboid hujayrani hosil qiladi, uni **politsentrik** tallom deb ataladi. Eukariot tallomli zamburug'larda bir necha sporangiy bo'ladi.

Mitseliyli tallom. Bu tipdagi tallom hujayra devoriga ega, tarmoqlangan ip, hujayralarga bo'lingan yolki bo'linmagan. Gifa uchi bilan o'sadi, faqat uchi emas yon tarmoqni uchi ham o'sganligi tufayli voyaga yetgan mitseliyda gifalar chigali yuzaga keladi. Chigaldagi gifalar o'zaro qo'shib anastomozalarni hosil qiladi. Mitseliydagi o'zgarishlar sharoitga moslanish natijasida yuzaga keladi. Tinim holatni, moddalar o'tkazish, oziqlanish uchun ho'jayin tanasiga kirishlar mitseliyda o'zgarishlar hosil bo'lishni talab qiladi. Tuproqdagi, suvdagi nematodalarni tutib oziqlanadigan yirtqich zamburug'lardagi gifalar turlicha halqa, to'r, yelimli ip, otadigan garpun (ipli nayza) ko'rinishlariga ega. Mitseliy soxta to'qima (plektenxima) meva tanalarida hosil qiladi. Rizomorflar, meva, sklerotsiyalar ustida yopqich "to'qima" ham bo'ladi.



Achitqisimon tallom. Bu tip tallom bitta yoki hujayralar zanjiridan (pseudomitselly) iborat. Achitqilarning ko‘pchiligi kurtaklanib ko‘payadi, yangi hujayra o‘zidan oldingisidan ajrab ketmaydi.

Ko‘payishi. Zamburug‘lar vegetativ, jinssiz va jinsiy yo‘l bilan ko‘payadi. Vegetativ ko‘payishi. Vegetativ ko‘payish ham bir necha xil bo‘ladi.

- ✓ Mitseliy uzulib, mustaqil individga aylanadi. Masalan: xlomidospor qalin po‘st bilan o‘ralgan bo‘lib, noqulay sharoitda o‘shish qobiliyatini saqlab qoladi.
- ✓ Oidiylar vositasida ko‘payishda mitseliy gifasining uchlari bir qancha ayrim hujayralarga bo‘linadi. Hosil bo‘lgan hujayra taraqqiy etib, yangi mitseliyga aylanadi.
- ✓ Kurtaklanish yo‘li bilan ko‘payish achitqi zamburug‘i uchun harakterlidir.
- ✓ Sklerotsiy vositasida ko‘payish giflarning zich qo‘shilib o‘shishidan hosil bo‘ladi.

Jinssiz ko‘payish. Bu ikki xil usulda boradi: zoosporalar endogen yo‘l bilan giflar uchidagi zoosporaning ichida taraqqiy etadi, uning ichida bir yoki ikki xivchinli zoosporalar yetishadi. Zoosporalarning xivchinlari silliq yoki tuklidir.

1. Sporangiy sporalar bilan ko‘payish. Bu sporalar ham zoosporalarga o‘xshash sporangiy ichidagi ko‘p yadroli moddalarga bo‘linib, bir qancha bir yadroli sharsimon va po‘st bilan o‘ralgan harakatsiz sporalar hosil qiladi. Sporangiy ichida endogen yo‘l bilan hosil bo‘lgan bu sporalar sporangiy spora deyiladi.

2. Konidiasporalar bilan ko‘payish. Bu usul quruq sharoitga moslashgan yuksak zamburug‘lar uchun xosdir. Konidiaspora konidiyaband deb ataladigan alohida gifning uchida vujudga keladi. Konidiyabandning uchidagi hujayra dumoloqlashib, nozik tizma zanjircha xosil qiladi. U yetilgandan so‘ng tizmalar uzulib, tarqalib ketadi. Konidiasporalar egzogen, ya‘ni sirdan hosil bo‘ladi.

Jinsiy ko‘payish. Zamburug‘larning bu xilda ko‘payishi deyteromitsimonlarning sinfidan boshqa hamma zamburug‘larda uchraydi. Jinsiy ko‘payish uch guruhga bo‘linadi: gametogamiya, gametangiogamiya va somatogamiya.

- Gametogamiya tuban zamburug‘larda rivojlangan bo‘lib, suvo‘tlardagi kabi, izogamiya, geterogamiya va oogamiya yo‘li bilan sodir bo‘ladi.

- Gametangiogamiya zigomisetsimonlar va xaltachasimon zamburug‘lar sinflariga oid bo‘lib, har xil tupdan chiqqan giflar uchlari bilan bir biriga qarab o‘sadi va uchi bo‘rtib shishadi.
- Somatogamiya bazidiomisetsimonlar sinfiga xos. Bunda jinsiy hujayralar ishtirok etmasdan, faqat mitseliy somatik hujayralari ishtirok etadi.

Zamburug‘larning faoliyatida ro‘y beradigan metabolitlar birlamchi va ikkilamchiga bo‘linadi.

Birlamchi metabolitlar zamburug‘ning o‘sishi uchun zarur, bular nuklein kislatalar, oqsillar, uglevodlar, kofermentlar, lipidlar va boshqalar.

Ikkilamchi metabolitlar zamburug‘ni sharoitga moslanishlari uchun zarur. Ular bir zamburug‘da bo‘lsa, boshqasida bo‘lmasligi mumkin, ular odatda quyidagi molekulari birikmalar hisoblanadi.

Zamburug‘lar bo‘limi (Mycophyta) 7ta sinfga bo‘linadi.

1. Xitridiyasimonlar – Chytridiomycetes
Tartib: 1) Xitridiyanomalar - Chytridiales
2) Blastikladiyanomalar – Blastocladales
3) Monoblefaridiyanomalar - Monoblepharidales
2. Gifoxitridiyasimonlar – Hyphochytridiomycetes
3. Oomitsetsimonlar – Oomycetes
Tartib: 1) Saprolegniyanomalar – Saprolegniales
Leptomintnomalar – Leptomitales
3) Perenosporalar - Perenosporales
4. Zigomitsetsimonlar – Zygomycetes
Tartib: 1) Mukornomalar – Mucorales
2) Entomoftoranomalar – Entomophthorales
3) Endogonnomalar – Endogonales
4) Zoopannomalar - Zoopogales
5. Askomitsetsimonlar – Ascomycetes
Kenja sinf: 1) Gemiaskomitsetsimonlar – Hemiascomycetidae
Tartib: a) Endomitselilar – Endomycetales
b) Tafrinalilar - Taphrinales
Euaskomitsetlar – Euascomycetidae

- Tartib: a) Evrotsililar – Eurotiales
b) Erizifalilar – Erysiphales
d) Sfereylilar – Sphaeriales
e) Diaportlilar – Diaporthales
f) Gipokreylilar – Hypocreales
g) Shoxkuyalilar – Clavicipitales
h) Petsitsalar – Pezizales
i) Gelotililar – Helotiales
j) Fatsidiylilar – Phacidiales
k) Tryufelilar – Tuberales
3) Lokuloaskomitsetlilar – Loculoascomycetidae
Tartib: a) Mirnangalilar – Myriangiales
b) Dotideylilar – Dothideales
d) Pleosporalilar – Pleosporales
6. Bazidiomitsetlar – Basidiomycetes
Kenja sinf: 1) Xolobazidiomitsetlilar – Holobasidiomycetidae
Tartib: a) Ekzobazidiyalilar – Exobasidiales
b) Gimenomomitsetlilar – Hymenomycetidae
d) Afilloforalilar – Aphyllophorales
e) Plastinkalilar – Agaricales
f) Likoperdonlilar – Lycoperdales
g) Sklerodermalilar – Scleroderma
h) Tulostolilar – Tulostomatales
i) Podakslilar – Podaxales
2) Geterobazidiomitsetsimonlar – Heterobasidiomycetidae
Tartib: a) Aurikulyarlilar – Auriculariales
b) Tremellyarlilar – Tremellales
d) Dakrimitsetlilar – Dacrymycetales
3) Teliobazidiomitsetsimonlar – Teliobasidio-mycetidae
Tartib: a) Qorakuyalilar – Ustilaginales
b) Zanglilar – Uredinales
7. Deyteromitsetlar – Deutoromycetes
Tartib: 1) Gifomitsetlilar – Hyphomycetales

- 2) Melankoniumlilar – Melanconiales
- 3) Sferopsidlilar – Sphaeropsidales

Hozirgi vaqtda zamburug‘larning kelib chiqishi to‘g‘risida mikologlar o‘rtasida ikki xil nazarya mavjud bo‘lib, ulardan biri monofiletik, ikkinchisi polifmletik nazaryadir. **Monofiletik** nazariya tarafdorlari bo‘yicha zamburug‘larni yagona manbadan, ya‘ni har xil guruhga kiruvchi rangsiz xivchinlilardan saprotrof yoki parazitlik bilan oziqlanishga moslanish natijasida kelib chiqqan. Polifmletik nazarya vakillari talqiniga ko‘ra zamburug‘larning har qaysi sinfi har xil xivchinlilar yoki xivchinini yo‘qotgan rangsiz amyobidsimon flagellyatlardan, ba‘zilari esa suvo‘tlardan kelib chiqqan.

Zamburug‘lar hamma joyda suv, tuproq, yog‘och, o‘simlik va hayvonlarning to‘qimalarida tarqalgan. Bunga ulaning bir qator xususiyatlari sabab:

1. Zamburug‘larning ko‘pchiligida tarmoqlangan mitseliysi hisobiga hajmining kattaligi atrof muhit bilan bog‘lanish imkoniyatlarining ko‘pligi.
2. O‘shish va ko‘payishning tezligi, ko‘plab miqdorda sporalarni hosil qilishi.
3. Metabolik jarayonlarning atrof muhit omillarining ta‘sirida faolligi.
4. Biokimyoviy irsiy o‘zgaruvchanliklarning yuqoriligi natijasida yangi substrat va sharoitlarga tez moslashishi.
5. Noqulay omillarning ta‘siri natijasida tinim davriga o‘tishi, uzoq muddat davomida shuholatda qolishi, qulay sharoit yuzaga kelganda faol holga o‘ta olishi.

Zamburug‘larni ekologiya jihatidan bunday guruhlash oziqlanish usullariga va yashash muhiti sharoitiga asoslangan. Oziqlanish usuliga ko‘ra: tekinox‘rlar, simbiontlar, mikoriza hosil qiluvchilar, endofitlar, saprotroflar mavjud. Zamburug‘lar, viraslar, ayrim bakteriyalar ta‘sirida, o‘simliklardagi kasalliklarni o‘rganadigan alohida fan “fitopatologiya” hisoblanadi. Hayvonlar va odamlarning kasalliklari teri, tirnoq, sochlarini dermatomikozlar zararlaydi. Bundan tashqari Candida, Cryptococcus, Rhizopus, Aspergillus turkumlarining zamburug‘larini sporalari nafas yo‘llari, yaralar, jinsiy a‘zolar orqali organizmning ichki a‘zolariga o‘tib tekinox‘r sifatida rivojlanadi. Biroq ularga organizmning immuniteti mustahkam bo‘lsa zarari katta emas. Bu mikoziylar kuchayib ketsa o‘tkir kasalliklarni ro‘y berishiga, hatto o‘limga ham olib keladi. Zamburug‘lar teri mahsulotlari va uni o‘rniga ishlatiladiganlarni, qog‘ozda ham o‘sib ularni yaroqsiz holga keltiradi. Kutubxonalar, arxivlardagilarni zamburug‘lar ta‘siridan saqlash uchun maxsus

sharoitlar yaratishadi. Zamburug‘lar ta’sirida ro‘y beradigan biokorroziyani o‘rganish ulardan himoyalanih maqsadida zavodlar, yirik kutubxonalarda, ilmiy tekshirish institutlarda tadqiqot ishlari olib boriladi.

Ko‘plab zamburug‘lar turli dorivor moddalarni hosil qiladi.

1. **Antimikrobpreatratlar** - antibiotiklar. Ma’lumki, birinchi antibiotikni ingliz mikrobiologi A.Fleming Penicillum zamburug‘idan ajratib penitsillin deb nomlagan. Bu antibiotiklar farmakologiyada buyuk kashfiyot qildi.

2. **Immunmoduyatorlar.** Ularning ayrimlari sutemizuvchilar immunitetini pasaytiradi, boshqalari mikroob infeksiyasiga qarshi bo‘ladi.

3. **Rakka qarshi moddalar** - po‘kak va agarika zamburug‘laridagi (asosan ksilotroflar) polisaxaridlar.

4. **Gormonal moddalar.** Ayrim zamburug‘larning alkaloidlaridan gormonal preparatlar olinadi.

5. **Xitin** - faollangan ko‘mirdan ham kuchliroq adsorbsiyalash (so‘rish) xususiyati tufayli yaralar kuygan joylarni tez tuzatadi. Zamburug‘larning ko‘pchiligidan biopolimerlarni parchalaydigan faol fermentlar olinadi. Pektinozalar (pectin parchalovchi), proteazalar (oqsil parchalovchi), lipazalar (lipidlarni parchalovchi) zamburug‘lar, mevalar va sabzavotlarni shirasini tiniqlantiruvchi, yuvish vositalariga qo‘shimcha kabilar sifatida foydalaniladi. Zamburug‘lardan an’anaviy ravishda organik kislotalar limon, itakon va boshqa kislotalar olinadi. Fitopatogen zamburug‘lardan gibberillinlar, fuzikoksinlar olinadi, ular o‘siliklardagi o‘shish jarayonlarini tezlatadi.

Oziq va yem hashak zamburug‘lari. Bu zamburug‘lar ichida ikki guruhning vakillari muhim hisoblanadi.

1. Achitqi *Saccharomyces cerevisiae*. Bijg‘ish natijasida qandni spirt va karbonat anhidridga aylantirishi non, vino va pivo tayyorlashda hamda spirt ishlab chiqarishda qadimdan qo‘llanilibkelinadi.

2. Xaltachali zamburug‘larning va bazidiyani makromitsetlarning mevatanalari bizning issiq iqlimli respublikamizda tabiiy oziq mahsuloti sifatida juda kam foydalanilsa, Rossiya, Yevropa aholisi ularni shundayligicha, quritilgan va konservalangan holda istemol qilishadi. Bu zamburug‘larni oziq sifatida iste’mol qilinishi xavfsiz emas, kuchli zaharlanishlarga hatto o‘limga olib keladi.



Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 O‘ktam Prator Pratorovich Botanika : (Morfoloqiya, Anatomiya, Sistematika, Geobotanika) “ Talim nashriyoti “ Toshkent – 2010.
- 2 Sh.J.Tojiboyev, N.M.Naraliyeva Botanika : Tuban o‘simliklar. “Namangan” nashriyoti - 2016.
- 3 Tojiboyev Sharobidin Jamolovich, Qarshiboyeva Nasiba Haydarovna Botanika : Yuksak o‘simliklar sistematikasi.” Namangan “ nashriyoti - 2015.
- 4 Tuban o‘simliklar (L.L.Velikanov va boshqalar) “ Oqituvchi “ nashriyoti T. 1995 - yil.
- 5 N.H. OARSHIBOYEVA. U.N. USANOV. N.O. KARIMOVA. M.SH. YAXSHIYEVA. Botanika (Tuban o‘simliklarning sistematik nomenklaturasi) Toshkent «Yangi asravlodi» 2015

Research Science and Innovation House

BOLALAR SHOIRASI KAVSAR TURDIYEVA SHE'RLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

G'aniyeva Shodiyaxon Azizovna,

Farg'ona davlat universiteti dotsenti;

Yoqubova Xurshidaxon Tolibjon qizi.

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi.

Annotatsiya. Ushbu maqolada bolalar adabiyoti ijodkori Kavsar Turdiyeva asarlarining o'rni, mazmun-mohiyati, ularda ilgari surilgan g'oyalar va tarbiyaviy, ta'limiy maqsadlar xususida so'z boradi.

Kalit so'zlar: she'r, adabiyot, bolalar adabiyoti, kitobxonlik, she'riy san'atlar, tashbeh, jonlantirish, ritorik so'roq gaplar.

O'zbek bolalar adabiyoti nima? O'zbek bolalar adabiyoti o'zining tuzilish, hajmi, mavzu ko'lami, yosh xususiyatlari, tilining soddaligi, o'ynoqiligi, qiziqarliligi va boshqa jihatlari bilan kattalar adabiyotidan ajralib turadi. Bolalar kitobxonligini o'quvchilarning pedagogik psixologik xususiyatlariga ko'ra ma'lum yosh davrlarga bo'linadi. Ijodkorlar ham bolalarning yosh xususiyatlarini, dunyoqarashini hisobga olgan holda yozadilar. Bolalar adabiyoti — bolalar va o'smirlar uchun yaratilgan badiiy, ilmiy, ilmiy-ommabop va publitsistik asarlar majmui hisoblanadi. Kitobxon yoshini hisobga olish Bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarda bu ko'rgazmalilik, ezgulik va yovuzlik kuchlarining oddiy ko'rinishdagi ziddiyatlariga asoslangan bo'lsa, o'smirlar uchun yaratilgan adabiyotda murakkab hayotdagi murakkab kishilarning ruhiyati ochila boshlaydi. Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir.

Demak, Kavsar Turdiyevaning ijodida ham yuqorida sanalib o'tgan barcha jihatlar she'rlarida, asarlarida mohirlik bilan tasvirlangan. Endi esa, Kavsar Turdiyevaning hayoti va ijodiy faoliyati haqida qisqacha to'xtalib o'tamiz. Shoira 1958-yil 6-avgustda Toshkent shahrida ziyoli oilada tug'ilgan. Uning ijodi judayam boy hisoblanib "O'ynayapman, o'ylayapman", "Qush bo'lib uchgan ona", "Raqamlar bo'ylab sayohat sayohat" kitoblari chiqqan. "Botu nidosi", "Mitti qo'g'irchoqboz", "Quvnoq alifbo olamiga sayohat", "Sog'inchlar sochilgan bekatda", "Dunyoni saqlang, bolalar!" kabi she'riy to'plamlari o'quvchilar qo'lga yetib bordi.



Kavsar Turdiyeva ijodi juda keng hisoblanadi. U she'riyatda, nasriy asarlarda, kinochilik sohasida, qo'shiqchilikka o'qituvchilar uchun darsliklarga oid asarlar ustida qalam tebrata olgan ijodkordir.

Ijodkorlarning asarlari bolalar qalbining keng va beg'ubor kengliklarini ochib berishga, uning nozik ruhiy qalb kechinmalarini tasvirlashga bag'ishlagan. Eng muhim jihati ma'naviy va axloqiy tarbiya masalalari bolalar shirasining diqqat markazida turgan va bu jihatlar shoironing ijodini o'qiganimizda yaqqol aks etib turadi. Shoironing ijodida ta'limiy, tarbiyaviy, tinchlik do'stlik kabi mavzular ham o'rin olgan. Uning ijodi hatto sahnalashtirilgan ham. Uni tomosha qilgan bolalar mazza qilib ko'radi, eng muhimi tarbiyaviy jihatdan o'rnak olishadi. Shoironing ko'p she'rlarida da'vat, hayqiriq, chorlash, undash, shukur qilish kabi sifatlar uchraydi. Bularni shoironing "Vatan Iqbol kutar" she'rida o'z ifodasini topgan.

Menda, senda, bizda,
Har bir o'g'il-qizda.
Yagonadir Vatan,
Asra uni har dam.
Mendan, sizdan, bizdan,
Barcha o'g'il-qizdan
Vatan iqbol kutar,
Bizga imkon tutar.

She'ning mana shu qismida yuqoridagi sanab o'tilgan jihatlar o'z aksini topgan. Hayot davom etishi, sen ham munosib harakat qildim, vatanga bo'lgan muhabbat, uni asrab avaylash kerakligini, kelajak yoshlar qo'lida ekanligi, yoshlar uchun yaratilgan sharoitlarni o'z she'rida tasvirlab o'tgan.

G'uncha bo'lib, kuchga to'lib,

O'ynab, kulib yashna.

Bilim sari, ilm sari,

Intil bo'lib tashna.

Yurtning shonin, porloq nomin,

Tug'dek baland ilgin.

Jahon bilsin, havas qilsin,

Sen ham shuni bilgin.

Bu qismida esa da'vat, hayqiriq, tashbeh ya'ni she'riy san'at o'z ifodasini topgan. Bu yerda g'uncha bo'lib, kuchga to'lib kabi so'zlar misol bo'la oladi.



Bundan tashqari vatanni sevishga, yurtning sha'nini baland tutish, qolgan yurtlar ham havas qilishligi kabi maqsadlarni ifoda etgan. Asosiy maqsad kelgusi avlodga bizdan ozod va obod yurt qolishligi ilgari surilgan.

Shoiraning "Mendan aziz shippak" she'ri ham bolaga ham tarbiyaviy, ham mas'uliyatli bo'lishga, o'zining narsalariga yaxshi munosabatda bo'lish, ozoda saqlash, yaxshi xulq-atvorli qilib tarbiyalash kerakligi yoritilgan. Bu she'rning qisqacha mazmuni bir bolaning shippagi suvga tushib ketganligi, uni hech topolmagani, so'ng uyga qaytishga majbur bo'lgani, uyga kelganda esa uydagilarining barchasi terlashganlari tasvirlangan. Bola esa shunday dedi: hatto mehribon onam shippagingni top dedi deb aytadi. Bu she'rning tag ma'nosi bolani yaxshi xulq-atvorli qilib tarbiyalash yotadi.

Samarqand.

G'ururimsan, ona shahrim
Hamon o'sha-o'shasan
Mingyilliklar aro porlab
Turgan ulug' go'shasan.

Shoira bu she'rda asosan Vatanga bo'lgan munosabat, mehr-muhabbat kabilar singdirilgan. Samarqand O'zbekistonning tarixiy shaharlaridan biridir. Samarqand ham o'ziga xos me'rosiga, madaniy boyliklariga egadir. Yana bu she'rda Vatanimizning eng go'zal, so'lim shaharlaridan ekanligi, buyuk allomalarning yurtisan deya ta'riflaydi. Ha, ko'p bobolarimiz Samarqanddan yetishib chiqqan, u yerda ijod qilib, bu maskanni ilm-u ma'rifat nuri bilan bezagan.

Qor parchalar.

Qor parchalar, parchalar

Oq kiyadi archalar

Qir, adirlar, qoralar

Oq kiyimga o'ralar.

Bu she'r judayam quvnoq va xushchaqchaq kayfiyatda yozilgan, Barcha insonlar, ya'ni yosh-u qarilar qish faslini birdek yoqtiradi. Qishda hammayoq oppoq qorga burkanadi. Bolalar qorda chang'i uchadilar, qorbobolar yasaydilar. Shoira ham qor parchalari yerni qoplashi, barcha daraxtlar oq kiyimga burkanishini, hattoki tashqarida yurgan odam qor parchalaridan qorboboga aylanib qolishligini mohirlik bilan tasvirlay olgan.



Uyga kirdi oq odam
Qarasam, mening dadam
Dadamning ustin qoqdim
Dadamga kulib boqdim.

Shu misrada yuqoridagi fikrlar o‘z isbotini ifodalaydi.


Ona- bu ulug‘ zot. Onalar bizning borimiz, quyoshimiz, oyimizdir. Shoira bu she‘rida judayam onalarimizga chiroyli ta‘rif bergan. Haqiqatan bizni holimizdan, ust-boshimizga, tobimizga qayg‘urguvchi onadir. Uyga biroz kech qaytsak, yo kech qolsak havotirlanadigan, oldimizga issiq taom tutadigan, biz uchun bu dunyoda yashaydurgan ham ona ekanligini shoira she‘riy san‘atlardan ya‘ni tashbeh, jonlantirish kabi san‘atlardan, ritorik so‘roq gaplarni ham mohirlik va ustalik bilan o‘z she‘rida qo‘llay olgan.

Xulosa qilib aytganda shoiraning ijodi yosh avlodga judayam ibratli va tarbiyaviy ahamiyati bilan naf keltira oladigan asarlar sirasiga kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jumaboyev M. O‘zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent: -" O‘zbekiston",- 2002
2. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. Toshkent: " O‘qituvchi" 1994.
3. Turdiyeva K. Saylanma. Toshkent :2007.
4. www.ziyouz.com.
5. Ш.Искандарова, & М.Омонов. (2023). OUT OF USE ISAFETCOMBINATIONS OF “BABURNAME” IN THE MODERN UZBEK. Scientific Journal of the Fergana State University, (6), 20. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol_iss6/a20
6. Ш.Искандарова, & А.Расулова. (2023). ТЎСИҚСИЗЛИК КАТЕГОРИЯСИ ВА ТИЛ МАЗМУНИЙ СТРУКТУРАСИ ХУСУСИДА. Scientific Journal of the Fergana State University, (5), 26. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol_iss5/a26.
7. Ganiyeva Dildora Azizovna, & Ismoilova Dilorom Rustamjon qizi. (2023). THEORETICAL FOUNDATION OF STRUCTURAL LINGUISTICS. Scientific Journal of the Fergana State University, 28(4), 28. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol28_iss4/a130-133

8. Ganiyeva D. A., kizi Ibromhimova S. R. LOCAL UNITS EXPRESSING RELIGIOUS BELIEFS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 139-141.
9. SHODIYA GANIYEVA. ON LINGUISTIC FACTORS FORMING SYNTACTIC PHRASEOLOGICAL UNITS. imjrd [Internet]. 2023 Oct. 30 [cited 2023 Nov. 27];10(10).
10. Ganiyeva Shodiya Azizovna, & Madaminova Nodirakhon Rasuljon kizi. (2023). INFLUENCE OF READING BOOKS IN THE FAMILY ON CHILD EDUCATION. Academia Science Repository, 4(05), 198–203. Retrieved from



Research Science and Innovation House



Zafar Diyor ijodining o‘ziga xosliklari

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,

Shodiya Azizovna Ganiyeva

Farg‘ona davlat universiteti talabasi

Inomjonova Naziroy

Tel: +998950234565

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek bolalar adabiyotining mashhur namoyondalaridan biri Zafar Diyorning bolalar adabiyotiga qo‘shgan hissasi, bolalarni tarbiyalovchi hamda komillik sari yetaklovchi g‘oyalarini ilgari surgan she‘rlarining tasnifi, she‘rlarini ta‘lim-tarbiya jarayonidagi o‘rni keltirilgan.

Kalit so‘zlar. o‘qituvchi, jamiyat, yosh avlod, vatanga muhabbat, insonparvarlik, aql, tarbiya, tabiat, vatan, she‘r, bola;

Annotation. This article presents the contribution of the famous writer of children's literature Zafar Diyar to children's literature, the classification of his poems that promote the ideas of educating children and leading them to perfection, and the role of his poems in the educational process.

Keywords. teacher, society, young generation, love of country, humanity, mind, education, nature, country, poem, child;

Kirish: Barchamizga ma‘lumki hozirgi shiddat bilan taraqqiy etib turgan bir zamonda bolalar adabiyotini zabardast bolalar yozuvchisi Zafar Diyorning ijodisiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Shoir o‘zining butun umri davomini bolalar adabiyotiga bag‘ishladi, desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Yozuvchi har doim bolalarning dunyosida yashab, bolalarcha fikrlashi, she‘rlari sodda, ravon, qofiyali va samimiyat ila yozilgani bilan o‘ziga xos va ajralib turadi. Har bir ijod mahsulilning zamirida olam olam ma‘no va mazmun mujassam.

Yozuvchining hayoti va ijodi jahon urushlariga to‘g‘ri kelganligi sababli uning she‘rlari ko‘proq vatanparlik, kelajakka umid, insonparvarlik haqida yozilgan. Yozuvchi qanchalik tahlikali va urush qiyinchiligi bo‘lishiga qaramay faqat oldinga intiladi. Uzoq umr ko‘rmagan bo‘lsada bolalar adabiyotiga o‘zining katta hissasini qo‘sha oldi va hattoki Zafar Diyor kichkintoylar uchun she‘rlar yozar ekan, izlanish, o‘qish, o‘rganish zarurligini dildan his etadi. “Bolalar uchun asar yozishni men

o‘zim uchun juda qiyin va mas‘ulyatli vazifa deb bilaman . Bu mas‘uliyatli vazifani uddasidan chiqish uchun tinmay ijodiy izlanishdaman”-deb aytadi.

Uning har bir she‘rida bolaning qaysidir xislatini tarbiyalash, dunyoqarashini o‘stirish, vatanga, tabiatga muhabbat uyg‘otish, mehr-muruvat singari g‘oyalar ilgari surilgan.

Zafar Diyor o‘zining dastlabki mashhur asarlaridan biri bo‘lgan “Mashinist” dostonini yaratdi. Dostondagi Ashur obrazi baxtiyor yoshlarning fazilatlarini umumlashtirishga bag‘ishlagan. Maktabda o‘qish Ashurni hunarli qilish bilan birga, uning ongi va tushunchasini ham o‘stiradi. U Vatanga sadoqatli, har doim olg‘a intiluvchi ilg‘or yoshlardan biri bo‘lib yetishadi. Shuning uchun doston qahramoni o‘z umrini Vatan yo‘liga tikishga tayyor turadi.

Sevinaman, hali yoshman, ko‘p yashayman

Bu o‘lkaning saodati – baxti uchun.

Yana o‘qib, yana kulib ko‘p yashayman

Shu ko‘plarning biri bo‘lib o‘lkam uchun.

Ha! Mamlakat unday va‘da bergay senga :

Butun umrim sening porloq hayotingga!

Ushbu parchada insonning kelajakdan umidi, hayotga bo‘lgan muhabbat jo‘sh urib turadi. Insonga qachonki, o‘ziga ishonchi bo‘lsagina hayotga muhabbat qo‘yadi, o‘z ishini sevsa, o‘z ishini sidqi dildan qiladi. O‘z ishining mutaxassisi bo‘ladi. Bugungi kunda insonlarning 70% o‘z ishiga mas‘uliyatsiz, buning sababi esa o‘z ishini sevmasligi va o‘zi xohlamagan kasbda bo‘lganligi. Buning uchun bolani yoshligidan o‘zi xohlagan kasbga yo‘naltirish kerak deb hisoblayman. She‘rining ikkinchi misrasidagi “Bu o‘lkaning saodati – baxti uchun” o‘quvchida vatan uchun xizmat sharafliligini, uning saodatga yetishi uchun jon-jahdi bilan harakat qilishiga, unda bunga ishonch borligiga turtki beradi. U o‘qib, vatan ravnaqiga hissa qo‘shishini, baxtli bo‘lishini, o‘zining o‘lkasi uchun munosib farzand bo‘lishini va butun umri davomida mamlakatning porloq kelajagi uchun xizmat qilishini bayon qiladi.

Shoirning yana bir mavzusi bu ona tabiat va hayvonot olami hisoblanadi. Uning «Tantana» she‘rlar to‘plamidagi ko‘plab she‘rlari “Binafsha”, “Navbahor”, “Qushlar haqida qo‘shiq”, “Kapalak” singari she‘rlari ham shular jumlasiga kiradi.

Shoir bolalarning tabiat hodisalariga, hasharot-u jonivorlarga, ayniqsa, kapalakka qiziqishini, mehr-muhabbatini kichkintoylarga xos soʻz va ohangda ifodalab, hayotga diqqat-eʻtiborini oshiradi, kuchli zavq uygʻotadi, kapalak obrazi orqali kitobxonda insoniy tuygʻularni shakllantiriga, kapalakning umri qisqa boʻlsada u faqat gulzorda pokiza va xush-xurram yashashi bilan ajralib turishi bilan xarakterlidir.

Uch, ucha ber, ucha ber,
Goʻzal bogʻcham-gulshanda.
Sira ozor bermayman,
Sevgim, fikrim ham sanda.
Kapalakjon, kapalak;
Doʻst boʻlaylik ikkimiz,
Toʻxta, soʻzlayin andek ! (“Kapalak”)

Bolaning jonzotlarga ozor bermaslik, ular ham tirik jonligi, ularni asrab avaylash kerakligi haqida, ularga doʻst tutinish bilan birga gʻamxorlik ruhida tarbiyalaydi.

Shuningdek, Zafar Diyorning hayvon va parrandalarga bagʻishlangan sheʼrlarida ham shunga oʻxshash ikki maqsad koʻzga tashlanadi. Ularning birinchisi, bolalarga hayvon yoxud parrandalarning oʻziga xosliklari haqida maʼlumot berish boʻlsa; ikkinchisi, bolalarni tabiat va hayvonot dunyosiga mehribonlikka, ularni avaylab-asrash va koʻpaytirish hamda qadrdonlashishga undashdir. Har ikkala maqsad ham aslida tarbiyaga borib taqaladi. Tarbiyaning quruqdan-quruq pand-nasihat tarzida emas, balki goʻzal badiiy shaklga solingan sheʼr tarzida berilishi maqsadga tezroq yetkazishini va yosh kitobxonning badiiy didini ham charxlashini isteʼdodli sanʼatkor toʻgʻri anglagan va asarlarida buni aks ettirgan.

Olimlarning fikricha eng buyuk kashfiyotlar bu bolalardar tilidan chiqarkan, chunki ular inson aqli yetmaydigan va xayoliga kelmaydigan narsalarni oʻylashadi, orzu qilishadi, borishni, qilishni xohlashadi. Baʼzi ular uylagan narsalarni kattalar oʻylamaydi, chunki kattalar nazarida u ishning iloji yoʻqday, ammo bolalarning begʻuborligi dunyo qarashining bolalarcha kengligi bunga turtki boʻladi. Bola har doim koʻproq yetib boʻlmas narsalarni oʻylaydi. Agar bundan 500 yil aval kun kelin insonlar uzoq masofadan turib bir biri bilan gaplasahdi, bir birini kuradi, insonlar osmonda uchadigan narsa boʻladi ular ucha oladi deyilgan fikrni kimdir berganida hech kimning aqli bu narsani tan olmasdi, lekin barchamizga ayonki bu narsa

bugungi kunda oddi zamon ilm fan taraqqiyot mahsuli. Demak, aynan biz bo‘lmaydi degan narsalar bir kun kelib albatta bo‘ladi. Yozuvchi o‘zining bolalarning [xatti-harakatlarini](#), orzu-intilishlarini yaxshi biladi. Shu jihatdan qaraydigan bo‘lsak, uning «Kel, uchaylik shimolga» she‘ri g‘oyat xarakterlidir. Bunda shoir «Quyosh tushmaydigan» qutbni borib ko‘rishni orzu qilgan bolaning lirik obrazini gavdalandiradi. Yosh bolaning murg‘ak xayoli shimoliy qutbni borib ko‘rishni, undagi hodisalar bilan tanishishni xohlaydi. Shoir lirik qahramonning ulug‘ maqsadlarga erishish uchun fan va texnika asoslarini amalda egallashi kerakligini chuqur anglaydi. Buni shoir modelcha yasash jarayonida kichik yoshdagi bolalarning ruhiyatiga mos, sodda holda tushuntiradi va ularda katta ishlarga-qahramonlikka havas uyg‘otadi:

Yosh bo‘lsam ham mayliga

Qanot bog‘lab uchayin;

Muz sahrosi Qutbning

Sirin men ham ochayin.

Hoy, suyuqli modelcham,

Tayyormisan safarga ?

Fikrim senda hamisha,

Kel, uchaylik Shimolga !

Yozuvchi o‘zining har bir she‘rlarida ham ta‘limiy va ham tarbiyaviy maqsadlarni ko‘ra olamiz. Eng yaqin do‘st, sirdosh, tarixdan so‘zlovchi, kelajak yo‘lingizni porloq qiluvchi, yaxshilikka yetaklovchi eng yaqin do‘st bu-kitob. Zafar Diyor bolani kitobga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish uchun ham ular uchun bilim manbai bo‘lgan kitobni sevib, fan asoslarini chuqur egallashlari zarurligini uqtiradi. Bu g‘oyani “Kitob, mening do‘stimsan” she‘rida shunday tasvirlaydi.

Varaqlasam bir boshdan

Quvnab bahrim ochiilur,

Oltin harf so‘zlardan

Totli ma‘no sochilur.

Shuning uchun deymanki:

Kitob mening do‘stimsan!

Zafar Diyor she‘rni bolalar uchun sodda, ravon va har tomonlama kitobga bola tilida ta‘riflaydi. Bola ongiga singdirishda ustalik bilan yozadi.



Gar sahifang men uchun
Bir hikoyat so‘zlaydi,
-O‘qib odam bo‘lgin deb
Yaxshi niyat kuzlaydi.

Shoir kitob bolalar uchun qanchalik kerakligini u bilim manbai ekanligini, do‘sti deb ko‘rsatgan bola tilidan, kitobga muhabbat quygan bolaniing jonli qiyofasini chizadi:

Sen jondan sevaman
Meni tilga o‘rgatding,
Hadya qilib ilm-fan,
Yorug‘ yullar kursatding.

Yozuvchining ijodi urush yillariga to‘g‘ri kelganligi ham uni ijodiga hech qanday ta‘sirini ko‘rsatmadi, aksincha u ikkinchi jahon urushi davrida tinmay samarali ijod qildi. Shoirning “G‘unchalar”, “Serquyosh o‘lka”, “Ona qoshig‘I”, “Bizning oila”, “Qahramon”, “Tankist”, “Ulug‘ bayram”, “Qurol bering menga ham”, qahramonning kelishi”, “biz yashamoq istaymiz”, “Qo‘riqchilikda” singari she‘rlari bosilib chiqqan. Zafar Diyor qisqa umr ko‘rgan bo‘lsa-da, uning yosh avlod shaxsiyatini shakllantirishga xizmat qiladigan aksariyat yozuvlari bugungi kunda ham o‘zbek bolalar adabiyotining eng go‘zal sahifalarini tashkil qiladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda bolalar adabiyotiga uning rivoj-u ravnaqiga, o‘zining she‘r, qo‘shiq, doston va ertaklari bilan Zafar Diyor katta hissa qo‘shgan. Uning barcha she‘rlarini, asarlarini bolalar sevib o‘qiydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Zafar Diyor va o'zbek bolalar adabiyoti - fayllar.org
2. Zafar Diyorning zafarli ijodi WWW.MALUMOT.RU
- 3) Bolalar adabiyoti va nazariyasi. <https://azkurs.org> › pars_docs
4. Jumaboyev M. O‘zbek va chet el bolalar adabiyoti. Toshkent: O‘zbekiston, 2002
5. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti Toshkent: O‘qituvchi, 1994

6. Искандарова , Ш., & Маруфова Зулфия Набиевна, З. (2023). IMAGE OF BEAUTY IN CLASSIC ARTISTIC TEXTS. Scientific Journal of the Fergana State University, (5), 28. https://doi.org/10.56292/SJFSU/vol_iss5/a28
7. Искандарова, Шарифа Мадалиевна, Шокирова, М.Н. ЎЗБЕК МИЛЛИЙ СПОРТ ТУРЛАРИГА ОИД ЛИНГВИСТИК БИРЛИКЛАРНИНГ ШАКЛЛАНИШ АСОСЛАРИ // Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali. 2021. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/zbek-milliy-sport-turlariga-oid-lingvistik-birliklarning-shakllanish-asoslari> (дата обращения: 27.11.2023).
8. D.A.Ganieva. (2023). SYNCRETISM AND POLYFUNCTIONALITY IN THE RELATIVE FORMS OF THE VERB. International Multidisciplinary Journal for Research & Development, 10(11).
9. Ганиева Д. А., кизи Эргашева Д. Х. ИДИОСТИЛЬ И ЕГО ЛИНГВОПОЭТИЧЕСКАЯ СПЕЦИФИКА //ILM FAN TARAQQIYOTIDA ZAMONAVIY METODLARNING QO'LLANILISHI. – 2023. – Т. 3. – №. 5. – С. 28-32.
10. Ganiyeva Shodiya Azizovna, Abduraximova Xanifaxon Tolibovna, Rahmatjonova Hilolaxan Adhamjon kizi. (2023). ANALYSIS AND SIGNIFICANCE OF WORLD AND CHILDREN'S LITERATURE. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(11), 391–394.
11. Ganiyeva Shodiya Azizovna, Abdullayeva Mohinur Davlatjon qizi. (2023). KUDDUS MUHAMMADI - UZBEK CHILDREN'S POET. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 10(11), 388–390.

Research Science and
Innovation House



ATROF-MUHIT IFLOSLANISHI, CHIQINDILARNI ATROF MUHIT EKOLOGIYASIGA TA'SIRI VA HOZIRGI PAYTDA O'ZBEKISTONDAGI HOLAT

Andijon davlat pedagogika instituti ikkinchi bosqich talabasi

Turg'untosheva Ruxsora Boxodir qizi

Andijon davlat pedagogika instituti ikkinchi bosqich talabasi

Mirzaarapova Durdona Doniyor qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada atrof muhit ifloslanishida chiqindilarning ta'siri va hozirgi paytda davlatimizdagi holat haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: biosfera, geologik, geokimyoviy, ekologik, ifloslanish, plastik ifloslanish, atmosfera, resurs, infeksiyon, epidemiologik, gigiyenik, biotermik, issiqxona.

Аннотация: В данной статье представлена информация о влиянии отходов на загрязнение окружающей среды и текущей ситуации в нашей стране.

Ключевые слова: биосфера, геологический, геохимический, экологический, загрязнение, пластиковое загрязнение, атмосфера, ресурс, заразный, эпидемиологический, гигиенический, биотермический, теплица.

Annotation: This article provides information about the impact of waste on environmental pollution and the current situation in our country.

Keywords: biosphere, geological, geochemical, ecological, contamination, plastic pollution, atmosphere, resource, infectious, epidemiological, hygienic, biotermal, greenhouse.

Hozirgi kunga kelib, inson faoliyati natijasida biosferaning o'zgarishi juda katta tezlik bilan boryapti.

Yer kurrasining qiyofasini o'zgartirishda biosfera katta geologik kuch sifatida vujudga kelganini Vernadskiy tomonidan aytib o'tilgan edi. Insonning tabiatga geologik va geokimyoviy jihatdan ta'sirini o'rgansak biosferaning hozirgi davrga qadar o'zgarishi juda katta. Insonning tabiiy jarayonlarga salbiy munosabatda bo'lishi natijasida ekologik muammolar juda avj olib ketdi. Ulardan biri bu atrof muhit ifloslanishidir. Ifloslanish o'zi bu tabiiy muhitga salbiy o'zgarishlarni keltirib



chiqaradigan ifloslantiruvchi moddalarning kiritilishidir. Ifloslanishning turli xil shakllari mavjud. Ulardan asosiy shakllari: havoning ifloslanishi, plastik ifloslanish, tuproq ifloslanishi, suvning ifloslanishi.

Avtotransport vositalarining chiqindilari havo ifloslanishining asosiy sabablari hisoblanadi. Bir qancha davlatlar, xususan O‘zbekiston ham havosi ifloslangan davlatlar qatoriga kiradi. Atmosferaning ifloslanishi yerning havo qobig‘iga ta’sir etibgina qolmay, inson va atrof muhitni ham xavf ostiga qo‘yadi.

Suv resurslarining ifloslanishi bu suvda turli xil organik, noorganik, mexanik moddalarning to‘planishi, kimyoviy tarkibining o‘zgarishi, suv yuzasida turli xil moddalar suzib yurib cho‘kishi oqibatida suvda kislorod kamayishi, bakteriyalar ko‘payib, yuqumli kasalliklar kelib chiqishidir. Suvni ifloslovchi manbalar orasida eng muhim o‘rinni sanoat ishlab chiqarishdan hosil bo‘lgan oqava suvlar egallaydi.

Shahar va qishloqlarni toza tutishning epidemiologik va gigiyenik ahamiyati juda katta . Uy xo‘jalik axlatlari, oziq- ovqat chiqindilari va boshqalar juda ko‘p organik moddalarni ushlagani uchun tezda chiriy boshlaydi. Oqibatda turli gazlar: ammiak, serovodorod, metan, indol, skatol va boshqalar paydo bo‘ladi, yog‘ingarchilik oqibatida yer yuzasidan yuvilib chiqindilar najas, siydik hojatxonalardan yer osti suvlariga sizilib, ularni ifloslantirishi mumkin.

Chiqindilar faqatgina turli infeksiyon va gijja kasalliklarini keltiribgina qolmay, odamlarda hazm qilish sistemasining ham buzilishiga olib keladi.



Hamma chiqindilar ikki guruhga bo‘linadi: suyuq va qattiq chiqindilar.

Suyuq chiqindilarga turli xil kanalizatsiya, oqava suvlari xo‘jalik, sanoat korxonalari, inshootlar chiqindi suvlari.

Qattiq chiqindilarga: uy chiqindi axlatlari, jamoat ovqatlanish korxonalarining axlatlari, sanoat korxonalari, savdo obyektlarining axlatlari, qurilish axlatlari kiradi.

Chiqindilarni ikki yo‘l bilan zararsizlantirish mumkin:

1. Biotermik usul ya'ni axlatni kompost qilish, issiqxonalarda foydalanish va mukammallashtirilgan axlatlarni zararsiz holatga keltirish.

2. Axlatlarni kuydiradigan, sortlaydigan zavodlarda zararsizlantirish.

Keyinyi vaqtlarda chiqindilarni mexanizmlar yordamida qayta ishlash uchun zavodlar qurilmoqda, masalan har yili 65000 tonna axlatni qayta ishlash zavodi Sankt- Peterburgda qurildi. Zavod organik azot o‘gitlarini qishloq xo‘jaligi ehtiyoji uchun ishlab chiqadi.

Bizning davlatimizda chiqindilarni qayta ishlovchi zavod hozircha respublikamizning hamma viloyatlarida yo‘qligi uchun chiqindilarni maxsus joylarga to‘kib, ko‘mib tashlash davom etmoqda. Chiqindixonalar daryolarning o‘zanlari, ariqlar yaqiniga joylashtirilishi aslo mumkin emas. Ular devor yoki sim to‘rlar bilan o‘rab qo‘yilishi kerak. Chiqindilar ustiga xlorli ohak sepib qo‘yish kerak.



Shunday qilib, chiqindilar masalasi ekologiyadagi muhim muammolardan biri bo‘lib ularni yig‘ishtirib qayta ishlash yoki gigiyenik talablar bo‘yicha sarishta qilinsa nafaqat iqtisodiy jihatdan foyda ko‘ramiz, balki yerni, havoni, suvni oziq-



ovqat mahsulotlarining ifloslanishini oldi olinadi, kishilar sog‘lig‘ini muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bugungi kunda ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish va uni yaxshilash eng dolzarb muammolardan biri bo‘lmoqda.

Respublikamiz ekologiyasini yaxshilash uchun ekologik muammolarni oldini olish yurtimizning oldingi ekologik muvozanatini tiklashimiz va buning uchun kerakli chora- tadbirlardan foydalanishni yo‘lga qo‘yishimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. " Ekologiya" A. Ergashev, M. Yulchiyeva, O'. Ahmedov. Toshkent. 2018
2. " Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish" A. Ergashev, T. Ergashev. Toshkent. 2005
3. " Tabiatdan foydalanish va uni muhofaza qilish" A. Qayumov, R. Rahmonov, L. Egamberdiyeva. Toshkent. 2014
4. " Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish" A. Nazarov, Toshkent. 2020

Research Science and Innovation House

Suv o‘tlarning tarqalishi

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yo‘nalishi 2- bosqich 202 - guruh talabalari
Abilkosimov Abduraxmon Qobulbek o‘g‘li
Abdurazzoqov Azizjon Abdurauf o‘g‘li**

Annotasiya: Maqolada Suv o‘tlarning tarqalishi , taraqilishiga qarab o‘zida xosil qilgan moslanishlar , ularning xillari haqida ma’lumotlar keltirilgan, Suv o‘tlar tarqalishiga qarab quyda turlarga bo‘linadi : Plankton , bentos , quruqlik, tuproq , qaynoq buloqlar , tuproq, muz va qor , sho‘r suvlardagi kabi suv o‘t turlariga bo‘linadi.

Annotation: The article contains information about the distribution of water grasses, their adaptations depending on their distribution, and their types. Water is divided into the following types depending on the distribution of algae: Plankton, benthos, land, soil, hot springs, soil, ice and snow, water is divided into types of algae as in salt water.

Аннотация : В статье содержатся сведения о распространении водных трав, их приспособлениях в зависимости от распространения и их видах. Вода делится на следующие виды в зависимости от распространения водорослей: Планктон, бентос, суша, почва, горячие источники, почва, лед и снег, вода делится на виды водорослей, как и в соленой воде.

Kalit so‘zlar : Plankton suv o‘tlar, bentos , nekton , quruqlik suv o‘tlari , tuproq suv o‘tlari, qaynoq buloqlar suv o‘tlari, muz va qor suv o‘tlari, shar suvlardagi suv o‘tlar, diatom , kaloniya.

Key words: Plankton algae, benthos, nekton, terrestrial algae, soil algae, boiling spring algae, ice and snow algae, algae in spherical waters, diatom, calonia.

Ключевые слова: планктонные водоросли, бентос, нектон, наземные водоросли, почвенные водоросли, кипящие родниковые водоросли, ледяные и снежные водоросли, водоросли сферических вод, диатомовые водоросли, калонии.

Suvo‘tlar yer kurrasi bo‘ylab turli suv, quruqlik va tuproq biotoplarida keng tarqalgan. Bu organizmlarning quyidagi ekologiya jihatdan gurihlari m a’lum:

Plankton suv o‘tlar



Bentos suv o‘tlar

Nekton suv o‘tlar

Quruqlik suv o‘tlari

Tuproq suv o‘tlari

Qaynoq buloqlar suv o‘tlari

Muz va qor suv o‘tlari

Sho‘r suvlardagi suvo‘tlar.

Plankto‘n suv o‘tlar. Plankton suvning yuqorisi-yuzasincyslonda--hayot kechiradigan organizmlar kiradi. Suvning yuqori qatlamida mustaqil holda yashaydigan o‘simlik turlari xil plankton deyiladi. Plankton suvo‘tlar xil suv havzalarida— okeanlardan tortib, to ko‘lmaklarga bulgan joylarda o‘sadi. Turli suv havzalarining plankton suvo‘tlari sistematik jihatdan tarkibi doimo, hatto bir suv havzada, yilning turli fasllarida ham turlicha boladi. U albatta suvning fizikaviy va kimyoviy holatlariga bog‘liq. Suv havzasidagi suvo‘tlar guruhi, har bir mavsumda soni va turlari jihatdan malum darajada farq qiladi. Bunday holat ko‘pincha chuchuk suv havzalarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Qishda bir hujayrali evglenalar, dinofitalar, tillaranglar, sovuqsevar diatom suvo‘tlari ko‘proq uchraydi. Bahor va yozda suvning harorati ortishi bilan ko‘k-yashil va yashil, evglena suv o‘tlarining turlari ko‘p bo‘ladi.

Dengizdagi fitoplanktoni asosan diatom va dinofita suvo‘tlardan tashkil topgan. Plankton suvo‘tlari suv yuzasida qalqib o‘sishi uchun mahsus moslamalarni hosil qilgan. Bir xil turlari turlicha moslamalar o‘sim talar, boshqalari koloniyalar, shilim shiq hosil qilsa, uchinchilari tanasida solishtirma og‘arliklarni kam aytiradigan modda (diatom suvo‘tlarda moy tomchilari, ko‘k-yashil suvo‘tlarda gaz vakuolalari) xosil qiladi. Bunday moslamalar chuchuk suvo‘tlarga nisbatan dengizlarda o‘sadiganlarda yaqqolroq namoyon bo‘ladi. Suv yuzasida bo‘lish uchun ularning o‘lchamlarini kichkinaligi ham muhim ahamiyatga ega. Suvni yuzasida qalqib hayot kechiradiganlarni epineuston, uni ostidagi lamiproneuston deyiladi. Neuston organizmlar kichik suv havzalari (ko‘lmak, hovuz kabi) hamda dengiz va okeanlarda ham mavjud. Ayrim hollarda bu organizmlar juda ko‘p miqdorda ko‘payib suv sathini qoplab ham oladi. Neustonda tillarang suvo‘tlaridan Chromulina ayrim yashil suvo‘tlari, masalan, Chamydononda keng tarqalgan. Bentos (suv tagi) organizmlariga suv tagi va undagi turli narsalarga birikib yoki birikmay, shu sharoitga moslashgan organizmlar kiradi. Bentos suvo‘tlar

muayyan sharoitda o‘shiga abiogen va biogen omillar ta’siri ostida bo‘ladi. Bentos suvo‘tlarni o‘shishi uchun fotosintezlovchi organizmlar kabi yorug‘lik zarur. Undan foydalanish darajasi boshqa ekologik omillar: harorat, biogen va biologiya faol moddalari, kislorod, organik bo‘lgan moddalar, eng muhimi bu moddalarini tallomiga shimilishi va suv oqimiga bog‘liq. Odatda suvning oqimi kuchli balsa bentos suvo‘tlari ko‘p bo‘ladi. Suv oqimining kuchi ayniqsa daryo soy kanal, irmoqlarda suvo‘tlarni tarqalishi va rivojlanishiga katta ta’sir qiladi. Bunday sharoitli suv havzatarida bentosning reofil organizmlar guruhi shakllanadi. Suv oqimi va biogen moddalar yetarli darajada bo‘lmasa bentos suv o‘tlari yaxshi rivojlanm aydi. Biogen m oddalarning manbai bo‘lib suv oqimi va suv osti cho‘kindilari hisoblanadi. Bentos suvo‘tlarining rivojlanishiga ular bilan oziqlanadigan turli umurtqasiz hayvonlar va baliqlar ham ta’sir qiladi. Bentos suvo‘tlari o‘shish joyiga ko‘ra epik-qattiq joyda epipelit-yumshoq joyda, epifit-o‘simliklar ustida o‘sadigan gurhlarga bo‘linadi. Perifiton-deb nom lanadigan organizmlar (suv o‘tlar) guruhi ham bo‘lib ular suv havzasida suzib yuradigan turli predmetlarda o‘sadi. Suv o‘tlar orasida haqiqiy bentos turlari bilan bir qatorda hayotini m a’lum vaqtini bentosda, boshqasini planktonda o‘tkazadigan turlar ham kam emas. Ularni ko‘pchiligida o‘shish joyiga birikadigan moslamalar yo‘q, ayrimlaridagina shilimshiq bog‘lamlar yoki uzim o‘siqlar bor. Qaynoq buloqlardagi suvo‘tlar 32-52°C da ayrim hollarda esa 90°C gacha haroratda o‘saoladi. K o‘pincha mineral tuzlar yoki organik m oddalar ortiqcha bo‘lgan, masalan, zavod va fabrikalarning issiq oqova suvlarida o‘sadi. Bunday suv havzalarda odatda asosan ko‘k-yashil suvo‘tlar, kam roq diatom va ulardan ham kamroq yashil suvo‘tlar o‘sadi. bQop va muzlikda o‘sadigan yashil, ko‘k-yashil va diatom suvo‘tlar krioffllar deyiladi. Ayrim vaqtlarda ular juda ko‘p mikdorda o‘shib qor va muzni yashil, sarik, moviy, qizil, jigarrang, qo‘ng‘ir hatto qoratusda tovlanishiga ham sabab bo‘ladi. Qorni zangori tusda bo‘lishiga Rhaphidonem anivelis, qizil ranga kirishiga esa Chlam ydom onada, jigarranglikni Ancilonem a hordenskiidii hosil qiladi. Bu suvo‘tlar qor yoki muzning yuza qismida bo‘lib, ular erish harorati 0°S atrofi vaqtida ommaviy ravishda ko‘payib, qor yoki muzni u yoki bu tusga kirishiga sabab bo‘ladi.





Sho‘r suv havzalarining suvo‘tlarni galobiontlar deyilib, ular suvda erigan osh tuzining kontsem raisiyasi 285 g/l dan 347 g /l gacha bulgan suv havzalarida tarqalgan. Suvning sho‘rligi bundan ortishi bilan suvo‘tlarning mikdori kam ayib boradi. O‘ta sho‘rlangan (gipertalin) suv havzalarida Dunaliella, Asteromonas, Pedimonas tarqalgan. Ayrim gipergalin suv havzalarining tagi ko‘k-yashil suvo‘tlari bilan qoplangan, ularni asosiy qismini Microcoleus, Aphonotheca, Spirulina, Oscillatoria turkumlarining turlari tashkil qiladi. Suvning sho‘rligi kamaya borishi bilan boshqa turlarga mansub suvo‘tlar ham paydo bo‘la boshlaydi. Suvo‘tlar asosan suvda hayot kechirsada, undan tashqari turli tuman muhitlarda ham keng tarqalgan. Suv muhitidan tashqaridagilarni aerofil, edafofil va litofil guruhlarga bo‘linadi. Aerofil suvo‘tlarning o‘shish muhiti fizik, kimyoviy jihatidan ta’sir etmaydigan toshlar, tog‘ qoyalari, daraxt po‘stloklari kabi qattiq substratlar hisoblandi. U larni fakat atmosfera havosini namlanishi bilangina kanoatlanadigan hamda suv bilan yuvilib turadigan joylarda o‘sadigan guruhlarga bo‘linadi. Aerofil suvo‘tlar haroratni doimiy o‘zgarib turishi ta’sirida bo‘ladi. Kunduzi ular qiziydi, kechasi soviydi, qishda muzlaydi. Bu guruh suvo‘tlari asosan Chlorophyta, Cyanophyta

qisman, Bacillariophyta guruhlariga mansub bir hujayrali va ipsimon tuzulganlardan iborat.

Tuproq yuzasi va uning qa'ri ham suv o't uchun o'sish muhiti bo'lib, unga ma'lum darajada ta'sir ko'rsata oladigan suvo'tlar guruhi edafofil deyiladi. Suvo'tlarning rivojlanishi uchun fotorotof organizmlar kabi yorug'lik ham zarur. Shudgor qilingan tuproqda yorug'lik 1 sm gacha kirib boradi. Hayotiy xususiyatlarini saqlab qolgan suvo'tiarni shudgorlanmagan tupoqlarda 20 sm gacha, shudgorlanganlarida esa 2,7 m chuquriigacha uchratish mumkin. Suvo'tlar bu chuqurliklarda ko'pincha tinim holida bo'ladi. Tuproq suvo'tlariga xos harakterli xususiyat bo'lib ularning “efem erligi”-tinim holatidan faol holatga tez o'taolishi va aksinchaligi. Tuproq haroratining keskin o'zgarishlariga ultrabinafsha va radioktiv nurlanishlarga chiday oladilar. Bu bilan ularning keng tarqalganligi ifodalanadi. Tuproq suvo'tlari asosan mikroskop orqali ko'rsa bo'ladigan tuzulishli bo'lib, ularni orasida tuproq yuzasida o'sib bemaol ko'rsa, qo'l bilan tutib ko'rsa bo'ladiganlarga ko'k-yashil suvo't.

Nastok commune yurtimizning to'qbo'zrang tuproqiarida, asosan: adir va uning yuqori qismlarida, boshoqdoshlar oilasiga mansub o'simliklar tarqalgan sarhadlarda uchraydi. Tuproq suvo'tlarining sistematik tarqibining asosiy qismini ko'k-yashil va yashil suvo'tlar tashkil qiladi. Tillarang va diatom suvo'tlar ichida ma'lum darajada harakterlilari ham bor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Tuban o'simliklar L.L.Velikanov
2. N.H. Qarshiboyev., U.N.Usanov., N.O.Karimov., M.SH.Yaxshiyev. Botanika. Toshkent. 2015.
3. A.A. Matkarimova., T.X. Mahkamov., M.M. Maxmudova., X.Ya. Azizov., G.B. Vaisova. Botanika. Toshkent. 2020.
4. Sh.J. Tojiboyev., N.M.Naralieva. Botanika: Tuban o'simliklar. Namagan. 2016

TEXNIK XIZMAT KO`RSATISH TADBIRLARIDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI

Atamuradov U.Ya, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Kichik mutaxassislar tayyorlash markazi texnik tayyorgarlik sikl o‘qituvchisi, O‘R QK xizmatchisi, Samarqand shahri.

Annotatsiya: Ushbu maqolamda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan maqsadlarning har birida mutaxassis ofiser va serjantlar tarkibining ishtiroki nihoyatda beqiyos.

Texnik ta‘minoti tadbirlarini sifatli bajarishda zamonaviy park-garaj uskunalari yordamida texnik xizmat ko‘rsatish va tajribali avtoservis (HKTU) ustalarini yangi dasgohlarni qo‘llashi o‘rni va mohiyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: rivojlanishi, sanoat, engil, transport, vosita.

Texnik ta‘minot tadbirlarining muammolari va ularning yechimlari.

Ta‘minotni tashkillashtirish maqsadi:

qurol-aslaha va texnikani doimiy jangovar shay holda ushlab turish va jangovar qo‘llashga doimiy shay holda ushlab turish;

o‘z vaqtida sarf va yo‘qotishlarning o‘rnini to‘ldirish;

qurol-aslaha va texnikaga o‘z vaqtida texnik xizmat ko‘rsatish, ta‘mirlash va evakusiya qilish;

ularni texnik jihatdan ekspluatasiya qilish, shikastlangan qurol-aslaha va texnikani tezkorlik bilan tiklash va uni safga qaytarishni talab etadi.

Yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan maqsadlarning har birida mutaxassis ofiser va serjantlar tarkibining ishtiroki nihoyatda beqiyos.

Artilleriyaviy ta‘minot umumiy ta‘minot tizimida moddiy ta‘minotni anglatadi, chunki har bir xizmatning o‘z yo‘nalishida moddiy vositalar mavjud va ular bilan ta‘minlash har bir xizmatning vazifasiga kiradi.

Lekin texnik ta‘minotni to‘g‘ri tashkillashtirish uchun oldin bu ta‘minotning umumiy moddiy-texnik ta‘minotda tutgan o‘rnini o‘rganuvchilarimizga anglata olishimiz kerak.



Masalan moddiy ta'minot nima deb so'ralsa, barcha desam yolg'on bo'ladi aksariyat ta'minotchilar (texnik va front orti ta'minoti nazarda tutilyapti) kiyim-kechak, yoqilg'i, oziq-ovqat deyishadi.

Demak bu ta'minotlar haqida kerakli ma'lumotni bera olmayapmiz yoki uncha e'tibor qaratmayapmiz deb o'ylayman. Moddiy ta'minot turlari haqida to'xtalib o'tirmayman.

Demak monitorga e'tiboringiz qarataman:

Moddiy ta'minot:

yuqori ta'minlovchilardan qabul qilib olish;

hisob-kitob va hisobot;

ta'minlashni rejalashtirish;

moddiy vositalarni taqsimlashni rejalashtirish;

jangovar ta'minot punktlarida saqlash;

moddiy vositalarni bo'linmalarga berish.

Moddiy ta'minot tushunchasidan keyin o'z-o'zidan texnik ta'minotga murojaat qilsak, biz ta'minlagan barcha moddiy vositalarning jangovar shayligini ushlab turish uchun, ularning hayotiy sikli uzaytirish uchun bajariladigan barcha tadbirlar majmuasi texnik ta'minot tadbirlaridir.

Texnik ta'minot tabirlari yoki ishlari:

qurol-aslahalar va o'q-dorilarni to'g'ri jangovar qo'llash va ishlatish;

shaxsiy tarkibga qurol-aslahalar va o'q-dorilarni to'g'ri ekspluatasiya qilishni, ta'mirlashni va b.q. o'rgatish;

texnik ta'minotni rejalashtirish va boshqarish;

ushlab turishni tashkillashtirish;

texnik xizmat ko'rsatishni tashkillashtirish;

ishlab chiqarish, konstruktiv va ekspluatasion kamchiliklar va nosozliklar haqida ma'lumot yig'ish;

ta'mirlashni rejalashtirish va tashkillashtirish;

evakusiyani rejalashtirish va tashkillashtirish.

Shu sanab o'tilgan barcha tadbirlar o'ta muhim ahamiyatga ega va ular majburiy bajarilishi lozim bo'lgan ishlar sanaladi. Agar buni o'rganuvchilarga yanada tushunarli qilib aytadigan bo'lsak, har bir RAQning hayotiy muddatini uzaytirish uchun bajariladigan barcha ishlarni tushunishlari mumkin va ko'z oldilariga keltirishlari mumkin.



Bu fikrlarni albatta amaliyotdagi misollar bilan boyitish lozim.

Shuning uchun o'qituvchi uchun qo'shinlarda xizmat amaliyoti kamida 10 yil, bo'lmasa 15 yil bo'lishi lozim deb o'ylayman. Shunda o'qituvchi berayotgan fikrlarning asl mohiyatini anglagan holda muammoga yondashadi.

Bu ishlarni sanab o'tishimdan maqsad, e'tiborlaringizni bir necha holatlarga qaratishdan iborat. Kimlarda-dir mavzudan uzoqlashish bo'lyapti deb o'ylashlari tabiiy. Lekin bu mavzudan uzoqlashish emas, balki bir necha muhim savollar qo'yish degan bo'lardim:

shu tadbirlarning mohiyatini o'rgatishga e'tibor qaratyapmiz-mi,

shu tabirlarni o'rgatishda sinchkovlik bilan chuqur yondashyapmiz-mi degan savollar ochiq qolmoqda deb o'ylayman.

Savol berishingiz mumkin, siz o'zingizchi...? Men faqat shu haqida gapiraman, lekin biz hamon adabiyotlarni, materiallarni qisqartirishda davom etmoqdamiz.

Bu haqida to'xtalganimning sababi, biz agar nimadir o'rgatmadik yoki bilimlar sayozlashgan yoki unut bo'lgan. O'rganuvchi hozirgi adabiyotlarimizdan kerakli ma'lumotni topa olmaydi. Mayli, gap bilim haqida ketsa. Qurol-aslaha va texnikaning ishlash faoliyati bilan, unga xizmat ko'rsatish va uni ta'mirlash haqida ketsa-chi. Bu bilimlarni mustahkamlay olmaslik Qurol-aslaha va texnikaning muddatidan oldin safdan chiqishiga olib kelishi mumkin.

Shaxsiy tarkib esa javobgar bo'lib qolishi mumkin. O'ylayman-ki bu muammoni barchamiz birdek tushunib turibmiz. Lekin shu haqidagi fikrlarimizni hayotga tadbir etishning uddasidan siqa olmayapmiz.

Yana bir muammo haqida to'xtalib o'tishni lozim deb topdim.

Masalan:

shaxsiy tarkibga qurol-aslahalar va o'q-dorilarni to'g'ri ekspluatasiya qilishni, ta'mirlashni va b.q o'rgatish. Biz ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatishni o'rgatishga kerakli e'tibor qaratyapmiz-mi? Maxsus tayyorgarlik bo'lyapti-mi? Bu tadbirlarni tashkillashtirish va ularning sifat nazorati nazardan chetta qolmoqda.

ishlab chiqarish, konstruktiv va ekspluatasion kamchiliklar va nosozliklar haqida ma'lumot yig'ish; Bunga biz qanchalik e'tibor qaratyapmiz?. Vaholanki bu ma'lumotlar har bir texnika va qurol haqida kerakli ma'lumotga ega bo'lish va texnik ta'minotni tashkillashtirda ulardan foydalanish, ya'ni texnikaga tashhis qo'yish oddiy qilib aytganda.

Biz hatto bu ma'lumotlarni yo'qotishlar va buzilishlarni administrativ surishtiruv o'tkazganda ham e'tiborga olmayapmiz. Demak javobgar shaxslar keltirilgan zararni to'liq qoplash bilan jazolanmoqdalar. Bu kamchiliklar turlarini mansabdor shaxslar tushunganlarida edi, ular surishtiruvda boshqacha taklif bergan bo'lur edilar. Yana bir masala.

Bu kamchiliklarning farqiga borishni shaxsiy tarkib bilishi lozim, chunki tinchli davrida ham, urush davrida ham texnik bo'linmalar shaxsiy tarkibi texnik holatni baholashni bilishlari lozim.

Chunki texnik bo'linmalarining texnik xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha ish hajmi ularning chmqargan qarorlari ma'lumotlariga bog'liq bo'ladi.

Aniq ma'lumotlarga ega bo'lmaslik, boshqacha qilib aytganda texnik ta'minot ishlarini noto'g'ri tashkillashtirishga olib keladi. Bu esa katta vaqt yo'qotish va srf degani. Urush davrida esa buning javobgarligi juda og'ir baholanadi va natijasi og'ir bo'ladi.

Texnik ta'minot mutaxassislari tarkibi eng ko'p qatnashadigan ishlar haqida to'xtalmoqchiman.

TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH

qurol-aslahalar, optik asboblari, otish va kuzatish asboblari, agregatlar, tizimlarning sozligini tekshirish, tozalash, to'g'rilash
akkumulyator batareyalarni zaryadlash ;

qurol-aslahalar va texnikanink to'liqligini, ZAA, o'tuvchanligini oshirish uchun qo'shimcha qurilamalar va boshqa tabeldagi jihozlar bilan ta'minlanganligini tekshirish;

shaxsiy tarkib, qurol-aslahalar va o'q-dorilarni tashish uchun mo'ljallangan avtomobillarning sozligini, tegishli agregat va jihozlarining joyidaligi va sozligini tekshirish.

Faqat bitta savolga javob berish qoldi: bu tadbirlarning barini qachon bajaramiz?

Nima uchun bunday savol qo'ydim? Rahbariy hujjatlarda ko'rsatilgan rejali-ogohlantiruvchi tizim tadbirlari o'tkazilishi shart. Chunki bu qurol va texnikamizning hayotiy siklini uzaytirish bilan bog'liq bo'lgan masala.

Oldin, tizimdagi mavsumiy, TO-1, TO-2 lardan tashqari texnik xizmat ko'rsatish(rejalashtirilganlaridan tashqari) 1 oyda 52 soatni tashkil qilgan: park kunlari 2 kun x8=16 soat, har kuni QA va texnikaga xizmat ko'rsatish va ertangi



kunga tayyorlash 17.00-18.00 - 5 kun x 4 hafta =20 soat, park-xo‘jalik kunlari 4 kun x 4 = 16 soat. Jami: 16+20+16=52 soat. Bugun esa shu ko‘rsatkich 16 soatdan oshmayapti.

Demak nosoz qurol-aslaha va texnikalar qachon tuzatilmoqda, jangovar tayyorgarlik soatlari va mustaqil tayrgarlik hisobiga amalga oshirilmoqda.

Chunki tuzatilmasa, ta‘mirlanmasa bo‘lmaydi.

Bu jihat haqida bir oz o‘ylab ko‘rishimiz va mulohaza yuritishimiz, kerakli takliflarni ishlab chiqimiz lozim. Hammamizning vazifamiz bitta: oxir-oqibat jangovar qurol va texnikani doimiy jangovar shay holda ushlab turish.

Biz shunga shaxsiy tarkibni haqiqatan o‘rgatishimiz lozim. Bu mening ko‘rganlarim, kuzatganlarim, haqiqatlarim va fikrlarim edi. Hulosa chiqarish o‘zingizdan.

Ta‘mirlash haqida to‘xtalmoqchi emasman, lekin Chechnya misolini keltirdim. Bu masalaning qanchalik jiddiylikni tassovvur etishimiz va o‘rganuvchilarni buning murakkab vazifaligiga ishontirishimiz, ularni uyg‘otishimiz lozim.

Xulosa qilganda xozirda mudofaa vazirligini ko‘chma ta‘mirlash ustaxonalariga xozirda zamonaviy texnik xizmat ko‘rsatish uskunalari olib kelinib harbiy xizmatchilar va fuqorolarning avtomobil texnikalariga malakali mutaxassislar yordamida avtoservis xizmati tashkillashtirilgan.

Foydalanilgan dabiyotlar:

1. Энциклопедия с дополненной реальностью военной автомобильной техники, издательства АСТ (V.V.LIKSO, B.B PROKAZOV). Rossiya-2014.

2. "O‘zbekiston Respublikasi avtomobil transporti harakatdagi tarkibining texnik xizmat va ta‘miri haqidagi Nizom" – Toshkent, korporatsiya "Uzavtotrans". – 1999 y.

Research Science and
Innovation House



BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA IJODKORLIKNI SHAKLLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA ILG‘OR MILLIY VA XORIJIY TAJRIBALAR

Baltamuratova Aksungul Perdebaevna - Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Temirova Rayhon Dilmurodjon qizi - Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada yurtimizdagi Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodkorlikni shakllantirish tizimini yanada rivojlantirish uchun qo‘llanilayotgan qator xorijiy va milliy tajribalar haqida va ularning ahamiyati qo‘lash tartibkari keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: samaradorlik, xorijiy tajriba, standart, baholash, tadqiqotlar, hamkor, milliy tizim.

ПЕРЕДОВОЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ И ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ФОРМИРОВАНИЯ ТВОРЧЕСТВА УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Балтамуратова Аксунгуль Пердебаевна – старший преподаватель кафедры «Педагогика начального образования» Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами

Темирова Райхон Дилмуроджон кизи – студентка 3 курса факультета Начального образования.

Аннотация: В статье упоминается ряд зарубежного и отечественного опыта, использованного для дальнейшего развития системы начального образования в нашей стране, а также порядок их значимости.

Ключевые слова: эффективность, зарубежный опыт, стандарт, оценка, исследование, партнер, национальная система.

ADVANCED NATIONAL AND FOREIGN EXPERIENCE IN IMPROVING THE SYSTEM FOR FORMING CREATIVITY IN PRIMARY CLASS SCHOOLCHILDS

Baltamuratova Aksungul Perdebaevna – senior lecturer of the department of “Pedagogy of Primary Education” of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Temirova Rayhon Dilmurodjon kizi – 3rd year student of the Faculty of Primary Education

Annotation: The article mentions a number of foreign and domestic experiences used for the further development of the primary education system in our country, as well as the order of their importance.

Key words: efficiency, foreign experience, standard, authority, research, partner, national system.

Ta’lim sifati va samaradorligini oshirish yo’lida xorijiy ilg’or tajribalarni o’rganish, xalqaro standartlar talablarining joriy etilishi muhim ahamiyatga ega. Bu borada O’zbekiston Respublikasida qo’yilayotgan amaliy qadamlarga xalq ta’limi tizimida ta’lim sifati baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarning tashkil etilishi to’g’risida hukumat qarorining qabul qilinishi Ta’lim sohasidagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasidek (IEA) nufuzli tashkilot bilan hamkorlik aloqalarining yo’lga qo’yilishini misol sifatida keltirish mumkin

Darhaqiqat, bugungi taraqqiyot har bir o’qituvchidan o’ziga xos ijodkorlik, malaka va tajribani taqozo etmoqda. Bu o’z navbatida xorijiy tillar fani o’qituvchilari zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi [1, 2].

O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012-yil 10-dekabrda PQ-1875-sonli «Chet tillarni o’rganish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida»gi Qarorini tizimli amalga oshirish maqsadida boshlang’ich sinflarda xorijiy tilni o’quvchilarga o’rgatishdan maqsad ularning shu tilda so’zlash, yozish, tinglab va o’qib tushunish kabi ijodkorlik ko’nikmalarni shakllantirish bilan bir qatorda bolalarning tafakkuri, muloqot madaniyati, bilim olishga qiziqishi, faollik, mustaqillik, mehnatsevarlik, qiziquvchanlikni uyg’otishga qaratiladi [3, 4]. Yuqoridagi maqsaddan kelib chiqib, bugungi kunda xorijiy tillarni o’qitish DTSda ko’rsatilgan «A» bosqich, ya’ni boshlang’ich sinflarni o’z ichiga oladi.



Demak, xorijiy til o‘qituvchisi 1-2-3-sinflarda ta’lim jarayonida qanchalik ustalik bilan pedagogik texnologiyalardan o‘z o‘rnida, maqsadli foydalansa, dars samaradorligi yuqori bo‘ladi.

Bugungi har bir fan o‘qituvchisi o‘z fanining xususiyatidan kelib chiqib, ta’lim jarayonida turli interfaol usullardan foydalanmoqda. Ushbu maqola doirasida biz boshlang‘ich ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik texnologiyalarning turli interfaol usullaridan foydalanib, kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarning erkin fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish masalasiga qaratamiz [5, 6].

Davlat ta’lim standartida har bir sinf uchun, masalan, 1-sinf uchun 200 ta, 2-sinf uchun 250 ta so‘z va iboralarni o‘rgatish maqsadi qo‘yiladi. Bunda xorijiy til o‘qituvchisi pedagogik texnologiyalar asosida kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarda erkin fikrlash va ijodkorlik ko‘nikmalarini shakllantirishni asosiy maqsad qilib oladi.

O‘zbek pedagog olimi O‘.K.Tolipov ilg‘or pedagogik texnologiyaning markaziy muammosi o‘quvchi ijodkorligini shakllantirish orqali ta’lim maqsadiga erishishini ta’minlashdan iborat ekanligi ta’kidlab, xorijiy tillarni o‘qitishda muayyan interfaol usullarni tavsiya qiladi.

Ma’lumki, xorijiy tillarni samarali o‘qitishda turli xil interfaol usullar mavjud. Murakkab mavzularni o‘quvchilar ongiga osongina singdirish uchun pedagogik texnologiyalarning turli xil metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir [7, 8]. Masalan, «Aqliy hujum», «Klaster», «Qizil va yashil rangli kartochkalar bilan ishlash», «BBB» (bilaman, bilishni xohlayman, bilib oldim), «Venn diagrammasi» metodlari shular jumlasidandir.

Darslarni mukammal tashkil etish uchun ilg‘or pedagogik texnologiyalarni olib kirish, uni ta’lim mazmuniga singdirish, dars o‘tishning yangidan-yangi usullarini topish, davlat ta’lim standartlari talablarini bajarishga zamin yaratadi. Bunda o‘qituvchiga dars o‘tish qulay va jonli bo‘lishi uchun turli ko‘rgazmali vositalar ishlab chiqish va ulardan dars jarayonida optimal foydalanish, zamonaviy ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalanish lozim [9, 10].

O‘zbekistonlik olim, professor N.Saidahmedovning ta’kidlashicha, «hozirgi kunda o‘qituvchilar o‘qitish metodikasini ko‘p hollarda texnologiyalardan ajrata olmayaptilar». Metodika o‘tish jarayonini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha tavsiyalar majmuasidan iboratdir, metodikadan ko‘zlangan maqsad predmet mavzulariga oid nazariyalarni aniq hodisalar tekisligiga ko‘chirishdir.



Pedagogik texnologiya (PT) o‘qitish jarayonining o‘zaro bog‘liq qismlarini tashkiliy jihatdan tartibga keltirish, bosqichlarini ko‘rish, ularni joriy etish, shartlarini aniqlash, mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda belgilangan maqsadga erishishni ta‘minlaydi [11, 12]. «Yoxud, PT o‘qituvchining kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta‘limda yakuniy natijani kafolatlaydigan muolajalar yig‘indisidir.

Dars jarayonlarida o‘qituvchi o‘quvchi nutqi, mustaqil fikrlay olishi, o‘z fikrini xorijiy tilda bemalol ifoda eta olishi, yozma ish, suhbat, hikoya, mustaqil fikriga tayanishi kabi shakllariga e‘tibor berishi lozim [13, 14]. Aslida, pedagogik texnologiyalardan o‘qituvchi dars jarayonida majburiy foydalanishi mumkin emas. Ayrim o‘qituvchilar pedagogik texnologiyalar afzalliklarini o‘zlari bilmay turib, ulardan xo‘jako‘rsinga foydalanmoqchi bo‘ladilar. Holbuki, buni hech kimga keragi yo‘q.

Ilg‘or pedagogik texnologiyalar darsning mazmuni, maqsadiga qarab ishlatilsa, u ijobiy samara beradi. Bundan tashqari har bir darsdagi interfaol usullar qayta-qayta mashq qilinishi oqibatida aniq natijaga erishiladi. O‘quvchilarning zerikib qolmasligi uchun pedagogik texnologiyalardagi usullarning turlicha bo‘lishi dars samaradorligini yanada oshiradi [15, 16].

Yana shuni aytib o‘tish kerakki, dars jarayonida o‘quvchilarga xorijiy tillardan dars o‘tishda «Speak», ya‘ni «gapirmoq metodini qo‘llash mumkin. Bu metodda o‘quvchilar o‘zlarining so‘z boyligi va grammatik bilimiga tayanadilar. O‘qituvchi doskaga bitta sodda fe‘lni yozadi. O‘qituvchi tanlagan o‘quvchilar bu fe‘ldan ketma-ket sodda va murakkab gaplar tuzadilar. Bu metodni qo‘llash jarayonida o‘qituvchi o‘quvchilarning grammatik bilimi va so‘z boyligini yana bir bor sinovdan o‘tkazadi. Masalan, o‘qituvchi doskaga «go» fe‘lini yozadi. Tanlangan o‘quvchi esa uni sodda gapga aylantiradi. Masalan «I go» yoki «he goes», «go to school» va shu tariqa keyingi tanlangan o‘quvchilar bu gapni ketma-ketlikda davom ettiradilar. Bu misolni quyidagi matnda ko‘rib chiqamiz:

O‘qituvchi: - go

1. O‘quvchi: go to school
2. O‘quvchi: go to school said my father

Bu misollar ketma-ketligini ta‘minlash, eng avvalo, o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishlariga bog‘liq. Bu metodni o‘qituvchi guruhlar misolida ham qo‘llasa bo‘ladi. O‘quvchilarni o‘qituvchi ikkita guruhga bo‘lib, ularga ikkita fe‘lni doskaga

yozdiradi va har bir guruh qatnashchilari navbat bilan fe'lni gapga aylantirib, gaplar ketma-ketligini davom ettiradilar. Gaplarning grammatik jihatdan to'g'ri ishlatilganligi va so'zlarning to'g'ri yozilishi o'qituvchi tomonidan nazoratga olinadi va ular umumlashtirilib baholanadi. Eng yaxshi ko'rsatkichga ega bo'lgan o'quvchilar o'qituvchi tomonidan o'rnak qilib ko'rsatiladi va rag'batlantiriladi. Bu kabi metodlardan ko'plab misollar keltirishimiz mumkin va ulardan xorijiy til darslarida unumli foydalanilsa bo'ladi.

Bulardan kelib chiqadigan xulosa shuki, o'qituvchi o'z darsiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni qanchalik ko'p darajada olib kirsam, ularni ta'lim mazmuniga singdirib, o'z o'rnida foydalansa va o'zi ham bunday metodlarni yanada rivojlantirib, yangidan-yangi innovatsiyalar kashf qilsa, ana shundagina u ko'zlagan natijaga erishadi.

Xulosa qilib aytilganda, yurtimizning boshlang'ich ta'lim tizimi kun sari rivojlanib bormoqda. Bunda xorijiy davlat tajribalaridan foydalanish asta-sekinlik bilan o'zining ijobiy natijalarini ko'rsatib bormoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Балтамуратова А.П. Развитие творческой деятельности будущих педагогов начального образования в контексте развивающего обучения Нукус давлат педагогика институти “Fan va jamiyat” ilmiy-uslubiy jurnali 4-son/ 45-47 betlar, Нукус 2022
2. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisining kasbiy tayyorlash jarayonida ijodiy faoliyatini takomillashtirish samaradorligi TDPU “Ilmiy axborotlari” jurnali 11-son 2022
3. Baltamuratova A.P. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchisi ijodiy faoliyatining mazmuni va tuzilishi // M.Ulug'bek nomidagi UzMU “UzMU xabarlari” ilmiy jurnali, 1/1 2023 ISSN 2181-7324
4. Baltamuratova A.P. EFFICIENCY OF IMPROVING THE CREATIVE ACTIVITY OF THE FUTURE PRIMARY EDUCATIONAL TEACHER IN THE PROCESS OF PROFESSIONAL TRAINING. Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development, JIF:7.2 56–60. Retrieved from <https://www.sjird.journalspark.org/index.php/sjird/article/view/512> Berlin 10785, Germany 16 January 2023

5. Baltamuratova A.P. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchi faoliyatida pedagogik va ijodiy qobiliyat. Impact Factor: 9.2 ISSN-L: 2544-980X. Miasto Przyszłości Kielce 2022
<https://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/822/76>
6. Baltamuratova A.P. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini takomillashtirish. YOUTH, SCIENCE, EDUCATION: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS, (2022, November 28) Prague, Czech. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7370316>
7. Baltamuratova A.P. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirishda pedagogik mulqotning o‘ziga xos xususiyatlari va funksiyalari. «Zamonaviy dunyoda Innovatsion Tadqiqotlar, Nazariya Va Amaliyot» Nomli Ilmiy, Respublika Onlayn Konferensiya, Attribution 4.0 International (2022). 1(27), 138–148. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7376276>
8. Baltamuratova A.P. Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining ijodiy faoliyatini rivojlantirish «XXI asr ko‘nikmalarini ommalashtirishda talabalarning roli» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya I-qism. Jizzax shahri 18 noyabr 2022 yil
9. Балтамуратова Ақсунгул Пердебай қызы, Абдіқалиева Венера Турдіқали қызы БАСТАУЫШ МЕКТЕПТЕГІ ОҚУШЫЛАРДЫҢ ШЫҒАРМАШЫЛЫҚ ҚАБІЛЕТІН ДАМУЫТУ INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME 1 ISSUE 7 UIF-2022: 8.2 | ISSN: 2181-3337
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7295379>
10. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Формирование мобильности личности как педагогическая проблема // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 3 | ISSUE 3 | 2022 ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 384-390.
<http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20065.%20384-390.pdf>
11. Салаева М.С., Бекназарова Х.Х. Бошланғич таълим ўқувчиларини ижтимоий мобиллигини ривожлантириш // EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE Innovative Academy Research Support Center UIF = 8.2 | SJIF = 6.051 www.in-academy.uz Volume 2 Issue 4, April 2022. Pages 136-139.
<https://zenodo.org/record/6511330#.Y1G0jnZByUk>
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6511330>

12. Салаева М.С., Мамадалиева У.С. Развитие когнитивной мобильности учащихся в начальном образовании / “Хорijiy tillarni o‘qitishda yangicha yondashuvlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy onlayn anjumani. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti – T.: “Firdavs-Shoh” nashriyoti, 2022 – B. 276-281.

13. Salaeva M.S., Luxmanovna N.M. Kichik maktab yoshdagi o‘quvchilarni ijtimoiy faolligini rivojlantirish // Scientific progress. VOLUME 3 | ISSUE 3 | March, 2022. ISSN: 2181-1601. Uzbekistan www.scientificprogress.uz Pages 380-383. <http://www.scientificprogress.uz/storage/app/media/3-3.%20064.%20380-383.pdf>

14. Salaeva M.S., Shoyunusova F.S. Bola shaxsini shakllantirishda otalarning o‘rni // Международный научно-образовательный электронный журнал «ОБРАЗОВАНИЕ И НАУКА В XXI ВЕКЕ». ISSN: 2658-7998. Электронный журнал. Выпуск №24 (том 4) (март, 2022). - С.751-754. https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/a62191_0b77bb588ae44c41874c43e8211ea9a8.pdf https://www.mpcareer.ru/_files/ugd/Март%202022.%20Том%204.pdf

15. Salaeva M.S., Umirova X.S. Bola tarbiyasida oila va maktabning o‘zaro hamkorligi // Problems and scientific solutions. - Australia, Melbourne. 2022. –B. 114-123. <https://zenodo.org/record/6762227#.Y1G7dXZByUk>
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6762226>

16. Salaeva M.S., Urazova K.V. Boshlang‘ich ta‘limda o‘quv faoliyatning kichik maktab yoshidagi o‘quvchilar psixik rivojlanishiga ta‘siri / «Білім беру қызметі: инновациялық әдістер, құралдар және тәсілдер» тақырыбындағы халықаралық форум материалдары – Шымкент: «Қызмет» баспаханасы, 2022. - B.432-441. ISBN 978-601-06-8694-6

Research Science and
Innovation House



BO‘LAJAK TEXNOLOGIK TA‘LIM O‘QITUCHILARINING KASB-HUNARGA YO‘NALTIRISHDAGI MUAMMO VA YECHIMLARI

Ismailov Janibek Aktamovich

JDPU Sirtqi bo‘lim, Tabiiy va aniq fanlarda masofaviy ta‘lim kafedrası
o‘qituvchisi

Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan yuksak intellektual va ma‘naviy salohiyatga ega bo‘lib dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimizi bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.

(Sh. M. Mirziyoyev)

Annotatsiya: Ushbu maqolada 20-yanvardagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning maktablarda xorijiy tillar va kasb o‘rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo‘yicha kengaytirilgan yig‘ilishi, o‘tkazildi. Bo‘lajak texnologik ta‘lim o‘qituvchilarini kasbga yo‘naltirishda dastlabki pedagogik jarayonlar tahlil etilgan bo‘lib, bu jarayonda ularning pedagogik mahorati, kasb tanlashga oid bilim va ko‘nikmalari, vazifalari, shuningdek kasb tanlashda shaxs hislatlari, o‘quvchi psixologiyasi, o‘quvchilarni kasb tanlashga tayyorligini ko‘rsatuvchi mezonlar mazmuni va o‘sib kelayotgan yosh avlodni kasbga yo‘naltirish hamisha davlatimiz, siyosatimiz oldida turgan ustivor masalalardan sanalib kelingan. Mazkur jarayonni amalga oshirish uchun farzandlarimizning ota-onalari hamda Oliy o‘quv yurtlarining o‘rni haqida ma‘lumot berilgan.

Tayanch so‘zlar kasbiy, individual, kreativ industriya, ijtimoiy davlat.

Аннотация: В данной статье 20 января состоялось расширенное совещание Президента Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёева по вопросам развития системы иностранных языков и профессионального обучения в

школах. Проанализированы исходные педагогические процессы ориентации будущих учителей технологического образования на профессию, в этом процессе их педагогические умения, знания и умения, связанные с выбором профессии, задачами, а также особенности личности в выборе профессии. психология студентов, содержание критериев, указывающих на готовность студентов к выбору профессии, ориентация подрастающего молодого поколения на профессию всегда считались одними из приоритетных задач, стоящих перед нашим государством и политикой. В целях реализации этого процесса доведены до сведения родителей наших детей и роль высших учебных заведений.

Ключевые слова: профессионал, личность, креативная индустрия, социальное государство.

Abstract: In this article, the extended meeting of the President of the Republic of Uzbekistan Sh.M. Mirziyoyev on the issues of development of the system of foreign languages and vocational training in schools was held on January 20. The initial pedagogical processes in the orientation of future technological education teachers to the profession were analyzed, in this process their pedagogical skills, knowledge and skills related to the choice of a profession, tasks, as well as personality traits in the choice of a profession, student psychology, the content of the criteria indicating the readiness of students to choose a profession, and the guidance of the growing young generation to the profession have always been considered among the priority issues facing our state and politics. In order to implement this process, parents of our children and the role of higher educational institutions have been informed.

Key words: professional, individual, creative industry, social state.

Jahonning rivojlangan davlatlari qatori mamlakatimizda ham ta'limdagi islohotlar jarayonida mustaqil ta'limni rag'batlantirish muhim yo'nalish sifatida kelmoqda. Pedagogning kasbiy layoqatlilikini tarbiyalash fenomenini tadqiq qilishga bir qator olimlarning ishlarida o'z ifodasini topgan. Bu mualliflar kasbiy layoqatlilik – ishonchlilik sifatleri bilan birgalikda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy – individual hodisa sifatida pedagogik madaniyatini tavsiflaydi degan fikrlar bilan bir qatorda jamiyatda ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik yo'nalishi hamda turli sohalarida maqsadli mustaqil faoliyati asosida uning intellekt va ahloqiy rivojlanib kelmoqda.

Bunga yaqqol misool joriy yilning 20 yanvar kuni maktablarda xorijiy tillar va kasb o'rgatish tizimini rivojlantirish masalalari bo'yicha kengaytirilgan yig'ilish o'tkazildi.

Prezidentimiz xalqimizga Murojaatnomasida “ijtimoiy davlat” tamoyiliga alohida e'tibor qaratgan edi. Aynan aytganda, “Ijtimoiy davlat bu, eng avvalo, inson salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun teng imkoniyatlar, odamlar munosib hayot kechirishiga zarur sharoitlar yaratish, kambag'allikni qisqartirish, demakdir”deb alohida ta'kidlab o'tdi.

Bunga erishishning asosi, birinchi navbatda, ta'lim. Shu bois Murojaatnomada maktab o'quvchilarini kamida ikkita xorijiy til va bitta kasb-hunarga o'rgatish ustuvor vazifa etib belgilangan edi.

So'nggi yillarda ta'limga, o'qituvchilarga e'tibor oshdi, oliy ta'limda qabul kvotalar soni va yo'nalishlar ko'paydi. Albatta bu maktablardagi sifatli ta'limni oshirishga udaydi. Endi 11 yil maktabda o'qigan bola ikkita chet tilini mukammal o'rganib yaratilgan imkoniyatlardan oqilona foydalansa kelajakda yetuk mutaxassislar erishamiz. Bu esa maktab bitiruvchilarining 50 foizi mehnat bozoriga hech qanday kasbga ega bo'lmasdan kirib kelishini oldi olinib kasblarni ruvojlantirishga olib keladi natijada kasb egallagan yoshlar soni ortib, davlatimiz iqtisodiyotining rivoji jadallashadi.

Shu bois yig'ilishda xorijiy tillarni o'qitish sifatini oshirish va o'quvchilarni kasbga yo'naltirish masalalari muhokama qilindi.

– Maktabdan kasb va tilni bilib chiqqan bola jamiyatimizning katta yutug'i, bilmagani muammo, – dedi Shavkat Mirziyoev.

Bu tajribani joriy etish uchun har bir viloyatdan bittadan shahar va ikkitadan tuman tanlab olingan. Ulardagi 2 mingdan ortiq maktablarning sharoiti, pedagoglar malakasi, o'quvchilarning kasb-hunar va xorijiy tillarga qiziqishi o'rganilgan.

Endi tuman va mahallalarning xususiyatidan kelib chiqib, o'quvchilar maktabning o'zida 64 xil ishchi kasblarga o'rgatilishi ko'zda tutilmoqda.

Shuningdek, o'quvchilarni axborot texnologiyalari va “kreativ industriya” bo'yicha zamonaviy kasblarga o'rgatish muhimligi ta'kidlandi.

Yig'ilishda viloyat hokimlari tanlangan maktablar misolida xorijiy tillar va kasb o'rgatishni rivojlantirishga oid rejalar yuzasidan axborot berdi.

Ma'lumki, har qanday jamiyatning ravnaqi, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy barqarorligi uning fuqarolarining aqliy jihatdan yetukligi va axloqiy salohiyatining



yuksak darajada rivojlanganligiga bog‘liq. Asrlar davomida saqlanib kelinayotgan xalqning boy intellektual merosi hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida madaniyat, ma’rifat, fan-texnologiya va iqtisodiyotning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o‘tgan kadrlarni tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish O‘zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir.

Kasblar bo‘yicha birlamchi bilim, ko‘nikmalarni shakllantirish uchun professional tashxislash va kasb-hunarga yo‘naltirish bo‘yicha choralar amalga oshirilmoqda. Bu borada respublikamizda “O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis markazi” tashkil etilgan. Bu markaz O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarida ko‘zda tutilgan jamiyat ehtiyoji va mehnat bozori talablari asosida o‘quvchilarning o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va sog‘liqlariga mos bo‘lgan kasb-hunarlarni tanlashlariga ko‘maklashadi. Ushbu markaz o‘quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis sohasidagi yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va o‘rnatilgan tartibga amalga oshirilmoqda.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tishimiz joizki yoshlarimizni to‘g‘ri kasbga yo‘naltirish, bu kasbiy o‘zini o‘zi aniqlashga yordam berishga qaratilgan tadbirlar tizimidir.

Bo‘lajak texnologiya ta’lim o‘qituvchilari kasbga yo‘naltirish maqsadi — shaxsning ma’lum bir kasbiy faoliyat yo‘nalishiga moyilligini aniqlashga yordam beradi. Bu esa har bir bola iste’dodli va ma’lum bir sohada o‘z iste’dodini tatbiq eta oladi degan fikrga asoslanadi. Kasbga yo‘naltirishning turli xil usullari mavjud — kelajakdagi kasbni tanlashda duch keladigan o‘spirin bilan, uning qiziqishlari va sevimli mashg‘ulotlarini muhokama qiladigan mutaxassislar bilan suhbatlar, shuningdek, standartlashtirilgan usullar mavjud, ularning natijalari kuchli va zaif tomonlarini tushunishga imkon beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish boyicha, harakatlar strategiyasi to‘g‘risida” gi
2. G‘oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O‘zMU, 2003.
3. Qodirov M. E. Texnologiya fanini mazmunan modernizatsiyalash hamda sifat va samaradorligini oshirish usullari// Respublika ilmiy-amaliy onlayn konferensiya. 158-161 bet.

Similar fates

Yuldashova Umidaxon Toshbotir qizi
Student, Tashkent Pedagogical University
Uzbekistan
umidayuldoshova961@gmail.com
Scientific Supervisor: Safarova Mahliyo

Abstract:the article highlights the similarity and differences between the two works. Which are rare works of fiction and leave a deep impression on the heart of every reader.

The article about "Oliver Twist" and "David Copperfield" by Charles Dickens explore comparable themes and situations, although they diverge in terms of character development and narrative structure. Both books explore the harsh reality of Victorian England, highlighting the struggles and social inequalities that the lower classes had to deal with. But if "Oliver Twist" mostly addresses the underbelly of crime and the fate of orphans, "David Copperfield" adopts a more expansive stance, covering a greater spectrum of people and situations. The main plot of "Oliver Twist" revolves around Oliver's journey from the workhouse to his final redemption, and the narrative moves more quickly and linearly overall. The tension and intrigue of Oliver's discovery of his true identity and his confrontation with Bill Sikes and the evil Fagin drive the plot of the book.

However, "David Copperfield" follows the protagonist across several decades and has a more episodic structure. The book is structured into three main sections, each of which reflects a separate stage in David's growth and development. This makes it possible to examine David's personality and interpersonal interactions in greater detail. Both books do a fantastic job of developing characters who are both memorable and nuanced. Dickens offers a panoply of fantastical characters in "Oliver Twist," including Nancy, the Artful Dodger, and Fagin. These characters, who range from the cunning criminal to the endearing misfit, represent many facets of society. On the other hand, "David Copperfield" presents a more complex picture of its characters, emphasizing their internal conflicts and personal development.

Throughout the course of the book, David experiences a profound metamorphosis, growing from a helpless infant to a responsible adult. The lovable Agnes Wickfield and the eccentric Mr. Dick are two examples of the supporting characters who go through personal growth. Themes like poverty, injustice, and the power of love are present in both books, although "Oliver Twist" leans more toward highlighting the negative sides of society and human nature. It highlights the glaring gap between the rich and the poor and exposes the cruelty and corruption of Victorian England. Alternatively, "David Copperfield" presents a more positive and upbeat viewpoint, stressing the significance of individual development, tenacity, and forgiveness.

In summary, two beloved Charles Dickens novels—"Oliver Twist" and "David Copperfield"—have comparable topics and settings but distinct narrative arcs and character arcs. "David Copperfield" provides a more comprehensive examination of a variety of personalities and events, whereas "Oliver Twist" concentrates on the predicament of orphans and the criminal underworld. Both books do a great job of developing enduring characters, but "David Copperfield" David is distinguished by its subtle depiction of personal development and atonement. In the end, both books enthrall readers with their captivating stories and provide insightful analyses of the complexity of human nature.

References:

1. https://en.m.wikipedia.org/wiki/Oliver_Twist.
2. https://en.m.wikipedia.org/wiki/David_Copperfield
3. [https://en.m.wikipedia.org/wiki/David_Copperfield_\(character\)](https://en.m.wikipedia.org/wiki/David_Copperfield_(character))

Research Science and Innovation House

Ma'lumotlarga egalik va foydalanuvchi huquqlari: ijtimoiy platformalarda baham ko'rilgan shaxsiy ma'lumotlar kimga tegishli?

Mahliyo TO'RABOYEVA

Toshkent davlat yuridik universiteti
Ommaviy axborot vositalari huquqi
yo'nalishi magistri

Annotatsiya

Ushbu maqolada ma'lumotlarga egalik va foydalanuvchi huquqi bilan bog'liq masalalar, xususan, turli ijtimoiy tarmoqlarning foydalanuvchilar huquqlari bilan bog'liq siyosati qiyosiy holda o'rganiladi. Shu yo'nalishdagi qonunchilikning ahamiyati va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishga oid huquqiy mexanizmlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy tarmoq, foydalanuvchi huquqlar, maxfiylik siyosati, kiberxavfsizlik, "Facebook", "Instagram", "Twitter", "TikTok"

Annotation

In this article, issues related to data ownership and user rights, in particular, the policies of different social networks related to user rights, are studied in a comparative manner. The importance of the legislation in this direction and the legal mechanisms related to the protection of personal data are analyzed.

Keywords: social network, user rights, privacy policy, cyber security, "Facebook", "Instagram", "Twitter", "TikTok"

Kirish

Bugungi raqamli jamiyatda ma'lumotlar har bir sohada katta aktivga aylandi. Ma'lumotlarga egalik qiladigan shaxs yoki kompaniyada strategik jihatdan boshqaruv kuchi paydo bo'ladi. Turli bazalarda fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlari hajmi ko'payib borayotgani bilan ma'lumotlarga egalik va foydalanuvchi huquqlari tushunchalari, fuqarolarning shaxsiy daxlsizligini himoya qilish masalalari raqamli huquqning eng bosh mavzusiga aylanyapti. Shaxslar yoki kompaniyalar qo'lida to'planayotgan ma'lumotlar shaxsiy daxlsizlik, foydalanuvchilarning huquqlarini



qonuniy himoya va nazorat qilish, ma'lumotlardan qanday foydalanish, almashish va saqlash bilan bog'liq juda masalalarni ko'rib chiqish zaruratini yaratadi.

Ma'lumotlarga egalik huquqlari, ayniqsa, juda ko'pchilik insonlar o'z shaxsiy ma'lumotlarini ochiq baham ko'radigan ijtimoiy platformalar kontekstida juda dolzarb. Ochiq ijtimoiy platformalarda baham ko'rilgan ma'lumotlarning egasi kimligi va foydalanuvchilar o'z ma'lumotlariga nisbatan qanday huquqlarga egaligi haqidagi savollar omma uchun qiziq. Maqolada ma'lumotlarga egalik va foydalanuvchi huquqlari bilan bog'liq tushunchalarni xalqaro va milliy qonun hujjatlaridan kelib chiqib o'rganiladi hamda ushbu tushunchalar atrofidagi huquqiy, axloqiy va ijtimoiy ta'sirlarni ko'rib chiqiladi. Mavjud me'yoriy-huquqiy bazalar, ijtimoiy platformalarning xizmat ko'rsatish shartlari o'rganiladi. Raqamli muhitda ulashilayotgan ma'lumotlar uchun mas'uliyatni oshirish va ularning ustidan nazorat o'rnatish, foydalanuvchi huquqlarini himoya qilish bugungi kunda juda muhim masala hisoblanadi.

Sizningcha, dunyoni hozir qaysi soha boshqaryapti? Siyosatmi, iqtisodiyotmi, ijtimoiy, balki madaniy soha? Menimcha, bugun nafaqat ijtimoiy munosabatlarni, balki butun dunyoni axborot texnologiyalari - raqamlashtirish sohasi boshqaryapti. Raqamlashtirish istalgan masofada aloqa o'rnatadi, korxonada mahsulot ishlab chiqaradi, pullaringizni boshqaradi, samolyotingizni uchiradi, chirog'ingizni yoqadi, internetga ulaydi, davlat bilan xat-hujjatingizni osonlashtiradi, bolangizni tug'ilgandan boshlab bog'chaga ro'yxatga qo'yadi, ishxonada qog'ozingizni kamaytiradi, do'kondan xaridingizni keltirib beradi, tarmoqlarda sizning virtual hayotingizni yaratadi. Va eng muhimi, raqamlashtirish odamni, jamiyatni, davlatni taraqqiyotga olib chiqadi. Bu soha dunyoning boy davlatida yashaysizmi yoki kambag'al, imkoniyatlaringizni tenglashtiradi, chunki u sizni global dunyoning barcha xizmatlariga bog'lab beradi. Dunyo allaqachon raqamlashtirish poygasini boshlab bo'lgan.

Usullar

Maqola davomida ijtimoiy platformalar misolida shaxsga doir ma'lumotlar, foydalanuvchi huquqlariga nisbatan ta'siri ko'rib chiqiladi. Bugungi kunda dunyo bo'ylab 5.16 milliard aholi internetdan foydalanish imkoniyatiga ega. Shulardan naq



4.76 milliard qismi ijtimoiy platformalardan doimiy foydalanadi.¹ O‘zbekistonda esa bu raqamlar 31 millionni tashkil qiladi. Bu raqamlarning eng yirik ijtimoiy tarmoqlar misolida bo‘lingandagi ko‘rsatkichlari quyidagicha: “Telegram” - 30.6 mln, “Odnoklassniki”da - 18 mln, “Facebook” - 7.6 mln, “Instagram”da - 7.1 mln, “Vikipediya”da - 1,4 mln, “Linkedin” - 528 ming, “X“(sobiq Twitter)”da - 148 ming foydalanuvchini tashkil etadi.

Ijtimoiy tarmoqlarning maxfiylik siyosati foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishda muhim rol o‘ynaydi. Lekin odatda buni ijtimoiy tarmoq foydalanuvchilari e’tiborsiz qoldirishadi. Deyarli barcha tarmoqlar o‘z maxfiylik siyosatini o‘z qiziqishlaridan kelib chiqib, ma’lum muddatda yangilab turadi. Keling, ikkita mashhur ijtimoiy tarmoqni – “Facebook” va “X(sobiq “Twitter”)ni maxfiylik siyosati nuqtai nazaridan taqqoslaylik.

“Facebook” to‘plangan ma’lumotlarning keng doirasini, jumladan, shaxsiy ma’lumotlarni, foydalanuvchilar ilovada baham ko‘radigan ma’lumotlarni va hatto oflayn faollik ma’lumotlarini qamrab oladigan juda keng maxfiylik siyosatiga ega. Ular ushbu ma’lumotlardan reklamani shaxsiylashtirish va foydalanuvchi tajribasini yaxshilash uchun foydalanadilar. “Facebook” shuningdek, o‘zgaruvchan qonuniy talablarga rioya qilish uchun o‘zining maxfiylik siyosatini muntazam yangilab turadi.²

“X” (Twitter”) ham o‘zining maxfiylik siyosatiga ega, biroq u ko‘proq foydalanuvchilar o‘z tvitlari, xabarlari va profillarida baham ko‘radigan ma’lumotlarga e’tibor qaratadi. “X” foydalanuvchilarning shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishni va’da qiladi va ularni faqat o‘z siyosati ruxsat bergan holda baham ko‘radi.³

Ikkala ijtimoiy tarmoq ham o‘z xizmatlarini yaxshilash va shaxsiylashtirilgan kontent reklamalarini taqdim etish uchun foydalanuvchilar haqida ma’lumot to‘playdi, biroq ular bu ma’lumotlarni to‘plash va ishlatishda turlicha yondashuvlarga ega. Shaxsiy ma’lumotlardan foydalanishda xavfsizlik va shaffoflik ikkala ijtimoiy platformaning maxfiylik siyosatining muhim jihatlari hisoblanadi.

¹ <https://business-shark.ru/blog/aktualnaya-statistika-interneta-i-sotssetey-za-proshedshiy-god-ot-global-digital-2023/#>

² <https://www.facebook.com/privacy/policy/>

³ <https://twitter.com/en/privacy>

Yana bir eng ko‘p foydalaniladigan tarmoqlardan biri bu – “Telegram”. “Telegram” ning maxfiylik siyosati o‘z shaxsiy ma’lumotlarini himoya qilishni qadrlaydigan foydalanuvchilar uchun ushbu messenjerni jozibador qiladigan qator funksiyalarga ega.⁴ Mana bir nechta asosiy jihatlar:

1. Ma’lumotlarni shifrlash: Telegramda uchinchi shaxsdan shifrlash qo‘llaniladi, ya’ni faqat jo‘natuvchi va qabul qiluvchi xabarlarini o‘qiy oladi. Telegram ham, boshqa tomonlar ham xabarlar mazmuniga kirish huquqiga ega emas.

2. O‘z-o‘zini yo‘q qilish xabarlarini: Foydalanuvchilar xabarlar uchun o‘z-o‘zini yo‘q qilish taymerini o‘rnatishi mumkin, bu o‘qilganidan keyin ma’lum vaqtdan keyin chatdan o‘chirilishini ta’minlaydi.

3. Anonim rejim: Telegram foydalanuvchilarga shaxsiy ma’lumotlarini oshkor qilmasdan muloqot qilish imkonini beruvchi anonim chatlar variantini taqdim etadi.

4. Xavfsiz chatlar: Telegram’da xabarlarini yanada shifrlaydigan va ulardan faqat chat ishtirokchilari uchun ochiq bo‘ladigan Xavfsiz suhbatlar funksiyasi mavjud.

5. Reklamasiz: Kompaniya maqsadli reklama uchun foydalanuvchi ma’lumotlaridan foydalanmasligini aytadi, ya’ni chat kontenti platformadagi reklamalarni shaxsiylashtirish uchun ishlatilmaydi.

Maxfiylik siyosatini alohida o‘rganib chiqish kerak bo‘lgan yana bir ijtimoiy tarmoq bu - “Tik tok”. TikTok - bu ijtimoiy tarmoq sifatida niqoblangan ma’lumotlar yig‘ish xizmati". Hind dasturchilarining ta’kidlashicha, TikTok quyidagilarni yig‘adi: Ismlar (haqiqiy), manzillar, parollar, telefon raqamlari, tug‘ilgan sanalari; Telefondagi boshqa ilovalar, jumladan, o‘chirilgan ilovalar haqida ma’lumot; Internet faoliyatidan foydalanish haqida ma’lumot; Foydalanuvchining joylashuvi (har 30 soniyada yangilanadi).

Bundan tashqari, Android versiyasida masofaviy serverdan foydalanuvchi qurilmasiga faylni yuklab olish imkonini beruvchi kod parchalari borligi xabar qilingan. "Hech bir mobil ilovaga bunday funksiya kerak emas", deb yozadi “Bangorlol” postda.

Aytgancha, bu Tiktok ishiga shubha tug‘diradigan yagona yangilik emas. Talal Haj Bakri va Tommi Mysk tomonidan bir necha oy oldin o‘tkazilgan tadqiqotda

⁴ <https://telegram.org/privacy/uz>



TikTok Pasteboard-da parollar, kripto hamyonlar, kredit karta raqamlari, manzillar va shaxsiy xabarlarni o‘z ichiga olishi mumkin bo‘lgan maxfiy ma‘lumotlarni kuzatib boradigan 54 ta iOS ilovalariga kiritilgan. Apple qurilmalarida ma‘lumotlar matndan nusxa ko‘chirish va joylashtirishda yoki sudrab olib tashlash jarayonida Pasteboardga tushadi. Tadqiqot nashr etilgandan so‘ng, TikTok muammoni allaqachon hal qilganini da‘vo qilgan.⁵

“TikTok” iOS va Android‘da milliardlab smartfon egalarini yashirincha kuzatib boradi. Kiberxavfsizlik bo‘yicha mutaxassislar iOS va Android uchun “TikTok” ilovasida foydalanuvchilarga josuslik qilish uchun yashirin vositalarni topdi. U ularning shaxsiy ma‘lumotlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri kirish huquqini qo‘lga kiritadi, manba kodini Google va Apple auditlaridan yashiradi va foydalanuvchilarning noyob qurilma identifikatorlarini reklama bo‘yicha hamkorlari bilan baham ko‘radi. Ilova esa butun dunyodan milliardlab odamlar tomonidan yuklab olingan. Juda xavfli va o‘ta mashhur dastur - TikTok ilovasi uni o‘rnatgan har bir kishi uchun juda xavfli bo‘lishi mumkin, deb yozadi TheWrap portali. Nomi oshkor etilmagan oq shapkali xakerlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, ijtimoiy tarmoqning mobil yordam dasturi Google Play va Apple App Store do‘konlaridagi xavfsizlik mexanizmlarini chetlab o‘tishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, Xitoyning ByteDance kompaniyasi, TikTok ishlab chiqaruvchisi ilovaga Apple va Google do‘konlarida kod tekshiruvlarini chetlab o‘tish algoritmini o‘rnatdi. Unga nima uchun bu kerakligi haqida hali aniq ma‘lumot yo‘q, ammo dasturning hujjatsiz funktsiyalari shu bilan tugamaydi. TheWrap‘ning yozishicha, TikTok ilovasi brauzerni taqlid qilishi mumkin, bu esa uning kodini tekshirish jarayonini murakkablashtiradi. Bundan tashqari, yashirin algoritmlar ByteDance-ga qurilma xotirasidagi barcha foydalanuvchi ma‘lumotlariga to‘liq kirish imkonini beradi. Zararsiz ko‘rinadigan ilova xavfli kuzatuv usullarini yashiradi.

TikTok ilovasining foydalanuvchilarga, ishlab chiquvchilarga ko‘ra, bilishi shart bo‘lmagan bunday noodatiy xususiyatlari bo‘yicha tadqiqotlar 2020-yil noyabr va 2021-yil yanvar oylarida o‘tkazilgan. ByteDance vakillari ularning natijalari e‘lon qilinishiga hech qanday munosabat bildirishmagan, ya‘ni ekspert xulosalarini na inkor etdilar, na tasdiqladilar. Nazariy jihatdan, ByteDance butun dunyo bo‘ylab

⁵ <https://vc.ru/social/139163-tiktok-shpion-ili-proryv-goda>



milliardlab odamlarning ma'lumotlariga kirish huquqiga ega bo'lishi mumkin. Birgina Google Play'da TikTok ilovasi olti yarim yil ichida (2015-yil sentabr oyidan beri) 1 milliard martadan ortiq yuklab olingan. Apple bunday statistikasi taqdim etmaydi. Biroq, App Store'ning rus segmentida TikTok Entertainment kategoriyasida birinchi o'rinda, Amerika segmentida esa uchinchi o'rinda turishi vaziyat jiddiy ekanini ko'rsatyapti. Ehtimol, tadqiqot o'tkazilgandan keyin bir necha oy ichida TikTok ishlab chiquvchilari dastur kodiga ba'zi o'zgarishlar kiritgan bo'lishi mumkin. Biroq, mashhur dasturda bunday tajovuzkor kuzatuv usullari mavjudligi haqiqati hech bo'lmaganda foydalanuvchilarni ogohlantirishi kerak.

TheWrap bilan suhbatlashgan axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislarining ta'kidlashicha, TikTok ilovasi va umuman butun ijtimoiy tarmoq foydalanuvchi qurilmalari va ularning faoliyatini kuzatish uchun ancha kengroq vositalardan foydalanadi. Ular Xitoy loyihasini amerikalik Facebook va Twitter bilan taqqoslab, ikkinchisi foydalanuvchilarni kuzatishda ancha faol emasligini aytishdi.

TikTok-da mashhurlik bilan bog'liq muammolar yo'q. TikTok foydalanuvchi ma'lumotlarini boshqarish usuli ham axborot xavfsizligi bo'yicha mutaxassislarni chalg'itadi. Shunday qilib, ijtimoiy tarmoq undan reklama sotib olgan sheriklariga noyob qurilma identifikatorlaridan foydalanish imkoniyatini bajonidil taqdim etadi. Bu nafaqat TikTok, balki minglab reklama beruvchilar ham foydalanuvchilarni kuzatishi mumkinligini anglatadi. Bundan tashqari, TikTok ilovasi ByteDance tomonidan ishlab chiqilgan ko'plab kutubxonalar bilan bog'langan bo'lib, ularga uchinchi tomon dasturchilari kirish imkoniga ega emas. Bu shuningdek, dasturiy ta'minot xavfsizligi auditini murakkablashtiradi va mualliflarga uni tobora ko'proq yangi kuzatuv tizimlari bilan to'ldirishga imkon beradi. Milliardlab odamlarning ongida iOS platformasi asosan yopiq tabiati tufayli Android-ga qaraganda xavfsizroq degan fikr uzoq vaqtdan beri mustahkam o'rnashib qolgan. Biroq, TikTok holatida bu mutlaqo to'g'ri bo'lmasligi mumkin. Tadqiqot natijalariga ko'ra, TikTok'ning iOS versiyasida Android ilovasida qo'llanilganidan farqli bo'lgan videoplearning moslashtirilgan versiyasidan foydalaniladi. Tadqiqot mualliflari, bu dasturning umumiy barqarorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar, ammo u xavfsizlikka xavf tug'dirishi mumkin.

TikTok ning mashhurligi ko'plab raqobatdosh xizmatlarning, shu jumladan mavjud platformalar asosidagi xizmatlarning paydo bo'lishiga ta'sir qilmay qolmadi. Misol uchun, ilgari Facebook nomi bilan mashhur bo'lgan Meta Instagram



ijtimoiy tarmog‘iga Reels qisqa video xizmatini birlashtirdi. Google YouTube bilan ham xuddi shunday qildi, endi u Shorts deb nomlangan 15 soniyalik qisqa videolarni yuklash funksiyasiga ega. Ommabop tendensiyaga intilish (qisqa va har doim ham foydali bo‘lmagan videolar) VK xoldingiga (sobiq Mail.ru Group) tegishli VKontakte ijtimoiy tarmog‘i o‘zining TikTok analogini ishga tushirdi. 2021-yil sentabr oyi oxirida, CNews xabar berishicha, Yandex ilovasida ham qisqa videolarni yozib olish funksiyasi paydo bo‘ldi.⁶

Natijalar

Tadqiqotga qo‘yilgan savollardan kelib chiqib, yuqoridagi masalalarni tartibga soluvchi qonun va qonunosti hujjatlarni, xalqaro normalarni va xorijiy tajribadan olingan ma‘lumot va kuzatuvlarning natijalari bilan bo‘lishsak. O‘zbekiston qonunchiligida ushbu masalalar “Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi, “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi, “Axborotlashtirish tog‘risida”gi, shuningdek, “Ma‘muriy javobgarlik tog‘risida”gi Kodeks va Jinoyat kodeksi bilan tartibga solinadi. Xususan, Jinoyat kodeksining 46-moddasi, ikkinchi qismi shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risidagi qonunchilikni buzish bilan bog‘liq unga ko‘ra, shaxsga doir ma‘lumotlarni qonunga xilof ravishda yig‘ish, tizimlashtirish, saqlash, o‘zgartirish, to‘ldirish, ulardan foydalanish, ularni berish, tarqatish, uzatish, egasizlantirish va yo‘q qilish, xuddi shuningdek axborot texnologiyalaridan foydalangan holda, shu jumladan Internet jahon axborot tarmog‘ida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining shaxsga doir ma‘lumotlariga ishlov berilayotganda jisman O‘zbekiston Respublikasi hududida joylashgan texnik vositalarda hamda Shaxsga doir ma‘lumotlar bazalarining davlat reyestrda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazilgan shaxsga doir ma‘lumotlar bazalarida shaxsga doir ma‘lumotlarni yig‘ishga, tizimlashtirishga va saqlashga oid talablarga rioya etmaslik, — fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yetti baravari, mansabdor shaxslarga esa — ellik baravari miqdorida jarima solishga sabab bo‘ladi.⁷ Shuningdek, foydalanuvchi ma‘lumotlari va huquqlari yana bir qancha qonun hujjatlari bilan himoyalangan.⁸

“Shaxsga doir ma‘lumotlar to‘g‘risida”gi qonun shaxsiy ma‘lumotlarni to‘plash, saqlash, ulardan foydalanish va oshkor qilishni tartibga soladi, shaxsiy

⁶ [TikTok скрытно следит за миллиардами владельцев смартфонов на iOS и Android - CNews](#)

⁸ <https://lex.uz/acts/-111453>



ma'lumotlarni qayta ishlashda tashkilotlar va jismoniy shaxslar uchun qoidalarni belgilaydi va ma'lumotlar subyektlariga ularning ma'lumotlarini himoya qilish va ulardan foydalanish huquqini beradi.⁹

“Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonun Internet tarmog‘ida shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishni tartibga soladi, onlayn savdo uchun ma'lumotlarni himoya qilish va maxfiylik talablarini belgilaydi hamda foydalanuvchilarga shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va nazorat qilish huquqini beradi.¹⁰

“Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi qonun –axborot va axborot xavfsizligi sohasidagi umumiy tamoyillar va qoidalarni, shu jumladan, inson va fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlariga ishlov berish va ulardan foydalanishda huquq va erkinliklarini himoya qilishning huquqiy kafolatlarini ta'minlaydi. Ushbu qonunlar foydalanuvchilarga o‘z shaxsiy ma'lumotlarini himoya qilish va nazorat qilish bo‘yicha asosiy huquqlarni beradi va tashkilotlar uchun ma'lumotlarning maxfiyligi va xavfsizligini ta'minlash bo‘yicha mas'uliyatni belgilaydi.¹¹

Xulosa

Mavzudagi savolga qaytsak. Xo‘sh, ijtimoiy tarmoqlarda baham ko‘rilgan ma'lumotlar aslida kimga tegishli bo‘lishi kerak? Ijtimoiy platformalarda baham ko‘rilgan ma'lumotlarga egalik huquqi alohida mamlakatlar va mintaqalar qonunlariga, shuningdek, xalqaro shartnomalar va qoidalarga bo‘ysunadi. Biroq, ko‘p hollarda, ijtimoiy platformalarning xizmat ko‘rsatish shartlari va maxfiylik siyosati odatda ularning egalik huquqini yoki o‘z platformalarida baham ko‘rilgan ma'lumotlardan foydalanish huquqlarini tasdiqlaydi.

Xalqaro nuqtai nazardan, Yevropa Ittifoqidagi umumiy ma'lumotlarni himoya qilish to‘g‘risidagi reglament (GDPR) ma'lumotlarga egalik va maxfiylik huquqlariga sezilarli ta'sir ko‘rsatdi. GDPRga muvofiq, shaxslar o‘zlarining shaxsiy ma'lumotlari ustidan ko‘proq nazoratga ega va kompaniyalar shaxsiy ma'lumotlarni to‘plash va ulardan foydalanish uchun aniq rozilik olishlari kerak. Bu Yevropa Ittifoqida faoliyat yurituvchi ijtimoiy platformalar va jismoniy joylashuvdan qat'i nazar, ijtimoiy platformalardan foydalanadigan Yevropa Ittifoqi fuqarolari uchun ta'sir ko‘rsatadi.¹²

⁹ <https://lex.uz/docs/-4396419>

¹⁰ <https://lex.uz/docs/-6213382>

¹¹ <https://lex.uz/docs/-83472>

¹² <https://gdpr.eu/what-is-gdpr/#:~:text=The%20General%20Data%20Protection%20Regulation,to%20people%20in%20the%20EU.>

Xuddi shunday, Amerika Qo‘shma Shtatlarida ijtimoiy platformalarda baham ko‘rilgan ma‘lumotlarga egalik ko‘pincha platforma operatorlari tomonidan belgilangan xizmat ko‘rsatish shartlari va maxfiylik siyosati bilan tartibga solinadi. Shu bilan birga, ma‘lumotlarning maxfiyligi va egaligi bilan bog‘liq munozaralar va huquqiy munozaralar davom etmoqda, ayniqsa ma‘lumotlarning yuqori darajadagi buzilishi va shaxsiy ma‘lumotlardan noto‘g‘ri foydalanish bilan bog‘liq xavotirlar fonida.

Xalqaro maydonda shaxsiy ma‘lumotlarning ijtimoiy platformalar tomonidan mas‘uliyatli va oshkora ishlov berilishini ta‘minlash uchun ma‘lumotlarni himoya qilish qonunlarini uyg‘unlashtirish zarurligi, ayniqsa internet va ijtimoiy mediadan foydalanishning global tabiatini hisobga olgan holda muhokamalar davom etmoqda.

Shuni ta‘kidlash kerakki, ma‘lumotlarga egalik qilish va shaxsiy daxlsizlik huquqlarining huquqiy asoslari va talqini rivojlanishda davom etmoqda va shaxslar ijtimoiy platformalardan foydalanishlari va shaxsiy ma‘lumotlar almashishlariga nisbatan qo‘llaniladigan qonunlar va qoidalardan xabardor bo‘lishlari kerak.

Foydalanilgan manbalar ro‘yxati

1. <https://business-shark.ru/blog/aktualnaya-statistika-interneta-i-sotssetey-za-proshedshiy-god-ot-global-digital-2023/#>
2. <https://www.facebook.com/privacy/policy/>
3. <https://twitter.com/en/privacy>
4. <https://telegram.org/privacy/uz>
5. <https://vc.ru/social/139163-tiktok-shpion-ili-proryv-goda>
6. [TikTok скрытно следит за миллиардами владельцев смартфонов на iOS и Android - CNews](#)
7. <https://lex.uz/acts/-11145>
8. <https://lex.uz/docs/-4396419>
9. <https://lex.uz/docs/-6213382>
10. <https://lex.uz/docs/-83472>
11. ¹ <https://gdpr.eu/what-is-gdpr/#:~:text=The%20General%20Data%20Protection%20Regulation,to%20people%20in%20the%20EU.>

Changlar, ularning turlari va asosiy xossalari

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yoʻnalishi 2- bosqich 202- guruh talabasi Tursunova Nasibaxon**

Annotasiya: Atmosfera havosi yoki gaz tarkibida qattiq modda (metall, minerallar, tuproq, yogʻoch va b.q.) zarrachalarining mavjud boʻlishiga chang deb ataladi. Chang zarrachalarining oʻlchami 5 - 10 mkm atrofida boʻlishi mumkin.

Abstract: The presence of particles of solid matter (metal, minerals, soil, wood, etc.) in atmospheric air or gas is called dust. The size of dust particles is It can be around 5-10 μm .

Аннотация: Присутствие в атмосферном воздухе или газе частиц твердых веществ (металла, минералов, почвы, дерева и др.) называется пылью. Размер частиц пыли равен Это может быть около 5-10 мкм.

Kalit soʻzlar: metall, minerallar, tuproq, tabiiy chang, sunʼiy chang, yonuvchi chang, organik chang, zaharli chang, anorganik chang, portlatuvchi chang.

Key words: metal, minerals, soil, natural dust, artificial dust, combustible dust, organic dust, toxic dust, inorganic dust, explosive dust.

Ключевые слова: металл, полезные ископаемые, почва, природная пыль, искусственная пыль, горючая пыль, органическая пыль, токсичная пыль, неорганическая пыль, взрывоопасная пыль.

Atmosfera havosi yoki gaz tarkibida qattiq modda (metall, minerallar, tuproq, yogʻoch va b.q.) zarrachalarining mavjud boʻlishiga chang deb ataladi. Chang zarrachalarining oʻlchami 5 - 10 mkm atrofida boʻlishi mumkin. Ularning oʻlchami qancha kichik boʻlsa, nafas olish yoʻllari, burun, koʻz, quloq, ogʻiz boʻshligʻidagi shilliq pardalar orqali hamda teridagi yarachalar orqali organizmga singib borishi shuncha oson boʻladi, natijada turli kasalliklar kelib chiqishi mumkin. Changlar tabiati va kelib chiqishiga koʻra 2 guruhga boʻlinadi.

1. Tabiiy changlar. Inson, oʻsimliklar va hayvonot olamida paydo boʻladigan changlar, koinot changlari, vulqonlarning otilishi va zilzila natijasida paydo boʻladigan changlar inson faoliyatiga bogʻliq emas. Shuning uchun ularga tabiiy changlar deb ataladi.



2. Sun'iy changlar. Sanoat korxonalari, qurilish, transport, energetika, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda inson faoliyati natijasida paydo bo'ladigan changlar. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, hozirgi paytda tabiiy atrofmuhitning tabiiy changlar bilan ifloslanishiga nisbatan, uning sun'iy changlar bilan ifloslanishi jadallashib bormoqda. Kimyoviy va mineralogik tarkibiga ko'ra changlar quyidagi 5 ta asosiy guruhlarga bo'linadi.

1. Organik changlar. Bu guruhga yog'och, paxta, pilla, teri, qog'oz, plastmassa, turli o'simliklar va ulami qayta ishlash paytida paydo bo'ladigan changlar kiradi.
2. Anorganik changlar. Bu guruhga tuproq, ohak, marmar, granit, sement, ganch, ma'danlar va ulami qayta ishlash paytida paydo bo'ladigan changlar kiradi.
3. Zaharli changlar. Bu guruhga asosan kimyo sanoati korxonalarida (masalan, azotli, fosfatli, kaliyli o'g'itlar hamda lakbo'yoq ishlab chiqarish korxonalarida) paydo bo'ladigan changlar kiradi.
4. Portlanuvchi changlar.
5. Yonuvchi changlar.

Shu bilan birga alohida ta'kidlash lozimki, har qanday jismning yonib ketishiga va portlanishi uning solishtirma yuzasi (yuzaning massaga nisbati, m^2/kg) kuchli ta'sir ko'rsatadi. Chang zarrachalarining o'lchamlari kichikligi tufayli, ulaming solishtirma yuzalari katta bo'ladi. Shuning uchun ular yonuvchan va portlash xususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, yuzasi 1 m^2 ga teng bo'lgan qattiq jismni o'lchami $0,1\text{ mkm}$ bo'lgan kichik kublarga bo'lsak, unda mana shu kublarning umumiy yon yuzalari 6 sm^2 dan 60 m^2 gacha yetishi mumkin. Demak, changlarning harakatlanishiga zarrachalarining o'lchami, massasi va zichligi kuchli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Arximed qonuniga asosan, agar zarrachaning zichligi havo zichligiga teng yoki undan kichik bo'lsa, u havoda muallaq uchib yuradi va agar undan katta bo'lsa, chang yerga cho'kadi. Isitilgan havoning zichligi nam havoning zichligiga nisbatan kichik ekanligi tufayli u havoning yuqori qatlamida joylashadi. Shuning uchun konditsionerlar xonaning yuqori balandligida, isitish qurilmalari esa aksincha, xonaning pastki qismida o'rnatiladi. To'qimachilik va yengil sanoat korxonalarining ip yigima fabrikalarida maxsus konditsionerlar yordamida sun'iy bug'li muhit yaratiladi. Bundan asosiy maqsad ip uzilishini kamaytirish va uzluksiz titrashlar natijasida iplardan ajralib chiqadigan kalta tolalar va changlarni cho'ktirishdan iboratdir. Shuni alohida aytish lozimki, changlar gumhiga aerozollar



ham kiradi. o'lchami 10 mkm dan kichik bo'lgan dispers tizimlarga aerozollar deb ataladi.

Ishlab chiqarish korxonalarida 1m³ havo tarkibida 100 mg va undan ortiq chang bo'lishi mumkin. Shuning uchun chang, gaz va bug'laming xavfsizligiga qarab, ish joylarida ularning ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiyalari (REChK) aniqlangan bo'ladi. Ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiya deganda zararli moddaning havo tarkibidagi shuriday miqdori tushuniladiki, u insonga, o'simlik va hayvonot dunyosiga, umuman tabiiy atrofmuhitga zarar yetkazmasligi lozim. Agar havoda zararli moddaning miqdori uning ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiyasidan oshib ketsa, unda korxonada ish vaqti qisqartiladi, yetkazilgan zarami qoplash uchun sut mahsulotlari bilan ta'minlanadi va maoshga qo'shimcha haq to'lanadi (ko'pincha muolajaga sarflangan xarajatlar to'lanadi). Ma'lumki, qurilishda ishlatiladigan sement tarkibida olti valentli xrom elementi mavjud. Xrom birikmalaridan terini oshlashda ham ishlatiladi. Ammo xrom birikmalarining havoda 0,001% miqdorda mavjudligi allergiya kasalligini qo'zg'atadi. Shuning uchun havoni tozalashdan asosiy maqsad - zararli moddalar miqdorini, ularning ruxsat etilgan chegaraviy konsentratsiyalariga tenglashtirishi yoki undan pasaytirishidan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

- 1 . Ekalogiya Sattorova Z.M
2. Ekalogiya , biosfera va tabiatni muhofaza qilish Ergashev . A
- 3 . Ekalogiya A. Rafiqov , Q. Abirqulov

Research Science and
Innovation House



Umurtqasiz va umurtqali hayvonlarning qiyosiy tasnifi

Andijon Davlat Pedagogika Instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya
yoʻnalishi talabalari

Mamashokirova Fotima Kenjaboy qizi

fmamashokirova@gmail.com

Maxammadjonova Sevara Fayzullo qizi

teshaboyevabumayram@gmail.com

Isaqjonova Oydinoy Azizbek qizi

isaqjonovaoydinoy@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada umurtqasiz va umurtqali hayvonlarning oʻxshash va farq qiluvchi jihatlari, hayot tarzi, sistematalari haqida umumiy maʼlumotlar keltirilgan.

Kalit soʻz: Umurtqasiz hayvonlar, umurtqali hayvonlar, kelib chiqishi, umurtqasiz va umurtqali hayvonlarning oʻxshashligi, farqi, koʻpayishi, sistematik oʻrni va zoologiya fanining rivojlanish tarixi.

Аннотация: В статье представлены общие сведения о схожих и различных аспектах, образе жизни и систематике беспозвоночных и позвоночных животных.

Ключевые слова: Беспозвоночные, позвоночные животные, происхождение, сходство, различия, размножение беспозвоночных и позвоночных, систематическое место и история развития зоологии.

Abstract: This article provides general information about the similar and different aspects, lifestyle, and systematics of invertebrates and vertebrates.

Key words: Invertebrates, vertebrates, origin, similarities, differences, reproduction of invertebrates and vertebrates, systematic place and the history of the development of zoology.

Yer yuzida hayvonlar bir – biridan keskin farq qiladigan har xil muhit: suv, tuproq, quruqlik, havo va tirik organizmlar tanasida hayot kechiradi. Ularning 2 mln ga yaqin turi tarqalgan. Hayvonlarning tuzilishi va hayot kechirishi xususiyatlari muayyan muhitga moslashgan. Hayvonlar dunyosi vakillarini shartli ravishda ikki guruhga: umurtqasizlar va umurtqalilar guruhiga ajratish mumkin. Hayvonlar ham

barcha tirik organizmlar kabi hujayralardan tashkil topgan. Hayvonlar zamburug‘lar va ko‘pchilik bakteriyalar singari geterotrof organizmlar bo‘lib, tayyor organik moddalar hisobiga oziqlanadi. Ko‘pchilik hayvonlar faol hayot kechiradi: bir joydan ikkinchi joyga ko‘chib yura oladi va har xil harakatlar qiladi. Ularning tanasida moddalar almashinuvi ham faol kechadi. Shuning uchun evalutsiya jarayonida hayvonlar organizimida turli organlar sistemasi hosil bo‘lgan. Ko‘p hujayrali yuksak tuzulgan hayvonlarda ovqat hazm qilish, ayirish, nafas olish, qon aylanish, tayanch – harakat, jinsiy va nerv sistemalari rivojlangan. Hayvonlar bilan boshqa tirik mavjudotlar o‘rtasidagi tafovutlar ancha murakkab tuzilgan formalar o‘rtasida ko‘proq yuzaga chiqadi. Sodda tuzilgan organizmlar o‘rtasida esa yuqorida ko‘rsatilib o‘tilgan tafovutlar yaqqol ko‘zga tashlanmaydi. Xususan, bir hujayrali hayvonlar orasida o‘simlikka o‘xshash fotosintez qiluvchi bir qancha avtotrof turlari ham bor.

Umurtqasizlar ya‘ni bir hujayralilar kenja olamiga mansub bo‘lgan hayvonlarning tanasi yagona hujayradan yoki o‘zaro o‘xshash bo‘lgan hujayralar to‘plamidan iborat. Bir hujayralilar ko‘p hujayralilarga ko‘p jihatdan o‘xshash bo‘lsada, ulardan fiziologik jihatdan farq qiladi. Chunki bir hujayralilar mustaqil hayot kechiradigan organizmlar bo‘lib, ular moddalar almashinuvi, harakatlanish, ta‘sir lanish, ko‘payish va tirik organizmlar uchun xos bo‘lgan boshqa barcha xususiyatlarga ega. Bunday funksiyalarni hujayradagi maxsus organoidlar (organellalar) bajaradi. Bir hujayralilarning organoidlari hujayraning bir qismi b‘lishi bilan ko‘p hujayralilarning organlaridan farq qiladi. Bir hujayralilar soxta oyoqlar, maxsus kiprikchalar va xivchinlar yordamida harakatlanadi: tana yuzasi orqali nafas oladi. Ularning kislarodga bo‘lgan extiyoji bir xil emas. Suv tubuda va balchiqda hayot kechiradigan hayvonlar kislarodni kam talab qiladi. Bir hujayralilarning 70000 dan ortiq turi malum bo‘linadi. Umurtqasiz hayvonlar hujayrasi va to‘qimalari. Hayvonlar hujayrasi ham ko‘p jihatdan boshqa tirik organizmlar hujayrasiga o‘xshash tuzulgan. Ammo hayvon hujayrasi qobig‘ining yupqaligi, qisqaruvchi tolalar – *miofibrillar*, hujayra bo‘linishida ishtirok etadigan sentriollar (hujayrasi markazi)ning bo‘lishi bilan boshqa hujayralardan farq qiladi.

Sentrosomalar – ko‘pchilik hayvonlarning hujayrasi uchun xos bo‘lib, silindir shaklidagi ikkita juda, mayda tanachadan iborat. Ular devori uchtdan joylashgan mikronaychalarning 9 ta boylamidan iborat. Ko‘p hujayrali hayvonlar



hujayralarning shakli, tuzilishi va organizmidagi funksiyasi turlicha bo'ladi. Tuzilishi va funksiyalari bilan o'xshash bo'lgan hujayralar to'qimalarni hosil qiladi. Hayvonlar organizmida epiteliy (qoplovchi), biriktiruvchi, muskul va nerv to'qimalari bo'ladi.

Organlar va organlar sistemasi. Har qaysi organ tarkibiga bir necha xil to'qima kiradi. Har bir organ organizmda ma'lum bir vazifani bajarishga moslashgan bo'ladi. Bir - biri bilan uzviy bog'langan va organizmda bitta umumiy vazifani bajaradigan organlar bitta sistemaga birlashtiriladi. Misol uchun: og'iz bo'shlig'i, halqum, oshqozon, ichaklar va ovqat hazm qilish bezlari ovqat hazm qilish sistemasini tashkil etadi.

Tana simmetriyasi. Simmetriya hayvonlar tanasining o'xshash qismlarini simmetriya markazi atrofida ma'lum bir geometrik tartibda mutanosib joylashuvidan iborat. Tana simmetriyasi yashash muhiti bilan chambarchas bog'liq. Hayvonlar tana simmetriyasining asosiy xillari quyidagilardan iborat:

- *Radial nurli simmetriya* – teng o'qli simmetriya
- *Radial o'qli simmetriya*
- *Bilateral simmetriya* – yonlamma simmetriya

Hayvonlar jinssiz va jinsiy yo'l bilan ko'payadi. *Jinssiz ko'payish* soddaroq tuzilgan umurtqasiz hayvonlarda uchraydi, ular asosan ikki xil usulda boradi. Bir hujayrali hayvonlarda jinssiz ko'payish ona organizmining teng ikkiga bo'linishi, tuban ko'p hujayralilarda esa kurtaklanish orqali sodir bo'ladi. *Jinsiy ko'payishda* maxsus jinsiy hujayralar – gametalar hosil bo'ladi. Erkaklik urug' hujayralari – spermatazoidlar yoki *mikrogametalar*, urg'ochi jinsiy hujayralar – tuxum hujayralar yoki *makrogameta* deyiladi.

Sistematik jihatdan umurtqali hayvonlar xordalilar tipining kenja tiplaridan biri hisoblansada, umurtqalilar zoologiyasi kursida bu tipga mansub barcha hayvonlar o'rganiladi. Xordalilar tayanch o'q skeleti - xordasi tanasining orqa tomoni bo'ylab joylashgan hayvonlardir. Xordalilar tipi turlari umurtqasiz hayvonlarga nisbatan ancha karn bo'lsa-da, gavdasining yirik bo'lishi, individlarning murakkab va xilmaxil tuzilganligi, fiziologik va ekologik xususiyatlarining turli-tumanligi bilan ulardan keskin farq qiladi. Hayvonot olami bir-biridan farq qiladigan juda ko'p sistematik guruhlarga bo'linadi. Bu guruhlar ular tuzilishining o'xshashligi va qarindoshligiga qarab tuzilgan. Hayvonlarda ham eng kichik asosiy sistematik guruh tur hisoblanadi.

Bir turga mansub organizmlarning tuzilishi va hayot kechirishi o‘zaro o‘xshash bo‘lib, tabiatda ma‘lum bir maydon chegarasida tarqalgan bo‘ladi. Ular o‘zaro oson chatishib, serpusht nasi beradi. Har xil turga mansub organizmlar esa chatisha olmaydi yoki chatishganida ham nasli pushtsiz bo‘ladi. Tur barcha tirik organizmlar sistemasining negizini tashkil etadi. Engyaqin turlar urug‘larga birlashtiriladi. Ilmiy sistemada tur ikki nom - urug‘ning va turning nomi bilan ataladi. Urug‘lar oilalarga, oilalar turkumlarga, turkumlar esa sinflarga birlashtiriladi. Hayvonlar sistemasidagi eng katta guruh tip hisoblanadi. Barcha umurtqalilar xordalilar tipiga kiradi. Bundan tashqari, tanasining tuzilishiga ko‘ra hayvonot olami bir hujayralilar va ko‘p hujayralilar kenja olamiga bo‘linadi. O‘zbekistonda umurtqasiz hayvonlarning 15 mingdan ortiq turi va umurtqali hayvonlarning 677 turi aniqlangan. Xordalilar tipining 42000-43000 ta turi bor, shulardan 38000 dan ortiq turi umurtqalilar kenja tipiga kiradi. Xordalilar tipi quyidagi sistematik guruhlarga bo‘linadi:

Tip. Xordalilar — Chordata.

I. Kenja tip. Lichinka xordalilar (Urochordata) yoki qobiqlilar (Tunicata).

Sinf. Assidiyalar-Ascidiae.

Sinf. Salplar-Salpae.

Sinf. Appendikulariyalar-Appendiculariae.

II. Kenja tip. Boshskeletsizlar-Acrania.

Sinf. Xordaboshlilar-Cephalochordata.

III. Kenja tip. Boshskeletlilar (Craniata) yoki umurtqalilar (Vertebrata).

Guruh. Murtak pardasiz umurtqalilar-Anamnia.

Bo‘im. Jag‘sizlar-Agnatha.

Katta sinf. Jag‘sizlar-Agnatha.

Sinf. To‘garak og‘izlilar-Cyclostomata.

Bo‘im. Jag‘og‘izlilar-Gnathostomata.

Katta sinf. Baliqlar- Pisses.

Sinf. Tog‘ayli baliqlar-Chondrichthyes.

Sinf. Suyakli baliqlar-Osteichthyes.

Katta sinf. Quruqlikda yashovchi umurtqalilar yoki To‘rtoyoqlilar Tetrapoda.

Sinf. Suvda hamda quruqlikda yashovchilar-Amphibia.

Guruh. Murtak pardali umurtqalilar-Amniota.

Sinf. Sudralib yuruvchilar-Reptilia.

Sinf. Qushlar-Aves.

Sinf. Sutmizuvchilar-Mammalia.

Bir hujayrali hayvonlar

Sarkomastigoforalar (Sarcomastigophora) tipi

Sarkodalilar (Sarcodina) sinfi

Xivchinlilar (Mastigophora) sinfi

Sporalilar (Sporozoa) tip

Infuzoriyalar (Infusoria) tipi

Tuban ko‘p hujayrali havonlar

Plastinkasimonlar (Placozoa) tipi

G‘ovaktanlilar (Spongia) tipi

Haqiqiy ko‘p hujayralilar

Bo‘shliqchililar (Coelenterata) tipi

Gidroid poliplar (Hydrozoa) sinfi

Ssifomeduzalar (Scyphozoa) sinfi

Korall poliplar (Anthozoa) sinfi

Yassi chuvalchanglar (Plathelminthes) tipi

Kiprikli chuvalchanglar (Turbellaria) sinfi

So‘rg‘ichlilar (Trematoda) sinfi

Tasmasimon chuvalchanglar (Cestoda) sinfi

To‘garak chuvalchanglar (Nematelminthes) tipi

Halqali chuvalchanglar (Annelida) tipi

Ko‘ptuklilar (Polychaeta) sinfi

Kam tuklilar (Oligochaeta) sinfi

Molluskalar (Mollusca) tipi

Ikki pallalilar (Bivalvia) sinfi

Qorinoyoqlilar (Gastropoda) sinfi

Boshoyoqli molluskalar (Cephalopoda) sinfi

Bo‘g‘imoyoqlilar (Arthropoda) tipi

Qisqichbaqasimonlar (Crustacea) sinfi

O‘rgimchaksimonlar (Arachnoidea) sinfi

K o‘poyoqlilar (Myriopoda) sinfi

Hasharotlar (Insecta) sinfi

Xordalilaming o‘q skeleti tana bo‘ylab joylashgan xordadan iborat. Xorda faqat tuban xordalilarda umr bo‘yi saqlanib qoladi. Yuksak xordalilarda esa xorda faqat embrional rivojlanish davrida bo‘lib, keyinchalik umurtqa pog‘onasi bilan almashinadi. Markaziy nerv sistemasi xordaning ustida joylashgan nerv nayidan iborat. Yuksak xordalilarda nerv nayining oldingi qismidan bosh miya shakllanadi; nayning qolgan qismlaridan esa orqa miya hosil bo‘ladi. Xordalilar xalqumi devorining ikki yonida jabra yoriqlari joylashgan. Bu yoriqlar birlamchi suv hayvonlarida hayoti davomida saqlanib qoladi. Quruqlikda yashovchi va ikkilamchi suvda yashashga o‘tgan xordalilarda Jabra yoriqlari embrional rivojlanish davrida bo‘ladi. Zoologiya faninmg rivojlanishiga Vatanimiz olimlari ham katta hissa qo‘shishgan. Hayvonlar hayoti to‘g‘risidagi ma‘lumotlar buyuk vatandoshimiz Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” shoh asarida ham o‘z o‘rnini topgan. XX asrda zoologiya sohasida olimlarimiz olib brogan tadqiqotlar rishta, bezgak, leyshmaniya kabi xavfli parazitlami tugatishga imkon berdi. O‘zbekistonlik olimlardan D.N.Kashkarov hayvonlar ekologiyasi; T.Z.Zohidov va O.P. Bogdanov umurtqali hayvonlar; A.M. Muhammadiyev, A.T.To‘laganov, J.A.Azimov, S.N. Alimuhamedov, R.O. Olimjonov, V.V.Yaxontov umurtqasiz hayvonlar to‘g‘risida yirik asarlar yaratishgan. Hayvonlami turli jihatdan o‘rganish mumkin. Shuning uchun ham zoologiya juda ko‘p ayrim fanlarga ajralib ketadi. Hayvonlarning tuzilishiva hayotiy belgilarining o‘xshash bo‘lishi yoki bo‘lmasligiga qarab guruhlarga bo‘linishini sistematika; tashqi va ichlti tuzilishini morfologiya va anatomiya; embrional rivojlanishini embriologiya; atrof — muhit bilan munosabatini ekologiya; xulq — atvorini etologiya; yer yuzida tarqalishini zoogeografiya, qirilib ketgan hayvonlami paleozoologiya, hayvonlar organizmida boradigan jarayonlami fiziologiya o‘rganadi. Zoologiya ayrim sistematik guruhlar bo‘yicha ham fanlarga ajratiladi. Masalan,protozoologiya bir hujayrali hayvonlar, entomologiya hasharotlar, ixtiologiya baliqlar, omitologiya qushlar, teriologiya sut emizuvchilarni o‘rganadi. Hayvonot olamining ayrim tiplari, sinflari va turkumlarini ham yuqorida qayd qilingan fanlar nuqtai nazaridan o‘rganish mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. S. Dadayev, O.Movlonov Zoologiya Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2008
2. J.L.Laxanov Umurtqalilar Zoologiyasi «UAJBNT» Маркази 2005
3. S.Dadayev Q.Saparov Zoologiya-1 Toshkent« Iqtisod – moliya » 2009
4. S. Dadayev, Q. Saparov Zoologiya – 2 “ Cholpon nomidagi nashriyot-matbaa “ ijodiy uyi Toshkent – 2011
5. O.Movlonov, Sh.Xurramov, X.Eshova Umurtqasizlar Zoologiyasi O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti Toshkent – 2006
6. www.arxiv.uz



Research Science and Innovation House



ZAMBURUG‘LAR KELITIRIB CHIQRADIGAN AYRIM KASALLIKLAR VA DORIVOR MODDA HOSIL QILISHI

Andijon davlat pedagogika instituti, Tabiiy fanlar fakulteti ,Biologiya
yo‘nalishi 2 - bosqich talabalari

Yigitaliyeva Gulhayoxon Murotali qizi

yigitaliyevagulhayo0@gmail.com

Turdialiyeva Namuna Turg‘unali qizi

whsuuddheheej@gmail.com

Qo‘chqarboyeva Xushnozabonu Ro‘zali qizi

gochqorboyevaxushnozabonu@gmail.com

Annotasiya. Ushbu maqolada zamburug‘lar haqida umumiy ma‘lumot, zamburug‘lari sistematikasi va ular haqida qisqacha ma‘lumotlar, zamburug‘lar keltirib chiqaradigan ayrim kasalliklar va biologik faol modda hosil qilishi to‘g‘risida yozilgan. .

Kalit so‘zlar. Zamburug‘lari klassifikatsiyasi, Oomitsetsimonlar(Oomycetes), Askomitsetsimonlar(Ascomycetes),Deytromitsetsimonlar(Deuteromycetes),Bazidiomitsetsimonlar(Basidiomycetes),Xitridiomitsetsimonlar(Chytridiomycetes),Gifoxitriomitsetsimonlar(Hyphochytriomycetes),Keratomikoz,Kandidozlar,Dermatofitiyalar,Chuqur mikoziar,

Abstract. This article provides general information about fungi, the systematics of fungi and brief information about them, some diseases caused by fungi, and the production of biologically active substances.

Keywords. Classification of fungi, Oomycetes, Ascomycetes, Deuteromycetes, Basidiomycetes, Chytridiomycetes, Hyphochytriomycetes, Keratomycosis, Candidiasis, Dermatophytes, Deep mycoses

Абстракт. В данной статье приведены общие сведения о грибах, систематике грибов и краткие сведения о них, некоторых заболеваниях, вызываемых грибами, продукции биологически активных веществ.

Ключевые слова. Классификация грибов, Оомицеты, Аскомицеты, Дейтеромицеты, Базидиомицеты, Хитридиомицеты, Гифохитриомицеты, Кератомикозы, Кандидоз, Дерматофиты, Глубокие микозы

Zamburug‘lar qadimiy organizmlar bo‘lib, evolyutsiyasi jarayonida rangsiz sitoxrom C ga ega bo‘lmagan xivchinlilarning *Fiagellatae* guruxidan kelib chiqqan. Shuning uchun ham zamburug‘lar o‘simliklar olamida o‘rganiladi. Ammo, zamburug‘lar oziqlanish xususiyatlari bilan o‘simliklardan farq qiladi, chunki ularning hujayrasida yashil rang beruvchi xlorofill pigment bo‘lmaydi. Ular geterotrof oziqlanishga o‘tgan, ya‘ni zamburug‘lar tayyor organik moddalar bilan oziqlanuvchi organizmlar hisoblanadi. Shu xususiyat bilan anorganik moddalar bilan oziqlanuvchi avtotrof organizmlarga qarama-qarshi turadilar. Assimilyatsiya natijasida zamburug‘lar kraxmal hosil qilmasdan, uning o‘rniga moxavina va glikogen hosil qiladi.

Zamburug‘larning ko‘pchiligini vegetativ tanasi kuchli tarmoqlangan, o‘sishi cheklanmagan iplar-gifa, ularning yig‘indisi mitselliidan iborat. Mitselliid odatda yashayotgan joyning ichiga (tuproq, o‘simlik to‘qimasi, hayvon ahlati va boshqalar) to‘la botib kirgan bo‘ladi. Ularning bu xususiyati ekzoosmos bilan tanasining hamma yuzasi orqali oziq moddani to‘la shimish xususiyatini beradi.

Zamburug‘lar tarqalgan substratlardagi organik moddalar yuqori molekulyar polimerlar (oqsil, polisaxarid, nuklein kislota) holida bo‘lib, polimerlarni oligo va monomerlargacha parchalaydigan hujayraga olib keladigan depolimeraza fermentlarini ajratadi. Agarda hayvonlarda ovqat hazm qiluvchi fermentlar ichak ichiga ajralsa, zamburug‘larda tashqariga ajraladi, zamburug‘ gifasi to‘nkarilgan ichakdek bo‘ladi.

Zamburug‘ mitselliysi substrat ichida bo‘lganligi sababli tarqalishi cheklangandir. Shuning uchun ko‘payishga xizmat qiladigan - sporaband va sporalar substratdan tashqarida bo‘lib, uning yuzasida joylashib, havo va suv oqimi yordamida tarqaladi. Zamburug‘larning ayrimlari- makromitsetlarda spora hosil qiladigan joylarini ko‘rish mumkin. Bu soyabonsimon va po‘kak zamburug‘larda yaqqol ko‘rinadi. Boshqalar mikromitsetlarda spora hosil bo‘ladigan joylarni mikroskopdagina ko‘rish mumkin, ular ommaviy ravishda doiralarni hosil qilganida turli substratlarning rangini ko‘rinishini o‘zgartiradi.

Zamburug‘larni klassifikatsiyalashda ularning eng muhim belgilariga, jumladan, xivchinlarining joylashishi va tuzilishiga, jinsiz va jinsiy ko‘payish xususiyatiga, hujayra devorining tuzilishiga va polisaxaridlar tarkibiga qaraladi. Yuqorida aytilgan belgilarga asoslanib, zamburug‘lar bo‘limini 7 ta sinfga bo‘lib o‘rganish mumkin.



1. ***Xitridiomitsetsimonlar (Chytridiomycetes)*** ning mitselliysi boshlang'ich holda bo'lib, vegetativ tanasi odatda po'stsiz, hujayra devori yo'q. Jinssiz ko'payishi zoosporalar yordamida sodir bo'lib, zoospora faqat bitta silliq xivchinga ega. Jinsiy ko'payish gametangiya yoki oogamiya, hujayra devorida xitin va glyukan uchraydi.

2. ***Gifoxitriomitsetsimonlar (Hyphochytridiomycetes)*** ning vegetativ tana va bir hujayrali bo'lib, yalong'och rizomiselliy hosil qiladi. Jinssiz ko'payishi shoxlangan bir xivchinli zoosporalar yordamida sodir bo'ladi. Hujayra devorlarida xitin va selluloza uchraydi.

3. ***Oomitsetsimonlar (Oomycetes)*** mitselliysi rivojlangan, lekin hujayrasida tuzilishga ega. Jinssiz ko'payishi ikki xivchinli (xivchinning biri silliq va ikkinchisi shoxlangan) zoosporalar vositasida boradi. Jinsiy ko'payishi oogamiya, hujayra devorida selluloza va glyukan bor.

4. ***Zigomitsetsimonlar (Zygomycetes)*** ning mitselliysi yaxshi rivojlangan bo'lib, ko'pchilik vakillarida tana hujayrasiz tuzilishda. Jinssiz ko'payishi sporangiaspora hosil qilish bilan boradi. Jinsiy ko'payish izogamiya, hujayra devorida xitin va xitozan moddasi uchraydi.

5. ***Askomitsetsimonlar (Ascomycetes)*** ning mitselliysi yaxshi taraqqiy etgan bo'lib, ko'p hujayrali. Jinssiz ko'payishi konidiasporalar yordamida sodir bo'ladi. Jinsiy ko'payish gametangiya, jinsiy sporalarendogen yo'l bilan, xaltachalar ichida taraqqiy etadi. Hujayra devori da xitin va glyukan uchraydi.

6. ***Bazidiomitsetsimonlar (Basidiomycetes)*** ning mitselliysi ko'p hujayrali. Jinssiz ko'payishi konidiasporalar yordamida sodir bo'lib, jinsiy ko'payish esa samotogamiya. Jinsiy ko'payish sporalari bazidiya deb ataladigan hujayra ustida hosil bo'ladi.

7. ***Deytromitsetsimonlar (Deuteromycetes)*** - takomillashmaga zamburug'lar, hujayrali, mitselliysi yaxshi taraqqiy etgan. Jinssiz ko'payish konidiasporalar yo'li bilan boradi. Jinsiy ko'payish aniqlanmagan. Hujayra devorida xitin va glyukan uchraydi.

Mamlakatimizda zamburug'ning 220 ta turi uchrashi ma'lum. Shundan iste'molbopi 27 ta, zaharlisi esa 16 ta. O'zbekiston sharoitida 1995-1998 yillardan boshlab zamburug'ni sun'iy usulda yetishtirish tajribasiga qo'l urildi. Shampinion, qo'ziqyruq, otiata kabi navlari sporalari orqali o'stiriladi. Oziq-ovqat turi sifatida xalqimiz zamburug'ni nisbatan kam iste'mol qiladi. Tarkibining 10 foizi oqsil, 90

foizi suv bo‘lgan zamburug‘ organizmda tez hazm bo‘ladi. Uni bahorda iste‘mol qilish ayni muddaodir.

Yuksak o‘simliklarning deyarli 90%i zamburug‘lar bilan mikoriza qilishda ishtirok etadi. Olimlarning ta‘kidlashlaricha yuksak o‘simliklar va zamburug‘larning mikoriza hosil qilish hodisasi juda qadimiy jarayon bo‘lib, ayni vaqtda fanda 400 mln yil avvalgi ana shunday simbioz ko‘rinishining dalillari mavjud. Zamburug‘lar ichida zaharli vakillari mavjud bo‘lib, ular ishlab chiqargan zahar mikotoksin deb ataladi. Ular orasida anchadan beri ma‘lum bo‘lgan, o‘ta zaharli amatoksin ishlab chiqaruvchi Amanita zamburug‘lari mavjud bo‘lib, ular odatda boshqoqli ekinlarni zararlantiradi, shunday o‘simliklar mahsulotlarni iste‘mol qilgan odamlar orasida ergotizm deb nomlangan o‘ta xavfli kasallik yuzaga keladi. Qadimda ergotizm epidemiya darajasigacha ko‘tarilib, butun katta shaharlar aholisini qirib tashlashgacha borgani ma‘lum.

Zamburug‘ hayvonlarga ham zarar, ham foyda keltiradi. Ayrimlari hayvonlarga ozuqa bo‘lsa, ba‘zilari organizmga sezdirmasdan kirib olib, to‘qimalarning yemirilishiga va hattoki o‘limga ham olib keladi. Zamburug‘dagi ko‘zga ko‘rinmas sporalari hayvonlarga hujum qilishi mumkin. Ular odamlar hayotida boshqa o‘simliklarga qaraganda unchalik katta ahamiyatga ega emas. Uning tana qismi bilan oziqlanish ko‘pgina hasharotlarga zavq beradi. Masalan, termitlar va Janubiy Amerika chumolilari uchun zamburug‘ asosiy yemish ekanligi sir emas. Afsuski, hamma zamburug‘lar ham foydali bo‘lmay, ayrimlari organizm ichiga kirib olib, xuddi mog‘orlagan nondagi kabi juda tez o‘sadi va ko‘p hollarda hayvonlarning nobud bo‘lishiga olib keladi.

Zamburug‘larni sun‘iy usulda yetishtirish texnologiyasi ham yaratilgan. Bu haqda biologiya fanlari nomzodi Hamro Nuraliev bergan ma‘lumotlarni keltirib o‘tish o‘rinlidir: Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga uni iste‘mol qilish 5-7 kg.ga to‘g‘ri keladi. Hayvonlar va odamlarning kasalliklari teri, tirnoq, sochlarni dermatomikozlar zararlaydi. Bundan tashqari Candida, Cryptococcus, Rhizopus, Aspergillus turkumlarining zamburug‘larini sporalari nafas yo‘llari, yaralar, jinsiy a‘zolar orqali organizmning ichki a‘zolariga o‘tib tekinox‘r sifatida rivojlanadi. Biroq ularga organizmning immuniteti mustahkam bo‘lsa zarari katta emas. Bu mikozlar kuchayib ketsa o‘tkir kasalliklar ro‘y berishiga, hatto o‘limga ham olib keladi. Odatda, barcha zamburug‘li kasalliklar terining yengil va sezilmaydigan



qipiqlanishidan boshlanadi. Biroq, har bir turi ma'lum bir alomatlar bilan tavsiflanadi:

Keratomikoz — bu epidermisga ta'sir etadi, yallig'lanishni keltirib chiqarmaydi, shikastlangan dermatomalarning qipiqlanishi, pigmentatsiyaning o'zgarishi xarakterlidir. Shikastlanish o'choqlari turli o'lcham va shakllarga ega.

Dermatofitiyalar — bunda epidermis va uning ortiqlari jalb etiladi, yallig'lanish jarayoni rivojlanishi ehtimoli mavjud. Oyoq, sochlar, chov qatlamlari haddan tashqari qipiqlanish yoki qizarish bilan tavsiflanadi, yoriqlar, namlanish shakllanadi. O'choqli alopetsiya, tirnoqlarning rangi va qalinligi o'zgarishi kuzatiladi.

Kandidozlar — oq rangli o'choqlar paydo bo'ladi, ularning ostida qizarishlar aniqlanadi. Og'riq yoki qichishish bilan birga kechishi mumkin.

Chuqur mikozlar — bu terining, ichki a'zolarning tizimli, massiv shikastlanishi bo'lib, zamburug'larning organizm bo'ylab disseminatsiyali tarqalishi bilan birga kechadi. Kechishi tabiati o'tkir yoki surunkali bo'lishi mumkin.

Onixomikozlar — bu bir qator kasallik qo'zg'atuvchi zamburug'lar keltirib chiqaruvchi tirnoqlar kasalligidir. Tirnoq qattiq yuzaga ega bo'lgani va sekin o'sishi sababli onixomikozni davolash qiyinroq. Bu infeksiyaga qarshi kurash bir necha oy vaqt talab etishi mumkin.

Trixofitiya — yuqumli zamburug' kasalligi bo'lib, uni Trichophyton turkumiga mansub zamburug'lar qo'zg'atadi. Trixofitiya asosan teri va teri ortiqlarini (tirnoq va sochlarni) zararlaydi. Mahalliy tilda bu kasallik “temiratki” ham deyiladi. Barcha zamburug' kasalliklari singari bu kasallik ham mavsumiylikka xos. Zamburug'larning nam, yog'ingarchilik oylarda ko'payishi va o'sishi uchun qulay sharoit bo'lganligi uchun yilning namgarchilik oylarida kasallikning ko'payishi kuzatiladi.

"Antibiotik" deb nomlanuvchi mog'orlangan zamburug'larning zahari tabiatda eng qaqshatqich qurol sifatida tan olingan. Antibiotiklar 1928 yilda shotland mikrobiologi Aleksandr Fleming tomonidan kashf etildi. U o'z laboratoriyasidagi probirkalardan biriga mog'or o'rnatganini sezdi. Bu idishda olim bakteriyalarni o'stirayotgan edi va unda hosil bo'lgan mog'or esa barcha mikroorganizmlarni nobud qildi. Ma'lum vaqt o'tib, mog'or zamburug'idan bakteriya-larni o'ldirishga qodir bo'lgan kimyoviy modda - penitsillin hosil qilindi va undan tibbiyotda samarali foydalanila boshlandi.

Zaharli turlardan biri **qurbaqasalla** deb ataladi va ko‘proq Shimoliy Yarim sharda keng tarqalgan. Ko‘rinishidan chiroyli bo‘lsa-da, uning tarkibidagi zahar odam organizmiga tushgach, 12 soatdan keyin ta'sir qila boshlaydi. Bunga qadar organizm yuvib tashlansa, balki foyda berar, vaqt boy berilganda esa ahvolni o‘nglab bo‘lmaydi. Qizig‘i, odam organizmi uchun zaharli bo‘lgan zamburug‘lar ayrim hayvonlarga zarracha ta'sir qilmaydi. Masalan, shilliqurtlar, hattoki eng zaharlisini yegan taqdirda ham tirik qoladi

Zamburug‘larni sun‘iy usulda yetishtirish texnologiyasi ham yaratilgan. Bu haqda biologiya fanlari nomzodi Hamro Nuraliev bergan ma'lumotlarni keltirib o‘tish o‘rinlidir: Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda aholi jon boshiga uni iste'mol qilish 5-7 kg.ga to‘g‘ri keladi. Zamburug‘lar faqat ziyon yetkazmasdan balki foydali tomonlari ham mavjud, masalan: Biologik faol moddalar hosil qiluvchi zamburuglar. Ko‘plab zamburug‘lar turli dorivor moddalar hosil qiladi.

Antimikrob preparatlar - antibiotiklar. Ma'lumki, birinchi antibiotikni ingliz mikrobiologi A.Fleming Penicillum zamburug‘laridan ajratib penitsillin deb nomlagan. Bu antibiotiklar farmakologiyada buyuk kashfiyot qildi.

Immunmodulyatorlar. Ular immun ayrimlari sut em izuvchilar immunitetini pasaytiradi, boshqalari mikroblar infeksiyasiga qarshi bo‘ladi

Rakka qarshi moddalar - polissaxaridlar. Polissaxaridlar (asosan ksilitroflar) polisaxaridlar.

Gormonal moddalar. Ayrim zamburug‘larning alkaloidlaridan gormonal preparatlar olinadi.

Xitin-faollangan ko‘mirdan ham kuchliroq adsorbsiyalash (so‘rish) xususiyati tufayli yaralar kuygan joylarni tez tuzatadi. Birtalay zamburug‘lardagi keratin (soch va patda uchraydigan oltinugurtga boy oqsil modda) esa, eng muhim komponent hisoblanadi

Xulosa shuki, zamburug‘li kasalliklarni oldini olish uchun oddiy profilaktika choralariga rioya qilish. Shaxsiy gigiyena qoidalariga amal qilish: kishi o‘z tarog‘i, oyoq kiyimlaridan foydalanishi kerak. Mushuk, it, sigir, ot kabi hayvonlar bilan yaqin kontaktda bo‘lgandan keyin qo‘llarni yaxshilab yuvish zarur.

Zamburug‘larning sanoatda va xalq xo‘jaligida ahamiyati juda yuqori bo‘lib, ayniqsa qishloq xo‘jaligida, meditsina va oziq-ovqat sanoatida keng qo‘llanilmoqda. Shu uchun zamburug‘larni organizmlar uchun foydali turlarini

sun'iy usulda ko'paytirish va kasallik qo'zg'atuvchi vakillarini kamaytirish choralarini qo'llab quvvatlash maqsadga muvofiq bo'lardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.«BOTANIKA:TUBAN 0 'SIMLIKLAR». Sh.J.Tojiboyev, N.M.Naraliev «Namangan» nashriyoti, 2016
- 2.«TUBAN O'SIMLIKLAR» universitetlarning talabalari uchun darslik(L.L . Velikanov va boshqalar) «O'qituvchi» nashriyot T. 1995.
- 3.Axatova Shohsanam, Xoljigitova Diyora, Norxo'jayeva Dildora, & Tojiboyeva Shahnoza. (2023). BIZ BILADIGAN VA BILMAYDIGAN ZAMBURUG'LAR DUNYOSI . World Scientific Research Journal, 15(1), 85–91. Retrieved from <http://wsrjournal.com/index.php/wsrj/article/view/2634>
- 4.https://www.google.com/url?sa=t&source=web&rct=j&opi=89978449&url=https://my medic.uz/kasalliklar/dermatologiya/zamburugli-kasalliklar/&ved=2ahUKEwiB1Y61_uqCAxW-X_EDHWtKAHIQFnoECAkQAQ&usg=AOvVaw0vnjPDHuz8AeXCFz8r0706
- 5.Avitsenna.uz<https://avitsenna.uz> › trixofitiya Trixofitiya - yuqumli zamburug' kasalligi - Dermatologiya

Research Science and Innovation House

PUL TIZIMI

Ismoilova Zumrad

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti

“Geografiya va iqtisodiy bilm asoslari”

kafedrası talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada pul tizimi haqida umumiy ma’lumot berib o‘tilgan. Pulning mohiyati va iqtisodiyot uchun ahamiyati pul turlari, aktiv pul, passiv pul, pul muomalasi haqida.

Kalit so‘zlar: pul, milliy pul, dekretlangan, naqt pul, aktiv pul, passiv pul, pul agenti, pul muomalasi.

Pul uzoq zamonlardan beri odamlarga ma’lum. Pulning kelib chiqishi turli nazoratchilar tomonidan tovar ayiriboshlash jarayonining rivojlanishi bilan bog‘liq holda tushuntiriladi.

Pul - bu shunday maxsus tovar, u boshqa tovarlar uchun umumiy ekvivalent vazifasini bajaradi. Pul umumiy tovarlarni ayiriboshlashda asosiy vazifasini bajaradi. Qadimda pul vazifasini turli xil tovarlar bajargan, masalan, chorva mollari, mol terilari, bolta va hokazo. Keyinchalik pul vazifasini qimmatbaho metallar bajargan, chunki ular o‘zini sifatini yo‘qotmaydi va pul o‘rnini bosishda juda qo‘l kelgan. Pul oddiy mahsulot bo‘lib qolmay, u ijtimoiy qiymatga ega, ya’ni hamma tovarlarni harid etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi. Har bir mamlakat o‘zining puliga egadir. Chunonchi, dollar, funt sterling bir necha mamlakatlarning puli bo‘lib xizmat qiladi, lekin ularning qiymati bir xil emas. AQSh, Kanada, Avstraliya dollarining qiymat miqdori farqlanadi. Shuningdek, O‘zbekiston va Qirg‘iziston so‘mlari ham bir xil emas. Pul birliklari paydo bo‘lganda ma’lum miqdordagi qadr-qiymat asos qilib belgilangan. Milliy pullarning qadriligi, boshqa pullarga nisbatan qiyosiy miqdori doimo o‘zgarib turadi. Chunki, bu iqtisodiyotdagi ko‘p tomonlar, hatto siyosiy o‘zgarishlar, mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlar kabi ta’sirlar natijasidir. Bozor iqtisodiyotini pulsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi, hozirgi kunda odamlar pulga zarur tovarlar, xizmatlar sotib oladilar, pulni jamg‘arib boradilar, bankdan kreditlar oladilar, soliq to‘laydilar, pul shaklida mehnatlariga yarasha maosh oladilar va hokazo. Nafaqat jismoniy shaxslar balki davlat, korxonalar, tabdirkorlar va boshqa iqtisodiyot subyektlari ham pul vositasidan o‘z vazifalarini bajarish uchun keng

foydalanadilar. Barcha makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar ham pul birligida o‘lchanib boshqa mamlakatlar ko‘rsatkichi bilan solishtiriladi. Shuning uchun ham pul doimo iqtisodchilarning diqqat markazida bo‘lgan, davlat miqyosida esa alohida pul-kredit siyosati olib boriladi va hozirgi zamon pulning tabiati chuqur o‘rganiladi. Tovar-pul munosabatlari hayotimizga keng kirib kelgan va pul shakllari o‘zgarib borsa ham ularning mohiyati, vazifalari, muhim roli saqlanib kelmoqda. So‘nggi yillarda hukumatimiz tomonidan elektron to‘lov tizimlarini joriy etish va rivojlantirish, naqd pulsiz hisob-kitoblar ko‘lamini kengaytirish hamda pul mablag‘larining bankdan tashqari aylanmasini qisqartirishga oid chora-tadbirlar amalga oshirildi. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlari ichida “Ilg‘or xalqaro tajribada qo‘llaniladigan instrumentlardan foydalangan holda pul-kredit siyosatini yanada takomillashtirish, shuningdek valyutani tartibga solishda zamonaviy bozor mexanizmlarini bosqichma-bosqich joriy etish, milliy valyutaning barqarorligini ta‘minlash” kabi ustuvor yo‘nalishni alohida ta‘kidlab o‘tishimiz lozim. Chunki mamlakatning barqaror pul-valyuta tizimi uning iqtisodiy o‘lishiga asos bo‘lib xizmat qiladi. Pul – bozor aloqalarining hammabop va universal iqtisodiy vositasidir. Shuning uchun ham pulning kelib chiqishi, mazmuni, tabiatini o‘rganish, vazifalarini tadqiq etish, pul nazariyalarini tahlil qilish ham nazariy, ham amaliy ahamiyatga ega. O‘z evolyutsiyasi jarayonida pul maxsus tovar shaklida bosib o‘tgan yo‘li, shakllari odamlar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar rivojlanishini namoyon etadi va turli tarixiy davrlarda mazkur munosabatlar qay darajada bo‘lganligini ifodalab beradi. Kurs ishi mavzusining dolzarbligi shular bilan izohlanadi. So‘nggi ellik yillikda pul shakllarining jadal rivojlanishi kuzatildi. To‘lov tizimlari ishtirokchilarining bir tomondan to‘lovlarni boshqarish tizimini ratsionalizatsiya qilish istagi va XX asrning 70-yillari o‘rtalarida boshlangan elektron hisoblash mashinalarining kredit tashkilotlari faoliyatiga jadal joriy etilishi, boshqa tomondan, naqd pulsiz qog‘oz kredit pullarini naqd pulsiz elektron kredit pullari (bank depozitlari, plastik kartalar) bilan almashtirish jarayonining boshlanishiga yordam berdi. Pul ko‘pincha bozor tili deb ataladi, chunki ular orqali tovarlar va resurslar aylanishi amalga oshiriladi. Iste‘molchilar bozorda ishlab chiqaruvchilar tomonidan sotiladigan mahsulotlarni sotib olishadi, bu esa o‘z navbatida aholidan olingan resurslar uchun pul to‘laydi. To‘g‘ri tashkil etilgan va aniq faoliyat ko‘rsatayotgan pul tizimi milliy ishlab chiqarish barqarorligini



ta'minlash, narxlarning to'liq bandligi va barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bundan tashqari, pul tizimining qanday ishlashi mamlakatning iqtisodiy rivojlanishining barqarorligiga bog'liq. Natijada, hozirgi bosqichda pul funksiyalarini aniqlash va rivojlantirish muammosi o'z ahamiyatini yo'qotmaydi, chunki ko'pchilik uchun ular asosiy qiymat o'lchovidir. Pul har doim boshqa har qanday mahsulot, xizmat, ish, moddiy bo'lmagan tovarlar uchun almashtirilishi mumkin bo'lgan umumiy ekvivalentdir va bozor almashinuvi jarayonini qulay holga keltiradigan vositachi sifatida ishlatiladi. Kurs ishining asosiy maqsadi: pulning rivojlanish bosqichlari, asosiy vazifalari va hozirgi zamon pulining tabiatini o'rganishdir.

Zamonaviy sharoitda odamlar kundalik hayotida, korxonalar, davlat va boshqa organlar faoliyatida, iqtisodiy faoliyatning turli sohalarida puldan quyidagi maqsadlarda foydalanadilar.

- tovarlar va xizmatlar narxini aniqlash va sotish;
- ishlab chiqarish xarajatlarini va foyda miqdorini aniqlash;
- ish haqi;
- byudjetlarni tuzish va ijro etish;
- kredit va hisob-kitob operatsiyalarini amalga oshirish;
- qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish;
- jamg'arma va mablag' sifatida to'plash;
- ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etadigan narsalar resurslar (asosiy va aylanma mablag'lar) hajmini baholash va hokazo.

Pul tizimining iqtisodiy mazmuni va iqtisodiyotda tutgan o'rnini. Pul to'g'risidagi nazariyalar va ularning rivojlanish xususiyatlari Pul nazariyalari - pul tabiati va pulning ishlab chiqarishni shakllantirishga ta'siri haqidagi nazariyalardir. Bu nazariyalar kapitalistik ishlab chiqarish usuligacha bo'lgan davrda vujudga keldi. Kapitalistik ishlab chiqarish usuli davrida, pul-tovar munosabatlari xo'jalik sohasining hamma tarmoqlarini qamrab olgan davrdagina pul nazariyasi keng tarqaldi. Pul va uning sotib olish quvvati orasidagi munosabat pul nazariyalarining markaziy masalalaridan biri bo'lib elgan. Xullas, iqtisodchilarning pulning mohiyati, uning funksiyalari va pul muomalasiga bo'lgan qarashlari pul nazariyalarini keltirib chiqardi. Ilk tarixiy pul nazariyalari sifatida nominallik va metallik nazariyalarini keltirishi mumkin. Kapitalizm taraqqiyoti bilan birga bu nazariyalar ham o'zgarib yangi, miqdoriy nazariyaning paydo bo'lishiga asos bo'ldi.



Hozirgi kunda monetarizm va iqtisodni pul-kredit munosabatlari orqali tartiblashtirish nazariyalari ham mavjud. Ammo eng asosiy pul nazariyalari sifatida metall, nominal va miqdoriy pul nazariyalari tadqiqot qilib kelinmoqda. Pul nazariyalarining kelib chiqishiga asosiy sabab ishlab chiqarishning taraqqiy etishi va pul muomalasining taraqqiyotdan ma'lum darajada oqsashini oldini olish va uni rivojlantirish masalasi hisoblanadi. Qo'l mehnatidan manafakturaga, manafakturadan sanoat ishlab chiqarishiga o'tilishi bilan xalq xo'jaligida mehnatning integratsiyalashuvi ham kuchaya bordi. Buning natijasida xo'jalik yurituvchi subyektlar orasidagi pullik munosabatlar ham murakkablasha boradi. Feodalizmga cha bo'lgan naqd pullik munosabatlar bu davr talablariga javob bera olmay qoldi. Buni biz Yevropadagi XV asrdagi «pul ocharchiligi» dan ko'rishimiz mumkin. Xuddi shu davrdan boshlab pul nazariyalari to'g'risidagi ilk fikrlar yuzaga keldi. Bu nazariyalarning o'sha davrdagi muammolarini echishdagi roli beqiyos bo'ldi. Ilk bor vujudga kelgan pul nazariyalari bu metallik va nominallik pul nazariyalari hisoblanadi. Pulning metallik nazariyasi kapitalning dastlabki davrida taraqqiy etdi. Moneta tarkibini buzish (monetaning og'irlik miqdorini kamaytirish) ga qarshi kurashda progressiv rol o'ynadi. Bu nazariyalar o'sha davr ruhi va tuzilayotgan burjuaziya ehtiyojlarini aks ettirib, merkantilistlar baquvvat metall pullari tarfdori bolib chiqdilar. Bu nazariya o'sha davr kapitalizmining eng rivojlangan davlati Angliyada maydonga keldi. Metallik nazariyaning asoschilaridan biri U. Stefford (1554- 1612y.) edi. U o'z qarashlarini o'zining Londonda 1581 yilda chop etilgan «Vatandoshlarimizning ba'zi odatiy arizalarining qisqartmasi» asarida bayon etdi. Bu oqim tarafdorlari Angliyada T. Men (1571-1641y.), D. Nors (1641-1691y.), Frantsiyada bu ta'limotni A. Monkreten (1575-1621y.), Italiyada F. Tamani (1728- 1787y.) va boshqalar rivojlantirdi. Ularning fikricha barqaror metall valyuta jamiyat iqtisodiy taraqqiyotining muhim shartlaridan biridir. Jamiyat a'zolarining jamg'arishga bo'lgan intilishi iqtisodchilarning boyligining manbaini o'rganishlariga sabab bo'ladi. Ular bu manbaini savdodan izladilar. Ularning e'tirof etishlaricha aktiv savdo balansi mamlakatga oltin va kumushning kelishini ta'milaydi. Shunday qilib, ilk metallik nazariyasi tarafdorlari jamiyat boyligini qiymatbaho metallar bilan almashtirib, ular pulning hamma funktsiyalarini bajaradi deb hisoblar edilar. Ilk metall nazariya tarafdorlarining asosiy kamchiliklari quyidagilardan iborat edi: -ilk metallchilar haqiqiy pullarni qiymat belgilari bilan almashtirish zarurligi

Maqsadga muvofiq kelishini tushunib yetmadilar; -ilk metallchilar pulning jamiyat taraqqiyotida tovar muomalasi asosida yuzaga kelgan tarixiy kategoriya ekanligini tushunmadilar; -ular jamiyat boyligi deb qimmatbaho metallarni jamg'arishni tushundilar va «bunday boylig manbai savdodir» degan noo'rin fikrga keldilar. Ular jamiyat boyligi mehnat natijasida vujudga keladigan moddiy va ruhiy qadriyatlar yig'indisi ekanligini tushuna olmadilar. Ilk metallik nazariyasi targ'ibotchilari savdo burjuaziyasi manfaatlarini himoya qilib chiqqan edilar. XVIII asr oxiri va XIX asrning birinchi yarimiga kelib sanoat burjuaziyasi manfaatlarini qondira olmagan metallik nazariyasi o'z mavqesini yo'qotdi. Ammo XIX asrning ikkinchi yarimiga kelib nemis iqtisodchisi, tarixiy maktab vakili K. Knis (1821-1898 y.) bu nazariyani himoya qilib chiqdi. Bu g'oyaning qayta tiklanishiga 1871-1873 y. da Germaniyaga kiritilgan oltin tanga standarti sabab bo'ldi. K. Knis targ'iboti metallchilar nazariyalarini yangi sharoitga moslashtirdi. Knis pul sifatida faqatgina metallni emas, balki markaziy bank banknotalari ham e'tirof etdi. Bu paytga kelib xo'jalikda asosiy rol ni kredit o'ynay boshladi va bu oltin monetalar bilan birga muomalada bo'lgan va ularga almashtiriladigan banknota emissiyasining asosini tashkil etdi. K. Knis banknotalarni tan olgan holda hech nima bilan ta'minlanmagan qog'oz pullarga qarshi chiqdi. Uning fikricha pul muomalasi metall bilan ta'minlangan banknotalar va metall monetalariga asoslanishi shart. Qog'oz pullar uning fikricha, xuddi «qog'oz bulka» kabi ma'nosiz narsadir. K. Knis ta'kidlashicha: "Oltin o'z tabiatiga ko'ra puldir". Birinchi jahon urushidan so'ng metallizm tarafdorlari oltin moneta standartni qayta tiklash mumkin emasligini tan olib o'z nazariyalarini himoya qilish maqsadida oltin quyma standart va oltin deviz standartga asoslangan banknota ishlab chiqarishini yoqlab chiqdilar. Pulning nominallik nazariyasi. Nominalizm quldorlik tizimi davridagi faylasuflar ta'limotida yuzaga kelgan bo'lib, bu ilk nominalizmdir. Birinchi nominalistlar tanga tarkibini buzish (tanganing og'irlik miqdorini kamaytirish) ni ko'r-ko'rona madh etuvchilar bo'lganlar. Yemirilib ketgan tangalarni teng qiymatli tangalar bilan muomalada bir xilda yurganligiga asoslanib, ular pulning metall miqdori emas, balki uning nominali muhimdir deb da'vo qilib chiqdilar. Nominalizm XVII-XVIII asrlarda pul muomalasi to'la qimmatga ega bo'lmagan tangalar bilan to'lgan davrda shakllandi. Xuddi shu to'la qimmatga ega bo'lmagan tangalar (qog'oz pullar emas) ilk nominalizmning asosida yotar edi.

Xuddi metallizm nazariyasi singari ilk burjua nominalizm vakillari ham Angliyadan chiqdi. Bular episkop, faylasuf-idealist Dj. Berkli (1683-1753y.) va iqtisodchi Dj. Styuart (1712-1780 y.) lardir.

Nominalistlar quyidagicha xulosaga keldilar:

- pulni davlat yaratadi;
- pulning qiymati unda ko'rsatilgan nominali bilan aniqlanadi.

Xuddi shu bilan bu nazariya nominalizm deb atala boshlandi. Nominalizmning asosiy xatosi shundaki, bu nazariya bo'yicha pulning qiymati davlat tomonidan aniqlanar emish. Dj. Berkli pul aslini olganda marka, uning qanday materialdan yasalganligining va nimani aks ettirishining qanaqa ahamiyati bor degan g'oyani oldinga surdi. Xuddi shu bilan u mehnat qiymat nazariyasini va pulning tovarlik tabiatini rad etdi. Pulning umumiy qiymat ekvivalenti sifatida obyektiv ravishda paydo bo'lish mohiyatini tushunmay, nominalistlar uning qiymati davlatning subyektiv xohishi va irodasiga bog'liq dedilar. Nominalistlar pulning qiymat o'lchovini va baholar masshtabini aralashtirib yubordilar. Dj. Styuart pulni teng bo'lgan bo'laklardan iborat masshtab deb aniqladi. Shu bilan birgalikda geografik masshtabni tushunish va ishlatish mumkin agar, buning asosida masofa mavjud bo'lsa, mahsulot og'irligini o'lchash mumkin, agar u qandaydir og'irlikka ega bo'lsa, shu kabi pul ham qiymat o'lchovi funksiyasini bajaradi, agar u tovar bilan qandaydir hamjinslikka ega bo'lsa, deb uqtirdi. Nominalizmning keyingi rivojlanishi (asosan Germaniyada) XIX asrning oxiri va XX asrning boshiga to'g'ri keladi. Bu davr nominalistlarning asosiy namoyondalaridan biri G. Knap (1842-1926y.) edi. G. Knap o'zining «Davlat pul nazariyasi» (1905) asarida aytishicha pulning davlat tomonidan belgilanadigan sotib olish qobiliyati mavjud. Shu sababli ham pul davlat tomonidan yaratiladi. Bu nazariyani esa u davlat pul nazariyasi deba taydi. Knapp va uning izdoshlari oldingi nominalistlardan farqli o'laroq o'z nazariyalarni to'la qimmatga ega bo'lmagan tangalarga emas, balki qog'oz pullarga asoslagan edilar. Knapp pul massasini tahlil qilishda davlat xazina biletlari va almashinadigan tangalarnigina e'tiborga oldi. Kredit pullari (veksel, chek, banknota) ni u alohida kategoriya deb qarab, o'z izlanishlaridan ularni chiqarib tashlaydi. Bu uning katta xatosi edi. Nominalistlarning asosiy amchiligi shundaki, ular pulning mohiyatini uning huquqiy asosidan izladilar. Pulning miqdoriy nazariyasi. Miqdoriy nazariya XVI-XVIII asrlarda merkantilistlarning

konseptiyasiga reaksiya sifatida paydo bo'ldi. Bu nazariyaning boshlovchisi fransuz iqtisodchisi J. Boden (1530-1596) edi. U birinchi bo'lib Yevropada o'sha davrda yuzbergan «baholar revolyutsiyasi»ni ochib berishga harakat qildi. Baholarning sakrashiga sabab Yevropaga Amerika qit'asidan oqib kelgan qimmatbaho metallar bo'lganligini tushuntirdi. XVI-XVIII asrlarda Yevropada oltin miqdori 1500-yilda bo'lgan oltin miqdoridan 16 marta ko'payib ketgan edi. J. Boden baholarning o'zgarishi muomaladagi pul miqdori bilan aniqlandi deb tushuntirdi. Shu sababli ham bu nazariya miqdoriy nazariya deb nom oldi. Ammo ilk miqdoriy nazariya tarafdorlari pul miqdorining bahoga bo'ladigan ta'sirini va buni qanday yo'llar bilan va qaysi hollarda bo'lishligini aniq ochib bera olmadilar. XVIII asrga kelib bu nazariyani inglizlar D. Yum (1711-1726) va Dj. Mill (1773-1836) hamda frantsuz Sharl Monaskyo (1689-1755) rivojlantirdilar. Ingliz iqtisodchisi, faylasuf, psixolog va tarixchi D. Yum o'zining subyektiv idealistik qarashlari bilan qiymat substansiyasi tushunchasini rad etdi. Amerikadan qimmatbaho metallarning oqib kelishi va baholarning oshishi orasidagi to'g'ri proporsional bog'lanishni ko'rsatmoqchi bo'lib, u: «pul qiymatini uning miqdori belgilaydi» degan fikrini ilgari surdi. Yum fikricha, tovarlarning bahosi va pulning qiymati muomalada bo'lgan tovar va pul hajmi bilan aniqlanadi. Muomalada pulning ko'payishi oldin bir tovar bahosining oshishiga, keyin ikkinchi tovarning va oxir oqibatda barcha tovarlarning bahosining muomaladagi pul miqdoriga proporsional ravishda oshishiga olib keladi. Mana shu pulning miqdoriy nazariyadagi pul massasi o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatadi va munosabat "Baholar darajasining o'sish sur'atlari = Pul massasi o'sish sur'atlari". Demak, tovarlar bahosi hamisha pul miqdoriga to'g'ri proporsional bo'ladi.

Shunday qilib, miqdoriy nazariya vakillarining fikrlari shunda ediki:

- pulning sotib olish qobiliyati xuddi baho kabi (yangi tovar bahosi kabi) bozorda aniqlanadi;
- muomalada barcha chiqarilgan pullar bo'ladi;
- pulning sotib olish qobiliyati pul miqdoriga teskari proporsional va baholar o'zgarishi pul miqdoriga to'g'ri proporsional.

Miqdoriy nazariya pulning faqat muomala vositasi ekanligini ko'ra oldi, xalos. Ular ta'kidlashicha pul va tovar massalarining to'qnashishi natijasida baholar belgilanadi va pulning qiymati aniqlanadi. K. Marks Yumni tadqiq qilib, uning asosiy xatosi shundaki, u «pul muomalaga kirayotganda qiymatga ega emas, tovar

esa bahoga ega emas» degan noto'g'ri taxminda edi» deb yozgan edi. Ularning ikkinchi xatosi shunda ediki, ular hamma pul massasi faqat muomalada bo'ladi deb qarashgan. Aslida qiymat qonuniga muvofiq muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdorini aniqlovchi iqtisodiy qonun mavjud. Muomalada bo'lgan haqiqiy naqd pulga, har qanday pul miqdori emas balki, shu davr uchun zarur bo'lgan, to'lov muddati uzaytirilgan, hisob-kitoblar va pul birliklarining aylanishida band bo'lgan pullar kiradi. Miqdoriy nazariya xazinaning metall pul muomalasida stixiyali regulyator ekanligini rad etadi. Zamonaviy miqdoriy nazariya qog'oz pullar muomalasiga asoslanadi. Bu nazariya A. Marshall, amerikalik I. Fisher, shvedlar G. Nassel va B. Xansen, iqtisodchi A. Pigu, monetarist M. Fridmen tadqiqotlarida o'z aksini topdi. Amerikalik iqtisodchi, statistik va matematik I. Fisher (1867-1942yy) pulning miqdori nazariyasiga yangi sifat kiritdi. U pulning mehnat qiymatini rad etdi va pulning «sotib olish quvvati»ga asoslandi. Miqdoriy nazariyani matematik yo'l bilan isbotlamoqchi, bo'lgan

I. Fisher pulning «sotib olish quvvatiga» ta'sir etuvchi olti faktorni ko'rsatdi:

- 1.(M)-muomaladagi naqd pul massasi;
- 2.(V)-pulning aylanish tezligi;
- 3.(R)-o'rta (tortilgan) baho;
- 4.(Q)-tovarlar miqdori;
- 5.(MI)-bank depozitlari yig'indisi; 6.(VI)-depozit-chek muomalasi tezligi.

Muomaladagi pulning miqdori bilan mamlakat doirasida sotilgan tovar va xizmatlarning umumiy miqdori o'rtasidagi bog'liqlik Irving Fisherning "ayirboshlash tenglamasi"da ifodalanadi:

$$MV = PQ,$$

bu yerda M – pul massasi;

V – muomaladagi pulning aylanish tezligi;

p– narxlar darajasi;

q– ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlarning miqdori

Tenglamaning chap tomonidagi MV jami ishlab chiqarilgan tovarni sotib olishga ketgan xaridorlarning umumiy sarflarini va pulning aylanish tezligini bildirsa, o'ng tomonidagi PQ esa, ushbu ayirboshlanadigan tovarlar miqdori va baholar darajasini bildirdi. Agar MV bir yilda ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlarga sarflangan umumiy xarajatlar bo'lsa, unda u nominal sof milliy mahsulotga (SMM) teng bo'lishi kerak, ya'ni $SMM = PQ$.

Monetarizm pul nazariyasi 1950-yillar o‘rtasida paydo bo‘lgan. Bu oqimning ko‘zga ko‘ringan namoyondasi M. Fridman hisoblanadi, u Chikago universitetining professori, iqtisodsohasidagi Nobel mukofoti laureati. Bu oqimga M. Fridmandan tashqari K. Brunner, A. Moltser, D. Leydler, F. Keygen va boshqa iqtisodchilar kiradi.

Pul nazariyada katta muvaffaqiyat qozongan g‘oya - Fridmanning pulning miqdoriy nazariyasi bo‘lib, u muomaladagi pul miqdori o‘zgarishi bilan tovar baholari o‘zgarishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni, monetar siyosat nazariyasi, ya’ni jamiyat holda bo‘lgan iqtisodiy tebranishlar pul massasining o‘zgarish tufayli bo‘lishi, pulning iqtisodiy samaradorlikka ta’siri kabilarni yoqlab chiqadi. Hozirgi zamon monetarizmiga bir guruh iqtisodchilar qalamiga mansub «Pulning miqdoriy nazariyasiga oid tadqiqotlar» (1956yil) deb nomlangan asar bilan asos solindi. Monetaristlar ilgaridan ma’lum bo‘lgan pulning miqdoriy nazariyasiga borib tutashadigan «barqaror pul» nazariyasini olg‘a suradilar. Ular pul va iqtisodiy faollik o‘rtasida uzviy bog‘lanish borligini qayd qilib, iqtisodiy krizislarning sababini pul muomalasidagi buzilishlardan axtardilar: Pulning yetishmay qolishi iqtisodiy o‘shishini susaytirib, turg‘unlik holatini keltirib chiqaradi, bu esa avval yuzaroq tanglikka, so‘ngra esa chuqur iqtisodiy tanglikka olib keladi. Binobarin, iqtisodiy sikl pul miqdoriga bog‘liq, bu o‘z navbatida Markaziy bank faoliyatiga bog‘liq. Pulkredit siyosatini o‘zgartirib tanglikdan chiqish va iqtisodni rivojlantirish mumkin. Monetaristlar iqtisodiyotda bosh masala ishlab chiqarish va pul massasining tengligi bo‘lib, shu orqali makroiqtisodiy muvozanat hosil etish mumkin deb hisobladilar. Pulning asosiy xususiyati uning likvidligida. Pulni xohlagan paytda almashtirish, unga har qanday tovarni sotib olish mumkin. Pul massasining o‘shish sur’atining tezlashuvi yoki sekinlashuvi faol ish yuritishda, ishlab chiqarishning tsiklik tebranishida aks etiladi. Gap shundaki, pul massasidagi o‘zgarishlar natijasi asosiy iqtisodiy parametrlarda birdan aks ettirilmaydi, balki biroz vaqtdan keyin ta’siri bilinadi. Odatda, vaqtincha uzilish bir necha oyni tashkil etadi. U shu narsani bildiradiki, pul massasidagi o‘zgarishlar yalpi ichki mahsulotga birdan emas, balki bir oz vaqtdan (oydan) keyin ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun pul siyosati joriy tartibdagi samaraga va qisqa muddatli o‘zgarishlarga mo‘ljallangan bo‘lmay, balki uzoq muddatli xarakterga ega. M.Fridmen konsepsiyasi garchi o‘ziga xosligi bilan ajralib tursa ham, u pulning miqdoriy nazariyasiga asoslanadi. Pul massasi ko‘paysa, baholar o‘sadi, va aksincha, pul massasi kamaysa, narxlar



pasayadi, ya'ni boshqa barcha sharoitlar bir xil bo'lganda tovarlarning baholari pul miqdoriga mutanosib tarzda o'zgaradi. Mamlakatda har doim pul muomalasi qonuni bilan tartibga solinadigan ma'lum miqdordagi pul birligi massasi mavjud bo'lishi zarur. Umumiy holda pul muomalasi qonuni quyidagicha shakllantirilishi mumkin: tovar aylanishiga xizmat qiladigan pul miqdori tovar massasi va narxlar darajasiga to'g'ridan – to'g'ri, pulning aylanish tezligiga teskari mutanosiblikda joylashadi. Pulning kelib chiqishi, tabiatiga nazariy jihatdan ikki xil: ratsionalistik va evolyutsion yondashuv mavjud. Ratsionalistik yondashuv asoschilari pulning kelib chiqishini kishilar o'rtasida kelishuv tufayli yuz bergan deb tushuntirishadi. Bu yondashuv XVIII asr oxirlarigacha hukm surgan. Bu subyektiv psixologik yondashuv hozirgi paytda ham ayrim iqtisodchilar tomonidan qo'llab quvvatlanadi. Evolyutsion yondashuvda esa pul jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyoti mahsuli deb qaraladi. Pul obyektiv zaruriyat tufayli turli-tuman tovarlar ichidan barcha tovarlarga ayirboshlanadigan maxsus tovar sifatida ajralib chiqqan. Odatda pulni valyuta deb atashadi. Iqtisodiy jihatdan har bir hukumat o'z pul tizimiga ega. Pul - bu operatsiyalarni amalga oshirishda ishlatiladigan likvid aktiv. U o'z qiymatini hukumat iqtisodiyotida va xalqaro miqyosda valyuta orqali umumiy qabul qilishga asoslangan. Ayirboshlash funksiyasi uchun iqtisodiy pul tizimlari rivojlana boshladi. Pulni valyuta sifatida ishlatish bozorda sotib olish va sotish uchun markazlashgan vositani taqdim etadi. Bu birinchi navbatda barterni almashtirish uchun tashkil etilgan. Agar barcha tomonlar kelishilgan pul birligidan foydalansa va uni qabul qilganda, ular bu muammodan qochishlari mumkin. Iqtisodiy jihatdan har bir hukumat markaziy organ tomonidan belgilanadigan va kuzatiladigan o'z pul tizimiga ega. Iqtisodiy rivojlanish odatda kapital to'plash, texnologik taraqqiyot, ishchi kuchi sifati va malakalarining oshishi kabi real omillarning o'sishiga bog'liq deb ishoniladi. Ushbu qarash iqtisodiy rivojlanish jarayonida pulning rolini yetarlicha ta'kidlamaydi. Aytishlaricha, pul shunchaki parda va o'zgacha ahamiyatga ega emas. Biroq, pulning ahamiyatsizligi haqidagi bu haddan tashqari qarashga endi ishonilmaydi. Zamonaviy kompleks iqtisodiy tashkil etish imkonsiz bo'lgan pul nafaqat muhim omil, balki u iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantiruvchi muhim omil hamdir. Biz quyida iqtisodiy rivojlanish jarayonida pulning ahamiyatini muhokama qilamiz. Iqtisodiyotda bugungi kunda pul bir nechta funksiyalarni bajaradi. Pul boshqa qiymatlar o'lchanadigan qiymat standarti bo'lib xizmat qiladi. Pul - bu qiymat ombori, ya'ni boylikni saqlash vositasi. Bu kechiktirilgan to'lovlar

uchun standart bo‘lib xizmat qiladi. Biroq, pulni boshqa tovarlardan ajratib turadigan eng muhim vazifasi ayirboshlash vositasi bo‘lib xizmat qilishidir. Ya'ni, pul tovarlar va xizmatlar uchun to‘lov vositasidir. Aynan shu puldan foydalanish pul iqtisodiyotini barter iqtisodiyotidan ajratib turadi. Monetar iqtisodiyot - bu tovarlar pulga sotiladigan va pul tovarlarni sotib olishga sarflanadigan iqtisodiyotdir. Pul samaradorlik va iqtisodiy o‘shishga yordam beradi: Barter tizimi jismoniy shaxslar o‘rtasida tovar va xizmatlarni almashtirishda qiyinchiliklarga to‘la edi. Tovarlar va xizmatlarning oson almashinuvi bo‘lmagan taqdirda, barter tizimi mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy o‘shish uchun muhim omil bo‘lgan shaxslar o‘rtasida mehnat taqsimoti va ixtisoslashuviga to‘siq bo‘lib xizmat qildi. Bundan tashqari, iqtisodiy o‘shish jarayoni mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarishning kengayishiga va natijada odamlar daromadlarining o‘shishiga olib keladi. Natijada rivojlanayotgan iqtisodiyotda bitimlar hajmi oshadi. Bu iqtisodiy faoliyatning kengaytirilgan darajasida olib boriladigan operatsiyalarni moliyalashtirish uchun pulga talabni oshiradi. Shunday qilib, iqtisodiy o‘shish jarayoni iqtisodiy faoliyat darajasining oshishi talablariga javob beradigan yetarli miqdordagi pul mablag‘lari kelmasa tekshiruvda ushlab turiladi. Pul sarmoyani targ‘ib qiladi: Rivojlanish nuqtai nazaridan pulning yana bir muhim roli investitsiyalar hajmini hozirgi tejash darajasidan mustaqil bo‘lishida. Barter tizimida iste‘mol qilinmagan tovarlar mablag‘larni tejash bilan bir qatorda sarmoyani ham tashkil etadi. Ya'ni investitsiyalar joriy tejashdan farq qilmaydi. Hozirgi tejamkorlik qancha ko‘p bo‘lsa, sarmoyalar shuncha ko‘p bo‘ladi. Biroq, zamonaviy iqtisodiyotda bu shunday emas. Pulni tejaydigan uy xo‘jaliklari bo‘lsa, pulni asosiy vositalarga sarflaydigan firmalar. Shuning uchun investitsiya mablag‘larni tejashdan farq qilishi mumkin, chunki investitsiya faoliyati tejash harakatlaridan ajralib turadi. Bundan ham muhimi, pul iqtisodiyotiga sarmoya joriy tejash darajasidan oshib ketishi mumkin. Sarmoyalarning tejamkorlikdan oshib ketishi mumkin, chunki yangi pullar hukumat tomonidan valyuta ko‘rinishida yoki banklar tomonidan bank depozitlari shaklida yaratilishi mumkin va bu iqtisodiy rivojlanish maqsadi uchun muhimdir. Rivojlangan mamlakatlarda bo‘sh ishlab chiqarish quvvati mavjud bo‘lgan depressiya davrida hukumat yoki banklar tomonidan yangi pul mablag‘larini yaratish orqali investitsiyalarning ko‘payishi tovarlar va xizmatlarga umumiy talabning oshishiga olib keladi. Bunday paytlarda ortiqcha imkoniyatlar mavjudligi sababli tovar va xizmatlar taklifi elastik bo‘ladi. Shunday qilib, yaratilgan pul



mablag‘lari hisobidan investitsiyalar natijasida hosil bo‘lgan yalpi talabning ko‘payishi tovar va xizmatlar ishlab chiqarish hajmining kengayishiga olib keladi va shu bilan bandlik darajasining oshishiga olib keladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda yaratilgan pullar iqtisodiy rivojlanishni rivojlantirishda foydali rol o‘ynashi mumkin. Investitsiyalarni tezlashtirish yoki kapitalni shakllantirish orqali tez iqtisodiy rivojlanishga erishish mumkin. Ammo investitsiya stavkasini oshirish uchun qo‘shimcha resurslar talab qilinadi. Davlat qarzlari o‘z-o‘zidan rivojlanish uchun yetarli investitsiya manbalarini ta‘minlay olmaydi. Shuning uchun hukumat yangi pul yaratish orqali investitsiya qilinadigan resurslar hajmini hozirgi tejash darajasi asosida mumkin bo‘lgan hajmdan oshirishga harakat qilmoqda. Yangi yaratilgan mablag‘lar sanoat, shuningdek qishloq xo‘jaligi sohalarida ishlab chiqarish, daromad va ish bilan bandlikni ko‘payishiga olib keladigan investitsiya loyihalariga sarflanishi mumkin. Rivojlanayotgan mamlakatlarda pul taklifining har qanday o‘sishi narxlarning ko‘tarilishiga yoki inflyatsiya bosimining paydo bo‘lishiga olib keladi degan fikr keng tarqalgan. Biroq, bu har doim ham to‘g‘ri emas. Yangi yaratilgan pulning oqilona miqdori investitsiyalar darajasini oshirish orqali iqtisodiyotni rivojlantirishga yordam beradi. Rivojlanayotgan iqtisodiyotlarda ko‘plab tabiiy va inson resurslari ishlab chiqarish maqsadlarida ishlatilishi mumkin bo‘lgan to‘liq foydalanilmagan va ishlatilmagan. Agar yangi yaratilgan mablag‘lar kichik sug‘orish ishlari, melioratsiya sxemalari, toshqinlarga qarshi kurash va tuproq eroziyasiga qarshi choralar, tezkor daromad keltiradigan dachalar ishlab chiqarish kabi loyihalarga sarmoya kiritishga sarflansa, inflyatsiya xavfi bo‘lmaydi. Ushbu tezkor loyihalar qisqa vaqt ichida eng muhim iste‘mol tovarlari ishlab chiqarishni ko‘paytiradi va shuning uchun narxlarning ko‘tarilishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bundan tashqari, agar rivojlanish strategiyasi qishloq xo‘jaligi va boshqa ish haqi tovarlari ishlab chiqarish sohalariga ustuvor ahamiyat berilsa va barcha fermerlarni sug‘orishinshootlari, o‘g‘itlar va serhosil navlar bilan ta‘minlash bo‘yicha tashkiliy va institutsional islohotlar amalga oshirilsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini oshirish mumkin. Ushbu doirada, narxlarga katta salbiy ta‘sir ko‘rsatmasdan investitsiyalar darajasini oshirish uchun yangi pullar yaratish mumkin.

Monetizatsiya va iqtisodiy o‘shish: Bundan tashqari, ma‘lumki, kam rivojlangan mamlakatlarning aksariyati monetizatsiya qilinmagan (ya‘ni barter) katta sektorga ega, bu yerda ishlab chiqarish faqat yashash uchun mo‘ljallangan. Iqtisodiy



faoliyatning yashash xususiyatini buzish va shu tariqa iqtisodiy o‘shish uchun yangi kuchlarni yaratish uchun uni monetizatsiya qilish zarur. Pulni joriy etish uni zamonaviy sektor bilan aloqada bo‘lishiga yordam beradi. Yashash sektorining zamonaviy sektor bilan bu aloqasi uning ishlab chiqarish hajmining kengayishiga olib keladi. Zamonaviy sanoat sektori mahsulotlarini olish uchun, tirikchilik bilan shug‘ullanadigan odamlar o‘z mahsulotlarini oshirishga harakat qilishadi. Shunday qilib, mahsulotning o‘z-o‘zini iste‘mol qilishdan ortig‘i shu tarzda hosil bo‘ladi, bu oxir-oqibat ularning yashash xususiyatini buzadi. Uni rivojlanayotgan mamlakatlarning o‘tmish tarixi qo‘llab-quvvatlaydi. Mustamlakachilik davrida dehqonlar sektorining monetizatsiyasi import qilinadigan sanoat mahsulotlari evaziga eksportning kengayishiga olib keldi. Bu ularning qishloq xo‘jaligini rivojlanishini sezilarli darajada tezlashtirdi. Eksport uchun ishlab chiqarish hajmining o‘shishiga o‘xshab, qishloq xo‘jaligining yordamchi tarmog‘iga pulni kiritish va uning zamonaviy sektor bilan aloqasi, oziq-ovqat donlari va boshqa qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining xaridorgir bo‘lib ketishiga olib keladi, bu esa iqtisodiy rivojlanishning muhim omili hisoblanadi. Agar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarida narxlarning ko‘tarilishi, ehtimol, xuddi shunday bo‘lganidek, yaratilgan pul mablag‘lari hisobidan moliyalashtiriladigan investitsiyalarning ko‘payishi natijasida yuzaga kelsa, bu ko‘proq oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish va uni bozorga yetkazib berish uchun turtki bo‘lib xizmat qiladi. Qishloq xo‘jaligi daromadlarining o‘shishi sanoat mahsulotlariga talabni oshiradi va shuning uchun ularning o‘shishini tezlashtiradi. Bundan tashqari, tirikchilik sektorining monetizatsiyasi ham jamg‘arma hajmini oshirishga yordam beradi. Monetizatsiya ushbu sektorni tijorat va kooperativ banklari va sug‘urta kompaniyalari kabi moliya institutlari bilan aloqada bo‘lishiga olib keladi. Jamg‘arma foizlari evaziga ko‘proq daromad olish imkoniyatlari, hozirgi kundagi tirikchilik sohasidagi odamlarning mablag‘larini tejashga moyilligini oshiradi. Agar tegishli pul-kredit siyosati olib borilsa, unda barcha daromadlarini iste‘mol qilish yoki to‘plash o‘rniga, ular o‘zlarining bir qismini moliyaviy vositachilarga topshirishlari mumkin. Pul tizimi deganda mazkur mamlakatda pul muomalasini qonuniy va mutonosib ravishda tashkil qilishda qo‘llaniladigan uslublar mujmuasi tushuniladi. Tarixan Pul tizimining metall pul muomalasi va pul belgilari (qog‘oz pullar) muomalasi ko‘rinishlari bor. O‘z navbatida metall pul muomalasi tizimi bimetallizm va monometallizmga bo‘linadi.



Pul tizimi quyidagi asosiy elementlari o‘z ichiga oladi: Pul birligi - so‘m, rubl va boshqalar. Baho masshtabi- dastlab u pul birligining oltinga teng qismi sifatida, hozir jahon pullariga nisbati. Pulning turlari. Qiymatni o‘zida ifodalanishiga ko‘ra pullar ikki turga haqiqiy va haqiqiy pulni o‘rnini bosuvchi pullarga bo‘linadi. Haqiqiy pullar nominal qiymatini o‘zida ifodalovchi real qiymatga ega bo‘lgan metal pullar bo‘lib ular har xil shakllarda chiqarilgan. Qog‘oz pullar haqiqiy pullarning vakili bo‘lib pulning muomala funksiyasi rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan.

Umuman pullar quyidagi turlarga bo‘linadi. Qog‘oz pullar

1. Kredit pullar. Kredit pullar qog‘oz pullardan farq qilib ular bir vaqtni o‘zida qiymatni ifodalaydi va u kredit hujjat bo‘lib, kreditor va qarz oluvchi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatni aks ettiradi. Kredit pullarga davlat banki biletlar veksel, banknot, chek, kredit kartochkasi va boshqalar kiradi.

2. Tangalar. Asosan nikel va bronzadan tayyorlanadi. Tarixiy ma’lumotlarga ko‘ra birinchi tangalar bundan 26 asr oldin Lidiya va Xitoyda, VII asrlarda hozirgi Markaziy Osiyo davlatlarida, IX-X asrlarda Kiyev rusida zarb qilingan. Dastlab tangalar oltindan, keyinchalik ular boshqa metallda zarb qilingan.

3. Qog‘oz pullar tarixiy manbalarga ko‘ra XII-asrda Xitoyda, 700-yillarda kumush tangalar chiqarilgunga qadar Buxoro davlatida qog‘oz puldan foydalanilgan. Amerika va Yevropada qog‘oz pullar XVII-XVIII asrlarda chiqarilgan.

Emissiya tizimi - Bu muomaladagi bank biletleri, xazina biletleri, qog‘oz pullar va qimmatli qog‘ozlarni chiqarishdir. Buni Markaziy bank amalga oshiradi. Qimmatli qog‘ozlarni ularni emitentlari - davlat, banklar, hissadorlik jamiyatlari chiqaradi. Muomaladagi pul massasini tartibga soluvchi davlat muassasi- Markaziy bank.

Pul tizimining tarixan 2 turi mavjud:

Metall pullar tizimi.

Kredit va qog‘oz pullar tizimi.

Metal pullar tizimi bimetalizm (oltin va kumushni qonuniy tartibda umumiy ekvivalent ekanligi) va monometalizm (faqat ularni birini umumiy ekvivalentligi) turlariga bo‘linadi.

Muomaladagi pullarning asosiy qismini qog‘oz pullar tashkil qiladi. Qog‘oz



pullardan foydalanilishiga sabab:

a. Qimmatbaho metallar, xususan oltin tanga pullarni real va nominal qiymatlari oʻrtasidagi farqni vujudga kelishi. Masalan. 10 grammlik tanga foydalanilishi tufayli 7 grammga kelgan. Baʼzi mamlakatlarda pulni real va nominal qiymatlari toʻgʻri boʻlmagan qalbaki tangalarni chiqarilishi.

• v) Metal pullarni buzilishi, yoʻqolishi davlat xazinasiga qimmatga tushadi. Qogʻoz pulni chiqarish bunga nisbatan arzoniga tushadi. Rivojlangan mamlakatlarning pul tizimi quyidagi elementlarni oʻz ichiga oladi:

Pul birligi.

Valyuta kursini belgilovchi qoidalar.

Baho masshtabi.

Pul koʻrinishlari – kredit biletlari, qogʻoz pul va tanga.

Emissiya tizimi.

Davlat yoki kredit apparati.

Rivojlangan mamlakatlarning zamonaviy pul tizimi quyidagi xususiyatlarga ega:

Oltin almashilmaydigan, keyinchalik qogʻoz pul aylanadigan, kredit pullarga oʻtish.

• Pulni muomalaga nafaqat xoʻjaliklarni banklar tomonidan kreditlash, balki davlat xarajatlarini qoplash uchun chiqarish.

• Pul muomalasida naqd pulsiz aylanishning ustunligi

• Pul muomalasini davlat tomonidan tartibga solishning kuchayishi.

• Shu kabi rivojlanayotgan mamlakatlarning, hatto ayrim mamlakatlar pul tizimi oʻziga xos xususiyatlarga ega. Pul tizimining rivojlanish bosqichlari va ularga tavsif

Pul kashf etilguniga qadar odamlar (yaʼni turli jamiyat vakillari) mahsulotga mahsulot ayirboshlash usuli (barter)dan foydalanishgan va bu jamiyatdagi oʻzaro almashinuvga asoslangan savdoning eng birinchi va sodda shakli hisoblanadi. Lekin ikki tomonning istak va ehtiyojlar bir-biriga mos kelmasa, bu savdo usuli ish bermaydi. Pul ana shu cheklovni yengib oʻtish maqsadida muomalaga kiritilgan. Avvaliga odamlar ayirboshlash uchun bozorda xaridorgir boʻlgan arpa, kakao

donlari, makkajo‘xori, guruch va shunga o‘xshash boshqa oziq-ovqat mahsulotlaridan foydalanishgan. Keyinchalik savdoga oltin va kumush to‘lov birligi («bimetallizm») sifatida kirib kelgan va keng tarqalgan. Odatda ushbu ikki metall tangalar shaklida qo‘yilgan. Oltin ham, kumush ham uzoq muddat muomalada bo‘la olgani, ixcham va kamroq miqdorga osongina taqsimlanish xususiyatiga ega bo‘lganligi uchun jamiyatda juda ommalashgan. Shu xususiyatlari sabab, asrlar davomida oltin qiymat jamg‘aruvchi sifatida boylikni saqlashning qulay vositasi ham hisoblangan. Oltin miqdori cheklangan bo‘lib tabiiy ravishda qimmat, kumush esa oltindan arzon va miqdori ko‘p bo‘lgani uchun «likvid» (ya‘ni doimiy ravishda sotiluvchi va sotib olinuvchi, ya‘ni qisqa muddatda ko‘p marta qo‘ldan qo‘lga o‘tuvchi) pul birligi sanalgan va odatda kundalik savdo uchun foydalanilgan.

Qiymati va hajmi sabab ko‘pchilik foydalanuvchilar oltin tangalarini saqlashda zargarlarga ishonishgan, chunki eng xavfsiz saqlash tizimi zargarlarda bo‘lgan. Shunday qilib, bu xavfsiz joylar «pul omborlari»ga aylangan. Oltindan foydanuvchilar o‘rtasidagi o‘tkazmalarni osonlashtirish maqsadida zargarlar tomonidan oltin tilxatlari muomalaga kiritilgan. Vaqt o‘tishi bilan jamiyatda zargarlar tomonidan taqdim qilingan oltin guvohnomalar (sertifikatlar) oltin kabi qiymatga ega deya tan olingan. Shunday qilib, ushbu “ramziy pullar” pul rivojlanishining ikkinchi bosqichi sifatida namoyon bo‘lgan. Daromadlarini oshirish maqsadida zargarlar ularga saqlashga berilgan va vaqtincha foydalanilmayotgan oltinlarni odamlarga qarzga berishni boshlashgan va ular (ya‘ni zargarlar) asta sekin omonatchilar va qarzdorlar o‘rtasidagi vositachiga aylanishgan. Zargarlar qarzdorlardan foiz undirishar va o‘z omonatchilariga oltinlarini saqlashda davom etganliklari uchun kamroq foiz (omonat foizi) to‘lashardi. Har yili oltinning ozgina qismigina (hisob-kitoblarga ko‘ra, 15 foizga yaqini) omonatchilar tarafidan qaytarib olingan, katta qismi esa omborxonalarda saqlanishda davom etgan. Zargarlar esa yanada ko‘proq daromad olish maqsadida, o‘zlarida saqlanayotgan oltin miqdoridan ko‘ra ko‘proq miqdordagi oltin uchun qarz tilxatlari shaklidagi pattalar (kvitansiyalar) berishni boshlashgan. Buni, qog‘oz va kredit pullar yaratishning ilk namunasi deyish mumkin. Iqtisodiyotning qon tomiri hisoblanuvchi pul, doimiy muhokamalarning dolzarb mavzusi bo‘lib kelgan. Charxpalak suvsiz ishlamagani kabi iqtisodiyot ham pulsiz ishlamaydi. Pul deganda mahsulot va xizmatlari uchun to‘lov vositasi sifatida qabul qilingan narsa tushuniladi. Bugungi kunga kelib qog‘oz pullar butun dunyoda keng

tarqalgan to'lov vositasiga aylangan. Pulning eng muhim hisoblanuvchi uchta asosiy vazifasini tushunib olishga harakat qilamiz: Ayirboshlash (almashuv) vositasi (bu vazifasi mavjud bo'lmaganida barcha operatsiyalar barter ko'rinishida o'tkazilardi); Qiymat jamg'aruvchi (ya'ni boshqa ko'plab aktivlar singari u ham vaqt o'tishi bilan o'z qiymatini saqlab turadi, biroq pul boshqa aktivlarga qaraganda ko'proq likvidlikka ega);

Qiymat o'lchovi (barcha mahsulot va xizmatlarning qiymati pulda aks etadi. U mahsulot va xizmatlarning pulda aks etishida umumiy muvofiqlashtiruvchi birlik bo'lib xizmat qiladi).

Pulning bugungi kundagi holatga yetgunicha bo'lgan rivojlanish taraqqiyot bosqichlari (evolyutsiyasi):

Mahsulot (ko'rinishidagi) bosqichi: pul, qachonlardir mo'yna, arpa, guruch va keyinchalik oltin va kumush kabi qimmatli mahsulot buyumlar ko'rinishida mavjud bo'lgan;

Savdo mahsuloti pullari bosqichi: pul, bu bosqichda qog'oz pullarga aylangan, biroq bu pullar oltin bilan ta'minlangan va haqiqatan ham ularni istalgan vaqtda oltinga almashtirib olish mumkin bo'lgan;

Qog'oz pul bosqichi: qog'oz va elektron pullar hamma joyda tarqalgan, biroq bu pullar haddan tashqari qadsizlanib ketmasligi uchun ularni o'ta ko'p miqdorda bosib chiqarmaslik haqidagi hukumat va'dasidan tashqari hech narsa bilan mustahkamlanmagan.

O'zbekiston hududida dastlabki metall tangalarlar mil. avv. 6-asrda Doro I davrida zarb etilgan, og'irligi 8,4 g ni tashkil etgan "darik" deb nomlangan tilla tangalar, deb taxmin qilinadi. Mil. avv. 3-1-asrlarda va undan keyingi davrda zarb etilgan tangalar namunalari hozirgacha saqlanib qolgan. Ular jumlasiga Antiox I (mil. avv. 281-261 yillar), Yevtidem I (mil. avv. 235-200 yillar), Demetriy I (mil. avv. 200-185 yillar), Yevkratid I (mil. avv. 171-155 yillar), Mitridat II (mil. avv. 124-88 yillar) va Germey (mil. avv. 75-55 yillar) tangalari kiradi. 8-asrning o'rtalarida O'rta Osiyoda arablar hukmronligi boshlanganidan so'ng savdo muomalasini amalga oshirish uchun vazni 4,3 g bo'lgan oltin dinor, maosh va soliqlar to'lovi uchun vazni 2,8 g bo'lgan kumush dirhamlar va kundalik savdosotiq uchun mis tangalar - fuluslar zarb etilib, muomalaga chiqarilgan. Amir Temur davrida Samarqandda tangalar zarb etiladigan maxsus zarbxonalar tashkil etilgan, birinchi marta turkiy nom, ya'ni "tanga" deb atalgan, vazni 4,5-4,7 g bo'lgan kumush tangalar, vazni 2 g ni tashkil etgan oltin

dinorlar va vazni 1,8 g bo'lgan va kumushdan tayyorlangan mirilar zarb etila boshlagan.

Qog'oz pullar. Qog'oz pullar yuzaga kelishining quyidagi bosqichlarini keltirish mumkin:

1-bosqich — tangalarning uzoq vaqt muomalada bo'lishi, qo'ldan qo'lga o'tishi natijasida yemirilishi;

2-bosqich — tanganing metall tarkibining buzilishi. Davlat tomonidan ongli ravishda davlat xazinasiga tushumni oshirish maqsadida tangalarning metall (oltin, kumush) miqdorining kamaytirilishi. Bu bosqichda tanga tarkibining buzilishiga oltin, kumush va boshqa qimmatbaho metallarni qazib chiqarishning qiyinligi, ular zaxiralarining kamligi ham sabab bo'lgan;

3-bosqich — davlat tomonidan emission daromad olish maqsadida xazina biletlarining chiqarilishi.

Xitoyda bizning davrimizning 800-yillarida paydo bo'lgan. Metall tangalarni uzoq masofalarga tashish juda qiyin edi, shuning uchun hukumat qog'oz pullarni muomalaga chiqaradi. Savdogarlar tangalar bilan emas, balki "qattiq" pulga oson almashtirilgan maxsus sertifikatlar bilan to'lashni boshlashdi. Ushbu guvohnomalarda odamlar, daraxtlar, mansabdor shaxslar o'z imzolari va muhrlarini qo'yishgan. Qog'oz pullardan foydalanish juda oson. Tangalar bilan taqqoslaganda, ularni saqlash oson va hisob-kitoblar uchun qulay. Qog'oz pullar maxsus belgilar bilan himoyalangan, masalan, suv belgilari, turli xil ranglar sxemalari va boshqalar. Bu davlat pullarini himoya qilishdir. Bunday pulni soxtalashtirish juda qiyin. Qog'oz pullar ikkita funksiyaga ega: almashinuv vositasi va to'lov vositasi. Ularni oltinga almashtirish mumkin emas, shuning uchun ular muomaladan chiqmaydi. Ba'zida davlat naqd pul yetishmasligini boshdan kechirayotgani sababli qog'oz pullarni ko'proq chiqaradi. Ammo, agar siz mamlakatda tovar aylanishini hisobga olmasangiz, bu xavfli bo'lishi mumkin. Natijada qog'oz pul muomalada "qotib qoladi" va ularning qadrsizlanishi sodir bo'ladi. Shunday qilib, qog'oz pullarning mohiyati shundaki, ular davlat tomonidan chiqarilgan, oltinga almashtirilmagan va ma'lum qiymatga ega. Qadimgi qog'oz pullar qirralari yigirma-o'ttiz santimetr bo'lgan katta to'rtburchaklar shaklidagi choyshablar bo'lgan. Qog'oz pullarni G'arbga Xitoydan qaytayotgan sayohatchilar olib kelishgan. Oltin va qog'oz pullarning o'zaro nafliligi Kredit pulning bozordagi qadri faqat to'lov kafolati va qisman likvidlik va spekulyatsiya komponentlaridan tashkil topib, u tub qiymatga

ega emas. Odatda kredit pulni bir bo‘lak qog‘oz yoki elektron kiritilgan yozuv ko‘rinishida uchratish mumkin va ushbu qog‘oz yoki elektron yozuv faqatgina va‘da beruvchining kelajakda tovar yoki xizmat yetkazib berish uchun yozilgan kafolatini ifodalaydi xolos. Misol uchun bozor ishtirokchilaridan biri bozorga xaltalab bug‘doy ko‘tarib borishga erinib, bir tanishining qo‘liga kelasi yili senga 50 kg bug‘doy beraman degan ma‘nodagi kafolat xatini tutqazadi va undan bitta toychoq sotib oladi. Kafolat xatini bergan odamni orolda hamma yaxshi tanigani va u qarzlari hamma vaqt o‘z vaqtida qaytarishiga hamma ishonganligi sababli, bozorning boshqa ishtirokchilari bilan ham o‘zining kafolat xati vositasida savdo amalga oshira boshlaydi. Buning qulayligini ko‘rgan orolning boshqa obro‘li fuqarolari ham kafolat xatlari orqali savdo qilishni boshlashadi. Shu tariqa bozorda qog‘oz pullar (kafolat xatlari) bilan savdo qilish urfga aylanadi. Ko‘rib turganingizdek kredit pul tub qiymatga ega emas. Agarda kafolat xatining egasi qarzini to‘lashdan bosh tortadigan bo‘lsa, kredit pulning qadri faqat bir bo‘lak qog‘ozga teng bolib qoladi. Ishlab chiqarish va tovar aylanmaning rivojlanishi, metall pullarning yetishmasligi kredit munosabatlarning rivojlanishiga olib keladi. Tovlar va to‘lov aylanmaning ehtiyojini qoplash maqsadida muomalaga oltin, kumush tangalar bilan bir qatorda, kredit vositalari: chek, veksel, banknotalar chiqarilgan. Kredit pullar deb, kredit munosabatlar asosida yuzaga keluvchi, to‘lov vositasini bajaruvchi qiymat belgilariga aytiladi. Kredit pullar o‘zining mustaqil qiymatiga ega emas, chunki ularni yaratish uchun abstrakt zaruriy mehnat sarflanmaydi. Kredit pullar qog‘oz pullardan farq qilib, ular bir vaqtning o‘zida qiymatni ifodalaydi va u kredit hujjat bo‘lib, kreditor va qarz oluvchi o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatni aks ettiradi. Kredit pullarning asosiy turlaridan biri vekseldir. Veksel - bu qarzdorning (oddiy veksel) yoki kreditorning (o‘tkazma veksel - tratta) ko‘rsatilgan summani, ko‘rsatilgan vaqtda va joyda to‘lash to‘g‘risidagi yozma majburiyati hisoblanadi. Tijorat veksellarning odiy va o‘tkazma turlari mavjud. Undan tashqari, ma‘lum summani qarzga berish bilan bog‘liq bo‘lgan moliyaviy vekselar mavjud. Moliyaviy vekselning bir turi xazina veksellari bo‘lib, ularda davlat qarzdor sifatida ishtirok qiladi. Yana veksellarning o‘rtoqlik, bronza veksel turlari mavjud. Banknota — kredit pullarning yetakchi vakillaridan bo‘lib, Markaziy bank tomonidan, veksellarni hisobga olish yo‘li bilan chiqariladi. O‘tmishda banknota muddatsiz majburiyat bo‘lib, xohlagan vaqtda uni bankka topshirib, o‘rniga unda ko‘rsatilgan summaga oltin yoki kumush olish mumkin bo‘lgan.

Veksel banknotadan quyidagi xususiyatlari bilan farq qiladi:
-Veksel ma’lum muddatni o’zida ifodalaydi (3—6 oy muddatga ega bo’lgan veksel), Banknota ma’lum muddat bilan chegaralanmaydi;

-Veksel bo’yicha vekselni bergan tomon uni to’lashni kafolatlasa, banknotada uni to’lashni davlat (davlat banki) kafolatlaydi. Banknota qog’oz pullardan quyidagilar bilan farq qiladi:

-kelib chiqishi bo’yicha qog’oz pullar, asosan, muomala vositasi funksiyasini bajarish asosida, banknotalar to’lov vositasi funksiyasi asosida kelib chiqqan; - almashinuvi bo’yicha, banknotalar oldin oltin va kumushga almashtirilgan, qog’oz pullar esa metallarga hech qachon almashtirilmagan;

-emissiya qilinishi bo’yicha, qog’oz pullarning banknotalardan farqi bo’lgan (xazina biletlarini Moliya vazirligi, banknotalarni Markaziy bank chiqargan) va hokazo. Hozirgi zamon banknotalari, albatta, oltinga almashilmaydi. Lekin ular quyidagi yo’llar bilan pul muomalasiga kelib tushadi:

-xo’jaliklarni bank tomonidan kreditlash orqali berilgan kreditlarning bir qismi muomalaga kirib keladi;

-davlatni kreditlash. Ya’ni banknotalar davlatning qarz majburiyati sifatida muomalaga chiqadi;

-aktiv to’lov balansiga ega bo’lgan davlatlarda rasmiy valuta zaxiralarning o’sishi orqali va boshqalar.

Chek - veksel va banknotadan keyin paydo bo’lgan kredit vositasi hisoblanib, to’lovchining o’z bankiga uning schotidan mablag’ni oluvchining schotiga o’tkazib qo’yish to’g’risidagi buyrug’i. Birinchi cheklar taxminan 1683-yilda Angliyada qo’llanila boshlagan. Chekning quyidagi turlari mavjud:

1. Ismi yozilgan chek — bu chek bir kishi nomiga yoziladi va uni boshqaga berish mumkin emas.

2. Orderli chek — bir kishi nomiga yozilgan va uni indossament bo’yicha boshqa shaxsga berish mumkin.

3. Ko’rsatilganda to’lanishi lozim bo’lgan chek.

4. Hisob cheki — naqd pulsiz hisob-kitoblarda qo’llaniladigan chek.

5. Akseptlangan chek — bank chekni to’lash bo’yicha rozilik beradi va boshqalar. Chek yordamida bankdan naqd pul olish mumkin, u bilan to’lovlarni va boshqa hisob-kitoblarni amalga oshirish mumkin. Naqd va kredit pullarning xususiyatlari Elektron pullar - bu bank kartadagi yoki elektron hamyondagi pullar.

Elektron hamyonlardan bank kartasiga osongina pul o‘tkazishingiz mumkin va naqd pul berishingiz mumkin va aksincha, uni elektron hamyondan boshqa elektron hamyonga joylashtirish mumkin. Bugungi kunda elektron to‘lov tizimlarining mutlaq yetakchilari uchta to‘lov tizimidir:

- WebMoney;
- RBK Money;
- Yandex Money.

5. Virtual pul va kriptovalyutalar – hozirgi kunda paydo bo‘lib, shakllanib borayotgan ushbu bosqich, pul doim ham bir shakl va ko‘rinishda bo‘lmasligini ko‘rsatadi va bu jarayon aynan siz va bizning ko‘z o‘ngimizda yuz berayotganligi e‘tiborlidir. Qog‘oz pullar bu – ichki qiymatga ega bo‘lmagan har qanday pul birligi (valyuta). U faqatgina hukumatning bosib chiqaralayotgan (qog‘oz) pul birligi qonuniy to‘lov vositasi ekani haqidagi hujjat bayonoti bilan ta‘minlangan bo‘ladi va uning (pulning) qiymati ushbu hukumatga bo‘lgan ishonchga asoslanadi. Pul birligining qadri yo‘qolmasligi uchun hukumat uni qalbakilashtirilishidan himoya qilishi va bosib chiqarilgan pul hajmini nazorat qilishi va mas‘uliyat bilan boshqarishi lozim. Qog‘oz pullar bosib chiqarish bo‘yicha nazorat, hamda qisman zaxira to‘plash bilan bog‘liq bank amaliyotlari asosan ushbu vakolatga ega bo‘lgan Markaziy banklar tomonidan amalga oshiriladi. Har qanday iqtisodiyotdagi pullarning katta qismi banklar tomonidan bank omonatlari ko‘rinishida yaratilishini o‘qib hayron qolsangiz kerak. Gap shundaki, banklar har safar kredit berganida yangi pullar hosil bo‘ladi. 2014 yilning mart oyida Angliya banki “Zamonaviy iqtisodiyotda pullarning yaratilishi” nomli hisobotini chiqardi. Unda quyidagi fikr bayon etilgan: “Har safar, yirik tijorat banklari yangi kredit (qarz) berganida bank omonatlari ko‘rinishidagi pullarni yaratadi”. Agar hukumat ko‘proq pul bosib chiqarishga qaror qilsa, iqtisodiyotda pul ko‘payadi. Bunda mahsulotning bozordagi qiymati o‘zgarmaydi, ammo pul birligining xarid qobiliyati pasayadi, ya‘ni bozordagi o‘sha-o‘sha mahsulot uchun ko‘proq pul to‘lash kerak bo‘ladi, bu esa pulning qadrsizlanishi (inflyatsiya)ni keltirib chiqaradi. Oddiy iqtisodiy sharoitda pul hajmi mahsulot ishlab chiqarishga qaraganda tezroq o‘sganida pul qadrsizlanadi, ammo bu biroz sodda tasavvur. Pul hajmi asosan yangi qarzar paydo bo‘lishi hisobiga o‘sadi, bu esa oxir oqibat aktivlarning narxi pufak kabi shishishiga olib boradi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi Vengriyada yuz bergan kuchli pul qadrsizlanishini misli ko‘rilmagan giperinflyatsiya deyish mumkin. O‘shanda (1946



yilning iyul oyi) 41,900,000,000,000,000% pul qadrsizlanish ko'rsatkichi qayd etilgan, bu esa narxlar har 15,3 soatda ikki baravar oshgan degani (istasangiz, Zimbabvedagi 500 milliard foizlik haddan tashqari kuchli inflyatsiya haqida ham o'qishingiz mumkin). Agar qog'oz pul birliklari hech qanday qadrga va ichki qiymatga ega bo'lmasa, unda nima uchun ular butun dunyoda qabul qilingan? Qog'oz pul birliklari halihanuz asosiy ikki sabab bilan muomalada qolmoqda:

- pulning qiymati uni muomalaga chiqaruvchi davlat (emitent)ga bo'lgan ishonchgagina bog'liq, bu esa davlatdan biror bir qo'shimcha xarajat yoki majburiyat talab qilmaydi;
- qog'oz pullarni muomalaga chiqarish oson va qulay.

Naqd pul aylanishi va uning xususiyatlari Ma'lumki, kengaytirilgan takror ishlab chiqarish bosqichlari pullik munosabatlar orqali amalga oshadi. Ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan resurslarni sotib olish, ularni ishlab chiqarish jarayonida foydalanish va yetishtirilgan mahsulotlarni sotish jarayoni odatda korxonalar va tashkilotlar o'rtasida olib boriladigan pullik munosabatlarga bog'liq. Korxonalar, tashkilotlar, muassasalar o'rtasidagi va xo'jaliklarni o'z xodimlari bilan bo'ladigan hisob – kitob munosabatlari naqd pullik va naqd pulsiz shaklda olib boriladi. Naqd pullik hisob – kitoblarga kelganda naqd pulning harakati bankdan boshlanadi. Naqd pul bankdan chiqgach korxonalar va tashkilotlar kassasi orqali aholi qo'lga o'tadi. Oldi – sotdi va to'lov harakatlari bajarilgach u yana bankga qaytadi. Mobil va elektron pullar 21 asrga kelib pulning ikki ilg'or ko'rinishi ommalashdi: mobil to'lovlar va kriptovalyutalar. Mobil to'lovlar orqali odatda smartfon yoki planshetdagi ilovalar orqali mahsulot va xizmatlar uchun pul to'lash yoki boshqa odamlarga pul o'tkazmalarini osonlik bilan amalga oshirish mumkin. Dunyoda Apple Pay, AliPay kabi xizmatlar, O'zbekistonda esa PayMe, Click kabi mobil to'lov ilovalari tadbirkor va xaridorlar o'rtasidagi muhim bo'g'inga aylanib bormoqda.

Elektron pullar kompyuterlarda yozilgan raqamlardir.

Dunyodagi eng yirik pul amaliyotlari shu raqamlarni bir hisobdan boshqa bir hisobga ko'chirish orqali amalga oshiriladi. Kriptovalyuta Virtual valyutalar orasida eng mashhuri 2009 yilda Satoshi Nakamoto taxallusli odam yaratgan deya hisoblanadigan Bitkoindir. Kriptovalyutalar jismoniy shaklga ega emas. Moliyachi mutaxassislar, kriptovalyutalarni quyidagi jihatlarga ko'ra boshqa pullardan afzal

deb hisoblashadi: - ular bilan turli amaliyotlarni bajarish arzonroq;

- xavfsizlik va maxfiylikni ta'minlash osonroq;
- moliyaviy mustaqillik talablariga javob beradi;
- amaliyotlarni tezroq o'tkazish mumkin;
- xalqaro to'lovlarni amalga oshirish yengilroq (davlatlararo to'lovlar tez va arzonroq amalga oshiriladi);

Umuman, pul o'z taraqqiyotida quyidagi 4 bosqich va 4 shaklga ega bo'lgan:

Tovar shaklida - “qo'yma” asrimizdan oldingi VII asrgacha

Tanga pullar – “tanga” asrimizdan oldingi VII-XIX asrlar

Qog'oz pullar – “banknota” XIX-XX asrlar

Elektron pullar – “kartochka” XX asr o'rtalaridan

Shuni ta'kidlash lozimki uzoq yillar davomida qimmatli metallar pul vazifasini bajargan va uning asosiy sabablari bo'lib:

Ularni qiymati yuqori, hajmi kichik.

Ular bo'linuvchan, ular bo'linganda sifatini yo'qotmaydi.

Ularning yaxshi saqlanishi (masalan, ko'mganda ham).

Ularni olib yurish qulay

Bir og'irlikdagi oltin bir-biridan deyarli farq qilmaydi (bir turdagi mo'yna birbiridan nimasi bilandir farq qilinadi) va boshqalar.

Ayrim manbalarga ko'ra (“Ekonomicheskaya teoriya” pod. red. V. I. Vilyapina, Dobrinina A.I. Moskva. 2001 y str.141-166) dastlabki qog'oz pullar XII-asrda Xitoyda, 1571 yilda Fransiyada, 1690 yilda AQSh da, XVIII- asrda Yekaterina II davrida Rossiyada paydo bo'lgan. Qog'oz pullar muomalasini tashkil etishda Djon Lo (Fransiya 1710-1720 yillar), Dubasov I.I (1897-1987 yillar Rossiya) kabi ayrim shaxslar faoliyatini qayd etish lozim. Djon Lo duelda qatnashgani uchun London turmasidan qochib Gollandiyada, keyin Italiyada yashab ancha boylik ortirgan va 1710 yilda Fransiya davlat byudjeti daromadini oshirish bo'yicha hukumatga qog'oz pullar chiqarish bo'yicha taklif bilan chiqqan. O'sha paytda Fransiya Moliya Vaziri bo'lgan Djon Lo 1720 yilda pulni qadrsizlangani tufayli Fransiyani tark etadi. 1716-1720 yillardagi qog'oz pullar bo'yicha Djon Loni “Mashinnik i proroka” deyilsada, u Yevropa xalqini qog'oz pullarni ajoyib imkoniyatlaridan voqif etdi. Pul tizimining tarkibiy qismlari va elementlari. Pul aylanishi, uning mohiyati va tarkibiy qismlari Pul aylanishi – bu naqd pullik va naqd pulsizlik olib boriladigan

hisob – kitoblarning yig‘indisidir. Pul aylanishi asosan ikki belgiga: Jami ijtimoiy mahsulot ishlab chiqarish Pulni funksiyalariga ko‘ra tarkibiy qismlarga bo‘lish mumkin Jami ijtimoiy mahsulotni ishlab chiqarish jarayoni bilan bog‘liq holda pul aylanishi: tovarlarni ishlab chiqarish va sotish, kapital qurilish bilan bog‘liq aylanishga, hamda tovar va ularning harakati bilan bog‘liq bo‘lmagan aylanishga bo‘linadi. Tovar ishlab chiqarish va sotish jarayonidagi pul aylanishiga ishlab chiqarishga tegishli ishlab chiqarish vositalarini sotib olish, mahsulotni sotish, tegishli tashkilotlar bilan hisob - kitoblar olib borish kiradi, ikkinchisiga kapital qurilish va ta‘minlash sohasidagi hisob – kitoblar kiradi. Tovar va ularni harakati bilan bog‘liq bo‘lmagan aylanishga milliy daromadni taqsimlash va qayta taqsimlash bilan bog‘liq to‘lovlar va boshqa tovar harakati bilan bog‘liq bo‘lmagan to‘lovlar kiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Iqtisodiyot asoslari (M.Mahkamova, I.Masteyeva, N.Yuldasheva)
2. Iqtisodiyot nazariyasi (A.O‘lmasov, M.Sharifxo‘jayev)
3. Iqtisodiyot nazariyasi (A.Qodirov)
4. Iqtisodiyot nazariyasi (D.Tojiboyeva)
5. Iqtisodiyot nazariyasi (N.Beknozov)
6. Iqtisodiyot nazariyasi (Sh.Shodmonov, U.G‘afurov)
7. Iqtisodiyot nazariyasi (Yu.Yo‘ldosehv)
8. Iqtisodiyot nazariyasi. 2-kitob (D.Tojiboyev)
9. Iqtisodiyot va tadbirkorlik (U.Inoyatov, S.Ahmedov, R.Nurimbetov)

Research Science and Innovation House

**To‘rtoyoqlilar yoki quruqlikda yashovchi umurtqalilar (Tetrapodalilar)
katta sinfining biosferadagi morfologik va ekologik o‘rni**

**Andijon Davlat Pedagogika Instituti Biologiya yo‘nalishi 2- bosqich
talabalari**

Turdialiyeva Namuna Turg‘unali Qizi

Whsuudheheej@gmail.com

Yigitaliyeva Gulhayo Murotali Qizi

Yigitaliyevagulhayo0@gmail.com

Toshmatova Gulyora Muxitdin Qizi

toshmatovagulyora24@mail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada xordalilar tipi umurtqalilar kenja tipining to‘rtoyoqlilar katta sinfi haqida bayon qilinadi. Ular, asosan, to‘rt oyoqlab yurishi bilan harakterlidir. Quruqlikda o‘pkasi bilan nafas oladi. Sezgi organlari yaxshi taraqqiy etgan. To‘rtoyoqlilarga kelib, nerv sistemasida yarimsharlar, miyachada burmalar va yarimsharlarda bo‘rtmalar paydo bo‘lgan. Sezgi organlarida o‘rta, tashqi quloqlar va quloq suprasi hosil bo‘ladi. Ularda jinsiy demorfizm va nasliga g‘amxorlik qilish rivojlangan. Tayanch- harakat sistemasida qovurg‘a, to‘sh, o‘mrov rivojlanib, ko‘krak qafasini hosil qiladi(baqadan tashqari). Shunday qilib to‘rtoyoqli umurtqali hayvonlarning morfologik va ekologik xilma-xilligi ularning butun biosferani egallab olganligi natijasida yuzaga keladi.

Kalit so‘zlar: to‘rtoyoqlilar, respirator, visseral, neopallum, suvda va quruqlikda yashovchilar, sudralib yuruvchilar, qushlar, sut emizuvchilar.

Abstract: This article describes the large class of tetrapods of the subtype of vertebrates of the chordate type. They are characterized by walking on all fours. He breathes with his lungs on land. Sense organs are well developed. By the time of quadrupeds, hemispheres appeared in the nervous system, folds in the brain, and bulges in the hemispheres. Sensory organs include middle, outer ears and auricle. They have developed sexual demorphism and care for offspring. Ribs, sternum, and spine develop in the locomotor system and form the chest (except for the frog). Thus, morphological and ecological diversity of four-legged vertebrates occurs as a result of their occupation of the entire biosphere.



Keywords: tetrapods, respiratory, visceral, neopallum, aquatic and terrestrial, reptiles, birds, mammals

Аннотация: В данной статье описан большой класс четвероногих подтипа позвоночных хордовых. Для них характерно хождение на четвереньках. На суше он дышит легкими. Органы чувств развиты хорошо. Ко времени четвероногих в нервной системе появились полушария, складки в мозгу, утолщения в полушариях. К органам чувств относятся среднее, наружное ухо и ушная раковина. У них развит половой деморфизм и забота о потомстве. Ребра, грудина и позвоночник развиваются в опорно-двигательном аппарате и образуют грудную клетку (кроме лягушки). Таким образом, морфологическое и экологическое разнообразие четвероногих позвоночных возникает в результате заселения ими всей биосферы.

Ключевые слова: четвероногие, дыхательные, висцеральные, неопаллумы, водные и наземные, рептилии, птицы, млекопитающие.

To‘rtoyoqlilar katta sinfiga kiruvchi vakillar hayotining ko‘p qismi quruqlikda o‘tadi. Ayrim vakillarining butun hayoti yoki hayotining ma‘lum davri suv bilan bog‘liq bo‘ladi. Bular qatoriga suvda hamda quruqlikda yashovchilar sinfi vakillari, qushlar sinfidan pingvinlar va sutemizuvchilar sinfidan kitsimonlar, kurakoyoqlilar vakillari kiradi. To‘rtoyoqli hayvonlar katta sinfi evolutsiya natijasida rivojlangan va 4 ta sinflarga ajralgan bular:

1. Suvda va quruqlikda yashovchilar (Amphibia),
2. Sudralib yuruvchilar (Reptilia)
3. Qushlar (Aves)
4. Sutemizuvchilar (Mammalia) sinflariga bo‘linadi.

To‘rtoyoqlilar katta sinfi- to‘rt oyoqlab yurishi qo‘l-oyoqning erkin va kamar suyaklari rivojlanganligi bilan ajralib turadi. To‘rtoyoqli umurtqali hayvonlarda bosh miyaning nisbiy o‘lchami oshadi va uning bo‘limlari to‘liq bir-biridan ajralib boradi. Sezish organlari havo muhitida ishlashga moslashib boradi. Burun bo‘shlig‘ida hidlov va respirator (rangdan tozalovchi) bo‘limlar paydo bo‘ladi. Dastlab ichki quloq – baliqlarda paydo bo‘lgan bo‘lsa, o‘rta quloq va tashqi quloq to‘rtoyoqlilarda paydo bo‘ladi. Ko‘zlar ham murakkablashadi. Ya‘ni ko‘z qovoqlari paydo bo‘ladi, ko‘z gavhari va shoh pardaning shakli o‘zgaradi, yon chiziq ko‘pchiligida yo‘qolib ketadi, teridagi bezlar ko‘p hujayrali bo‘ladi.

Barcha to‘rtoyoqlilar o‘pka bilan nafas oladi. Ikkita qon aylanish doirasiga ega. Ikki juft harakat organlari ko‘p richaglar shaklida besh barmoqli bo‘ladi. Richaklar oyoqlarni faqat tanaga nisbatan emas balki oyoqlarning ayrim qismlariga nisbatan harakat qilishga imkon beradi.

Suvda va quruqlikda yashovchilar. Amfibiyalar eng sodda tuzilgan quruqlikda yashovchi umurtqalilar. Tuxumlari tashqi muhitda (suvda) urug‘lanadi. Lichinkasi suvda rivojlanadi, metamorfoz orqali voyaga yetadi. Ana shu davrda lichinkaning jabrasi o‘pka bilan almashinadi, ikki juft quruqlikda harakatlanish organi besh barmoqli oyoqlari paydo bo‘ladi, qon aylanish va sezgi organlari sistemasida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. Shuning bilan birga amfibiyalarning quruqlikda yashashga moslanish belgilari uncha yaxshi rivojlanmagan. O‘pkasi kuchsiz rivojlanganligi tufayli terisi ham nafas olishda ishtirok yetadi. Uch kamerali yuragi qonni arteriya va vena qoniga ajratishga imkon bermaganligi tufayli ko‘pchilik tomirlarida aralash qon oqadi. Harakat organlari kuchsiz rivojlanganligidan tanasini yerdan ko‘tarib turolmaydi. Terisi muhim nafas olish organi hamdir. Baqaning terisi boshidan oyog‘igacha gavdaga yopishmagan bo‘ladi, shu joylarda limfa bilan to‘ldirilgan bo‘shliqlar bo‘ladi.

Skeleti umurtqa pog‘onasi, bosh skeleti, erkin oyoqlar skeleti va ularning kamar skeletidan tashkil topgan. Umurtqa pog‘onasi bo‘yin tana, dumg‘aza va dum umurtqalariga bo‘linadi.

Miya qutisining ko‘p qismi tog‘ay holicha qolib ketadi, ensa qismida faqat ikkita yon ensa suyaklar bo‘ladi. Eshitish bo‘limida bir juft quloq suyaklari taraqqiy etadi. Ko‘z kosasining oldingi qismida toq ponasimon hidlov suyagi bo‘ladi. Miya qutisining qoplovchi suyaklariga bir-biriga qo‘shilib ketgan tepa-peshonasuyagi, burun suyagi, bosh skeletining keyingi tomonidan o‘rab turuvchi tangacha suyaklari va miya qutisining tagini hosil qilgan parasfenoid va juft dimog‘ suyaklari kiradi. Visseral skeletining tanglay va qanotsimon suyaklari ham bosh skeletini hosil qilishda ishtirok etadi.

Sezgi organlari progressiv taraqqiy etgan. Amfibiyalarda ichki quloq murakkablashadi va o‘rta quloq bo‘shlig‘i hosil bo‘ladi. O‘rta quloq tashqi tomondan

nog‘orapardabilano‘ralgan. Ko‘zningshoxpardasibo‘rtibchiqqan,ko‘zgavharilinzasi



on shaklga ega. Ko‘z qovoqlari ko‘zini himoya qiladi. Hid bilish organi tashqi va ichki burun teshiklaridan iborat. Suvda yashovchi itbaliqlarning yon chizig‘i organi bo‘ladi. Baqalarning terisi orqali 51 foiz kislorod olinadi va 86 foiz karbonat angidrid gazi chiqariladi. Nafas yo‘llari tashqi burun teshiklari (xoanalari), hiqildoq — traxeya kamerasi va o‘pkadir. Ayirish organlari voyaga yetgan baqalarda tana buyrak mezonefrosdan iborat. Buyraklardan bir juft siydik yo‘li chiqadi. Siydik pufagi qisqarganda siydik kloakaga chiqariladi.

Suvda hamda quruqlikda yashovchilar ayrim jinsli. Erkaklarida juft urug‘donbo‘lsa-da, urug‘ chiqarish yo‘llari yo‘q. Urug‘ kanali buyrakning oldingi qismi orqali o‘tib, Volf kanaliga quyiladi. Shunday qilib, Volf kanali ham siydik yo‘li, ham urug‘ yo‘li vazifasini bajaradi. Volf kanali kloakaga ochilishdan oldin kengayib, urug‘ pufagini hosil qiladi. Baqalarning urug‘lanishi tashqi bo‘lib, tuxumlaridan lichinka itbaliq chiqadi. Lichinkalari faqat suvda yashaydi, Jabra bilan nafas oladi. Qon aylanish sistemasi baliqlarning qon aylanish sistemasiga o‘xshash. Yon chiziq organi bo‘lib, dum suzgich qanoti yordamida suzadi. Lichinka metamorfozga uchrashi natijasida, uning organlari Keskin o‘zgaradi. Besh barmoqli oyoqlar hosil bo‘ladi, yon chiziq organlari yo‘qolib ketadi. Jabralari yo‘qolib, o‘pka rivojlanadi.

Suvda hamda quruqlikda yashovchilar quruqlikda yashovchi umurtqali hayvonlarning kam sonli sinfi bo‘lib, o‘z ichiga 2500 ga yaqin turni oladi. O‘zbekistonda suvda ham quruqlikda yashovchilarning 3ta turi uchraydi. Ular: Oyoqsizlar (Apoda), Dumlilar (Caudata) va Dumsizlar (Ecaudata) turkumlariga bo‘linadi

Sudralib yuruvchilar. Sudralib yuruvchilar qushlar va sut emizuvchilar singari quruqlikda hayot kechiradi. Ayrim vakillari ikkilamchi suvda yashashga o‘tgan. Bu uchta sinf vakillarining tuxumi ichki urug‘lanadi va quruqlikda ko‘payadi. Faqat ayrim sutemizuvchilar (kitsimonlar) suvda urchiydi. Ularning embryonal rivojlanishida murtak parda paydo bo‘ladi. Sudralib yuruvchilar yuksak umurtqalilarning yoki amniotalarning birinchi tuban sinfidir. Gavdasida yaxshi ajralib turgan bo‘yin bo‘limi bor. Aksariyat ko‘pchiligida yaxshi rivojlangan besh barmoqli oyoqlar bo‘ladi.

Sudralib yuruvchilarning teri qoplamlari amfibiyalarning teri qoplamlaridan keskin farq qiladi va havo muhitida yashashga moslashgan belgilarga ega. Epidermisining tashqi qavati shox tuzilmalar tangacha va qalqonchalar bilan

qoplangan. Bularning shakli, soni va joylashishi sudralib yuruvchilarni aniqlashda katta rol o'ynaydi.

Skeleti deyarli to'liq suyakdan tashkil topgan bo'lib, bosh skeleti, umurtqa pog'onasi skeleti, erkin oyoqlar va ularning kamar skeletlariga bo'linadi. Umurtqa pog'onasi 4 ta bo'limga bo'linadi: bo'yin, ko'krak - bel, dumg'aza va dum. Umurtqalarning tanasi oldingi tomon dan botiq, keyingi tomondan bo'rtib chiqqan (prosel) bo'ladi. Kaltakesaklarning bo'yin bo'limida 8 ta umurtqa bo'lib ulardan oldingi 2 ta umurtqasi hamma amniotalardagi singari o'ziga xos tarzda tuzilgan.

Muskul sistemasi yaxshi takomillashgan bo'lib, muskullari metamer joylashishi yo'qolib ketadi. Hamma amniotalardagi singari qovurg'alararo muskul yuzaga keladi va bu muskul nafas olish mexanizmida katta ro'l o'ynaydi.

Nerv sistemasi va sezgi organlari amfibiyalarga nisbatan yaxshi rivojlangan. Oldingi miya yarimshari nisbatan katta va qopqog'ida kulrang modda bor. Oraliq miya ustki tomondan ko'rinmaydi. Kaltakesaklarda yaxshi rivojlangan va tuzilishi jihatidan ko'zga o'xshagan tepa organi bo'ladi. Bu organ yorug'likni sezadi. Miyacha kuchli rivojlangan. Hid bilish organining o'rta qismida hidlov yo'lining pastki nafas va ustki hidlov bo'limlari bo'lganligi xarakterlidir. Eshituv organi ichki va o'rta quloqlardan iborat. Ko'zlarida harakatchan qovoqlari bo'ladi. Ko'zning oldingi burchagida uchinchiqovoqhambor. Nafas olish yo'llari ko'proq takomillashganligi bilan amfibiyalarning nafas olish yo'llaridan farq qiladi. Hiqildoq teshigi traxeyaga ochiladi. Traxeya talaygina tog'ay halqalaridan iborat bo'lib, oxirida ikkita bronxga bo'linadi. Bronxlar xaltasimon o'pkalarga kiradi. Nafas olish akti ko'krak qafasining kengayishi va torayishi yo'li bilan sodir bo'ladi, bu qobirg'alarning harakati tufayli yuzaga keladi. Sudralib yuruvchilar, boshqa amniotalardagi singari teri orqali nafas olmaydi. Yuragi 3 kamerali, yurak qorinchasi o'rtasidan parda bilan 2 qismga bo'linadi. Lekin parda bo'lma va qorincha orasidagi to'siqqa yetib bormaydi. Arterial sistemasida o'zgarishlar yuz beradi.

